

**JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/04.06.2020.Fil.113.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

Qo'lyozma huquqida

821.512.133.09-31

KARIMOVA YULDUZ AKULOVNA

O'ZBEK ADABIYOTIDA BOBUR OBRAZI: TADRIJ VA TALQIN

10.00.02 – O'zbek adabiyoti

FILOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI

Ilmiy maslahatchi: filologiya fanlari doktori (DSc)

Suvon Meli

Jizzax – 2024

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. TARIXIY SHAXSNING MA’RIFIY TALQINI VA TADQIQI...16–76	
1.1. Tarixiy-adabiy manbalarda Bobur siymosi.....	16
1.2. “Shayboniynoma” dostonida davrning ijtimoiy tavsifi va muallif konsepsiyasi.....	37
1.3. “Shayboniynoma” dostonida Bobur Mirzo obrazining ziddiyatli talqini....	51
I bob yuzasidan xulosalar.....	75
II BOB. “BOBURNOMA”DA MUALLIF OBRAZI.....77–142	
2.1. “Boburnoma”da roviy-qahramon va muallif “men”i.....	77
2.2. “Boburnoma”da muallif obrazining zohiriy va botiniy qatlamlari.....	102
II bob yuzasidan xulosalar.....	141
III BOB. LIRIK VA LIRO-EPIK SHE’RIYATDA BOBUR OBRAZI TALQINI: TARIXIY FAKT, OBRAZLI IFODA VA POETIK RUH..143–207	
3.1. Zamonaviy dostonchiligimizda Bobur obrazining poetik tasviri.....	143
3.2. Lirik she’riyatda shoh va shoir paradigmasi, lirik fojelik va ruhoniylar manzaralar tajassumi.....	180
III bob yuzasidan xulosalar.....	206
IV BOB. KATTA VA O’RTA NASRDA BOBUR SIYMOSINING EPIK TASVIRI.....208–269	
4.1. “Yulduzli tunlar” hamda “Boburnoma”: qiyos va talqin.....	208
4.2. Xayriddin Sultonning “Saodat sohili” qissasida badiiy tragizm.....	235
4.3. “Saodat sohili”da tragik qahramon – Bobur Mirzo ruhoniylarining inkishofi.....	249
IV bob yuzasidan xulosalar.....	268
UMUMIY XULOSALAR.....270–273	
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....274–289	
ILOVALAR	

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiy-nazariy tafakkurida yakdil e'tirof etilgan badiiy adabiyotning ommaviylik xarakteri har bir millat tarixini badiiy ifoda etish asnosida o'tmishda yashab o'tgan buyuk insonlarning hayotini kitobxonlarning katta auditoriyasiga yaqinlashtirmoqda, yorqinroq tanishtirmoqda. Zotan, rus adibi L.N.Tolstoy ham: "Men hamma uchun yozaman" deganda badiiy adabiyotning ana shu xos xususiyatini urg'ulagan edi. O'tmishda yashab, faoliyat ko'rsatgan real shaxslar hayotining badiiy talqini insonning o'z-o'zini tanishida, tarixiy ildizlarini anglab yetishida, moziy, bugun va kelajak o'rtasida oqilona vorisiylikni saqlab qolishda uning ma'naviy-ruhiy ehtiyojmandligini ko'rsatadigan g'oyaviy-estetik jarayon ekanligi uchun ham dolzarb ahamiyatga ega.

Dunyodagi barcha xalqlar adabiyotida tarixda yashab o'tgan buyuk ajdodlarning betakror shaxsiyatini badiiy tadqiq etish, tarixiy manbalardagi fakt cho'g'ini alangaga aylantirish, asrlar davomida yashirin kechgan dramalar, real fojialarni mahorat bilan poetiklashtira olish individual ijodkorning tarixnavislik iste'dodini tayin etish bilan birga, muayyan millat adabiyotining badiiy tafakkur darajasini ham belgilaydi. Bugungi kunda dunyo adabiyotshunosligida buyuk tarixiy siymolar hayoti va faoliyati aks etgan badiiy asarlarda ustuvor mezon sifatida ilmiy-estetik konsepsiya va umumbashariy qadriyatlar talqini poetik aspektda o'rganilib, alohida dolzarblik kasb etmoqda.

Yurtimizda ilk bor o'tgan asrning 19-20-yillaridan boshlab jadid ijodkorlarimiz boburshunoslikka e'tibor qaratdilar. Mafkuraviy cheklovlar, mustabid tuzum tazyiqlariga qaramay jadidlardan keyin ham Bobur Mirzo ijodiga qiziqish, uning boy-adabiy ilmiy merosiga ehtiyoj, talab bir dam susaymadi. Garchi tendensioz xarakterda bo'lsa ham sho'ro davri boburshunosligi zahmatkash, nuktadon olimlarimizning izlanishlari, fidoyi mehnatlari tufayli juda katta, salmoqli yutuqlarni qo'lga kiritdi¹. Mustaqillik davri boburshunoslik sohasiga yanada rivoj berdi. "Zahiriddin Muhammad Boburning ilmiy-ijodiy merosini,

¹ Qarang: Hasanov, S. Zahiriddin Muhammad Bobur. – T.: O'zbekiston, 2011. – B. 19.

davlatchilik va sarkardalik faoliyatini keng o'rganish maqsadida xalqaro miqyosda ilmiy izlanishlar olib borish va ularning natijalarini e'lon qilish, yangi ilmiy, badiiy-publitsistik asarlar yaratish"² bugungi kun boburshunosligi va boburnomashunosligi oldidagi eng muhim vazifa hisoblanadi. Shu ma'noda inson hayotida axborot va bilimlar xilma-xilligining ahamiyati ortib borayotgan hozirgi globallashuv jarayonida kuchli, olmos iste'dodli shaxs, mumtoz tarixiy siymo sifatida umumjahon e'tirofiga sazovor bo'lgan Bobur Mirzo obrazini badiiy talqin etish, bu jozibador insonning badiiy qiyofasini davrlar, adabiy janrlar kesimidagi tadriji va takomilini o'rganish zarurati tug' ilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030 strategiyasi to'g'risida", O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari, 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3271-son "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida", 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2023-yil 25-yanvardagi PQ-20-son "Buyuk shoir va olim, mashhur davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 540 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 16-fevraldagi 124-F-son "O'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o'rganish va targ'ib qilishning dolzarb masalalari" mavzusidagi xalqaro konferensiyani o'tkazish to'g'risida"gi farmoyishi hamda sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-yanvardagi № PQ-20-son "Buyuk shoir va olim, mashhur davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 540 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi Qarori. <https://lex.uz/docs/-6371358>

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I.“Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy tadqiqotlar sharhi. Adabiyotda o‘tmish mavzusi, tarixiy shaxslar talqini, Bobur Mirzo kabi ko‘p qirrali buyuklar siymosini yaratishning o‘ziga xos jihatlari, obrazlar poetikasi, asoslangan ilmiy-estetik konsepsiya, Bobur Mirzoning qomusiy faoliyatini tizimli o‘rganish masalalari bo‘yicha dunyoning yetakchi ilmiy markazlari³, jumladan, Kioto universiteti (Yaponiya), Oksford universiteti, London universiteti (Angliya), Kaliforniya universiteti (AQSH), British Kolumbiya universiteti (Kanada), Rossiya fanlar akademiyasi, Moskva davlat universiteti (Rossiya), Jumhuriyat universiteti, Istanbul universiteti, Anqara universiteti, Kojaeli universiteti (Turkiya), Ozarbayjon Milliy ilmlar akademiyasi, Nizomiy Ganjaviy nomidagi Adabiyot instituti, Boku davlat universiteti (Ozarbayjon), Al-Forobiy nomidagi Qozog‘iston Milliy universiteti, Turkmaniston Fanlar Akademiyasi Milliy qo‘lyozmalari instituti (Turkmaniston), Xo‘jand davlat universiteti (Tojikiston), Jalolobod davlat universiteti (Qirg‘iziston)da tadqiqot olib borilmoqda.

Jahon adabiy-nazariy tafakkurida tarixiy mavzuga murojaat qilishning o‘ziga xos talablari, tarixiy shaxs talqini, Bobur Mirzo kabi shoh va shoir, umuman, ko‘p qirrali faoliyat kishisining ibratomuz hayotini badiiy tasvirlash, tarixiy davr qiyofasi yaratish, tarixiy shaxsni jonli badiiy tip darajasida tasvirlash masalalari, Bobur Mirzo biografiyasi, asarlari, xususan, “Boburnoma” turli aspektlarda o‘rganilib, quyidagi natijalar olingan: ijod psixologiyasi va falsafasi, yozuvchi dunyoqarashi va olamni badiiy aks ettirish prinsiplari ochib berilgan (Moskva

³ Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi (sayt havolalari): <https://www.kyoto-u.ac.jp/en> // <https://www.ox.ac.uk/> // <https://www.london.ac.uk/> // <https://www.universityofcalifornia.edu/> // <https://www.ubc.ca/> // <https://www.ras.ru/> // <https://msu.ru/> // <https://www.cumhuriyet.edu.tr/> // <https://www.istanbul.edu.tr/> // <https://www.ankara.edu.tr/> // <https://www.kocaeli.edu.tr/> // <https://science.gov.az/> // <https://literature.az/> // <http://bsu.edu.az/> // <https://www.kaznu.kz/RU> // <https://demgi.gov.tm/> // <https://www.hgu.tj/> // <https://jagu.edu.kg/>

davlat universiteti, V.Kojinov); yozuvchining ijod onlari, tarixiy poetika, estetik tafakkur va adabiy-tarixiy jarayon, dialog nazariyasi, muallif va qahramon, muallif obrazi masalalari ochib berilgan (Sankt-Peterburg universiteti, A.Veselovskiy, M.Baxtin, Astraxan davlat universiteti, Y.Kuznetsova); zamonaviylik va tarixiylik tamoyili, tarixni badiiy yaratish, tarixiy haqiqat va badiiy talqin, tarixiy romanlarda shaxs badiiy konsepsiyasi muammolari o'rganilgan (Moskva davlat universiteti hamda Maksim Gorkiy nomidagi Adabiyot instituti, G.Vinokur, N.Jilina); Bobur Mirzo hayoti va ijodi, adabiy-ilmiy merosi o'rganilib baho berilgan (Frankfurt Matbuot universiteti – Annamaris Shimmel, Minnesota universiteti – S.M.Berk, Istanbul Go'zal san'atlar universiteti – Tanju O'ral Seyhan); Bobur Mirzoning nosirlik mahorati, xarakter yaratish, tasvirdagi individual uslubi masalalari o'rganilgan (Kioto universiteti – Eyji Mano, Kojaeli universiteti – Munevver Tekjan, Turkiya Jumhuriyat universiteti – Bilal Yujel, Ozarbayjon Respublikasi AMEA Nizomiy nomidagi Adabiyot instituti – Olmos Ulvi, Nazim Ziyaddin o'g'li Sulaymonov, Qozog'iston davlat universiteti – Islom Jemeney, Tehron universiteti – Zabiulloh Mansuriy).

Dunyo adabiyotshunosligida o'zbek adabiyotini tadqiq etish, o'zbek adabiyotida o'tmish mavzusida yaratilgan asarlar, tarixiy shaxslarni badiiy talqin etish, tarixning qadimiy qatlamlarini qayta badiiy yaratishga doir ilmiy-nazariy muammolar bo'yicha quyidagi: tarixiy asarlarda tasvir me'yorini saqlash, o'tmishni badiiy idrok etishda yozuvchi taxayyuli, psixologik tahlil va psixologik tasvir mushtarakligi, tarixiy va badiiy haqiqat uyg'unligi, tarixiy davr, o'tmishda o'tgan buyuklar hayotiga murojaat etishda yozuvchi konsepsiyasi, asarlar kompozitsiyasi, lingvopoetikasi, tarixiy davrning ijtimoiy-siyosiy xarakteristikasini yaratish unda tarixiy shaxs o'rnini badiiy yo'sinda tayin etish kabi yo'nalishlarda tadqiqot olib borilyapti.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Xorij va o'zbek adabiyotshunosligida tarixiy haqiqatni badiiy talqin etishdagi o'ziga xosliklar, tarixni badiiy tadqiq etish tamoyillari, tarixiy shaxs obrazini yaratish mezonlari, ijodkor mehnati, iste'dodining tabiati kabi masalalar o'rganilgan. O'zbek

adabiyotida Bobur obrazi yaratilgan asarlar izchil, tadrijiylik asosida maxsus o‘rganilmagan bo‘lsa-da, ularning muayyan qismi u yoki bu muammolar doirasida tahlilga tortilgan.

Bobur Mirzo obrazi ilk bor mumtoz adabiyotda Muhammad Solihning “Shayboniynoma” asarida yaratildi. Dostonda kitobxon Bobur Mirzo obrazi talqini orqali davr haqiqati, muhit, vaziyat manzarasi, tarixiy sharoitning shaxs hayoti, qismatiga ta’sirini kuzatadi. Doston tendensiozlik ruhida yaratilgan bo‘lishiga qaramay, unda 19 yoshli temuriyzodaning zukko, ma’rifatli, tadbirli, xalqni o‘z orqasidan ergashtira oladigan kuchga ega rahbar qiyofasini kashf etish mumkin.

Darhaqiqat, Bobur Mirzo merosi va shaxsini o‘rganish uning o‘zi yashagan davrdan boshlanib, ba’zi bir uzilishlar bo‘lishiga qaramay turli shakl va yo‘nalishlarda davom etib kelmoqda. (3-ilova)

Bobur Mirzoning ijtimoiy, siyosiy, ijodiy faoliyati olimlar, shoirlar, tarixchilarning asarlarida o‘z aksini topgan. E’tibor etish kerakki, Bobur obrazi, eng avvalo, “Boburnoma”ning o‘zida yaratilgan. Xondamirning “Habib us-siyar”, Hofiz Tanish al-Buxoriyning “Abdullanoma” (“Sharafnomayi shohiy”), Mirzo Muhammad Haydarning “Tarixi Rashidiy”, Muhammadyor ibn Arab Qatag‘anning “Musaxxir al-bilod”, Hasanxoja Nisoriyning “Muzakkiri ahbob” asarlari⁴da Bobur Mirzoning shoh, sarkarda, fotih, ayrimlarida shoir siymosi yoritilgan. O‘zbek xalq tarixiy eposining mumtoz namunalari “Shayboniixon” (Muhammadqul Jomurot o‘g‘li Po‘lkandan yozib olingan), “Oychinor” (Qodir baxshi Rahim o‘g‘lidan yozib olingan) dostonlarida Bobur markaziy qahramonlardan biri sifatida asar konsepsiyasida muhim o‘rin tutadi.

Bobur Mirzoning adabiy-ilmiy merosiga, shaxsiyatiga qiziqish jadid namoyandalari: A.Avloniy, A.Fitrat, A.Qodiriy, Cho‘lpon ijodida ham kuzatiladi.

⁴Xondamir, F. Ҳабиб ус-сияр фи ахбори афроди Башар. –Т.: – ЎЗБЕКИСТОН, 2013; Ҳофиз Таниш ал-Бухорий. Абдуллонома. /Таржимон: Содиқ Мирзаев. – Т.: Шарқ, 1999. – 416 б.; Мирзо Муҳаммад Ҳайдар Аёзий. Тарихи Рашидий. – Т.: 1999. – 709 б.; Муҳаммадёр ибн Араб Қатаған. Мусаххир ал-билод. Форс тилидан таржима, изоҳ ва кўрсаткичлар муаллифлари: Исмоил Бекжонов, Дилором Сангирова. – Т.: Янги аср авлоди, 2009. – 130 б.; Нисорий, Ҳ. Музаққир ахбоб / Форс тилидан Исмоил Бекжон таржимаси. – Т.: Абдулла Қодирий номидаги Халқ мероси нашриёти, 1993. – 325 б.

Shuni alohida e'tirof etish kerakki, zamonaviy o'zbek adabiyotshunosligining tamal toshini qo'ygan Fitrat ayni paytda zamonaviy boburshunoslikka ham ilk izlanishlarni berdi. Jahon adabiyotshunosligi va tarixshunosligida tarixiy shaxslar, xususan, Bobur hayotini o'rganish yuzasidan U.Erskin, P.Sharma, A.Stil, A.Beverij singari xorij olimlarining ishlari ham keng miqyosda o'rganilgan. Bu ishlarda ko'proq Bobur biografiyasi va uning memuari "Boburnoma" asari tadqiq etilgan⁵. O'zbek adabiyotshunosligi, tilshunosligi, tarix va ijtimoiy soha yo'nalishlarida S.Azimjonova, H.Hasanov, Sh.Bobojonova, O.Husanboyev, V.Abdullayev, A.Qayumov, B.Valixo'jayev, V.Zohidov, V.Rahmonov, L.Qayumov, S.Hasanov, R.Vohidov, G'.Murodov singari olimlarning ishlarida Boburning hayoti, ijodi, lirik merosi, ijtimoiy faoliyati yoritilgan⁶. Bundan tashqari N.Rasulzoda, S.Jamolov, G'.Salomov, S.Hasanov, H.Boltaboyev, X.Nazarova, H.Qudratullayev, N.Otajonov, D.Salohiy, L.Xodjayeva, S.Shukurullayeva, F.Salimova, N.Jiyanova, A.Ibrohimov, M.Sobirov, R.Karimov, T.Yuldashev, Z.Xolmanova, K.Mullaxo'jayeva, M.Abdullayeva, D.Hoshimova, I.Sulaymonov, E.Hazratqulova, I.Kamolov kabi olimlarning tadqiqotlarida "Boburnoma" asari, uning tili, uslubi, Boburning adabiy-tanqidiy qarashlari, "Boburnoma"ning boshqa tillarga tarjimalari kabi masalalar o'rganilgan⁷.

⁵ Эрскин, У. Бобур Хиндистонда. – Т.: Чўлпон, 1995. – Б. 112. Шарма, Л. Бобурийлар салтанати. – Т.: Маънавият, 1998. – Б. 21. Stil A.S. King-Errant. New York F.A.Stokes company publishers, 1912. – 187 p. Beveridge, Annette Susannah (ed.). The Babur-nama in English (Memoirs of Babur). – London. 1922. – 880 p. The History of Humayun by Gulbadanbegim. Translation by A.S.Beveridge. – London, 1902. – 144 p.

⁶ Азимджанова, С.А. Государство Бабура в Кабуле и в Индии (социально-экономическая политика Бабура в первой трети XVI Века). Автореферат дисс... д-ра инс. наук. – Т.: 1969. – 60 с. Ҳасанов, Ҳ. З.М.Бобир ва унинг географик мероси. Номзодлик диссертацияси. – Т.: Бобожонова, Sh.Sh. Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг ижтимоий-ахлоқий қарашлари. Фалсафа фанлари номзоди...дисс. //Ўз ФА И.М.Мўминов номидаги фалсафа ва ҳуқуқи институти. – Т., 2002. – 165 б. (Библиогр. – Б 172). Хусанбоев, О. Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг сиёсий ва ҳуқуқий қарашлари. Юридик фан. номзоди... дисс. // ЎзР Адлия вазирлиги, Тошкент давлат юридик институти. – Т., 2006. – 132 б. Абдуллаев, В. Бобурваунинг замондошлари ижодини ўрганиш масалалари. – Самарқанд: СамДУ, 1983. Валихўжаев Б. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. – Т.: Фан, 1978. Зоҳидов В. Бобурнинг фаолияти ва ижодий мероси. – Т.: Шарқ юлдузи, 1968. Раҳмонов В. Заҳириддин Муҳаммад исми ҳақида. 6-сон. – Т.: Тил ва адабиёт таълими, 2000. Қайумов, Л. Бобур. 3-4 сонлар. – Т.: Шарқ юлдузи, 1983. Ҳасанов, С. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. – Т.: Шарқ, 2002. Воҳидов, Р. Биз билган ва билмаган Бобур. – Т.: Маънавият, 1999. Муродов, Ғ. "Юлдузли тунлар" романида бадий кодлар // БухДУ илмий ахборотлари. 1-сон. – Бухоро, 2000. – Б. 23-27.

⁷ Расулзода, Н. Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг "Мубаййин" асари ва унинг текстологик тадқиқи. Филол. фан. номзоди... дисс. автореферати. // Ҳ.Сулаймонов номидаги қўлёзмалар институти. – Т., 1935. Жамолов С. "Бобурнома"нинг бадий хусусиятлари. Филол. фанлари номзоди дисс... автореф. – Т., 1961. Ғайбуллоҳ ас-Салом, Н.Отажон. Жаҳонгашта "Бобурнома". – Т.: А.Қодирӣ, 1996. Ҳасанов С. Трактат Бабура об арузе. Автореф. дисс. на сосик. канд. филол. наук. – Т.: Фан, 1972. // СамГУ. Список раб.авт. 5 назв. Атаджанов Н. Художественный перевод и научное комментирование: на материале переводов

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Jizzax davlat pedagogika universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasining "O'zbek adabiyoti, tanqidi tarixi va badiiy mahorat masalalari" (2018-2023-yy.) mavzusidagi ilmiy yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi o'zbek adabiyotida Bobur Mirzo obrazi badiiy talqinini tadrijiy izchillikda ochib berish, davrlar silsilasida shoh va shoir Bobur Mirzo shaxsiga yondashuvdagi yetakchi tendensiyalarni aniqlash hamda ularning talqiniga ta'sirini ko'rsatib berish, faqat shoh va shoir yaxlitligidagi talqindagina Bobur Mirzo obrazining oliy mukammalligi ta'minlanishini asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

tarixiy-adabiy manbalarda Bobur Mirzo obrazining ma'rifiy talqinini kuzatish asnosida "Shayboniynoma" dostonida aks etgan tarixiy davrning ijtimoiy xarakteristikasi, muallif konsepsiyasi hamda asarda Bobur Mirzo obrazining ziddiyatli talqinini ochib berish;

«Бабурнаме». Дисс. канд... филол. наук. – Т., 1978. –156 с. Болтабоев, Х. "Бобурнома"нинг берилмаган саҳифалари. – Т.: Адолат, 2004. Назарова, Х. Синтаксический строй языка «Бабурнаме» Захириддина Мухаммеда Бабура: дисс. на соискание доктора фил. наук. –Ташкент, 1979. –380 с. С табл. // Пед. институт им. Низами.; Salohiy, D. Boburning buyuk e'tiqodi. – Samarqand, 2019.; Qudratullayev, H. "Boburnoma"ning adabiy-tarixiy va uslubiy tahlili: doktor. ilm. dar.. diss. – – Т., 1998 Ходжаева, Л.У. Проблемы перевода: характер, стиль и интерпретация текста «Бабурнаме». Литературоведческий аспект. Автореф. дисс. канд. филол. наук. –Андижан, 1985. Шукуруллаева, С. Воссоздание художественного своеобразия «Бабурнаме» в его английских переводах [English] (Дж.Лейдена, У.Эрскина и А.Беверидж). Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Т., 1989. Салимова, Ф. Лексикографические и текстологические характеристики «Восточно-тюркского словаря» Павел де Куртейла и переводов «Бабурнаме». Автореферат дисс... канд. филол. наук. – Т., 1997. –26 с. Jiyanova, N.E. "Boburnoma"dagi numerativlarning ma'no xususiyatlari: filol. fanlari nomzodi diss... avtoref. – Т., 2000. Ibrohimov, A.P. "Boburnoma"dagi hindcha so'zlar tadqiqi: filol. fan. nomzodi diss...avtoref.// O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. Toshkent davlat sharqshunoslik instituti. – Т., 2001. Sobirov, M. "Boburnoma"ning inglizcha tarjimalarida muallif uslubi va badiiyatini qayta tiklash muammolari (Leyden, Erskin, Beverijva Tekston tarjimalarining qiyosiy tahlili asosida). Filologiya fanlari nomzodi dis...// O'zFA, Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti. – Т., 2002. Karimov R. "Boburnoma"dagi she'rlar xorijiy tarjimalarining qiyosiy tahlili. Filol. fan. nomzod...diss. – Т., 2003. Yuldashev T.Q. Navoiy va Boburning islom farzlariga bag'ishlangan asarlaridagi shar'iy atamalarining lisoniy tahlili. Filol. fanlari nomzodi diss... avtoref. //O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. TDSHI. – Т., 2003. Xolmanova, Z.T. "Boburnoma" leksikasi tadqiqi. Filologiya fanlari doktori... dis. avtoreferati: 10.02.01 // Alisher Navoiy nomidagi til va adabiyot instituti. – Т., 2009. Mullaxo'jayeva, K. Baxt axtarin axtarib // Ma'naviy hayot, 2018. № 1. – B. 22–27.; Abdullayeva, M.D. "Boburnoma" va "Shajarayi turk"ning qiyosiy-tipologik tahlili. Filol. fanlari nomzodi... diss. avtoref. – Samarqand, 2004. Hoshimova, D.M. "Boburnoma" asarining tanqidiy matnini yaratish muammolari hamda "Boburnoma" tanqidiy matnining yapon nashrlari misolida. Filol. fan. nomzodi...diss. // O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zMU. – Т., 2006. Suloymonov, I. "Boburnoma"da g'olib va mag'lub shaxs ruhiy holatining badiiy tasviri: filol. fan. dok (DSc). diss. – SamDU. 2020; Hazratqulova, E. Adabiy-tarixiy asarlarda badiiy ijod masalalari ("Boburnoma" va "Tarixi Rashidiy" asosida). Fil. fan. bo'yicha fal. dok. (PhD) diss. – Т., 2022; Kamolov, I. Tarixiy-badiiy manbalarda Bobur obrazi talqiniga biografik yondashuv. Fil. fan. bo'yicha fal. dok. (PhD) diss. – Qarshi, 2022.

“Boburnoma”da muallif obrazining yuzaga kelishida muallif va bosh qahramon birikuvini, asarning memuarlik xususiyati hamda bosh qahramonning roviylik maqomini, muallif qiyofasining zohiriy va botiniy qatlamlarini aniqlash;

Bobur Mirzo obrazining zamonaviy dostonchiligimizda liro-epik talqinini, shuningdek, she’riyatda Bobur Mirzo qalb olami tasvirida lirik fojeliq, ruhoniy manzaralar tajassumini yoritish, sho’ro davri o‘zbek adabiyotida Bobur Mirzo obrazini yaratishdagi biryoqlamalik, yetakchi tendensiyaning lirik she’riyatda Bobur Mirzo siymosining talqiniga ta’sirini ochib berish;

katta va o‘rta nasrda Bobur Mirzo siymosining epik tasvirini kuzatish asnosida “Yulduzli tunlar” va “Boburnoma”ni qiyosiy o‘rganish orqali yozuvchining badiiy tasvirlash mahoratini yoritish;

Xayriddin Sultonning “Saodat sohili” qissasida tragik mohiyat asar badiiyatini, obraz haqqoniyatini ta’minlagan maqbul yo‘l, muallif muvaffaqiyatli tanlagan ifoda yo‘sini ekanini asoslash.

Tadqiqotning obyekti sifatida Bobur Mirzo obrazi talqin etilgan o‘zbek adabiyoti namunalari tanlangan.

Tadqiqotning predmetini Bobur Mirzo obrazi talqinida davr, muhit, ijodkor pozitsiyasini o‘rganish, mualliflar tayangan ma’naviy-ma’rifiy, adabiy-estetik asoslar, manbalarni aniqlash, badiiy tasvir, xarakter yaratish mahorati masalalarining tadqiqi tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada biografik, qiyosiy-tarixiy, sotsiologik, psixologik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Tarixiy-adabiy manbalarda Bobur Mirzo obrazining o‘rganilish tasnifi quyidagicha: 1. Bobur Mirzo bilan hayotda uchrashgan, hamsuhbat bo‘lgan, u bilan zamondosh ijodkorlar asarlarida Bobur Mirzo siymosi; 2. “Boburnoma” va boshqa tarixiy manbalar asosida yaratilgan asarlarda Bobur Mirzo siymosi – taklif etilib, tadqiqning ushbu tasnif bo‘yicha olib borilishi uning izchilligini, uzluksizligini ta’minlashi ochib berilgan.

Muhammad Solihning “Shayboniynoma” dostonida muallifning temuriy hukmdorlardan noroziligi sezilib tursa-da, Bobur Mirzo obrazi talqinida davr haqiqati, muhit, tarixiy sharoitning shaxs hayotiga, qismatiga ta’sirini haqqoniy ochib bergani, realist san’atkor sifatida o’zi bilib-bilmay Bobur Mirzoning ijobiy jihatlarini ham qalamga olishga majbur bo’lgani asoslangan.

Shaxsning tarixdagi o’rni, xususan, podshoh, hukmdorlarning millat taraqqiyotidagi mavqeyiga sho‘roviy yondashuv oqibatida Bobur obrazi talqinida “shoh emas, shoir” paradigmasi yuzaga kelgani dalillangan.

“Boburnoma”da muallif obrazi zohiriy holda muallif nomidan ketadigan “men”dagina emas, balki virtual hodisa sifatida botiniy qatlamda ham mavjudligi, uning ongi, idroki, ovozi, qarashlari va munosabati asarning barcha tarkibiy unsurlarida kuzatilishi ochib berilgan.

“Saodat sohili” qissasi badiiy tragizm muammosi nuqtayi nazaridan o’rganilib, qahramon, davr, muallif tragizmi qatorida “tragik idrok” nazariy tushunchasining o’rni tayin etilgan va shu asnoda Bobur Mirzoning tragik qahramon sifatidagi ma’naviy-ruhoniyligi qiyofasi yoritib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tadqiqot natijalari Bobur Mirzo obrazining badiiy talqiniga bag‘ishlangan o‘zbek adabiyotida yaratilgan badiiy asarlarning asosiy mazmunini tasnishtirish bilan birga, ular yaratilgan davr yetakchi tendensiyalarining talqin va tasviriga ta’siri asoslangan;

sho‘ro davri adabiyotida Bobur Mirzo shaxsiyatiga nisbatan amal qilgan “shoh emas, shoir” paradigmasi obraz mukammalligiga putur yetkazib, tarixiy haqiqatning va o‘z navbatida badiiy haqiqatning ham buzilishiga olib kelganligi tahlil asosida yoritib berilgan;

milliy o‘zlikni anglash, buyuklarimizning millatimiz taraqqiyotiga qo‘shgan hissasini o‘rganishga bo‘lgan ma’naviy-ruhiy ehtiyoj Bobur Mirzo obrazining turli janrlar kesimida bo‘y ko‘rsatishiga sabab bo‘lgani asoslanib, uning lirik, liro-epik, epik talqinlarda tajassum topgan siymosida badiiy tasvirning tarixiy haqiqat bilan

uyg'unligi, hayot mantig'i bilan xarakter mantig'ining moslik darajasi ochib berilgan;

memuar, esdalik janridagi "Boburnoma"da muallif obrazi namoyon bo'lishining nazariy asoslari ochib berilib, Bobur Mirzoning muallif-qahramon-roviiy siymosi yoritilgan;

badiiy tragizm muammosi doirasida tadqiq etiladigan har qanday tragik asar retsepsiyasi tragik idrok mavjudligini tayin etib, bu tahlilga tortilgan qissada Bobur Mirzo va unga yondosh qahramonlarning fojeiy taqdiri misolida asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi xorij va respublika ilmiy jurnallarida chop etilgan maqolalar, ilmiy-nazariy konferensiyalarda o'qilgan ma'ruzalar, nashr etilgan tezis va monografiyalar, tadqiqot obyekti va predmetiga tizimli ilmiy yondashuv va foydalanilgan metodologiyaning tadqiqot maqsadiga muvofiqligi, dalil, tahlil hamda xulosalarning dastlabki va ishonchli manbalarga tayangani, nazariy qarash, yechim va xulosalarning amaliyotga tatbiq etilgani, natijalarning tegishli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati o'zbek adabiyotida Bobur Mirzo obrazi yaratilgan asarlarda har bir davrga xos yetakchi tamoyillar belgilangani, "shoh emas, shoir" paradigmasining talqindagi hukmron mavqeyining ochib berilgani, "Boburnoma"da muallif obrazi hamda uning zohiriy va botiniy qatlamlarining asoslanishi, badiiy talqinlarni tarixiy fakt va to'qima, epik va psixologik tasvir nisbati, asarda yetakchi pafos va zamonaviylik muammolari doirasida o'rganilgani, o'zbek adabiyotida Bobur Mirzo siymosi yaratilgan adabiy manbalarning ilk bor tadrijiy ilmiy tahlilga tortilgani, chiqarilgan xulosalar tarixiy shaxs obrazini yaratish bilan bog'liq adabiyotshunoslikda mavjud ilmiy-nazariy qonuniyatlarni boyita olishi bilan xarakterlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati o'zbek adabiyotida Bobur Mirzo obrazining talqinini davrlar silsilasida o'rganish, badiiy asarlar misolida uning o'z davri, o'z muhiti bilan teran uyg'unligida ifodalangan betakror dahosini ochib berish, bu betakror fenomenning hamma zamonlar uchun ham ma'naviy-ma'rifiy

jihtadan muhimligini tayin etadi, mana shu maqsadda davrlar kesimidagi ijtimoiy imkoniyatlar va badiiy-estetik omillarni aniqlash natijasida olingan nazariy xulosalar, to'xtam va tavsiyalar o'zbek adabiyoti tarixi, adabiyot nazariyasi, milliy uyg'onish davri adabiyotiga oid tadqiqotlar, darslik va o'quv qo'llanmalar yaratishda ko'mak berishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'zbek adabiyotida Bobur Mirzo obrazining badiiy talqini va uning tadrijini kuzatish asnosida olingan ilmiy natijalar asosida:

tarixiy-adabiy manbalarda Bobur Mirzo obrazining o'rganilish tasnifi (1. Bobur Mirzo bilan hayotda uchrashgan, hamsuhbat bo'lgan, u bilan zamondosh ijodkorlar asarlarida Bobur Mirzo siymosi; 2. "Boburnoma" va boshqa tarixiy manbalar asosida yaratilgan asarlarda Bobur Mirzo siymosi)ga oid takliflar, tadqiqotning ayni tasnif asosida olib borilishi uning izchil va uzluksizligini ta'minlashi ochiqqlangan tavsiya va ilmiy yangiliklaridan O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan F-7-13 sonli "Adabiyotshunoslik tarixining fundamental tadqiqi" mavzusidagi fundamental loyiha doirasidagi vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan va yuqoridagi tavsiyalar ushbu loyiha doirasida nashr etilgan ishlarda o'z aksini topgan (Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining 2024-yil 2-oktabrdagi 04/11-8103-son ma'lumotnomasi). Natijalarning joriy qilinishi Bobur Mirzo obrazining badiiy talqiniga bag'ishlangan o'zbek adabiyotida yaratilgan badiiy asarlarning asosiy mazmunini tanishtirish bilan birga, ular yaratilgan davr yetakchi tendensiyalarining talqin va tasvirga ta'siri asoslanishiga xizmat qilgan;

Muhammad Solihning "Shayboniynoma" dostonida muallifning temuriy hukmdorlardan noroziligi sezilib tursa-da, Bobur Mirzo obrazi talqinida davr haqiqati, muhit, tarixiy sharoitning shaxs hayotiga, qismatiga ta'sirini haqqoniy ochib bergani, realist san'atkor sifatida o'zi bilib-bilmay Bobur Mirzoning ijobiy jihatlari ham yoritishga majbur bo'lgani asoslangan ilmiy-nazariy xulosalardan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-20-sonli "Buyuk shoir va olim Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 540 yilligini munosib nishonlash

to'g'risida"gi qarorining 10-bandi ijrosi yuzasidan amalga oshirilgan Xalqaro boburshunoslik ilmiy-elektron platformasining yaratish amaliy-innovatsion loyihasida foydalanilgan (Xalqaro Bobur jamoat fondining 2024-yil 7-oktabrdagi BF-31 sonli ma'lumotnomasi). Natijada platformaning nazariy-fundamental bo'limining boyishi, foydalanuvchi uchun elektron-ilmiy resurslar manbayining sifati oshishiga erishilgan;

"Boburnoma"da muallif obrazi zohiriy holda muallif nomidan ketadigan "men"dagina emas, balki virtual hodisa sifatida botiniy qatlamda ham mavjudligi, uning ongi, idroki, ovozi, qarashlari va munosabati asarning barcha tarkibiy unsurlarida kuzatilishi borasidagi muhim xulosalardan 2024-yil 21-fevral kuni Jizzax viloyat teleradiokompaniyasining "Subhidam" ko'rsatuvini tayyorlashda, xususan, "Zahiriddin Muhammad Bobur va Jizzax" mavzusidagi seminarni tashkil etishda foydalanildi. Shuningdek, "Bori elga yaxshilik qilg'il..." tamoyilida yashagan Bobur Mirzoning yaxshilikni e'tirofi ayrim shaxslar misolidagina emas, balki kentlar, viloyatlar miqyosida ham "Boburnoma"da kuzatilishi haqida asosli ilmiy fikrlar bildirildi (O'zMTRK Jizzax viloyat teleradiokompaniyasining 2024-yil 29-avgustdagi 199/13-10-son ma'lumotnomasi). Natijada yangicha ma'lumotlar, fakt va qarashlarning ilmiy tahlili "Bobur Mirzo va Jizzax" mavzusini to'ldirishga, bu boradagi bahsli fikrlarning asosli yechimiga, tarixiy mavzuga bag'ishlangan ko'rsatuvlarning saviyasini yaxshilashga xizmat qildi;

shaxsning tarixdagi o'rni, xususan, podshoh, hukmdorlarning millat taraqqiyotidagi mavqeyiga sho'roviy yondashuv oqibatida Bobur obrazi talqinida "shoh emas, shoir" paradigmasi yuzaga kelgani va tendensioz kayfiyat bu davrda ustuvorlik kasb etganiga doir ilmiy-adabiy xulosalardan O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Jizzax viloyat bo'limi tomonidan o'tkazilgan "Boburxonlik" tadbirlari dasturini tuzishda, "Jizzax oqshomlari" she'riyat kechalari, "Sangzor mavjlari" adabiy to'garagining rejalarini ishlab chiqish, faoliyatini samarali olib borishda maqsadli foydalanildi (O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Jizzax viloyat bo'limining 2024-yil 27-avgustdagi 12-son ma'lumotnomasi). Natijada "Sangzor

mavjlari” to‘garagi a‘zolarining badiiy adabiyotda tarixiy shaxs obrazining yaratilishida me‘yor va nazariy talablar haqida bilim va tasavvurlari boyitildi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 13 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan, 6 ta xalqaro va 7 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida qilingan ma‘ruzalarda ilmiy-adabiy jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 25 ta ilmiy ish nashr qilingan bo‘lib, shulardan 1 ta monografiya, 1 ta risola, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 10 ta, xususan, xorijiy jurnallarda 1 ta va respublika jurnallarida 9 ta maqola nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 10 faslni o‘z ichiga olgan to‘rt bob, umumiy xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 273 sahifani tashkil etadi.

I BOB. TARIXIY SHAXSNING MA'RIFIY TALQINI VA TADQIQI

1.1. Tarixiy-adabiy manbalarda Bobur siymosi

Zahiriddin Muhammad Bobur o'zining sermazmun, barakali ijodi bilan umumjahon madaniyati xazinasiga katta ulush qo'shgan buyuk tarixiy siymo.

Besh asrdan ziyod vaqt mobaynida, ma'rifatli Sharq-u G'arb Bobur Mirzoning betakror hayot yo'li, buyuk adabiy, ilmiy, madaniy merosi, jahongirlik, qudratli saltanat barpo etish tarixi va tajribasini o'rganishga doim ehtiyojmand.

Jahon va o'zbek adabiyotida, adabiyotshunosligida Bobur Mirzo hayot yo'li va ijodini o'rganish va buyuk siymoning o'zi yashagan zamonlardan boshlanib, bizning kunlarga qadar davom etib kelmoqda.

“To'g'ri, davron taqozosi bilan u muayyan zamonlarda, muayyan davrlarda, susaygan paytlari yoxud boshqacharoq talqin qilinib, bir tomonlama baholangan vaqtlari bo'ldi. U ham bo'lsa, keyingi yuz yilda va o'z ona diyorida va muayyan shart-sharoitlarda. Lekin tarix guvohki, o'tgan besh asr davomida uning mutafakkir dunyo nazar-e'tiboridan chetda qolgan payti bo'lgan emas. U haqda yozilgan kitoblar to'plansa, rosmi kutubxona bo'ladi”⁸, – deydi adabiyotshunos olim Begali Qosimov.

Bobur Mirzo haqida yozilgan, uning tarixiy-badiiy siymosi yaratilgan manbalarni quyidagicha tasniflash ko'rsatish mumkin:

1. Bobur Mirzo bilan hayotda uchrashgan, hamsuhbat bo'lgan, u bilan zamondosh ijodkorlar asarlarida Bobur Mirzo siymosi.

2. “Boburnoma” va boshqa tarixiy manbalar asosida yaratilgan asarlarda Bobur Mirzo siymosi.

1. Bobur Mirzoga zamondosh ijodkorlar yaratig'ida Bobur Mirzo siymosi. Bu davr adabiy yaratilqlariga, xususan, “Boburnoma”ning o'zini, Xondamirning “Habib us-siyar”, Muhammad Haydar Mirzoning “Tarixi Rashidiy”, Gulbadanbegimning “Humoyunnoma”, Muhammad Solihning “Shayboniynoma” asarlarini kiritishimiz mumkin. Yuqorida nomlari sanalgan

⁸ Qosimov B. Uyg'ongan millat ma'rifati. – T.: Ma'naviyat, 2011. – B. 113.

asarlar ham tarixiy, ham badiiylik xususiyatiga ega bo‘lganligi uchun ham biz ularda Bobur Mirzoning badiiy-ma’rifiy siymosini kuzatamiz

G‘iyosiddin ibn Humomiddin Xondamir tarix, adabiyot va boshqa ijtimoiy fanlar bo‘yicha chuqur va keng bilim sohibi, o‘z davrining yetuk olimi bo‘lgan. Ijodini Alisher Navoiy homiyligida boshlagan .

“Habib us-siyar” muqaddima, uchta bob va xotimadan iborat. Har bob to‘rt qismni o‘z ichiga oladi. Asarning uchinchi bob, uchinchi qismi Amir Temur va temuriy mirzolar faoliyatiga bag‘ishlangan. Aynan shu qismda Bobur Mirzoning dunyoga kelishi, ota-bobolari, qarindoshlari haqida ma’lumot berilgan.

Bobur Mirzoning temuriylar saltanatini saqlab qolib, bir butun mustahkam davlat qurish orzusida oldin ichki dushmanlar, so‘ng esa “purtajriba va ko‘p ishni ko‘rgan va ulug‘ yoshliq” Shayboniyxonga qarshi olib borgan kurashlari, chorasiz holatda Movarounnahrni tark etib, Kobulni qo‘lga kiritgan davrigacha bo‘lgan voqealar shu uchinchi qismida bayon etilgan. Shuningdek, bu qismda Bobur Mirzoning Kobulni egallagan 1504-yildan to 1524-yilgacha bo‘lgan davr mobaynida olib borgan siyosiy-ijtimoiy faoliyati ham yoritilgan. Hirotning siyosiy-ijtimoiy hayotida faol qatnashgan Xondamir 1524-yilgacha Bobur Mirzo bilan bir necha bor, xususan, Hirotdagi safaviy hukmdorlar nomidan Kobulga elchi bo‘lib borganda ham uchrashadi.

Shoh Ismoil vafotidan so‘ng (1527) Xondamir Hirotni butunlay tark etib, oldin Qandahorga, so‘ng 1528-yili boburiylar poytaxti Agraga – Bobur Mirzoning huzuriga boradi. “Xondamir Agraga kelgach, Boburning yaqin odamlari qatoridan joy oladi va 1529-yil Boburni Bengaliya va Gang daryosi sohili tomon qilgan yurishi paytida kuzatib boradi”⁹.

Guvohi bo‘lganimizdek, muarrix Xondamirning Bobur Mirzo hayotining so‘nggi ikki yilida doimo birga bo‘lishi, kezi kelganda hamroh, vaqti bilan yaxshi dildosh, suhbatdosh bo‘lishlik nasib etgan. Shunday suhbatlar shukuhini 1528-yillar voqealari bayonida “Boburnoma” sahifalarida his etish mumkin: “Seshanba sabohi iyd namozini o‘tab otlanildi. O‘n kuro‘h yo‘l kelib, Tayikning bir kuro‘hida

⁹<https://tarix.sinaps.uz/hodisa/xondamir/>

Ro‘yi suvining yoqasiga tushtuk... Shayx Zayn va Mullo Shihob va Xondamirg‘a bug‘ina baytni yiborib tiladuk:

Shayx-u Mullo Shihob-u Xondamir,
Keling uch-uch, ikki-ikki, bir-bir”¹⁰.

Xondamirning Bobur Mirzo bilan yaqin muloqoti: xoh u ijodiy suhbat bo‘lsin, xoh dasturxon ustida, xoh harbiy yurishlardagi hamrohlik onlarida bo‘lsin, xoh saltanat tashvishlari bilan mashg‘ullik paytlarida bo‘lsin, “Habib us-siyar” muallifiga o‘z qahramonining qalbini, ko‘nglini, a‘moli va amalini yaqindan anglash, kashf etish imkonini bergan.

Hamma vaqt xalq rizosiga shoshilgan, “mehnat eli”ning xohish-istaklari bilan qiziqqan, mamlakatdorlikda adolat, ma‘rifat, obodonchilik, muruvvatga tayanib ish ko‘rgan Bobur Mirzo haqida Xondamir: “Bobur podshoh xalqqa g‘amxo‘rlik va ehson palosini yoyish hamda adolat va saxovat poydevorini tiklash uchun tirishdi. Ayniqsa, islom olimlariga g‘amxo‘rlik qilib, tarbiyatlar ko‘rsatish va shirin so‘zli shoirlarga yaxshiliklar qilish bobida ko‘p sa‘y-harakatlar namoyon etdi”¹¹, – deydi.

Bobur Mirzo hayotining turli qirralari, shaxsiyati, tarjimayi holi bo‘yicha “Habib us-siyar”dan ishonchli ma‘lumotlar olishimiz mumkin. Insoniyatga, bashariyatga doimo do‘stlik maqomida turgan, atrof-olamga yaxshilik, ro‘shnolik sog‘ingan Bobur Mirzo obrazining Xondamir tafakkuridagi talqini “Habib us-siyar”da muallif konsepsiyasiga mos va xos yaratilganiga shohid bo‘lamiz.

Muhammad Haydar Mirzo Dug‘lat siyosiy arbob, sarkarda, tarixchi va shoir bo‘lib, Ayoziy taxallusi bilan ham ijod qilgan. Uning “Tarixi Rashidiy”si 1543–1546-yillar oralig‘ida yaratilgan bo‘lib, XV-XVI asrlardagi Markaziy Osiyo tarixini teran yoritgan asar hisoblanadi. Bu asarning qimmatli taraflaridan biri shuki, “Tarixi Rashidiy” “Boburnoma”ning uzilib qolgan qismlarini qayta tiklash bo‘yicha juda qimmatli ma‘lumotlar beruvchi manbadir.

¹⁰ Bobur Zahiriddin Muhammad. Boburnoma. – T.: O‘zbekiston, 2002. – B. 260.

¹¹ Xondamir G‘. Habib us-siyar fi axbori afrodi bashar. – T.: O‘zbekiston, 2013. – B. 927.

Muhammad Haydar Mirzoning o‘zi e’tirof etganidek, uning kamolotida Bobur Mirzoning o‘rni, ahamiyati beqiyos bo‘lgan. Shayboniylardan qochib, Kobulda – Bobur Mirzo huzurida panohtopgan Muhammad Husayn 1506-yildagi podshohga qarshi uyushtirilgan fitnaga qo‘shiladi. Ammo qavm-qarindoshchilik yuzasidan Bobur Mirzo uni afv etib, Hirotda ketishga ruxsat beradi. Muhammad Husayn Hirotda Shayboniyxon amri bilan yashiriqcha qatl etiladi. Shundan so‘ng Shayboniyxon o‘sha payt (1509) Buxoroda pochchasi Ubaydulloxon (Ubaydullaxon Muhammad Husaynning qizi Habiba Sulton xonimga uylangan) saroyida bo‘lgan 9-10 yoshli bola Haydar Mirzoni Amudaryoga cho‘ktirish haqida buyruq beradi. Ustozi Mavlono Muhammadning fidoyiligi tufayli o‘limdan qutulib qolgan Haydar Mirzoni avval Badaxshonga – Mirzoxon huzuriga, keyin Bobur Mirzoning buyrug‘i bilan nisbatan bexavf joy – Kobulga keltiradilar.

Haydar Mirzoning Bobur Mirzo bilan ilk uchrashuvi haqidagi xotiralarining o‘ziyoq Bobur Mirzoning beqiyos shaxsiyati, fitrati haqida bizga ma’lumot beradi: “Tiz cho‘kib, salom bergani”dan keyin yaqin bordim. U meni rahm-shafqat quchog‘iga olib, otalik mehri bilan bag‘riga bosdi. Ancha vaqt quchog‘ida ushlab turdi. Men ta’zim rasmini ado qilmoqchi bo‘lgandim, bunga yo‘l bermay yoniga o‘tqazdi”¹².

G‘am-qayg‘u, ayriliq, yolg‘izlik tahlikasida yashayotgan Haydar Mirzoning iztiroblari Bobur Mirzoga tanish (Zero, o‘zi ham bola yoshida yetimlik alamini chekkan) bo‘lganligi uchun ham qo‘rquv-shubhadan xalos qiladigan, atrofida unga xayrixoh insonlar borligiga ishonch uyg‘otadigan so‘zlarni topib aytgan Bobur Mirzoning donish qiyofasini Haydar Mirzoning nurli xotiralarida yorqin ko‘rish mumkin.

U mana bu gaplarni aytdi, deya xotirlaydi Haydar Mirzo: “Sening otang pochcham, mening tog‘am – xon, aka-ukalaring, qarindosh urug‘laring shahidlik sharbatini ichib, Allohga beaded shukrki, sen yonimga eson-omon kelding. Endi ulardan ayrilganimga hech g‘am chekma. Chunki ularning o‘rnini ortig‘i bilan

¹² Muhammad Haydar mirzo. Tarixi Rashidiy. – T.: Sharq, 2010. – B. 343.

bosaman. Ulardan qanchalik mehr-muhabbat va rahm-shafqat kutish mumkin bo'lsa, shularning hammasini, hatto undan ham ko'pini senga bera olaman¹³”.

Haydar Mirzoning o'qishi, ta'lim olishi, hayotda oq-u qorani tanishi uchun Bobur Mirzo, haqiqatan ham, unga ham, moddiy, ham ma'naviy tarafdin ko'p narsa bera olganini, vaqti kelib, bir qobil farzanddek o'z asarida e'tirof etgan Haydar Mirzo haqida “Boburnoma”da shunday ma'lumot bitilgan: “Haydar Mirzo... Otasini O'zbek o'lturgandin so'ng kelib, mening mulozimatimda uch-to'rt yil bo'ldi, so'ngra ijozat tilab, Koshg'arga xon qoshig'a bordi... Xat va tasvir va o'q va paykon va zikr har nimaga iligi chaspondur. Tab'i nazmi ham bordir, manga arzadoshti kelib edi. Inshosi ham yomon emas”¹⁴.

“Boburnoma”dagi bu ma'lumotga qaraganda, Haydar Mirzo Bobur Mirzo bilan aloqani uzmagani, unga maktub yozib turgani. Ehtimol, she'rlarini ham jo'natgan bo'lishi kerak. Shuning uchun Bobur Mirzo uning she'rdagi iste'dodini, uslubini yomon emas, deya baholayapti. Boburshunos olim Vahob Rahmonning “Tarixi Rashidiy”ning 2010-yilda amalga oshirilgan nashriga yozgan so'zboshisida yaponiyalik boburshunos olim Eyji Manoning XV-XVI asrlardagi Markaziy Osiyo tarixini Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” va Muhammad Haydar Mirzoning “Tarixi Rashidiy asarlari tadqiqi asosida yaratish mumkin”¹⁵, degan fikrini ma'qullaydi. Demak, bu ikki kitob ma'lum ma'noda bir-birini to'ldiradi. Ayni paytda “Tarixi Rashidiy” va “Boburnoma”da uzilib qolgan Bobur Mirzo hayoti va faoliyati bilan bog'liq o'n sakkiz yillik tarixdan bizni xabardor etadi.

“Humoyunnoma” o'rta asrlarda Sharqda yetishib chiqqan birinchi tarixnavis ayol, Zahiriddin Muhammad Boburning qizi malika Gulbadanbegim qalamiga mansub. Asar 16-asrning ikkinchi yarmida 1587-1590-yillarda fors tilida yaratilgan bo'lib, Bobur Mirzo umrining so'nggi davri bilan Humoyun hukmronligi yillarini o'z ichiga oladi. Gulbadanbegim tarix bitishda xuddi otasi – Bobur Mirzo kabi rostgo'y, samimiy, ayni paytda bayon uslubi ham sodda va ravon.

¹³ O'sha manba. – B. 344.

¹⁴ Bobur Zahiriddin Muhammad. Boburnoma. – T.: Sharq, 2002. – B. 40

¹⁵ O'sha manba. – B. 6.

1900-yilda “Humoyunnoma”ni ingliz tiliga tarjima qilgan Anneta Syuzena Beverij “Humoyunnoma” haqida: “Bu kitob tengi yo‘q noyob asardir, unda malika o‘zi mansub bo‘lgan ayollar dunyosini mufassal tasvirlab bergan. Tilining soddaligiga qaramasdan, bu asar kiborlik va malohat bilan, hatto qahri qattiq shohlarning faoliyatini ham sahna ortida turib ziyraklik bilan kuzatib borgan ulug‘vor malikaning mulohazalari bayon qilingan bebaho manbadir”¹⁶, - deydi.

Guvohi bo‘lganimizdek, Beverij xonim asarning mazmuni teranligini, muallifining esa nuqtadon tarixnavis ekanligini e‘tirof etyapti. Shubhasiz, Gulbadanbegim “Humoyunnoma”ni yaratishda, eng avvalo, “Boburnoma”ga suyangan. Gulbadanbegim bitiklarida padari buzrukvori shaxsiyatiga, hukmdorlik faoliyatiga, mardona xarakteriga cheksiz hayrat va hurmat, mehr sezilib turadi: “Hazrat Sohibqiron (Amir Temur) zamonidan firdavs makon (Bobur) zamonigacha o‘tmish podshohlardan hech kim ularga teng keladigan yurish qilmagan... Mukammal o‘n besh yil muddatda Movarounnahr o‘lkasida chig‘atoylar, temuriylar va o‘zbekiylar sultonlari bilan jang va yurishlar qildilar. Ularning sanog‘ini sharhlashga qalamning tili ojiz-u notavondir. Jahongirlik bobida bizning hazratimiz (Bobur) boshidan o‘tkazgan qiyinchilik va mashaqqatlarga kam kishi duch kelgan. Janglar va xavf-xatarlar paytida ul hazrat ko‘rsatgan dovyuraklik, mardlik va sabr-toqat kamdan kam podshohda uchraydi”¹⁷, – deb yozadi faxr bilan Gulbadanbegim.

“Humoyunnoma”ning 38 sahifasi Boburga bag‘ishlangan bo‘lib, Gulbadanbegim o‘z asarining shu qismida ko‘proq “Boburnoma”ga murojaat qiladi. Gulbadanbegim xotiralarida o‘zi ko‘rgan, ishtirok etgan voqealar: Bobur haramining Kobuldan Agraga ko‘chishi, Bobur xonadonidan panoh topgan temuriy malikalarning hayoti, Bobur Mirzoning oila muhiti, tasadduq voqeasi kabi ma’lumotlar ilmiy-ma’rifiy jihatdan beqiyos ahamiyat kasb etadi va qaysidir ma’noda “Boburnoma”ni to‘ldiradi.

¹⁶ Qarang: Anneta Syuzen Beverij. Manba: Goden, Rumer. Gulbadan. –T.: Sharq, 2007. – B. 12.

¹⁷ Gulbadanbegim Zahiriddin Muhammad Bobur qizi. Humoyunnoma. – T.: O‘zbekiston, 2016. – B. 54.

II. Mumtoz adabiyotda Boburdan keyin “Boburnoma” va boshqa tarixiy manbalar asosida yaratilgan asarlarda Bobur Mirzo siymosi

Hasanxoja Nisoriyning “Muzakkiri ahbob” (“Do‘stlar yodnomasi”) asari 1566-yili fors tilida yaratilgan bo‘lib, Markaziy Osiyo, Afg‘oniston, Eron, Hindiston kabi ko‘plab hududlarda yashab ijod etgan uch yuz nafar shoirlar, adiblar haqida ma‘lumot bergan. Bobur Mirzo va boburiylar ijodini ilk bor O‘rta Osiyoga tanishtirgan, targ‘ib qilgan asar.

“Muzakkiri ahbob”ning qimmatli tarafi shundaki, unda nafaqat Bobur Mirzo va boburiylarning ijodiy qiyofasi, balki davlatchilik faoliyatlari, mamlakatdorlik tutumlari, insoniy qiyofalari ochilgan. “Chig‘atoy sultonlarining eng sarasi va zo‘r shijoatlisi edi. Shamshir zarbi bilan Movarounnahr mamlakatlariga ega bo‘lib, uni saqlab qolishda ko‘p sa‘y-harakatlar va jonini ayamadan jahd-u jadallar ko‘rsatdi. Mardona to‘qnashuvlar qildi, ammo taqdir o‘qiga tadbir qalqoni dosh bera olmagach, biror natija chiqara olmadi”¹⁸, – deb yozadi muallif Bobur Mirzoning Movarounnahrdagi ijtimoiy-siyosiy-harbiy faoliyati haqida.

Hasanxoja Nisoriyning Bobur Mirzoning Hindiston o‘lkasini zabt etishini, u yerda amalga oshirgan xayrli, ezgu ishlarini “...qorong‘ulik o‘lkasini quyosh yog‘duli qilichi shu‘lasi nurlari bilan charog‘on etdi”¹⁹ deydi. Bobur Mirzoning bag‘rikeng, saxovatli hukmdor sifatidagi qiyofasini shunday yoritadi: “Bobur podshoh bir necha muddat o‘sha Hind mamlakatining saltanat taxtida mutamalkin bo‘ldi. Kimki jahonpanoh dargohiga iltijo qilgan bo‘lsa, podshohning in‘omidan bahramand bo‘ldi va fazl dasturxonini ne‘matidan quruq qolmadi. Daryo misol qo‘li bilan saxovat olamiga erkinlik berdi”²⁰.

Bobur Mirzo va boburiylarning kishilik jamiyatiga, uning madaniy, ma‘naviy rivojiga qo‘shgan xayrli ishlari, davlatchilik faoliyatlaridagi ezgu amallarining “Muzakkiri ahbob”dagi tadqiqi va targ‘ibi ushbu asarning boburshunoslikdagi o‘ziga xos o‘rnini belgilaydi.

¹⁸ Nisoriy H. Muzakkiri ahbob. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. – B. 51-52.

¹⁹ O‘sha joyda.

²⁰ O‘sha joyda.

Muhammadyor ibn Arab Qatag‘anning “Musaxxir al-bilod” (“Mamlakatlarning egallanishi”) asari fors tilida yaratilgan bo‘lib, 1498–1610-yillardagi Markaziy Osiyoda bo‘lib o‘tgan siyosiy voqealar, xususan, Shayboniyxonlar sulolasi tarixini yoritadi. Shuningdek, “Musaxxir al-bilod” asarida Bobur Mirzo va boburiylar, badaxshonlik temuriylar hamda safaviylar davlati bilan siyosiy-harbiy munosabatlar doirasida kechgan tarix ham o‘z ifodasini topgan.

Asarda Bobur Mirzoning ikkinchi bor Samarqandni egallashi, Saripul jangi tafsilotlari, Samarqandning Shayboniyxon tarafidan olti oy davomida qamal qilinishi, sulh tafsilotlari bayon etilgan. Bundan tashqari Bobur Mirzoning Samarqandning uchinchi bor qo‘lga kiritish voqealari, Ubaydulloxon bilan Ko‘li Malikdagi jang tafsilotlari asardan ancha batafsil joy olgan.

O‘rta Osiyo xalqlarining 16-asrdagi ijtimoiy-siyosiy hayotini o‘rganishda eng muhim manbalardan biri Hofiz Tanish Buxoriyning “Abdullanoma” asari (“Sharafnomayi shohiy”) bo‘lib, bu yaratiq tarixiy voqealarni atroflicha yoritishi, chuqur mazmundorligi bilan kitobxonni o‘ziga jalb qiladi.

Muallif “Abu Sa‘idning Movarounnahr mamlakatlariga ko‘p yil va ko‘p davrlar hokim bo‘lgan izzat va iqqolli avlodi bir yil orasida tamoman bitirilishi”²¹ sabablarini tahlil qiladi. Umarshayx Mirzoning halokatidan so‘ng Zahiriddin Muhammad Boburning taxtga chiqish tafsilotlarini bayon qiladi. Sulton Ahmad, Sulton Mahmud, Umarshayx Mirzolar boshqaruvidan keyin yosh temuriy mirzolar o‘rtasidagi parokandalik Movarounnahrda Shayboniyxonning g‘alabasini ta‘minlagan bo‘lsa, Husayn Boyqarodan so‘ng taxtni bashirkat boshqarayotgan o‘g‘illarining noittifoqligi Xurosonni ham jami tobe yerlari bilan xonning tasarrufiga o‘tkazdi deydi.

“Abdullanoma”da “Bobur podshohning Hisorga yurishi... Movarounnahrni qaytadan bosib olishlari va yana chekinishlari(ning) bayoni fasli “Boburnoma”dan bizga mavhum bo‘lib qolgan tarix haqida ma‘lumot beradi. (4-ilova)

²¹ Hofiz Tanish al-Buxoriy. Abdullanoma (“Sharafnomayi shohiy”) – T.: Sharq, 1999. – B. 59.

Bobur Mirzo ijodi va shaxsiyatini o'rganishda jadid ma'rifatparvarlarining ham o'rni beqiyos. Abdurauf Fitrat Bobur Mirzo adabiy merosiga ko'p va xo'b murojaat qilgan jadid ijodkorlaridan.

Butun jahon mutafakkirlari yakdil e'tirof etganlaridek, Boburning yorqin, jozibador shaxsi "ulug' aql, metinday mustahkam iroda, nihoyatda o'tkir va munavvar farosat sohibi" (I. Haqqul) ekanligi nafaqat badiiy-estetik, balki adabiy-estetik tafakkur namunalarida, shuningdek, adabiyotshunoslarimizning ilmiy tadqiqotlarida, sof ilmiy soha bo'lgan boburshunoslik va "boburiynomashunoslik"-da ham yaqqol ko'zga tashlanadi.

O'zbek tilshunosligi, zamonaviy adabiyotshunosligi va matnshunosligining tamal toshlarini qo'ygan Abdurauf Fitrat, e'tirof etish kerakki, zamonaviy boburshunoslikka ilk sahifalar ochdi. Fitratshunos olimlarimizning ta'kidlashicha, "Fitratning o'ndan ortiq ilmiy asar va qo'llanmalarida Bobur tilga olinadi. Uning "Adabiyot qoidalari. Adabiyot muallimlari ham havasli lari uchun qo'llanma" (1926-y.) darsligida Bobur va uning ijodi haqida yangi davr o'zbek adabiyotshunosligida birinchi bo'lib ma'lumot berilgan "O'zbek adabiyoti namunalari" (1-jild, 1928-y.) majmuasida "Boburnoma"ning Hindiston qismini tabdil etib, O'zbekistonda ilk marta nashr qilgan, "Adabiyot qoidalari" kitobida eng ko'p misol Navoiy va Bobur ijodidan keltiriladi. "Aruz haqida" (1935-y.) risolasida turkiy aruzning xususiyatlarini tushuntirar ekan, Fitrat Boburning ham aruz nazariyotchisi, ham aruzning go'zal vaznlarida she'r bita olgan hassos shoir ekanini ko'rsatgan. "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi" (1927-y.) asarida Navoiyning mohir musannif (bastakor) bo'lganini Boburning shahodati bilan bayon qilgan"²².

Yaqin tarixda, ayniqsa, Abdurauf Fitrat ijod qilgan o'tgan asrning 20–30-yillarida adabiyot tarixiga biryoqlama qarash tendensiyasi avj olgan, milliy mumtoz adabiyotimiz davrning siyosiy-mafkuraviy zug'umlari bois o'z badiiy-estetik mohiyatiga mos talqin etilishi qiyin bo'lib qolgan paytlarda tadqiqotchidan xolislik va ilmiy prinsipiiallik pozitsiyasida tura olish jasorati talab qilinardi.

²² Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi. – T.: Sharq, 2014. – B. 15.

Garchi bu juda qimmatga tushgan bo'lsa ham Fitrat ilmda mumtoz adabiyotimizga, xususan, Navoiy va Bobur Mirzoga borar yo'llarimizni ochdi. Sirasini aytganda, navoiyshunoslik va boburshunoslik o'zanlarini to'g'ri belgiladi.

“Adabiyot – fikr, tuyg'ularimizdag'i to'lqinlarni so'zlar, gaplar yordami bilan tasvir qilib, boshqalarda ham xuddi shu to'lqinlarni yaratmoqdir”²³ tamoyilida sobit turgan Fitrat adabiyotimizning mumtoz namunalari sof badiiy-estetik yaratilgan sifatida o'rganar ekan, hamma vaqt ijodkor dunyoqarashiga, islom va tasavvuf falsafasiga, asarning til xususiyatiga, badiiy uslubga, yaratilgan latofati, jozibadorligini ta'minlagan, kitobxonning qalbini zavqqa to'ldirgan nuqtalarga talabchan, san'atkorona nigohini qaratadi. Va mana shu talabchan, san'atkorona nigohda Bobur Mirzo shaxsi va iste'dodi o'zining munosib bahosini olib boraveradi.

Fitrat “Adabiyot qoidalari”da adabiy asarlarni uch turga: rivoya-epos, tomosha va lirikaga bo'lib ko'rsatar ekan, lirika atamasining oldiga “yurakchilik” so'zini ham qo'shib, bu turni yurakchilik-lirika shaklida ko'rsatadi va “Yurakchilik-lirika” she'rlarida eng katta ro'lni ohanglar, xayollar, to'lqinlar, tuyg'ular o'ynaydirlar”, – deydi. Shu joyda Fitrat fikrini davom ettirib deydi: “Bizda burung'ildan Navoyi, Boyqaro, Bobur, Lutfiy, Mashrab kabilarni “lirizm”ning eng katta kishilari sanaydirlar. Ularning g'azallari “yurakchilik-lirika” she'rlarining eng go'zal namunalaridir”²⁴.

Fitrat ma'lum bir adabiy davrga, individual ijodkorga, “Hatto, yana bir oz chuqurroq borib, bir kishining sochim (nasr) – tizim (nazm) yozg'anida ham uslubning o'zgarib qolganini ko'ramiz”, – deydi. Fikrini isbotlash maqsadida bir necha ijodkorlar qatori Bobur Mirzoning tizim asarlaridan “Dahrning men ko'rmagan javru jafosi qoldimu?..” deb boshlanuvchi g'azalini, sochim asarlaridan esa “Boburnoma”dan misol keltiradi: “Yana Husayn Udiy edi. Udni mazaliq cholib, mazaliq narsalar aytur edi. Udning torini iki qilib bir cholibdur. Aybi bu ediki, bisyor noz ila cholur edi. Shayboniyxon bir navbat soz buyurur. Takalluf

²³ Fitrat A. Adabiyot qoidalari. Tanlangan asarlar. IV jild. – T.: Ma'naviyat, 2006. – B. 13.

²⁴ O'sha asar. – B. 79.

qilib ham yomon-yomon cholur: ham sozini kelturmay yaramas soz keltirur. Shayboniy fahmlar. Buyururkim: suhbatda o‘q-g‘alaba “gardani” urar. Shayboniyxonning olamda bir yaxshi ishi bor, budur...”²⁵

Kitobxon keltirilgan parchaga qarab, XV–XVI asrda yaratilgan nasriy asarlarga xos bo‘lgan jimjimadorlikdan farqli “Boburnoma” sodda, ravon, barcha zamonlar o‘quvchisi uchun tushunarli uslubda yozilganligiga guvoh bo‘ladi. Shu bilan birga Fitrat “Boburnoma”dek katta bir asar ichidan g‘oyatda muvaffaqiyatli tanlab olgan misoli orqali ham Bobur Mirzoning yorqin, rostgo‘y shaxsi, shuningdek, Bobur Mirzoning o‘zini ham aynan mana shu uslub masalasiga qarashlari bilan ham tanishtiradi.

Bobur Mirzo yuqorida guvohi bo‘lganimizdek, so‘z bitishda ortiqcha takalluflar, ezmalik, jimjimalarga berilmaslik tarafdori. Uning bu qarashlari aynan san‘at sohasiga ham tegishli. Mirzo Boburning fikricha, kuy chalishda sozandaning ortiqcha takalluf, nag‘ma, yarashiqsiz qiliqlar, noo‘rin zamzamalarga yo‘l qo‘yishi uning uslubining rasvoligidan darak beradi. Ijro uslubidagi bu qusur esa sozandaning kamolidan ko‘ra zavoliga xizmat qiladi, san‘at va san‘at ahlidan insonlarning mehrini sovutadi. Bundaylarga esa Bobur Mirzo murosasiz. Yomon ijro uchun Husayn Udiyini jazolagan Shayboniyxon bilan Bobur Mirzo garchi dushmanlik maqomida bo‘lsa ham uning bu ishini ma‘qullaydi. Ammo shu ma‘qullashda ikkita daqiq nuqta borki, buni zarofatli Fitrat, albatta, hisobga olgan bo‘lishi kerak, qaysiki shu nuqtalarda Bobur Mirzo shaxsi yanada yorqinlashadi.

Bu nuqtalardan birida “Shayboniyxon fahmlar”, ya‘ni Bobur Mirzo tarafidan Shayboniyxonning fahmi, didi, ta‘bi, sezgirligi e‘tirof etilgan. Ikkinchisi esa Bobur Mirzo qarashlarida san‘at, adabiyot shunchalar daxlsiz, pokiza joyki, uni har qanday udiylarning oyoqosti qilishga haqqi yo‘q. San‘atni xor qilgan Udiy o‘z joyida, adolatli jazolanadi. Faqat bu adolatni Bobur Mirzoning dushmani Shayboniyxon amalga oshirdi. Garchi bu ishning amalga oshmog‘i dushman tomonidan qaror topgan esa-da uning nomi Adolat! Bobur Mirzo esa o‘z tabiatiga ko‘ra adolatli ishni qo‘llab-quvvatlashi lozim. Ana shunda “Boburnoma” muallifi

²⁵ O‘sha asar. – B. 21.

boburona lutfni ishga soladi va e'tirof ham Bobur Mirzo nuqtai nazariga, pozitsiyasiga mos: "Shayboniyxonning olamda bir yaxshi ishikim bor, budir...". E'tirof zaminidagi nozik qochirim Mirzo Boburning tadbirliligini ko'rsatadi.

Ko'rib turganimizdek, "...adabiyot ham san'at dunyosida teran bir qarash egasi bo'lgan mashhur Bobur Mirzo" shaxsiyati Fitrat talqinida yanada to'lishadi, joziba kasb etadi. Fitratning qarashlarida Bobur Mirzo tiynatidagi uning ham insoniy, ham ijodiy manerasiga taalluqli bo'lgan muxtasarlik, mukammallik xislatlari yanada ravshanroq ko'rinadi.

Cho'lpon adabiy merosida aynan Bobur Mirzo ijodi bilan bog'liq maxsus tadqiqotlar uchramaydi. Ammo Cho'lpon ijodiga tegishli bir-ikki o'rinlarda adibning Bobur Mirzo lirikasiga nisbatan ham uning "Boburnoma"sga iliq munosabati yaqqol ko'rinadi. Cho'lponning 1924-yil bahoriga Andijon-O'sh-Jalolobod marshruti bo'yicha qilgan sayohati natijasi o'laroq yaratilgan "Vayronalar orasidan" safarnomasida Bobur Mirzo va "Boburnoma" tilga olinadi.

Fuqarolar urushi, undan keyingi xo'jasizliklar natijasida vayron bo'lib yotgan O'shning valangor ahvolidan iztirobga tushgan Cho'lpon o'quvchi nigohini "Boburnoma" sarhadlarida boburona ta'rifdan yanada chiroy ochgan O'shning XVI asrdagi ko'rkam qiyofasiga qaratadi va afsus bilan deydi: "...hozirgi O'sh Bobur aytgan... iqlim va havoga ega bo'lsa ham, o'zining bu kungi buzg'un va xaroba holi bilan 10 yil burung'i O'sh ham emasdur"²⁶.

Cho'lpon bu o'rinda sho'rolar davridagi buzilgan o'lka qiyofasini bir O'sh misolida temuriylar davridagi obodonchilik, ma'murchilikka qiyosan tasvirlar ekan, o'zbek xalqi tarixi, millatimiz kechmishi va buguni "Boburnoma" va uning muallifi taqdiri, tarixi bilan nechog'lik tutashligini ham asoslagandek bo'ladi.

"Cho'lpon munaqqid sifatida, birinchi navbatda, adabiyot va san'atning amaliy masalalari bilan shug'ullangan. ...adabiyotni o'z davrining ilg'or g'oyalari

²⁶Cho'lpon A. Vayronalar orasidan. <https://ziyouz.uz/matbuot/jadid-matbuoti/abdulhamid-cholpon-vayronalar-orasidan-1924/>

bilan boyitishga, Sharq va Gʻarbning bebaho tajribasini yangi oʻzbek adabiyotiga olib kirishga harakat qilgan”²⁷.

Adib oʻzining aynan ana shu pozitsiyasidan kelib chiqib “Ulugʻ hindiy” maqolasida bir qator oʻzbek namoyandalarning ijodiy uslublarini nazarda tutib: “Navoiy, Lutfiy, Boyqaro, Mashrab, bir xil, bir xil, bir xil. Koʻngil boshqa narsa – yangilik qidiradir”²⁸, – deydi.

Guvohi boʻlganimizdek, sanalgan nomlar ichida Bobur Mirzo yoʻq. Aslida, ana shu yoʻqlikning oʻzida Choʻlponning Bobur Mirzo ijodiga ayricha munosabati koʻzga tashlanadi. Chunki Choʻlpondek nuqtadon munaqqid Bobur Mirzoning dadil fikriy kashfiyotlarini, mumtoz sheʼriyatga kiritgan tarjimayi hollik xususiyatini, asarlaridagi vatanparvarlik, yurt sogʻinchi tuygʻularining teranligini, ruboiy janrida oʻz shaxsiy uslubini namoyish eta olganligini, eng muhimi, sohir soddalik va xalqchil talqin bilan “mumtoz milliy lirikamizga yangi toʻn kiygizganini” tan olmasligi mumkin emas edi.

Abdulla Qodiriy “Boburnoma”da muallif “...kuzatgan, bilgan, yoqlagan yoki inkor aylagan voqea-hodisa va maʼlumotlarning aytarli barchasi, eng avvalo, Boburning kimligi, insoniy mohiyatining tub zamini va ildizlari nimalarga asoslanganligini chuqur anglashga xizmat qilishini”²⁹ tushunib yetgan. Shuning uchun ham u to savdo ishlariga oʻtgunga qadar, oʻz davrida Toshkentning eng old taʼlim dargohlarida boʻlgan Beglarbegi madrasasining peshqadam tolibi boʻlgan Otabek qoʻliga “Boburnoma”ni tutqazishni loyiq koʻradi.

“Oʻtkan kunlar” romanining “Majburiyat” bobida “Kechlik oshni oʻtkazgach, Hasanali oʻz hujrasidan kiyinib chiqdi-da, Otabek yonigʻa kirdi. Otabek “Boburnoma” mutolaasi bilan mashgʻul edi”³⁰ degan gʻoyatda muvaffaqiyatli badiiy topilmada XVI asr siyosiy girdoblari ichida birda choʻkib, birda qalqib borayotgan Bobur Mirzo ruhiy kechinmalari, orzu-umidlari, iztirobu armonlari bilan yaqin xonliklar davrining eng kir va qorongʻi kunlarida millati,

²⁷Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. – T.: Sharq, 2004. – B. 73.

²⁸ Choʻlpon. Adabiyot nadur? (Adabiy-tanqidiy maqolalar). – T.: Choʻlpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 1994. – B. 57.

²⁹ Haqqul I. Taqdir va tafakkur. – T.: Sharq, 2007. – B. 319

³⁰ Qodiriy A. Tanlangan asarlar. – T.: Sharq, 2014. – B. 31.

yurti, o‘z muhabbati uchun mardonavor yo‘l qidirayotgan Otabek ruhoniya-ti o‘rtasida o‘xshashlik ko‘zga yaqqol tashlanadi. Go‘yo Qodiriy “Boburnoma” shu’lasi bilan Otabek shaxsiyatining barcha qirralarini yoritadi, uning insoniy mohiyatini kitobxonga muxtasar, ayni paytda, mo‘tabar qilib yetkazadi. Donishmand Yusufbek hoji yurt qayg‘usida yonib so‘zlaganda “Temur Ko‘ragon kabi dohiylar, Mirzo Bobur kabi fotihlar”ni yodga oladi. Bu esa Qodiriyning “Boburnoma”dek buyuk yaratiqqa va uning muallifiga insoniy va ijodiy e’tiqodidan darak beradi.

1919-yili Abdulla Avloniy RSFSR hukumatining topshirig‘i bilan Afg‘onistonga boradi. 1919-yilning 28-sentabridan 1920-yilning 20-iyuligacha Hirotda bosh konsul bo‘lib turadi.

“1978-yilda Avloniy tavalludining yuz yilligi munosabati bilan shoirning shaxsiy arxivini ko‘zdan kechirar ekanmiz, Afg‘oniston safari kundaliklariga duch kelib qoldik... “Afg‘on sayohati” qora muqovali qalin daftarga qizil siyohda muallifning o‘z qo‘li bilan yozilgan. Hajmi 79 bet”³¹, – deb ma’lumot beradi jadidshunos Begali Qosimov. “Afg‘on sayohati”da Avloniy Kobul shahrining Sherdarvoza tog‘ etagida joylashgan Bog‘i Bobur haqidagi taassurotlarini shunday bayon qiladi³²: “3-sentabrda ma’ruf bog‘laridan o‘lan Bog‘i Boburga bordik. Bu bog‘ning shimol tarafida Boburning ... maqbarasi bordir. Maqbaraning janub tarafida tom sangi marmardan bino qilinmish bir masjid bor. Bu masjidda zamoninda qirq ming rupiya xarajot o‘ldig‘in, binosining Zahiriddin shoh bino qildig‘in so‘yladilar. Bu bog‘da Boburning o‘z qo‘li ila ekilmish chinorlar va boshqa daraxtlar mavjud”³³. Shu qisqagina ma’lumotning o‘zida ham o‘quvchi Bobur Mirzoning bunyodkor, yaratuvchi, tabiatni sevuvchi, go‘zallikka oshno qiyofasini aniq tasavvur etadi.

Tarixdan ma’lumki, Bobur Mirzo afg‘on yerlarini qo‘lga kiritgandan so‘ng u yurtlarda temuriy hukmdorlarga xos bo‘lgan obodonchilik, bunyodkorlik ishlarini

³¹ Avloniy A. Tanlangan asarlar. 2 jildlik, 2-jild. – T.: Ma’naviyat. 2006. – B. 275.

³² Qarang: Rajabova B. Abdulla Avloniy Bog‘i Bobur haqida. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburiylar. Qomusiy, ilmiy va ilmiy-ommabop maqolalar to‘plami. 5 jildlik I jild (A-B) tuzuvchi muallif Rustamxo‘jayev J.Sh. – T.: Zilol buloq, 2023. – B. 15.

³³ O‘sha joyda.

boshlab yuboradi. Bobur Mirzoning sa'y-harakati bilan Kobulda "Bog' shahrora", "Bog'i jahonora", "O'rtabog'", "Bog'i Vafo" kabi bog'lar, oromgohlar barpo qilingan. Boburshunos olim Hasan Quadratullayev ham bu haqda: "Bobur uzoq Afg'onistonda Amir Temur nabirasi Mirzo Ulug'bekdan qolgan bir bog'ni muqaddas bilib, bu joyni temuriylarning bir parcha Vatani sifatida qadrlagani va bu bog' egasini rozi qilib, uni sotib olgani muhim. Bobur bu bog'ga boshqa imoratlardan ko'ra juda katta mehr qo'yib, unga aslidan ham go'zalroq tus beradi"³⁴, – deydi.

"Afg'on sayohati"da ma'lumot berilgan bog' bilan Hasan Quadratullayev fikr yuritayotgan bog' aslida bitta bog' bo'lib, u avval Bog'i Navro'ziy deb atalgan. Bog'ga Ulug'bek Mirzo Kobuliy asos solgan. Bobur Mirzo Kobulni qo'lga kiritgandan 5-6 oy o'tib "aksar qazoqliklarda va fataratlarda" doim o'g'li yonida bo'lgan onasi Qutlug' Nigorxonim vafot etadi. Bu haqda "Boburnoma"da: "Muharram oyida mening onam Qutlug' Nigorxonimga hasba marazi oriz bo'ldi, fasad qildilar noqis voqi' bo'ldi... olti kundan so'ng shanba kuni Tengri rahmatig'a bordi. Ulug'bek Mirzo tog' domanasida bog' imorat qilib edi, Bog'i Navro'ziy otliq. Varasasining ruxsati bilan yakshanba kuni bu boqqa kelturub... tufroqqa topshurduk"³⁵, – deydi Bobur Mirzo.

Mana shu ma'lumotdan so'ng nima uchun Bobur Mirzo bu bog'ni "katta mehr qo'yib unga aslidan ham go'zalroq tus ber"ganini (H. Quadratullayev) yoki nima uchun bu bog'da Boburning o'z qo'li ila ekilmish chinorlar va boshqa daraxtlar mavjud"ligini (A. Avloniy) anglab yetamiz. Ko'z o'ngimizda sarson-sargardonliklarda jang-u jadallarda, farog'atsiz, befayz kunlarda zarra og'rinmay, onalikning beminnat, beta'ma mehri bilan g'urbatda g'arib o'g'liga dalda tayanch bo'lgan onaning abadiy oromgohini gul-u gulzorga burkayotgan Bobur Mirzoning nurli qiyofasi namoyon bo'ladi. O'zi bir umr Vatanga qaytish istagida yashagan Bobur Mirzo hech bo'lmasa onasini temuriylarga meros bog'ga dafn etib, bu bog'ni vatan qadar e'zozlagani ham e'tirofqa loyiq.

³⁴ Quadratullayev, H. Bobur armoni. – T.: Sharq, 2005. – B. 173.

³⁵ Bobur, Zahiriddin Muhammad. Boburnoma. – T.: Sharq, 2002. – B. 125.

1540-yil Boburning xoki Agradan olib kelingandan so‘ng, u Bog‘i Bobur deb ham atala boshlagan. Bog‘ning uzunligi 550 gaz, maqbaraga chiqiladigan zinapoyaning balandligi 50 metr atrofida. Boburiylardan Jahongirshoh va Shohjahon, keyinchalik Afg‘oniston hukmdorlari Nodirshoh va Zahirshoh bog‘da obodonchilik ishlarini amalga oshirgan”³⁶.

Yuqorida Avloniyning “Afg‘on sayohati”da qayd etilgan: “maqbaraning janub tarafida tom sangi marmardan bino qilinmish masjid” Shohjahon zamonida qurdirilgan bo‘lib, u oq marmardan bunyod etilgan. Guvohi bo‘lganimizdek, Abdulla Avloniyning muxtasar ma‘lumoti orqali bugungi kun o‘quvchisi vatanparvarlik, yaratuvchilik va bunyodkorlikni o‘ziga kasb tutgan, podshoh va ayni paytda uzoqni ko‘ra bilgan, oqibatli, mas‘uliyatli, mard va tadbirkor farzand Bobur Mirzoni yana bir bor kashf etadi.

XIX asrda Angliya va Amerikada Bobur Mirzoning hayoti va faoliyati har tomonlama qizg‘in o‘rganila boshladi, xususan, “Boburnoma” eski o‘zbek va fors tilidan ingliz tiliga bir necha bor qayta-qayta tarjima qilindi. “Boburnoma”ni nemis va fransuz tillariga tarjima qilish ham jadallashdi. Mana shu jarayonda Boburning serqirra faoliyatidan, “Boburnoma”dan ta’sirlangan g‘arb sharqshunoslari, adiblari tomonidan Bobur Mirzo va boburiylar haqida ilmiy, ilmiy-ommabop va badiiy asarlar yaratila boshladi.

1992-yilda tashkil topib, haqli e’tirofga loyiq faoliyat ko‘rsatib kelayotgan Bobur xalqaro fondi ekspeditsiyasining xorijiy safarlari natijasida yurtimizga olib kelingan, avstriyalik nemis olimi va yozuvchisi Frits Vyurtlening “Bobur-yo‘lbars” – “Babur, der Tiger” (o‘zbek tilida “Andijon shahzodasi” (tarjimon Y.Egamova) deb nomlangan sarguzasht qissasi xorij badiiy boburshunosligida o‘z o‘rniga ega asar. Qissada ko‘hna Turkiston, xususan, Farg‘ona mulkida XVI asrning boshlarida ro‘y bergan tarixiy voqealar asarning boshidanoq sujetga asosiy qahramon sifatida kirib kelgan, sujet rivojlangan sayin bosh qahramon darajasiga ko‘tarilib, o‘zining jismoniy va aqliy kamoloti bilan kitobxonni maftun etadigan yosh bolakay Bobur obrazi bilan bog‘liq holda tasvir etiladi.

³⁶ Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi. –T., Sharq, 2014. – B. 189.

Frits Vyurtle: “dilbar shaxs... mard va tadbirkor odam” (J.Neru), “insonlar ichida eng botiri” (E.Xolden), “faqat Boburgina ikki yuz kishilik qo‘shini bilan o‘n besh minglik Shayboniyxon qo‘shinidan Samarqandni tortib ola olar” (N.I.Veselovskiy), “har qanday sinovlarga bardosh bera oluvchi, iroda va matonatni mujassamlashtirgan...zarur bo‘lganda jazolashga ham, avf etishga ham qodir zot” (Pavel de Kurteyl) kabi Bobur xarakteri ildizlarini uning tashna bolaligidan topadi. Bu ildizlarni yozuvchi oddiy tafsilotlarda emas, kuchli dramatik kolliziyalar, xarakterlar to‘qnashuvi, psixologik vaziyatlar bilan bog‘liq holda ochadi.

Sarguzasht-qissa tabiatiga mos asar sujeti voqealari ancha tezkor kechadi. Ichki g‘alayonlarga, yangidan yangi qahramonliklarga o‘ch Zahiriddin xarakterini ochish uchun yozuvchi o‘tkir intrigalarga, keskin o‘zgarishli situatsiyalarga boy sujet tanlaydi. Asar tilidagi yumorga moyillik ham qissaning umumiy ruhiga ko‘tarinkilik, samimiylik bag‘ishlaydi. Bu, ayniqsa, Zahiriddin va ustoz Mirzo Ulloh, Zahiriddin va Sepkilvoy, jallod va Sepkilvoy munosabatlarida yaqqolroq ko‘rinadi.

“Bobur – yo‘lbars” amerikalik sharqshunos Harold Lamb qalamiga mansub bo‘lib, bu asar yozuvchining juda katta ijodiy, ilmiy, qiyosiy izlanishlari natijasida dunyoga kelgan. Muallif Bobur haqidagi juda ko‘p ma’lumotlarni qiyosiy o‘rganib, xolisona, obyektiv xulosalar chiqarishga harakat qilar ekan, “Boburnoma”ning yo‘qolgan sahifalaridagi ma’lumotlarni ham boshqa manbalar asosida to‘ldirib, o‘z asarida Bobur Mirzoning ham insoniy, ham ijtimoiy qiyofasini yaxlit, mukammal yarata oldi.

Harold Lamb yosh bo‘lishiga qaramasdan o‘zining davlat boshqaruvidagi aniq rejalariga ega bo‘lgan Bobur Mirzoning shijoatli qiyofasini kitobxonga shunday tanishtiradi: “Tangri taoloning marhamatiga umid bog‘lab harakatlanar ekan, Bobur Mirzoning ko‘nglida uning mamlakati va xalqining taqdiri haqidagi mas’uliyat unga tinchlik bermasdi. Uning ishtiyoqi sohibqiron Amir Temurning boy berilgan mulkini tiklash va Samarqandga mamlakatning madaniyat markazi sifatidagi mavqeyini qaytarib berish edi... yosh shahzodaning asosiy maqsadi

bobokaloni Amir Temurning niyatlarini amalga oshirish va shu bilan bu buyuk sulolaning avvalgi qudrati va obro'yini qayta tiklash edi. Bu rejani amalga oshirishga Bobur Mirzo bir daqiqa bo'lsa ham ikkilanmas, uning qarori qat'iy edi”³⁷.

Asar muallifi buyuk maqsadlari yo'lida hech qachon og'ishmaydigan Bobur Mirzoni g'oliblik sururi, mag'lubiyatlar alami, xiyonatlar iztirobi, zafarlar shukuhi orasidan olib o'tib tasvirlar ekan, kitobxon qalbi bir ma'rifiy nurdan ravshan tortadi: inson orzusi ezgu niyatlar asosiga qurilsa, bu orzu umuminson, umumbashar manfaatiga mos bo'lsa, uning qayerda amalga oshishi emas, umuman amalga oshganining o'zi muhimroqdir. Muallif konsepsiyasiga mos talqin etilgan mana bu tasvir ham yuqoridagi fikr asar mohiyatini belgilab berganini ko'rsatadi: “Bobur Hindistonga o'zi bilan birga temuriy shahzodalarga xos udumlar – musiqa va she'riyatga bo'lgan ishtiyoqni ham olib keldi. Hech bir kutilmagan va noqulay joylarda bog' yaratish odati esa unga “Bog'bon podshoh” degan nom olib berdi. Uning ortidan Agraga gul va sersoya daraxtlarga burkangan bog'lar ham ergashib keldi... yo'l bo'ylarida oq va qizil toshlardan qurilgan saroylar, ulkan masjidlar va maqbaralar qad ko'tardi. Boy berilgan Samarqandni Hindistonga olib keldilar”³⁸.

Britaniyalik sharqshunos va tarixchi Vilyam Rashbrukning Bobur Mirzoning Andijonda tug'ilishidan Agraga vafotiga qadar bo'lgan hayot yo'li ijtimoiy-siyosiy bayoni³⁹ berilgan asari “O'n oltinchi asr bunyodkori” deb nomlanadi.

Asar muallifi V.Rashbruk o'z asarida Bobur Mirzo hayoti va faoliyati bilan bog'liq bo'lgan boshqa tarixiy-adabiy manbalarni “Humoyunnoma”, “Habib us-siyar”, “Tarixi Rashidiy”, “Tabaqoti Akbariy kabi asarlardan foydalanib o'z qahramoni haqida qo'shimcha ma'lumotlar va ilmiy dalil to'playdi. Kitobxon aynan shu asar orqali Bobur Mirzoning Eron safaridan xabar topadi. Eng mo'tabar ma'lumot shundaki, Bobur Mirzo Eron shohi Shoh Ismoilning Turk sultoni Salim Qaysar bilan bo'lib o'tgan muhorabasida ishtirok etadi. Demak, Rashbruk keltirgan ma'lumotlardan shu narsa aniq bo'ladiki, Bobur Mirzo o'z qo'shiniga harbiy

³⁷ Lamb H. Bobur – yo'lbars. – T.: O'zbekiston, 2018. – B. 55.

³⁸ O'sha asar. – B. 288.

³⁹ Mashrabov Z. So'zboshi / Rashbruk Vilyam. O'n oltinchi asr bunyodkori. – T.: Sharq. 2011. – B. 6.

texnikani turklardan ko‘rib olib kirgan ekan. Asarda tasvirlanishicha, Bobur Mirzo turk mutaxassislarini taklif etib, Kobuldagi metall konlaridan foydalanib zambarak va miltiqlar yasab, harbiy texnikasini mustahkamlab olgan. Asarning xuddi “Boburnoma” kabi sodda tili, ravon uslubi uning muvaffaqiyatini, yozuvchining esa iste’dodini ko‘rsatib turibdi.

Zahiriddin Muhammad Boburning siymosi g‘arb tillaridagi badiiy asarlar-qissa, roman, dramalarda asosan mo‘g‘ul imperatori, sarkarda va buyuk me‘mor sifatida gavdalantirishga qaratilgan. Bu asarlarning aksariyati Hindiston va Buyuk Britaniya ijodkorlari tomonidan yozilgan bo‘lib, ijod tili sifatida ingliz tili imkoniyatlaridan unumli foydalanganlar.

Hindistonlik yozuvchi Amar Chitra Kathaning 1977-yilda yaratilgan “Bobur: Hindistonning birinchi mo‘g‘ul imperatori”⁴⁰ nomli badiiy-illustrativ qissasi hindistonlik adabiyot muxlislari tomonidan iliq qarshi olingan va takror-takror chop etilgan asarlar sirasiga kiradi. Kitobning ahamiyati shundaki, u illustratsiya suratlar bilan bezatilgan bo‘lib, asarni tarixni chuqur bilmaydigan oddiy kitobxon ham osonlik bilan tushunadi. Asar sujeti esda olib qolish uchun rangli suratlar bilan bezatilgan. Yozuvchining hikoya qilish uslubiga ko‘ra suratlar qahramonlarning dialoglari bilan to‘ldirgan bo‘lib, “Boburnoma” sujetlari asosidagi tarixiy voqealarga to‘la muvofiq keladi. Muallif rasmlar va dialoglar vositasida Bobur obrazini mohir jangchi, kuchli imperator, janglarda toblangan podshoh etib tasvirlaydi. Bu haqda yozuvchining o‘zi shunday deydi: “Bobur 1483-yilda tug‘ilgan bo‘lib, uning otasi Umarshayx qorli Farg‘ona vodiysini boshqarar edi. O‘sha paytda Boburning Hindistonga borib, Boburiylar saltanatini barpo etishini hech kim oldindan aytib bera olmas edi. Bobur yuksak mahoratli yozuvchi va shoir bo‘lgan. Darhaqiqat, u biz tarixda bevosita o‘z qalami orqali ma’lumot olishimiz mumkin bo‘lgan kamdan kam shaxslardan biridir. Boburning o‘z hayoti va davri haqidagi hikoyasi shu qadar samimiylik va to‘g‘rilik bilan bitilganki, uning kundaligi – “Boburnoma” haqiqatning shak keltirilmaydigan

⁴⁰ Amar Chitra Katha. Babur: The first mughal emperor of India illustrated comic books . India. paperback – 1 January 1977. P. 36.

ifodasiga aylangan. Bobur nafaqat yaxshi jangchi va iste'dodli sarkarda, balki oqil va adolatli hukmdor ham edi. Shuning uchun u qayerga bormasin, hatto baxtsizlik paytida ham, oddiy xalq va askarlar uning atrofiga to'planishar edi"⁴¹.

Shuningdek, asli Pokistonda tug'ilgan, hozirda Amerika Qo'shma Shtatlarida faoliyat olib borayotgan yozuvchi, dramaturg va tarixchi Farzona Mun asarlari ham butun dunyoda katta qiziqish bilan o'qilmoqda. Uning Bobur va boburiylar timsolini yoritish borasida uzoq yillardan beri mehnat qilib kelayotgani tahsinga sazovor. Adibaning "Bobur Hindistondagi birinchi boburiy hukmdor"⁴² nomli badiiy-publitsistik asari ham jamoatchilik tomonidan ko'p o'qiladigan kitoblar sirasiga kiradi. Asarda Boburning hayoti va hukmronligiga oid biografik ma'lumotlar badiiy mahorat bilan yozilgan hamda o'quvchini Boburning Afg'onistondagi hayoti chog'lariga qaytaradi. Asar 39 ta bo'limdan tashkil topgan bo'lib, unda Boburning Kobuldagi sargardonlik yillaridan tortib, Hirotga umid bilan borishi, Samarqandga qayta yurish qilishi, Kobulda oilaviy hayotini yo'lga qo'yishdan tortib, Mohim begim ikkisi o'rtasidagi samimiy muhabbat, Humoyunning tug'ilishi hamda Hindistonga bo'lgan rejali yurishlar hamda zaharlanish voqealari badiiy jilolanish bilan aks ettiriladi. Shu bilan birga Boburning san'at, musiqa, va me'morchilik ishlaridagi tashabbuskorligi, yaratuvchanligi, ko'plab bog'lar, saroylar barpo etgani gavdalantiriladi. Asarda uning ruhiyatidagi shoirlilik, fitratidagi mardlik va saxiylik qirralari asarda alohida ochib berilgan.

Hindistonlik yana bir mashhur adiba, dramaturg Royina Greval qalamiga mansub "Bobur - Hindiston fотиhi"⁴³ deb nomlanuvchi asar ham Bobur va Humoyun siymolarining ma'lum bir qirralarini ochib berishda badiiy ahamiyatga ega sanaladi. Muallif Boburni Amir Temurdan qolgan saltanatni tiklovchi voris sifatida ko'rsatadi va bir paytlar Temur hukmronlik qilgan xazinalar o'lkasi – Hindistonga yurish qilishini batafsil tasvirlaydi.

⁴¹ Amar Chitra Katha. Babur: The first mughal emperor of India illustrated comic books India. paperback –1977. P.3.

⁴² Farzana Moon. Babur, The first Moghul. 2011. Hamilton Books . 2011. P: 260.

⁴³ Royina Grewal. Babur: Conqueror of Hindustan. Rupa Publications. 2015. P. 432.

Asarda Boburning o‘z merosxo‘ri Humoyunning jangovar mahoratidan quvonishi va ularning jang maydonlaridagi ishtiroki kabi epizodlar ta’sirli gavdalandirilgan. Lekin muallifga ko‘ra, asardagi asosiy konfliktlar tashqi dushmanlarning kuchida emas, balki ichki dushmanlar – Boburning rafiqalari o‘rtasida hamda Humoyunning rafiqasi Sonaning kirdikorlari o‘rtasida hosil qilingan. Asarda Bobur va Humoyunning o‘z yaqinlariga bo‘lgan ishonch tuyg‘ulari sinovdan o‘tkazdiriladi.

Buyuk Britaniyalik taniqli dramaturg, yozuvchi Aleks Ruzerfordning boburiylar taqdiriga bag‘ishlangan 6 ta romanlar turkumining birinchisi Bobur obraziga qaratilgan bo‘lib, asar kitobxonlar orasida juda mashhur bo‘lib ketgan. Bu roman “Shimoldan mo‘g‘ullar bosqini”⁴⁴ deb nomlanadi. Boburning Farg‘onadagi ilk yoshlik chog‘lari, otasidan bevaqt ajralishidan tortib, Hindistonga kirib kelishi bilan bog‘liq voqealarda u mohir jangchi, bobosi Amir Temurga g‘oyibona ergashishi kabi yorqin epizodlar asarda aks etadi.

2024-yilning fevral oyida e‘lon qilgan hindistonlik yana bir adib taniqli yozuvchi, tarixchi Abas Maldahiyarning “Bobur – shohlar jangining qiroli”⁴⁵ nomli qissasi kitobxonlar orasida bir zumda mashhurlikni qo‘lga kiritdi. Asarda muallif boshqa yozuvchilardan farqli ravishda Boburni to‘g‘ridan to‘g‘ri Hindistonda temuriylar saltanatining asoschisi sifatida tilga oladi, boshqa adiblar kabi “buyuk mo‘g‘ul” degan yanglish atamani qo‘llashdan yiroq turadi. Hikoya qilinayotgan voqealarda Boburning 1494-yil otasining fojeali o‘limidan so‘nggi xiyonatkorona siyosiy muhitda tinimsiz kurash olib borishi, bu qiyinchiliklarni mohirona yengib o‘tgani, oqibatda uning ““Bobur – shohlar jangining qiroli” taxallusiga munosib bo‘lgani sirlari ochib beriladi. Asarda Boburning Vatanini qaytarib olib umididan voz kechib, Kobulda hukmronlik o‘rnatishi, keyinchalik Hindiston tomonga kengayish ambitsiyasi ham muhim bosqich sifatida ta’sirli tasvirlangan. Husayn Mirzo vafotidan so‘ng ro‘y bergan muvaffaqiyatsizliklar fonida Bobur obrazi yagona umidli temuriy shahzoda sifatida ochib beriladi.

⁴⁴ Alex Rutherford. *Empire of the moghul brothers at war*. London. Headline review. 2010. p. 516.

⁴⁵ Aabhas Maldahiyar. *Babur: The Chessboard King (vol 1)* 2024. Vintage Books. P. 480.

Asar Bobur hukmronligining dastlabki 13-14 yillik notinch davrini qamrab olib, bu davr muallif tomonidan surgun, qisqa muddatli g‘alabalar va mo‘rt ittifoqchilik munosabatlaridan tashkil topganini ko‘rsatib berishi bilan qiziqarlidir.

Shuningdek, Bobur va keyingi boburiy hukmdorlar hayoti, faoliyati to‘g‘risida ingliz tilida yana ko‘plab publitsistik ruhdagi asarlar yaratildiki, bu kitoblarning turkum-turkum⁴⁶ bo‘lib yozilishi Hindiston va Yevropada mazkur sulolaning tarixiga qiziqish o‘ta yuqori tarzda saqlanib qolingani dalolatdir.

Yuqoridagilardan ko‘rish mumkinki, Bobur timsoli inglizabon adabiyotlarda asosan buyuk hukmdor sifatida gavdalantirilgan hamda jangovar ruhdagi sahnalarga ko‘proq e‘tibor qaratilgan.

1.2. “Shayboniynoma” dostonida davrning ijtimoiy tavsifi va muallif konsepsiyasi

XV asr o‘zbek adabiyotining atoqli namoyandalaridan biri Muhammad Solihning “Shayboniynoma” asari temuriylar inqirozidan so‘ng tarix sahnasiga chiqqan shayboniylar sulolasining asoschisi, XV asr oxiri – XVI asr boshlarida yashagan hukmdor, lashkarboshi Muhammad Shayboniyxonning temuriylarga qarshi kurashi, qo‘lga kiritgan g‘alabalari haqidagi dostonidir.

Noittifoq temuriy mirzolarining uquvsizligidan foydalanib, Movarounnahr va Xuroson sarhadlaridagi ko‘plab zafarli yurishlarni amalga oshirgan, O‘rta Osiyoda juda oz fursatda o‘z hokimiyatini o‘rnatishga muvaffaq bo‘lgan Muhammad Shohbaxt – Shayboniyxon va unga qarshi kurashda mutlaq yolg‘izlanib qolgan yosh temuriyzoda Bobur Mirzo XVI asrning birinchi choragi Turonzamin tarixida alohida mavqega ega muhim shaxslar edi.

Xuddi ana shu muhimlik XVI asr o‘zbek adabiyotining ham og‘zaki, ham yozma manbalarida ma‘lum bir g‘oyaviy-estetik qarashlarni o‘zida ifoda etgan

⁴⁶ William Dalrymple. The Last Mughal Vintage. 2008. Annemarie Schimmel. The Empire of the Great Mughals. Reaktion Books. 2006; Jadunath Sarkar. The Fall of the Mughal Empire. Ams Press. 1972; Nandini Chatterjee. Negotiating Mughal Law. A Family of Landlords across Three Indian Empires 978-1108736961. 2022; Ira Mukhoty. Daughters of the Sun: Empresses, Queens and Begums of the Mughal Empire. Audible Studios. 2018; Munis Faruqi. The Princes of the Mughal Empire, 1504–1719. 2015; Audrey Truschke. Culture of Encounters: Sanskrit at the Mughal Court. Columbia university Press. 2016.

asarlarning yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Bu haqda folklorshunos olim Umrzoq Jumanazarov shunday fikr bildiradi: "XV asrning oxiri va XVI asrning boshlarida Movarounnahr hamda Xuroson tarixida Shayboniyxon shaxsiyati juda katta ahamiyat kasb etgan. U Samarqand tuprog'idan Boburni quvibgina qolmay, balki temuriylar sulolasining tugatilishiga ham erishdi. Shayboniyxon saroyidagi shoirlar, qolaversa, mehnatkash xalq o'rtasida ijod etuvchi xalq baxshilari omadi kulib boqqan Shayboniyxon, o'z yurtidan quvilgan omadsiz Bobur singari hukmdorlar haqida asar yaratganlar. Buyuk sarkardalar, hukmdorlar haqida tarixiy, badiiy asarlar yaratish an'anasi og'zaki ijodda ham, yozma adabiyotda ham kuchli bo'lib, bu davrlarda ham ana shu an'anaga to'la amal qilgan. Darhaqiqat, xalq baxshisi Muhammad Jomurot o'g'li Po'lkandan yozib olingan "Shayboniyxon", Qodir baxshi Rahim o'g'lidan yozib olingan "Oychinor" dostoni xuddi ana shu epik an'ananing mahsuli edi"⁴⁷.

Olim ta'kidlagan an'ana o'laroq yuzaga kelgan, biz fikr yuritmoqchi bo'lgan asar – Muhammad Solihning "Shayboniynoma"sidan tashqari bu davrda yozma adabiyotda Mullo Shodiyning 76 bobdan iborat "Fathnomayi xoniy" (Xonning g'alaba kitobi), Binoiyning "Shayboniynoma" va "Futuhoti xoniy" (Xonning g'alabalari), tarixchi Ro'zbehonning "Mehmonnomayi Buxoro" kabi asarlari yaratilgan.

Tarixchi olim Bo'riboy Ahmedovning "Tarixdan saboqlar" kitobida ta'kidlanishicha, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Sharqshunoslik institutida 844-raqamda saqlanayotgan, Shayboniyxonning shaxsiy kotibi Mirza Muhammad munshiy tomonidan ko'chirilgan Kamoliddin Binoiyning "Shayboniynoma"si "...ba'zi varaqlarini (3a, 24a, 31a, va b.q.) Muhammad Shayboniyxon o'z qo'li bilan ko'chirgan"⁴⁸ ekan.

Bu ma'lumotdan ko'rinib turibdiki, xon o'zi haqida yozilgan asarlar bilan qiziqqan, yoqqanlarining mualliflarini munosib taqdirlagan, hatto sifatli ko'chirilishga bosh-qosh bo'lgan, shaxsan ishtirok ham etgan.

⁴⁷ Jumanazarov U. O'zbek folklori va tarixiy voqelik. – T.: Fan, 191. – B. 60.

⁴⁸ Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. – T.: O'qituvchi, 1994. – B. 216.

Yuqorida nomlari sanalgan asarlarning deyarli hamma mualliflari Shayboniyxon saroyida xizmatda bo'lgan, uning lutf-u karamiga sazovor bo'lgan ijodkorlar bo'lib, bular yaratgan Shayboniyxonga bag'ishlangan yozma adabiyot namunalari bevosita xonning o'z topshirig'i bilan yuzaga kelgan.

O'zbek xalq tarixiy eposining mumtoz namunasi hisoblangan "Shayboniyxon" ham aynan o'sha davrda xonning saroy baxshilari tarafidan yaratilgan doston. To'g'ridan to'g'ri xonning nomi bilan ham yozma, ham og'zaki ijodda salmoqli tarixiy dostonlarning yaratilishi o'sha davr adabiy muhitining mavjud ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayot bilan tig'iz aloqasini ko'rsatadi.

Ma'lumki, xalq dostonlarida "Epik personajga aylantirilgan tarixiy shaxslar timsoli tasvirida to'qimalashtirish, xalqona usulda mubolag'alashtirish jarayoni ko'zga tashlanib turadi"⁴⁹. "Shayboniyxon" dostonida ham mualliflar aynan shu yo'ldan borib, tarixiy qahramon Shayboniyxonning (dostonda Shayvali) xos xususiyatlarini motivlar harakatida (bosh qahramonning safarga chiqishi, ayiq bilan kurashib, uni yengib, terisini shilib yopinib olishi, oyog'iga choriq qilib kiyishi, o'zi qo'ngan xonadonga muruvvat ko'rsatishi, g'ayrioddiy kuchlar, aziz avliyolarning madadida bo'lishi, qur'a tashlashdagi omadi) ko'rsatib, uni qo'rqmas, jasoratli, saxovatpesha, bag'rikeng, ilohiy kuchlar homiyligidagi afsonaviy qiyofasini ideallashtirishga harakat qilganlar.

Muhammad Solihning "Shayboniynoma"si yozma adabiyot namunasi bo'lishi bilan birga uning tilida, ifoda uslubida xalq dostonlarining nafasi seziladi.

"Shayboniynoma" XVI asr o'zbek adabiyoti va tilining nodir yodgorligi, memuar xarakterdagi ilk realistik tarixiy doston, ammo muallifning bosh qahramon – Shayboniyxonga bo'lgan cheksiz mehri va e'tiqodi asar sujeti rivojida tendensioz xarakterning yetakchiligini ta'minlagan. Shu o'rinda adabiyotshunos Natan Mallayevning: "Muhammad Solih ...dostonning asosiy boblarida uning 1499–1506-yillardagi faoliyatini, temuriylarga qarshi olib borgan kurashini batafsil so'zlaydi. Shayboniyni adolatli, ma'rifatli va xalqparvar podsho deb ko'klarga

⁴⁹ Rahmatov Y. Tarixiy dostonlarda tarixiy shaxs obrazining epik talqini ("Oychinor" va "Shayboniyxon" dostonlari misolida). 10.01.09. – Folklorshunoslik. Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya. – T., 2009. – B. 48.

ko'tarib maqtaydi, uni ideallashtiradi..."⁵⁰ – deydi. Natan Mallayev Muhammad Solihning asarda Shayboniyxonning bosqinchilik, zulmkor siyosati tasdig'iga xizmat qiladigan ijodiy konsepsiyasi haqida to'g'ri ko'rsatib, Muhammad Solih "...uning (Shayboniyxonning – Y.K.) har bir tadbirini din va shariatning zafari deb ta'riflaydi... Shayboniyini "Jamshidi davron", "Sulaymoni zamon" deb atab, uni Iskandar, xalifa Haydar va boshqalar bilan tenglashtiradi. Muhammad Solih madhiyaxonlik ruhidagi o'z ta'rif va tavsiflari bilan Shayboniyxonni ideallashtirib, uning obro'-e'tiborini oshirishga, yangi sulolaning hokimiyatini mustahkamlashga intilgan"⁵¹, – deydi.

O'zbek adabiyotshunosligining tamal toshini qo'ygan Abdurauf Fitrat ham o'tgan asrning 20-yillarida yaratilgan o'zining "Muhammad Solih" maqolasida shoirning "Shayboniyнома" dostonini yaxlit bir nazar bilan baholar ekan: "Shayboni(y)нома"ning o'zbek tarixini o'rganish nuqtayi nazaridan (birinchi darajada bo'lmasa ham) ahamiyati bor. Shayboni(y)ning 6 yillik urushlari bunda tafsiliy ravishda ko'rsatiladi. Biroq, bu voqealarning judayam tarfgirlik bilan yozilmog'i asarning tarixiy qimmatini kamaytiradir"⁵², – deydi.

"Shayboniyнома" dostonida muallif badiiy tafakkurining yetakchi xususiyati bo'lgan bir yoqlamalik, tarfkashlikni nafaqat Abdurauf Fitrat, nafaqat Natan Mallayev⁵³, balki ushbu asar tadqiqi, nashri bilan shug'ullangan boshqa olimlar: Nasrullo Davron⁵⁴, Ergash Shodiyev⁵⁵, Vahob Rahmon⁵⁶ kabi adabiyotshunoslar ham ta'kidlashgan.

Muhammad Solihning tarjimai holi haqida fikr yuritib, olimlarimiz, albatta, shoirning bu insoniy va ijodiy pozitsiyasining sabablarini ham oydinlashtirganlar.

⁵⁰ Mallayev N. O'zbek adabiyoti tarixi. – T.: Kafolat print company, 2021. – B. 496.

⁵¹ O'sha manba. – B. 497-498.

⁵² Fitrat A. Tanlangan asarlar. – Jild II. Ilmiy asarlar. – T.: Ma'naviyat, 2000. – B. 82.

⁵³ Mallayev N. O'zbek adabiyoti tarixi. – T.: Kafolat print company, 2021.

⁵⁴ Davron N. Shoir Muhammad Solih va uning "Shayboniyнома"si haqida // Muhammad Solih. Shayboniyнома. O'z FA nashriyoti. – T.: 1964.

⁵⁵ Shodiyev E. Muhammad Solih // Muhammad Solih. Shayboniyнома. – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1989. – 336 b.

⁵⁶ Rahmon V. Muhammad Solih // Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi. – T.: Sharq, 2014. – B. 367.

Muhammad Solih (tavalludi: 1455-yil, vafoti: 1535-yil) boshlang'ich ma'lumotni o'zi tug'ilgan diyori Xorazmda olgach, Hirotga kelib, keyingi tahsilni Abdurahmon Jomiydek buyuk mutafakkir huzurida davom ettiradi.

O'sha davr Hirot adabiy-madaniy hayotiga butun vujudi bilan sho'ng'igan Muhammad Solih arab-fors tillarini mukammal o'rganishga harakat qiladi. Xattotlik san'atini to'liq egallaydi, ayni paytda she'riyatga mehr qo'yib, Solih taxallusi bilan ijod eta boshlaydi. Abdurahmon Jomiy maktabidan bahramandlik o'laroq ijodi kamolot sari odimlayotgan Muhammad Solih Alisher Navoiyning ham e'tiborini qozonadi. Aytish mumkinki, Muhammad Solihning o'zi, otasi – Nur Saidbek, o'g'li Ulug'bek Mirzolar o'z davrining tarixchilari, tazkiranavislari nazarida bo'lganlar.

Muhammad Solih va uning otasi Nur Saidbekning iste'dodi, shaxsi haqida "Majolis un-nafois"da o'qisak, o'g'li Ulug'bek Mirzo haqida "Muzakkiri ahhob"da shunday qayd etilgan: "Mirzo Ulug'bek amir Muhammad Solihning o'g'lidir. Ulug'bekning ham yaxshi tab'i bo'lgan va bu matla' undan naql qilinadi.

Matla':

Ey, xush ul kunlari ko'nglim vaslidan xushhol edi,
Axtarim farzandavu baxtli humoyun fol endi"⁵⁷

kabi ma'lumotga duch kelamiz.

"Majolis un-nafois"ning ikkinchi majlisida Alisher Navoiy Nur Saidbekning shoirligi haqida muxtasarroq ma'lumot beradi: "Nur Saidbek – xorazmliq'. Tab'ining ne miqdor quvvat va latofati bor erkanin she'ridin bilsa bo'lur, o'qug'on bilg'ay"⁵⁸, – deydi. Va shu joyda Nur Saidbekning forsiy bir matla'sini o'quvchi hukmiga havola qiladi:

Moro dar in diyori tui dilnavozu bas,
Dorem az tu go'shayi chashmi niyozu bas"⁵⁹.

⁵⁷ Nisoriy H. Muzakkiri ahhob (Do'stlar yodnomasi): Tazkira. (Tarjima hamda so'zboshi va izohlar muallifi Ismoil Bekjon). – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1993. – B. 138.

⁵⁸ Navoiy Alisher. To'la asarlar to'plami. 10 jildlik. – T.: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2011. – B. 334.

⁵⁹ O'sha joyda.

(Ma'nosi: Bu diyorda bizning ko'ngil ovlovchimiz yolg'iz o'zingsan va sendan bir qiyo boqishingni o'tinamiz, xolos).

“Majolis un-nafois”ning beshinchi majlisida Alisher Navoiy Muhammad Solih bilan bog'liq ma'lumotlarga ancha keng joy ajratadi. Muhammad Solihning she'rlaridagi latiflik, ta'sirchanlikni nazarda tutgan holda “Tab'ida xiyla diqqat va choshni bor”⁶⁰, – desa, uning xattotlik mahoratiga: “Xatga ham qobiliyati ko'pdir”⁶¹ degan e'tirofini bildiradi.

Alisher Navoiy Muhammad Solihga munosabat bildirish asnosida dastavval uning otasi Nur Saidbekni eslab: “...ko'p vaqtlar Chahorjo'y navohisidin Aloq navohisig'a degincha amorat qildi va Sulton Abu Sa'id Mirzo eshigida, Ulug'bek va Jo'gi Mirzo eshigida sohib ixtiyor va jumlat ul-mulk erdi. Ammo bag'oyat badfe'l va badxulq kishi erdi”⁶², – deydi. Alisher Navoiy Muhammad Solihning tabiati otasinikidan butunlay o'zgacha ekanligini ta'kidlab: “O'zi muloyim yigitdur. Atvorining otasi atvorig'a nisbati yo'qtur”⁶³, – deydi.

Mana shu ta'riflardan keyin Jomiydek mutafakkirning mehrini qozongan Muhammad Solih shaxsiga, ijodiga Alisher Navoiyning ham befarq bo'lmaganligini, iste'dodi charaqlab ko'zga tashlanayotgan Muhammad Solihning kelajagiga katta umid bog'laganini sezish mumkin. Shuning uchun ham Muhammad Solihning Boyqaro xizmatidan ketib qolganini afsus bilan qayd etar ekan, uni yo'ldan ozdirgan muhosiblardan g'oyibona ranjib yozadi: “Anga g'arib sahv tushtikim, Sulton Sohibqiron qullug'idan g'aybat ixtiyor qildi. Ba'zi derlarkim, behudlig' olamida yomon musohiblar ani bu yomon yo'lga tutubturlar”⁶⁴. Muhammad Solihning otasi Nur Saidbekning temuriylar tarafidan o'ldirilishi, uning fojeiy taqdiri bilan bog'liq xotiralar shoirni Boyqaro saroyidan bosh olib ketishga sabab bo'ladi.

Abdurazzoq Samarqandiyning “Matlayi sa'dayn va majmayi bahrayn”ida aytilishicha, 1467-yil Dashti Qipchoq tomonda bir muddat qazoq (qo'nimsiz)

⁶⁰ O'sha joyda.

⁶¹ O'sha manba. – B. 398.

⁶² O'sha joyda.

⁶³ O'sha joyda.

⁶⁴ O'sha joyda.

bo‘lib yurgan Sulton Husayn Boyqaro Xorazm viloyatiga hamla qiladi. O‘sha paytda Xorazmning himoyasida turgan amir va beklar tarafidan jangda sustkashlikka, mas‘uliyatsizlikka yo‘l qo‘yiladi. Bundan qattiq g‘azablangan Abu Sa‘id Mirzo o‘sha beklar va amirlarni qattiq jazolashni buyuradi.

“... amir Pirdarvesh qavchin nogahon amir Nur Saidni tutib, bulut-u shamolga hamroh Hirot tomon jo‘natdi va uning butun mol-mulkini g‘orat-u torojga topshirdi. Amir Nur Said yigirmanchi rabi‘ ul-avvalda (19-oktabr 1467) Hirotga yetdi. Uni Ixtiyoruddin Hisorida tutib turdilar”⁶⁵, – deb yozadi Abdurazzoq Samarqandiy.

Abdurahmon Jomiyning aralashuvi bilan Abu Sa‘id Mirzo Nur Saidbekning gunohidan o‘tadi. U yana Xorazmga jo‘nab ketadi. Ammo Husayn Boyqaro taxtga o‘tirgach (1469), Nur Saidbek Xorazmdan chaqirib olinadi va Marvda o‘ldiriladi.

Nur Saidbekning o‘ldirilishi sababini Abdurauf Fitrat: “Husayn Boyqaro bilan Abusaid Mirzo orasidagi kurashda Nur Saidbekning Abusaid Mirzo tomonida turganini nazarga olganda uning Xorazmdan ikkinchi daf‘a chiqarilib, Marvda o‘ldirilganining Husayn Boyqaro amri bilan bo‘lishi ehtimoli kuchayadir”⁶⁶, – deya izohlaydi.

Bu mulohazasida esa Fitrat Shayboniyxon buyrug‘i bilan Chorjo‘y qal‘asi mudofaasini boshqarayotgan Muhammad Solihning chig‘atoy eliga xiyonatda ayblagan Husayn Boyqaroning o‘g‘li Abul Muhsinga qarata: “Men sizning javrungizdan o‘lgan otamning qasosini olyapman” degan javobiga asoslanadiki, bu javob “Shayboniynoma”da o‘z aksini topgan. Aytish mumkinki, Nur Saidbek o‘zaro qirg‘inbarot toj-u taxt talashlarida temuriy mirzolarning o‘rtasida jabr ko‘rdi. Nur Saidbekning boshiga tushgan kulfatlarda, balki Navoiy ta‘kidlagandek, uning o‘z tabiatidagi badfe‘llik, badxulqlikning ham ulushi bordir. Ammo dastavval Boyqaro hujumida sustkashlik qilgan deb Abu Sa‘id Mirzo tarafidan jazolangan, mol-mulki talon-taroj qilinib, sazoyi, sharmanda bo‘lgan Nur Saidbek,

⁶⁵ Samarqandiy A. Matlayi sa‘dayn va majmayi bahrayn. – T.: O‘zbekiston, 2008. – B. 574.

⁶⁶ Fitrat A. Tanlangan asarlar. – T.: Ma‘naviyat, 2000. Jild II. Ilmiy asarlar. – B. 73.

Boyqaro taxtga chiqqach esa Abu Sa'id Mirzo tarafdorlari qatorida yasoqqa tortiladi.

Temuriy mirzolarining o'zaro nizolari oqibatida kelib chiqqan o'rtasarsonlik muhiti qurboni bo'lgan padari uchun chekkan iztiroblari, yetimlik xo'rliklari, otasizlik azoblari Muhammad Solihning bir umrlik yurak og'rig'iga aylanganini shoir dostonning "Kitob nazmining sababi" faslida ancha ta'sirchan ifodalagan.

Ayriliqning o'tidan jonigina emas, balki "So'z-u g'am birla nihoni kuygan" Muhammad Solih shunday yozadi:

Mani gardun sitami qildi yetim,
Ayladi kishvari g'am ichra muqim.
Xorliklar bila o'stim bisyor,
Zorlig'lar bila ko'rdim ozor.
Har falokatki, bo'lur dunyoda
Hech qaysidan eman ozoda⁶⁷.

Shoirning so'zlaridan anglashilib turibdiki, Muhammad Solihning yetimlikdan tashqari ham uni doimo ta'qib etadigan azob bo'lgan. Bu shunday azobki, garchi Muhammad Solih Husayn Boyqaro saroyida yashab, ijod etib uning xizmatida yursa ham bir paytlari Abu Said Mirzoning tarafdori deya qatl etilgan otasiga bosilgan dushmanlik tamg'asining soyasi shoirning peshonasida aks etib turavergan. Shuning uchun ham shoir ne falokat borki, o'sha falokat ichida men bor edim, deb hasbi hol qiladi:

Gah Xuroson aro qildim manzil,
Gah Samarqandg'a bo'ldim moyil.
Quyuni oyini bila sargardon
Har nechuk bo'lsa, yurudum haryon.
Xidmat ettim bori mirzolarg'a
Bandalik andag'i donolarg'a
Ko'rmadim xayre mirzolarin

⁶⁷ Solih M. Shayboniynoma. – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1989. – B. 33. (Bundan so'ng ushbu nashrdan olingan ko'chirmalarning sahifasi qavs ichida ko'rsatiladi).

Tiladim ra'ye donolardan (346-b.) –

deya Muhammad Solih temuriylar ostonasini quyun yanglig' kezib, birontasining dargohidan xayr, e'tibor topmaganini arz qiladi. Shoirning "Gah Xuroson aro qildim manzil, Gah Samarqandg'a bo'ldim moyil" degan so'zlaridan bilish mumkinki, u Boyqaro saroyidan ketib, u yerda topmagan qadrni boshqa temuriy mirzolaridan qidirib ko'rgan, darhol Shayboniyxon tarafiga o'tib ketmagan.

Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois"da Muhammad Solihning Boyqaro saroyidan ketib qolganligi haqida og'rinib ma'lumot berganini nazarda tutgan holda Fitrat shunday yozadi: "Majolis un-nafois"ning 1490-yillarda yozilg'anin nazarg'a olg'anda, Muhammad Solihning Husayn Boyqaro xizmatidan, ham Shayboni(y)xonning Samarqandg'a tajovuzidan 8-9 yil burun qochg'ani onglashiladir. Demak: u Husayn xizmatidan qochg'andan keyin 8-9 yil boshqa temuri(y) hukmdorlari yonida xizmat qilg'an..."⁶⁸

Yuqoridagi fikrlar tasdig'ini "Boburnoma"ning 1495-1496-yil voqealari bayonida ko'rishimiz mumkin. Samarqand qamalida turgan Bobur Mirzo oldiga Sulton Ali mirzo tarafidan ittifoq va hamjihatlik o'rnatmoq maqsadida Xoja Yahyo elchi bo'lib keladi va ikki tarafni uchrashishga ko'ndiradi. Mana shu uchrashuv jarayonida Bobur Mirzo Sulton Ali mirzo odamlari ichida Muhammad Solihni ko'rganini aytadi: "Ul tarafdin Sulton Ali mirzo cheriki bila keldi. Naridin to'rt-besh kishi bila men Ko'hak so'yining oralig'ig'a kechib, ot ustida – o'q ko'rishib va so'z so'rushub, alar ul taraf bordilar, men bu taraf keldim. Mullo Binoiyini va Muhammad Solihni anda Xoja xizmatida ko'rdim. Muhammad Solihni o'shul bir qatla-o'q ko'rdim. Mullo Binoiy xud so'ngralar xeyli mening xizmatimda bo'ldi"⁶⁹.

Shu o'rinda tarixchi olim Bo'riboy Ahmedovning "Tarixdan saboqlar" kitobida keltirilgan quyidagi: "Binoiy Samarqandga kelgandan keyin dastlab Xoja Ubaydulla Ahrorning ikkinchi o'g'li xoja Qutbiddin Yahyoning xizmatiga kirgan. 1496-yilning iyul oyida shoir va tarixshunos olim Muhammad Solih bilan birga

⁶⁸ Fitrat A. Tanlangan asarlar. – T.: Ma'naviyat, 2000. Jild II. Ilmiy asarlar. – B. 74.

⁶⁹ Bobur Zahiriddin Muhammad. Boburnoma. – T.: Sharq, 2002. – B. 55.

Bobur Mirzoning xizmatiga o‘tdi⁷⁰”, – ma’lumotining Muhammad Solihga bog‘liq qismida anglashilmovchilik bor. Chunki Muhammad Solih o‘zi aytgandek ko‘plab temuriylar dargohida xizmat qilgani holda aynan hech qachon Bobur Mirzo xizmatida bo‘lmagan. Bobur Mirzoning o‘zi ham Muhammad Solihni bor-yo‘g‘i bir marta ko‘rganini ta’kidlayapti.

1500-yilning kech kuzida Bobur Mirzo Samarqandni ikkinchi bor qo‘lga kiritganda uning saroyiga “Boburnoma”dan yuqorida keltirilgan ma’lumotga ko‘ra ham faqat Binoiy keladi. Uning oldida Muhammad Solih bo‘lmaydi. Agar Muhammad Solih Bobur Mirzo xizmatida bo‘lib, uning maqsad-muddao, jidd-u jahdidan boxabar bo‘lganda edi, Bobur Mirzoni boshqanoudda temuriylar qatorida ko‘rmas, har ikkala iste’dodli shaxsning bir-biriga munosabati boshqacha yo‘sinda davom etishi mumkin edi.

Husayn Boyqaro saroyidan ketib, 8-9 yil davomida ko‘plab temuriy mirzolarning xizmatida ham bo‘lib ko‘rgan, ularning tutumlari, hukmdorlik salohiyatlari, ahvol-ruhiyatlaridan xabardor bo‘lgan Muhammad Solih mavjud vaziyatga, ijtimoiy-siyosiy ahvolga to‘g‘ri baho beradi, tanazzul yoqasidagi temuriylar saltanatining ichdan chirib bitish sabablarini aniq tashxislaydi, bundan buyongi yo‘li temuriylardan ayro ekanligini anglab yetadi. Bunday tarixiy vaziyat yetilib kelayotgan paytda Muhammad Solih 40 dan oshgan, 50 ga qarab borayotgan, ham aqliy, ham hayotiy tajribalarga ega yoshda edi. Garchi dostonida temuriy mirzolarning zabun holatlari, vaziyatlarini shoir o‘zi aytganidek bir dono inson tilidan fosh qilsa ham, uning so‘zlarida Muhammad Solih o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan, guvohi bo‘lgan, nafratlangan manzaralarning realistik tasviri marjondek tizilgan holda namoyon bo‘ladi:

Bir-biri birla muxolif borcha,
Bir-biridan taqi xoyif borcha.
Atodin bordur o‘g‘il noxushnud,
Atoni o‘g‘il etay der nobud.
Ato ham bordur o‘g‘ildin bezor,

⁷⁰ Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. – T.: O‘qituvchi, 1994. – B. 246.

O‘lturur o‘g‘lini yig‘latib zor. (34-b.)

Muhammad Solih o‘z asarida: “Bul jamoatki, ko‘rarsen holo, Tana-tirno bila boshlab g‘avg‘o”, – deya o‘zaro nizolarga bo‘g‘zigacha botgan temuriy mirzolar jamoatidan nafratini dono odam tilidan bildirar ekan, bir yo‘la bu dono odam ularning ertasiga ham hukm o‘qib qo‘yadi:

Qaydakim chodirni tikdi nifoq,
Qolmas ul tegrada osori vifoq.
Mulk ilgidin chiqar-u taxt ila toj,
Taxt-u toj ahlin etarlar ixroj. (35-b.)

Nifoq chodirida o‘ralashib yotgan temuriylardan yuz o‘girib, Shayboniyxon xizmatiga bel bog‘lagan Muhammad Solih ilk damlardanoq ko‘nglida tug‘ilgan ijodiy g‘oyani shunday ifodalaydi:

Aylasam xon otig‘a tasnife
Balki ulfat sababi ta’life.
Aylagan ishlarini nazm qilay
Masnaviy shevasini dog‘i bilay.
Ul zamondin kim ango yo‘l soldim,
Ushbu xidmatni o‘zimga oldim.
Har ne ko‘rdim cherikida bir-bir,
Barchasin nazm ila qildim tahrir. (39-b.)

Muallifning niyatiga ko‘ra “xon otig‘a tasnif” sarlavhadayoq aks etgan, yirik hajmli masnaviy shaklda yozilgan “Shayboniyboma” dostoni sujeti shayboniylar va temuriylar o‘rtasida toj-u taxt kurashlariga qurilgan, asar konfliktini ham asosan ana shu ikki sulolaning hokimiyat uchun olib borgan jang-u jadallari tashkil qiladi.

“Shayboniynoma” – yirik doston, u 76 bobdan iborat. Dostonning asosiy voqealari 60 bobga jo bo‘lgani holda, asar personajlari ikki guruhda: Shayboniyxon va uning bek, sultonlari: Jonvafo, Temur Sulton, Urusbek, Sulton Ubayd kabilar birinchi guruh, Husayn Boyqaro, Bobur Mirzo, Boqi Tarxon, Badiuzzamon, Sulton Ali, Abul Muhsin, Chinso‘fi kabi temuriylar ikkinchi guruh vakillari – real tarixiy shaxslar sifatida asar qurilishida muhim o‘rin tutadilar.

Muallif 1499–1506-yillar oralig‘ida shayboniylar hamda temuriylar o‘rtasida kechgan qonli urushlar, qamal davri azoblari, so‘ngsiz jang-u jadallar oqibatida oddiy xalq boshiga kelgan kulfatlarni tasvirlaydi. Aytish mumkinki, bu tasvirlar o‘zining hayotiyliigi, realligi bilan asarning g‘oyaviy, ma’naviy-ma’rifiy ahamiyatini oshirgan. Yigitlik umrining eng qizg‘in damlari temuriylar dargohida o‘tib, ulardan bir ro‘shnolik ko‘rmagan Muhammad Solih Shayboniyxon inoyati bilan “Amirul-ulamo”, “Malikush shuaro” unvonlariga sazovor bo‘ldi.

Hazrati imomuz-zamon, xalifatur-rahmon – Shayboniyxonning Movarounnahr, Xurosonda temuriylar hukmdorligiga butunlay barham berib, yangi davlat – shayboniylar sulolasini o‘rnatishga bel bog‘lagani, bu yo‘ldagi uning a‘moli va amali temuriylardan alamzada Muhammad Solihning manfaatlariga juda mos edi.

Umuman, muallifning alamzadalik kayfiyati butun doston davomida uning tarixnavis, voqealar ishtirokchisi sifatidagi obraziga ham o‘z muhrini bosgan. “Shayboniynoma”ning eng muhim badiiy usullaridan biri qarshilantirishdir. Bu usul voqealar, obrazlar va xarakterlarning mohiyatini, ularning konfliktini ochishga xizmat qiladi”⁷¹, – deydi adabiyotshunos olim Natan Mallayev.

Muhammad Solih aynan kontrast usulidan foydalanilib Shayboniyxon tavsifini butun bir temuriylar sulolasiga qarshi qo‘yadi:

Shayboniyxon	↔	Temuriylar
1) Niyati shar‘aga ziynat bermoq Ahli islomga quvvat bermoq.	↔	1) Shar‘din yo‘q alarga parvo Shar‘ so‘zini demaslar aslo.
2) Ittifoq andavu din-u imon Zarbi shamshir-u namoz-u qur‘on.	↔	2) Bul jamoatki, ko‘rarsen holo Tana-tirno bila boshlab g‘avg‘o.
3) Boda ichmoq sari bo‘lmas moyil Bir zamon ishidin ermas g‘ofil.	↔	3) Ichadurlar kecha-kunduz Boda Din-u imon soridin ozoda.
4) Fitnaning o‘tini so‘ndirgan ul Kimki sarkash, ani ko‘ndirgan ul.	↔	4) Bir-biri birla muxolif borcha Bir-biridan taqi xoyif borcha.

⁷¹ Mallayev, N. O‘zbek adabiyoti tarixi. – T.: Kafolat print company, 2021. – B. 507.

Qarshilantirishdan hosil bo'lgan ushbu manzara orqali Muhammad Solih toj-u taxtga faqat Shayboniyxon munosibligini uqtirmoqchi bo'ladi va o'z pozitsiyasini ham bashorat tariqasida bildirib qo'yadi:

Mulk u olmasa kim olg'usidir?

Barcha ofoq ango qolg'usidir.

Muhammad Solih – ko'p umrini hukmdorlar ostonasida o'tkazgan inson. Shu asnoda garchi o'z muhiti, o'sha davr e'tiqodi doirasi bo'lsa-da, u ma'lum bir ijtimoiy-siyosiy qarashlarga, davlat boshqaruvi masalalarida o'z to'xtamlariga ega ijodkor sifatida ko'rinadi. Garchi bugungi tafakkur, taraqqiyot, demokratik yuksakliklardan qaralganda biroz erish tuyulsa-da, Muhammad Solih podshoni cho'ponga, elni qo'yga o'xshatadi:

Arsayi mulkni yobon bilsa,

Elni – qo'y, o'zini – cho'pon bilsa. (116-b.)

Yaxshi podsho tun-kun shu cho'pon kabi uning muruvvatiga, marhamatiga muhtoj xalqining qayg'usida yashaydi, elning g'amini mening g'amim deb biladi.

Muhammad Solih o'zining odil podsho haqidagi ideallaridan zo'r berib Shayboniyxon tiynatidan qidirsam, umrida bir marotaba ko'rgan, muloqot qilib ulgurmagan Bobur Mirzo timsolida o'zi tanib, bilib yurgan temuriy mirzolardagi jamiki nomaqbul sifatlarni ko'radi. Zero, "Shayboniynoma"da muallif juda katta qoniqish, tendensioz ruhda temuriy hukmdorlar obrazida talqin etgan, shunday qudratli sulolani ichdan kemirib inqirozga yetaklagan: maishatparastlik, ichkilikbozlik, xudbinlik, hasad, taxtparastlik, noahillik kabi illatlar hammadan ham ko'proq Bobur Mirzoning azobli, og'riqli nuqtalari bo'lganligi "Boburnoma"dan ma'lum.

"Shayboniynoma" – katta epik polotno, o'ziga xos jangnoma. Zero, "Har ne ko'rdim cherikida bir-bir, Barchasin nazm ila qildim tahrir", – deydi muallifning o'zi ham. Adabiyotshunos Elmira Hazratqulova: "O'sha davrdagi (XV-XVI asr – Y.K.) adabiy maydonda bevosita atrofdagi siyosiy voqealarni she'riy yo'l bilan masnaviyda vasf etish urfga kirmagan... Muhammad Solihning bu dostoni she'riy

yo‘lda real tarixni yorituvchi ilk tajriba, dastlabki qadam edi”⁷² deya doston muallifining ijodiy novatorligini eslatadi. Ilk tajribaga qo‘l urish, dastlabki qadamni tashlay olish ham aslida iste’dodlarga xos.

Adabiy talanti, san’atkorligi bilan Navoiy e’tirofiga sazovor bo‘lgan, Jomiyning mehrini qozongan, forsiyda bitgan o‘nlab “choshniliq g‘azallari” Bobur Mirzodek talabchan aruzshunosning nazariy xulosalariga asos bo‘lgan⁷³ Muhammad Solihning asrlar osha mumtoz adabiyotimizda ustuvor bo‘lgan muhtasham uslubning yuksaklaridan birdan oddiy xalqning tili va tafakkuri darajasiga tushib asar yarata olishi aslida yana bir karra uning o‘ziga xos iste’dodidan, dunyoqarashidan, mavjud ijtimoiy-adabiy muhitni doston o‘quvchisi didi, saviyasini to‘g‘ri baholay olganidan darak beradi.

“Muhammad Solihning “Shayboniynoma”sida arab, fors so‘zlari, ularning grammatik formalari, dabdabali, tumtaroqli iboralar, g‘azal va ishqiy dostonlarda qo‘llanadigan badiiy vositalar kam uchraydi... asarning ishqnoma bo‘lmay, jangnoma bo‘lishi ham klassik adabiyotimizda uchrab, quloqqa oshno bo‘lib qolgan so‘zlar, iboralar va badiiy vositalar o‘rniga doston xarakteriga mos keladigan so‘z, ibora va badiiy vositalarni izlab topishni ham taqozo etar edi”⁷⁴, – deydi adabiyotshunos olim Akram Ibrohimov.

Bu borada Fitrat “Shayboniynoma” dostonining yaralishida Muhammad Solih tutgan pozitsiyani juda aniq tushuntiradi: “Muhammad Solih o‘zining yangi o‘quvchilari bo‘lg‘an Shayboni(y) va uning atrofidagi o‘zbeklarni nazarda tutib, bu asarni yozg‘an. ..o‘zbek ulug‘larig‘a sobiq temuri(y)lar saroyidagi dabdabali, muhtasham uslub yotliq qilar edi... Muhammad Solih mana shularg‘a o‘qutmak uchun yozg‘ani asarda uslubning takallufsizlig‘iga, soddaligiga ahamiyat bergan”⁷⁵.

Fitrat fikrlariga suyanadigan bo‘lsak, Muhammad Solih o‘z asarini xonga va uning qavmiga manzur qilish uchun Shayboniixon saroyidagi xalq baxshilarining

⁷² Hazratqulova E. Bobur – adabiyotshunos. Andijon nashriyot-matbaa, 2023. – B. 150.

⁷³ Qarang: Bobur, Zahiriddin Muhammad. 3-jild. Aruz risolasi. – T.: Zilol buloq, 2022. – B. 235–283.

⁷⁴ Ibrohimov A. XVI asr o‘zbek adabiyotining asosiy xususiyatlari. O‘zbekiston SSR, Fan. – T.: 1976. – B. 182.

⁷⁵ Fitrat Abdurauf. Tanlangan asarlar. – T.: Ma’naviyat, 2000. Jild II. Ilmiy asarlar. – B. 80.

dostonchilik an'analarini chuqur o'rgangan. Ulardan ijodiy foydalangan holda asarning bosh konsepsiyasini Shayboniyxonning muzaffar yurishlarini ma'qullash, uni ideallashtirish, yangi sulolaning obro'sini oshirish, o'zi tanlagan voqelikka singdirib, o'sha davr auditoriyasiga yetkazishning sodda ifoda va talqinini topgan.

1.3. "Shayboniynoma" dostonida Bobur Mirzo obrazining ziddiyatli talqini

Dostonda qal'ayi Dabusiy fathi tafsilotlaridan so'ng Muhammad Solih g'olib Shayboniyxon sha'niga maqtovlar yog'diradi. Xonning qal'a himoyachilari boshiga solgan ofatni nazarda tutib:

Kim yog'iqsa shahi Shayboniyxong'a

Ushbu kun kelgusidur joniga, –

deya hukmnamo xulosa qilar ekan, eng so'nggi misralar o'quvchiga keyingi bobdan joy olgan Saripul jangi, Samarqand qamali, sulh voqealari tafsilotida ayrim o'rinlarda Muhammad Solih o'zi tutajak noxolis pozitsiyani oldindan oshkor etib qo'yadi. Dostonning aynan shu joyida asarga Bobur Mirzo obrazi kirib keladi:

Gar tonuq istar esang bu so'zga

Saripul tegrasiga chiq tuzga.

Ko'rki Bobur cheriki ne bo'lmish

Qonlari yerga netok to'kilmish.

“O'n sakkiz yoshida Temuriylar saltanatining 140 yilga yaqin poytaxti sanalgan Samarqandni Shayboniyxonning e'tiborli lashkarboshilaridan biri, xon tomonidan ro'yi zamin sayqaliga dorug'a etib tayinlangan Jonvafobiy do'rmon qo'lidan 240 ta sodiq mulozimlari va matonatli navkarlari ko'magida tortib olgan Boburning”⁷⁶ jasorati Shayboniyxonning o'zini ham qoyil qoldirgan bo'lsa, ajab emas. Ayni paytda navqiron Bobur Mirzoning bu muvaffaqiyati “purtajriba va ko'p ish ko'rgan va ulug' yoshliq” Shayboniyxonga yaxshigina ruhiy zarba

⁷⁶ Dadaboyev H. Saripul jangining “Boburnoma” hamda “Shayboniynoma”da tasvirlanishi/ Asrlar uzra porlagan siymo. “Zahiriddin Muhammad Bobur ijodiy merosining bashariyat ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyotidagi o'rni” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – T., 2023. – B. 77.

bo'lgani ham aniq. Ana shu holatning minnati o'laroq Bobur Mirzoning Samarqandni egallashini Muhammad Solih shunday tasvirlaydi:

Chu Samarqandni oldi Bobur,
Xalq aro tafriqa soldi Bobur.
Husn maydoniga zolim kirdi
Zulm bozorig'a ravnaq berdi.

Muhammad Solih Bobur Mirzoning aynan temuriylardan bo'lganligi uchun ham tan olishni istamaydi. Kechagina Shayboniyxon poyidagi Samarqand yana temuriy mirzolar qo'liga o'tib ketishi Muhammad Solih uchun tarixning katta xatosi hisoblanadi. Doston muallifi bir narsada haq. Rostdan ham feodal urushlarda eng ko'p jabrni xalq ko'radi. Boshqaruvni bir hukmdordan ikkinchisiga, ikkinchisidan uchinchisiga almashib turishi, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy qo'nimsizlikni keltirib chiqaradi, oddiy xalqning qora qozoni qaynashi ham mushkul bo'lib qoladi. Sulton Ahmad Mirzo vafotidan keyin toj-u taxt talohlari girdobida qolib xonavayron bo'lgan, azob girdobida qolgan xalq Samarqand taxtiga eng munosib deb umidli, yovqur temuriy hukmdor Bobur Mirzoni lozim ko'rgani bu tarixiy haqiqat.

“Xalq aro tafriqa soldi Bobur” deganda Boburning Samarqandni egallagani haqidagi xabarni eshitgach, shahar aholisi Shayboniyxon lashkarboshisi Jonvafobiyning askarlarini toshlab, tayoqlab tashlashganini nazarda tutadi shoir. Ammo samarqandliklar nazarida ular xalq emas, Shayboniy odamlari, dushman navkarlari edilar. Bobur Mirzoning Samarqandni qo'lga kiritgandan so'ng uning atrofidagi vaziyatni tasvirlab shunday yozadi:

Yig'ilib oldida qochqon, ko'rgon,
Atosidek ani ham ko'rgon.
Lof bozorini garm ayladilar
So'z bilan tog'ni narm ayladilar. (73-b.)

Turgan gapki, Bobur Mirzo Samarqandni olishdan ko'ra, uni qo'lda saqlab qolish mushkulligini yaxshi bilar edi. Shayboniyxon Buxoroga ko'z tikkan ekan, eng avvalo, mustahkam va strategik ahamiyatga ega Dabusiyni fath etishi, so'ng

Buxoroni, keyin esa Samarqandni ko‘zlab turgani aniq edi. Shuning uchun Bobur Mirzo saltanatni saqlab qolish uchun barcha temuriylarni birlashishga chaqiradi. Ammo ularning ko‘pchiligi Shayboniyxon umumsaltanatga xavf solib turgan makkor dushman ekanligini anglab yetmadilar, vaziyatni tushunishni xohlamadilar. Bu haqda Bobur Mirzoning o‘zi afsus bilan shunday yozadi: “Samarqand fathidin so‘ng karrot va marrot atrof va javonibdag‘i xavonin va salotin va umaro va sarhadnishinlarg‘a istimdod va istionat uchun mutavotir va mutaoqib elchilar va tavochilar bordilar va keldilar. Ba‘zi bovujudi tajribalar sahl inkorliq qildilar. Ba‘zidinkim, nisbat bu tabaqag‘a beadabliklar va noxushluqlar voqi’ bo‘lub edi, o‘z tavahhumlaridin tag‘oful qildilar. Ba‘zilarikim, ko‘mak yibordilar, mu’taddun bih ko‘mak emas edi”⁷⁷.

Bobur Mirzoning atrofidagilarni aravani quruq olib qochib, lof bozorini qizdirishga, yolg‘on-yashiq so‘z bilan toshni ham mumdek eritib yuborishga qodirlar, deya kinoya qiladi Muhammad Solih. Ayniqsa, Saripul jangi tafsilotlarida Muhammad Solih jonli xalq tili imkoniyatlaridan keng foydalanganini kuzatish mumkin. Dostonda Dabusiy qal’asini zabt etib, muzaffar ruh bilan Saripul jangiga otlangan Shayboniyxon lashkarining yayog‘ (piyoda), otquvchi (yoychi, o‘qchi), otliq qismlarning jangovar holati: qurol-aslahalari, zirhli harbiy jomalari, hatto ayrim qismlardagi jangchilar soni haqida ham aniq ma’lumot berilgan:

Xon olib qal’a, Saripul keldi,
Ul taqi mayli Saripul keldi
Ikki ming to‘ra yayog‘larga berib
Uch ming otquvchi to‘ra ichra kirib
Yurubon keldi iki son lashkar
Kina pardozi adovatgustar. (73-b.)

Qal’ani tark etib, yov bilan yuzlashishga otlangan Bobur Mirzo xatti-harakatini Muhammad Solih quyidagicha baholaydi:

Solibon qal’asin o‘zi chiqti,

⁷⁷ O‘sha manba. – B. 81.

Alami davlatin o‘zi yiqti (74-b.)

Birinchi misradagi “o‘zi” so‘zi Bobur Mirzoning mustaqilligiga, hatto aytish mumkinki, ma’lum ma’noda dovyurakligiga ishora. Bu so‘z atrof-javonibdan g‘oyatda sustkashlik bilan ko‘rsatilayotgan yordamni kutib o‘tirmay, qal’adan o‘zi chiqib “purtajriba, ko‘p ish ko‘rgan” Shayboniyxonga qarshi yolg‘iz o‘zi ochiq, ayovsiz jangga otlangan Bobur Mirzo qiyofasini ochiq, keyingi misradagi “o‘zi” o‘zi aybdor, o‘zi sababchi ma’nosini urg‘ulaydi. Go‘yo bu o‘rinda Muhammad Solih Bobur Mirzo o‘zining shoshmashosharligi, tajribasizligi, o‘zbilarmonligi oqibatida davlatning tug‘ini o‘zi yiqti, ya’ni temuriylarning mag‘lubiyatiga sababchi bo‘ldi deya uqtiradi.

Dostondagi Bobur Mirzoning bu xatti-harakati tasviriga zid o‘laroq Shayboniyxonning bosiq, mulohazali, dono qiyofasini yaratishga harakat qilgan Muhammad Solih aynan shu ko‘rinishni tasdiqlaydigan tafsilni topadi:

Xon taqi ko‘rgach aning⁷⁸ bu kelishin

Solib tengri taolog‘a ishin,

Ishi Qur‘on o‘qimoqlik bo‘ldi,

Ichi Tengri so‘zi bila to‘ldi. (74-b.)

Guvohi bo‘lganimizdek, Muhammad Solih ikki dushman tomonlar qo‘mondonlarining tasviri va tavsifida ham o‘zining bosh konsepsiyasiga amal qilyapti. O‘zaro adovat, toj-u taxt uchun kurashlarda behisob to‘kilayotgan qonlar uchun temuriylarni ayblagan Muhammad Solih, Shayboniyxonning bu yo‘ldagi mislsiz shafqatsizliklarini ko‘rmaydi. Jang-u jadallarda qanchadan qancha zavol topayotgan umrlardan tashqari, xon bir necha oylab qamal qilgan shaharlarda ochlikdan, suvsizlikdan chumoliday qirilgan xalqning fojiaiy taqdirini Ollohning xohishi deya baholaydi. Go‘yo bu ishlarni “Tangrining soyasi Shayboniyxon, xalifayi rahmon” Yaratganning amri-irodasi, din manfaati yo‘lida qilayotibdi deya hukm chiqaradi. Shu fikrning badiiy ifodasi o‘laroq Shayboniyxonning jang oldi qiyofasini yaratar ekan, uning qo‘liga Qur‘onni tutqazib qo‘yadi.

⁷⁸ Boburning – Y.K.

Muallif Shayboniyxonning mahobatli o‘rdusining jangovar qiyofasini chizarkan, navkarlarining jang maydoniga kirib kelishini “mavjzan dengizga, jur’at-jasoratlarini Rustami doston, Som-u Narimonlarga mengzab:

Buzg‘udek har biri bir lashkarni,
Olg‘udek har biri bir kishvarni (77-b.) –

deya ko‘klarga ko‘taradi. Shayboniyxon va Bobur Mirzo qo‘shinining yuzma-yuz kelish sahnasining dostonidagi epik tasvirida prozaizm yetakchilik qilsa-da, ammo Saripul jangining real manzarasini aks ettirgan o‘ziga xos badiiy ma’lumotdir.

Muhammad Solih dostonida jang manzaralarini tasvirlar ekan, shayboniylarni ko‘proq jangovar ruhda ko‘rsatishga, g‘alabaga bo‘lgan intilishlarini ularning xatti-harakatlarini orqali tasdiqlashga harakat qiladi:

So‘zlashib xasmlarini ovlosha
Kirdilar jov ichiga chopqullosha
Turush oyinig‘a so‘z toqmodilar
Xasmning to‘rasig‘a boqmodilar. (74-b.)

“Turush oyinig‘a so‘z toqmo...”gan, ya’ni urushda turish yo‘q qabilida jang qilayotgan shayboniylarning to‘lg‘ama usulini Muhammad Solih shunday tasvirlaydi:

So‘l qo‘li xasm birla chirmoshti,
O‘ng qo‘li jovni ushotib oshti
Anda ham yaxshi yigit saylanibon,
Xasmning orqasiga aylanibon
Bermoyin dushmani imong‘a amon,
Chopqulob otqulodilar yakson.

Guvohi bo‘lganimizdek, Muhammad Solih Saripul muhorabasi voqealari, xususan, Shayboniyxon g‘alabasini ta’minlagan to‘lg‘ama taktik usuli, shayboniy jangchilarning jidd-u jahdini ancha batafsil tasvirlagan.

Xonning shaxsan o‘zining jangdagi ishtirokini ham shayboniylar g‘alabasini tayin etgan katta bir qahramonlikning namunasi sifatida:

Oqibat xoni jahongir o‘zi o‘q,

Jov sori otni yugurtib, otib o‘q.
Nechasini otib urg‘on bo‘ldi.
Yolg‘iz ul jovni qochirg‘on bo‘ldi.
Esti nusrat yeli xon qo‘llaridin,
Parda ochildi zafar gullaridin, –

deya ko‘rsatgan Muhammad Solih Bobur Mirzo va boburiylarning jangdagi ishtirokini juda nochor ko‘rinishda tasvirlab, uni bor-yo‘g‘i to‘rt misrada ifoda etadi:

Jonining vahmidin aning⁷⁹ eli ham
Urushin qilmadi chopquncha ham.
Oncha kim mumkin edi sonchishti,
To majoli bor edi yonchishti. (75-b.)

Cho‘lpon aytganidek, janggohning haqiqiy manzarasini o‘quvchiga xolis yetkazishda haqiqat qalami toyilgan Muhammad Solih Saripul muhorabasi manzaralarini gavdalantirar ekan, aynan Bobur Mirzo va uning jangchilarining eng so‘nggi nafaslarigacha olib borgan qahramonona kurashlari tasvirini Shayboniyxon nomiga atalgan doston bag‘rida yashab qolishini istamagan.

Yuqorida keltirilgan satrlarni o‘qib, guvohi bo‘lganimizdek, o‘zining tarafkashlik pozitsiyasidan kelib chiqib, Muhammad Solih dostonida har qaysi o‘z jonining vahmiga tushib qolgan, haqiqiy hayot-mamot jangidan qochgan, shunchaki majoli yetguncha urushib turgan, bo‘sh-bayov qiyofadagi boburiylar obrazini gavdalantiradi. Ammo Saripul jangi tafsilotlari bayon qilingan boshqa adabiyotlarda o‘zgacharoq manzaraga guvoh bo‘lamiz.

To‘lg‘ama tufayli hirovul qismda turgan yovqur jangchilari ko‘magidan to‘sib qo‘yilganiga qaramay, shiddatli jang olib borgan “Bobur raqibining Mahmud Sulton boshliq hirovul qismini yorib o‘tib, Shayboniyxon turgan qo‘l (g‘o‘l – Y.K.) qismigacha qochishga majbur qiladi”⁸⁰ va dushmanni tang vaziyatga solib qo‘ydi.

⁷⁹ Boburning – Y.K.

⁸⁰ Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi. – T.: Sharq, 2014. – B. 450.

“...maqsud o‘zini ortturmoq emas, rosti bu erdikim, mastur bo‘ldi”⁸¹, – deya bitilgan “Boburnoma”ning 1500-1501-yil voqealari bayonida yuqoridagi vaziyat shunday qayd etiladi: “Bizning irovulkim, nekim bo‘lg‘ay, ish ko‘rgan, qilich chopqon yigitlarni tamom irovulga bitilib edi, o‘ng qo‘l sari qoldi. Olimizda hech kishi qolmadi. Bovujudkim, ilgari kelgan kishilarni urub, yondurub, g‘uliga tiqduk. Anga yettikim, Shayboqxonning ba‘zi qari ulug‘lari Shayboqxonga debturlarkim, yurumak kerak, turmoqdin ish o‘tti. O‘zi to‘xtab turubtur”⁸².

O‘rta osiyolik muarrix Muhammadyor ibn Arab Qatag‘anning Vatanimiz tarixining 1498–1610-yillar davri voqealarini aks ettirgan “Musaxxir al-bilod” (Mamlakatlarning egallanishi) nomli asarining Saripul jangi tasvirida Bobur Mirzo va uning yovqur jangchilarining faol, matonatli qiyofasini ko‘ramiz: “Muhammad Shayboniy burung‘ori hamlaga o‘tib, Bobur Mirzo tomon tashlandi. Bobur Mirzo esa qo‘rqmas bir guruh jangchilari bilan muxolif kelayotgan tarafga urush uchun ot solgach, shijoat va qo‘rqmaslikda o‘z tenglaridan ne chandon ortiq bo‘lgan hirovuldagi yigitlar o‘ng qo‘l tarafda qolishdi. Biroq shu tariqa Bobur Mirzo hujumga o‘tganda uning yonida bo‘la olmagan esalar-da, baribir o‘zbek qo‘shinining tuyqus hamlasiga nisbatan beparvo bo‘lmasdan juda zo‘r olishdilar va shamshir zarbi, paykon yomg‘iri bilan dushmanni orqaga qaytardilar”⁸³.

Xuddi shu manzarani Xondamir bunday tasvirlaydi: “...dushman qo‘shinining barong‘ori hamlaga o‘tib, oliy mavkabning orqasi tomon chopdilar. Sulaymon makonli Bobur podshoh esa oti jilovini muxoliflar tomon burdi. Bu paytda shijoat-u jasoratda tengsiz tajribali yigitlar hirovulda turgani sababli jangga mohir podshoh oldida ulardan hech biri ko‘rinmadi. Shunga qaramay, Bobur Mirzo bostirib kelayotgan o‘zbeklar oldiga chiqqancha nayza zaxmi va paykon zarbi bilan g‘animni orqasiga qaytardi”⁸⁴.

Guvohi bo‘lganimizdek, “Habibus-siyar”, “Musaxxir al-bilod” mualliflarining so‘zlariga ko‘ra “Shayboniynoma” dostonida tasvirlangani kabi jon

⁸¹ Bobur Zahiriddin Muhammad. Boburnoma. – T.: Sharq, 2002. – B. 81.

⁸² O‘sha manba. – B. 83.

⁸³ Muhammad ibn Arab Qatag‘on. Musaxxir al-bilod (Mamlakatning egallanishi). – T.: Yangi asr avlodi, 2009. – B. 80.

⁸⁴Xondamir G‘. Habib us-siyar. – T.: O‘zbekiston, 2013. – B. 992.

vahmiga berilib Bobur Mirzo jangchilari qo‘rqanlaridan sustlashib qolishmagan. Aksincha, ilgari to‘lg‘ama jang usulini ko‘rishmagan bo‘lsa-da, mardona olishib, nafaqat dushman hujumiga turib berishgan, hatto yovni orqaga qaytishga majbur qilishgan.

Temuriylar qo‘shinining tarkibidagi yollanma mo‘g‘ul askarlarining o‘lja dardidagi xiyonatlarini hisobga olmaganda, Muhammad ibn Arab Qatag‘anning guvohlik berishicha, Saripul muhorabasi Bobur Mirzo jangchilari uchun yo hayot, yo mamot sahnasiga aylangan. Bu beomon jangda “... mo‘tabar boburiy amirlardan Ibrohim Tarxon, Ibrohim Hoji, Ibrohim Soru, Abulqosim kuhbo‘r, Qosimbek qavchinning katta o‘g‘li Haydar Qosim, Xudoyberdi Tug‘chi, Sulton Ahmad Tanbalning ukasi Mirzo Xalil kabilar o‘q va qilich yetkazgan jarohatdan oyoqdan qolib halok bo‘ldilar”⁸⁵.

Saripul muhorabasi tafsilotlarida Bobur Mirzo qo‘shinining shiddatli hujum sahnalari umuman tasvirlanmagan. Holbuki, “Nechasini otib urg‘on bo‘ldi, Yolg‘iz jovni qochurg‘on bo‘ldi”, deya butun boshli g‘alabani yolg‘iz xonning nomiga tirkab turgan Muhammad Solih Bobur Mirzoning muhorabada ko‘rsatgan jasorati, jang san‘ati haqida lom-mim demaydi. Shayboniyxonning ulug‘larini, yaqinlarini shoshirib qo‘ygan vaziyatni Xondamir o‘z uslubiga ko‘ra yana ham bo‘yoqdorroq, ta’sirliroq ko‘rsatadi: “Ul miyasi aynigan dushmanlar esa qilich va xanjar zarbidan talvasaga tushib, ura qochganicha Shayboniyxon oldiga yetguncha qadar hech yerda to‘xtash imkonini topmadilar. Cheksiz qo‘rquv tuyg‘usi Shayboniyxon yaqinlaridan ba’zilarining chidam va barqarorlik poydevorini larzaga solib, ular xonga qarata, qo‘shinimizning barong‘or qismi ostin-ustun bo‘ldi va ish urush olovini gurillatish fursatidan o‘tdi, yaxshisi, “o‘z vaqtida qochish ham g‘alabadir” mazmuniga amal qilaylik hamda “toqat qila olmaydigan narsadan qochish payg‘ambarlarning sunnatidan bo‘lgan” mazmuni taqozosidan tashqari qadam bosmaylik, dedilar”⁸⁶.

⁸⁵ Muhammad ibn Arab Qatag‘an. Musaxxir al-bilod (Mamlakatning egallanishi). – T.: Yangi asr avlodi, 2009. – B. 81.

⁸⁶Xondamir G‘. Habib us-siyar. – T.: O‘zbekiston, 2013. – B. 992.

O‘zi ishongan, ko‘p jang ko‘rib, tajriba orttirgan amirlarini birin-ketin og‘ir yarador bo‘lib safdan chiqayotganini ko‘rsa-da mustahkam irodasi, dov yuragi bilan qo‘lga tushib qolish xavfi tug‘ilgunga qadar Bobur Mirzo yov bilan yo‘lbarsdek olishadi. Bu holat “Musaxxar al-bilod”da shunday tasvirlanadi: “Bobur Mirzoning juvong‘or va burung‘ordagi kuchlarini olddan olib tashladilar (shayboniylar – Y.K.) va qo‘l orqasidan yorib kirdilar. Bobur Mirzo yana bir bor ot jilovini dushman tarafga burib, dushmanni qilich bilan chopqilash va xanjar sanchishga kirishdi... Bobur Mirzo to imkoni boricha jang maydonida turib, shoshib-pishib bo‘lsa-da, mardona urush qildi”⁸⁷.

Doston voqealari bayonida Muhammad Solih tarix hukmiga, tarixiy faktlarga bo‘ysunishga, obyektivlik talablarini bajarishga majbur bo‘lgan holatlarda asarda realizm tendensiyalari ko‘zga tashlanadi. Ammo Saripul muhorabasi tafsilotlarida, xususan, Bobur Mirzo va boburiylarning jangdagi ishtiroki talqinida Muhammad Solih noxolis qalam tebratadi, biror o‘rinda Bobur Mirzo va boburiylarning jasoratini boricha tasvirlashga o‘zida kuch topmaydi.

Shayboniyxonning jang oldi qiyofasini yaratishda xonni Qur‘on bilan ko‘rsatib, uning Ollohning panohidagi, e‘tiboridagi obraziga urg‘u bergan Muhammad Solih, jangdan keyingi Shayboniyxon timsolida “g‘ayb olaminging fayzi, madadi bo‘lgan shamol”⁸⁸ – nusrat yelini qo‘lida tutib turgan (hatto u yel, shamol bo‘lsa ham) g‘olib xon obrazini quyidagicha yaratadi:

Esti nusrat yeli xon qo‘llaridin,

Parda ochildi zafar gullaridin. (75-b.)

Butun boshli Saripul muhorabasining kechimi tafsilotida biron marta eslanmagan Bobur Mirzoning jang so‘ngidagi mag‘lub qiyofasini Muhammad Solih shunday tasvirlaydi:

Bobur o‘z tug‘ini tashlab qochti,

Boburiylarg‘a ne gullar ochti. (75-b.)

⁸⁷ Muhammad ibn Arab Qatag‘an. Musaxxir al-bilod (Mamlakatning egallanishi). – T.: Yangi asr avlodi, 2009. – B. 81.

⁸⁸ Mingboyeva D. Timsollar tilsimi. – T.: Adabiyot, 2022. – B. 147.

Bobur Mirzoning magʻlub qiyofasini, zabun holatini butun boshli saltanatning magʻlubiyati, zalolati deb koʻrsatishdan masrur va manfaatdor Muhammad Solih, taʻkidlab oʻtish kerakki, Shayboniyxon qarshisiga oʻsha paytda dadil chiqib turgan yagona kuchni yaxlit nom bilan boburiylar deb ataydi.

Aslida, bu atash oʻzining yoniq yuragi bilan bobomeros toj-u taxtga haqli ravishda daʻvogar boʻlib qilich koʻtarib chiqqan, Temuriylar saltanatining yuragi – poytaxt Samarqandni dushman qoʻlidan bor-yoʻgʻi 240 kishisi bilan bir kechada tortib olib, Shayboniyni dogʻda qoldirgan, bu maʻvoni chin maʻnoda “baldayi mahfuza” ekanligini, uning haqiqiy egasi borligini koʻrsatib qoʻygan, garchi gʻalabani boy bergan boʻlsa-da, Saripulning jontalash maydonida xonning ishongan lashkarboshisi Mahmud Sulton hirovulini yorib oʻtib, dushmanlarini Shayboniyxon huzurigacha quvib borgan, uning ulugʻlarini shoshirib qoʻygan 19 yoshli navqiron, shijoatli, nomiga munosib Bobur Mirzoning nafaqat shayboniylar tomonidan oʻzlariga teng koʻrgan raqib sifatida tan olinishi, balki XVI asr Turonzamin tarixi sahnasida yangi bir yosh, mardona kuch paydo boʻlganining eʼtirofi, tasdigʻi edi. Faqat bu eʼtirof va tasdiqning xolislik, samimiylik bilan badiiy talqin etilganini Saripul jangi tasvirida deyarli uchratmaymiz.

Muhammad Solih oʻzining ijtimoiy-siyosiy qarashlaridan, manfaatidan kelib chiqib hayot haqiqatini koʻp oʻrinlarda oʻzi xohlagandek badiiy idrok etadi. Jumladan, Saripul jangidagi boburiylar talafotini:

Qaysi oʻq ichida jon topshurdi,
Qaysi kestanga koʻzin oldirdi.
Boshlarin baski qilichlar boʻldi,
Birisining boshi ikki boʻldi,
Boshi ikki boʻlmasa, ul nodongʻa,
Bosh urub boʻyla kelurmi xongʻa (75-b.), –

deya tasvirlaydi.

Guvohi boʻlganimizdek, Shayboniyxon bosqiniga qarshilik koʻrsatayotgan Bobur Mirzo va boburiylar xatti-harakatini nodonlik deb baholayotgan Muhammad Solih, ularning kurashchan qiyofasini yaratishda istehzo, kinoya, qochirimlar, soʻz

o‘yinlaridan mo‘l-ko‘l foydalanadi. Aynan shu kinoya, istehzolar orasidan ba‘zan nozik bir haqiqatlar bo‘y ko‘rsatib qoladiki, shoir-muallif o‘zi xohlamagan holda o‘sha fakti tan oladi, uni hatto g‘oyaviy-badiiy ta‘siri qanday bo‘lishidan bexabar, poetik yo‘sinda o‘quvchiga yetkazadi ham. “Muhammad Solih an‘anaviy badiiy til vositalariga kamdan kam murojaat qiladi, u dostonidagi voqealarning mazmuni va kishilarning xarakteriga mos yangi lavhalar, yangi badiiy til vositalari yaratishga intiladi”⁸⁹.

Xuddi shu ma‘noda yuqorida keltirilgan misolni kuzatadigan bo‘lsak, shoir qonli janggoh voqealari tasviridan kelib chiqib tajnis san‘ati orqali bir xil omonim so‘zlarni turli o‘rinlarda qo‘llab, ularni har bir o‘rinda alohida ma‘no ifodalashga xizmat qildirgan.

Boshlarin baski qilichlar bo‘ldi,
Birisining boshi ikki bo‘ldi.
Boshi iki bo‘lmasa ul nodong‘a,
Bosh urub bo‘yla kelurmi xong‘a. (75-b.)

Biz quyida Muhammad Solih qo‘llagan frazeologik omonimlar ifoda etadigan badiiy-estetik imkonni o‘rganib chiqishga harakat qilamiz.

“O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati”da ko‘rsatilishicha, “Tarkibidagi so‘zlar ayni bir leksik ma‘nosi bilan qatnashadigan omonimlikni izohlashda so‘z komponentlariga suyanib bo‘lmaydi, iboralar asosida yotgan voqelikka, shu voqelikdan olingan obrazga suyaniladi”⁹⁰. Shu ma‘noda dostonidan olingan yuqoridagi misolda: boshi ikki I va bosh(i) ik(k)i II iboralari tarkibidagi so‘z-komponentlar ayni bir leksik ma‘nosi bilan qatnashgan, ammo bu iboralar mohiyatida boshqa-boshqa obrazlar mavjud. Birinchi iborada qilich zarbidan ikkiga bo‘lingan bosh, ikkinchi holatda insonning jur‘ati, jasorati, mardligi, dovyurakligiga Ramziy ishora – boshi ikkita e‘tirofida aks etgan (go‘yo biri mahv etilsa, ikkinchisi bordek, yashovchanlik, kurashchanlik alomati).

⁸⁹ Mallayev N. O‘zbek adabiyoti tarixi. – T.: Kafolat print company, 2021. – B. 508.

⁹⁰ Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati. – T.: O‘qituvchi, 1978. – B. 8.

Tahlilga tortayotgan baytlarimizda tajnis bilan yonma-yon ta'riz (kinoya bilan so'zlash, e'tiroz bildirish)* san'ati ham qo'llangan. Shoirning asl maqsadi ta'riz orqali yana bir karra xonning yengilmas kuch-qudratini tasdiq etish bo'lgan, ammo aynan shu kinoya bag'rida Bobur Mirzo haqidagi haqiqat yuzaga chiqib qolgan:

Boshi iki bo'lmasa ul nodong'a,

Bosh urub bo'yla kelurmi xong'a

baytida aslida Bobur Mirzoning asl qiyofasi o'zining badiiy tajassumini topgan. Chunki butun temuriylar sha'nini o'zining or-nomusi qadar baland tutgan Bobur Mirzoga go'yo boshi ikkitadek Shayboniixondek g'addor dushmanga haqiqiy raqib sifatida, bosh urdi (bosh urmoq – bormoq, murojaat qilmoq⁹¹).

“Sulton Husayn mirzodek mardona va sohib tajriba podshoh” ham Shayboniixoniga qarshi chiqishga taraddudlanib qolganda, Bobur Mirzoning bir karra Samarqandni xonning qo'lidan tortib olishi, ikkinchi marta qo'shin soni ko'pligi, tajriba jihatdan ustunligidan cho'chimay, hech kimning ko'magisiz ochiq maydonda Shayboniixon bilan Bobur nomiga munosib jang qilishi, garchi istehzo ichida bo'lsa ham Muhammad Solih tan berib e'tirof etgan “boshi ikkita” iborasining mohiyatidagi obrazga aynan rost tushadi.

Saripul yangi tafsilotlaridan so'ng dostonida Samarqand qamali voqealari tasviri ancha keng joyni egallaydi. Ulug'-ulug' beklari, yaxshi yigitlari jangda o'lib, qanoti qirqilib qolgan Bobur Mirzoni keyin ham ishongan bek-u amirlari birin-ketin tashlab keta boshlaydilar. Mag'lubiyat alami yetmagandek endi Bobur Mirzo yaqinlarining xiyonat yukini ham ko'tarishga majbur edi. Uning bu holatini Muhammad Solih:

To'zib erdi navkari Boburning

Erib erdi jigari Boburning (77-b.)

deya tasvir etadi.

O'sha paytdagi tahlikali vaziyat, mushkul ahvol haqida “Boburnoma”da shunday yoziladi: “Tonglasig'a Xoja Abulmakorim va Qosimbek va jami' beklar

⁹¹ O'zbek tilining izohli lug'ati. – T.: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – B. 338.

va ichkilar va soʻz tegar yigitlarni charlab mashvarat qilib, soʻzni qoʻrgʻonni berkitmakka va oʻlik-tirikni qoʻrgʻon ichida koʻrmakka qoʻydik. Bu maslahat uchun sharhning oʻrtasida Ulugʻbek Mirzoning madrasasining tomining ustida oq uy tikib oʻltirdim”⁹².

Samarqand qamalining boshlanishi, qamal tufayli 6 oy davomida samarqandliklar boshiga yogʻilgan qaro kunlar manzarasi haqidagi badiiy informatsiya “Boburnoma”dagi maʼlumotga ancha yaqin ekanligini kuzatish mumkin. Shayxul-islom Xoja Abulmakorim va “soʻz tegar yigitlar”ni Muhammad Solih Bobur Mirzoning tarafdorlari sifatida tilga oladi. Ayniqsa, qamal ahdida Xoja Abulmakorimning koʻmagi, oʻrni katta boʻlganligi uchun ham dostonida imkon qadar uni qoralashga, hatto masxaralashga harakat qiladi:

Bor edi shahr aro shayxul-islom,
Soʻzlari borcha saqolidek xom.
Bulmakorim edi aning oti,
Anga bor erdi yamonlik zoti.
Ilmdin bahراسi chandon yoʻq edi,
Zotida mashrabi urfon yoʻq edi. (77-b.)

Xoja Abulmakorimni Samarqand eli bilan birlashib Bobur Mirzoga koʻrsatayotgan sadoqatini kechirolmagan Muhammad Solih butun boshli xalqdan ham nafratlanadi. Xoja Abulmakorimning shayxul-islom maqomini yerga urib, bir latifa bahonasida xoja shayx-u, lekin unda islom yoʻq deyishgacha borsa, Bobur Mirzoni qoʻllayotgan samarqandliklar haqida: “...demagil shahr eli, qahr eli” deya ularni johillikda ayblaydi.

Tarixchi olimlarimiz toʻgʻri taʼkidlaganidek: “...yerli aholining koʻchmanchi qipchoqlarga diniy adovati yoʻq edi, chunki ular ham musulmonlar edilar. Shayboniyxon ilgaridan Movarounnahr shaharlarining zodagonlari orasida tanilgan lashkarboshilardan biri boʻlib, yerlik zodagonlarning bir qismi uning siyosatini qoʻllab-quvvatladilar, chunki ular shayboniylarning mustahkam hokimiyati va

⁹² Oʻsha manba. – B. 84.

mamlakatda tartib o‘rnatishlaridan manfaatdor edilar”⁹³, ammo aksariyat xalq Dashti Qipchoq hukmdori Shayboniyxonga ham, uning o‘ljaparast, talonchi qo‘shiniga ishonmas ham edilar.

Muhammad Solih qamal tasvirida Shayboniyxon tilidan uning adolati, shafqatini ta’riflab, xondan ideal hukmdor qiyofasini yaratadi:

Shah bo‘lg‘on yer ulus qayg‘usini,
Kinadin sof tutor ko‘zgusini.
Kim mango olam elini bergoy,
Borcha ofoq qo‘limga kirgoy.
Men bu ellarga karam qilg‘oymen,
Zulm ahlini adam qilg‘oymen.

Ammo haqiqatni eldan pinhon tutib bo‘lmasdi. Shayboniyxonning o‘zi bosib olgan Dabusiy qal’asi Qorako‘l, Buxoro xalqiga ko‘rsatgan “karami”dan xalq ogoh edi. Shoh adovat va kindan xoli bo‘lib, ulus g‘amini yeyish kerak, men “zulm ahlini adam qilg‘oymen”, degan Shayboniyxonning buyrug‘i bilan o‘z shaharlarini himoya qilgan aholi yoppasiga qatli omga, haftalab talon-tarojga buyurilgani ham haqiqat. Dostonda obyektiv voqealar kechimida Shayboniyxonning xalq boshiga solayotgani kulfati o‘quvchiga ayon bo‘lib borayotgan bo‘lsa-da, xonga elning mayli yo‘qligini xalqning nodonligidan, fahmsizligidan deb ko‘rsatmoqchi bo‘ladi muallif va badiiy niyatining dostonidagi ifodasini yana xonning o‘ziga topshiradi:

Tilamaslar meni bu nodon el,
Ul sababdin bo‘ladur vayron el.
Kim tilosa meni, davlat topqay,
Davlat-u izzat-u nusrat topqay
Kim o‘zin tutsa tilokdin ma’zun,
Bo‘lg‘usi yo‘qtur ango hech huzur.

⁹³ G‘oziyev S. XVI asrda Movarounnahrda ijtimoiy-ma’naviy hayot. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2014. – B. 6.

O‘zini tilaganlarga izzat, nusrat, huzur va’da qilgan Shayboniyxonning haqiqiy yuzi uni Zuhrabegim, Sulton Ali Mirzo, Xoja Yahyo va uning oilasiga ko‘rsatgan shafqatsizligida samarqandliklar ko‘z o‘ngida durustroq ochildi.

Mojar olimi Herman Vamberi samarqandliklarning o‘sha paytdagi ruhiy vaziyatlarini shunday yoritadi: “...vahshiy va yirtqich sahro xalqining hokimiyati Samarqand va uning atrofidagi ellar uchun juda malol keldi. Shu bois samarqandliklar har turli yo‘llar bilan bu mahkumlik zanjiridan qutulish chorasini izlay boshladilar” va najotni Bobur Mirzoda ko‘radilar.

Qamal tafsilotlari bobida Muhammad Solih Bobur Mirzoning Samarqand eliga yig‘lab murojaat qilganini tasvirlab, shu tasvirning ruhini: “Samarqand shahrining eliga Bobur Mirzo yolborib, o‘tkon-kechkonlaridin so‘zlagoni”, – deya faslning nomiga ham singdirishga harakat qiladi. Ammo, Muhammad Solih o‘quvchiga taqdim qilmoqchi bo‘lgan muallif niyatidagi Bobur Mirzoning nochor qiyofasini emas, balki Samarqand elining oldida adl turib, ularga temuriy hukmdorlarning shavkatli va sharaflari tarixini eslayotgan va o‘zi ham bundan kuch va ruh olayotgan Bobur Mirzoning yorqin obrazini ko‘radi.

Yuqorida bu masalaga alohida to‘xtalib o‘tganimizdek, Muhammad Solih nafaqat shoir, ijodkor, balki o‘zining tugal ijtimoiy-siyosiy qarashlariga ega arbob ham edi. E’tibor bersak, dostonning Samarqand qamali tafsilotlari yoritilgan bobda Muhammad Solih har kim o‘zining nuqtayi nazari, ideologiyasini bayon etishi uchun bir-biriga muxolif ikkita real kuch Bobur Mirzo va Shayboniyga dostonda o‘rin ajratadi. Bu o‘rinni bugungi kun adabiyotshunosligi nuqtayi nazaridan dramatik personajning ruhiy holati, uning o‘yida, yuragida kechayotgan buhronli jarayonlarning so‘zdagi ifodasi bo‘lgan monologlarga tenglashtirish mumkin. Aytish mumkinki, muallifning badiiy konsepsiyasini yuzaga chiqarishga xizmat qiladigan bu shartli monologik sahnalar soha lug‘atida juda to‘g‘ri tashxislangandek ayni o‘sha vaziyatda asar badiiy olamida ro‘y berayotgan “voqealarga g‘oyaviy-badiiy munosabatni ifodalash, ayrim muhim tafsilotlarni

berish, sujet rivojini asoslash kabi qator muhim funksiyalarni ham bajar”gan⁹⁴. Bobur Mirzo soʻzlarida Muhammad Solih shohi jahon, xusravu maʼdlat Temurni eslaydi, XV asrning ikkinchi yarmida parchalanib ketgan Xuroson va Movarounnahrni birlashtirib, Temuriylarning markazlashgan davlatini tiklagan Bobur Mirzoning bobosi Sulton Abusaʼid Mirzoni tilga oladi. Bobur Mirzoning otasi – Fargʻona mulkida adolatni barqaror etgan Shohi Sardor Umarshayx, Samarqandni 25 yil fazl-u karam bilan boshqargan shohi dinparvar Sulton Ahmad Mirzoni yodga oladi.

Dostonning shu joylarini oʻqir ekanmiz, “Muhammad Solih temuriylarga, ayniqsa, Boburga haddan ortiq muxolifona munosabatda boʻladi. U mumkin qadar Boburni qoralashga, salbiy holda koʻrsatishga intilib, uning faoliyatidagi ijobiy tomonlarni eʼtirof qilmaydi. Uning tasvirida Bobur zolim va johil bir kishi sifatida gavdalanadi”⁹⁵ degan fikrga asarning hamma oʻrinlarida ham qoʻshilib boʻlmasligini anglab yetgandek boʻlamiz. Va aynan shu joyda boburshunos olim Vahob Rahmonning fikrini paradoks sifatida eslashimiz oʻrinli deb oʻylaymiz: “...men Muhammad Solihni Muhammad Shayboniyxon maddohi sifatida qanchalik yomon koʻrmayin, uning dostonini maqtagim keladi. U oʻn yetti yoshli Boburni ilk marotaba oʻz dostoniga qahramon qilib oldi va uning haqqoniy, toʻlaqonli ijobiy obrazini yaratdi”⁹⁶.

Yuqorida taʼkidlaganimizdek, bu paradoks. Ammo xolis mutolaa, sinchkov tahlil aksariyat oʻrinlarda olimning fikrlarida ham asos borligini koʻrsatadi. Muhammad Solih Bobur Mirzo tilidan fazilatli temuriy hukmdorlarni birma-bir sanab oʻtar ekan, 19 yoshli navqiron, dovyurak bu temuriyzodaning bobomeros taxtga qilayotgan daʼvosini tan olgandek boʻladi. Muhimi, Muhammad Solih Bobur Mirzo nutqida sanagan buyuk Temurga izdosh mirzolar sohibqirondan soʻng saltanatning birligi, yuksalishi, shon-sharafi uchun xizmat qilgan temuriy hukmdorlar boʻlib, ularning mamlakat taqdiri hal boʻlayotgan paytda aynan Bobur

⁹⁴ Quronov D. va boshq. Adabiyotshunoslik lugʻati. – T.: Akademnashr, 2010. – B. 179.

⁹⁵ Mallayev N. Oʻzbek adabiyoti tarixi. – T.: Kafolat print company, 2021. – B. 300.

⁹⁶ Rahmonov V. Bir asrning ikki dahosi (Adabiyotshunos olim Vahob Rahmon bilan suhbat). Manba: “Yoshlik” jurnali veb-sahifasi. – B. 25.

Mirzo tarafidan xotirlanishida shoir ham ma'lum bir g'oyaviy-badiiy maqsadni ko'zlagan. Aynan ana shu maqsad o'laroq o'quvchi ko'z o'ngida o'z maslagi yo'lida sobit, irodali, o'z ortidan butun bir xalqni ergashtira oladigan, kurashuvchan Bobur Mirzo obrazi namoyon bo'ladi.

Xuddi shunday samarqandliklar tarafidan jo'natilgan darvesh bilan sulh masalasi hal bo'layotgan paytda Muhammad Solih doston sahniga Shayboniyxonni chiqaradi va unga ham o'z maqsad-muddaolarini bayon qilish imkonini beradi. Shayboniyxonning so'zlarida ko'proq o'zining Olloh tarafdan tanlangan deb uqtirish, har bir qilayotgan ishi Ollohning xohish-irodasi ekanligini ta'kidlash ko'zga tashlanadi:

Men tilob, tengri beribtur...
Tengri so'zi mango kiribtur...
Men tilodim, tilodi tengri ham,
Bo'lmasa tilogi mango ne g'am. (111-b.)

Xon – yerli xalqning ishonchini qozonish masalasida o'zining tutumini bayon qiladi:

Bilki, men borchag'a mushfiqdurmen,
Borcha el birla muvofiqdurmen.
Chig'atoy el meni o'zbak demosun,
Behuda fikr qilib g'am yemosun. (111-b.)

“Hazrati imomuz-zamon, xalifatur-rahmon”, din-u diyonat homiysi sifatida o'zining kelgusi rejalarini ham bayon qiladi:

Bergomen shar'i nabig'a ravnaq,
Bid'at ahlini ketorib mutlaq.
Fikrim uldurki, olib Shom-u Iroq
Bo'lg'aymen Misr ulusiga qo'noq (111-b.), –

deydi, ammo Samarqand taxtidan aslo voz kechmasligini, qolgan yuzlab taxtlarni uning bir g'uboriga loyiq ko'rmasligini bildiradi:

Bu Samarqand xud o'z taxtimdur,
Bilgil andinki netek baxtimdur.

Kirsa yuz taxt muningdek qo‘lima

Bo‘lmog‘oy hech g‘ubori yo‘lima. (111-b.)

Adabiyotshunos Nasrulla Davron tarixda Shayboniyxon haqida yaratilgan asarlarni bir-bir sanab, “...ularning hech qaysisida Shayboniyxon boshliq ko‘chmanchi feodallarning hayoti, intilishi, ideologiyasi Muhammad Solihning “Shayboniynoma”sidagicha keng va chuqur yoritilmagan”⁹⁷, – deydi.

Doston markazida Shayboniyxon obrazi turganligi, hamma voqealar uning atrofida kechayotganligi uchun ham obraz mohiyatiga ancha kirib borgan o‘quvchi asarning bu joyida xonning orzu-maslaklarini yaxlit bir g‘oya, izchil bir dastur sifatida ko‘radi. Albatta, Shayboniyxon irod qilgan nutqda muzaffar shaxsning qiyofasi, baland ruh, g‘oliblik sururiga yo‘g‘rilgan xonning “men”i yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Shayboniyxon nutqidan farqli o‘laroq Bobur Mirzo so‘zlarida kuchli tarixiy mantiq, hayotiy asos namoyon. Buyuk Temur va temuriylarning Vatan, xalq uchun xizmatlarini eslar ekan:

⁹⁷ Davron N. Shoir Muhammad Solih va uning “Shayboniynoma”si haqida. (M.Solihning “Shayboniynoma” dostoniga so‘zboshi). – T.: O‘zbekiston “FAN”, 1961. – B. 7.

Avbokom shohi jahondor Temur,
Xusravi ma'dalatosor Temur...
Kim ne turluk edi Sulton Sa'id,
Kim Qarobog' aro bo'ldi shahid.
Ul mening jaddimu bechora otam,
Andijon mulkida xunxora otam.
Shoh-u sardor Umarshayx erdi,
Tig'i xunbor Umarshayx erdi.

Abog'am erdi topib fazli Ahmad,
Shohi dinparvar Suton Ahmad...
Qirq yil shoh erdi bu kishvarda...
Shohi ogoh erdi bu kishvarda.
Emdi yod aylangiz ul shohlarni
Shohlik sirridin ogahlarni.
Istabon ruhlaridin himmat,
Tortingiz banda uchun zahmat (81-b.),

deya atrofidagi insonlarda ota-bobolarning ezgu an'alariga mas'ullik, tarixdagi ibratli ishlarga vorisiylik hissini uyg'otmoqchi bo'ladi va bunga erishadi ham.

Juda-juda yosh bo'lishiga qaramasdan o'zining bama'ni, o'rinli nutqi bilan xalqning diliga yo'l topa bilgan, xalqni ruhlantira olgan Bobur Mirzo siymosida mamlakat taqdiri uchun qaltis vaziyatlarda faqat armiya, hukmdorgina emas, balki xalqning xohish-irodasi, hukmdor bilan xalq birligi masalasi muhimligini anglab yetgan ishonchli, yetuk siyosiy yo'l boshchi maydonga chiqadi go'yo.

Gar o'zungizga olursiz ishni,
El ulug'lariga solursiz ishni
Men bu shahr ichra qilurman manzil
Yo'qsa filhol chiqarmen hosil (82-b.), –

deydi u. E'tiborlisi shundaki, Muhammad Solih bu o'rinda Bobur Mirzo obraziga real yondashgan. Dostonda tasvirlangandek, Bobur Mirzo xalqning oldiga, xalqning ichiga kirib boradi:

Shahrning o'rtasida qildi maqom
Shahrning xalqi bilan surdi kalom. (80-b.)

“Boburnoma”dan keltirilgan parchadan ham ayon bo'ldiki, Bobur Mirzo Saripuldagi mag'lubiyatdan so'ng o'zini saroyga urmaydi, Ulug'bek madrasasi shahrning o'rtasida, mavjud harbiy holatni boshqarishga qulay joy bo'lganligi uchun uning peshtoqiga chodir tikib, o'sha yerda qoladi. Doston muallifi ham

“Shahrning o‘rtasida qildi maqom, Shahrning xalqi bilan surdi kalom” deganda shu tarixiy manzarani gavdalantiradi.

Muhammad Solih aytganidek, Bobur Mirzo xalqning o‘zi bilan yuzma-yuz tillashdi, so‘zlashdi.

Bobur Mirzoning so‘zlarida Shayboniyxonda bo‘lgani kabi:

Tilamaslar meni bu nodon el,
Ul sababdin bo‘ladur vayron el.
Har necha el tilomos, men tilaram
El meni silomasa, men silaram (111-b.)

kabi zug‘um, alamzadalik, bosim yo‘q. Ayni paytda xalq bilan muloqotda biz Bobur Mirzoni yig‘loqi, nochor, aftoda holatda ko‘rmaymiz. Aksincha, ma‘rifati, bilgichligi, tug‘ma zukkoligi, dilbar va so‘zamolligi bilan o‘zining ortidan butun Samarqand elini ergashtira olgan, el-yurtini bir maqsad yo‘lida birlashtira olgan 19 yoshli iste‘dodli temuriyzoda obrazini ko‘ramiz.

Shu o‘rinda boburshunos Yanglish Egamovanning: “Shayboniynoma” dostoni Zahiriddin Muhammad Boburning – o‘n yetti yashar hukmdorning badiiy haqqoniy siymosini yaratgan va uning yosh bo‘lishiga qaramay muloqotda xalqqa ta‘sir o‘tkaza olganini ko‘rsata olgan birinchi asar sifatida diqqatga sazovordir”⁹⁸, – degan fikrlarini eslash joiz. Dostonda Muhammad Solih Bobur Mirzo bilan Samarqand elining kelishuv natijasini:

Shart aylodilar mustahkam,
Qildilar qal‘alarni mahkam, –

deya tasvirlaydi.

Olti oy davom etgan qamal azobining dahshatlari samarqandliklar boshiga tengsiz kulfat bo‘lib yog‘ilganini Muhammad Solih dostonida ancha batafsil yoritadi. Bobur Mirzoning atrof-javonibdan yordam so‘rab qilgan murojaatiga hech kim, hatto katta umid bog‘langan Husayn Boyqaro ham javob bermadi.

⁹⁸ Egamova Y., Rahmonova, K. El bilan muloqotning mumtoz namunasi. Manba: Bobur abadiyati: Zahiriddin Muhammad Bobur asarlarining jahon madaniyati tarixida tutgan o‘rni mavzusidagi xalqaro konferensiya materiallari. 27-28-oktabr, 2017. – T.: BAYOZ, 2018. – B. 204.

Dostonda Bobur Mirzoga ko‘mak berish uchun yurak yutib yo‘lga chiqqan Xonika Sulton va Ahmad Tanballar ham

Yuz aningdek kishi dushman bo‘lsa,

Balki dushmandin olam to‘lsa.

Mango dushman soridin g‘am yo‘qtur

Do‘st lutfi bilan ko‘nglim to‘qtur (94-b.), –

deya ularni munosib qarshilashga tayyor bo‘lib turgan xonga ro‘para kelolmay, orqaga qaytganlarini istehzo bilan tasvirlaydi. Dostonda oddiy xalqning o‘z yurtiga, shahriga, Bobur Mirzoga bo‘lgan sadoqati, lafzidagi sobitligi ham o‘z badiiy ifodasini topgan. Bu talqinning tarixiy haqiqatligini “Boburnoma”dan ham ko‘rsak bo‘ladi, Bobur Mirzo bir necha o‘rinlarda “Samarqandning mahalla-mahalla, ko‘y-ko‘y avbosh va yatimlari favj-favj yig‘ilib, yatimona salovatlar chekib urushqa chiqarlar edi”⁹⁹, – deydi.

Samarqandning yosh yovqur, chapani yigitlari Bobur Mirzoning navkarlari bilan ba‘zan birga, ba‘zan ularga ham qarab o‘tirmay bir necha bor dushmanga qarshi jang uyushtirishgan. Dushman tarafdin Hamza Sulton, Sulton Mahmudlar boshchiligida qal‘ani zabt etishga qilingan harakatni qaytarishda jonbozlik ko‘rsatganlar. Ostonada turgan dushmanga nisbatan hushyor bo‘lib, tashqarida qulay paytni kutib yotgan xonga vaqti-vaqti bilan aytganda “hunar”larini ko‘rsatib turgan samarqandlik yigitlarni “bebok el”, “cholok el” deb atar ekan, Muhammad Solih ixtilof nuqtayi nazaridan ularning jasoratini Bobur Mirzoning navkarlarining kuchidan ustun qo‘yadi:

Endi kim oz qolibtur Lashkar

Chiqibon ko‘rsotoli xonga hunar...

Toptilar o‘zlari yanglig‘ bisyor

Borcha tirafgono‘, chustu jarror.

Bo‘ldi Mirzo kishisiga nomus,

Dedilar borcha darig‘-u afsus.

Kim: “Bu el chog‘li bo‘la olmoy biz,

⁹⁹ O‘sha manba. – B. 84.

Nang-u nom ila o‘la olmoy biz. (96-b.)

Tarixan konkret obrazlardan tashqari o‘rni bilan asarda realism tendensiyalarining yuzaga chiqishiga sabab bo‘lgan, sujet hayotiyligini ta’minlagan qahramon – xalq obrazisiz Bobur Mirzoning ham tugal badiiy qiyofasini tasavvur qilish qiyin. Qamal payti shaharni himoya qilishda Bobur Mirzo tayangan, suyangan kuch xalq bo‘ldi. Ammo uzoq davom etgan qamalning oqibatida ichkarida oziq-ovqat zaxiralari butkul tugab, odamlar noilojlikdan it, eshak, musicha etlarini iste’mol qilisha boshlaydi. Shaharga kiradigan suv yo‘llari bekiladi. Xalq ochlikdan, suvsizlikdan qirila boshlaydi.

Dehqonning yil bo‘yi harakat qilib, ekkani-tikkani tashqarida, g‘arq pishgan mevazor, uzumzor bog‘lar, poliz mahsulotlari barchasi taqa-taq bekilgan shahar darvozasi ortida. Yangi pishgan bug‘doydan ham shahar ichkarisiga bir kaft olib kirolmaydilar. “Bobur Mirzo ul mahfuza shaharni qo‘lda saqlab turish uchun qo‘lidan kelgancha harakat qildi. Muhammad Shayboniy ham qamaldagi dushmani qiyin ahvolga solish uchun tirishib qamalda tutish istak va usulini o‘zidan yiroqlashtirmadi”³⁴, – deydi tarixchi Muhammadyor ibn Arab Qatag‘an.

Muhammad Solih qamal fojialarining obyektiv kechimini yoritir ekan, “Toshqori” va “Ichkori” manzarasini bir-biriga qarama-qarshi qo‘yadi:

Toshqori meva chu bisyor o‘ldi,

Ichkori xalq dilafkor o‘ldi.

Toshqori meva sarosar pishti,

Ichkori ochlig‘idin el shishti.

Oqibat qolmadi nomus elga,

Bo‘ldi g‘avg‘oyi g‘alomus elga.

Kimki tushti qazoq ilkiga burun,

Berdi barbod quloq birla burun (92-b.)

dostondagi olti oylik qamal oqibatlarining bu shafqatsiz, real kontrast tasviri urushlar, adovatlar tug‘dirgan johillik va bu johillikning noaxloqiy, noinsoniy manzarasidir. Shuning uchun Herman Vamberi Samarqand va samarqandliklar

fojiasidan ta'sirlanib: "...bu qamal Temur poytaxti tarixidagi eng og'ir damlardan edi"¹⁰⁰, – deydi.

Rus adabiy tanqidchisi Belinskiy: "...epopeyaning mazmunini o'z hayotining individual manbalaridan hali ayrilmagan xalqning hayot mohiyati, substansiya kuchlari, vaziyati, turmushi tashkil qilishi kerak. Shuning uchun epik dostonning asosiy shartlaridan biri uning xalqchilligidir: shoirning o'zi ham voqeaga o'z xalqining ko'zlari bilan qaraydi..."¹⁰¹ – deydi.

Muhammad Solih "Shayboniynoma"da xonning har bir xatti-harakatini tasdiqlash, uni ideallashtirish, qonli g'alabalarini Ollohning hukmi sifatida ma'qullash yo'lidan borib obyektiv tasvirdan uzoqlashadi. Ammo o'zaro feodal urushlar tufayli qora xalq boshiga yog'ilayotgan kulfatlar: shahar va qishloqlarning kultepaga aylanishi, xalqning kundalik turmushini mutlaqo izdan chiqishi, tirikchiligining barbod bo'lishi, urush maydonlarida behuda to'kilgan qonlar, juvonmarg ketgan yigitlar, uvol bo'lgan qizlar, onam deb yig'layotgan go'daklar, bolam deb chirqirayotgan onalarning g'amzada qiyofasi tasviriga ham dostonda joy ajratgan.

Ayniqsa, Samarqand qamalida ichkaridan xalq ochlikdan qirilayotganda, mevalari g'arq pishgan bog'-rog'ni shayboniylar oti tuyog'i ostida poymollanishi yoki qal'aga chiqish maqsadida birdaniga 2-3 kishi ko'tarilsa bo'ladigan o'nlab shotilar yasash maqsadida vayron etilgan bog'larning

Chun yog'och shotu uchun saylodilar,

Shotu asbobini jam aylodilar,

Bu bahona bila charxi gardon,

Asru ko'p bog'ni qildi vayron

kabi tasvirni yaratishda Muhammad Solih, albatta, bu xarob manzaraga Belinskiy ta'kidlagandek, o'z xalqining ko'zlari bilan qaragani bir vijdonli inson sifatida iztirob chekkani aniq.

¹⁰⁰ O'sha manba. – B. 81.

¹⁰¹ Belinskiy V.G. Poeziyaning xil va turlarga bo'linishi // Oybek Muso Toshmuhammad o'g'li. MAT. 19 tomlik. – T.: Fan. T. 17. – B. 159.

Mana shu jihatlarni kuzata turib, “Shayboniynoma” dostoni xalqona ruhdan xoli asar emas, degan xulosaga ham kelasiz. Dostondagi sulh voqealari bilan bog‘liq tafsilotlarda Bobur Mirzo obrazi alohida xatti-harakati, nutqi bilan ko‘zga tashlanavermaydi. Ammo qamal azoblaridan qutulgan xalqning xursandchiligini tasvirlash asnosida shoir Bobur Mirzo va shayxul-islom Abulmakorimni shu fon ichida ko‘rsatadi. Sulh shartiga ko‘ra xon tarafidan hayotining daxlsizligi va‘da berilgan Bobur Mirzo opasi Xonzodabegimni xon huzuriga jo‘natgandan so‘ng o‘zi ham Samarqanddan chiqib, Toshkentga ketishi “Oni¹⁰² chun xonga yibordi Bobur, Shahrdan chiqdi-yu bordi Bobur” tasviri bilan dostonda Bobur Mirzo obraziga bog‘liq asosiy voqealar tugaydi.

Undan so‘ng doston sujetining ikki joyida Bobur Mirzo obraziga duch kelamiz: tog‘alari Mahmudxon va Olachaxonlar bilan Shayboniixon o‘rtasida bo‘lgan jang tafsilotlarida Muhammad Solih 1000 kishilik qo‘shini bilan urushda ishtirok etayotgan Bobur Mirzoni faqat bir o‘rinda tilga olib o‘tadi.

Ikkinchi marta esa eng so‘nggi ilinj sifatida Husayn Boyqarodan kutilgan yordamni ololmagan Bobur Mirzoning Vatanni butunlay tark etib ketishi tasvirini dostonda muallif quyidagicha chizadi:

Qochdi Bobur dog‘i Kobul sori,
Shahri buzboz-u karanful sori.
Yayrabon qoldi viloyat bori
Yayradi xalqi viloyat bori
Har viloyatda birov soldi Vatan
Qildi har yerni bir o‘zbek maskan.

Bu tasvir bizga Herman Vamberining: “Temur sulolasining botayotgan yulduzini 19 yoshlik Bobur qo‘li bilan hech yerda va xususan Movarounnahrda to‘xtatishga imkon yo‘q edi”¹⁰³, – degan so‘zlarini eslatadi.

Purtajriba, ko‘p ish ko‘rgan Shayboniixon saltanatiga xavf solishi mumkin bo‘lgan kuchlarni butunlay bartaraf etish qasdidagi edi.

¹⁰² Xonzodabegimni – Y.K.

¹⁰³ Vamberi H. Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi. Kitobdan parchalar /To‘pl.: S.Ahmad/. – T.: Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1990. – B. 71.

“Habib us-siyar”da ma’lumot berilishicha, Shayboniyxon Andijonda jang qilib Olachaxon va Xonikaxonlarni asirga oladi. O’sha paytning o’zidayoq “...yashin va shamolga jilovdosh bir qosidni Toshkentga yubordi va u yerdagi mo’g’ullarga “Xonika va Olachaxon qo’limizga tushdi, Zahiriddin Muhammad Bobur podshoh esa yuzini qochish yo’li sari qaratdi, agar istagingiz qiyomat yolqinli g’azabimiz olovi qo’lga tushganlarning hayoti xirmonini yoqish bo’lmasa, Bobur Mirzoning qochishiga qarshilik qiling...”¹⁰⁴ – degan mazmundagi xabar jo’natadi.

Dostonda Muhammad Solih Shayboniyxondek kuchli, tajribali dushmanga qarshi kurashda mutlaqo yolg’zilani boshqirgan Bobur Mirzoning noiloj Vatandan bosh olib Kobulga ketishini “Qochdi Bobur” deya talqin etgan bo’lsa-da, u “qochgandan” so’ng “yayrab qoldi viloyat”, “yayradi xalqi viloyat”, “Vatan Qildi har yerni bir o’zbek maskan” tasvirlari bilan Bobur Mirzo Movarounnahrda shayboniylarning yayrashiga xalaqit bergan, ularga nisbatan jiddiy xavf solib turgan yagona kuch bo’lganligini e’tirof etgandek ham bo’ladi.

I bob yuzasidan xulosalar

1. Jahon va o’zbek adabiyotida, adabiyotshunosligida Bobur Mirzoning hayot yo’li va ijodini o’rganish, Bobur Mirzo siymosini yaratishga urinish o’zi yashagan zamonlardan boshlanib, bizning kunlarga qadar davom etmoqda.
2. XV-XVI asrda yaratilgan tarixiy-adabiy manbalarning aksariyati fors tilida bo’lib, ularda ko’proq Bobur Mirzoning muhorabalari, ijtimoiy-siyosiy faoliyati aks etgan bo’lsa, g’arb tillaridagi badiiy asarlar: qissa, roman, dramalarda asosan u mo’g’ul imperatori, sarkarda va buyuk me’mor sifatida g’avdalantirilgan.
3. Muhammad Solihning “Shayboniynoma” asari XVI asr o’zbek adabiyoti va tilining nodir yodgorligi, memuar xarakterdagi ilk realistik tarixiy doston bo’lib, unda shayboniylar davlati va sulolasi asoschisi Muhammad Shohbaxt

¹⁰⁴ Xondamir G’. Habib us-siyar. – T.: O’zbekiston, 2013. – B. 1023.

Shayboniyxonning 1499–1506-yillardagi temuriylarga qarshi zafarli yurishlari badiiy talqin etiladi.

4. Muallifning temuriy hukmdorlardan norozi va alamzadaligi, Shayboniyxonga bo‘lgan cheksiz mehri va e‘tiqodi doston sujeti rivojida tendensioz xarakterning yetakchiligini ta‘minlagan. Muhammad Solihning “Shayboniynoma” dostoni ilk marta Bobur Mirzoning badiiy siymosi yaratilgan asar sifatida e‘tiborga molik.
5. Bobur Mirzo obrazi talqinida “Muhammad Solih temuriylarga, ayniqsa Boburga haddan ortiq muxolifona munosabatda bo‘ladi” (N.Mallayev) degan fikr dostonning hamma o‘rinlarida ham o‘zini oqlayvermaydi.
6. Dostonda kitobxon Bobur Mirzo obrazi talqini orqali davr haqiqati, muhit, vaziyat manzarasi, tarixiy sharoitning shaxs hayoti va qismatiga ta‘sirini kuzatadi. Zukko kitobxon Saripul jangi voqealari tasvirida Muhammad Solihning badiiy til vositalari yaratish san‘ati orqali Bobur va boburiylarning ham jangovar qiyofasini kashf etadi. Qamalda Bobur Mirzoning xalq bilan muloqotida shoir 19 yoshli temuriyzodaning zukko, ma‘rifatli, tadbirli, xalqni o‘z orqasidan ergashtira oladigan kuchga ega rahbar qiyofasini yarata olgan.

II BOB. “BOBURNOMA”DA MUALLIF OBRAZI

2.1. “Boburnoma”da roviy-qahramon va muallif “men”i

Biz tahlilga tortayotgan “Boburnoma” o‘z yaratuvchisining ongi, ovozi, beqiyos tafakkuri, nuqtayi nazarini teran aks ettirgan shunday bir bitikki, ingliz tarixchisi Elfinston asar doirasida muallif hokimligini belgilab turgan Bobur Mirzoning “...yorqin xarakteri asarga eng ko‘p joziba bag‘ishlaydi”, – deya asarning umumjahon e’tirofiga sabab bo‘lgan jihatini muallif obraziga bog‘lab to‘g‘ri xulosa qiladi. Ma’lumki, “Boburnoma” kabi memuar janrdagi asarlarda muallifning o‘tmishda o‘zi qatnashgan, ko‘zi bilan ko‘rgan, guvohi bo‘lgan voqealar haqidagi xotiralari bayon qilinadi.

Muallif – xotirnavis, albatta, voqeani yaxlit bayon qilib o‘tirmaydi, balki asarda o‘zi ko‘rgan voqeaning ma’lum tomonlarini, kashf etgan jihatlarini, o‘ziga ta’sir etgan holatlarni qog‘ozga tushiradi.

“Prozaik asarda avtor ongingning asosiy ifoda formalari qahramon, hikoyachi, bayonchidir. Bayonning hikoyachi-qahramon tipi, ayni vaqtda, yozuvchining o‘z shaxsiy hayoti, voqelikning shaxsiy nazar bilan tasvir etishda qulay sanaladi. Natijada, yozuvchi hikoyachi-qahramon qiyofasida o‘z shaxsiy hayoti va u bilan uzviy bog‘liq voqealarni tasvir obyektini qilib oladi. Bunda avtor ham individual shaxs, ham o‘zi mansub muhitning vakili – sotsial “biz” xarakteriga ko‘chadi. Voqea-hodisalarning jonli guvohi sifatida tasvirning real va haqqoniyligini tasdiqlovchi, ularni uyushtiruvchi kuch, bir momentda tasvir subyekti va obyektini bo‘ladi. Bu xususiyat avtobiografik, iqroriy xotira, esdalik asarlarda yaqqol ko‘rinadi”¹⁰⁵, – deydi adabiyotshunos olim O‘rol Nosirov.

Nazariy qoidada tilga olingan avtobiografik, iqroriy xotira, esdalik, shuningdek, memuar asarlarga xos bo‘lgan xususiyatlarni o‘zida jam etgan “Boburnoma”da roviy-qahramon muallif “men”ini o‘zida ifoda etadi.

Asarda 1494–1529-yillar oralig‘idagi Movarounnahr, Xuroson, Kobul, Hindiston kabi ulkan hududda sodir bo‘lgan ijtimoiy-siyosiy voqealar, temuriylar sulolasi inqirozi, shayboniylarning davlat tepasiga kelishi, temuriy mirzolarining

¹⁰⁵ Nosirov O‘. Ijodkor shaxs, badiiy uslub, avtor obrazi. – T.: Fan. – B. 183.

fojeiy qismati, toj-u taxt dag‘dag‘asidagi qonli kurashlar tasvirlangan. O‘n ikki yoshdanoq podsholik minnatini yelkasiga ortib, mustaqil va qudratli davlat barpo qilish orzusida yashagan, kurashgan, toygan, yiqilgan va qayta qad rostlagan Bobur Mirzo – muallifning o‘zi tasvirlagan tarixiy voqealarning faol qatnashchisi ekanligi “Boburnoma”ning badiiy-biografik, memuar-esdalik asar ekanligini belgilaydi.

Muallifning bu voqealarga munosabati, qarashi, bahosi shoyon holatda “men” formasi orqali bayon qilinadi va bu ulkan hayot panoramasi markazida Bobur Mirzo obrazi namoyon bo‘ladi. Adabiyotshunos Ibrohim G‘afurov ingliz adibi Irving Stounning biografiya bilan biografik qissaning, tarixiy asarlar bilan biografik romanlarning o‘zaro yaqinliklari va farqlanadigan jihatlari haqidagi asosli fikrlariga qo‘shiladi.

Va bu nazariy talablarga to‘liq javob beradigan asl asarlar haqida: “Bizda (o‘zbek adabiyoti tarixida – Y.K.) badiiy biografik janr jilla ham qo‘riq ahvolda emas. Navoiyning Jomiy, Sayid Hasan Ardasher, Pahlavon Muhammad haqidagi go‘zal asarlari, Boburning “Vaqoye”si, “Shayboniynoma” shu janrning mumtoz namunalari”¹⁰⁶, – deydi.

Olim o‘zbek adabiyotida biografik janrning kamoloti milliy mumtoz adabiyotimizdan boshlanishini misollar bilan asoslar ekan, Bobur Mirzoning asarini “Vaqoyi” nomi bilan eslashi e‘tiborni tortadi.

Aslida, Bobur Mirzoning “Bu olam aro ajab alamlar ko‘rdim...” deb boshlanuvchi hammaga ma‘lum ruboiysi Ibrohim G‘afurovning har ikki fikrini, ya‘ni asarning tarjimayi hollik xususiyatini hamda uning mumtoz nomi “Vaqoyi” ekanini ham tasdiqlaydi. Adabiyotshunos Iqboloy Adizova bu asarning shu paytgacha turli adabiyotlarda “Voqeoti Boburiy”, “Tuzuki Boburiy”, “Tavorixi Boburiy”, “Boburiya”, “Boburnoma” kabi nomlar bilan atalib kelinayotganligi mohiyatan noto‘g‘ri ekanligini ta‘kidlab: “Nazarimizda, bu xatoni tuzatish fursati yetdi. Asarni muallifning o‘zi nomlaganidek “Vaqoyi” deb atash va nashr ettirish lozim”¹⁰⁷ degan xulosani aytadi.

¹⁰⁶ G‘afurov I. Asarlar. Adabiyot dunyosi: Sakkiz jildlik. Yettinchi jild. – T.: Yangi asr avlodi, 2022. – B. 171.

¹⁰⁷ Adizova I. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – T.: Fan, 2009. – B. 45.

Aynan shu masala borasida fikr yuritgan adabiyotshunos Elmira Hazratqulovaning: “Asar (“Boburnoma” – Y.K.) shu kungacha jahon tillarida turlicha yigirma xil nom bilan chop etildi, faqat ozarbayjon, turkiy¹⁰⁸ tarjimalaridagina “Vaqoye” nomi bilan nashr etilgan”¹⁰⁹ degan ma’lumoti ozarbayjon va turk boburshunoslarining muallif maqsadini asar g’oyasini aniq ifoda etadigan sarlavhani to’g’ri tanlashganini ko’rsatadi.

Vaholanki, Bobur Mirzo tanlagan “Vaqoyi” sarlavhasidayoq muallifning konseptual maqsadi, asar mohiyati, tasvir predmetining salmog’i ko’rinib turibdi, qolaversa, aynan shu masalada Bobur Mirzoning o’zidan javob qidiradigan bo’lsak, uning Shayboniyxonning qo’pol xatosi sifatida nafratlanib ko’rsatgan: “Mullo Sulton Ali Mashhadiy bilan Behzod musavvirning tasvir va xattig’a qalam kiyurib, isloh qilgani”¹¹⁰ haqidagi ma’lumotlarini eslash joiz. Guvohi bo’lganimizdek, Bobur Mirzo muallifning ishini o’rinli-o’rinsiz isloh qilishni qoralagan.

Akademik Boturxon Valixo’jayev: “Boburnoma” voqealarning xronologik tarzidagi bayoni bilan tarixiylikning kuchliligini namoyish ettirdi. Bobur o’z asariga kiritgan voqealar bayoni orqali o’zining oddiy viloyat hokimidan Afg’oniston podshohi, undan so’ng esa Hindiston va Afg’onistonni o’z ichiga oluvchi imperiya tuzgan shoh bo’lishiga qadar bo’lgan siyosiy faoliyatini” tasvirlab berishni nazarda tutgan degan so’zlaridan “Boburnoma”dagi voqea-hodisalarning geografik ufqining kengligini, tasvir predmetining salmog’ini his qilsak, adabiyotshunos Ibrohim Haqqulning: “U (Bobur Mirzo – Y.K.) kuzatgan, bilgan, yoqlagan yoki inkor aylagan voqea-hodisa va ma’lumotlarning aytarli barchasi, eng avvalo, Boburning kimligi, insoniy mohiyatining tub zamini va ildizlari nimalarga asoslanganligini chuqur anglashga xizmat qiladi”¹¹¹ degan fikrlari muallif obrazini, muallif “men”ini aynan shu voqea-hodisalar va ma’lumotlar bag’rida kashf qilishimiz mumkinligiga ishora qiladi.

¹⁰⁸ Gazi Zahiriddin Muhammad Babur. Vekayi. I-II cild. – Ankara: 1944–1946.

¹⁰⁹ Hazratqulova E. Bobur – adabiyotshunos. – Andijon: Andijon nashriyot-matbaa MChJ. – B. 38.

¹¹⁰ Valixo’jayev B. “Boburnoma” – ulkan nasr namunasi. Manba: O’zbek nasri tarixidan. – T.: Fan. – B. 62.

¹¹¹ Haqqul I. Taqdir va tafakkur. – T.: Sharq, 2007. – B. 319.

Turkiyo‘y shoirlar: Sakkokiy, Lutfiy, Atoiy she‘riyatidan rang olgan Bobur Mirzo lirikasidagi xalqchilik, ravon ifoda, sodda va samimiy uslub, tushunarli til uning nasri – “Boburnoma” uchun ham xos yetakchi xususiyatdir.

Boburshunos Zulxumor Xolmanova “Boburnoma”ning to‘rt marta fors va ingliz, ikki marta olmon, fransuz, turk, urdu, bir marta golland, italyan, hind, yapon, polyak, nemis, ispan, uyg‘ur, qozoq tillariga tarjima qilinganini ta‘kidlar ekan: “Asarning bu darajada mashhurligi keng ko‘lamdagi mazmuni, tasvir obyekti, betakror uslubi, ifoda tili, ilmiy-badiiy qiymati bilan belgilanadi”¹¹², – deydi. Darhaqiqat, olim o‘rinli qayd etganidek, betakror uslub, ifoda tili “Boburnoma”ning umumjahon shuhratini ta‘minlagan asosiy jihat hisoblanadi.

Movarounnahr va Xuroson muarrixlarining tarixnavislik mahoratlarini obdon kuzatgan, Hirot adabiy-ilmiy muhiti vakillari ijodini bir yetuk adabiyotshunos sifatida ilmiy-nazariy, ayrim o‘rinlarda tanqidiy o‘rgangan Bobur Mirzoning qalamini charxlagan, tafakkurini yetiltirgan tajribasini oshirgan manbalarni aniq tasavvur etish mumkin. Boburshunos olimlarimiz “Boburnoma”ning yozilish yoki tartib berish vaqtini 1518-1519-yillarda deb belgilaydilar.

O‘zbek mumtoz adabiyotida dastlabki nasriy, tarixiy-ilmiy, badiiy asar “Boburnoma” yozilgandan so‘ng roppa-rosa 400 yil o‘tib yangi o‘zbek adabiyotida XX asrning 19-yilida Abdulla Qodiriyning milliy realistik romanchiligimizning ilk namunasi – “O‘tkan kunlar”i dunyoga keldi.

Bizni hayratlantirgan jihat bir-biridan 400 yil vaqt oralig‘ida turgan ikki adibning estetikasidagi favqulodda yaqinlik, san‘atkor qalbining hamohang urishi, ijodlaridagi yetakchi tamoyillarning mushtarakligidir. Realizmning hayotbaxsh kuchi turli tarixiy davr, turli mafkura, turlicha dunyoqarashlar sohibi bo‘lgan, ammo insoniy va ijodiy a‘moli bir-biriga yaqin bo‘lgan ikki buyuk davrning ikki buyuk adibining haqqoniylik, tabiiylik, samimiylik, so‘z mas‘uliyati borasidagi qarashlarini bir nuqtada birlashtirdi. (1-ilova).

¹¹² Xolmanova Z. “Boburnoma” – til qomusi. – T.: Akademnashr, 2021. – B. 4.

Bu qiyosda yangi o‘zbek adabiyotining tamal toshini qo‘ygan, tarixiy romanchiligimiz maktabining avvalboshida turgan Qodiriy realizmi suv ichgan ildizlar yaqqol ko‘rinadi. “O‘tkan kunlar”da Otabek qo‘lidagi “Boburnoma” ana shu buyuk haqiqatning qodiriyona e’tirofidir.

Asarda turli voqealar tafsiloti bilan bog‘liq bildirilgan, ijodkor pozitsiyasini tayin etgan bu fikrlarni bir rakursga yig‘sak, shubhasiz, “Osiyoning haqqoniy tarixini aks ettiruvchi” (Elfinston) “Boburnoma”ning yaratilishidagi yetakchi tamoyillarni anglab yetamiz. Bu tamoyillar esa o‘quvchi ko‘z o‘ngida Bobur Mirzoning mualliflik qiyofasini ochiqalaydi, shu bilan birga uning so‘zga ko‘chgan podsholarga xos mardona, siyrati-yu darveshlarga xos ozoda ko‘nglini tiniq ko‘zgu yanglig‘ bizga ravshan etadi. “Boburnoma”ning birinchi jumlasioq kitobxonga shu ruhni beradi, shu qiyofani namoyon etadi: “Tengri taoloning inoyati bilan va hazrati on Sarvari koinotning shafobati bilan va chahoryori bosafolarning himmati birlan seshanba kuni, ramazon oyining beshida, tarix sakkiz yuz to‘qson to‘qqizda Farg‘ona viloyatida o‘n ikki yoshta podshoh bo‘ldim”¹¹³.

Bu matn bir paytning o‘zida hujjatligi (tarixan konkret ma’lumot), voqelikka singgan badiiyligi bilan (inoyat etilgan taqdirga rozilik va shukronalik) noan’anaviy uslubi (diniy-traditsion qismning g‘oyat muxtasar va ayni paytda o‘ta mo‘tabarligi) bilan e’tiborni tortadi. Rus adabiyotshunos olimi Mixail Baxtin: “Muallifning ijod jarayoni adabiy qadriyat o‘laroq faqat u tomondan idrok etilgan matndagina amalga oshadi, takomillashadi, intiho topadi. Muallif uchun matn yaratish ilmiy ijod, izlanish demakdir... Muallif o‘z ijodida sof adabiy qarshilikni, eski adabiy shakllarni, ko‘nikma va an’analarni (bu, shubhasiz, mavjud) yengib o‘tib matn – butun bir adabiyot olamini yaratadi. Aynan shu yerda uni har bir so‘z, holat ifodasiga xizmat qiladigan ma’nolar, ohorli shakllar, yangi uslublar yaratishiga undaydigan ilhomi, ijodiy shavqi uyg‘onadi”¹¹⁴, – deydi.

¹¹³ Bobur Zahiriddin Muhammad. Boburnoma. – T.: Sharq, 2002. – B. 34. (Bundan so‘ng ushbu nashrdan olingan ko‘chirmalarning sahifasini ko‘rsatuvchi raqamlar qavs ichida berib boriladi).

¹¹⁴ Бахтин М.М. Автор и герой: к философским основам гуманитарных наук. – СПб.: Азбука, 2000. Ст. 214-215.

Darhaqiqat, Bobur Mirzoning ilmiy ijodi, beorom izlanishlari mahsuli – “Boburnoma”ning ilk jumlasioq muallif Sharq, ayniqsa, Xuroson va Movarounnahr muarrixlari ijodiy an’anasiga aylangan paradigmani qabul qilmaganligini ko’rsatadi. Bobur Mirzo M.Baxtin ta’kidlagan eski adabiy ko’nikma bir necha boblarga egallaydigan Tangri madhi, payg’ambar, piri ustozlarga atalgan bag’ishlovlar mohiyatini o’zining islohotchi xarakteridan kelib chiqib “betakalluf va ravshan va pok alfoz bila” bir jumla, uch semiotik nuqtaga sig’dira oldi. Bu o’rinda Bobur Mirzoning nafaqat amalda, hatto so’z so’zlashda, jumlar tuzishda ham tadbirliligini shu bir jumlaning o’zidayoq ko’rish mumkin.

Bobur Mirzo qisqa bir jumlada o’zining imon-e’tiqodini, taqdir hukmiga rizoligini, hukmdorlik masnadida tanlagan yo’li, a’molini kitobxonga yetkaza olganini Mirzo Kenjabek shunday sharhlaydi: “Bu o’rinda muqaddas dinimizning eng go’zal va yuksak odobi podshohona tarzda uch nuqta bilan ifoda etilgan. 1. Allohning zikri inoyati. 2. Allohning Rasuli, koinotning sarvari hazrati Muhammad Mustafo sollallohu alayhi vasallam shafotlari. 3. Chahor yor: hazrati Abu Bakr Siddiq, hazrati Umar ul-Foruq, hazrati Usmon Zinnurayn, hazrati Ali al-Murtazo (roziyallohu anhum) himmatlari. 1-nuqta podshohlikni nasib etgan Zotga shukronadir. Chunki Qur’oni karimning Baqara surasi 247-oyatida aytiladi (ma’nosi: Alloh mulkini (podshohlikni) O’zi xohlagan kishiga berur... 2-nuqta muallifning Rasululloh (alayhissalom) yo’llarida ekaniga ishoradir. 3-nuqta muallifning Chahor yorning davomchilari ekaniga ishoradir”¹¹⁵.

Mirzo Kenjabek sharhlagan oldingi ikki nuqtani izohsiz qabul qilishimiz tabiiy. Uning “3-nuqta muallifning Chahor yorning davomchilari ekaniga ishoradir” degan fikrida hayotiy asos borligini alohida ta’kidlagimiz keladi.

Bobur Mirzo tomonidan tilga olingan “chahoryori bosafolarning himmati” e’tirofida katta bir tarixiy davr manzarasiga, Yaratganning buyuk bir missiyasini yelkasiga olgan sharaflilarning yaratuvchilik, bunyodkorlik faoliyatiga ishora bor. Kitobxon necha yuz yillar ortga, xalifalik davriga qaytib, chahoryorlar: Abu

¹¹⁵ Bobur Zahiriddin Muhammad. Kulliyot. 4-jild. Boburnoma (Voqe’otiBoburiy). Farg’ona davri voqealari. – T.: Zilol buloq, 2021. – B. 24.

Bakr Siddiq, Umar ibn Xattob hukmdorligidagi oqilona davlat boshqaruvini eslaydi.

Islom ravnaqi yo'lida bir necha bor olib borilgan janglarda oz sonli lashkarni mohirona boshqarib dushman tarafning ko'p mingli qo'shinini tor-mor qilgan bu mohir sarkardalar, saltanat ishlarida ham aql va tadbir bilan ish yuritishni yaxshi bilganlar. Davlat boshqarishda qator tartiblar: ma'muriy-huquqiy muassasalar, Maslahat kengashlarining tashkil etilishi, soliq-o'lpon tizimining joriy etilishi, bosib olingan yerlarni o'zboshimchalik bilan o'zlashtirishga barham berib, devon ro'yxatiga kiritilishi, sahoba va jangchilarga maosh to'lashni yo'lga qo'yishi, obodonchilik, masjidlar qurilishi, ularning qulayligini ta'minlash, chiroqlar o'rnatish, eng muhimi, davlatni adolat bilan boshqarish, hukmdor bo'lishlariga qaramay oddiy, kamtar hayot kechirish – bularning barchasini chahoryorlarning buyuk himmatidan, azm-u shijoatidan deb bilgan Bobur Mirzoning davlat boshqaruvida, insoniy-ijtimoiy faoliyatida bu sahobalarga nisbatan munosib vorisiylikni kuzatamiz.

Mirzo Kenjabek chahoryorlarni nomma-nom keltirar ekan, Umar ibn Xattobni laqabi bilan Umarul Foruq deya qayd etadi. Bu bejiz emas, albatta. Umar ibn Xattobga bu laqab u islomni oshkor qabul qilgandan keyin berilib, “haq bilan botilni ajratuvchi” degan ma'noni bildiradi. Zero, Bobur Mirzo faoliyatining hamma turlarida haq bilan botilni ajratish birinchi darajali bo'lgan.

Buyuk rus yozuvchisi Dostoyevskiy: “Gap hammasi hayotda, faqat hayotda – hayotni kashf qila borishda, tinimsiz va abadiy suratda kashf qila borishda”¹¹⁶, – deydi.

“Boburnoma” – kashfiyot mahsuli. Odam va olamning kashfnomasi. Olam, ma'rifatli dunyo o'z navbatida Bobur Mirzoni “Boburnoma”da kashf etdi. Adabiyotshunos Natan Mallayev “Boburnoma”da muallif tinmay, go'yoki abadiy suratda kashf etib borgan ulkan hayot panoramasi hamda bu jarayonda uning o'rni va mavqeyi haqida shunday deydi: “Kitobxon uni (Bobur Mirzoni – Y.K.) butun asar davomida ko'rib, kuzatib boradi, u butun hayot yo'li, ish-amallari, kishilarga

¹¹⁶ Dostoyevskiy F. Hayotiy hikmatlar va tanbehlar. – T.: Yangi asr avlodi, 2021. – B. 65.

va voqealarga munosabati, dunyoqarashi, zavqi va didi, shodligi va qayg‘usi, g‘alabasi va mag‘lubiyati, olqishi va ranjishi, saltanati va darbadarligi, qattiqqo‘llik siyosati va mushfiqligi, g‘azabi va marhamati, rohati va qo‘l ostidagi yigitlari bilan ochin-to‘qin, otliq va yayov, oyoq yalang va kulbasiz kechirgan kunlari, bilimi va donishmandligi, kuzatuvchanligi va mushohadasi va boshqa-boshqalar bilan mujassamlashadi, u go‘yo bir tarixiy romanning bosh qahramoni sifatida gavdalanadi”¹¹⁷. “Boburnoma”ning memuarligi asarda Bobur Mirzoning nafaqat muallif-qahramonligini, balki roviy-qahramon maqomini ham belgilaydi. U aynan shu maqomiga ko‘ra asarning har bir joyida hozir-u nozir.

“Birinchi shaxs nomidan hikoya qilingan asarlarda odatda qahramon nuqtayi nazaridan o‘tmagan biror-bir voqea keltirilmaydi: har qanday obyektiv voqelik manzaralari ham qahramon tili va dili orqali ifodalanadi”¹¹⁸, – deydi adabiyotshunos olim Erik Karimov.

Demak, “Boburnoma”da Bobur Mirzo tasvir etilgan voqealarning bilvosita yoki bevosita ishtirokchisi sifatida ularni ko‘zidan, tilidan, dilidan o‘tkazib ifodalaydi. Bu esa asar strukturasi pishiqligini, kompozitsion izchillikni, asar yaxlitligini ta’minlaydi.

Adabiyotshunoslarimiz: “Bobur boshqa tarixiy shaxslarning shakl-shamoyili, xulq-atvori, nasl-nasabi va hokazolar bilan alohida-alohida tanishtirib boradi. Biroq “Boburnoma”da Boburning o‘zi haqida shu zaylda maxsus ma’lumotlar yo‘q”¹¹⁹, – deya fikr bildirishadi.

Haqiqatan ham, Bobur Mirzo muallif sifatida shaxsan o‘zi haqida yuqorida nazarda tutilgan maxsus ma’lumot berib o‘tirishni nojoiz va ortiqcha deb biladi. Aslida maxsus ma’lumotsiz ham Bobur Mirzo “men”ini biz asarning ibtidosidan intihosigacha kuzatamiz, uning ijtimoiy, insoniy, axloqiy-ma’naviy dunyosini kashf etib boraveramiz. Muallifning tashqi ko‘rinishi, jussasi, jismoniy imkoniyatlari haqida o‘quvchiga ozmi-ko‘pmi ma’lumot beradigan tasvirlarni esa

¹¹⁷ Mallayev N. O‘zbek adabiyoti tarixi. – T.: Kafolat print company, 2021. – B. 485.

¹¹⁸ Adabiy turlar va janrlar. Uch jildlik. 1-jild. Epos. – T.: Fan 1991. – B.165.

¹¹⁹ O‘sha joyda.

“Boburnoma”dek ulkan soʻz sarhadida sochilib yotganini kuzatamiz, ular goʻyo Bobur Mirzo suratiga chizgilardek taassurot uygʻotadi.

“Muharram oyida Fargʻona viloyatidin Xuroson azmi bila Ilok yaylogʻigakim, Hisor viloyatining yayloqlaridindur, kelib tushtum. Ushbu yurtta yigirma uch yoshning ibtidosida yuzumga ustara qoʻydum” (102-b.), – deb yozadi Bobur Mirzo 1503-1504-yil voqealari tasvirida, 1528-yil voqealar bayonida: “Yakshanba kuni, oyning toʻrtida toʻqqiz kuroʻh kelib, Kaspiy parganalaridin Diydapur otliq parganada boshimni qirqtim. Ikki oy edikim, boshimni qirqmaydur edim” (102-b), – deya baʼzi paytlari sochini oʻstirib yurishi haqida maʼlumot beradi. Shu tariqa ayrim voqealar, aksari janglar tafsilotida Bobur Mirzo oʻzi bilan bogʻliq shunday tasvirlarni keltiradiki, koʻz oʻngimizda muallifning – roviy-qahramonning zohiri tiniqlasha boradi.

Hindistonda 1528-yil voqealari tasvirida Bobur Mirzo Biban va Shayx Boyazidga qarshi Gang daryosi boʻyida harbiy harakatlar olib borgan. Oʻsha voqealar tasvirida Bobur Mirzo shunday yozadi: “Ushbu kun Gang daryosini qoʻl solib oʻttim. Bir qoʻlni sanadim, oʻttiz uch qoʻl bila oʻttum, yana tinmay oʻzub bu yuzga ham oʻttum. Bori daryolarni oʻzub, kechib edim. Gang daryosi qolib edi”. (252-b.) Movarounnahr, Kobul, Hindiston boʻylab kechgan sargashta hayotida oʻzi taʼkidlagandek, yoʻlida uchragan daryolarining baridan suzib oʻtgan Bobur Mirzo Gangdek ulkan daryoni ham qulochkashlab suzib oʻtib, uni oʻttiz uch quloch ekanligini aytadi. Agar bir quloch 1 metr 75 cm oʻlchov birligiga toʻgʻri kelsa, Bobur Mirzo bergan maʼlumot soha olimlarining Gang daryosining uzunligi 2700 km, oʻzani kengligi 400–600 (baʼzi joylarida 2 km) degan ilmiy maʼlumotga mos keladi.

Himolay togʻlaridan boshlanib, Hind-Gang tekisligidan oqib oʻtadigan bu daryo Bengal qoʻltigʻi yaqinida Brahmaputra daryosi bilan qoʻshilib Hind ummoniga quyiladi. Brahmaputra daryosi bilan qoʻshilganda Gang sersuvligi jihatidan yer sharining eng azim daryolari Amazonka va Kongodan keyin uchinchi

o‘rinda turadi”¹²⁰. Gang daryosi haqida alohida to‘xtalishimizning sababi – yana bir karra Bobur Mirzo jasoratini qayd etish sanaladi. Bobur Mirzoning suvda suzish mahoratini ko‘rsatadigan “Boburnoma”da yana bir e‘tiborli nuqta bor.

1501-1502-yillar voqealari bayonida Bobur Mirzo Xo‘jand va Konibodom oralig‘ida joylashgan, doimo qattiq shamol esib turadigan Hodarvesh dashtidan o‘tayotib qattiq sovuqqa qoladi. Sovuqning zabti shu darajaga yetadiki, odamlar muzlab qolib o‘la boshlaydilar. “Boburnoma”ning shu yerida keltirilgan ma‘lumot ham o‘quvchining Bobur Mirzo qiyofasi bilan bog‘liq tasavvurini boyitadi: “Xo‘jandning quyig‘i kentlari Hashtiyak to‘g‘risi bila mutavajjih bo‘lduk. Mahkam zarb sovuq edi. Bu navohida Hodarvesh yeli o‘ksumas, hamisha tund qo‘par. U martabada sovuq erdikim, o‘shul ikki-uch kunda ikki-uch kishi bu orada sovuqning shiddatidin o‘lub edi. Manga g‘uslg‘a ehtiyoj edi. Bir ariq suyidakim, yoqalari qalin muz to‘ngib edi, o‘rtasi suvning tezligi jihatidin yax bog‘lamaydur edi, bu suvg‘a kirib g‘usl qildim. O‘n olti qatla suvga cho‘mdim. Suvning sovuqlug‘i xeyli ta’sir qildi. (87-b.)

Taxt vorisi Bobur Mirzo bo‘lajak hukmdor, fotih sifatida har qanday dushman bilan yuzma-yuz olishish, tik kelib jang olib borish ruhiyatini, jidd-u jahdini sabot bilan o‘zlashtirgan. Ayni paytda Bobur Mirzo yo‘lida uchrashi mumkin bo‘lgan tabiiy kuchlarni, to‘siqlarni sarosimasiz yengib o‘tish haddini ham yaxshi egallaganini “Boburnoma”ning bir necha joylarida kuzatishimiz mumkin. Xususan, Hirot-Kobul oralig‘idagi ko‘tali Zarrin dovonidagi kuchli qor bo‘roni, 1506-1507-yillar voqealari bayonida Kobulda ro‘y bergan dahshatli zilzila, Gang daryosi orolida yuz bergan jar uchish voqealari Bobur Mirzoning jismonan kuchli, o‘ta chaqqon va irodali shaxs ekanligini ko‘rsatadigan muallif hayotining hayajonli manzaralaridir.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, “Boburnoma”da muallifning voqeahodisalarga munosabati, bahosi “men” formasi orqali bayon qilinar ekan, bunday holatda “...muallif-hikoyachi tasvirlanayotgan olamning markazidan o‘rin olgan qahramonlardan biri (“Boburnoma”da aynan markaziy qahramon – Y.K.) sifatida

¹²⁰ Советский энциклопедический словарь. – М.: Сов. энциклопедия, 1989. – С. 275.

bir vaqtning o'zida ham asarning bayonchisi, ham ishtirokchisi bo'lib, nimani ko'rgan, boshidan kechirgan bo'lsa, o'shalarni hikoya qiladi. Biz uning qiyofasi, xarakteridan dalolat beruvchi detallarga ega bo'lamiz"¹²¹, – deydi adabiyotshunos O'rol Nosirov.

“Boburnoma”dan keltirilgan quyidagi jar uchish voqeasi orqali ham biz muallif qiyofasi, ruhiyat olamiga xos belgilarni, detallarni kashf etgandek bo'lamiz: “O'rdu to'g'risi sabzaliq ulug' orol bor ekandur, kema bila o'tub, ul orolni sayr qilib, bir paharda kelib kemaga kirdim. Otliq sayr qilurda daryo yoqasida g'ofil borilg'on jarning ustig'a chiqqach, jar uchti, men filhol sakrab, o'zimni yoqag'a soldim, ot ham uchmadi. Agar men otning ustida bo'lsam edi, g'olibo bu edikim, ot bila – o'q uchqay edim”. (252-b.)

Umarshayx Mirzo fojiasi takrorlanishi mumkin bo'lgan bu vaziyatdan voqif bo'lgan o'quvchi omon qolgan Bobur Mirzo shaxsiyatiga, uning kuchli ruhiyatiga yanada yaqinlashadi, uning yorqin xarakteriga xos eng jozib nuqtalarni kashf etadi.

Gang orollarining sohir, go'zal tabiatiga maftun bo'lib qolgan Bobur Mirzo oyog'i ostidagi fojiani payqamay qoladi. Bunday paytda inson taqdirini lahzalar hal qiladi. Yorug'lik tezligida ongiga kelgan to'g'ri qarorgina insonning aziz jonini saqlab qolishi mumkin bo'ladi. Bobur Mirzo esa shu to'g'ri qarorni qabul qiladi.

Naq poyida turgan muqarrar o'limdan ot bilan, ot ustida ulgurib qochib bo'lmasligini yashin tezligida mulohaza qilgan Bobur Mirzo eng so'nggi lahzalarda ot ustidan chetga, xavfsiz joyga sakraydi. Bu oqilona qaror orqali Bobur Mirzo nafaqat o'zini, balki otini ham qutqarib qoladi.

Jar uchish voqeasi orqali o'quvchi Bobur Mirzo xarakteriga xos bo'lgan, uning hukmdorlik qiyofasini to'ldirib turgan hushyorlik, vaziyatni to'g'ri baholay olish, chapdastlik, dovyuraklik kabi xislatlarini kashf etadi. Ingliz olimi Uilyam Erskin: “Boburshoh baquvvat gavdali, o'rta bo'ydan yuqoriroq, jismoniy harakat talab qiladigan o'yinlarni yaxshi ko'rar, o'tkir mergan, mohir qilichboz edi. Juda ko'p hollarda u shijoatini namoyish qilar va yakkama-yakka jangda raqibidan ustun chiqardi. Uning gavdasi shu darajada baquvvat ediki, aytishlaricha, ba'zan

¹²¹ Nosirov O'. Ijodkor shaxs, badiiy uslub, avtor obrazi. – T.: Fan. – B. 178.

har ikkala qo‘ltig‘iga ikki kishini qisib olib, qal‘a devori ustida aylanib yurar va shu tarzda yo‘ldagi to‘siqlardan o‘tar edi”¹²², – deb yozadi.

Jismoniy kamolot jihatidan hukmdor, sarkarda sifatida hamisha qo‘l ostidagilarga ibrat, namuna bo‘lish Bobur Mirzoning rahbarlik tamoyillaridan biri bo‘lgan. Bu tamoyilda sobit turish uddasini yuqorida eslaganimizdek, Bobur Mirzo juda erta – bolalik chog‘laridanoq o‘zlashtirib, parvarishini esa butun hayoti davomida nazorat qildi. Aytish mumkinki, eng qiyin paytlar: ham jismonan, ham qalban yolg‘iz qolib, muqarrar o‘limning sovuq nafasi yuziga urilganda ham Bobur Mirzoning ko‘nglida Ollohning hifzi himoyasiga umidvorlik, ikkinchi navbat o‘ziga, o‘zining jismoniy imkoniyatiga komil ishonch bo‘lgan. Umumjahon e’tirof etgan Bobur Mirzo xarakteridagi joziba, sharaf, ruhiyatidagi barqarorlik, muvozanat, favqulodda hayotsevarlik ildizlarini uning shaxsiyatidagi o‘ziga, o‘z aqli, mehnati, kuchiga ishonchdan, jismoniy barkamolligidan izlash o‘rinli.

Fikrimizning isboti tariqasida “Boburnoma”ning kulminatsion, Bobur Mirzo hayotining o‘ta sirli, ayni paytda dramatik lahzalari tasviri – Karnon voqeasini (1502) eslash o‘rinli bo‘ladi. “Boburnoma”ning badiiylik xususiyatini nazarda tutgan holda Karnon voqeasini asarning eng hayajonli, intrigaga boy sahnasi deyish mumkin. Rus adabiyotshunosi Kuznetsova: “Muallif-inson matnda sujet va so‘z tanlashga aloqador bo‘lgan jismoniy va ijodiy shaxs sifatida namoyon bo‘ladi. Shu yerda biz “muallif obrazi” terminini qo‘llaymiz. “Muallif obrazi” yozuvchi estetik kredosi, adabiy-badiiy madaniyati, dunyoqarashi va nuqtayi nazarining ham samarasidir. U asarda barcha subyekt formalari, barcha vositalarni boshqarib borish bilan asar kompozitsiyasini uyushtiruvchi markaz darajasiga ko‘tariladi. Shu yo‘sinda yozuvchi uslubiga xos xarakterli tomonlarni ro‘yobga chiqazadi”¹²³, – deydi. Karnon voqeasi tafsiloti Bobur Mirzo tarafidan shunchalar pishiq ishlanganki, go‘yo uning o‘zi asar ichida alohida, mustaqil bir konfliktga, tugal bir sujetga, o‘ziga xos g‘oyaviy-badiiy olamga ega asardek taassurot uyg‘otadi.

¹²² Erskin U. Boburshoh hukmronligi davrida Hindiston tarixi // Xorijda boburshunoslik: (Tadqiqot, talqin va maqolalar. / Nashrga tayyorlovchi H.Boltaboyev. – T.: Mumtoz so‘z, 2009. – B. 57.

¹²³ Кузнецова Е. Образ автора, герой-рассказчик и повествователь в романах Гайто Газданова // <https://rep.herzen.spb.ru/publication/5267>

Bobur Mirzoning tafsilot bayonida “Dedimki” (Bobur Mirzo), “Dedilarkim” (Dushman taraf ta’qibchilari) dialogi-yu muloqot shaklini tanlaganligi yuqorida nazariy qoidada ta’kidlangandek, yozuvchi uslubiga xos xarakterli jihat: sodda, ravon, ixcham, izchil tasvirni keltirib chiqarish bilan birga muallif tushgan situatsiya-holat, dramatik vaziyatning keskinligini bor bo‘yi bilan ko‘rsatishga xizmat qilgan. Ana shu asnoda ko‘z o‘ngimizda muallif – Bobur Mirzo siymosining ham ijtimoiy-siyosiy, ham shaxsiy sifatlari yorqinroq namoyon bo‘ladi.

“Boburnoma”ning oxirida musavvidi avroq – kotib Bobur Mirzoni podshohi qobil atab, uning sakkiz sifatini sanaydi. Karnon voqeasining o‘zida Bobur Mirzo shaxsiyatining oltita qirrasini ko‘rsatish mumkin. O‘z jismoniy imkoniyatlarini to‘g‘ri baholay olishga va undan maqsadli foydalanishni bilgan Bobur Mirzo orqasidan izma-iz kelayotgan ta’qibchilardan ajralishning bitta yo‘li eson-omon tog‘ga yetib olishda deb o‘ylaydi. U ostidagi charchab, qadam tashlashga majoli qolmagan otdan umid qilib bo‘lmasligini bilib: “Tog‘qa yetgandan so‘ngra bir pora o‘qni belimga sonchib, tog‘qa yormashay, zarbi poyimg‘a xeyli e’timodim bor edi” (98-b.), – deydi.

Mana shu o‘rinda Bobur Mirzoning, **birinchidan**, *o‘ziga, eng qaltis paytda o‘zining jismoniy kuchiga tayanganini kuzatamiz.*

Qanday bo‘lmasin, Bobur Mirzoning ruhini sindirib, qochib qutulishga bo‘lgan umidini so‘ndirishga harakat qilayotgan ta’qibchilarning fitna yo‘liga, aldov yo‘liga o‘tganlarini Bobur Mirzo darhol sezadi. “Bardast aytilar, mundoq etib qayon borasiz? Jahongir mirzoni tutib kelturdilar. Nosir mirzo xud alarning ilgida edi. Manga bu so‘zlardan xeyli dag‘dag‘a bo‘ldi. Bu jihatdinkim, barchamiz aning iligida bo‘lsak, xatar ehtimoli ko‘ptur”. (98-b.)

Ko‘rib turganingizdek, Bobur Mirzo ta’qibchilarning fitnasiga uchmaydi, Sulton Ahmadbek sizni podsho ko‘taradi, degan gaplari ham g‘irt yolg‘on ekanligiga aqli yetgan holda Jahongir mirzo, Nosir mirzo va o‘zini qo‘lga olib, bir joyga to‘playotganlarida katta xatar borligini sezadi, Bobur Mirzo Ahmad

Tanbalning bu xatti-harakati ortidagi uning siyosiy makrini ko'ra biladiki, bu uning, **ikkinchidan**, *mavjud vaziyatni to'g'ri tahlil qila olganidan* darak beradi.

Vaziyat borgan sari murakkablashib borayotgani, dushman ta'qibchilariga yordamchi kuch kelishi mumkinligini sezgan Bobur Mirzo endi ular bilan diplomatik munosabat o'rnatishga harakat qiladi: "Meni bir yo'lg'a boshlangkim, xonlar (tog'alari – Y.K.) qoshig'a boray. Sizlarga ko'ngillaringiz tilagandan ortuqroq rioyat va shafqat qilay. Yo'q, agar muni qilmasangiz, kelgan yo'lungiz bila yoning. Mening ollim – otig'im. Bu ham bir yaxshi xizmatdur" (98-b), – deydi ta'qibchilarga Bobur Mirzo.

Garchi ta'qibchilar Bobur Mirzoning taklifini qabul qilib, xizmatiga tayyor ekanliklarini, uni aytgan joyiga boshlab borishga va'da bersalar-da yillar davomida orttirgan tajribasiga ko'ra Bobur Mirzo, **uchinchidan**, *hushyor, mulohazali, sergak* edi.

1497-1498-yillar voqealari bayonida Andijonni deya Samarqandni tashlab chiqqan, o'rtada Andijonni ham qo'ldan chiqarib, aro yo'lda sarson qolgan Bobur Mirzoning alamli e'tirofi bor: "G'ofil bu yerdan quvilgan, u yerdan ajralgan". (64-b.) Bundan tashqari qator navqiron temuriyzodalar: Boysunqur Mirzo, Sulton Ali Mirzo, Sulton Mas'ud Mirzolar fojiasiga ularning ishonuvchanligi, mulohazasizliklari sabab bo'lgani Bobur Mirzoning yodida edi. Saltanat ishida, toj-u taxt dag'dag'asida, katta-kichik raqib qarshisida bir zum ham g'ofil qolish mumkin emasligini anglab yetgan Bobur Mirzo bunday holatda o'ta sergak bo'lish kerakligini yaxshi bilar edi. Dushman ta'qibchilari Qur'onni o'rtaga qo'yib, ont ichib, Bobur Mirzoni o'z sadoqatlariga ishontirgan bo'ladilar. Ammo shu yerda Bobur Mirzoning o'rinli shubhasiga guvoh bo'lamiz: "Agarchi ahd qildilar, vale itmiynoni tamom bo'lmaydur edi, alarni ilgari yurutub, keyinlaricha yurudum", – deydi. (98-b.)

Karnon voqeasi tafsilotining mana shu nuqtasidan yuqorida ta'kidlaganimizdek, Bobur Mirzo tasvirga ta'qibchilar bilan o'zi o'rtasidagi muloqotning dialogik shaklini olib kiradi.

Akademik Izzat Sulton: "... dialogik shakl muallifning fikri yoki personajlarning ruhiyatini o'quvchiga yetkazishning kuchli vositasi bo'lib xizmat etadi"¹²⁴, – deydi. Darhaqiqat, "Dedimki, Dedilarkim" muloqotida voqea ishtirokchilari: Bobur Mirzo va Ahmad Tanbal ta'qibchilari turgan hayotiy zamin, suyangan ma'naviy-ruhiy tayanch, asl insoniy qiyofalari ixcham, lo'nda, aniq namoyon bo'ladi. Ana shu aniqlik esa o'quvchini keskin tus olayotgan voqealar rivoji va muqarrar to'qnashuv sari yetaklaydi.

Sadog'idagi yigirma dona o'qidan dushman bilan olishishga boshqa yarog'i yo'q, oti ham, o'zi ham holdan toygan, och, yupun Bobur Mirzo dushman ta'qibchilari bittaga ko'payganini biladi.

Bobur Mirzo Karnonda ekanligining yashiriqcha xabarini ta'qibchilardan olgan Ahmad Tanbal Yusuf dorug'ani podshohni qatl etish uchun jo'natgan edi.

Ta'qibchilar bilan bo'lgan muloqotni Bobur Mirzo shunday tasvirlaydi:

– Dedimkim: Sening xotiringg'a ne yetadur?

– Dedikim: Borcha navkarlaringizdur, ne choralari bor, bormoq kerak. Sizni podshoh ko'taradurlar.

– Dedimki, muncha g'avvg'o va urush bo'lib, ne e'timod bila boray... (99-b.)

Yusuf Dorug'aning o'zi Bobur Mirzoga "...ne yashuray... Shayx Boyazidbek sizning xabaringizni topib, meni yubordi", – deydi. (99-b.)

Muqarrar o'limning sovuq nafasini yonginasida his etgan Bobur Mirzo o'zining o'sha paytdagi holatini o'quvchidan yashirmaydi: "Muni degach, manga g'arib holate bo'ldi. Olamda jon vahmidin yomonroq nima bo'lmas emish... O'zumda betoqatlig'e fahm qildim". (99-b.)

Bu satrlarni o'qir ekanmiz, qayta va qayta Bobur Mirzoning o'z o'quvchisi oldida, **to'rtinchidan**, *samimiy va rostgo'y ekanligiga* guvoh bo'lamiz. Muallif biron joyda o'zidan soxta qahramon, ideal shaxs yasashga harakat qilmaydi. Mana shu vaziyatda ham o'lim va hayot chegarasida turgan har qanday kuchli insonning ham bir karra ruhiyatidan sizib o'tishi mumkin bo'lgan holatni Bobur Mirzo ochiq tasvirlaydi.

¹²⁴ Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – T.: O'qituvchi, 2005. – B. 185.

Bobur Mirzo o'quvchisini o'z ruhiyatining keyingi manzaralariga olib o'tadi. Bu manzilda endi biz g'arib holatni boshidan o'tkazayotgan, betoqatlig' his qilayotgan Bobur Mirzoni emas, balki: "O'zum bila andisha qildim. Dedimkim, kishi agar yuz, agar ming yashasa oxir o'lmak kerak.

Agar sad sol moni va-r yake ro'z,
Biboyad raft az in koxi dilafro'z.

(Ma'nosi: Agar yuz yil va agar birgina kun yashasang ham, ko'ngil ochuvchi bu qasrdan ketish kerak bo'ladi). O'zumni o'lumga qaror berdim" (99-b), – deb turgan qat'iyatli Bobur Mirzoni ko'ramiz.

Mana shu holatda Bobur Mirzo kechinmalariga sherik bo'lib ko'rishga urinaylik: "O'zum bila andisha qildim", – deydi Bobur Mirzo. Demak, bunday paytda u mavjud vaziyatni mulohaza qilgan, tahlil etgan. Xulosa shuki: Har qanday hayotning intihosi o'lim, har qanday mavjudlik bir kun yo'qlikka tutash. Hech kim tiriklikning dilafro'z qasrida abadiy emas. Ertami, kechmi hamma-hamma bu haqiqat bilan yuzlashadi. Bu mardona Bobur Mirzoning o'lim oldi ruhiyati parvarishi edi. O'zining teran, falsafiy o'ylari, qat'iy xulosalari bilan 19 yoshli muallif siymosi Karnon voqeasida ana shunday namoyon bo'ladi.

Britaniyalik sharqshunos Vilyam Rashburk: "Bobur Mirzo chuqur umidsizlikka tushib ketishi mumkin edi, biroq barcha mushkulotlarga irodasini qalqon qildi. Boshidan kechirgan omadsizliklar bilan yuzma-yuz turib kurashish unga yanada qat'iyatlilik va kuch bag'ishladi"¹²⁵, – deydi. Bu borada Bobur Mirzoning o'g'li Humoyunga yozgan nasihat xatidagi podsholik qismatining: "Beparvolik va sustkashlik bilan podsholik muvofiq kelmas, "Hech bir band podsholik bandicha bo'lmas", "Jahonga bog'langan bo'lsang, boshingga kelgan har narsaga rozi bo'l" kabi kalit so'zlari adibning e'tirofiga mos keladi.

Bir zumga ong-u shuurini qoplagan o'lim vahimasini andisha, mulohaza, aql kuchi bilan yengib, "O'limga qaror berdim" deya "Tengrining inoyati, Hazrat Rasulullohning shafogatiga umidvor holda, sajdaga bosh qo'ygan Bobur Mirzo

¹²⁵ Rashburk V. O'n oltinchi asr bunyodkori. – T.: Sharq, 2011. – B. 86.

siyimosida barcha yaxshi va yomon kunlarini, **beshinchidan**, *Oллоhning taqdiriga yo'yib, uni mardona qabul qilayotgan komil musulmon sifatini ko'ramiz.*

Bobur Mirzoning "O'zimni o'linga qaror berdim" jumlasining asl mohiyati haqida fikr yuritgan nuqtadon adabiyotshunos Zuhridin Isomiddinov "Boburning bir jumlasini" maqolasida yozilishicha, Nabijon Boqiy ijodkor safdoshi Komil Avazga yozgan maktubida "O'zimni o'linga qaror berdim" jumlasini nazarda tutib, "Boburnoma"da o'z joniga qasd qilish holati bor, uni yozayotgan asaringizga kiritib yuborsangiz degan taklifni bildiradi. Komil Avaz ham bu taklifni hech mulohaza qilib o'tirmay "Qo'nalg'a" romanida Bobur Mirzoning "O'zimni o'linga qaror berdim" jumlasini "Jonimga qasd qildim, o'zimni o'ldirmoqchi bo'ldim" ma'nosida ishlatadi. Bunday chalkashliklarning katta ma'naviy-ruhoniylar zararidan xavotirlangan adabiyotshunos olim: "... shu xato fikr hali u, hali bu odam tomonidan aytilaversa, naqd haqiqat deb e'tirof etilish darajasiga kelsa, unday "aksioma"ni bartaraf qilgan ma'qul. Ayniqsa, bunday qarashlar ulug' adib yoki allomaning e'tiqodini hayotiy a'molini talqin etishga oid bo'lsa"¹²⁶, – deydi.

Zuhridin Isomiddinov maqolasida Bobur Mirzoning "O'zimni o'linga qaror berdim" jumlasini talqinida yo'l qo'yilgan xatoni dinimiz ahkamlari orqali bir necha asosli faktlar bilan ochib beradi va oxirgi "portlovchi" xulosada yana kontekstga, Bobur Mirzoning o'ziga tayanadi: "Boburning jumlasini ("O'zimni o'linga qaror berdim") esa "o'limim muqarrar ekanini bildim, o'limimga iqror bo'ldim" degani, xolos (qaror, iqror, muqarrar – bari bir o'zakdosh). Gap bitta jumla talqinidagina emas, Boburning e'tiqodi, tiynatini tayin etishda"¹²⁷, – deydi olim. Biz Zuhridin Isomiddinov ta'kidlagan "O'zimni o'linga qaror berdim" jumlasida chin musulmonlik, pok e'tiqod ma'nosi, nafasi borligidan tashqari unda Bobur Mirzoga xos g'urur, or, qat'iyat, mardonalik borligiga ham e'tibor qaratish zarur deb o'ylaymiz.

¹²⁶ Isomiddinov Z. Boburning bir jumlasini // Tafakkur, –T., 2008. –№ 2. – B. 46.

¹²⁷ O'sha manba. B. 48.

O‘ta tahlikali vaziyatda Bobur Mirzoning ruhiy-fiziologik holatni kuzata turib, “Boburnoma”da 1495-1496-yil voqealari bayonidagi bir tafsilot yodimizga keladi: “Samarqandda Tarxon beklarining mavqeyi tushib ketyapti degan iddao bilan uyushtirilgan fitna tashkilotchilarini Boysunqur Mirzo ayovsiz jazolaydi. Ular ichida Sulton Ahmad Mirzo davrida ulug‘ beklardan hisoblangan Darvesh Muhammad Tarxon ham bo‘lgan. Bu jazo sahnasini Bobur Mirzo shunday tasvirlaydi: “Darvesh Muhammad Tarxonni kelturdilar. Bir-ikki so‘z so‘rdi. Yaxshi javob bera olmadi. Andoq ish qilmaydur erdikim, javob bera olg‘ay. Mirzo o‘linga buyurdi. Darvesh Muhammad Tarxon betoqatliqtin sutung‘a yopushti, sutung‘a yopushqon bilan qo‘yg‘aylarmu?! Siyosatqa yetkurdilar”. (54-b.)

Qo‘rquv, vahima insonni boshqalar ko‘z o‘ngida zabun, nochor holatga solib qo‘yishini jon talvasasida najotni ustundan qidirgan Darvesh Muhammad Tarxon siymosida ko‘rsatgan Bobur Mirzo ko‘nglini o‘qigandek bo‘lamiz. Bobur Mirzo nazdida tiriklar dunyosida tarxonlik obro‘, izzati uchun kurashgan Darvesh Muhammad qismat yukini, yozug‘ini ham tarxonlarga xos ko‘tarishi, o‘limni ham o‘z izzatida, darajasida qarshi olishi, o‘zini mardona tuta bilishi kerak edi.

Umuman, har qanday vaziyatda o‘zini tuta bilishi, qat’iyatlilik, shijoatlilik, matonat inson irodasining muhim sifatlari hisoblanadi.

Ruhshunoslikka oid adabiyotlarda ta’kidlanishicha: “O‘zini tuta bilish va qo‘rqmaslik odamning qo‘rqinch hissini kechirmasligida emas, balki ongni yo‘qotib qo‘ymay, o‘z irodasining kuchi bilan bunday hissiyotlarni bosishi va batamom yo‘qotib yuborishdadir. Bu degan so‘z o‘zini idora qila bilish degan ma’noni bildiradi”¹²⁸. Bobur Mirzo Karnon voqeasida nafaqat o‘zining g‘arib holati, betoqatligini yengdi, balki ong-u tafakkurini ishlatib o‘lim vahshatidan ustun keldi, **oltinchidan**, *irodali*, *shijoatli inson sifatida* o‘limni mardonavor qarshi olishga ahd qildi. Qurol-yarog‘siz Bobur Mirzo qo‘l-oyog‘ini bog‘lamoqchi bo‘lgan uch dushmanga qarata: “...ko‘rayinkim, qaysingiz mening qoshimg‘a kela olursiz?!” –deganda faqat o‘zining bilak kuchiga ishonadi. Ikki kecha-kunduz to xayrixoh kuchlar yetib kelgunga qadar dushmanlar orasida Bobur Mirzo o‘z jonini

¹²⁸ Ivanov P. Umumiy psixologiya. – T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2023. – B. 321.

saqlab, omon qolish bilan birga, Ahmad Tanbal va uning odamlariga yana bir karra o‘zining imkoniyatlarini eslatib qo‘ygan deb o‘ylaymiz.

“Shujo’ (shijoat) va mardonalig‘ Bobur Mirzo nazdida erkaklarning joni, ori qadar baland tutadigan xos sifati, fazilati. Shujo’ va mardonalig‘” kriteriysi hukmdorlar, bek-u amirlarga Bobur Mirzo tarafidan berilgan bahoning oliy mezoni. Bu ta’rif va bahoda Bobur Mirzoga xos nafas, ruh ufurib turadi.

“Shujo’ va mardona kishi edi... bisyor zarb mushti bor edi, aning mushtidin yigit yiqilmog‘i yo‘qtur”¹²⁹, – deydi faxr bilan otasi Umarshayx Mirzo haqida, amakisi Sulton Ahmad Mirzoni ta’riflab turib, “Shijoati bor edi”¹³⁰ deydi, ustozlari Xoja Mavlonayi Qozining favqulodda dovyurakligidan hayratlanib: “Qo‘rqmoq anda aslo yo‘q edi. Oncha daler kishi ko‘rilgan emas”¹³¹, – deydi, qo‘l ostidagi begi To‘lun Xojaning jasurligidan zavqlanib, “Borijning mardona va saromad va qazoq yigitlaridan edi”¹³² deydi va yoki aksincha Bobur Mirzo jirkanish darajasida qayd etgan qusur bu qo‘rqoqlik va jur‘atsizlik bo‘lib, bunday sifat egalarini ta’riflab: “Yuraksiz kishi edi”¹³³ deydi, o‘zining yana bir amakisi Sulton Mahmud Mirzo haqida, uning amiri Xisravshohni eslab: “...muncha qalin yaroqliq navkar bila bir mokiyon” bila ham tutushmadi”¹³⁴ deya kinoya qiladi.

Ahmad Tanbal bilan ochiq maydonda jang qilishdan qo‘rqqan tog‘asi haqida “Sulton Mahmudxon urush kishisi emas edi. Sipohiylikdin bisyor oriy edi. Tanbal bilan o‘tru bo‘lg‘on chog‘ xondin bedilona aqvol va af‘ol zohir bo‘lur”¹³⁵ deydi. Xuddi shu voqea sabab Ahmadbekning xonga qarata: “Tanbal ne miqdor kishidurkim, muncha dag‘dag‘a va taraddud tortarsiz. Agar ko‘zingiz qo‘rqsa, ko‘zingizni bog‘lab yurub ro‘baro‘ bo‘laling”¹³⁶ degan gapini keltiradi.

“Qo‘rqqanga qo‘sh ko‘rinur” hikmatining mohiyatini o‘ta zarofat bilan Sulton Mahmudxonga eslatib qo‘ygan Ahmadbek (Bobur Mirzo bu odamning

¹²⁹ Bobur Zahiriddin Muhammad. Boburnoma. – T.: Sharq, 2002. – B. 37.

¹³⁰ O‘sha manba. – B. 44.

¹³¹ O‘sha manba. – B. 64.

¹³² O‘sha manba. – B. 63.

¹³³ O‘sha manba. – B. 48.

¹³⁴ O‘sha manba. – B. 50.

¹³⁵ O‘sha manba. – B. 85.

¹³⁶ O‘sha joyda.

o‘zini “Ahmadbek turk kishi (ya’ni sodda – Y.K.) edi, vale mardona va davlatxoh edi”¹³⁷ deya eslaydi)ning achchiq maslahati zimnidagi yov bilan olishmoqqa dov yurak kerak degan istehzo yuqorida keltirilgan Sulton Mahmudxonga Bobur Mirzo qo‘ygan “tashxis”da ham o‘z tasdig‘ini topgan.

Bobur Mirzo kichik tog‘asi Sulton Ahmadxon haqida: “Kichik xon dodam g‘arib atvorliq kishi edi, qilichig‘a mahkam erklik va mardona kishi edi. Bu aslihadin qilichga ko‘prak mu‘toqid edi. Der edikim, shashpar va piyoziy va kistan va tabarzin va boltukim bor, tegsa bir yeri porgardur, qilich agar tegsa, boshdin oyog‘i porgardur, kesar. Qilichini hargiz o‘zidin ayirmas edi: yo belida edi, yo iligida” (91-b), – deya ma’lumot beradi.

Bobur Mirzo temuriy hukmdorlar ichida Sulton Husayn Mirzoning qilich chopish mahoratiga tan beradi: “Shujo’ va mardona kishi edi. Borlar o‘zi qilich tegurubtur, balki har ma’rakada borlar qilich tegurubtur. Temurbek naslidin hech kim ma’lum emaskim, Sulton Husayn mirzoga qilich chopmish bo‘lg‘ay”. (128-b.)

O‘zining insoniy, hukmdorlik, harbiy salohiyati va jang san‘atiga ko‘ra Ulug‘ xon – Sulton Mahmudxondan keskin farq qiladigan Kichik xon – Sulton Ahmadxonning Bobur Mirzo ta’rifidagi sifatlarini tarixchi Muhammad Haydar Mirzo ham e’tirof etib: “Sulton Ahmadxon g‘ayratchan va jasur kishi bo‘lib, behad dovyurakligi, aql-u farosati bilan ajralib turar, shu bilan birga kamtar edi”¹³⁸, – deydi.

“Boburnoma” avval-oxir saboqnoma va ibratnomadir. Uni o‘qib turib Shayboniyxonga qarshi kurashda ham temuriy, ham mo‘g‘iliy naslida qarindosh hukmdorlar ichida Bobur Mirzo ishonib suyansa bo‘ladigan tayanchlar bor bo‘lganini kuzatasiz. Afsuski, shuncha kuch, matonat, iqtidor egalari bo‘lgan bu zotlar uzoqni ko‘ra bilmadilar. “...g‘animning ustuga yurumakni demay, yer berkitmakni” to‘g‘ri deb bilgan Sulton Husayn Mirzo hayot shomi yaqinlashgandagina Shayboniyxonning qanday kuch ekanini anglab yetdi. Natijada Xuroson ham Shayboniyxon qo‘shini otlarining tuyog‘i ostida toptaldi. Sulton

¹³⁷ O‘sha joyda.

¹³⁸ Muhammad Haydar Mirzo. Tarixi Rashidiy. Tarjimonlar: Vahob Rahmonov, Yanglish Egamova. – T.: Sharq, 2010. – B. 189.

Husayn Mirzodek Temurbek o‘runig‘a o‘lturg‘on ulug‘ podshohning umri havas qilarlik darajada yakun topmadi.

Shuncha mardonavorligi, dovyurakligi, jangovarligiga qaramay subutsiz akasi Sul-ton Mahmudxon yetovidan chiqolmagan Sul-ton Ahmadxonning o‘lmasdan oldingi (ma‘nan) o‘limi g‘oyatda achinarli. U Shayboniyxondan yengilib (1503), asirga tushganlarini, xonning “muruvvati” bilan ozod etilib, Toshkentdan Mo‘g‘ulistonga sharmandalarcha quvilganliklarini bir oriyatli, vijdonli inson sifatida ko‘tarolmaydi.

“Tarixi Rashidiy”da yozilishicha, o‘lim to‘shagida yotgan Sul-ton Ahmadxonga “Sizni Shohibekxon zaharlagan bo‘lishi mumkin, Xitoydan dori keltirish kerak” deyishganda: “Ha, Shohibekxon meni zaharladi, bu zahar shundan iboratki, Shohibekxon quyi tabaqadan yuqori tabaqaga ko‘tarildi. U bizni, ikkala aka-ukani qo‘lga tushirdi, asir oldi va ozod qildi, bunday sharmandalikdan butun tanamni dard egalladi. Agar mana shu zaharga qarshi taryok bo‘lsa, foyda qilgan bo‘lar edi” deb javob berdi”¹³⁹.

Sul-ton Ahmadxonga zahardek ta‘sir qilgan Shayboniyxonning quyi tabaqasidan yuqori tabaqaga ko‘tarilish “manzarasi”ni “Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi” muallifi juda aniq beradi: “Chingiz bilan Temurga taqlidan Shayboniy o‘ziga oliy bosh qo‘mondonlik mansabini oldi. Ilgari cho‘llarda sarson bo‘lgan bu odam qurol kuchi bilan bir necha o‘lkalarning hukmdori darajasiga yetdi. Jahongirlik yo‘lida qurol kuchi bilan u yanada ilgari bosishga o‘zida quvvat borligini his etmoqda edi. Ehtimolki, yaqin zamonda u kabi shuhratparast, u singari g‘ayratli qahramon hamda mamlakatning chegarasini kengaytirish uchun bor kuchi bilan g‘ayrat etuvchi, Shayboniydek mamlakat hududini sharqqa tomon kengaytirishga intiluvchi boshqa bir zot urush maydoniga chiqmasa, kim biladi deysiz, Shayboniy Temur kabi yangi bir g‘aroyib xilqat sifatida ko‘rinar edimi?”¹⁴⁰

Muhammad Haydar mirzo ta‘kidlagandek, Sul-ton Ahmad fahm-u farosatli inson sifatida o‘tgan-ketganlarni sarhisob qilar ekan, butun vujudida go‘yo o‘tkir

¹³⁹ O‘sha manba. – B. 236.

¹⁴⁰ Vamberi H. Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi. – T.: Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1990. – B. 67

og‘uning azobli, alamli og‘rig‘ini his qilishi tabiiy edi. Chunki quyi tabaqadan yuqori tabaqaga ko‘tarilgan Shayboniyxon kimning yelkasiga oyoq qo‘yib yuqorilaganini Sulton Ahmadxon juda yaxshi bilar edi.

Hukmdorlik mavqelarini mustahkam, hududlarini kengaytirish, juda ortda, olis yillarda qolib ketgan chingiziy shon-u shavkatlarini tiklash istagidagi munofiqona amallarini mo‘g‘ul xonlari hali Sulton Ahmadning davridan, uning 1488-yil Toshkentga yurishi paytidanoq boshlagan edilar.

Shayboniyxon Toshkent yurishida Sulton Ahmad Mirzoning qo‘shini tarkibida kelib, Sulton Mahmudxon bilan temuriylarga qarshi til biriktirib birgalikda harakat qilganliklari uchun Sulton Ahmad mirzo mag‘lubiyatga uchrab orqaga qaytadi. Sulton Mahmudxon temuriy mirzolarining payini qirish, ularni o‘zaro gijgijlash, o‘zaro nizo va adovat ruhini kuchaytirish, ularni kuchsizlantirish, alaloqibat yo‘ldan olib tashlash maqsadida zimdan harakat qilar ekan, hatto maslagi ro‘yobi uchun jiyani Bobur Mirzoni ham ayamadi.

Saripul jangining hal qiluvchi onlarida mo‘g‘ul askarlarining xiyonat yo‘liga o‘tishi, Samarqand qamalida yordamga kelayotgan Sulton Mahmudxon qo‘shinining ortga qaytishi, 1498-yildagi Ahmad Tanbal bilan bo‘layotgan urushlarda Bek Telbadan olgan sovg‘a-salomi, poralari evaziga Bobur Mirzoga berishi kerak bo‘lgan yordamni to‘xtatishi, 1502-yilda Bobur Mirzo jon chekib, jafo chekib qo‘lga kiritgan Farg‘ona yerlarini ukasi Sulton Ahmadxonga in‘om etishi, viloyat umidvorligi yo‘q, muhtojlik va xorlik paytlari Bobur Mirzoga va‘da qilingan O‘ratepaning berilmasligi – bularning barchasi shunchaki tasodif emas edi, albatta.

Ahdda sobitlik, qavm-u qarindoshlik haqqini halol ado etish, mardlik Bobur Mirzo tabiatining hech og‘ishmaydigan jihati bo‘lganligi uchun ham mo‘g‘ul xonlari – tog‘alari tarafidan qilinayotgan haqsizliklarini sezib turib ham, Ahmad Tanbal bilan ittifoq o‘rnatish, mo‘g‘ullarni viloyatdan haydab chiqarish taklifini aytishganda, “ravo bo‘lmag‘ay, xonlar tuqqonlarim, bularga navkarlik qilg‘onim Tanbalg‘a podsholik qilg‘onimdin ortuqdur”, – deydi. (94-b.)

Akademik Vohid Zohidov “Boburnoma”ning 1960-yildagi amalga oshirilgan nashriga yozgan so‘zboshisida: “... o‘sha davrlarda (Bobur Mirzo yashagan davrlarda – Y.K.) ikkita asosiy yo‘nalish va shunga muvofiq ikki asosiy guruh bor edi, birisi: mamlakatda bir butun tinchlik o‘rnatishga, moddiy va ma‘naviy boyliklar yaratishni ta‘min etishga qaratilgan; ikkinchisi esa, aksincha, mamlakatni parchalashga, moddiy va madaniy boyliklarni yemirishga yoki ularni yaratish jarayonini bo‘g‘ishga qaratilgan. Bobur siymosini belgilaydigan va uni yorqin qiladigan bosh masala shundan iboratki, u ana shu birinchi yo‘nalish va birinchi guruh tarafida edi” (9-b), – deb yozadi. Olim ushbu fikrlari orqali Bobur Mirzoning hayotiy kredosi, axloqiy-ma‘naviy pozitsiyasi, insoniy-ijtimoiy missiyasini aniq va muxtasar belgilab bergan. Ayni paytda Bobur Mirzo siymosi, obrazini badiiy idrok etishda, kitobxonga yovuq kelishidagi asosiy omilni ham ko‘rsatib bergan.

“Boburnoma”dagi tasvirlarda (1497-1498-yil voqealari) muallif go‘yo o‘quvchi qo‘lidan yetaklab latif shahar, “baldayi mahfuza” – Samarqandning porloq, ma‘mur go‘shalaridan olib o‘tar ekan juda chuqur havas, samimiy e‘tirof bilan: “Temurbekning va Ulug‘bek mirzoning imorati va bog‘oti Samarqand mahallotida ko‘ptur” (59-b.), – deydi. Bobur Mirzo Ko‘ksaroy ta‘rifida: “... ulug‘ ko‘shk... to‘rt oshyonliq, mashhur va bisyor oliy imorattur”, desa, Hindiston sangtaroshlari toshdan bunyod etgan ulkan jome‘ masjidining mahobatini ko‘rsatish uchun “Masjidning peshtoqi kitobasida bu oyatni “Va‘iz yarora‘u Ibrohim al-qavonda (Ilo oxirixi)”ni anda ulug‘ xam bila bitibturlarkim, bir kuro‘h yovuq yerdan o‘qusa bo‘lur” (59-b.), – deydi.

Amir Temur barpo etgan firdavsmonand bog‘larni: Bog‘i Bo‘ldurur, Bog‘i Dilkusho, Bog‘i Chinor, Bog‘i Shamol, Bog‘i Bihisht kabi diltortar maskanlarni ishtiyoq bilan ta‘riflaydi. Ulug‘bek Mirzo qurdirgan yirik gumbazli xonaqoh va madrasalar mashhur Murzo hammomi, Muqatta‘ masjidi haqida ma‘lumot beradi. Bu masjidning nomini Muqatta‘, ya‘ni bo‘laklangan deyishlarining ma‘nosini: “qit‘a-qit‘a yig‘ochlarni tarash qilib, islmiy va xitoyiy naqshlar solibturlar, tamom devorlari va saqfi ushbu yo‘sunluqtur” (60-b.), – deya

izohlaydi. Bu muazzam imoratlarning Bobur Mirzoning muzayyan ta'rifidagi hayrati, havasi beixtiyor kitobxonga ham yuqadi.

Bobur Mirzo birinchi marta Samarqandga besh yoshligida amakisi Sulton Ahmad Mirzoning to'yiga keladi. Odatga ko'ra kelinchakning yuzini beg'ubor, begunoh go'dakka ochtirishadi: "Hanuz yuz yopug'i bor edi. Turkona rasm bila manga buyurdilar, men yuzini ochdim" (45-b.), – deya eslaydi Bobur Mirzo.

Bolalikning ko'zi katta bo'ladi, deydilar. Bobur Mirzo "Boburnoma"da tez-tez tilga oladigan "Samarqand xayoli, Samarqand doiyasi" nazokat bilan yerga boqib turgan ushbu go'zal kelinchak timsolida uning bola ko'ngliga o'sha paytlariyoq joylashgan bo'lsa, ehtimol.

Bobokalonlarimizning sa'y-harakatlari, tashabbuslari, beqiyos zavqi o'laroq yaratilgan imoratlar, bog'lar haqidagi mufassal ma'lumotlar bilan tanishar ekanmiz, bino va inshootlarni loyihalash, qurish, bezatish san'ati: xususan, butun va qism uyg'unligi, mutanosibligi, badiiy elementlarning o'zaro mosligigacha nozik tushunadigan, o'sha davr arxitekturasi, arxitektonikasini bir yetuk me'mor darajasida egallagan yuksak didli muallif siymosi ko'z oldimizda namoyon bo'ladi.

Garchi Bobur Mirzoga buyuk inshootlar, go'zal bog'lar barpo etish o'z Vatani Movarounnahrda nasib etmagan bo'lsa-da, u Kobulga, uzoq Hindistonga temuriylarning madaniyatini, ma'rifatini, me'morchilik, bog' barpo etish san'atini olib bordi. Bobur Mirzoning ana shunday integrativ boshqaruv uslubini nazarda tutgan holda amerikalik sharqshunoslar: "Ma'lumki, Bobur XVI asr boshida O'rta Osiyo bilan Hindiston o'rtasida bir ko'prik barpo etdi"¹⁴¹, – deydilar.

O'zining "Bobur – yo'lbars" asarida: "Bobur Samarqandni Hindistonga olib keldi" degan obrazli fikrini ilmiy tilda keng jamoatchilikka taqdim etgan Kaliforniya universiteti professori Garold Lemb (Harold Lamb) o'zining 1960-yil Moskvada bo'lib o'tgan sharqshunoslarning XXV kongressida so'zlagan nutqida: "...tarixiy dalillar va uning (Bobur Mirzoning – Y.K.) o'zi bitgan "Tuzuki Boburiy" hamda uning hayotini o'rganish shuni ko'rsatadiki... u yoshlik chog'ida

¹⁴¹ Lemb G. Bobur haqida amerikalik sharqshunosning aytganlari / Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburiylar. Qomusiy, ilmiy va ilmiy-ommabop maqolalar to'plami. 5 jildlik. 1 jild. – B. 8. Tuzuvchi-muallif Rustamxo'jayev va b.

turkiy madaniyatning katta ta'sirida bo'lgan. Bobur o'z asarida... Ulug'bekni ulug'laydi, uning o'qimishli va olim bo'lganini uqtiradi... Agrada shaharlar qurganda ham Ulug'bekdan namuna oladi. Boburning bu xususiyatlari Ulug'bekka o'xshaydi"¹⁴², – deydi.

Bobur Mirzo nafaqat harb-u zarbda, nafaqat jahongirlikda, balki ulkan inshootlar qurishda ham temuriy bobolariga eng munosib izdosh ekanligini quyidagi qiyosda o'zi ham faxr bilan ta'kidlaydi: “Nechukkim, “Zafarnoma”da Temurbekning “masjidi sangin” imoratini qilurda Mullo Sharif mundog' mubolag'a bil bitibdurkim, Ozarbayjon va Fors va Hindiston va yana o'zga mamolik sangtaroshlaridin mening imoratlarimda har kunda olti yuz sekson kishi ish qilurlar edi. Bir Agrada ushbu Agraning sangtaroshlaridin mening imoratlarimda har kunda olti yuz sekson kishi ish qilurlar edi. Yana Agrada va Sekriyda va Bayanada va Do'lpurda va Gvaliyarda va Ko'yilda ming to'rt yuz to'qson bir sangtarosh har kunda mening imoratimda ish qilur edi”. (208-b.)

Bobur Mirzo qiyoslash ustasi, u o'z haqiqatlarini qiyosda ochadi. Temurbek imoratlarida ishlagan ustalar bilan o'zining qurilishlarida mehnat qilayotgan sangtaroshlarning sonini qiyoslab faxr tuyayotgan muallif, yana bir jihat bilan ustunki, u o'zining qator sanagan viloyatlari bunyodkorligini mutlaqo begona yurtda, begona sharoitda amalga oshiryapti. Kitobxon tasavvurida jonlangan muallif obrazidan shu haqiqatni ham uqqandek bo'ladi.

Guvohi bo'lganimizdek, “Boburnoma” ijodkori muallif sifatida asarni yozdi. “Boburnoma” – memuar asar. Bobur Mirzo o'zi aytganidek: “bitilgudek nima nazarg'a kelsa, tahrir qilg'umdur, eshitilgudek nima eshitilsa, takrir qilg'umdur” (210-b.) – Bobur Mirzoning mana bu so'zlarida muallifning asar doirasidagi hokimlik huquqiga ishora bor. Demak, muallif hamma voqealarni bir sidra qatorasiga emas, balki o'zi lozim ko'rganini “bitilgudek”, “yozilgudek”ini tanlab oladi, o'zi esa bosh qahramon sifatida ularda ishtirok etadi. Muallif va bosh

¹⁴² Lemb Garold. Hindistonda Buyuk mo'g'ullar sulolasini asoslagan Zahiriddin Muhammad Boburning faoliyati to'g'risida. Qarang: Hasanov, H. Zahiriddin Muhammad Bobur: (Hayoti va geografik merosi). – T.: O'zbekiston, 1966. – B. 17.

qahramon ittifoqi muallif obrazini yuzaga keltirsa, “Boburnoma”ning memuarlik xususiyati bosh qahramonning roviylik maqomini ham tayin etadi. (8-ilova)

2.2.“Boburnoma”da muallif obrazining zohiriy va botiniy qatlamlari

Adabiyotshunos Suvon Meli “Xamsa”da muallif obrazi kategoriyasi” deb nomlangan maqolasida: “Xamsa”dagi muallif obrazi muallif nomidan ketadigan “men”lar yoki Navoiy nomidan va shu nom bilan aytilgan o‘rinlardagina emas. Aniqrog‘i, bunday o‘rinlar asardagi muallif obrazining ilk, zohiriy qatlamini tashkil qiladi, xolos. Asarda, ya’ni besh dostonida aytilgan har bir fikr, xulosa, obrazlar, obrazlararo munosabat, konflikt va uning yechimi: ushbu jami unsurlardan hosil bo‘ladigan xayoliy qiyofa – bu obrazining botiniy qatlami”¹⁴³, – deydi.

“Xamsa” – sof badiiy asar, ammo “Boburnoma”ning ham badiiylik xususiyatlarini hisobga olsak, olimning “muallif obrazi” bilan bog‘liq ilmiy-nazariy qarashlarini “Boburnoma”da ham kuzatishimiz mumkin. So‘zdan tiklangan “Boburnoma”dek ulkan hayot sahnida aks etgan voqealarning har biri ham o‘z sujeti, kompozitsiyasiga ega. Bu voqealarni – bosh qahramon Bobur Mirzo obrazi ichdan bog‘lab turadi.

Bu olam aro ajab alamlar ko‘rdum,
Olam elidin turfa sitamlar ko‘rdum,
Har kim bu “Vaqoye”ni o‘qur, bilgaykim,
Ne ranj-u ne mehnat-u ne g‘amlar ko‘rdum¹⁴⁴.

“Alamlar”, “sitamlar”, “ranj”, “mehnat”, “g‘am”lar oralab o‘tib borayotgan Bobur Mirzo o‘zgalarni kitobxonga tanitish jarayonida o‘zligini ham namoyon etib boraveradi. Bu o‘zlikni namoyon qilish to‘g‘ridan to‘g‘ri “men” orqali yuzaga chiqib, muallif obrazining zohiriy qatlamini tashkil etsa, ba’zan mutolaa davomida o‘quvchi xayolida virtual qad rostlaydigan tasavvurida “turli hissiy-fikriy ma’no va

¹⁴³ Meli S. So‘z-u so‘z. “Adabiyot falsafasi”ga chizgilar. – T.: Sharq, 2020. – B. 114.

¹⁴⁴ Bobur Zahiriddin Muhammad. Kulliyot. 1-jild. Devon. – T.: Zilol buloq, 2021. – B. 321.

ma'no qatlamlarining ijodkori va kashshofi"¹⁴⁵ sifatida "Boburnoma" vujudida kezinib yuradigan poetik unsur muallif obrazining botiniy qatlamini hosil qiladi.

1506-1507-yillar voqealari bayonida mirzolarning Shayboniyxonga qarshi ittifoq bo'lib kurashish takliflariga binoan Hirotga borgan Bobur Mirzo qishgacha u yerda qolib ketadi. "Meni qishlang deb, Muhammad Burunduqbek va Zunnunbek bajid sa'y qiladurlar edi, vale qishloq yeri va qishlamoq asbobini yaxshi somon bermaydurlar edi. Qish bo'ldi va oradag'i tog'larda qor yog'di. Bular ne qishloqlik yerni somon beradur, ne somonliq yerda qishloq. Oxir zarurat bo'ldi, sarih ayta olmaduk" (146-b.), – deb yozadi Bobur Mirzo.

Bobur Mirzo bu yerda o'ziga qishlov berilmaganini bejiz "ochiq ayta olmadik" demayapti. Ochiq tan olinmaydigan haqiqatlar ko'p edi. Bobur Mirzoni yordamga chaqirib olgan mirzolar keyinroq uning shijoatidan qo'rqib qolishgan, ko'zlariga bashirkat taxtlari omonatdek ko'ringan. Holbuki, mirzolarning lashkarboshilari harbiy vaziyatni to'g'ri baholab Bobur Mirzoni qolishga undab turganlarida mirzolardan bir sado chiqmaydi, bir harakat sezilmaydi. Temuriylar saltanatining Xurosonda ham tamomila barbod bo'lishiga sabab Bobur Mirzo ayta olmagan, ammo o'quvchi botiniy qatlamda muallif obrazi orqali uqqan mirzolarning kaltabinligi, hasadgo'yiligi sabab bo'lgan. Dushmanga qarshi temuriylarning ittifoq bo'lib kurashish masalasi ko'rilgan Murg'ob bo'yidagi uchrashuv esa shunchaki xalqning oldida yo'liga qilib qo'yilgan, aslida besamar, natijasi nolga teng harakat edi.

Adabiyotshunos Marg'uba Abdullayeva: "Boburnoma"dagi Bobur obrazi va hayotdagi Bobur o'rtasida uzviylik va uyg'unlik tomonlari juda ko'p. Biroq ba'zi bir o'rinlarda muallif o'z obrazini to'laligicha yoritib bermaydi. O'zining voqealar-hodisalarga bo'lgan munosabatini sir tutishga urinadi"¹⁴⁶, – deydi. Bizningcha, eng avvalo, memuar asar hisoblangan "Boburnoma" qahramoniga nisbatan asardagi Bobur va hayotdagi Bobur tushunchasini qo'llash nojoizdek.

¹⁴⁵ Meli S. So'z-u so'z. "Adabiyot falsafasi"ga chizgilar. – T.: Sharq, 2020. – B. 119.

¹⁴⁶ Abdullayeva M. Tarixiy-badiiy nashrda muallif "men"i haqida. Manba: Asrlar uzra porlagan siymo. –Andijon: Andijon nashriyot-matbaa, 2023. – B. 111.

Olimaning ikkinchi fikriga qo‘shilamiz, haqiqatan muallif obrazi “Boburnoma”ning ba’zi o‘rinlarida “men” kabi yaqqol ko‘rinmaydi. Ana o‘shanda biz muallif obrazini endi botiniy qatlamdan qidirishimiz zarur bo‘ladi. “Boburnoma”ning 1518-yil voqealari bayonida Bobur Mirzo: “Sabohi Istalifdan o‘tlanib, Sanjid darasining orasi bila o‘tub, Xoja Seyorojning yaqiniga yetganda, bir ulug‘ yilonkim, yo‘g‘onlig‘i bilakcha va uzunligi bir quloch bo‘lg‘ay edi, o‘lturuldi. Bu ulug‘ yilonning ichidan inichkarak yilon chiqti, g‘olibo o‘shul yaqinda yutub ekandur, bori a‘zosi butun edi. Bu inichka yilonning ichidan bir katta sichqon chiqti, ul ham butun edi”, – deb yozadi. (176-b.)

Qat-qat ilon haqidagi ma‘lumot bu – Bobur Mirzoning hayrati, tabiatdagi bu noyob hodisaning ajoyibotligini o‘quvchiga ham ilinyapti. Ziyrak, sinchkov, qiziquvchan Bobur Mirzo “men”i shu o‘rinda zohirda yaqqol ko‘rinadi. Biz botindagi muallifning ham fikriga e‘tibor qilamiz. “Boburnoma”dagi bu ma‘lumot Bobur Mirzoning biror izohisiz, sharhisiz keltirilgan. Ammo Bobur Mirzodek nuqtadon, daqiq inson jonzotlar olamidagi bu g‘alati holatni shunchaki asariga olib kirmagan. “Boburnoma”dagi “rostlik” tamoyilidan tashqari bir o‘rinda Bobur Mirzo o‘zining ijodiy niyatini shunday bildiradi: “...yana bitilgudek nima nazarg‘a kelsa, tahrir qilg‘umdur; eshitulgudek nima eshitilsa, tahrir qilg‘umdur”. (210-b.)

Demak, Bobur Mirzo “ilonlar” ma‘lumotini (shartli shunday nomladik – Y.K.) “bitilgudek”, “eshitilgudek” – arzirli deb bilgani uchun asariga olib kirgan. Garchi Bobur Mirzo hech qanday munosabat bildirmagan bo‘lsa-da, bu voqeani asarga olib kirishning o‘zida munosabat bor. Bunday vaziyatda muallif obrazi virtual, botiniy qatlamda yuz ko‘rsatadi. Inson hayoti, uning chigal fe‘l-atvori bilan jonzotlar olamining beshafqat qonunlari o‘rtasidagi uyg‘unlikka ishora muallif obrazida inkishof etiladi. Bir-birini tiriklay yutgan ilonlar holatini kuzatib turgan Bobur Mirzoning sirli qiyofasida mavjudlikning mangu muammolari haqida o‘yga tolgan, “nafs ilgida zabun”likning nochor holatiga guvoh bo‘lgan muallif nigohini his etamiz.

Buyuk Navoiy umr shomida “Mahbub ul-qulub” asarini yaratdi. “Qalbga yaqin kitob”, yana ham muxtasarroq qilib uni qalb kitobi yoki ko‘ngil kitobi deyish

mumkin, ehtimol. Unda shunday satrlarni o‘qiydiz: “...kamina bolalikdan to qarilikka qadar ko‘hna davron voqealaridan, aylanuvchi osmon hodisalaridan, fitna qo‘zg‘ovchi dunyo buqalamunligidan – tovlamachiligidan zamonaning rang singari gunogunligidan ko‘p vaqt va uzoq muddat har xil xayol va taraddudlar bilan daydib yurdim, goho izzat va ma‘murlik bo‘stonida majlis qurdim. Yo‘qsillik, kambag‘allik paytlarimda, falokatli zamonlarda va noumid yurgan paytlarimda... Goh pastkash va baxil kishilar qoshida xo‘rlandim va razil-nokaslar oldida e‘tiborsiz bo‘ldim”¹⁴⁷.

Buyuk mutafakkirning bu hasbi holi, iqrori ortida Bir Mirzo siymosini ham ko‘rgandek bo‘lamiz. Bu o‘kinchlar, iztiroblar Bobur Mirzo umrining ham hasratli sahifalaridir. Bobur Mirzoni el, ulus, raiyat andishasini faqat tojdorligida emas, viloyati yo‘q, viloyat umidvorligi yo‘q, hech vaqosiz tog‘- u toshlarni yalangoyoq kezib kezib yurganda ham birzum tark etmagan.

Jamiyatning borini davlat, jamiyat a‘zolarining ittifoqini, jipsligini farog‘at deb bilgan Bobur Mirzo jamiyatning adolati, diyonatini, avvalo, alohida insonlarning fe‘li, tabiati, axloqi va atvoriga bog‘liq deb biladi. Agar Bobur Mirzoning insonlarga bergan ta‘rifini, bahosini kuzatadigan bo‘lsak, ularda “Mahbub ul-qulub”da ko‘rsatilgan axloqiy-ma‘naviy mezonlarning ustuvorligini payqash mumkin.

Hazrati Navoiy yozadi: “Har bir yurakda vafo bo‘lsa, u yerda hayo ham bor va har maskanda u topilsa, bu ham barqaror. Vafosizda hayo yo‘q; hayosizda vafo yo‘q. Agar, kimda bu ikki sifat bo‘lmasa – unda imon ham yo‘q. Va agar kimda imon bo‘lmasa, unda odamiylik ham yo‘q...”¹⁴⁸. Bobur Mirzoning temuriylar poytaxtini yigirma besh yil (chorak asr) boshqargan amakisi Sulton Ahmad Mirzo haqidagi ma‘lumotlarni o‘qir ekanmiz, Navoiyning hayoli insonlarga nisbat bergan axloqiy tashxisining naqadar aniqligiga qoyil qolasiz: “Asru ko‘p hayosi bor erdi. Derlarkim, xilvatlarda mahram va ichkilaridin ham oyog‘ini yopar ekandur”. (44-b.)

¹⁴⁷ Navoiy A. Mahbub ul-qulub. – T.: Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1983. –B. 11-12.

¹⁴⁸ O‘sha manba. – B. 64.

Hayo, uyat hissini biz ko‘proq xotin-qizlarning xos sifatleri deb qarashga o‘rganganmiz. Bobur Mirzo hukmdorlar, bek va amirlar, yurt tepasida turgan amaldor tabiatidagi bu sifat nafaqat ularning shaxsiy qiyofasini, balki bu rahbarlar boshqarayotgan jamiyatning, mansub bo‘lgan qavmning, naslning ham umumqiyofasini namoyon etishini ularning taqdir, qismatlarida teran kuzatadi.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “Hayo (arabcha حياء – uyat, sharm, or, nomus, kamtarlik, adab) Nojo‘ya, noma‘qul xatti-harakatdan tiyilish hissi”¹⁴⁹, – deyiladi. XX asr o‘zbek adabiyotining atoqli namoyandasi Abdulla Qahhor 1966-yilda yozgan maqolasini “Uyat” deb nomlab, Navoiyning uyatsiz, hayosiz insonlar haqida bildirgan fikrini yana ham keskinroq ifodalaydi: “Uyat faqat insonga xos tuyg‘udir. Hayvon uyat paydo qilolmagani uchun insonga yaqinlasholmaydi, lekin inson uyatni yo‘qotib hayvonga yaqinlashib qolishi mumkin”¹⁵⁰.

Otabek nomidan Homid va hamtovoqlari uyushtirgan soxta taloq xati tufayli izzat-nafsi og‘rigan, kuyovini munofiqlikda ayblab, undan nafratlanib yurgan Mirzakarim qutidor hech nimadan bexabar, diydor onlariga oshiqib kelayotgan Otabekning yuziga eshikni sharaqlatib yopar ekan, unga nisbatan o‘zining bisotidagi eng xunuk so‘zni ishlatadi: “Uyatsizga maning uyimda o‘rin yo‘q...”

Bu so‘z ortidan Otabek boshiga arsh qulaydi, go‘yo. Bu so‘z zarbi Otabekni ruhidan, jonidan ayiradi. Ruhsiz, jonsiz qolgan Otabekning keyingi holatini Qodiriy shunday tasvirlaydi: “Otabek esini boshig‘a yig‘ib, mixlang‘an yeridan qo‘zg‘alg‘anda shom namozi o‘qulib bitkan, kishilar uylarig‘a qayta boshlag‘an edi. Ul mashinavori kelib otig‘a mindi...”¹⁵¹

Abdulla Qodiriy ham o‘zining suyuq qahramonlari ma‘naviy-axloqiy olamining hayo va adab, or va nomus chegarasidagi sobitlik manzarasini ana shunday betakror yaratgan edi. Bobur Mirzo “Asru ko‘p hayosi bor” Sulton Ahmad mirzoning bisyor muaddabligini ko‘rsatish uchun shunday bir voqeani eslab: “Hazrati Xoja Ubaydullog‘a irodati bor edi. Hazrati Xoja murabbiy va muqavviy

¹⁴⁹ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. J. 5. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. – B. 475.

¹⁵⁰ Qahhor, A. Asarlar: 5 jildlik. J. 5. Haq so‘zning kuchi. – T.: Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1989. – B. 236.

¹⁵¹ Qodiriy, A. Tanlangan asarlar. – T.: Sharq, 2014. – B. 147.

edilar. Bisyor muaddab bor edi, alalxusus, Xoja suhbatida, derlarkim, hargiz Xoja majlisida tizi bir-bir tiziga yovutkagan emastur. Bir navbat hazrati Xoja suhbatida bor xilofi odat oyog'ini yovutkab o'lturubtur, Mirzo qo'ppondan so'ng hazrati Xoja buyurubturlarkim, mirzo o'lturg'on yerni boqqaylar; bir so'ngak bor ekandur" (44-b.), – deydi. Bobur Mirzo nazarida Sulton Ahmad mirzo fitratidagi ana shunday hayo, sharm, andisha go'yoki ona fazilatdir uning boshqa insoniy-ijobiy sifatlarining tug'ilishiga sabab bo'lgan, rahbarlik mas'uliyatini barqaror, hukmdorlik sharafini fayziyob etgan. Sulton Ahmad mirzo ta'rifini Bobur Mirzo davom ettirib yozadi: "Odil... kamsuxan va odmi kishi erdi. Shijoati bor edi. Aksar muhimot shar' tariqi bila faysal topar edi. Ahd va qavlig'a rost va durust edi. Hargiz andin xilofi zohir bo'lmadi". (44-b.)

Muhammad Solihning "Shayboniynoma"sida Samarqand qamali oldidan Bobur Mirzoning xalq bilan muloqotida Amir Temurdan keyin shavkatli temuriy hukmdorlar qatorida Sulton Ahmad mirzoni fozil va dinparvar podshoh sifatida eslab o'tishida katta hayotiy haqiqat borligi "Boburnoma"dan ma'lum.

Husayn Boyqaro va uning o'g'illari o'rtasidagi munosabatlarga putur yetishini, ota-farzand qadrining zalolatini ham Bobur Mirzo aslida hayosizlik, andishasizlik, axloqsizlik ortidan tug'ilgan vafosizlik va oqibatsizlikda deb biladi.

Hazrat Navoiyning hayosiz, vafosiz insonlarda imon ham bo'lmaydi degan fikri Bobur Mirzoning Boyqaro va boyqarozodalarni muqarrar inqirozga yetaklagan holat, vaziyatga bergan real bahosi bilan mos tushadi. "Bu mirzolar andoq ifrot bila fisq va ayshg'a mashg'ul edilarkim, otasidek kordida va kordon podshoh tushchilik yo'l kelib, ramazondek mo'tabarrak va aziz oyg'a kechalik fursat qolib, otasidin iymanmay, Tengridin qo'rqmay, hanuz ishi chog'ir ichmak edi – nashot bila, majlisoroliq edi – inbisot bila. Muqarrardurkim, mundoq bo'lg'on kishi andoq shikast topqay va bu nav' o'tgan elga har kim dast topqay" (57-b.), – deydi 1496-1497-yil voqealari bayonida.

Temuriylar dovrug'ini dunyoga yoygan Hirotdek azim shahar taxtiga da'vogar, valiahd Badi'uzzamon mirzoning o'z otasiga qilich ko'tarib chiqqanidan andishaga botgan Bobur Mirzo qonli jang-u jadalga emas, balki xuddi ko'rgazmali

namoyishga hozirlik ko'rganga o'xshaydigan mirzoning o'ta yaltiroq, olifta o'rdusini: "...havoli va havoshisi va yigit-yalangi bisyor purzavq va purzeb... Oltun va kumush olat va adavoti bisyor... Va kumoshpo'sh yigiti va tupchoq oti beshumor" (570-b), – deya tasvirlaydi. Bu tasvirlar orqali Bobur Mirzo nafaqat dabdaba-yu as'asaga berilgan Badi'uzzamon hamda uning lashkari holati va kayfiyatini, balki o'sha davr Hirot muhitining ichdan zil ketayotgan, chirib bir kun bu saltanatning qulashiga, yuztuban bo'lishiga sabab bo'ladigan ma'naviy aynishlarning ildizini kashf etgandek bo'ladi. Uyat, or-nomusni unutgan boyqarozodalar: Badi'uzzamon mirzo va Muzaffar mirzolar otalari Sulton Husayn Mirzo vafotidan so'ng Hirot taxtini bashirkat podshoh bo'lib boshqara boshladilar. Temuriylar davlat boshqaruvining sharmandali sahifasiga aylangan bu holatni Bobur Mirzo: "Bu g'arib amre edi, hargiz podshohlikta shirkat eshitilgan emas" (140-b.), – deydi. Badi'uzzamon va Muzaffar mirzolar Shayboniyxonga qarshi kurashishda birlashish maslahatini qilish uchun barcha Xuroson sultonlarini Murg'obga chorlaydilar. Kobulga Bobur Mirzo huzuriga ham elchi yuboradilar.

1506-1507-yil voqealari bayonida Bobur Mirzo shunday yozadi: "Manga dog'i elchilar keldilar... Men xud nega bormag'aymen. Yuz-ikki yuz yig'och yo'lni bu maslahat uchun tay qilibturmen... Bovujud bu xonavodaning nomusini qoralab Xuroson jonibig'a mutavajjih bo'lduk". (141-142-b.) Guvohi bo'lganimizdek, Bobur Mirzo yana or, nomus masalasini o'rta qo'yadi. Temuriylar sha'nini, shavkatini oxirigacha himoya qilishni o'zining burchi deb biladi. Ammo Murg'obda hal qilinishi kerak bo'lgan asosiy masala o'zaro ichki nizolar va ob-havo – qish kelib qolganligi bahonayi sabab kun tartibidan tushadi, Shayboniyxonga qarshi ittifoq bo'lib jangga chiqish yana kaltabinlarcha ortga suriladi.

O'zlarining eng sevimli mashg'ulotlari: kim o'zarga dasturxon tuzash, may bazmi, gul bazmi, mezbonlig-u mehmonnavozlik ko'yiga tushib, yurtning taqdiridan ko'ra bazmlarda kimning kimdan to'roqda o'tirishiga, kimning kimga birinchi ta'zim qilishiga, kimning kimni majlisda ko'proq yoki kamroq may ichishiga hushyor nazar bilan qaraydigan o'ta maishiylashgan, or-nomusni unutgan

bashirkat podshoh – boyqarozodalarning buqalamun yashash, buqalamun boshqarish siyosatlarini kuzatgan Bobur Mirzo, mirzolar bundan o‘n yil oldin qanday bo‘lsalar, shundayliklaricha qolganlariga guvoh bo‘ladi.

Boburshunos Hasan Qudratullayev: “Boburnoma”da muallif davlat boshqaruvida yakka hukmronlik masalasiga doir qarashlarini shu mavzuga hatto xiyol mos keladigan voqea-hodisalar tasvirida ham bayon etib ketaveradi. Ta’kidlash joizki, mazkur masala Bobur shaxsiyatini belgilashda o‘ta muhim. Bu uning mustahkam saltanatning mayda feodal mulklarga bo‘linib ketishi, qo‘shhokimlik tarqoqlikka, beklar orasida keskin nizolarga sabab bo‘ladi, degan g‘oyasining mag‘zini tashkil etadi”¹⁵², – deydi. Bobur Mirzo fikricha, mamlakat taxtini hech xijolat chekmay ikkiga bo‘lib olgan Badi’uzzamon va Muzaffar mirzolar yurt, el, ulus taqdiriga mas’ullikni ham parishon, tarqoq holatga olib kelganlar, qat’iy qaror qabul qilish, keskin choralar ko‘rish, jadal harakat o‘rniga bashirkat podshohlar barpo etgan loqaydlik, takabburlik, sansalorlik, boqibeg‘amlilik muhiti bu elda Boyqaro yoqqan, qariyb qirq yil porlagan ajabzamone chirog‘ini manguga so‘ndirdi.

Begona yov Shayboniyxon u yoqda tursin, Hirotning o‘zidan chiqqan bebosh Haqnazar chapanining bosqiniga qarshi chora ko‘rolmagan mirzolarning tutumlaridan hayratga tushgan Bobur Mirzo: “...Barcha mirzolar hozir bo‘lub har necha qilib, bu chopqunchining ustiga ilg‘or yibora olmadilar. Murg‘ob bila Chechaktuning orasi o‘n yig‘och yo‘ldur, bu ishni men tiladim. Nomus qilib menga ruxsat bermadilar” (143-b.), – deydi nadomat bilan. Mirzolarning nomuslari, oriyatlari zimnida takabbur, baxil, xudbin tabiatlari bo‘y ko‘rsatib turgani Bobur Mirzoning gap ohangida yaqqol seziladi.

Temuriylar sharafi birlashtirib turgan yagona nom, ammo bir-biriga qarama-qarshi ikki qutbdagi– Xuroson mirzolari va Bobur Mirzo dunyosi o‘rtasidagi farq muallifning Hirot safari taassurotlarida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Bobur Mirzo yozadi: “Badi’uzzamon mirzo Muzaffar mirzoning mehmondorlig‘ini eshitib, Bog‘i Jahonoroda Muqavviyxonada majlis tartib qilib, meni tiladi... Bu suhbatta

¹⁵² Qudratullayev H. Bobur armoni. – T.: Sharq, 2005. – B. 61.

mening oling'a qoz kabobi qo'ydilar, chun qush buzmog'ini va to'rg'amog'ini qilg'on emas erdim, ilik eltmadim". (145-b.)

Bobur Mirzoni biroz xijolatga qo'ygan bunday yumushlarning unga tamomila begona ekanligini yozuvchi Xayriddin Sulton shunday izohlaydi: "U (Bobur Mirzo – Y.K.) o'n bir yoshdan o'tganda otadan yetim qoldi. Hali ayriliq ko'z yoshlari tinmay turib, qismat uning o'smir boshiga toj-u taxt minnatini soldi. Marhum padarining qirqi o'tmasidan u g'animplarga qarshi jang maydoniga qilich yalang'ochlab chiqishga majbur bo'ldi. O'n ikki yoshidan keyin Ramazon hayitini bir yerda ikki bor qarshi olmoq unga nasib etmadi – umri mudom ot ustida, jang-u jadallarda, siyosat girdobida o'tdi"¹⁵³.

Darhaqiqat, Hirotda mirzolar tarafidan uyushtirilgan shohona ziyofat va bazmlar tasvirini istisno etganda, "Boburnoma"da muallifning to Hindiston fathiga qadar biror o'rinda maxsus bezatilgan dasturxon ustida qo'r to'kib o'tirgan manzarasiga guvoh bo'lmaymiz. Bobur Mirzo yuqoridagi mehmondorchilik tafsilotini davom ettirib yozadi: "Badi'uzzamon mirzo dedikim, nega mayl qilmaysiz. Men dedim, to'rg'amoqtin ojizdurmen. Filhol Badi'uzzamon mirzo mening olimdag'i qozni buzib, to'rg'ab olimga qo'ydi. Mundoq ishlarda Badi'uzzamon mirzo benazir kishi edi". (145-b.)

Haqqa ergashib, haqiqat yo'lini tutgan Bobur Mirzoning Badi'uzzamon va Badi'uzzamon timsolida Xuroson mirzolariga bergan ta'rifning ikkinchi tomoni borki, unda muallif "Chin so'z qanchalik betakalluf bo'lmasin, so'zlovchi uchun taassuf yo'qdir"¹⁵⁴ hikmatiga amal qiladi: "Bu mirzolar agarchi suhbat va suhboroyliqda va ixtilot va omuzishta tavre edilar, vale sipohiylik rev va rangidin yiroq va mardonaliq va jang-u jadaldin qiroq edilar" (143-b.), – deydi.

Qish chiqishi bilan Shayboniyxonga qarshi ittifoq bo'lib kurashish ahdi unutilib, uning o'rniga bahoriy chechaklarga burkangan yaylovlarda ittifoq bo'lib o'tkazilayotgan bazm-u jamshidlar boshlandi. El-u yurtidan uyalmay, nomus qilmay butun boshli mamlakat taqdirini bir hovliqma bek qo'liga topshirib qo'ygan

¹⁵³ Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi. – T.: Sharq, 2014. – B. 118.

¹⁵⁴ Navoiy A. Mahbub ul-qulub. – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1983. – B. 75.

kaltabin mirzolar, yov Murg'obdan kechib o'tib, tobora Hirotga yaqinlashib kelayotganda ham qo'llarida qilich emas, may to'la kosani tutgan edilar.

Hazrat Navoiy ta'kidlagandek, Bobur Mirzo aytgan chin so'zda ham, so'zlovchida ham taassufga hojat yo'q: "Muqarrardurkim, mundoq bo'lg'on kishi andoq shikast topqay va bu nav' o'tgan elga har kim dast topqay". (57-b.)

Hirotning achinarli taqdiri haqida V.V.Bartold shunday yozadi: "Sulton Husayn va uning poytaxti Mir Alisherdan uzoq umr ko'ra olmadi. Sulton Husayn vafotidan so'ng bir vaqtning o'zida bir-birini yomon ko'radigan ikki shahzoda – Badi'uzzamon va Muzaffar Husayn shoh deb e'lon qilindi. 1507-yilda Hirot allaqachon o'zbeklar qo'lida edi. Bobur ta'kidlaganidek, o'zbeklarning g'alabasiga podshoh zodagonlarining aqlsizligi sabab bo'ldi, temuriylar madaniyati markazida dunyo ko'rmagan madaniyatsizlik hukmronlik qila boshladi"¹⁵⁵.

Gulbadanbegim esa mirzolarining xatti-harakatlariga: "Sulton Husayn Mirzo sakson yil¹⁵⁶ davomida Xurosonni obod va ma'mur qilgandilar, ammo mirzolar otasining joyini olti oy saqlab turishga yaramadilar"¹⁵⁷, – deya baho beradi. Guvohi bo'layotganimizdek, Gulbadanbegimning mirzolariga bahosida otalarning sharaflari, ezgu ishlariga vorisiylik mas'uliyatini teran his qilgan farzandning qarashlari yaqqol seziladi. Bu, albatta, donish inson Bobur Mirzo hayotiy saboqlarining farzand tarbiyasida aks etgan zuhuridir. Bobur Mirzo temuriylar sulolasi tarixida ota va o'g'il muammolarini teran kuzatgan, unga o'z bahosini bergan, qavm-u qarindoshlik, jon-u jigar haqqi kabi qadriyatlarni ustuvor tutgan, har vaqtgi o'z manfaatlaridan kechib bo'lsa-da, aynan shu masalada Olloh farz etgan burchlarni oshig'i bilan ado etgan, bu borada farzandlariga – taxt vorislariga namuna ko'rsatib halimlikning haddi a'losiga yetkazgan dilbar va dilovar siymo.

"Otani chun qibla debturlar, Qibla yanglig' ancha nazar qilg'il", – deydi Bobur Mirzo. "Qibla, lug'aviy ma'nosiga ko'ra qarshisida, ro'parasida turgan narsa degan mazmuni beradi. Namozda Ka'bayi Muazzama namozning

¹⁵⁵ Бартольд В.В. Сочинения. Том II, часть 2. Работы по отдельным проблемам истории Средней Азии. – М.: Наука, 1964. – С. 259.

¹⁵⁶ Bu yerda Gulbadanbegim adashgan. Sulton Husayn Mirzo 37 yil hukmronlik qilgan.

¹⁵⁷ Gulbadanbegim Zahiriddin Muhammad Bobur qizi. Humoyunoma. – T.: O'zbekiston, 2016. – B. 7.

yuzlanadigan tomoni bo‘lganligi uchun qibla deyiladi”¹⁵⁸. Bobur Mirzo otalarni Ka‘baya Muazzama yanglig‘ doimo farzandlar ro‘parasida turib, ularga murod va maslakka yetish yo‘llarini yoritib beruvchi mayoq ekanliklarini, shuning uchun ham otalar hurmati insonlar sajdaga bosh qo‘yadigan qibla maqomi darajasida bo‘lishi lozimligini ta‘kidlaydi. Ana shu tartib, ana shu hurmat oyoqosti qilingan o‘rinlarda fojialar, tuzatib bo‘lmaydigan buyuk xatolar yuzaga kelishini muallif “Boburnoma”da bir necha bor qayd etadi: Husayn Boyqaroning davlat qurilishini, unga rahbarlik faoliyatini e‘tirof etib yoqlagan Bobur Mirzo, ajabzamone hukmdorining axloqidagi, ma‘naviyatidagi, oila tutumidagi keskin og‘ishlarining fojaviy oqibatlarini kelgusi avlodga saboq o‘laroq ko‘rsatadi: “... Fisq va fujur o‘zida, o‘g‘lonlarida va el-ulusida asru shoyi’ edi... o‘g‘lonlari yog‘iyqtilar... mirzolar andoq ifrot bila fisq va ayshg‘a mashg‘ul edilar... otasidin iymanmay, Tengridan qo‘rqmay, hanuz ishi chog‘ir ichmak edi” (57-b), – deydi nadomat bilan Bobur Mirzo.

Temuriylar tarixida otalar va o‘g‘illar munosabatidagi yana bir qonli fojia – “Ilm va aql dengizi” bo‘lgan Mirzo Ulug‘bekdek daho insonning o‘ta achinarli umr intihosi, Haq va xalq oldida yuzi qaro Abdulatif Mirzoning og‘ir qismati haqida: “Bu besh kunlik o‘tar dunyo uchun andoq donishmand va qari otasini shahid qildi... Agarchi o‘zi ham besh-olti oy besh saltanat qilmadi” (63-b.), – deydi Bobur Mirzo.

Boburshunos Zulxumor Xolmanova: “Boburnoma” matnining muvaffaqiyatli ifodasi bir qadar ruhiyat chizgilarining haqqoniy tasvirlangani bilan belgilanadi... Voqelik Bobur tilidan bevosita bayon etilgani bois unda, avvalo, muallif ruhiyati aks etgan. Bobur ruhiy kechinmalarini aks ettirishda iboralardan keng foydalangan. Asar tilida iboralarning aksariyati ruhiy kechinma, psixologik holatni aks ettirgan”¹⁵⁹, – deydi. “Besh kunlik dunyo”, “besh kunlik umr”, “o‘tar dunyo” iboralari Bobur Mirzoning tiriklik mazmun-mohiyati haqidagi o‘y-kechinmalari, qarashlarining ifodasiga xizmat qiladigan tushunchalar.

¹⁵⁸ Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Qibla haqida. <https://islom.uz>

¹⁵⁹ Xolmanova Z. “Boburnoma” – til qomusi. – T.: Akadernashr, 2021. – B. 20.

Bobur Mirzo aniq raqam bilan chegaralaydigan besh kunlik – o‘lchovli, hisobli dunyo aslida bandalari uchun sinov onlari. Sinov onlari g‘oyat qisqa, shuning uchun muallif uni alohida urg‘ulab “besh kunlik o‘tar dunyo” deydi. Dunyo o‘tar, ammo Oliy imtihon esa barhaq. Bobur Mirzo “Boburnoma”ning bir necha o‘rinlarida ana shu Oliy imtihonni unutmagan xalq rizosidan chalg‘ib, Haqning ham rizosiga yetolmagan muruvvat, yaxshilikdan bebahra taqdirlarni hikoya qiladi. Bobur Mirzo tili bilan aytganda, ular davlatga yetib, yerdan oyog‘i uzilgan, Abdulatif mirzo kabi padarkushlik tavqila‘natidan hazar qilmay nafs tavsaniga ixtiyorini topshirib qo‘ygan, kibr, amal havosidan shishingan, ichi bo‘sh, yuraksiz, ertasidan g‘ofil, gumrohlardir.

Shunday g‘ofillardan biri Sul-ton Ali mirzo shujo‘ va mardlikdan bebahra, hukmdorlik masnadiga qo‘lda qilich va qalqon bilan emas, kaltabin onasini orqa qilib erishmoqchi bo‘ldi. Ammo bu munofiqlikni, gumrohlikning badalini joni bilan to‘lashga to‘g‘ri keldi. Bu shum taqdir haqida Bobur Mirzo shunday yozadi: “Bu besh kunluk o‘lar jon uchun yomon ot bila bordi. Xotun so‘ziga kirib, o‘zini neknomlar chargasidin chiqardi. Mundoq kishining vaqoyini mundin ortuq bitib bo‘lmas. Bu yo‘sunluq shan‘e harakotni mundin ortiq eshitib bo‘lmas”. (78-b.)

Bobur Mirzoning bu afsus-nadomatida besh kunlik o‘tar dunyoning o‘lar jonida nafsiga qul bo‘lgan Sul-ton Ali mirzoning qismatidagi orlanishgina emas, balki bobokaloni Amir Temur qon kechib, jon berib, jafo chekib bunyod etgan, temuriylarning 140 yillik poytaxti Samarqandning sha‘n-u sharafi, unda yashovchi el-ulusning taqdiri shundaylar qo‘lida qolganligidan ko‘ngli og‘rigan muallifning kuyunchak qiyofasi ham gavdalanadi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, olmoniyalik boburshunos, doktor Annamariye Shimmel: “...faol, jonli mushohada qiladigan muallifning “Vaqoye”da aks etgan dunyoqarashi, tanqidiy fikrlari, shubhasiz, Boburshoh siymosini to‘ldiradi”¹⁶⁰, – deydi.

Dunyoviy va ilohiy bilimlarni chuqur egallagan donishmand inson, beshafqat hayot sinovlari: birda g‘oliblik sururi, birda mag‘lubiyat alami, birda

¹⁶⁰ Shimmel A. Boburshoh va boburiylar sulolasining iste‘dodi haqida // Xorijda boburshunoslik. – T.: Mumtoz so‘z, 2009. – B. 124.

yo‘qotish iztirobini obdon totgan Bobur Mirzo mushohadalari haqiqatan faol, jonli, ayni paytda odil va murosasiz. Bobur Mirzo nazarida eng katta gunohlardan biri bu yaxshilikning unutilishi, yaxshilikka qilingan xiyonat, imkoni bo‘la turib yaxshilik qilmaslik. Bobur Mirzo umri davomida bunday xiyonatlarning ko‘pini ko‘radi: bu xiyonat Ahmad Tanbalga sovg‘a qilingan o‘z qilichi bo‘lib, Bobur Mirzoning manglayiga uriladi, bu xiyonat Ibrohim Lo‘diyning onasi qo‘lida zaharga aylanib Bobur Mirzo oshiga qotiladi, bu xiyonat ota-bola Ali Do‘st, Muhammad Do‘stlar qo‘liga Ahmad Tanbal tutqazgan makr quroliga aylangan paytda Bobur Mirzo o‘zi alam bilan qayd etganidek: “g‘alaba xorliqlar tortildi”, bu xiyonat mo‘g‘ul xonlari – tog‘alar qo‘lida manfaatga aylanib Bobur Mirzoni bevatan, sargardon kezdirdi.

Boburshunos olim Hasan Quدراتullayev aytganidek: “Boburnoma”dagi behisob dalillar asar muallifining o‘ta sabrli ekanligi, shu boisdan ham komil musulmon sifatida umrguzaronlik qilganini ko‘rsatadi. U hech vaqt o‘ch olish payiga tushmagan, g‘animlarni Olloh hukmiga havola etganki, ular o‘z qilmishlariga yarasha jazoga mustahiq bo‘lganlar”¹⁶¹. Ma‘rifatli Bobur Mirzo o‘zi ta‘kidlaganidek, besh kunlik umrni kin, adovat saqlash, qasd olish kabi tuban amallarga sarf qilishni istamagan. Chunki u Oliy imtihonning muqarrarligiga ishongan.

Tu badkunandayi xudro ba ro‘zgor sipor,
Ki ro‘zgor turo chokarest kiynaguzor. (126-b.)

Ma‘nosi: Sen o‘zingga yomonlik qiluvchini turmush hukmiga havola qil. Turmush senga o‘ch olib beruvchi xizmatkordir – tamoyiliga amal qilgan Bobur Mirzo shaxsiyatidagi ruhiy muvozanat, ilohiy adolat va ishonch, bag‘rikenglik va cho‘ng sabr Uilyam Erskinning “Boburshohning fe‘l-atvoridagi eng oliyjanob fazilatlar uning insonparvarligi va beg‘araz ko‘nglidir”¹⁶² so‘zlarini yana bir karra tasdiqlaydi. Yaxshilikning qadriga yetmagan, nonko‘r, xiyonatkor sifatida Bobur Mirzoning kuchli nafratiga sazovor bo‘lgan inson Sulton Mahmud Mirzoning amiri Xusravshohdir.

¹⁶¹ O‘sha manba. – B. 80.

¹⁶² Erskin U. Boburshoh hukmronligi davrida Hindiston tarixi // Xorijda boburshunoslik: (Tadqiqot, talqin va maqolalar. / Nashrga tayyorlovchi H.Boltaboyev. – T.: Mumtoz so‘z, 2009. – B. 57.

Tarxon beklarining qo‘lida eng tuban ishlarni qilib yurgan bu insonni Sulton Mahmud Mirzo muruvvat, e‘tibor ko‘rsatib, ulug‘ amir darajasiga ko‘taradi. Hisor hokimi etib tayinlaydi. Amal, boylik, qirq ming kishilik qo‘shin dabdabasidan tamomila o‘zini unutib qo‘ygan Xusravshoh Sulton Mahmud Mirzo vafotidan keyin temuriylarga nisbatan ko‘rnamaklik yo‘liga o‘tadi. Bobur Mirzo u haqda shunday yozadi: “Xusravshoh... Turkistonliq qipchoqdindur... tiyra va fosiq edi, gavdan va befahm va bevafo va haromnamak kishi edi. Besh kun o‘tar dunyo uchun bir o‘zi o‘sturg‘on valine‘matzodasini ko‘r qildi. Yana birini o‘lturdi. Tengri qoshida osiy va xalq oldida mardud bo‘lubdir. Domani qiyomatgacha la‘nat va nafrin sazovori bo‘ldi. Bu o‘tar dunyo uchun mundaq yomon ishlar qildi”. (50-b.)

Qazoqliklar, sarsongarchiliklar ichida qo‘shini bilan Xusravshoh mulkidan o‘tayotganda o‘ziga ko‘rsatilgan bezzat muomalasidan, “hamisha shuuriy va zinoga mashg‘ul elini” tartibga solish o‘rniga o‘zi bosh-qosh bo‘lib, bunday g‘ayriaxloqiy harakatlarni rag‘batlantirishidan, yosh, iqtidorli temuriyzoda amakivachchalarining umriga zomin bo‘lganidan Bobur Mirzoning “Boburnoma”da bir necha o‘rinlarda Xusravshohdan qattiq og‘ringaniga guvoh bo‘lamiz. Hatto Bobur Mirzoning Xusravshohni la‘natlagani boburnomashunoslikda olimlar tomonidan “Bobur badduosi”¹⁶³ deb alohida ko‘rsatilgan ham.

Bobur Mirzoning tili bilan aytganda, besh kunlik dunyoning sinovlari shunchalar tayinki, Xusravshohning bir umr xarislik bilan to‘plagan boyligi bir kunda sovrilib, navkarlari bilan Kobulga ketayotgan Bobur Mirzo ta‘rifiga o‘tib ketgandagi uning zabun, nochor holati “Boburnoma”ning 1503-1504-yillar voqealari bayonida eng mayda detallarigacha tasvirlab berilgan. “Xusravshohni bir yarim kunda urush yo‘q, talosh yo‘q, bizningdek qallosh va mafluk ikki yuz-ikki yuz ellik kishining qoshida andoq xor-u zor va zabun va ojiz qoldikim ne navkarig‘a ixtiyori qoldi, ne molig‘a, ne jonig‘a” (105-b.), – deb yozadi Bobur Mirzo.

¹⁶³ Qarang: Bobur badduosi. Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi. – T.: Sharq, 2014. – B.120.

Garchi Mirzoxon (Sulton Mahmud Mirzoning o‘g‘li) akalarining xunini talab qilsa-da, yer bag‘irlab yotgan insonni (Bobur Mirzo uni o‘z qarshisida “Yigirma besh, yigirma olti qatla payopay yukundi va bordi va keldi. Toliqib tamom yiqila yozdi. Necha yil qilg‘on bekligi va saltanati burunidin chiqti” (101-b.), – deydi) durustroq yanchish odatidan yiroq Bobur Mirzo Xusravshohga shafqat qiladi. “Chun ahd bo‘lib edi, Xusravshohni ozod qilib, farmon bo‘ldukim, elta olg‘oncha nimasini eltgay”. (105-b.)

Ammo Oliy imtihon barhaq, hukmi ham odil: Har kimki jafo qilsa, jafo topqusidir... Xusravshohning qilmish-qidirmishlarining yakunini “Habib us-siyar”da o‘qiymiz. Mingtacha askari bilan Qunduzga yurish qilgan Xusravshoh jangda yengilib, shayboniylar qo‘liga tushadi. Xondamir Xusravshohni o‘lim oldi sharmandali holatini shunday tasvirlaydi: “Amir Xusravshoh janoblari taqdir panjasiga asir bo‘ldi. O‘zbek qo‘shini sardori uni eshakka o‘tqazib Qunduz qal‘asiga eltdi va shu zayl shahar bo‘ylab aylantirishlarini buyurdi. Xuddi shunday qilgach, Amir Xusravshohni ilgari o‘zi maqsadi hosillik bayrog‘ini hilpiratgan mazkur shaharda qatlga yetkazdilar”¹⁶⁴.

Eshakka o‘tqazilib sazoyi qilingan Xusravshohning boshi tanasidan judo qilinib, Shayboniyxonga, Xorazmga jo‘natiladi. Bunday beizzatona o‘limning sabablarini Xondamir shunday izohlaydi: “Ul janob... (Xusravshoh – Y.K.) toshbag‘irlik va rahmsizlik bilan tavsiflangan va mulk-u davlatga erishishda ko‘ngli lavhiga faqat vafosizlik va ne‘matga kufr naqshini chizgan edi... o‘z xo‘jayini o‘g‘illaridan birini isyon nashtari bilan nobud qildi va yana birovining hayoti poydevorini javr-u tug‘yon qo‘li bilan tag-tugidan qo‘pordi. Natijada ko‘p o‘tmay, ana shu fe‘lining kasri o‘ziga urib, Allohi taoloning qasos panjasi uning martaba-yu shukuhi palosini ...ayanchli ahvolda yig‘ishtira qoldi”¹⁶⁵, – deydi.

Yuqorida Erskin ta‘kidlagandek, Bobur Mirzo har qancha oliyjanob bo‘lmasin, odamiylikka, yaxshilikka xiyonat qilganlarni, besh kunlik sinov dunyoda inson inson bilan ma‘nan va ruhan tutash degan boqiy haqiqatni unutib

¹⁶⁴ Xondamir G‘. Habib us-siyar fi axbori afrodi bashar. – T.: O‘zbekiston, 2013. – B. 1036.

¹⁶⁵ O‘sha manba. – B. 1037.

qo‘yganlarning shum qismlari oxiridan o‘quvchini xabardor qiladi: “Bir-ikki yildin so‘ng Ali Do‘stning iligiga qort chiqib o‘ldi. Muhammad Do‘st o‘zbekka kirib edi. Filjumla, yomon emas edi. Andin ham ko‘rnamaklik qilib, qochib Andijonning ko‘hpoyalarig‘a borib, yog‘iyliqlar va fitnalar angiz qildi. Oxir o‘zbek iligiga tushti. Ko‘zlarini ko‘r qildilar. “Ko‘zlarini tuz tutti”ning bu ma‘nisi bor emish” (68-b.), – deb yozadi Bobur Mirzo.

Bobur Mirzo bu ma‘lumotlarni aslo minnat ruhida yoki “kim mening yo‘linga chiqsa, shunaqa bo‘ladi” qabilida emas, balki, eng avvalo, o‘z farzandlariga, “Boburnoma” o‘quvchisiga, kelajak avlodga saboq, ibrat tarzida keltiradi. “Boburning aqidasi va hayotiy tajribasiga ko‘ra har kim qilmishidan topadi: yaxshi odam yomonlik qilishi mumkin emas, yomon kimsaga esa yaxshilik hayf, xuddi shunday vafo qilgan vafo ko‘radi, jafo qilgan jafo”¹⁶⁶. “Boburnoma”dagi katta-kichik voqealar Bobur Mirzoning ko‘zidan ko‘ngliga o‘tgan, birda uni quvontirgan, birda kuldirgan, birda hayratlantirgan, birda yig‘latgan ham. Bobur Mirzo ko‘ngli hamisha to‘kilib turadigan, ochiqko‘ngil. Voqealar tafsilotida, ularning tahlili yoki talqinida Bobur Mirzo ko‘nglida borini aytadi, munofiqlik qilmaydi, soxta andisha yo‘lini tutmaydi.

“Boburnoma”ga “Osiyoning haqqoniy tarixini aks ettiruvchi kitob” (M.Elfinston) deya baho berishgan. Bu haqqoniylik ortida Bobur Mirzoning har qanday manfaatlardan, g‘arazlardan xoli mardona shaxsiyati va pokiza ko‘ngli bor.

Adabiyotshunos Ibrohim Haqqul: “Bobur shaxsiyatiga nechog‘lik yaqinlasha olsangiz, manmanlik, kalondimog‘lik, kazzoblik va nosamimiylikdan shu qadar bezasiz. Ulug‘ Boburning shaxsiyati oqil, odil inson va insoniylik uchun zarur bo‘lgan asosiy fazilatlarni aniq belgilab beradi”¹⁶⁷, – deydi.

Bobur Mirzo uchun insoniylik tarozisining bir pallasida yaxshilik turadi. “Shuhrat bilan yodlanishni hakimlar ikkinchi umr demishlar”, – deydi Bobur Mirzo. Bobur Mirzoning fikricha, aql egasi, tafakkur, idrok sohibi bo‘lgan har

¹⁶⁶ Ochilov E. Zahiriddin Muhammad Bobur: risola. – T.: O‘zbekiston, 2012. – B. 78.

¹⁶⁷ Haqqul I. Meros va mohiyat. – T.: Ma‘naviyat, 2008. – B. 77.

qanday odam ortidan yomon xotiralar qoldirmasligi, har bir kishi dunyodan o‘tgach, tahsinlar, e’tirof va e’zoz bilan eslanadigan amallar qilishi lozim.

“Har kimdin yaxshi qoida qolg‘on bo‘lsa aning bila amal qilmoq kerak, agar ota yomon ish qilg‘on bo‘lsa, yaxshi ish bila badal qilmoq kerak” (143-b.), – deydi Bobur Mirzo. Demak, ota xatosini o‘g‘il, aka xatosini uka, opa xatosini singil qaytarmasligi kerak. Xatolarni ipdek uzish, undan zanjir to‘qimaslik kerak demoqchi bo‘ladi Bobur Mirzo. Katta xunrezliklar, yo‘qotishlar, butun boshli sulolalarning yemirilib ketishi xatolarni zanjirdek bir-biriga ulashdan yuzaga keladi. “Boburnoma”dan bunday holatga ko‘plab misollar keltirish mumkin. Shu o‘rinda bir-biriga o‘xshash vaziyatlar tasvir etilgan ikki voqeani qiyoslasak: 1496-1497-yillar voqealar bayonida Boysunqur va Sulton Ali mirzolar o‘rtasida Samarqand taxti uchun bo‘lgan jang tafsilotida: “Fath Sulton Ali mirzo sari bo‘lub, Boysunqur mirzo shikast topdi. Ahmad Hojibekni Darvesh Muhammad Tarxonning qonining tuhmati bila bezzatona o‘lturdilar” (55-b.), – deb yozadi Bobur Mirzo. Sinchkov o‘quvchi, tabiiyki, ma’lumotdagi “bezzatona o‘lturdilar”ga e’tibor qaratadi. Boburshunos Hasan Qudratullayev ta’kidlaganidek: “Biz bugun “Boburnoma”dagi ta’riflarga jiddiy e’tibor qaratar ekanmiz, har bir so‘z, ibora, jumlaning zamirida muallif qarashlarining asl mohiyati, shohning aniq shaxsga munosabatini ko‘ramiz”¹⁶⁸.

“Bezzatona o‘lturdilar” ma’lumoti mohiyatida Ahmad Hojibekning jamiyatda tutgan mavqeyining balandligi, Bobur Mirzoning esa bu shaxsga nisbatan hurmati, e’tibori ko‘rinib turibdi. Bobur Mirzoning afsus va nadomat bilan bu fojiani alohida katta xato sifatida qayd etishi bekor emas edi. Ahmad Hojibek Sulton Abusa’id davridan Movarounnahr va Xuroson siyosiy hayotida muhim o‘rin tutib kelgan, o‘n yillab Hirotdek azim shaharni boshqargan, Sulton Ahmad, Sulton Mahmud, Boysunqur mirzolar davrida ham temuriylar xonadonining manfaatlari uchun halol xizmat qilgan ulug‘ bek, tajribali lashkarboshi, Navoiyning ham yaqin do‘sti, hurmati va e’tirofini qozongan inson bo‘lgan. Bobur Mirzo ta’rifida bu insonning shaxsiy, ijtimoiy sifatleri yanada

¹⁶⁸ Qudratullayev H. Bobur armoni. – T.: Sharq, 2009. – B. 68.

yorqinlashadi: "...Xushtab' va mardona kishi edi, "Vafoiy" taxallus qilur edi. Sohibi devon edi, she'ri yomon emas edi...

Mir Alisher Navoiy Hiridin Samarqandg'a kelgan fursatlar Ahmad Hojibek bila bo'lur edi". (45-b.)

1496-1497-yillar voqealari bayonida guvohi bo'lganimizdek, Samarqand taxtiga Sulton Ali mirzoni o'tqazish maqsadida uyushtirilgan tarxonlar isyoni Ahmad Hojibek, Xoja Abulmakorim kabi beklar va nufuzli insonlar yordamida bostirilgach, Boysunqur Mirzo fitna tashkilotchisi sifatida Darvesh Muhammad Tarxonni o'limga buyuradi.

Samarqand taxti uchun aka-uka Boysunqur va Sulton Ali mirzolar o'rtasida bo'lgan jangda asir tushgan Ahmad Hojibekni Darvesh Muhammad Tarxonning qasdi uchun hurmatsizlarcha o'ldirar ekanlar, toj-u taxt ilinjida qo'g'irchoqqa aylangan Sulton Ali mirzo Ahmad Hojibekni Sulton Abusa'id davridan boshlab temuriylar xonadoni uchun qilgan mehnatlarini ko'zlari qonga to'lgan tarxonlarga eslatishga, bu jinoyatni to'xtatib qolishga o'zida kuch topmaydi, akaning xatosini uka davom ettirdi.

Holbuki, temuriylarning keyingi avlodi uchun xos holatga aylangan o'g'ilning otaga, ukaning akaga qarshi bosh ko'tarishi, qilich qayrashidan manfaatdor Shayboniyxondek qattol yov sulola kelajagiga katta xavf solib turganda, Ahmad Hojibek kabi uzoqni ko'ra biladigan siyosiy arboblardan, mohir lashkarboshilarning o'ldirilishi dushman tegirmoniga suv quyish, o'zi o'tirgan shoxga bolta urish bilan barobar edi. Adolatsiz o'lim topgan Ahmad Hojibekning qismatiga kuyungan Bobur Mirzoning so'zlarida masalaning ana shunday ikkinchi bir tomoni borligini ham sezish mumkin. 1506-1507-yillar voqealari bayonida Bobur Mirzoning boshidan o'tgan fitnaning bostirilishi bilan bog'liq holatlarda muallifning irodasi, sabri, andishasi, sog'lom mulohazasiga yana bir karra tahsin o'qiymiz. Zero, Xuroson mirzolarining Shayboniyxonga qarshi ittifoq bo'lib kurashish haqidagi da'vatlariga binoan Kobuldan jo'nab ketgan Bobur Mirzoga qarshi uyushtirilgan fitna o'zining mazmun-mohiyatiga ko'ra Boysunqur Mirzoga qarshi Samarqandda uyushtirilgan tarxonlar fitnasiga o'xshash edi. Faqat bu fitna

boshida ayol kishi, Bobur Mirzoning o‘gay buvisi Shohbegim va uning jiyani, Bobur Mirzoning yaqin, obro‘li beklaridan Sulton Sanjar barlos turadilar.

Bobur Mirzoni Ixtiyoriddin qal‘asiga qamalganligi, Badi‘uzzamon va Muzaffar mirzolarining qo‘lidan qutulib, Kobulga qaytishi mumkin emasligi haqida yolg‘on xabar tarqatib Shohbegim taxtga nabirasi Mirzoxonni (Asl ismi Sulton (U)vays Mirzo, lekin manbalarda Xonmirzo, Mirzoxon nomlari bilan tilga olinadi... Sulton Mahmud Mirzoning o‘g‘li, onasi Sultonnigor xonim¹⁶⁹) chiqarmoqchi bo‘ladi.

O‘ziga sodiq beklari, navkarlari yordamida shijoat va mardonalik bilan fitnani daf etgan Bobur Mirzo shu jarayonda naq ikki marta o‘lim bilan ro‘baro‘ keladi. Birida soqchilar dastasi boshlig‘i sovuqdan, qor ta‘siridan yuzi o‘zgarib ketgan Bobur Mirzoni tanimay unga qilich soladi, ikkinchi marta mo‘g‘ul navkarining o‘qiga duchor bo‘lishiga sal qoladi.

Ana shunday tarang bir vaziyatda Bobur Mirzo ham fitnachilarni Boysunqur Mirzo singari saltanat dushmanlari sifatida o‘limga buyurishga haqli edi. Ammo Bobur Mirzo nafaqat davlat boshqaruvida, fotihlik faoliyatida, mamlakatdorlik siyosatida, balki alohida insonlar bilan muomala munosabatida ham o‘zi uchun yaratgan oltin qoidaga rioya qiladi: “Mulkgirlikda va mamlakatdorliqta agarchi ba‘zi ishlar zohirda ma‘qul va muvajjah ko‘rinur, vale har ishning zimnida yuz ming mulohaza vojib va lozimdir”. (69-b.)

Bir umrga tatigan xatoning achchiq iztirobi o‘laroq tug‘ilgan bu oltin qoida Abdulla Qodiriy ta‘biri bilan aytganda, Bobur Mirzo uchun “turmush onasining dard chekib tuqqan to‘ng‘ich farzandi”, ulkan hayotiy saboq. Bu xulosa – Bobur Mirzoning ota yurti Andijonni ikkinchi bor qo‘ldan boy berishiga sabab bo‘lgan, garchi har qancha adolatli esa-da, ammo bevaqt, shoshilinch, bemavrid chiqargan farmoni oqibatidagi (1497-1498-yillar voqealari bayoni) yo‘qotishlarda kashf etilgan muallifning axloqiy-ma‘naviy topilmasi.

Ushbu xulosa, to‘xtam Bobur Mirzoning mamlakatdorlik siyosatida uni piri murshiddek yaxshilikka chorladi, sabrli, andishali, uzoqni o‘ylab qaror qabul

¹⁶⁹ Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi. – T.: Sharq, 2014. – B. 341.

qilishga o'rgatdi. Fitna bostirilgach, bu jam' ishtirokchilarining har biri bilan Bobur Mirzoning uchrashish sahnasini "Boburnoma"da kuzatamiz. Ana shu jarayonda fitnachilarning xijolatda (Bobur Mirzoga nisbatan nonko'rliklari uchun) o'lim vahshatida (Davlatga xiyonatning jazosi – o'lim) chekayotgan iztiroblari, qo'rquvdagi g'ayriixtiyoriy holatlari avvalo ular uchun eng og'ir jazo, o'lmasdan burun o'lish – ma'n'an o'lish bo'lganligini his qilasiz.

Tuz ichib tuzlug'iga tupurgan Shohbegim, Sulton Sanjar barlos, Muhammad Husayn dug'lat, Mirzoxon timsolida sotqinlikni, badkirdorlikni, xiyonatni yanchib tashlab, yana odamiylik, yaxshilik, insoniylik maqomini mahkam tutib turgan Bobur Mirzo qarshisida turgan, donishmand hayotga noqobil shogird bo'lgan bu kimsalarning besh kunlik o'tar dunyoning (Bobur Mirzo "Boburnoma"da ko'p ishlatgan ibora) sinovlari oldidagi mulzam qiyofalari naqadar achinarli.

Bobur Mirzoning inoyati bilan Ningarhor tumaniga hokim bo'lgan, podshoh qoshida yaxshigina nufuzga ega bo'lgan Sulton Sanjar barlosni fitna tashkilotchisi sifatida "tutib bo'ynini bog'lab kelturdilar, muztarib bo'lub qichqiradurkim, hay menda ne gunoh" (150-b.) "Boburnoma"da tasvirlangan voqealar mohiyatidagi yaxshiliklar, ezguliklar bir-biriga o'xshash bo'lganidek barcha yomonliklar, munofiqliklar ham qiyofadosh ekanligiga guvoh bo'lamiz.

1500-1501-yillar voqealari bayonida Shayboniyxon Sulton Ali mirzodan osongina Samarqandni olib qo'ygach, o'zi uchun xavfli hisoblagan Xoja Yahyo va uning ikki o'g'liga Xurosonga ketishga ruxsat bergandek bo'ladi-yu, ammo yo'lda ularni o'ldirtiradi. So'ng esa "Mening aslo xabarim yo'q" deya bu xunrezlikni beklariga to'nkaydi. Shunda Bobur Mirzo: "Uzrash battar az gunoh". Mundoq ishlarni beklar o'z boshi bila xonidin va podshohidin bevuquf qila boshlasa, bas, xonlig'ig'a va podshohlig'ig'a ne e'tibor" (78-b.), – deydi.

Sulton Sanjar barlosning shuncha ishni qilib qo'yib ham "Hay menda ne gunoh" deya qichqirishi Shayboniyxonning o'sha subutsiz bahonasini eslatadi, zero, har bir inson o'z vujudi, o'z nafsi, a'moli va amalining podshohi, begi bo'lishi kerakmasmi? Bobur Mirzo fitnachilar guruhini "jam'" deb ataydi. Jam'

jamlangan, yigʻilgan degan maʼnoni berib, bu jamlanish, albatta, maʼlum bir niyat, maslak, xohish-istak yoʻlida boʻladi.

Arastuning fikricha, "...yaxshi, yomon xatti-harakatning birinchi asosi maqsad, niyat, istak-xohish (iroda)... Tabiatdagi barcha narsalar oʻziga oʻxshash narsalarni vujudga keltiradi. Birinchi asos (yaʼni urugʻ yoki tuxum) qanday boʻlsa, ulardan vujudga keladigan narsalar ham shunday boʻladi... Inson hosilalari ham shunday. Modomiki, inson u yoki bu mohiyatli sifatlarni muayyan birinchi asoslardan hosil qilar ekan, uning qilmishlari ana shu birinchi asoslarga bogʻliq.

Inson tabiatidagi birinchi asoslarga muvofiq harakat qilar ekan, agar ana shu birinchi asoslar (maqsad, niyatlar) oʻzgarsa, harakatlari ham shunga muvofiq oʻzgaradi"¹⁷⁰. Oʻzini goʻllikka solib, suvdan quruq chiqmoqchi boʻlayotgan Sulton Sanjar barlosga qarata: "Gunoh bundin ortuq boʻlarmikim, bu jamʼ bila hamjihat va hammashvaratlardin bir ulugʻrogʻi sen" (150-b.), – deganda Bobur Mirzo eng avvalo "bu jamʼ" aʼzolari barchasining noxolis, yaxshilikni unutmagan, koʻrnamak insonlar ekanligiga, Sulton Sanjar barlos esa ana shu maqsad va manfaatlari mos kelgan hamjihat va hammashvaratlarning ulugʻi, kattasi ekanligiga ishora qiladi.

Bobur Mirzo haqiqati shundaki, Sulton Sanjar barlos, Shohbegim kabilarning u yoki bu mohiyatli sifatlari eng avvalo birinchi asosda boʻy koʻrsatar ekan, ularni gunohkor sanashga shuning oʻzi yetarli. Chunki aʼmoldagi munofiqlik hamma vaqt amaldagi oʻzining zuhurini kutib yotadi. Donishmand Arastu uqtirganidek, "Insonning maqsad, niyati, istak-xohishi oʻzgarsa, xatti-harakatlari ham shunga muvofiq oʻzgaradi"¹⁷¹. Shu maʼnoda Bobur Mirzoning Sulton Sanjar barlosga qoʻyayotgan ayblovida teran bir mantiq borligiga amin boʻlamiz. Bobur Mirzo yaxshilik va muruvvat yoʻlini tutgan holda Boysunqur mirzodan farqli oʻlaroq fitnachilarning hech birini oʻlimga buyurmaydi.

"Muhammad Husayn Mirzokim, mundoq zisht va shaniʼ harakatga iqdom qildi va bu navʼ moʻr va fitna angiz va bunyodigʻa ehtimom ayladi, agar pora-pora qilsam, yeri bor edi, turluk-turluk azob-u uqubat bila oʻlmakka sazovor edi, chun

¹⁷⁰ Arastu. Poetika. Axloqi Kabir. Ritorika. – T.: Yangi asr avlodi, 2004. – B. 147.

¹⁷¹ Oʻsha joyda.

orada bir nav' urug'luq bo'lub edi, mening tuqqan xolam Xo'b Nigorxonimdin o'g'lonlari va qizlari bor edi, bu huquqni yod qilib, Muhammad Husayn mirzoni ozod qildim" (151-b.), – deydi Bobur Mirzo. Muhammad Husaynning qilmishini nafrat bilan tilga olayotgan Bobur Mirzo o'quvchidan o'zining bu vaziyatdagi his-tuyg'ularini, ruhiy holatini, achchiq alamlarini yashirib o'tirmaydi. Muruvvat ko'rsatib bag'rini ochgan, behisob yaxshiliklaridan bahramand bo'lgan insonlarning munofiqliklaridan, ko'rnamaklik yo'lini tutganlaridan g'azablanganda ba'zan qo'li qilich dastasiga borib qolganini Bobur Mirzo xuddi yuqoridagi kabi o'zini farishta ko'rsatmay, ochiq hikoya qilar ekan, afv va kechirimlilik rasmini tutish ham undan katta ruhiy quvvat talab etganini anglab yetamiz.

Muhammad Husaynga ko'rsatilgan afv va marhamatdan Sulton Sanjar barlos ham bebahra qolmaydi. Garchi Bobur Mirzodan ko'rgan yaxshilik va hurmatini unutilib, sharafsizlarcha harakat qilgan esa-da, podshoh deydiki: "dodamning volidasi Shohbegim xoharzodasi bo'lur edi, buyurdumkim, mundoq bezzatona kezdurmang, o'lum yo'qtur"(150-b). Mavjud qaltis siyosiy vaziyatni, temuriylar xonadoni sha'nini, qavm-u qarindoshlik haqqini, xalqning va Haqning rizosini hamda shu kabi o'zi ta'kidlagandek, mulkgirlik va mamlakatdorlikning yana yuz ming mulohazasini qilgan Bobur Mirzoning yuragini tosh bo'lib ezib yotgan alam va iztiroblar yukiga qaramay ma'naviy-ruhiy immunitetining mustahkamligiga, axloqiy o'zanlarining sobitligiga, imon va e'tiqodining barqarorligiga qoyil qolmoq kerak.

Jazodan qochib qutulmoqchi bo'lgan Mirzoxonni ushlab keltirganlarida ham dovdirab qolgan amakivachchasini tinchlantirish uchun Bobur Mirzo uni bag'riga bosadi, yurakdan afv etib, unga sharbat to'la kosa uzatadi. Bobur Mirzo o'zining bayon usuli, insoniy va ijodiy tamoyiliga ko'ra zabun holatdagi fitnachilarning zohiriy qiyofalarini ularning o'sha paytdagi ruhiyatlariga monand eng mayda detallarigacha tasvirlaydi. Aytish mumkinki, bu tasvir (Bo'yniga arqon solib olib kelingan, muztarib holatda: "Hay, menda nima gunoh" deya qichqirayotgan Sulton Sanjar barlos, qo'rqqandan panohni xotinlarining xobgohidan izlagan Muhammad Husayn dug'lat, o'lim vahshatidan oyoqlarida kuch qolmay, hadeb yiqilib

tushavergan Mirzoxon, “behad va beqiyos muztarib va munfail va sarafkanda va xijillikdan soqovga aylangan Shohbegim) cheksiz nafrat, zaharxanda, kinoya, alam, iztirob, g‘azab, og‘riq, jirkanish, achinish, ranj kabi muallif histuyg‘ularining so‘zga ko‘chgan ifodasida kitobxon fitnachilarning ayanchli qiyofasi bilan birga aynan ular timsolida xiyonatning sharmandali mag‘lubiyatini ham kuzatadi.

“Asar voqealarni Boburning samimiyat yoritib turadi. Uning deyarli har bir so‘zida jumlasida, hukmfarmolikni o‘ziga oliy maqsad bilgan, saltanatga mukkasidan ketgan hokimiyatparastning emas, jami insonlarga yaxshilik qilmoqni o‘ziga shior hisoblagan, adolatni bayroq tutgan, adolatparast bir qalbning sadosini eshitganday bo‘lamiz”¹⁷², – deydi adabiyotshunos Begali Qosimov.

Bobur Mirzo, eng avvalo, adolatparvar edi. U adolat, sadoqat, vafo parvarishini eng avvalo o‘zidan boshlaydi. Ko‘p muhtojliklar, xorliklar tortib, viloyatsiz, viloyat umidisiz yurgan paytlarida qulay imkoniyatlar tug‘ilganida ham xon dodalariga xiyonat qilmaydi, qavm-u qarindoshlik andishasini qiladi.

Zinhorki, do‘stlikni unutmag‘aysen,
Tuqqonlig‘din ko‘ngilni sovutmag‘aysen.
Yotlar bila dushman tarafin gar tutsang,
Tuqqonlig‘-u do‘stlig‘ tama’ tutmag‘aysen! –

deb yozadi Bobur Mirzo.

Ruboiyda biz muallim va murabbiy Bobur Mirzo sabog‘ini tinglagandek bo‘lamiz. Eng e‘tiborlisi, butun hayoti davomida “do‘stlikni unutmag‘on”, “tuqqonlig‘din ko‘ngilni sovutmag‘an”, kerak bo‘lganda insoniy muruvvati, hukmdorlik marhamati bilan yotlarni-da do‘stlar qatoriga qo‘shgan, “aqlga makrni, adolatga, jahl va zo‘ravonlikni, el-u ulus ishonchiga yolg‘on va aldovni aralashmagan”¹⁷³ Bobur Mirzoning ma‘rifati samimiyati bilan uyg‘un edi.

Ma‘lumki, “Boburnoma”da muallif temuriylar saltanatida ro‘y bergan padarkushlik, farzandkushlik, birodarkushlik kabi og‘ir gunohlar tarixini ham

¹⁷² Qosimov B. Uyg‘ongan millat ma‘rifati. – T.: Ma‘naviyat, 2011. – B. 116.

¹⁷³ Haqqul I. Meros va mohiyat. – T.: Ma‘naviyat, 2008. – B. 98.

bayon qiladi. Bobur Mirzo saltanat sha'niga qora dog' bo'lib tushgan, temuriylar dushmanlarining tilini uzun qilgan (Atodin bordir o'g'il noxushnud, Atoni o'g'ul etay der nobud, Ato ham bordur o'g'uldin bezor, O'lturur o'g'lini yig'latib zor¹⁷⁴), qo'l kelgan bunday illat urchigan, ildiz otib, tomir yoygan zaminning ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy, maishiy-iqtisodiy ob-u havosini kitobxonga aniq yetkazib beradi.

Bobur Mirzo farzandlarini, xususan, taxt vorisi Humoyunni ana shunday chirik, bo'shtob zaminga zinhor ba zinhor oyoq qo'yaslikka da'vat etadi: "Agar mening olimdag'i rizomni tilarsen, ... kunda ikki navbat iningni va beklarini ixtiyorlarig'a qo'ymay qoshingga chorlab, har maslahat bo'lsa, kengashib, bu davlatxohlarning ittifoqi bilan har so'zunga qaror bergaysen. Ining bila (Komron nazarda tutilyapti – Y.K.) yaxshi maosh qilgaysen. Ulug'lar ko'tarimlik kerak, umidim borki, sen ham yaxshi ixtilot qilg'aysen. Aning ham mutasharri' va yaxshi yigit qo'pubtur, ul ham mulozamat va yakjihatliqta taqsir qilmag'ay". (243-b.)

Ko'rib turganimizdek, yirik bir imperiya asoschisi, hukmdor, toj-u taxt taqdiriga mas'ul shaxs, ayni paytda fidoyi ota sifatida Bobur Mirzoni eng ko'p tashvishga solgan jihat farzandlari o'rtasidagi mehr-oqibat, ularning o'zaro munosabatlari masalasi bo'lgan. Yuqorida keltirgan ruboiyimiz Bobur Mirzoning ana shunday o'y-xayollari, muammoli kechinmalari mahsuli o'laroq dunyoga kelgan bo'lsa, ajab emas. Aytish mumkinki, ruboiyda Bobur Mirzo do'stlik va qarindoshlik shartining falsafiy negizini ochib bergan. Falsafa fanida erkinlik va zaruriyat degan juft kategoriyalar ikki tushunchaning dialektik birligida o'rganiladi. Falsafa fani doirasidagi "zaruriyat" atamasi etika – axloqshunoslik ilmidagi "burch" tushunchasi bilan mos keladi, aksariyat shu so'z bilan yuritiladi. Etikaning asosiy kategoriyalardan biri bo'lgan burch insonlar orasida alohida axloqiy munosabatlar majmuyini o'z ichiga oladi. Barcha kishilarga joriy qilinadigan axloqiy talab (axloq normasi) shu vaqtda burch formasiga kiradiki, bu

¹⁷⁴ Solih Muhammad. Shayboniynoma (Doston). – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1989. – B. 34.

talab muayyan individning tutgan mavqeyiga va biron-bir konkret vaziyatga tatbiqan uning shaxsiy vazifasiga aylanadi”¹⁷⁵.

Zinhorki, do‘stlikni unutmag‘aysen,

Tuqqonlig‘din ko‘ngilni sovutmag‘aysen.

Demak, ruboiyning dastlabki misralarida ta‘kidlanganidek, do‘stlik maqomidagi yoki tuqqonliq-qavm-u qarindoshlik mavqeyidagi inson o‘rtasidagi munosabatlarning iliqligini, barqaror va bardavomligini ta‘minlovchi talab va shartlarni burch darajasida qabul qilishi, bajarilishini esa shaxsiy vazifasiga aylantirishi lozim. Bobur Mirzo ana shu lozimlikni ham “zinhorki” so‘zi bilan mustahkamlab qo‘ygan. Guvohi bo‘lganimizdek, burch zaruriyat sifatida yuz ko‘rsatyapti. Zaruriyat esa bajarilishi shart. Bu – axloq talabi.

“Shaxs bunda axloqning faol subyekti sifatida maydonga chiqadi va uning o‘zi anglab tushungan holda o‘z faoliyati bilan axloqiy talablarini amalga oshiradi”¹⁷⁶. Ammo hamma vaqt ham ko‘zda tutilgan qarindoshlik, do‘stlik, yaqinlik burchlari bajarilmasligi, hatto butunlay teskari holatlar ro‘y berishi mumkinki, “Boburnoma”da ko‘plab taqdiralar misolida bunga guvoh bo‘lamiz (Xusravshohning Sulton Mahmud mirzo o‘g‘illariga xiyonati, Ali Do‘st, Boqi Chag‘ayoniylarning Bobur Mirzoga qilgan nohaqliklari, Sulton Ali Mirzo va onasi Zuhrebegimlarning saltanatga nisbatan xoinliklari). Bunday hollarda nafaqat ayrim shaxs, inson hayotiga, balki butun boshli jamiyat hayotiga putur yetadigan amallar yuzaga keladi. Dushmanga bag‘ir ochib, o‘zinikilarining yuziga oyoq qo‘ygan, yaqinlarining mehrini, ishonchni yo‘qotganlar, yolg‘izlikka, tez sinishga, tushkunlikka mahkum. Do‘stlikka, tug‘ganlikka xiyonat qilganlarning bu maqom va mavqelarda haq talab qilishga, ta‘ma etishga haqqi yo‘q. Bobur Mirzoning bu boradagi hukmi qat‘iy jaranglaydi:

Yotlar bila dushman tarafin gar tutsang,

Tuqqonlig‘-u do‘stlig‘ tama’ tutmag‘aysen.

¹⁷⁵ Filsofiya lug‘ati. – T.: O‘zbekiston, 1976. – B. 80.

¹⁷⁶ O‘sha joyda.

Tariqat arkonlariga binoan Do‘st deganda Oллоh nazarda tutilganligini hisobga olsak¹⁷⁷, Bobur Mirzoning “Zinhorki, do‘stlikni unutmag‘aysen” misrasining ma‘no-mohiyati yanada teranlashadi. Zero, Do‘st (Oллоh) yodi, zikri bor ko‘ngilda, albatta, yon-atrof qavm-u qarindosh, yor-u birodarning ham o‘y-xayoli, mas‘uliyati va mehri bo‘lishi tabiiy.

Taqdir sinovlaridan yozg‘irish, davron shikvalaridan ozorlanish, zamon va zamona ahlidan nolish motivlari Bobur Mirzo she‘riyatida bot-bot uchrasa ham, “Boburnoma”da biz muallifning kurashchan, faol, metin iroda sohibi sifatidagi cho‘ng qiyofasini ko‘ramiz. Kobuldagi fitna tafsilotlari bayonida Bobur Mirzoning qalb g‘alayonlari, ko‘ngil jarohatlari shu darajada samimiyat, rostgo‘ylik, adolat mezonlarida ochilgan. Bu o‘rinda Bobur Mirzo yozmaydi, balki to‘kiladi. Ko‘ngilning qog‘ozga to‘kilishini hassos shoira: “Men og‘ir bulutdek bir yog‘ib oldim”¹⁷⁸ deya sharhlagan.

Mana o‘sha to‘kilish: “Necha qatla ham kim, zamona nohamvorlig‘idin va davron nosozkorlig‘idin va taxt va mulk va savdardin ayrilib, alarg‘a iltijo etdim, onam ham bordi, hech nav’ rioyate va shafqate ko‘rmaduk. Mening ishim Mirzoxonning va onasi Sulton Nigorxonimning ayn va ma‘mur viloyatlari bor edi, men va onam viloyat xud tursun, bir kent va bir necha qush egasi bo‘la olmaduk. Mening onam Yunusxon qizi va men nabirasi emasmu edim?” (151-b.)

Ko‘rib turganimizdek, kichik bir matnda muallif qalbida kechayotgan ulkan buhron shiddati, adolatli mushohada va munosabat, ma‘rifatga chog‘ishgan olijanob kechinma, armon, iztirob tuyg‘ulari jo bo‘lgan. “Haqiqiy badiiy asar – mukammal, murakkab tarkib (struktura). U matn tarzida yaratiladi. Matnning pishiq-puxtaligi avvalo san‘atkor iste‘dodiga, aytmoqchi bo‘lgan gapining haqqoniyligiga, so‘zlarga yuklatilgan ma‘noning salmog‘iga, maromning tovlanishi, tuslanishiga bog‘liq, mukammal matn yaratish ilmiy-ijodiy izlanish demak”¹⁷⁹, – deydi adabiyotshunos Abdug‘afur Rasulov.

¹⁷⁷ Qarang: Homidiy H. Tasavvuf. Qaraniydan RumiYGacha. – T.: Yangi asr avlodi, 2021. – B. 62.

¹⁷⁸ Qarang: Shoira Zulfiya sabri. “Xotiram siniqlari” dostonidan. Saylanma/ Zulfiya. – T.: Akademnashr, 2015. – B. 240.

¹⁷⁹ Rasulov A. Badiiylik – bezavol yangilik. – T.: Sharq, 2007. – B. 44.

Bobur Mirzoning mukammal matn yarata olish iste'dodi – “Boburnoma”ning jahoniy shuhratini ta'min etgan omil. U (Bobur Mirzo – Y.K.) proza tilini o'zigacha hech bir ko'rilmagan darajada yuqori bosqichga ko'tardi. Bu asar tilining soddaligi, fikrni aniq va lo'nda ifodalash, puxtaligi, oddiy, jonli tilga xos tabiiyligi va mazmuni ixcham aks ettira olishi bilan hozirgacha ham kishini hayratda qoldiradi”¹⁸⁰.

O'zining adabiy-tanqidiy qarashlarida ham asarda “mazmun va ustuxonbandlig” masalasiga alohida qaragan Bobur Mirzo qalamga olayotgan voqealari, ma'lumotlari tabiati, mazmun-mohiyatidan kelib chiqib, mos bayon usulini ham to'g'ri tanlay bilgan. Kobuldagi yaqinlari uyushtirgan fitnadan ta'sirlangan Bobur Mirzo o'tgan umrini sarhisob etarkan, go'yo “Boburnoma” o'quvchilarini saroyining chalkash, murakkab hayotida yuz bergan kirdikorlarning tub sabablarini topishga undab, bu g'irrom o'yinlarida o'zining pok, hur fikri bo'lganini, yomonga yomonlik bilan emas, murosamadora, aql va ma'rifat bilan javob berganini alohida uqtirish”¹⁸¹ uchun ham bayonda qiyos usulini tanlaydi.

Kitobxon matndan muallif kutgan ma'rifatni o'zida tuyish, hosil qilishi uchun biz uni chizmada qiyos nuqtayi nazaridan shartli ravishda “Bobur Mirzo“ va “Ul tabaqa” deb nomlangan tomonlar tutumida ko'rsatishga harakat qildik.

Qiyos holatidan kelib chiqib matn butunligiga putur yetganda ham strukturaviy mutanosiblik tufayli ma'no yaxlitligi, ma'lumotlar izchilligi to'la saqlanib qoladi. Qiyosiy-struktural tahlilda tomonlarning axloqi, ma'naviyati ravshan ko'ringandek Bobur Mirzoning matn yaratish iste'dodiga xos aniqlik, muxtasarlik, ta'sirchanlik yaqqol ko'zga tashlanadi (2-ilova).

Yuqoridagi qiyos orqali bir xil hayotiy vaziyatda ikki xil tutum, ikki xil harakat ziddiyat – antiteza holatida ko'rsatilyaptiki, bunda Bobur Mirzoning “yaxshilikka yaxshilik – hammaning ishi, yomonlikka yaxshilik – mard kishining ishi” qabilidagi hayotiy pozitsiyasi yuzaga chiqqan.

¹⁸⁰ Nazarova X. Bobur va o'zbek adabiy tili. – T.: O'zbekiston KPMK. – B. 25.

¹⁸¹ Qudratullayev H. Bobur armoni. – T.: Sharq, 2009. – B. 70.

Matndagi fikrlar va mushohada maromiga ko‘ra, “Bayonning men formasi muallifning tasvir obyektini chetdan kuzatmasdan, balki tasvir obyektining o‘zida turib, uni ichdan yoritish tasvirdagi qahramonlar bilan yonma-yon, ular mansub muhitning vakili bo‘lishini taqozo etadi. Hikoyachi qahramon, asosan, o‘z ruhiy dunyosi – qalb olamiga “kira oladi”, uni tasvir obyektiga aylantiradi”¹⁸².

“Boburnoma”ning biz tahlilga tortayotgan o‘rinlarida kitobxon Bobur Mirzoning tasvir obyektiga aylangan qalb olamiga yovuq kirib boradi.

“Boburnoma”da u yoki bu voqea, holat sabab Bobur Mirzoni mutaassir, ba’zida ko‘zida yosh bilan ham uchratgan vaziyatlarimiz bor. Ammo o‘quvchini ham alamlar girdobiga tortadigan muallif “men”ida to‘lib-toshib turgan, bu qadar iztirob dardi, qon silqib turgan qalb jarohati, insondan omad yuz o‘g‘irganda xorliklar, kamsitilishlar, poymollashlardan ko‘ngilda qolgan qabariqlarni oynadagidek aksini Bobur Mirzoning fitna voqealari bayoni sabab uyg‘ongan achchiq xotiralaridagina ko‘ramiz.

Bu xotira siniqlari qalqiganda asar muallifining ham, uning o‘quvchisining ham yuragini tirnaydi. Nega shunday? Nega aynan shu o‘rinda muallif iztiroblari o‘ta yuqumli?! Negaki unda Bobur Mirzo “Agar qazoqliklarda va fatoratlarda mening bilan billa edilar” deb eslagan, Umarshayx Mirzo vafotidan so‘ng juda erta taxt, toj minnatini gardaniga olgan valiahd o‘g‘lining mas’uliyatida qorishgan, “zamona nohamvorlig‘idin”, “davron nosozkorlig‘idin” bir dam tin olmagan, jondek qizini jonidan sug‘urib xonadon dushmaniga topshirgan, taxtsiz, mulksiz, navkarsiz va savdarsiz qolgan o‘ta sabiy podshoh o‘g‘lining talx qismatida ko‘p sho‘rishlar tortgan mushtipar, ammo mardona, fidoyi ona – Qutlug‘ Nigorxonimning munis va mo‘tabar siymosi jonlangan. Bobur Mirzo “Boburnoma”da onasi haqida uzoq, maxsus ma’lumotlar berib o‘tirmaydi. Buvisi Eson Davlat begimga bergan tavsifi kabi Qutlug‘ Nigorxonimning fazilatlarini alohida qayd etmaydi. Ammo uning xotiralari orqali ham Bobur Mirzoning farzand sifatida onasiga bo‘lgan cheksiz mehrini, undan toabad minnatdor qiyofasini aniq tasavvur etish mumkin.

¹⁸² Nosirov O‘. Ijodkor shaxs, badiiy uslub, avtor obrazi. – T.: Fan. – B. 186.

Bobur Mirzo Vatandan bosh olib ketayotganda “Aksar yayoq va iliklarida tayoq va oyoqlarida choruq va eginlarida chopon” umidvorlik ila unga ergashib chiqqan ikki-uch yuz sadoqatli insonlar bilan Qutlug‘ Nigorxonim birga edi. “Usrat bu martabada edikim, bizning orada ikki chodir edi. Mening chodirim validamg‘a tikilur edi. Manga har yurtda olacho‘q yasar edilar, olacho‘qda o‘lturur edim” (102-b.), – deb yozadi Bobur Mirzo.

Ko‘rondagi birgina chodir o‘ziga tikilganda olacho‘qda o‘tirgan tojsiz, taxtsiz podshoh o‘g‘lining qorong‘i qismatiga kuyungan, ammo uning kelajagiga katta ishonch bilan qaragan Qutlug‘ Nigorxonim Bobur Mirzoning yaxshi kunlariga yetib kelolmadi. Bu esa Bobur Mirzoning buyuk armonlaridan biriga aylandi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, Kobul fitnasini bostirib, unga xayrli yakun yasab, bahor sayriga otlangan Bobur Mirzoning nekbin nigohi Gulbahor tog‘ etaklariga, erkalik bilan yastangan yashil tabiat, yoqut piyola kabi ochilgan anvoyi lolalarda bo‘lsa-da, xiyonat, fitna sabab qalbida uyg‘ongan jarohat og‘riqlari uni hali tark etmagan edi. O‘sha qalb, o‘sha ko‘ngil suratini rost chizishga odatlangan Bobur Mirzo yozadi: “Ushbu sayrga kelganda bu g‘azalni tugattim: Mening ko‘nglimki gulning g‘unchasidek tah-batah qondur, Agar yuz ming bahor o‘lsa, ochilmog‘i ne imkondur”. (152-b.) Mushtipar onasi oldida o‘tab ulgurmagan farzandlik burchi, qarzdorlik ranji Bobur Mirzo ko‘nglining qon silqib turgan jarohatli qatlaridir.

Oradan besh asr o‘tib, XX asr o‘zbek she‘riyatining hassos vakili Mirtemir Bobur Mirzo tuygan armonlar yukida ezilganda, o‘zining “Onaginam”ida bu tuyg‘uni g‘ashlik deya ataydi va uning moddiylashgan suratini shunday chizadi: “Tovonimga chaqir tikanakday botguvchi – g‘ashlik, Bedavo sizloviqday sizlatguvchi – g‘ashlik, Suyaklarimni sirqiratib, och tevatday g‘ajiguvchi... g‘ashlik”¹⁸³. Ehtimol, Bobur Mirzo ana shu g‘ashlik va armon yuklarini yengillatish uchun ham podshoh o‘g‘lining farovon kunlarga yetib kelolmagan onasining xotirasi, yodi haqqi o‘gay bo‘lsa-da, buvisi Shohbegimga yer, mulk inoyat qilib, hurmat va e‘zozlar ko‘rsatib, bu kayvoni ayolning xiyonatkorona qilmishlarini

¹⁸³ Karimov N. Mirtemir. – T.: MERIYUS, 2012. – B. 212.

kechirib, avvalgidek adab va ta'zim bilan muomala qiladi. "Shohbegim va xonim behad va beqiyos muztarib va munfail va sarafkanda va xijil bo'libturlar, ne ma'qul uzr ayta oladurlar, ne mushfiqona so'rmoq tarhin sola oladurlar, bulardin tamayim mundoq emas edi" (151-b.), – deb yozadi Bobur Mirzo. Xiyonatkor Shohbegim va xolasining mulzam qiyofalarini mohirona chizgan Bobur Mirzo "bulardin tamayim (ya'ni kutganim, umidim) bu emas edi" deya o'z odatiga ko'ra gapni qisqa qiladi.

Aynan shu vaziyat bilan bog'liq tasvirlarning davomini biz "Tarixi Rashidiy"da kuzatishimiz mumkin. Bir oqibatli farzand maqomida turgan Bobur Mirzo bu ayollardan umidi, kutgani nima ekanligini shunday bir xatti-harakatda ko'rsatadiki, uning ana shu harakati va boburona lutfi Shohbegimni tamomila yer bilan yakson etadi, ma'nan mahv etadi: "Shohbegim podshohni ko'rgach, xijolat bo'lib, tiliga biror so'z kelmay qoldi. Bobur podshoh tiz cho'kib, adab rasmiga rioya qilgan holda muloyimlik bilan: "Agar muhtaram ona o'g'illaridan birortasiga mehribonlik ko'rsatsa, boshqa o'g'il qanday qilib bundan xafa bo'lsin? Onaning har qanday istagi farzandlar uchun qonundir" dedi-da, tag'in qo'shib qo'ydi: "Men tun bo'yi uxlamay, uzoq yo'l bosib keldim", deya uxlash uchun boshini Shohbegimning quchog'iga qo'ydi"¹⁸⁴, – deb yozadi Haydar Mirzo.

"Besh kunlik dunyoning o'tkinchi hoy-u havaslari: toj-u taxt, saltanat dag'dag'asi, hukmdorlik masnadi nima bo'lipti, mana bu aziz bosh, shirin jonni sizga ishondim" ma'nosidagi bu harakatda dunyodagi eng xavfsiz go'sha – onasining issiq bag'rini sog'ingan, uning daldasiga, ruhiy rag'batiga, mehr chashmasiga ehtiyojmand, o'zi podshoh-u ammo bir zum bo'lsa-da, bola bo'lib qolishni istayotgan Bobur Mirzoning qabihlik, munofiqliklardan charchagan qiyofasini ko'ramiz.

"Axloqi muhsiniy"da ta'kidlanganidek, "...jahongir podshohlar gunohkordan sodir bo'lgan yomon ishlar uchun ularga jazo berishni ko'ngillaridan chiqarishlari va bu xijolatga qolganlar ustidan qudratli bo'lganlarida ularni afv bashorati bilan

¹⁸⁴ Muhammad Haydar Mirzo. Tarixi Rashidiy. Tarjimonlar: Vahob Rahmonov, Yanglish Egamova. – T.: Sharq, 2010. – B. 309.

xursand qilishlari kerak. Bu esa mamlakatlarni zabt etuvchi podshohlar va oqil shahanshohlar odatlari va yo‘llaridir”¹⁸⁵.

Katta-katta mamlakatlarni qo‘lga olib, jahongirlikka da’vo qilayotgan podshohlar, hukmdorlar, eng avvalo, o‘z qo‘l ostidagi insonlarning ko‘nglini ola bilishi, yaxshi-yomoni, o‘g‘risi va to‘g‘risi bilan oqilona munosabat o‘rnata olishi kerak degan dono fikr bilan tanishar ekanmiz, nafaqat Kobul fitnasida, balki butun siyosiy-ijtimoiy-maishiy hayotida ham aynan shu o‘gitga amal qilgan Bobur Mirzo butun dunyoning ko‘zga ko‘ringan hukmdorlari ichida bejiz dilbar shaxs, madaniyatli va jozibador insonlarning eng yetugi (Javoharla’l Neru), Sharq-u G‘arbning sharaflil hukmdori (Herman Vamberi) deya e’tirof etilmaganligiga ishonamiz.

“Boburnoma” so‘ngida musavvidi avroq (kitobni ko‘chiruvchi noma’lum kotib) tomonidan Bobur Mirzoning sakkiz sifati sanaladi. Shulardan biri Tengri ta’olo bandalariga rafohiyat, ya’ni yaxshilik, olijanoblik ko‘rsatishdir. Bobur Mirzo – a’moli va amalini yaxshilikka burkab yashashni o‘zining insoniy, ijtimoiy, axloqiy-ma’naviy kredosiga aylantirgan zot. “Boburnoma” sahifalarida esa muallif aynan o‘zining ana shu hayotiy kredosidan kelib chiqib tarixiy shaxslarga baho berar ekan, “ijtimoiy turmush uchun, jamiyat, aholi, fan, madaniyat uchun biror foydali ish qilgan odamnigina yaxshi e’tirof qiladi”¹⁸⁶.

Bobur Mirzo yaxshilikni nafaqat ayrim shaxslarning tabiatida, amali faoliyatida e’tirof etadi, balki o‘zining sargashta, behalovat hayotida yorug‘ iz qoldirgan, dunyoda yaxshilik, insoniy oqibat poyidor ekanligini eslatgan, kelajakka umid bergan, qaddini rostlab olishga imkon bergan shaharlar, viloyatlar, kentlar misolida ham e’tirof etadi. “Boburnoma”da Bobur Mirzoning o‘zi mehr va ulkan rizolik hissi bilan tilga olgan uchta maskan bor. (7-ilova). Bulardan biri Dizak – hozirgi Jizzax shahri. Olti oylik qamaldan so‘ng Samarqandni Shayboniyxonga qoldirib Andijon tomon yo‘l olgan Bobur Mirzo Dizakdan o‘tadi. Shu o‘rinda

¹⁸⁵ Koshifiy H. Futuvvatnomayi sultoniyy. Axloqi muhsiniyy. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2011. – B. 178.

¹⁸⁶ Zohidov V. Boburning faoliyati va adabiy-ilmiy merosi haqida. So‘zboshi. Bobur, Zahiriddin Muhammad. Boburnoma. – T.: O‘zbekiston SSR, Fan, 1960. – B. 9.

Bobur Mirzoning jozib fitratini o‘quvchiga yanada yaqinroq namoyon qiladigan bir holatni “Boburnoma”da eslagimiz keladi: “... Xoja Diydordin o‘tub, sunnat vaqtida Qorbug‘ pushtasig‘a yormashtuk. Qorbug‘ pushtasining shimolidin Xudak kentining oyog‘i bilan Ilon o‘tini (Samarqand bilan Jizzax o‘rtasida joylashgan dara – Y.K.) tuslab tebraduk” (86-b.), – deya yozadi Bobur Mirzo.

Otda ketaturib Bobur Mirzo beglari Qambar Ali va Qosimbek bilan poyga o‘ynashadi. Garchi kutilmagandagi harakati tufayli Bobur Mirzo otdan boshi bilan yiqilib, shu kuni to oqshomgacha o‘ziga kelolmay yursa-da, poygada yutadi. O‘ylab qolasiz: navkarsiz, savdarsiz, toj-u taxtsiz, mamlakatsiz qolgan Bobur Mirzoning ko‘ngliga poyga qanday sig‘di ekan? Saripul jangidagi yutqiziq. Eng tajribali beklarning bu jangdagi halokati, tiriklarining ko‘pchiligi Bobur Mirzoni tashlab ketishi, olti oylik qamal azobi, najotsizlik, imkonsizlik, ochlik ofati, oshsiz, nonsiz, suvsiz qolgan xalqning mas‘uliyati, eng so‘ngida esa Samarqand taxtiga qo‘shib jigari Xonzodabegimni ham dushman qo‘liga topshirilishi kabilar...

Bunday yutqiziq va yo‘qotishlarning zil-zambil yuki endigina 19 ga kirgan Bobur Mirzoning yelkasini ezib, yuragini qon qilib yubormadimi? Ehtimol, Bobur Mirzo Samarqand xayoli-yu havasi bilan bog‘liq shuncha armon, iztiroblarning yukini yelkasidan ham, yuragidan ham yulib tashlab, ko‘ksining qay bir yorug‘ nuqtasida hali imkon bor deya shivirlayotgan ko‘nglini shu azobli o‘ylar girdobidan qutqarish uchun ham otiga qamchi urgandir. Mahrami asror – ko‘ngli bilan yolg‘iz qolish uchun poyga tashkil etgan bo‘lsa, ajab emas.

Zohirda poyga bo‘lib ko‘ringan, aslida, alamli o‘ylar, ruhiy og‘riqlar, iztirob azoblaridan xalos bo‘lish ehtiyojini Bobur Mirzo shu tariqa qondirmadimikan?

Ahbob yig‘ilmog‘ini farog‘at deb bilgan, jam bo‘lishni, jamiyat borligini davlat deb bilgan Bobur Mirzo ruhiyatida ahyon-ahyonda shunday bir yolg‘izlikni qo‘msash, o‘z o‘y-xayollari, o‘z ko‘ngli bilan yakka qolish istagi kuzatiladiki, “Boburnoma” sahifalarida muallifni biz shunday vaziyatlarda uchratamiz. 1527-1528-yillar voqealari bayonida Bobur Mirzo shunday yozadi: “Yakshanba kuni Sepandarada Raviy Servaniyning uyiga tushtuk. Oshlar tortilib, xizmatgorlik qildi. Andin subhdin burun otlanildi. Yo‘lda bir bahona bila eldin ayrilib, chiqa solib,

Agraning bir kuro‘hig‘acha yolg‘iz keldim. El andin so‘ng keyindin kelib qo‘shildi”. (232-b.) Albatta, bunday payt Bobur Mirzo uchun saltanat tashvishdagi “loyqa xayolotlar tinib, ko‘ngil orom oladigan, tafakkur tiniqlashib ruh tetiklashadigan onlar bo‘lgan. Shuning uchun bo‘lsa kerak adabiyotshunos Ibrohim G‘afurov: “Boburning yuragida hech so‘nmagan bir durdona, bir muqaddaslik bor. Bobur qaysi holatda, qanday ahvolda bo‘lmasin, o‘zini mudom va qat‘iy suvratda yaxshilikka chorlaydi. Uning yaxshiligi mardlik, adolat va ochiq ko‘ngillikdir. U o‘zini doimo yaxshilikka chog‘lagani uchun ham hech bir qiyinchiklardan qo‘rqmaydi. Ular qarshisida chekinmaydi. Umidsizlikka tushmaydi”¹⁸⁷, – deydi.

Olimning fikrlariga to‘liq qo‘shilgan holda Bobur Mirzoning podshoh ko‘nglidagi cho‘ng qanoat va buyuk shukronalik borligini ham qayd etmoq lozim. Bobur Mirzo aynan ana shu shukronalik tuyg‘usi tufayli atrof-olam yaxshiligini tez ilg‘aydi, har bir holatda yaxshilikni kashf etadi va uni chin dildan e‘tirof etadi. Shunday e‘tirof namunasi o‘laroq uzoq cho‘zilgan qamal, ochlik, muhtojlik azobi, mag‘lublik iztiroblaridan ezilib kelayotgan Bobur Mirzo va uning hamrohlariga ko‘rsatilgan hurmat, saxovat, insoniy qadr-qimmat uchun Jizzax eli (“Boburnoma”da Dizak) “Boburnoma”da minnatdor muallifning katta bir samimiyati bilan tilga olinadi. Bobur Mirzo yozadi: “semiz etlar va mayda etmaklar arzon, chuchuk qovunlar va yaxshi uzumlar farovon. Andaq usrattun mundoq arzonliq va andoq baliyattin mundoq amonliqqa kelduk. O‘lum dag‘dag‘asi xotirdin raf‘ bo‘lub, ochlik shiddati eldin daf bo‘ldi, umrumizda muncha farog‘at qilmaydur eduk”. (86-b.)

“Boburnoma” o‘quvchisi bu e‘tirof orqali nafaqat Bobur Mirzoning yaxshilikni o‘z vaqtida tan olishi, qadrlashi, uni munosib baholashdek odatidan xabardor bo‘ladi, balki olis XV asrda ham iqtisodiy, ijtimoiy, qishloq xo‘jaligi rivojlangan, bog‘dorchilik, chorvachilik, ziroatchilik sohalarida peshqadam, hunarmandchilik, savdo-sotiq ishlarida baravj go‘shalardan bo‘lgan Jizzax (Dizak) haqida ma‘lumot ham oladi.

¹⁸⁷ G‘afurov I. Asarlar. Adabiyot dunyosi: sakkiz jildlik. Beshinchi jild. Hayo – xaloskor. – T.: Yangi asr avlodi, 2022. – B. 324.

Zero oradan besh asr o'tib, Zahiriddin Bobur qadamjolarini ziyorat qilish uchun yo'lga chiqqan "Bobur izidan" xalqaro ekspeditsiyasi Jizzax zaminidan ham o'tadi. Ekspeditsiya a'zosi, yozuvchi Qamchibek Kenja go'yoki bu yurt kengliklariga, tabiatiga, ne'matlariga Bobur Mirzo nigohi ila boqayotgandek: "Tabiatning so'limligi, havosining musaffoligi... Adirlar qorsiz, yam-yashil edi, go'yo bahor boshlanayotganday – dekabr oyida, chilla eshik qoqayotgan pallada-ya!... Lekin Allohning qudrati, tabiatning tantiligini qarangi, saldan keyin ro'paramizdan "xomtama bo'lmang, qih buyoqda", deganday qorli tepalik bo'y ko'rsatdi. Baxmalsoydan tushgandan so'ng, yo'lning ikki betida sariq, ko'k, shuningdek, rangini ifodalashga "qip-qizil" degan sifat ham ojiz olmalar maxsus yashik-taxtalarga bir qator qilib, o'ta hafsala bilan, kim osharga terib qo'yilgan... Olma xarid qilish niyati bo'lmagan kimsalar ham albatta suqlanib qarab o'tishardi. – Jannat olmalari, – deydi Muhammad Sodiq havasini oshkor etib.

Ha, bular olis ajdodlari obi kavsardan suv ichgan bo'lsa-da, O'zbekiston zaminida yetishgan, yetilgan sarxil mevalar edi... Sangzor bo'yida olmaxo'rlik qildik"¹⁸⁸, – deya taassurotlarini bitadi yozuvchi. Bizning kunlarda ekspeditsiya a'zolarining ko'zini quvontirib, tanasini yayratgan, Jizzaxning unumdor tuprog'i, toza havosida yetilgan sarxil mevalarning olis ajdodlari besh asr burun ham o'zining asaldek mazasi, betakror ta'mi bilan Bobur Mirzoni hayratga solgan. Shuning uchun ham "Andijon noshpotisi", "Marg'inon anori-yu o'rigi", "Buxoro olusi" qatorida Jizzaxning "chuchuk qovuni-yu yaxshi uzumi" e'tirof bilan bu jannatiy mevalar jahongashta "Boburnoma"ning muborak sahifalarida bo'y ko'rsatib turibdi. Bu esa muallif fitratidagi yaxshilikni e'tirof etish, jamiki afzalliklarni tasdiqlash, uni qadrlashga bo'lgan moyillikning yorqin ko'rinishidir.

Hirof safari – mirzolar yig'inidan qaytish yo'lida Hindikush tog'ida qor kechish voqeasi "Boburnoma"dagi Karnon voqeasi kabi juda kata hayajon va tashvish bilan o'qiladigan sahifa. Biz bu joyda Bobur Mirzoni farmonbardor podshoh qiyofasida emas, balki yo'lga chiqqanda safarning barcha qiyinchiliklarini hamma bilan barobar tortadigan, zarur bo'lganda hatto hammadan ham ko'proq

¹⁸⁸ Kenja Q. Andijondan Bag'dodgacha (Buyuklar izidan) Safarnoma – 4. – T.: Sharq, 2007. – B. 17.

mas'uliyat va mashaqqatga yelka tutishga tayyor jasur, tolmas sayyoh sifatidagi qirralarini ham ko'ramiz.

Qahraton qishda, hatto otni ko'mish darajasida tinimsiz yog'ayotgan qalin qorda sadoqatli, vijdonli 15-20 navkari bilan tengma-teng qor tepib, yo'l ochib ming mashaqqat bilan tog'dan oshib o'tadilar. Ko'plarni qo'l-oyog'ini sovuq uradi. Bobur Mirzoning o'zi esa qulog'ini shamollatib, umrini oxirigacha shu dard bilan og'rib yuradi. Yuqorida biz Bobur Mirzo ko'nglidagi buyuk shukronalikni eslagan edik. "Hech nima Tengrining xostidin o'zga bo'lmas" qoidasiga amal qilgan Bobur Mirzo har safar taqdir unga ro'baro' qilgan qiyinchiliklar ortidan hikmat, xayr kashf qilishga harakat qilganini ko'ramiz. "Agarchi ulug' qordin necha kun xeyli tashvish ko'rduk, vale oxir ushbu ulug' qor sababidin o'zumizni manzilg'a yetkurduk. Nechukkim, agar mundaq ulug' qor bo'lmasa, andoq berah uchma va sekirtmadin kim o'ta olg'ay edi, balki agar ulug' qor bo'lmasa avvalgi uchmada o'q elining ot va tevasi tamom qolg'ay".

Har nek-u badeki dar shumorast

To dar nigari salohi korast.

Ma'nosi: "Har bir yuzaga kelgan yaxshi-yomonlikni tekshirib qarasang, turmush uchun xayrlidir", – deb yozadi matonatli Bobur Mirzo.

Har daqiqada o'lim vahshati sezilib turgan qor kechish paytidagi azoblarni barchasini yaxlitlab, oddiygina "tashvish" so'zlari bilan ifodalayotgan muallif siymosida har qanday vaziyatda o'zini yaxshilikka undagan, Ollohning bandalariga ham yaxshilik sog'ingan, bu yo'lda o'zidagi bor ichki-tashqi quvvatni ezgulikka safarbar eta oladigan hayotsevar Bobur Mirzoning matonat, shijoatga to'la qiyofasini ko'ramiz. Hayotsevar Bobur Mirzoni o'z navbatida hayot ham munosib mukofotlab boradi. Balki shuning uchun hind tarixnavisi Muni La'l: "U (Bobur Mirzo – Y.K.) hamma narsaga jasorat va halollik ila erishdi. Buyuk mag'lubiyatlari ustiga buyuk g'alabalar imoratini qura oldi"¹⁸⁹, – degandi.

Bobur Mirzo qurgan g'alaba imoratining poydevori yaxshilik bo'lsa, g'ishtlarining qorishmasida esa shu yaxshilikning e'tirofi, rag'bati, ibratini bor.

¹⁸⁹ Qarang: Ochilov E. Zahiriddin Muhammad Bobur: risola. – T.: O'zbekiston, 2012. – B. 127.

Xuddi ulug‘ jangdan chiqib kelayotganday, tabiat ro‘baro‘ qilgan mashaqqatlarni yengib, horib-tolib, ochlik, charchoq azoblaridan holdan toygan Bobur Mirzo va uning navkarlariga non-tuz tutgan, kata ehtirom, sahovat ko‘rsatgan Yakka o‘lang qishlog‘i va uning mard-tanti eli chuqur minnatdorchilik va shukronalik bilan “Boburnoma”da e’tirof etilgan Dizakdan keying ikkinchi maskan.

“Yakka o‘lang eli biz kelib tushganda – o‘q xabar toptilar. Issiq uylar, semiz qo‘ylar, otqa o‘t va va borsu benihoyat, o‘t yoqmoqqa o‘tun va tezakka ne had va ne g‘oyat, andoq sovuq va qordin qutulib, mundoq keng va issiq uylar topmoq, andoq mashaqqat va balodan xalos bo‘lub, mundoq qalin non va semiz qo‘ylar topmoq huzuredurkim, mundoq mashaqqatlarni ko‘rganlar bilur, farog‘atedurkim, mundoq balolar kechurganlar fahm qilur”. (148-b.)

“Boburnoma”dan bu xotiralarni o‘qir ekansiz, Bobur Mirzoga qo‘shilib bu qishloqqa cheksiz mehringiz, mehmondo‘st, bag‘ri keng odamlariga muhabbatingiz uyg‘onadi. Bir narsa insonni quvontiradi: Purviqor Hindikush tog‘ etaklarida joylashgan, birov u haqda eshitgan yo eshitmagan mo‘jazgina Yakka o‘lang qishlog‘i va uning saxovatli elini bugun “Boburnoma” orqali butun jahon biladi.

Bobur Mirzo dildan mehr qo‘ygan viloyatlardan biri Kobuldir. Chunki Kobul Bobur Mirzoning barcha yaratuvchilik, bunyodkorlik, ijodkorlik ishlariga beshik bo‘ldi. Bobur Mirzo Afg‘onistonga talonchi, bosqinchi fotih sifatida emas, balki shu mamlakatning, uning xalqining farovon hayotiga, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy rivojlanishiga mas’ul javobgar, adolatli va rostparvar hukmdor sifatida kirib keldi. O‘z yurtida armonga aylangan orzularini Bobur Mirzo Afg‘onistonda amalga oshirdi. Tarqoq mulklarni birlashtirib, bir butun mustaqil davlat tuzdi. Muntazam armiyaga ega bo‘ldi. Suv inshootlari barpo etib, “Bog‘i Jahroro”, “Bog‘i Jahonoro”, “O‘rta bog‘”, “Bog‘i Navro‘ziy” kabi oromgohlar bunyod etdi. “Afg‘onistondagi amaliy faoliyatiga ko‘ra Bobur butun Xuroson va

Movarounnahrda qudratli davlat boshlig‘i va muzaffar sarkarda sifatida katta obro‘ orttira bordi”¹⁹⁰.

Buzilib, qarovsiz holatga kelgan Bolo Hisor qal‘asini qayta ta‘mirlab, imoratlar barpo etgan Bobur Mirzo u yerni podshoh qarorgohiga aylantiradi. 1507-1508-yillar voqealari bayonida “Ushbu tarixqacha Temurbekning avlodini bovujudi saltanat mirzo derlar edi, ushbu navbat buyurdimkim, meni podshoh degaylar. Ushbu yilning oxirida seshanba kechasi zulqa‘da oyining to‘rtida oftob xut burjida edi. Kobulning arkida Humoyun mutavallid bo‘ldi”, – deb yozadi Bobur Mirzo. Yigirma uch yoshgacha farzandi bo‘lmagan Bobur Mirzoni (Oysha Sultonbegimdan tug‘ilgan birinchi qiz farzandi bir oy ham yashamay o‘ladi) Olloh bu tengsiz ne‘matga Kobulda yetkazadi.

Gulbadanbegim “Humoyunnoma”da: “Xulosa shuki, Kobulning olinishini yaxshilikka yo‘yishgandi, hamma farzandlar Kobulda tug‘ildilar. Xo‘stda Mohimbegimdan Mehrjonbegim va Dildorbegimdan dunyoga kelgan Gulrangbegimlardan boshqasi Kobulda tug‘ilgan edi”¹⁹¹, – deb yozadi.

Ko‘rib turganimizdek, Kobulda Bobur Mirzoning ham ijtimoiy-siyosiy, ham shaxsiy hayotida katta burilishlar, xayrli yangiliklar yuzaga kelgan. Bobur Mirzo Kobul va uning atrofida o‘z mavqeyini doimiy mustahkamlash uchun harakat qildi. “... bu davr Bobur siyosiy faoliyati uchun boshqa yana katta voqealariga o‘tish ko‘prigi vazifasini o‘tagan. Bu katta voqea esa Hindiston qo‘lga kiritishdan iborat bo‘lgan”¹⁹². Demak, Kobul, Kobulda orttirilgan tajriba, puxta tayyorgarlik Bobur Mirzo uchun Hindiston fathida muzaffariyatni ta‘minlagan tayanch omillardan bo‘lgan.

Bobur Mirzo Hindni qo‘lga kiritgach, bu o‘lkani o‘z nomiga, aniqrog‘i, temuriylarga xos davlat boshqaruviga mosladi. Aynan Bobur Mirzoning tutumi haqida hind tarixnavisi Sharma: “O‘rta asrlarda qudratli hukmdorgina yaxshi hukumat boshqaruvchisi hisoblanadi. Hindiston ham kuchli va ta‘sirchan davlat idorasi asosidagina gullab-yashnashi mumkin edi. Asrlar davomida rajputlar,

¹⁹⁰ Hasanov S. Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi. – T.: Sharq, 2014. – B. 108.

¹⁹¹ Gulbadanbegim Zahiriddin Muhammad Bobur qizi. Humoyunnoma. – T.: O‘zbekiston, 2016. – B. 9.

¹⁹² O‘zbek adabiyoti tarixi. 5 jildlik. 3-jild. – T.: Fan, 1978. – B. 69.

turklar va afg'onlar navbatma-navbat Hindistonda imperiya va kuchli monarxiya o'rnatishga urinib keldilar. Lekin ularning hech biri bu ishni uddalay olmadilar. Boburgina bu yerda o'zining tadbirkor hukmdorlar sulolasini va ulkan imperiyasini o'rnatdi. U Hindistonda uch marta, ya'ni Panipat, Qanva va Gograha hal qiluvchi janglar qildi va ularning barchasida g'olib chiqdi. Shu bilan u Hindistonga temuriylarga xos davlat boshqaruvini olib kirdi va unga mustahkam asos soldi... davlatni mustaqil tarzda temuriylar uslubida boshqarib bordi"¹⁹³, – deb yozadi.

Hindistonni obod va farovon o'lkaga aylantirishga bel bog'lagan Bobur Mirzo Agradan ikki ming kilometr masofadagi Kobulni ham bir zum unutmadi.

Kobulda jome masjidi qurilishi, karvonsaroy va hammomlarni ta'mirlash, Kichik Kobul, G'azna to'g'onlarini sozlash, qaqroq yerlarga suv chiqarish kabi masalalarni nazorat qiladi. U yerdagi mas'ullariga maxsus topshiriqlar berib turadi.

O'g'li Humoyunga yozgan xatida esa Kobulda erishgan zafarlari, muvaffaqiyatlarini ta'kidlab, uni o'z ixtiyorimda qoldirdim deydi: “Yana muncha fath va zafarlar Kobulda ekanda bo'ldi. Kobulni shugun tutubturmen, ani xolisa qildim. Hech qaysingiz tama' qilmag'aysiz” (244-b.), – deydi.

Bobur Mirzoning Xoja Kalonga yozgan xatida Kobulga bo'lgan mehri, sog'inchi, intilishi yanada ochiqroq ifoda etilgan: “Kobul viloyatini xolisa qildim, o'g'lonlaridan hech kim tama' qilmag'aysiz... Bizning ehtimomimiz ul sarilar bormoqqa behad va beg'oyattur. Hindiston ishlari ham bir nav' somon topib keladur. Tengri taolodin umid andoqdurkim, bu oraning ishi Tengri taolo inoyati bila bot saranjom topqay. Bu ish zabtidin so'ng betavaqquf, Tengri yetkursu mutavajjih bo'lg'umdur. U viloyatlarining latofatlarini kishi nechuk unutmay”. (249-b.) Ayollari, farzandlari, yaqinlariga Bobur Mirzo, albatta, Xoja Kalonga yozgani kabi doimiy ravishda Kobulga intilishini, mehrini sog'inchini bildirgan. Buni yaxshilab quloqlariga quyib olgan yaqinlari, xususan, kichik ayoli Bibi Muboraka sabab topilishi bilan Bobur Mirzoning xokini Kobulga ko'chirgan.

Boburshunos olim Vahob Rahmon juda ko'p manbalarda bir xil takrorlanib kelayotgan Bobur Mirzo o'zining Kobulga dafn etilishini vasiyat qilgan, degan

¹⁹³ Sharma L.P. Boburiylar saltanati. – T.: Ma'naviyat, 1998. – B. 30.

ma'lumotning yolg'onligini ta'kidlab: "... shahanshoh Bobur hazratlari vasiyat yozmaganlar va bu haqda hech bir manba ma'lumot bermaydi. Jumladan, otasining so'nggi nafasigacha uning boshida turgan tarixchi qizi Gulbadanbegim ham o'z "Humoyunnoma" asarida bu haqda so'z ochmaydi"¹⁹⁴, – deydi.

U holda tinimsiz bir-birini takrorlayotgan mualliflar nimaga asoslanib o'zi yo'q vasiyatnoma haqida gapirishadi? Bizningcha, "Boburnoma" sahifalarida, xususan, Bobur Mirzo umrining so'nggi yillarida Kobulni bot-bot eslashi, Kobulni xolisa qildim, undan hech kim umidvor bo'lmasin degani, umrining shukuhli onlarini Kobulga bog'lab, shukrona tuyishlari mualliflarning shunday fikrga kelishlariga sabab bo'lgan.

Vahob Rahmonning Bobur Mirzo bunday vasiyat qilmagan degan fikrga qo'shilamiz. Negaki Hindistonning ortiqcha, issiq va nam iqlimida Bobur Mirzo o'zi bilan borgan elni muqim ushlab turishga qiynalganligini "Boburnoma"da chuqur bir iztirob bilan bayon qiladi. Bobur Mirzo bilan borganlarni har vaqtgidek uning shaxsiy ibrati, bek-u navkarlar o'rtasidagi obro'yi, muruvvati, saxovati, juda tezlik bilan yaratilayotgan qulay sharoit ushlab turadi. Shunday paytda Bobur Mirzoning Kobulga ko'milishi haqida vasiyat qilishi, endi taqdirga tan berib, birovning yurtini vatan qilishga chog'langan elni yana ikkilantirib, sovitib qo'yishi mumkin edi.

To'shakda og'ir yotgan Bobur Mirzo qizlari Gulrang va Gulchehrabegimlarni turmushga berish, Humoyunga taxtni topshirish, saltanat taqdiri, kelajagiga aloqador o'zining oxirgi so'zlarni aytadi, ammo Kobul bilan bog'liq holatda lom-mim demaydi, balki deya olmaydi. Chunki dono, tadbirkor Bobur Mirzo o'zi yaratgan oltin qoida: "Mulkgirlikda va mamlakatdorlikda agarchi ba'zi ishlar zohirda ma'qul va muvajjah ko'rinur, vale har ishning zaminida yuz ming mulohaza vojib va lozimdur" (69-b.) hikmatiga amal qiladi. Ammo Bobur Mirzoning suronli hayotdan chiqargan yana bir ibratomuz xulosasi bor ediki,

¹⁹⁴ Rahmonov V. Bobur qilmagan vasiyat muammosi. "Zahiriddin Muhammad Bobur merosining Sharq davlatchiligi va madaniyati rivojida tutgan o'rni" mavzusidagi uluslararo ilmiy-nazariy konferensiya materiallari. – T.: 2023-yil 25-26-sentabr. – B. 59.

keyingi holatda uning naqadar rost ekanligiga qoyil qolasiz: “Har bir yuzaga kelgan yaxshi-yomonlikni tekshirib qarasang, turmush uchun xayrlidir”.

Humoyunning Sherxon Suriydan mag‘lub bo‘lib, Hindistonni tashlab chiqishi tufayli podshohning mozori oyoqosti qilinmaslik maqsadida Bibi Muborakning shijoati, tadbirkorligi tufayli Bobur Mirzo xoki 1540-yilda Kobulga, onasi Qutlug‘ Nigorxonim dafn etilgan Bog‘i Navro‘ziyga olib kelib qo‘yildi. Bobur Mirzo to‘ab ad o‘zi uchun ikkinchi Vatan, orzulariga beshik, farzandlariga doya bo‘lgan Kobulda Movarounnahr tomonlardan kelayotgan ona yurt nasimiga yuz tutib yotadigan bo‘ldi.

II bob yuzasidan xulosalar

1. Avtobiografik, iqroriy xotira, esdalik, shuningdek, memuar asarlariga xos bo‘lgan xususiyatlarini o‘zida jam etgan “Boburnoma”da roviy-qahramon muallif “meni”ni o‘zida ifoda etadi.
2. “Boburnoma”da Bobur Mirzo tasvir etilgan voqealarning bavo sita yoki bevo sita ishtirokchisi sifatida ularni ko‘zidan, tilidan, dilidan o‘tkazib ifodalaydi. Bu esa asar strukturasi ning pishiqligini, kompozitsion izchillikni, asar yaxlitligini ta‘minlaydi.
3. Muallifning asar voqealariga munosabati, qarashi, bahosi shoyon holatda “men” formasi orqali bayon qilinadi va bu ulkan hayot panoramasi markazida Bobur Mirzo obrazi namoyon bo‘ladi.
4. Asarda turli voqealar tafsiloti bilan bog‘liq bildirilgan ijodkor pozitsiyasini, uning estetikasini tayin etgan fikrlar yaratilishidagi yetakchi tamoyillardir. Bu tamoyillar Bobur Mirzoning mualliflik qiyofasini ochiq laydi.
5. Umumjahon e‘tirof etgan Bobur Mirzo xarakteridagi joziba, sharaf, ruhiyatidagi barqarorlik, muvozanatni, favqulodda hayotsevarlik ildizlarini, uning shaxsiyatidagi o‘ziga o‘z aqli, mehnati, kuchiga ishonchdan, jismoniy barkamolligini izlash o‘rinli.
6. Bobur Mirzoning Karnon voqeasi tafsilotida o‘rni bilan “Dedimki”, “Dedilarki” dialog-muloqot shaklini tanlaganligi, muallif tushgan holat, dramatik

vaziyatning keskinligini ko'rsatish bilan birga muallif – Bobur Mirzo siymosining ijtimoiy-siyosiy, shaxsiy sifatlarini yorqin namoyon etadi. Bobur Mirzo nafaqat harb-u zarbda, nafaqat jahongirlikda, balki ulkan inshootlar qurishda ham temuriy bobolarga munosib izdosh.

III BOB. SHE'RIYATDA BOBUR OBRAZI TALQINI: TARIXIY FAKT, OBRAZLI IFODA VA POETIK RUH

3.1. Zamonaviy dostonchiligimizda Bobur obrazining poetik tasviri

Zamonaviy, xususan, sho'ro davri adabiyotida Bobur obrazi, eng avvalo, liro-epik asarlarda bo'y ko'rsatdi. Davr siyosati, mafkuraviy tazyiq, cheklovlarga qaramay, bu dostonlarda lirik ifoda va epik tasvir unsurlarining o'zaro sintezi shoh, shoir, fotih Bobur Mirzo faoliyatining konkret manzaralari, qahramonning qalb olami, ruhiy dunyosidagi evrilishlarning o'ziga xos poetik talqiniga qaratildi.

Ma'lumki, Oybek millatimiz tarixini, ayniqsa, temuriylar davri adabiyoti, san'ati, madaniyatini chuqur bilgan mutafakkir ijodkor edi. Mumtoz adabiyotimizning Navoiydan keyingi ikkinchi cho'qqisi boburiylar sulolasining asoschisi, jahon adabiyotning muhtasham obidalaridan – “Boburnoma” muallifi Bobur Mirzo shaxsi, Bobur Mirzo fenomeni Oybekdek donish insonni befarq qoldirishi mumkin emas edi. Gap shundaki, “Navoiy” romani uchun salkam siyosiy javobgarga aylanib qolishiga bir bahya qolgan Oybek sho'ro mafkurasining munofiqona nigohi Bobur Mirzoga ham qaratilganligi uchun bu benazir, bashariyatning abadiyatga daxldor farzandi haqida asar yozishdan, obrazini badiiy inkishof etishdan o'zini to'xtatib turishga majbur edi. Bobur mavzusining Oybek ijodida kech paydo bo'lishini Zarifaxonim (adibning rafiqasi) shunday izohlaydi:

“Oybek umrining so'nggi yillarida sovet mamlakatidagi ichki siyosat o'zgara boshladi. Temur va Bobur nomlarini tilga olish mumkin bo'ldi. Shunda Oybekning yuragida uzoq yillar yashirinib yotgan ijodiy rejalar unga tinchlik bermay qo'ydi. Shunday qilib, Oybek shu davrda Bobur va Temur haqida dostonlar yoza boshladi”¹⁹⁵.

Zarifaxonim ta'kidlagan ichki siyosat, mafkura ob-u havosining iliqlashuvi tufayligina Oybek ko'nglida uzoq vaqtlar ardoqlab, saqlab yurgan mavzularga qo'l urdi. 1965-yilda yozila boshlangan “Bobur” dostonidan bir lavhani Zarifaxonim, Oybekning ruxsati bilan adibning 60 yillik yubileyiga bag'ishlangan ilmiy anjumanda o'qib beradi. Ko'p o'tmay dostonning shu qismi tarjimon S.Lipkin

¹⁹⁵ Saidnosirova Z. Oybegim mening. Xotiralar. – T.: Sharq, 1994. – B. 238.

tomonidan rus tiliga o'g'iriladi va Moskvada bo'lib o'tgan Oybekning ijodiy kechasida sho'rolar poytaxtining adabiy-ilmiy jamoatchiligi e'tiboriga havola etiladi. Afsuski, "Bobur" ham, u bilan bir vaqtda yozila boshlagan "Temur" dostonini ham yakunlash Oybekka nasib etmaydi. Garchi doston tugallanmagan bo'lsa-da, salkam ikki yuz misradan iborat bu asar ikki jihati bilan o'zbek kitobxonlari uchun qadrlidir.

Birinchidan, Oybek zamonaviy dostonchiligimizga ilk marotaba Bobur Mirzo obrazini olib kirdi.

Ikkinchidan, teran tafakkur bilan zamonalarni zamonalarga ulay olgan Oybek Bobur Mirzo hayotining o'z davri, o'z muhiti bilan uzviy, teran, realistik tasvirda, epik ko'lamda badiiyatga ko'chira oldi. Bobur Mirzo siyomosida, uning fitratida asrlar osha bizning zamonlarni ham nurlantirib turgan jihatlarni old planga qo'yib, Bobur Mirzo dahosining manguylikka daxldorligini dostonning badiiy konsepsiyasiga singdirib yubordi.

Adabiyotshunos olim Q.Yo'ldoshev Oybekning tugallanmagan she'rlari haqidagi: "Abdulla Qahhor bir zamonlar "G'uncha guldan go'zalroq, chunki uning bag'rida ikki hayot: o'z hayoti va gul hayoti bor", – degan edi. Chindan-da, g'unchada ochilish, chechak bo'lish imkoniyati bor. Sinchiklab qaragan odam Oybekning... o'ttiz sakkizta tugallanmagan she'rida ham g'unchaning imkoniyatlari yashiringanini ko'rish mumkin"¹⁹⁶, – degan fikrlarini adibning yakuniga yetmagan "Bobur" dostoniga nisbatan ham tatbiq etsak bo'ladi.

Oybek o'zining 1937-yilda yozgan "Navoiy" poemasini Navoiy obrazini yaratishda chizilgan bir eskiz edi, deydi. Tarixnavis adibning ana shu ijodiy uslubini e'tiborga oladigan bo'lsak, "Bobur" dostoni qatlarida ham g'uncha imkoniyatlari yashiringanini, agar umr vafo qilganida Oybek mumtoz adabiyotimizning ikkinchi cho'qqisi Bobur Mirzo haqida ham xuddi "Navoiy" romani kabi yirik bir tarixiy-biografik roman yaratish qudratiga ega bo'lganligini e'tirof etish kerak bo'ladi.

¹⁹⁶ Millatni uyg'otgan adib. (To'plam). – T.: Universitet, 2005. – B. 40.

Oybekning “Navoiy”, “Bobur” tarixiy dostonlarini kuzatar ekanmiz, rus tanqidchisi V.G.Belinskiyning: “Poema ideal voqelikni suratlantiradi va hayotning oliy daqiqalarini tutib qoladi”¹⁹⁷, degan fikrlari yodga tushadi.

Navoiy ham, Bobur Mirzo ham eng birinchi navbatda buyuk mutafakkirlar, sohir qalam sohiblari. Har ikkala buyuk mutafakkir uchun hayotning eng oliy daqiqalari – bu ijod onlari, ilhom lahzalaridir. Shuning uchun bo‘lsa kerak Oybek xuddi “Navoiy” dostonidagidek “Bobur”ni ham Bobur Mirzoning ijod ustidagi holati tasviri bilan boshlaydi. Bu latif tasvirlarda Oybek o‘z qahramoni hayotining oliy daqiqalari manzarasini, Bobur Mirzoning ilhomiy holatini suratlantirishga harakat qilgan.

Dostonda Bobur Mirzo ijod qilib o‘tirgan xona tasviri bilan Bobur Mirzoning tashqi portreti parallel, uyg‘un holatda chizilgan: “keng xona”, “jihoz: kumush va oltin”, “yumshoq gilamlar mavjidagi yolqin”, “samoday nurga cho‘milgan xona”, “sandiqlar to‘la oltin dur” va shu tasvirga mos: har qirrasida go‘yo bir yulduz porlagan gavhar uzuk taqqan, “gavharida naq quyosh cho‘milgan, nozik zavq ila cho‘lg‘angan salla”, “mayin oq shoyi ko‘ylak, moviy jomadagi” Bobur Mirzo... Bu tasvirlar orqali o‘quvchi shoh Bobur egallagan ijtimoiy mavqe, iqtisodiy qudrat, qo‘lga kiritgan toj-u taxt shukuhini his etadi, ammo bu shonshavkat dag‘dag‘asining Boburning shoir ko‘ngliga hech bir aloqasi yo‘qdek, Bobur Mirzoning shoir qalbida o‘zga dard, o‘zga ilinj. Oybek shoir Bobur ruhiyatiga ichdan razm solar ekan, uning qalb dramasini, yurak og‘riqlarini teran his etadi.

Bobur o‘ltirur, qo‘lda zar qalam,
Qog‘ozga to‘kkan she’rida ko‘p g‘am
Shoir qalbidan toshadi to‘lqin,
Qadahda gulob, jilvasi uchqun.
Qog‘ozi rangli, xati xo‘p xushxat
Yurakdan oqur nuqul g‘am-hasrat¹⁹⁸.

¹⁹⁷ Белинский В.Г. Пол. соб. соч. Т. 5, М., 1955. – С. 316.

¹⁹⁸ Oybek Toshmuhammad o‘g‘li. MAT. 19 tomlik 18-tom. – T.: Fan, 1981. – B. 99.

Oybek tomonidan nuktadonlik bilan tanlangan detallar lirik qahramon ko'ngil holatini o'quvchiga ravshanroq, ta'sirchanroq yetkazishga xizmat qilganini ko'rish mumkin. Oybek "Navoiy" dostonida buyuk mutafakkirning ijod onlarini

Yonar titrab bir oltin shamdon

Tokchalarga kitob qalangan.

Gilamlarning qon gullarini

Yondiradi bu shamning nuri¹⁹⁹,

deya tasvirlasa, Bobur Mirzodagi ilhomiy holatni:

Savag'ich simirar xun siyoh, zarhal,

Zilol chashmaday quyilar g'azal.

Yozadi shoir, u sohibqiron.

Olmos tig'iday ko'ksida hijron²⁰⁰

deya ta'riflaydi.

Har ikkala dostonidan olingan parchalardagi qon gullar, xun siyoh detallariga ma'lum bir ijtimoiy, emotsional, psixologik ma'no yuklangan.

"Navoiy" dostonida gilamlarning qon gullari Hirot, uning mehnatkash xalqining zabun hayotiga, sham nuri esa Navoiy kabi buyuklarning insoniy dahosiga ishora bo'lsa, "Bobur" dostonida qo'llangan xun siyoh detali esa Vatan sog'inchidan yuragi qon bo'lgan shoirning ko'ngil manzarasini yaxshi ifodalagan.

Dostonida Oybek shoh, shoir, fotih, bunyodkor, islohotchi, buyuk Temuriylar davlatini Hindiston o'lkasida munosib davom ettira olgan, tengsiz vatanparvar, dilbar shaxs Bobur Mirzoning ko'lamdor xarakterini ochib berish uchun ko'lamdor voqealarga, qahramonlarning ruhiy olamlari, qalb manzaralari tasviri va talqiniga e'tibor qaratdi. Doston mutolaasi bizni "Boburnoma" sarhadlariga yetaklaydi. Aytish mumkinki, doston sujetini "Boburnoma" ustundek tutib turadi. Oybek badiiy taxayyulining kuchi shundaki, u kitobxon ong-u shuuriga "Boburnoma" voqealarini sun'iy tiqishtirmaydi, balki dostonnavis o'quvchini "Boburnoma"

¹⁹⁹ Oybek Toshmuhammad o'g'li. MAT. 19 tomlik 3-tom. – T.: Fan, 1976. – B. 101.

²⁰⁰ Oybek Toshmuhammad o'g'li. MAT. 19 tomlik 18-tom. – T.: Fan, 1981. – B. 100.

sarhadlaridan Bobur Mirzoni bir dam ham tark etmagan Vatan yodi, sog‘inchi, xayoli orqali olib o‘tadi. Axir, mutolaa davomida shohidi bo‘lganimizdek:

Ko‘p sog‘inadi Vatanni Bobur,
Yeri va ko‘ki ko‘nglini tortar...
Eslar va yozar tuprog‘in, tomin,
So‘ndirar edi yurak otashin²⁰¹.

Vatan yodi, xayoli – doston voqealarini harakatga keltiruvchi, sujet chiziqlarini kesishtiruvchi kuch, kompozitsion vosita. Xayol, sog‘inch o‘z navbatida xotirani uyg‘otadi. Bu xotiralar oddiy, odmi xotiralar emas. U o‘z sohibiday zalvarli, salmoqli, og‘riqli, dardli va ayni paytda qadrli hamdir.

Samarqandning boy berilishi, Andijondagi munofiqlik, birikmagan, “bir-biriga yov, biridir mayxo‘r, birida dard – ov” bo‘lgan Temur avlodining yutqiziqdari, boy berilgan Vatan, tarki Vatan etib o‘zga yurtlarda taxt topgan, birovning yurtini, atrof-olamni obod etib, o‘z ko‘ngil uyini obod etolmagan, o‘z ko‘nglini to‘ldirolmagan, baxt topolmagan Bobur Mirzoning xotiralari ko‘zguning siniq parchalaridek tig‘li. Ular uyg‘onganda, harakatga kelganda hatto egasini ham yaralaydi: yurtining betakror tabiati “Samarqandning qizil olmasi”, “Marg‘ilondagi anori kalon”, “Ismoil shayxi qovuni lazzati”, “Sayxun bo‘yidagi ehtirosli ov” yodi... Oybek Bobur Mirzo qalb daftarini rost o‘qiydi, aynan sharhlaydi: “U latofatni nechuk unutgay?! Umri uzilur – hasrat bitmagay?!”²⁰²

Muhimi, Oybek “Boburnoma”dagi katta-kichik tarixiy ma’lumotlarni dostonning badiiy konsepsiyasiga mos tanlar ekan, ularning quruq qayta bayonchisiga aylanib qolmadi. Ko‘p voqealar ichidan eng muhimlarini saralab, qayta badiiy idrok etib, ularni yana bir karra Bobur Mirzoning noyob shaxsiyatini anglab yetishga xizmat qildirdi. Ayniqsa, Bobur Mirzoning Hind tuprog‘ida olib borgan bunyodkorlik faoliyati, ariqlar qazdirishi, turli inshoot, bog‘lar barpo etishi, axloqiy-madaniy islohotlari, ichkilikni man etishi haqidagi qarorlari dostonda katta bir muhabbat bilan oybekona talqin etilgan. Ular yozuvchining insoniy va ijodiy

²⁰¹ O‘sha manba. – B. 101.

²⁰² O‘sha manba. – B. 102.

kredosiga shunchalik muvofiq kelganki, Oybek Bobur Mirzo hayoti bilan bogʻliq ideal voqealarni, Belinskiy taʼkidlaganidek, mohirona suratlantira olgan.

Garchi doston tugallanmagan boʻlsa-da, asarda Bobur Mirzoning mardona xarakteri, dilbar shaxsi, dilovar jism-u joni qad rostlab turibdi. Hatto yaproqlarini kuzak hukmiga topshirgan terakning zaʼfaron barglarida ham hikmat topgan (*“Teraklar bargin koʻrsa oltinda”*) Bobur Mirzo Oybek talqinida *“ishqi quyoshday”*, *“osmonday qalbli”*, *“azim koʻngil”*, *“Kamol goʻzallik sevadi Bobur”* boʻlib, oʻz badiiy umrida ham hali uzoq yashaydi.

Adabiyotshunos olim Adhambek Alimbekov Muhammad Alining *“Gumbazdagi nur”* dostonining yaratilishi, asar gʻoyasi haqida fikr yuritib: *“Muallif xalq oʻzining eng muhtasham binolarini ham, oʻzining ulugʻ farzandlarini ham hech qachon unutmashligini, barini oʻzining bagʻrida saqlashini badiiy ifodalab bermoqni maqsad qiladi. Asl iddao: Sohibqironning nomiga tabu qoʻyilganiga qaramay, yuqoridagi aytilganlar vositasida Amir Temurni ulugʻlashga erishish. Sohibqironning koʻngillarga qaytishi XX asrning 60-yillaridan boshlandi. Lekin fikrlar parokanda va qorishiq edi. Shunday sharoitda badiiy adabiyot oʻzining tarixiy vazifasini bajarishga kirishdi”*²⁰³, – deb yozadi.

Olimning fikri yuqorida keltirganimiz: Zarifaxonimning Oybek ijodiga Amir Temur, Bobur Mirzo mavzusining kirib kelish sabab va omillari haqidagi maʼlumotini aynan tasdiqlaydi. Va adabiyotshunos Adhambek Alimbekov yana bir narsada mutlaq haq: garchi Sohibqiron, shuningdek, Bobur Mirzoning ham koʻngillarga qaytishi bir paytda – 60-yillardan boshlangan boʻlsa-da, Abdulla Qahhor taʼbiri bilan aytganda, koʻpchilik chirigan zanjir uzilib bitganidan xabarsiz, qoziq atrofida aylanayotgan fil kabi itoatda, *“boyqush kelgan yillar”*ning (Zarifaxonim) fojiasidan karaxt holda edi. Shundan boʻlsa kerak, olim taʼkidlaganidek, fikrlar parokanda va qorishiq, shoyon haqiqatlar uchun ham baʼzan katta jasorat talab etilardi. Vaqtinchalik qinida turgan mafkura qilichining ijodkor boshi ustida yana oʻynab qolishi mumkin emasligiga hech kim kafolat bera olmas edi. Ammo shunga qaramay adiblarimiz ichki siyosatning sal iliqlasha

²⁰³ Alimbekov A. Yulduzning besh qirrasini. – T.: Oʻqituvchi, 2020. – B. 155.

boshlaganidan foydalanib ong-u tafakkurlarini uzoq vaqt band etib turgan tarixiy mavzularni qog'ozga tushirishga jazm qildilar. (5-ilova)

Adabiyotshunos Abdug'afur Rasulov ta'kidlaganlaridek: "Badiiy asarning nomi – semiotik kalit". Shu ma'noda aytish mumkinki, "Gumbazdagi nur"²⁰⁴ hamda biz quyida tahlilga tortadigan Barot Boyqobilovning Bobur Mirzo haqidagi "Kun va tun" dostonlari sarlavhasidayoq mualliflarning badiiy niyati haqida o'quvchiga ilk axborotni yetkazadi. Polifoniklik, teran poetik ma'no, badiiy yukka ega bu nomlar dostonlar mazmun-mohiyatini belgilovchi konsepsiya uchun ochqichdek go'yo.

"Gumbazdagi nur" sarlavhasida Muhammad Ali Amir Temurning mangu xobgohi – Go'ri Amir maqbarasining gumbazi va har tong unga tushadigan quyosh nurini nazarda tutgan. Bu – zohiriy ma'no. "Islom" ensiklopediyasida nur so'ziga "Qur'onda Nur – Allohning o'zini ham anglatgan (osmonlar va yer nuri), Nur – Allohning ko'plab sifatlaridan biri"²⁰⁵ degan izoh berilgan. Agar shu izohni nazarda tutsak, zakiy muallif u paytlari aytishning umuman iloji bo'lmagan ulkan haqiqatni, ya'ni sohibqiron Amir Temur tanlanganlar ichida tanlangan ekanini nuktadonlik bilan birgina sarlavhaning o'zidayoq ko'rsatib qo'yganligiga, ijodkorning teran tafakkuriga guvoh bo'lamiz. Zero nuri majoziy, Nuri ilohiy, u tiriklik manbayi. Nur tushgan joy yorishadi, iliqlik inadi, hayot boshlanadi. Amir Temurning badiiyat bag'ridagi hayoti ham go'yo shu nurdan boshlangandek.

Shoir Barot Boyqobilov ham o'zining 1968-yilda yozilgan Bobur Mirzo haqidagi dostonini "Kun va tun" deb atadi. "O'zbek tilining izohli lug'ati"²⁰⁶ da "kun" so'ziga berilgan yettita izohdan birida bu so'zning quyosh, oftob ma'nosini ifodalashi ko'rsatilgan, yana bir o'rinda "sutkaning quyosh chiqqan qismi" deya izohlangan. Demak, muallif o'z tiynatida bir-biriga tamomila zid ikki qutb: shohlik va shoirlik qismatini tengsiz bir zarofat bilan birlashtira olgan, betakror, benazir shaxsiyat sohibi Bobur Mirzoni kun – quyosh bilan tenglashtiradi. "Kun va tun"

²⁰⁴ Ali M. Gumbazdagi nur. – T.: Yosh gvardiya, 1985.

²⁰⁵ Islom. Ensiklopediya. A – H. /Z. Husniddinov tahriri ostida. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2003. – B. 186.

²⁰⁶ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Ж. П. Е – М. – Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2006. – Б. 428.

nomidan anglashiladiki, Bobur Mirzo kabi millatimizning buyuk farzandlari o‘zlari yashagan tunni – zimiston feodal o‘tmishni aql-u zakosi, tadbiri, yuksak iste’dodi bilan kundek yoritdi, quyoshdek harorat ulashdi, uning munavvar nurlari zamonlar osha bizning davrlarga ham yetib kelib, o‘zining uzoq avlodlariga odamiylikdan, matonatdan, irodadan, fashat-u balog‘atdan saboq bermoqda.

Ma’lumki, besh asr ma’rifatli dunyoning e’tiborini o‘ziga qaratib kelgan Mirzo Bobur shaxsiga sho‘rolar davrida, o‘z vatanida o‘zgalar yurtiga ko‘z olaytirgan bosqinchi, feodal hukmdor sifatida qarab kelindi. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, Barot Boyqobilovning “Kun va tun” dostoni milliy-ma’naviy merosimiz, buyuk ajdodlarimiz sha’ni va shaxsiyatiga nisbatan munosabatning oz bo‘lsa-da, yumshagan paytlarida yozilgan. Dostonning dastlabki misralaridanoq “ehtiyotkor” muallif o‘quvchini shoh emas, shoir Bobur Mirzoning ko‘ngil olamiga, ruhiyat dunyosiga boshlashini alohida ta’kidlab ko‘rsatadi:

Andijon shahriga qo‘yganda qadam,
Bog‘ aro sezaman Bobur ruhini.
Za’faron devonin varaqlagan dam,
Tinglayman shoirning mungli ohini²⁰⁷.

Asardan olingan parchadagi “za’faron devon”, “mungli oh” metaforalari Bobur Mirzoning ham zohiriy, ham botiniy qiyofasini yaxlit tasavvur qilish imkonini beradi. Muallif sariq, za’faron rang orqali sog‘inch tuyg‘usini ustalik bilan moddiylashtira olgan. Go‘yo o‘quvchi Bobur Mirzoning “Ko‘pdin berikim yor-u diyorum yo‘qtur, Bir lahza-yu bir nafas qarorim yo‘qtur” deya chekayotgan alamini ruhan his etadi. Hijronzada shoirning sog‘inchdan qon bo‘lib ketgan yuragidan to‘kilgan so‘zlar devonni ham za’faron tusga keltiradi. Bunday poetik ifodalar tasvirdagi fojeiylikni yanada bo‘rttiradi, Bobur Mirzoning ko‘ngil manzaralarini o‘quvchiga yanada yaqinlashtiradi.

Barot Boyqobilov dostonida sho‘ro davri o‘zbek adabiyotining deyarli barcha janrlarida Bobur Mirzo obrazini yaratishdagi ustuvor tendensiya, ya’ni shoh

²⁰⁷ Boyqobilov B. “Kun va tun” dostoni. Manba: O‘zbeknoma. –T.: Sharq, 1999. –B. 571. (Bundan so‘ng bu nashrdan olingan ko‘chirmalarning sahifasini ko‘rsatuvchi raqamlar qavs ichida beriladi).

Bobur emas, shoir Bobur qiyofasini yaratishga urinish ko‘proq seziladi. Dostonning muqaddima qismida muallif buni alohida ta’kidlaydi ham:

Ot surib Sayhundan Jamnaga qadar,
Taxt talash janqlarin etmam hikoya.
Shoir yuragini tig‘lagan xanjar –
Hijron dostoniga erur kifoya. (571-b.)

Yozib tugallanajak dostonni hali katta sinov – mafkura imtihoni kutib turganini bilgan adib asar Boburning o‘z Vatanini qo‘msab chekkan iztiroblari, yurt qayg‘usi, ona diyor sog‘inchi haqida, shoir yuragiga xanjardek qadalgan Vatan hajri doston g‘oyasi, bu – Hijron dostoni, deya asarini ihotalab qo‘yadi.

Doston Bobur Mirzoning Vatandan bosh olib chiqib ketishi tasviri bilan boshlanadi. Tasvirda nafaqat zamon taloto‘mlarida bir bargi xazondek chirt uzilib “qaro tunda”, “qaro otda” o‘z yurtidan ayro ketayotgan “dilsiyoh” temuriy shahzodaning fojeiy holati, balki “Sayhun yig‘lab oqar karvondan pastda”, “Yetim bola kabi o‘ksinar alam”, “Ko‘ngillar uyida so‘nayotir sham”, “Samo beshigida mung‘ayar mohtob”, “Tog‘lar ko‘ksin teshar dildan chiqqan oh”, “Alam yoshlarini to‘kadi Sayhun” kabi obrazli ifodalarda o‘zining eng munosib, eng zakiiy, jasur o‘g‘lonidan ajralib qolayotgan ona-Vatanning mungli timsoli ham namoyon bo‘lgan. Tarixda ham, bugun ham taqdirning taqozosi bilan ona yurtini tashlab Vatandan olisga ketayotganlar doimo bo‘lgan. Ammo Bobur Mirzo kabilarning yurtdan ketishi oddiy ketish emas, bu buyuk yo‘qotish edi. Muallif iste’dodi shundaki, u o‘quvchiga ana shu buyuk yo‘qotishning og‘riqli alamini his ettira olgan:

Gul-gul ochilmasdan bahor lolasi,
Fasli kuz dastidan bo‘ston ketadir.
Tog‘lar ko‘ksin teshar dildan chiqqan oh,
Ota qabrin tashlab o‘g‘lon ketadir.
Saltanat tojini tark aylab Bobur,
Bilmadim, do‘stlarim, qayon ketadir? (573-b.)

Keltirilgan parchadagi ritorik so‘roq muallifning doston sujet qurilishida retrospeksiya usulidan foydalanish imkoniyatini yaratgan. Chunki saltanat tojidan voz kechib ketayotgan Boburning qayon ketishini ko‘rsatishdan oldin nima sababdan ketayotganligini ko‘rsatish voqealar izchilligini, sujet yaxlitligini ta‘minlaydi. Adib retrospektiv usulga ko‘ra tarixan ortga – 1501-yil voqealariga qaytadi.

Ma‘lumki, Bobur Mirzo Movarounnahrda 130 yil saltanat barpo etgan temuriylarning so‘nggi vakili sifatida tarix sahnasiga chiqdi. Bobur Mirzo bobokaloni Amir Temur yurgizgan siyosatdan, davlat boshqaruvidan o‘rnak olishni istar, uning navqiron, ayni paytda azim ko‘nglida O‘rta Osiyoni bir butun qudratli davlatga birlashtirishdek ezgu va xayrli maqsad bor edi. U shu maqsad yo‘lida temuriylar orasida kechayotgan o‘zaro qirg‘inbarot padarkushlik, birodarkushlik urushlariga barham berish uchun kurashdi. Temuriylar saltanatining dushmani Shayboniyxondak tajribali yov qarshisiga chiqdi. Ammo tadbir boshqa, taqdir boshqa. Bobur Mirzoning ezgu orzulari ro‘yobi unga taqdir qilmadi, tarixning shafqatsiz o‘yinlari oldida 19 yoshli navqiron shahzoda yolg‘izlanib, ojizlanib qoldi.

“Kun va tun” muallifi realist yozuvchi sifatida “Boburnoma” hodisalarini jonli tasvirlash, badiiy ifodalab berish bilan cheklanmay, ularning sababiy bog‘lanishlarini, mohiyatini ochib ko‘rsatishga harakat qiladi. Janr talabidan kelib chiqib adib Bobur Mirzo hayoti va xarakteridagi eng ideal nuqtalarni badiiy idrok etadi, talqin qiladi. Dostonda uzoq muddat qamalda qolgan Samarqand xalqining ayanchli ahvoli ta‘sirchan lavhalarda ochilgan:

Chumoli singari tentirab nochor

Bir burda non izlar ko‘chama-ko‘cha.

Akasi ukaga boqmaydi bir bor

Domiga tortmoqchi qorong‘i kecha. (573-b.)

“Sillasi qurigan qo‘shin noiloj, Qo‘riqlar Konigil darvozasini”, “Daraxt qipig‘i-yu, tutning bargidan O‘zga yemish yo‘qdir ot-u ulovga” kabi tasvirlar orqali adib qamal, ochlik ofati qo‘shin ichida ham balo-qazodek kezayotganini

ko‘rsatadi. Temuriylar saltanati butunlay xavf ostida qolganida Bobur Mirzo ko‘z tutgan odamlar, hatto Husayn Boyqarodek sohibi tadbir hukmdor ham “Shayboniyga elchi yubormish, hayhot!” So‘nggi umidlari so‘ngan Bobur Mirzo afsus-nadomat bilan:

Sulton Husayn yanglig‘ qo‘li baland shoh,
Shayboniydan cho‘chib qolsa, netay men (577-b.), –

deydi. Bobur Mirzo tilidan aytilgan bu alamli so‘zlarda temuriylar davlatini muqarrar inqirozga yetaklagan holatlarni tushungandek bo‘lamiz. Adibning qamal azobida qolgan Samarqandning nochor ahvolini o‘quvchiga Bobur Mirzo nigohi, kuzatuv i orqali yetkazishi tasvirning ta’sir kuchini oshirgan: “Qalbini qopladi shafqat, andisha, Xaloyiq holidan dedi: “Yo rabbim!”. Mana shu vaziyatda Bobur Mirzo o‘zining eng so‘nggi qarorini aytadi:

Qafasdagi qushday yashash na hojat,
Men ketsam, qamaldan qutular shahar. (577-b.)

Muallif ikkinchi bor Samarqandni dushmanga boy bergach, Bobur Mirzoning yana Andijon taxtini qo‘lga kiritish uchun Ahmad Tanbal bilan olib borgan janrlarini, sarson-sargardonlikda yurt kezishlari, o‘z mavqeyini saqlab qolish uchun uquvsiz xon tog‘alaridan yordam kutib olib borgan samarasiz kurashlarini batafsil yoritib o‘tirmaydi. Adib birgina Samarqand qamali voqealarining tasvirida tarix hukmi oldida chorasiz qolgan Bobur Mirzoning botiniy dunyosini voqelikning zohiriy dunyosiga ishonarli lavhalarda uyg‘unlashtira olib, yuqorida guvohi bo‘lganimizdek o‘sha davr manzarasini, mavjud ijtimoiy-siyosiy vaziyatni o‘quvchi ko‘z o‘ngida yaxlit namoyon eta olgan.

Adabiyotshunos olim Pirmat Shermuhammedov: “Tarixiy mavzuga murojaat qilishning murakkab tomonlari ko‘p. Yozuvchi qalamga olingan davrni chuqur o‘rganishi, tarixiy haqiqatga to‘la rioya qilishi, ayni zamonda tarixiy voqealarning bugungi kunga hamohang tomonlarini bo‘rttirib ko‘rsatishi lozim. Aks holda tarixiy voqealarga murojaat qilishning ahamiyati bo‘lmaydi”²⁰⁸, – deydi.

²⁰⁸ Shermuhammedov P. Tarixning ruhiy muammosi. Adabiyot va zamon. – T.: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1981. –B. 205.

Nazarimizda, ijodkor tarixiy voqealarning nafaqat bugungi kunga hamohang jihatlarini, balki hamma zamonlarga, hamma davrlar uchun asqatadigan, saboq boʻladigan, ibrat oladigan umumbashariy jihatlarini ham teranroq koʻrsatishi lozim boʻladi. Tarixga murojaat qilishning, oʻtmish materialini qayta badiiy idrok etishning negizida yozuvchining ana shunday pozitsiyasi, maslagi sobit boʻlishi kerak.

Biz “Kun va tun”da yozuvchining shunday aniq pozitsiyasini, adibning ma’naviy ehtiyojiga aylangan ijtimoiy-axloqiy konsepsiyasini koʻramiz. Doston sujeti, konflikti, obrazlar tizimi ham muallif konsepsiyasiga mos tanlangan. Barcha davrlarda ham oʻzaro ichki nizolar, fitnalar, bir-birini koʻrolmaslik, tarqoqlik saltanatni ichdan yemiradigan, tashqi dushmanga mamlakat darvozasini osongina ochib beradigan illat ekanligi, bunday vaziyatda nafaqat mamlakat, hudud, saltanat boy beriladi, balki millat Bobur Mirzo kabi oʻzining asl farzandlaridan ham ayrilishi muqarrar ekanligi asarda katta bir insoniy dard, armon sifatida talqin etilgan.

“Boburnoma”dagi bir qancha: Xoja Kalonbek, Qambar Ali, Nosir Mirzo, Jahongir Mirzo, Muqimbek, Muhammad Husayn, Mirzoxon, Ma’suma sultonbegim, Ibrohim Loʻdi, Xondamir kabi tarixiy shaxslarning doston sujetida oʻz oʻrni bor. Shuningdek, dostonga yozuvchi badiiy niyatiga koʻra bir qator toʻqima: kobullik kekxa olim, bogʻbon chol, hind rojasi Singh, dehlilik Krishnan, ikki sevishgan; afgʻon yigit va hind qizi, Panipat jangida eri oʻlib beva qolgan ayol obrazlarini kiritgan. Adib tarixiylik prinsipidan ogʻishmagan holda Bobur Mirzo va uning atrofidagi muhit, sharoit munosabatini shu obrazlar ishtirokida ochishga harakat qiladi.

Ma’lumki, Bobur Mirzo Kobul va Gʻazna shaharlarini suv bilan ta’minlovchi, ammo keyinchalik yaroqsiz boʻlib qolgan inshootlarni qayta tiklagan. Agradan Kobulga boradigan savdo yoʻllarining bexatarligini ta’minlash maqsadida karvonsaroylar, rabotlar qurdirgan. Oʻz atrofiga olim va shoirlarni toʻplab, ularning ijodiy izlanishlariga homiylik qilgan, ragʻbatlantirgan. Bobur Mirzo oʻzining bunyodkorlik ishlarini Hind diyorida ham davom ettirib, Agra va

Dehli shaharlarini obodonlashtirishga alohida e'tibor qaratadi. Jamna daryosi bo'ylariga saroylar, qasrlar, xalqning ehtiyoji uchun hammomlar, bog'lar barpo etish ishlariga rahbarlik qiladi. Mehnatkash xalqni qiynaydigan bekorchi soliqlarni yo'q qiladi.

“Kun va tun” dostonida muallif mana shu tarixiy faktlarni badiiy tadqiq etadi, o'sha davr hayotini, Bobur Mirzo tushgan muhitning butun ziddiyatlarini uning qalbidan, yuragidan o'tkazib talqin etishga harakat qiladi. “Qamchi bosib qora otiga Bobur, Kobul ko'chasidan o'tmoqda shodon” tasviridagi Bobur Mirzo o'z g'alabasidan havolanib osmonlanmaydi, aksincha panoh topib kelayotgan zaminga, oyog'i ostiga qaraydi. Asriy qaqrab yotgan afg'on tuprog'ining “Suv, suv” deya qilayotgan iltijosiga, “Umrim jazirada bo'lmoqda ado, Saraton ko'ksimga qilich qadaydi” deya nola qilayotgan, bir qultum suvga zor dalalar ohini tinglaydi. Afg'on tuprog'iga fotih emas, bir farzanddek kirib kelgan Bobur Mirzoning dilidagi orzulari tiliga ko'chadi: “Kobulni bog'-u rog' qilmasam butun, Menga ne kerakdur bu yorug' dunyo?” (580-b.)

Dostonda Bobur Mirzoning Hind diyoridagi faoliyati yanada teran badiiy tadqiq etilgan:

Tor-u mor aylagach Rano Sangoni

Qoshiga chorladi hind umarosin:

–Tangri berdi menga katta dunyoni,

Endi rozi qilsak hind fuqarosin, –

deya o'z maqsad-muddaolarini bayon qilgan Bobur Mirzo obrazi Barot Boyqobilov tomonidan tarixiy haqiqatga aynan monand yaratilganiga guvoh bo'lamiz. Bu monandlikni biz nafaqat “Boburnoma” sahifalarida kuzatamiz, balki hind xalqining buyuk mutafakkirlari, tarixchi olimlarining fikrlari orqali ham anglab yetamiz.

Davlat va jamoat arbobi, Hindiston mustaqilligi kurashining rahbarlaridan biri Javoharlar Neru: “...Hindistonning mayda-mayda bo'laklarga bo'linib, yemirilib ketishi uning shimoliy qismi Boburshoh tomonidan fath etilishi bilan

yakunlandi”²⁰⁹, – desa, yana bir hind tarixnavisi L. P. Sharma Bobur Mirzoning davlat boshqaruvidagi eng hayotbaxsh, gumanistik an’analarni, dinga nisbatan xolislik siyosatini e’tirof etib shunday yozadi: “Bobur davlat boshlig’i sifatida xalifalikka da’vo ham qilgani yo‘q va o‘z hukmdorlik faoliyatida diniy muhtojlik sezmad”²¹⁰.

Hind tarixchisi L. P. Sharmaning xolislik, katta bir qoniqish bilan aytgan mana bu fikrlari ham Bobur Mirzoning hukmdorlik faoliyatiga obyektiv bahodir; jumladan, u shunday yozadi: “Bobur Badaxshondan Behargacha bo‘lgan ulkan saltanatida tartib va osoyishtalikni saqlab tura oldi. Mahalliy aholida yangi hukmdorga nisbatan asta-sekin ishonch hosil bo‘la boshladi. Endi ular Bobur Hindistonni talab ketish uchun emas, balki shu yerda muqim yashash uchun kelganiga ishona boshladilar. Bobur fuqarolar turmushining farovonligini ta’minlash o‘zining asosiy burchi ekanini yaxshi anglardi. U qo‘l ostidagi fuqarolarning mulki va nomusi daxlsizligini ta’minlar, yo‘llardagi qaroqchilardan himoya qilar, ma’muriy ishlarni nazoratiga olib, mamlakatda adolat o‘rnatishga harakat qilardi”²¹¹.

60-yillarning siyosiy-mafkuraviy muhitida “haqiqatlar chala, fikrlar qorishiq”, buyuk tarixiy shaxslar faoliyatiga shubha, adovat bilan qaralayotgan, ularga nisbatan “ur, kaltak” siyosati qo‘llanib turgan bir paytda Barot Boyqobilovning Bobur Mirzo davlat boshqaruvidagi ana shunday raiyatparvarlik tutumini doston konsepsiyasiga badiiy yo‘sinda, ko‘lamdor epik tasvirda singdirishini ijodkorning jur’atidan, xolisligidan deya baholash mumkin. Yozuvchining tarix sahifalari orqali oydinlashtirgan bu badiiy haqiqati 60-yillar kitobxonni ongiga singdirilgan “Bobur – feodal hukmdor, bosqinchi” g‘oyasini nechog‘lik haqiqatligini o‘ylab ko‘rishga da’vat etgani aniq.

²⁰⁹ Xorijda boburshunoslik: /tadqiqot, talqin va maqolalar/ Nashrga tayyorlovchi H. Boltaboyev. – T.: Mumtoz so‘z, 2009. – B. 63.

²¹⁰ Sharma L. P. Boburiylar saltanati; ingl. tilidan tarj. – T.: Ma’naviyat, 1998. – B. 31.

²¹¹ O‘sha manba. – B. 27.

Xususan, dostonda hind xalqining nafaqat tarixidan, balki ko‘nglidan, qalbidan joy olishga harakat qilayotgan Bobur Mirzoning gumanizmi, baynalmilalligi shunday namoyon bo‘ladi:

G‘ayridinmiz, lekin topilg‘ay chora,
Mendan jabr-u jafo ko‘rmas xaloyiq
Siz agar jonimga kirsangiz ora
Ish tutsak, hindlarning ko‘ngliga loyiq. (602-b.)

Bu lavhada uch asrdan ortiq davom etib, Hindiston tarixida muhim rol o‘ynagan Boburiylar imperiyasining poydevorini uning bunyodkori avvalboshdanoq mehr-u muhabbat, insonparvarlik, o‘zaro ishonch va tenglik asosida barpo etganining badiiy ifodasini ko‘rish mumkin.

Bunda oqar suv yo‘q, yo‘qdir bog‘-u rog‘,
Toshqin Jamna oqib yotur befoyda.
Ekinsiz mung‘ayib yotibdi tuproq,
Daraxt ham ko‘karmas suvi yo‘q joyda, – (602-b.)

deya Bobur Mirzo o‘z odatiga ko‘ra elning farovonligiga zamin bo‘lgan suv va tuproqqa e‘tiborini qaratadi. “Nafasni qisadi Ogra havosi, Dehli, Dibalpurda salqin joylar kam”, – deya kuyinadi Bobur Mirzo. Yurtning ertasi, obodligini o‘ylab: “Ariq qazmoq erur buning davosi, Yurt bog‘-u rog‘ birlan bo‘lg‘usi ko‘rkam, Hammom bunyod qilsak Dehli, Ograda, Hovuzlar qazisak, aylasak gulzor”, deya atrof-olamni ezgulikka yo‘llaydi.

Bobur Mirzo o‘zining nekbinliligini, bag‘rikengligini, “mazhabparastlik kabi cheklanishdan va mutaassiblikdan yiroq”ligini (J.Neru) namoyish etib, “Bu elda sizlarsiz ish tutmoq mushkul, Saroyga hindlardan vazirlar darkor”, – deydi va u hind olimlaridan Shayxoroni o‘ziga vazir qilib tayinlaydi. Adib bu tasvirda ham tarixiy haqiqatga suyanganligini ko‘rishimiz mumkin. Shuningdek, roja Singx, Anand, Krishnan kabi hind xalqiga mansub obrazlar orqali adib Bobur Mirzo qiyofasida adolatli, shafqatli, raiyatparvar hukmdorni o‘zlariga haqiqiy yo‘lboshchi, rahnamo deb tan olgan butun hindistonliklarning umumlashma timsolini ham ishonarli yarata olgan.

Ma'lumki, ma'rifatli dunyo Bobur Mirzoning qalamdagi iqtidorini Alisher Navoiydan, mamlakatdorlik siyosatini bobokaloni Amir Temurdan keyin ikkinchi o'ringa qo'yadi. Dostonda muallif o'z zamonasi uchun ancha qaltis bo'lgan shu haqiqatni badiiy yo'sinda aytish imkonini topgan. Asarda Bobur Mirzo Alisher Navoiy va Amir Temur ruhi bilan xayolan suhbatlashadi.

Ona yurt, Vatan sog'inchidan iztirob chekayotgan Bobur Mirzo taskinni Navoiydan topgandek bo'ladi, shoirning g'urbat va g'ariblik haqidagi jono'rtar misralarini pichirlab takrorlar ekan, go'yo qarshisidan Hazratning o'zi chiqib keladi. Navoiy Bobur Mirzoning chekiga tushgan shohlik va shoirlik uning uchun kechib bo'lmas qismat ekanligini uqtirar ekan:

Qutlug' xazinaga uribsan panja,
Onda durri gavhar behad, behisob.
Sarf etsang yetgusi yetti tumang'a,
Turkiy ila ayla umring sarhisob, – (584-b.)

deydi. Navoiy ruhi Bobur Mirzoga g'urbatning g'arib onlarini mardonavor yengishga yordam berar ekan, uning turkiy tildagi ijodi umri mazmuniga tengligini aytib, shoirning millati oldidagi bu xizmatini "Asrlar subhida ko'rsatur jamol!.." deya bashorat qiladi.

Amir Temur ruhi bilan suhbat ham Bobur Mirzo obrazining yanada yorqinroq, to'laqonli chiqishiga sabab bo'lgan. O'zi bunyod etgan buyuk davlatning bir-bir ustunlari qulayotganidan ruhi bezovta sohibqiron: "Temur desa turdi oyoqqa dunyo.. Dunyog'a tanitdim ulug' millatim", – deydi. Keyingi so'zlarida sohibqiron bunday sha'n va shavkatga loyiq ko'rilishining sabablarini aytadi:

Adl janglar qildim zamon zayli-la,
Haqiqat yo'lida tolmay kurashdim.
Muruvvat ko'rsatib muslim ahliga,
Insonga yaxshilik qilmoqqa shoshdim. (594-b.)

Sohibqironning o'z so'zlari orqali adib Amir Temur dahosining mangulikka daxldor jihatlarini ta'sirchan ifoda etgan. Keltirilgan she'riy parchaning misralari

boshlarida eslatilgan Adl, Haqiqat, Muruvvat sohibqiron davlatining mustahkam asosi bo'lganligini, bu asoslar hech bir o'zgarishsiz Bobur Mirzoning ham mamlakatdorlik siyosatiga ko'chganini adib o'ziga xos tagma'noda ifodalab, ayni paytda ko'zlagan g'oyaviy-badiiy maqsadini ham amalga oshira olgan.

Tanlangan mavzu, uni tarixdan – olis va yoki yaqin o'tmishdan belgilash, tarixiy materiallarni saralashi, ularni badiiy asarga ko'chirish tamoyillari, ifodadagi tasvir prinsipi – bularning barcha-barchasi yaratiq qahramonlarining xarakter xususiyatiga, janr tabiatiga: asar sujeti, kompozitsiyasi, konfliktiga, asar tili va yozuvchi uslubiga ta'sir etishini yaxshi bilamiz. Ijod erkinligi cheklangan, har xil mafkuraviy to'siqlar qo'yilgan bir paytda yozuvchi xalqi ko'zi bekilib qolgan buloq kabi o'zligini namoyon qilishi uchun yo'l qidirishi, turli badiiy usullar, imkoniyatlarni ishga solib dilidagini tiliga ko'chirishga harakat qilishi va shu asnoda ma'lum bir natijalarga erishishi adabiy tajribalardan ayon. Ammo shunday vaziyatlar bo'ladiki, ba'zan o'sha natijalar o'zini oqlashi, yaxshi badiiy effekt berishi ham mumkin, ba'zan esa e'tirozli holatlarni ham keltirib chiqarish mumkin.

Sho'ro davri adabiyotida bir vaqtlar shaxsning tarixdagi o'rni, xususan, hukmdorlar, din peshvolarining jamiyat taraqqiyoti, millat ravnaqi yo'lidagi xizmatlaridan ko'z yumish, mafkura ta'siridagi biryoqlama yondashuvlar (Abdulla Qahhorning 1962-yilda yozilgan "Ashula to'g'risida" nomli maqolasida aynan shu muammo ko'tarilgan) ularning shaxsiyatiga noxolis munosabatni keltirib chiqardi, bu esa o'z navbatida tarixiy mavzudagi asarlarda qorishiq, ba'zan haqiqatning yuzi xira tortadigan talqinlarning paydo bo'lishiga ham sabab bo'ldi.

Xuddi shu masalada shoir Usmon Azim o'zining "So'ngso'zlar" kitobida alohida to'xtalib, Xalil Sulton va Shodimulk muhabbat qissasi Maqsud Shayxzodaning "Mirzo Ulug'bek" tragediyasida Mirzo Ulug'bek va Feruzaga o'tib qolishida, Mirzo Ulug'bek va Xo'ja Ahror o'rtasidagi bahs-munozaralarda, shuningdek, Izzat Sulton va Uyg'unning "Alisher Navoiy" dramasida Majididdinning Mo'min Mirzoning qotillaridan biri sifatida ko'rsatilishida tarixiy shaxslarga nisbatan adolat prinsipi buzilganligini ta'kidlaydi.

Usmon Azimning fikricha, “Uzoq tarixni yozganda o‘zingni erkin tutasan. Tarixiy voqealarni ijodiy o‘zlashtirish doirasida bir butun shaklga keltirarkansan – sujet talabidan kelib chiqib – ozmi-ko‘pmi badihaga ham yo‘l qo‘yasan. Ammo bu erkinlikning axloqiy-ma’naviy chegarasi bor. Bu chegara tarixiy haqiqatni buzib ko‘rsatishdan saqlaydi, tarixiy shaxslar xatti-harakatlariga adolat bilan yondashishni talab qiladi. Bunday chegaradan chiqishni esa yozuvchining badiiy to‘qimaga huquqi bilan yoxud badiiy haqiqatni hayotiy haqiqatdan ustunligi bilan oqlab bo‘lmaydi. Yozuvchining tarixiy materiallar asosida badiiy haqiqatni yaratish yo‘lidagi fantaziyasi tarixiy shaxslarga nisbatan adolat prinsipini buzmagani taqdiridagina moziy voqealaridan ozmi-ko‘pmi xabari bor kitobxonning g‘ashiga tegmaydi”²¹².

Usmon Azim afsus bilan ta’kidlagan g‘ashga, ko‘ngilga tegib, zukko kitobxonda e’tiroz tug‘diradigan bunday holatlarning kelib chiqishini obyektiv va subyektiv sabablari bor, albatta. Millat o‘z tarixiy ildizi oziqlanuvchi manbalarini bilsa, ma’naviy madad olsa, uni egib olish ancha mushkul bo‘lishini bilgan qabih mafkuraviy kuchlar beqiyos darajada boy o‘tmishimizni, tarixiy siymolarimiz, ularning hayot yo‘llari, siyosiy-ijtimoiy faoliyatlari, murakkab taqdir yo‘llari haqidagi muhim ma’lumotlarni sir tutib, vaqti kelsa, goh oshkor, goh yashirin taqiqlab maxfiy, “yopiq fond”larda saqlab kelganlar. “...Hali olis va yaqin o‘tmishimizning tarix to‘zonlari ichra qo‘shilib yotgan sahifalari ko‘p. Ularni zamondoshlarimiz ko‘z o‘rnida munavvar etmoq uchun ...adib va tarixchilarimiz hamkorlikda juda ko‘p ishlarni amalga oshirishlari kerak, faqat yozuvchi tarixni yaxshi o‘rganishi shart bo‘lganidek, badiiy asar haqida fikr yuritayotgan tarixchi ham adabiyotni yaxshi o‘rganish shart”²¹³, – degan fikrning asosli ekanligini jarayonning o‘zi ko‘rsatib turibdi.

Masalaga yechim yozuvchining insoniy va ijodiy mas’uliyatida qolyapti. Buyuk Tolstoy: “Men hamma uchun yozaman” degan ekan. U bu fikr bilan badiiy adabiyotning ommaviylik xususiyatini ta’kidlagan. Aynan shu o‘rinda turli

²¹² Azim U. So‘ngso‘zlar. – T.: Ilm-ziyo-zakovat, 2020. – B. 342.

²¹³ Sulton X. Haqiqat jamoli. – T.: MASHHUR – PRESS, 2019. – B. 142.

saviyadagi g'oyatda katta auditoriyani tashkil qiladigan o'quvchining ko'pchilik qismi tarixiy asarda o'qiganini aynan haqiqat deb qabul qilishni ham unutmashimiz kerak bo'ladi. Bu borada Usmon Azimning olis o'tmishdan o'zlarining haqiqiy ismlari bilan badiiy asarga kirib kelgan real tarixiy shaxslarning faoliyatlarini badiiy ifoda etishda yozuvchining mas'uliyati haqidagi e'tirozi o'rinli ekanligini e'tirof etish adolatdan bo'lardi, aks holda bugunga kelib ham bir paytlari odamlarning sha'niga befarq qaragan, ne buyuk insoniy taqdirnlarni bepisandlarcha hukmron mafkura xohish-irodasi o'zaniga burgan qattol davr oqavasida yashab, fikrlab yuraveramiz.

Biz tahlilga tortgan "Kun va tun" dostonida ham yozuvchi badiiy taxayyuliga ko'ra Bobur Mirzo bilan Husayn Boyqaroning uchrashish sahnasi bor. "Boburnoma"ning 1505-1506-yil voqealarida Bobur Mirzo: "Sulton Husayn mirzo Muhammad Shayboniyxonning daf'ig'a azm-jazm qilib, tamom o'g'lonlarini tilatti, meni dag'i Sayid Sulton Ali Xobbinning o'g'li Sayyid Afzalni yiborib tilab edi. Xuroson jonibini azimat qilmoq bizga necha jihattin lozim bo'ldi. Bir bukim, Sulton Husayn mirzodek Temurbek o'runig'a o'lturg'on ulug' podshoh yig'noq qilib, atrof va javonibdin o'g'lonlarini va beklarini tilatib, Shayboniyxondek g'animning ustiga ozim bo'lg'onda el, oyoq bila borg'onda, biz bosh bila borg'aybiz, el tayoq bilan borg'onda – biz tosh bila borg'aybiz"²¹⁴, – deb yozadi.

Ammo Bobur Mirzo Husayn Boyqaro bilan uchrasha olmaydi, orziqib kutgani, juda katta umid bog'lagani "Temurbek o'runig'a o'lturg'on ulug' podshoh bilan" yelkama-elka turib Shayboniyxonga qarshi jangga kirolmaydi. Chunki: "Bu yilning oxiri zulhijja oyida Sulton Husayn mirzo Shayboniyxonning ustiga cherik tortib, Bobo ilohiyg'a yetganida tengri rahmatiga bordi"²¹⁵, – deya ma'lumot beradi "Boburnoma"da. Bobur Mirzo Husayn Boyqaroning vafotidan so'ng o'g'illari – Badiuzzamon va Muzaffar mirzolar taklifi bilan Hirotga boradi. Xadichabegim tarafidan marhum xotirasiga bag'ishlab o'tkazilgan ma'rakalarda ishtirok etadi. Bir muddat u yerda yashab qoladi.

²¹⁴ Bobur Zahiriddin Muhammad. Kulliyot. 5-jild. Boburnoma. Kobul davri voqealari. – T.: Zilol buloq, 2021. – B. 58.

²¹⁵ O'sha joyda.

“Kun va tun”da adib Bobur Mirzoning Hirotga kelishini asar sujetining sevgi liniyasi bilan bog‘laydi. Ijodkor badiiy taxayyuliga ko‘ra, Samarqand Shayboniyxon qo‘liga o‘tgach, ota yurtini tark etishga majbur bo‘lgan sevgilisi Ma’sumabegimni ko‘rish uchun Bobur Mirzo Hirotga keladi. Bobur Mirzoning Hirotga kelayotganini eshitgan Husayn Boyqaro o‘g‘illari bilan uni kutib olish uchun Jo‘yi Injilga chiqadi. Muallif Boyqaro portretini o‘sha davrning tang holatdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatiga mos tasvirlaydi:

Husayn Boyqaro siymosi so‘lg‘in,
Xira ko‘zlarida g‘ussali armon.
Nogiron qalbida so‘nganday yolqin,
Asoga suyanib, boqar bedarmon.

Movarounnahr butunlay boy berilgan, Xuroson ham katta xavf ostida. Dostonda qahramon portreti davr portretiga mos yaratilgan: “Quvg‘inga uchragan Ko‘ragon nasli”. Adib butun boshli temuriylar saltanatining parokanda qiyofasini Boyqaroning zohiriy ko‘rinishiga jamlaydi. “Boshda kulrang dastor...”, “Xira ko‘zlarida g‘ussali armon”, “Qilichday qomati bukchayib qolgan”, “Asoga suyanib boqar bedarmon”, “Yuzlarini chimchilar kulfat shamoli”, “Qoshlariga qirov tashlagan hayot” kabi Boyqaro portreti chizgilarida ota va o‘g‘il o‘rtasidagi so‘ngsiz nizolar, ichdan zil ketgan muhit, toj-u taxt dag‘dag‘asida begunoh to‘kilgan qon, tuzatib bo‘lmas son-sanoqsiz xatolar, dushmanga boy berilgan vaqtning uvoli, alami va iztirob izlari yaqqol namoyon. “Inqirozga yuzin tutgan Xuroson, Quladi Husaynning tayanch ustuni” satrlaridagi tagma’no orqali Boyqaroning bunday shikasta holatiga Navoiydek tayanch-ustun – do‘sti sodiqning yo‘qligi ham sabab ekanligini anglab yetamiz.

Doston sujetidan juda kichik bo‘lsa-da, Majididdin ham o‘ziga xos o‘rin egallagan. “Kiftiga minganday bulutli osmon, Qo‘lda o‘ynatar Majididdin uni” (Husayn Boyqaroni – Y.K.) tasvirining o‘ziyoq o‘quvchi tafakkurida vaziri a’zam faoliyati bilan bog‘liq assotsiatsiyalarni uyg‘otadi. “Kun va tun” ijodkori ham Majididdin qiyofasining chizgilarida “Alisher Navoiy” dramasi mualliflari izidan borganligi ko‘rinib turibdi.

Haqli bir savol tug‘iladi: Adib qanday badiiy maqsadga ko‘ra Bobur Mirzo bilan Husayn Boyqaroni hayotda uchrashtirdi, tarix haqiqatiga zid holatda yuzmayuz qildi? Umume’tirofga ko‘ra, Shayboniyxon bosqinidagi qaltis ijtimoiy-siyosiy vaziyatda Temuriylar saltanatini qutqarib qolishi mumkin bo‘lgan ikkita real kuch bor edi. Biri Xurosonda – temuriy hukmdorlarning ulug‘i, “Boburnoma”da qayd etilganidek, “mardona va sohib tajriba podshoh” Husayn Boyqaro, ikkinchisi Movarounnahrda yosh, navqiron, yovqur shahzoda Bobur Mirzo.

Shuning uchun vaziyatni to‘g‘ri baholay olgan, boshqa temuriy shahzodalarning ahvol-sajiyasidan yaxshi xabardor Alisher Navoiy umid ko‘zini Bobur Mirzoga tikkan. Bobur Mirzo ikkinchi bor Samarqandni Shayboniyning qo‘lidan tortib olganda maktub jo‘natib, unda “Bobur Mirzoning nomiga ishorat qilib, Samarqandni olishi bu gal yo‘lbarsga xos, ya’ni mardona yo‘l bilan bo‘lganini ifoda qilgan”²¹⁶.

Afsus va armon shuki, ana shu ikki mardona kuch yagona yovga qarshi birlasholmadi, bu birlasha olmaslikka Husayn Boyqaroning tadbirsizligi sabab bo‘ldi. Shuning uchun ham Bobur Mirzo: “Sulton Husayn Mirzodek mardona va sohib tajriba podshoh bizga madad qilmay bizga ko‘ngil ko‘maklar berib elchi yubormay, Shayboqxong‘a Kamoliddin Husayn Gozurgohiyini muhosara vaqtida elchilikka yibordi”²¹⁷, – deydi nadomat bilan.

Barot Boyqobilov bu tarixiy voqealarini qayta badiiy idrok etish asnosida Husayn Boyqaro timsolida tarixda shaxsning roli nechog‘li ekanini yana bir bor ko‘rsatishga harakat qiladi. O‘nlab janglarda dushmanlarini yer bilan yakson qilgan, “Shujo’ va mardona... Borlar o‘zi qilich tegurubtur. Temurbek naslidin hech kim ma’lum emaskim, Sulton Husayn Mirzoga qilich chopmish bo‘lg‘ay”²¹⁸ – e’tiroflar egasi vaqtiki kelib butun mamlakat, saltanat taqdiri hal bo‘layotganda ichki nizolar qobig‘iga o‘ralashib qolishi, sustkashlik, faoliyatsizlik qilishi,

²¹⁶ Bobur Zahiriddin Muhammad. Kulliyot. 4-jild. Boburnoma. Farg‘ona davri voqealari. – T.: Zilol buloq, 2021. – B. 108.

²¹⁷ O‘sha joyda. – B. 115.

²¹⁸ Bobur Zahiriddin Muhammad. Kulliyot. 5-jild. Boburnoma. Kobul davri voqealari. – T.: Zilol buloq, 2021. – B. 60.

muhimni nomuhimdan ajratishga ojizligi inqirozli intihoga olib keldi. Aytish mumkinki, shuning uchun Husayn Boyqaroning insoniy taqdiri ham, hukmdorlik qismati ham oxirida chiroyli yakun topmadi. Adib mana shunday hayotning dramatik yakunini bor bo'yicha ko'rsatish uchun ham Husayn Boyqaro va Bobur Mirzoning yuzma-yuz bo'lish sahnasini sujetga kirgizadi. Va biz bu sahnada fozil va mislsiz el bilan to'la, har tomonlama gullab yashnagan Xurosonning – "Ajab zamone" hukmdorini emas, balki xatolari, adashishlari yukining zalvaridan qilichday qomati bukchayib qolgan zabun Sulton Husaynni ko'ramiz.

Badiiy yuki ancha salmoqli, o'quvchini mushohadaga chorlaydigan bu sahnada yana bir nozik nuqta bor. Butun vujudidan azm-u shijoat, aql-zakovat yog'ilib turgan Bobur Mirzoning suhbatidan zavqlangan Husayn Boyqaro:

–Qulluq, Bobur Mirzo! Navoiy go'yo
Qoshimda turganday masrurmen bugun.
Ash'oringiz bermish ko'zimga ziyo,
Tangri tole'ingiz etmasin nigun, – (588-b.)

deya duo qiladi. Bobur Mirzo Boyqaroga "Aytganingiz kelsin ilohim, Mirzo, Yuz tuban tushmasin saltanatimiz", – deya tilakdosh bo'ladi. Doston muallifi keksayib, o'z umr shomi qarshisida ojiz turgan Husayn Boyqaro timsolida temuriylar saltanatining tanazzulini tasvirlagan bo'lsa, navqiron, nekbin Bobur Mirzo qiyofasida bu shonli saltanatning yangi sahifalarini tarix zarvaraqlariga muhrlaydigan munosib voris borligiga ishora qiladi.

Yozuvchi Xayriddin Sulton: "...badiiy asarda yozuvchi tarixiy faktning o'zini "asliga to'g'ri" holda quruq qayd etish bilan cheklanmaydi, aksincha, tarixiy fakt mohiyatini tahlil qiladi... ayrim faktlar aynan emas, asarning badiiy konsepsiyasiga mos tarzda talqin etiladi... asosiy gap: badiiy tasvirning tarixiy faktga emas, balki tarixiy fakt mohiyatiga mos kelishidadir"²¹⁹, – deydi.

Muallif fantaziyasiga ko'ra doston sujetiga kiritilgan Husayn Boyqaro va Bobur Mirzoning uchrashuv sahnasi orqali davrning tarixiy manzarasi, hukmron siyosiy-ijtimoiy vaziyat shu qadar aniq va ta'sirchan talqin etilganki, bu "Kun va

²¹⁹ Sulton X. Haqiqat jamoli. – T.: MASHHUR – PRESS. – B. 138.

tun” dostonining badiiy konsepsiyasiga, Xayriddin Sulton ta’kidlagandek, talqinga tortilgan tarixiy fakt mohiyatiga (Tun – temuriylar saltanati inqirozi, kun – temuriylar sha’n-u shavkatining barhayotligini ko’rsata olgan Bobur va u asos solgan imperiya) ham to’liq mos tushgan deya olishimiz mumkin.

O‘zbekiston xalq shoiri To‘lan Nizomning Bobur Mirzoga bag‘ishlangan dostoni haqida adabiyotshunos Ozod Sharafiddinov shunday yozadi: “Shoir moziyning yanada olisroq manzillariga – Zahiriddin Muhammad Bobur yashagan davrga adabiy sayohat qilib, bu ulug‘ shoh va shoir haqida “Uch so‘z” dostonini yaratdi. Dostonda To‘lan Nizom Bobur umrini boshdan oxir miridan-sirigacha hikoya qilib berishini maqsad qilib qo‘ymaydi, faqat bu mag‘lubiyat va zafarlarga, quvonch va qayg‘ularga to‘la hayotning eng muhim o‘rinlarini aks ettirish orqali yaxlit poetik obraz yaratishga muvaffaq bo‘ladi”²²⁰.

Darhaqiqat, garchi doston qaysidir ma’noda biografik xarakterga ega bo‘lsa-da, biz asarda “Boburnoma” xronikasi bilan teng kechadigan voqea-hodisalarning zohiriy tasvirini emas, balki o‘ta ziddiyatli, murakkab taqdir egasi Bobur Mirzoning hayot zarbalari, qismat o‘yinlari-yu, “charxning jabr-u jafolari” qarshisidagi botiniy dunyosini, psixologiyasini, tuyg‘ular, kechinmalar girdobida qalqib borayotgan qalb manzarasini ko‘ramiz.

Dostonga epigraf qilib olingan Bobur Mirzo misralari muallif badiiy konsepsiyasi haqida dastlabki ma’lumotni beradi:

Tamomi umrida Boburg‘a uch so‘z aytibdur:

Biri so‘kinch-u, biri – qattiq-u, biri yolg‘on.

Muallif dostonga so‘kinch (So‘kinch (so‘kunch) – nafsoniyatga teggizib aytilgan ibora. “Boburnoma”da so‘kinch ma’nosida nomard, mardak, ko‘rnamak kabi so‘zlar qo‘llangan²²¹), qattiq, yolg‘on taqdirning mushtlariga yelka tutgan Bobur Mirzoning Movarounnahr, Kobul, Hindiston hududida kechgan hayotining eng qaynoq nuqtalarini olib kiradi, kitobxon diqqatini qahramon ruhiyatidagi ichki dramatik kolliziyalarga qaratadi.

²²⁰ Sharafiddinov O. Niyatim zo‘r, kasbim – yaxshilik. To‘lan Nizomning “Vatan surati” kitobiga so‘ngso‘z. –T.: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2019. – B. 355.

²²¹ Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi. – T.: Sharq, 2014. – B. 477.

“Uch so‘z” dostoni kompozitsiyasi “Boburnoma” tarhini eslatadi. Uch mamlakat: Movarounnahr, Kobul, Hindistonda kechgan Bobur Mirzo hayotining eng muhim o‘rinlari dostonning uch bobiga asos bo‘lgan. “Uch so‘z” dostoni kompozitsiyasidan g‘azal, ruboiy, bag‘ishlov, marsiyalarning joy olishi asarning an’anaviy dostonlar kabi bir vaznda emasligini ko‘rsatadi.

“To‘lan Nizom dostonlari, – deb yozadi Muhammad Ali, – go‘yo turli parchalardan iborat, turli vaznlarda yozilgan she‘rlardan tashkil topgandek tuyuladi. Lekin ular birlashganda ajoyib manzarani vujudga keltiradilar. Bu ma’noda ular bamisoli mozaik pannoga monand – yaqindan qarasangiz alohida-alohida bo‘lak, parchalardan iborat, uning ustiga bu parchalar ranglari ham turlicha. Lekin uzoqdan qarasangiz, parchalar bir-birini to‘ldirib, turli ranglar ham bir-biriga quyilib ketadi, yaxlit surat namoyon bo‘ladi”²²².

Bu surat Olloh juda erta omad va taxt berib siylagan, iste’dod va talant, musibat va qiyinchilik, hijron va sog‘inchlar aro sinalgan Bobur Mirzoning bir butun poetik obrazidir. Doston Qo‘shtegirmon, Andijonning eng katta dahasidagi ulkan shodiyona tasviri bilan boshlanadi. Farg‘ona mulkinging hokimi, temuriy hukmdor Umarshayx Mirzo o‘g‘illi bo‘libdi degan xushxabar atrofga yoyiladi.

Milodiy 1483-yil muharram oyining ikkinchi juma tongida tun bo‘yi yomg‘ir aralash yog‘gan qor tongda tindi, yorishib kelayotgan osmon chetidan bosh ko‘tarib chiqayotgan quyoshning yorug‘ nurlari bilan birga-birga dostonda aytilganidek: “Bir o‘g‘il tug‘ildi, raso mukammal, Tarixning toshiga ko‘chdi bu sana”²²³. Onalik baxtidan masrur Qutlug‘ Nigorxonimning bag‘ri erta tongdan ham go‘dak, ham quyoshning iliq nuriga to‘ldi. Asarda muallif temuriyzoda, valiahd shahzodaning yorug‘ dunyoga kelish shodiyonasini o‘sha davr, o‘sha muhit, ob-u havosiga mos ishonarli tasvirlaydiki, kitobxon o‘zini besh asr ortda, qadim Andijon bag‘rida kabi his etadi.

“Shodlikka ko‘mildi Qo‘shtegirmon xo‘p, Uyma-uy yugurdi momo-kampirilar”, o‘g‘il nabira ko‘rganidan o‘zida yo‘q “Eson Davlatbegi qay qavmi

²²² Ali M. Yurakka Vatan suratini chizib. (Boshso‘z). To‘lan Nizom. Tanlangan asarlar. – T.: Sharq, 2018. – B. 8.

²²³ Nizom T. Tanlangan asarlar. – T.: Sharq, 2018. – B. 389. (Bundan so‘ng ushbu nashrdan olingan ko‘chirmalarning sahifasini ko‘rsatuvchi raqamlar qavs ichida berib boriladi).

borki, Bariga yetsin der qutlug‘ xushxabar” (389-b.). Yangi nabira daragidan ko‘zi yoshlangan chingiziy boboning hayajonini ko‘rsatish uchun ham shoir g‘oyat to‘g‘ri ibora qo‘llagan: “Yunusxon kelyapti to‘lib o‘pkasi” (390-b.). Shaharni bag‘riga olgan shukuh, surur “Karnay sadolari, jarchilar sasi, Osmonni buzguday o‘tkir, larzakor” misralarida ko‘rsatilsa, dostonida joylarning qadim nomi bilan eslanishi, ayniqsa, Qoradaryoning o‘tmishdagi nomi ifodaning tarixiyligini ta‘minlash bilan birga, tasvirga yanada mahobat, sirlilik ulashayotganday: “Qo‘shtegirmon, Ark mehmonga to‘ldi, Hayqirib oqardi Ilamish mag‘rur”(390-b.).

Dostonida otalik baxtidan masrur Umarshayx Mirzo xatti-harakati bilan bog‘liq bir tasvir borki, muallifning g‘oyatda muvaffaqiyatli bu topilmasi asar konsepsiyasini, muallif badiiy niyatini belgilashda g‘oyatda muhim:

Chaqaloq boshida ota tashladi

O‘ng yonga shamshir-u so‘l yonga qalam.

Qutlug‘ Nigorxonim ko‘zin yoshladi,

Qandaydir his eltib qalbini shu dam. (390-b.)

Eson Davlatbegimdek “bisyor oqila va mudabbira” (Bobur Mirzo) ayolning tarbiyasini olgan, valiahdni dunyoga keltirgan Qutlug‘ Nigorxonimning onalik qalbi nelarnidir oldindan sezib ko‘zi yoshlangan bo‘lsa, ajab emas. Shoir onaning ana shu ruhiy holati tasviriga ham o‘ziga xos badiiy yuk, estetik ma‘no yuklaydi.

Go‘dak Zahiriddin boshining o‘ng va so‘l tomoniga tashlangan qilich va qalam Bobur Mirzoning shohlik va shoirlilik qismatiga ishora bo‘lsa, ikkinchidan, muallif bu muvaffaqiyatli topilgan detallar orqali sohibqiron Amir Temur davlatni oqilona boshqaruvida faqat qilichgagina emas, balki aql, zakovat, ilm-u ma‘rifatga ham tayanishdek hayotbaxsh amalni ustuvor tutganligini, Bobur Mirzo esa bu an‘anaga munosib voris bo‘lganligini ko‘rsatishdek ma‘rifiy maqsadni ko‘zlaydi.

Zamonaviy dostonnavisligimizdagi adabiy an‘analar, vorisiylik, badiiy izlanishlar haqida fikr yuritib: “...hayotdagi o‘zgarishlar o‘z-o‘zicha janr tabiatiga yangiliklar olib kirmaydi. Hamma gap hayot materialining badiiy talqinida, shoirning ijodiy nuqtayi nazari, qanday yondashishi va qay yo‘sinda yoritishda shoirlarning g‘oyaviy-estetik maqsadi, ijodiy konsepsiyasi va poetik mahoratiga

bog‘liq”²²⁴, – deydi adabiyotshunos No‘monjon Rahimjonov.

Tarixiy davr materiallarini badiiy idrok etish talabiga ko‘ra epik tasvir biz tahlilga tortgan dostonlarning har birida o‘ziga xos yo‘sinda namoyon bo‘lganini kuzatishimiz mumkin. Doston sujetiga asos bo‘lgan ijtimoiy voqelikdagi o‘zgarishlar, hayot materiali, tarixiy haqiqatni badiiy ifoda etish taqozosiga ko‘ra, dostonda goh lirik, goh epik, goh dramatik tasvir belgilari ko‘zga tashlanadi. “Uch so‘z” dostonida epik tasvir unsurlari voqelikni tavsifiy emas, balki lirizm bilan uyg‘un holda aks ettirgan. Bobur Mirzoning tavalludi, valiahdning dunyoga kelishi shodiyonasi, ko‘pdan kutilgan o‘g‘il farzand quvonchidan saodatmand Umarshayx Mirzo va Qutlug‘ Nigorxonim holatlari, ism qo‘yish tantanalari, Bobur Mirzoning Andijon qo‘rg‘onida buvisi Eson Davlatbegim g‘amxo‘rligida kechayotgan beg‘ubor bolaligi, diniy va dunyoviy ilmlarni o‘zlashtirib, harb san‘atini egallab borishi voqealari tasvirida lirik bo‘yoqning ustunligi seziladi, manzaralar ifodasida o‘ziga xos ko‘tarinkilik, pafos hukmron:

Bola durkun o‘sdi bir nihol yanglig‘,
Ko‘zlari chaqnaydi yorug‘ yulduzday.
Sochlari qo‘ng‘iroq, kipriklari tik,
Qoshlari qop-qora, misli qunduzday (390-b.)

portret tasvirida Bobur Mirzoning to Umarshayx Mirzo halokatigacha bo‘lgan davr bolaligi – baxtli damlari, beg‘am onlarining suratlari zohir bo‘lsa, “Ular kitob o‘qir, har lahza paydo – Pokiza ruh ichra yorqin yulduzlar” tasviridan keyin Forobiy, Koshg‘ariy, Narshaxiy, Sohibqiron Temur, Navoiy, Sa‘diy kabi buyuk daholarning yodga olinishi Bobur Mirzoning butunjahon e‘tirof etgan qomusiy tafakkuri suv ichgan ildizlarni ko‘rsatadi. Aynan shu tasvirlar o‘quvchiga Bobur Mirzoning botiniy ulg‘ayishi haqida ham badiiy axborot beradi.

E‘tibor bersak, Bobur Mirzoning tashqi va ichki portreti tasvirining har ikkisida ham yulduz timsoli qo‘llangan. Muallif zohiriy tasvirda Bobur Mirzo ko‘zlarini yorug‘ yulduzga mengzasa, botini tasvirida o‘qib-o‘rganish asnosida

²²⁴ Rahimjonov N. Lirikada epik tasvir qirralari. Adabiy turlar va janrlar. Uch jildlik. 1-jild. – T.: Fan, 1991. – B. 201.

Bobur Mirzo qalbida paydo bo‘layotgan ravshanlikni yorqin yulduzga o‘xshatadi. Bu tasodif emas, muallif ushbu satrlarda qalbda bori ko‘zda aks etadi, ko‘z qalb tarjimoni degan fikrni badiiy ifodalagan. Dostonda aytilganidek, bir dunyo buyuk orzular yetilayotgan Bobur Mirzo qalbi – pokiza ruhning makoni, unda “Kundan kun sir ochur yer bilan samo”, qolaversa, Bobur Mirzo butun dunyoning ma’rifatli insonlari ko‘nglidan aynan ana shu pokiza ruh makon qalbi bilan joy olmadimi?!

Agar obrazning assotsiativlik xususiyatini nazarda tutsak, Bobur Mirzoning temuriylar saltanati ko‘kida yulduz misol charaqlab chiqqanini eslashimiz ham ifodaning mohiyatini teranroq tushunishimizga asos bo‘ladi. “Uch so‘z”da avval bu mavzuda bitilgan dostonlardan farqli o‘laroq, Bobur Mirzo ma’naviyatining o‘zak qismi badiiy ochiqlanadi. Ta’kidlash lozimki, bu ochiqlanishning tayanchi, albatta, “Boburnoma”ning o‘zi boburshunoslar e’tirof etgandek, “Dunyo avliyo zotlardan xoli emasligi, hayotda Haq taoloning valiy bandalarining tasarrufi va ma’naviy ta’siri borligi, dunyo hayotining ustki – zohiriy tomoni bo‘lganidek, uning ichki – ko‘rinmas botiniy tarafi ham mavjud ekani haqida tushunchalar “Boburnoma” bayonlarida keladigan sirlar xazinasidir. “Asardagi Xoja Ubaydulloh Ahror, Shayx Puron (Parron), Shayx Maslahat – Muslihiddin Xo‘jandiy, Xoja Mavlonoyi Qoziy kabi zotlar haqidagi fikrlar ma’no olamining sirlaridandir”²²⁵.

Tug‘ilib o‘sgan Vatanida sho‘roviy aqidalar, turli ko‘rinishdagi tushovlangan, cheklangan, biqiq ilmiy qarashlar natijasida yetarlicha e’tibor topmagan Bobur Mirzo butun jahonda Sohibqiron Amir Temurning beshinchi avlodi o‘laroq kuchli genotipik xususiyatga ega, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-madaniy, ma’naviy ruhiy omillar ta’sirida kamol topgan fenomenal shaxs sifatida e’tirof etilgan, ilm odamlarini qiziqtirgan. Biz tahlilga tortayotgan “Uch so‘z” dostoni – mustaqillik davri mahsuli, ozod fikr, erkin ijod mevasi. Dostonning bu mavzudagi boshqa asarlardan farqi shundaki, unda Bobur Mirzodek fenomenal shaxs hayotining ma’naviy-ruhiy qirralari, ma’no olamining sirlari, bu olamda Xoja Ahror Valiy, Maxdumi A’zam Kosoniy kabi ruhoniylarning o‘rni,

²²⁵ Kenjabek M. Tarixiy davrlar ko‘zgusi. So‘zboshi. Bobur Zahiriddin Muhammad. Kulliyot. 4-jild. “Boburnoma”. Farg‘ona davri. –T.: Zilol buloq, 2021. – B. 18.

mavqeyi o‘z badiiy ifodasini topgan. Dostonda Bobur Mirzoning saboq paytlari eslanib:

Shohdan so‘rab olib o‘qirlar takror,
Xoja Ubaydullo Ahror xatlarin
Dilga jo qilurlar shomdan to nahor –
Ulug‘ Bahovuddin tariqatlarin (392-b.), –

deyiladi. Bobur Mirzo tug‘ilganda mo‘tabar 80 yoshga to‘lgan Xoja Ahror Valiy Umarshayx Mirzo xonadonining murshidi komili bo‘lgan. To‘lan Nizomning tahlilga tortilgan misralari “Boburnoma”da Umarshayx Mirzo haqidagi “Hazrati Xoja Ubaydullog‘a irodati bor erdi, suhbatlarig‘a bisyor musharraf bo‘lub edi. Hazrat Xoja ham farzand deb erdilar”,²²⁶ – degan ma’lumotga asosan bitilgan.

Dostonda shohdan (Umarshayx Mirzodan – Y.K.) so‘rab olib o‘qilgan xatlar (Xoja Ahror Valiy va Umarshayx Mirzo yozishmalari – Y.K.) mohiyatiga singdirilgan, temuriylar davri shon-u shuhrati, ravnaqi va rivojiga asos bo‘lgan Ulug‘ Bahovuddinning “Dil ba yor-u dast ba kor” ta’limoti valiahd shahzoda uchun ham dasturilamal ekanligi obrazli ifoda etilgan. Ayni paytda tahlilga tortilgan parchada Bobur Mirzoning Xoja Ahror Valiyga e‘tiqodi vorisiylik mezonida barqaror va bardavom bo‘lib qolishi badiiy asoslangan.

“Uch so‘z” dostonida Bobur Mirzo xarakterining shakllanish, toblanish jarayoni o‘ziga xos tadqiq etilgan. Biz bu jarayonni turli voqealar fonida, shuningdek, qahramonning ruhiyat olami, qalb manzaralari tasvirida ham kuzatamiz. Bobur Mirzo hayotidagi ilk yo‘qotish doston sujetiga ko‘ra uning bolalikdagi saboqdoshi, do‘sti Sardor bilan kechadi. Dostonda Sardor faol obraz emas, u haqda muallif kitobxonga Bobur xotiralari orqali ma’lumot beradi, chunki “Tasodif yuz berdi bemavrid o‘lim, Sardor yosh joniga tashladi changal”. Yosh Boburning jajji yuragini to‘ldirgan ayriliq azoblari, ko‘nglidagi samimiyat va sadoqat, judolik iztiroblarini yuzaga chiqarish uchun do‘sti bilan kechgan sohir xotiralar qahramon yodida suratlantiriladi. Bobur Mirzo tilida “Sog‘inarmen kalomlaring, isming tilimda” deya yodlanadigan daryo qirg‘og‘idagi sho‘x-sha’n

²²⁶ O‘sha manba. – B. 30.

sayrlar, chorbog‘ni shovqin-suronga ko‘mgan bolalik o‘yinlari, adog‘iga yetmay qolgan “Ming bir kecha” ertaklari – bularning barchasi tuyg‘u va kechinmalar manzarasini kitobxon ko‘z o‘ngida yaqqol namoyon etuvchi epik tasvir detallaridir. Bu detallar orqali kitobxon poetik tasvir va tafakkur yaxlitligida Bobur Mirzo qalbida jo‘sh urgan tuyg‘ularning moddiylashgan manzarasini, psixologik qiyofasini ko‘radi.

Sardor obrazi ko‘p ma’nodlilik xususiyatiga ega. Ma’sum, navnihol chog‘idayoq hayotdan ko‘z yumgan Sardor obrazida adib, aslida, Umarshayx Mirzoning bevaqt o‘limi tufayli Bobur Mirzoni juda erta tark etgan Bolalik timsolini yaratgan. Bejiz dostonda yosh Bobur tilidan iztirob bilan: “Tang-u tordir endi menga sensiz chorbog‘im... Meni erta tashlab ketding bolalik chog‘im”, – deyilmaydi. Ingliz olimi Uilyam Erskin: “Hali yigirma yoshga to‘lmay turib, u (Boburshoh – Y.K.) hayotning barcha achchiq-chuchuklarini, taqdirning issiq-sovug‘ini boshdan kechirdi. U goh unchalik nazarga chalinmaydigan shahzoda qiyofasida, goh ulkan saltanat egasi bo‘lgan g‘olib shoh, goh bevatan va quvg‘in qilingan qochoq qiyofasida ko‘z oldimizda namoyon bo‘ladi. Lekin har qanday holatda ham uni hayotdan umidvorlik, metinday iroda kuchi tark etmadi”²²⁷, – deb yozadi. “Uch so‘z”da Bobur Mirzo tiynatidagi ingliz olimi ta’kidlagan hayotdan umidvorlik, metinday iroda kuchi, charxning jabr-u jafolari ichida charxlanib, toblanib borgan jism-u joni tayangan kuch, qalbi, ruhi oziqlangan manbalar badiiy tadqiq etilgan.

Umarshayx Mirzo vafotidan keyin Farg‘ona mulkida boshlangan boshboshdoqlik, bek-u amaldorlarning xiyonati, og‘a-inilarining munofiqligi, temuriylar saltanati ichidagi parokandalik yosh hukmdor Boburni gangitib qo‘yadi. U bu illatlar ildizini topmoq istaydi. Bobur Mirzo javobni otasining ruhidan izlaydi, u bilan g‘oyibona suhbatlashadi. Doston sujetining eng dramatik sahnalaridan biri bo‘lgan bu suhbat jahon mumtoz badiiy tajribasi an’analari ruhida yaratilgan bo‘lib, dostonda tasvirlangan tang holatdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatlar

²²⁷ Erskin U. Hindistonda Boburshoh hukmronligi davri. Xorijda boburshunoslik. – T.: MUMTOZ SO‘Z, 2009. –B. 53.

fonida g‘oyatda ishonarli chiqqan. Negaki tiriklarning, Umarshayx Mirzo hayotligida undan ko‘p yaxshiliklar ko‘rgan, eng ishonchli beklarning ham shubhali harakatlarini sezgan yosh, tajribasiz Bobur madadni marhumlar dunyosidan, padari ruhidan tilashi tabiiy holat edi.

“Otajon, bu qanday mash‘um ko‘rgilik? Siz bilan bo‘yimni roslar edim tik!” deya zorlangan o‘g‘liga qarata ota ruhi uning chekiga tushgan mas‘uliyatni, tarixiy vazifani eslatadi: “Senki shoh o‘g‘lisan, unutmam faqat, Lek senga qoldirdim bir meros – Vatan”. Umarshayx Mirzo shohlik Bobur Mirzo uchun qismat va ayni paytda imkoniyat ekanligini ta‘kidlab, u valiahd shahzoda sifatida saltanat orqali xalqni, bobolardan meros Vatanni yaxlit, daxlsiz saqlab, mamlakatni saodatga yetaklamog‘i kerakligini uqtiradi. Shubha-gumonlar girdobida qolib ketgan Bobur Mirzoning “Men bilmas qadimiy g‘animlarni deng?” savoliga Umarshayx Mirzo “Ahmad Tanbal, Uzun Qosim, Qavchin²²⁸ va... Hasad”, deya javob berar ekan, bir necha munofiq beklarning qatorida Hasadni ham sanab, hasad hamma davrlarda ham saltanatning eng qadimiy g‘animi bo‘lib kelgan deb ko‘rsatadi.

Islom olamining yetuk mutafakkiri Abulhasan Movardiy: “Bilingki, hasad badanga zarar, dinga talafot yetkazgani bois mazammatga uchragan fe‘l-atvor sanaladi. Shuning uchun Alloh taolo uning yomonligidan panoh so‘rashga buyuradi. Alloh taolo aytadi: “Hasad qilgan hasadchining yomonligidan (panoh so‘rayman)” deb ayt” (“Falaq” surasi, 5-oyat). Hasadning qay darajada yomonligini bilish uchun shu oyatning o‘zi kifoya etadi... Hasadchi Alloh azza va jallaning taqdiridan norozi bo‘lib, bu ne‘matlar uniki bo‘lsa-yu, bermasa, qo‘lida tursa-yu, hech kimni yaqinlashtirmasa... Hasadning keng tarqalgan va jirkanch turi mana shudir. Chunki uning egasida rohat bo‘lmaydi, uni rozi qilishning iloji ham yo‘q. Agar bu hasad yomonlik va unga qodir bo‘lish bilan birlashsa, halokat va intiqomga aylanadi”²²⁹, – deb aytadi.

²²⁸ Shu o‘rinda saltanat dushmanlari sifatida sanalgan hasadgo‘y beklarning nomida muallif tarafidan yo‘l qo‘yilgan chalkashlik “Boburnoma”dan yaxshi xabardor o‘quvchida e‘tiroz uyg‘otishi aniq. Bobur Mirzo bu yovlashgan, unga xiyonat qilganlar orasida Ahmad Tanbal, Uzun Hasan degan beklarning bo‘lgan aniq, ammo Uzun Qosim, Qavchin ismlarida noaniqlik bor. Bu o‘rinda ismi parokanda qo‘llangan Qosim Qavchin aslida oldin Umarshayx Mirzoga, so‘ng Bobur Mirzoga cheksiz sadoqat, katta mehr-muhabbat bilan xizmat qilgan shaxs.

Bu haqda qarang: Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi. – T.: Sharq, 2014. – B. 515.

²²⁹ Movardiy A. Dunyo va din odobi. – T.: Hilol – Nashr, 2020. – B. 332.

Darhaqiqat, zarar va talafotlar manbai – hasad tug‘dirgan intiqom va halokatning necha biriga ko‘hna tarix guvoh. Movardiy ta‘kidlagan yomonlik va unga qodir bo‘lish bilan birlashgan hasad Abdulatif qiyofasida padarkushga aylandi, Mo‘min Mirzoning yosh joniga zavol bo‘ldi, Xisravshoh bo‘lib o‘z valine‘matlari farzandlarining ko‘ziga mil tortdi, Ahmad Tanbal bo‘lib Boburshohni o‘z yurtiga sig‘dirmadi, malika Dilovarbegim²³⁰ bo‘lib oshiga zahar soldi. Guvohi bo‘lganimizdek, doston muallifi Umarshayx Mirzoning hasadni bir tirik g‘animdek sanashiga katta falsafiy, badiiy ma‘no yuklagan. Ota-farzand suhbatidan yana bir tarixiy haqiqat oydinlashadi: hasad temuriylar saltanatining so‘nggi chog‘larida taxt minnati tug‘dirgan katta ijtimoiy dardga aylandi. “Hasadgo‘yda sharaf yo‘q” (Mansur ul-hakim) deganlaridek, temuriy hukmdorlar bu illat orqasidan nafaqat shon-sharafdan mahrum bo‘ldilar, balki saltanatni ham qo‘ldan boy berdilar.

“Uch so‘z”da Bobur Mirzoning yurtdan bosh olib chiqib ketish tasviri o‘ziga xos talqin etilgan. Vatanda bewatanlikdan bezgan, xo‘rlik, kamsitishlardan charchagan Bobur Mirzo “tokay sargardon bo‘lib yurmoq” deya mardona qarori bilan Xuroson talabig‘a o‘tlanib chiqib, “Boburnoma”dagi 1503-yil voqealari bayoniga ko‘ra Kobulga Hisor tog‘ tizmalarining etagidagi vodiya o‘tib borgan tog‘ portreti adabiyotshunos Bahodir Sarimsoqovning “Badiiy asar (obraz)ning jozibasini, o‘quvchini o‘ziga maftun etuvchi kuchi tasvir yoki ifodaning aniqligidir... Ijodkor aytmoqchi bo‘lgan g‘oya mavhum bo‘lsa, obrazning tashqi va ichki qiyofasi aniq tasavvur etilmagan bo‘lsa, uning tasviri yoki ifodasida aniqlik bo‘lmaydi”²³¹, – degan fikrlarini yodimizga soladi.

Adibning so‘z tanlay va uni qo‘llay bilish mahorati tufayli Hisor tog‘lari o‘quvchi ko‘z o‘ngida butun ulug‘vorligi bilan namoyon bo‘ladi. Tog‘ning zalvari, buyukligini ko‘rsatishni shoir uning poyida boshlanib, hech qachon boshiga yetolmaydigan bahor-u cho‘qqilarini mangu makon etgan qorliklar tasviriga

²³⁰ Manbalarda Bayda, Buy kabi berilgan ismlar boburshunos olim Botir Yo‘ldoshevning “Boburiy malikalar” (–T.: Osrip, 2022. – B. 84.) risolasida qayd etilishicha, qo‘lyozmadagi arab alifbosida yozilgan “beva” so‘zining noto‘g‘ri o‘qilishi bilan bog‘liq. Aslida, Ibrohim Lo‘diyning onasi ismi Dilovarbegim ekan.

²³¹ Sarimsoqov B. Badiiylik mezonlari. –T., 2004. – B. 117.

yuklaydi. Haqiqiy go‘zallik poyida turib, hissiz, jonsiz muzliklarni boshida ko‘targan tog‘ manzarasi Bobur Mirzo ruhoniy dunyosining iztirobli holatlari bilan naqadar uyg‘un, bu holatni Bobur Mirzo o‘zi shunday sharhlaydi:

Ko‘ngilni zor-u meni xor-u tanni tor etgan,

Biri jafo-u biri – g‘urbat-u, biri – hijron²³².

Yoshiga nisbatan bir necha barobar og‘ir jafolar jabrini tortib ulgurgan, poymollangan orzularni tark etib, “Keldi vaqtiki, boshimni olib ketgaymen” deya g‘urbatning kir etagini tutgan, ko‘ra-bila turib aziz jism-u jonini hijron deb atalmish berahm jallod ixtiyoriga topshirayotgan Bobur Mirzo qadamlarining ona yurt tuprog‘idan uzilib ketish onlarini muallif ham tasvirda, ham asar ritmida birdek ta’sirchan ko‘rsata olgan. Shu o‘rinda ifodaviylikda ham shoirning mahorati alohida e’tirofqa loyiq. “R” tovushining takroriga asoslangan alliteratsiya: *Hisor*, *purviqor*, *bahor*, *qor* poetik qatorlar musiqiylikni, ohangdorligini ta’minlagan. Ayni paytda, muayyan fikrni ta’kidlash, muayyan holatga urg‘u berish orqali erishilgan badiiy effekt, o‘z navbatida, yuqorida nazariy qoidada ta’kidlangandek, obrazning jozibasini, yorqinligini oshirganligi shubhasiz.

²³² Bobur Zahiriddin Muhammad. Kulliyot. 1-jild. Devon. – T.: Zilol buloq, 2021. – B. 183.

Baland Hisor	Qayg‘u ortib
Ey purviqor!	Borayotir
Poying bahor	Bahodir shoh
Boshingda qor	Bobur Mirzo,
Qoldi diyor	Kel, bir yo‘l ber
Qoldi diyor	Quchog‘ingda
O‘z boshiga	Bir yo‘lchi sher.

Biz yuqorida To‘lan Nizomning peyzaj, tabiat tasvirini yaratish, til badiiyatidagi mahoratini ko‘rdik. Ma‘lumki, “Asarda peyzaj bajaruvchi birlamchi funksiya voqealar kechayotgan joy va vaqt haqida tasavvur berishdir. Biroq peyzajning asardagi funksiyalari bu bilan cheklanmaydi, u polifunksionallik xususiyatiga ega. Bunda joy tasviri personaj ruhiyati bilan uyg‘unlik kasb etishi ham unga kontrastli fon bo‘lib xizmat qilishi ham mumkin”²³³.

Aytish mumkinki, dostonida To‘lan Nizom peyzajning polifunksional tabiatidan o‘rinli foydalangan holda tashqi olam manzaralarini qahramonning ichki olamiga ustalik bilan ko‘chira olib, salmoqli parallel tasvirlar yaratishga harakat qilgan. Bobur Mirzo bosib o‘tayotgan manzillar: “Dashti Morg‘o shamollari To‘xtamas hech...”, “Ko‘hi Hurd bor... Baland Hisor”, “Murg‘ob bunda azim daryo”, “Ham Herirud suvi oso” kabi tasvirlar go‘yoki Bobur Mirzoning yovqur tabiatiga parallel chizilgan, go‘yo uning insoniy jozibasiga (to‘xtamaslik – tinib-tinchimaslik, balandlik, azimlik, oso (asov) – bo‘ysunmaslik) tutilgan ko‘zgu.

Bobur Mirzo Vatandan bosh olib chiqib ketib Hisorga yetganda uning bilan birga oyoqlarida choriq, ustlarida janda chopon, qo‘llarida tayoq bo‘lgan 200 dan oshiq, 300 ga yetmaydigan odamlaridan tashqari hech vaqosi yo‘q edi. “Usrat (qashshoqlik – Y.K.) bu martabada edikim, bizning orada ikki chodir edi. Mening chodirim volidamg‘a tikilur edi. Manga har yurtta olachuq yasar edilar, olachuqda o‘lturur edim”²³⁴, – deb eslaydi Bobur Mirzo “Boburnoma”da (1503-1504-yil voqealari).

²³³ Quronov D. va boshqalar. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – T.: Akademiya nashri, 2010. – B. 220.

²³⁴ O‘sha manba. – B. 4.

To‘lan Nizom Bobur Mirzo va Baland Hisorni baqamti qo‘yib ham kontrastli fonda yanada ta’sirchan badiiy effektga ham erisha olgan. Tog‘ qancha baland, purviqor, yuksak bo‘lsa, uning qarshisida Bobur Mirzo zohiran o‘shancha zabun, o‘zi aytganidek, “usrat martabasida”. Ammo Bobur Mirzo ana shu turishda ham o‘zining buyuk insoniy qalbi, shu tog‘dan-da yuksak oriyati, temuriyzoda sururi bilan baland. Doston muallifi o‘zi o‘quvchiga yetkazmoqchi bo‘lgan fikrni topqirlik bilan til badiiyatiga ko‘chirgan.

Baland Hisor

Ey purviqor

Poying bahor

Boshingda qor

Qoldi diyor

Qoldi diyor –

poetik qatorlar jarangida zukko kitobxon ham ko‘z, ham quloq zarofati bilan Bobur Mirzoning umr mazmuni, e’tiqodi darajasiga ko‘tarilgan *or* tushunchasining qayta-qayta ta’kidiga guvoh bo‘ladi. Bu ta’kidlar orqali adib 300 odamning minnatini bo‘yniga olib, Oллоhga tavakkul qilib, qismat yukini ortmoqlab, g‘urur, or, nomus deya yo‘lga chiqqan Bobur Mirzoning himmati tog‘lardan-da yuksak demoqchi bo‘ladi. Saltanat dushmanlari bilan faqat jon emas, eng avvalo, or talashgan oliyhimmat Bobur Mirzo aslida Vatandan Vatan deb ketganini To‘lan Nizom asar mohiyatiga singdirib yubora olgan.

“Uch so‘z” dostonining o‘ziga xos tomonlaridan yana biri asarda Bobur Mirzo obrazining to‘laqonli talqinini yaratish, qahramon xarakteridagi ma’lum qirralarni kitobxonga yanada yorqinroq ko‘rsatish uchun adibning rivoyat (yuqorida tahlil etilgan Boburning saboqdosh do‘sti Sardor haqidagi rivoyat) va afsonalardan unumli foydalanganini ko‘rishimiz mumkin. Yozuvchining o‘zi ta’kidlagandek, “Onalar yaratmish qo‘shiqlar, she’rlar, qancha rivoyatlar, qancha ertaklar”. Shular orasida afg‘on qizi – malika Bubnaning Bobur Mirzoga bo‘lgan

o'tli, ammo qayg'uli yakun topadigan sevgi afsonasi mavjud²³⁵. Doston muallifi asarining ikkinchi: Kobul voqealariga bag'ishlangan qismini shu afsona asosida yaratgan.

“Afsonalar xalq hayoti va ma'naviy dunyosini o'rganishda zarur bo'lgan muhim badiiy hujjat sifatida ahamiyatlidir”²³⁶, – deyiladi sohaga oid manbalarda.

Xalq og'zaki ijodining o'lmas namunalari hamma davrlarda ham shoir va yozuvchilar uchun ilhom manbayi bo'lib kelgan. Ijodkorlar xalq tomonidan yaratilgan sujet va qahramonlarga xos sarguzashtlarni, iste'dod darajalari va badiiy niyatlariga ko'ra o'z ijod laboratoriyalarida qayta ishlab, ularga muayyan davr, tarixiy sharoitning talab va ehtiyojlari nuqtayi nazaridan yondashib, ayrim o'zgartirishlar kiritganlar, sayqal berganlar, boyitganlar.

To'lan Nizomning badiiy taxayyulida qayta-qayta ishlanib, o'ziga xos joziba kasb etgan, xalq ijodining afsonaviy dunyosi bilan uzoq tarixning voqeyiy dunyosini payvandlashdan yaralgan bu muhabbat qissasi doston sujetining sevgi liniyasini tashkil etgan. Ammo bu liniyada bosh qahramon maqomida Bobur Mirzo emas, balki zodagon qiz Bubna old planga chiqadi va bu Bobur Mirzoning insoniy qirralarini nurlantirib ko'rsatishga xizmat qiladi.

Kobul hokimi Jalolxonning 16 yoshli go'zal qizi Bubna Bobur Mirzoni g'oyibona sevib qoladi. Otasiga bergan va'dasi, o'zining g'ururi tufayli tuyg'ularini sir tutib, erkakcha kiyimda, otasining mulozimlari bilan Kobulga kelayotgan Bobur Mirzo yo'lga chiqib, sulh tuzishni taklif etadi. Shaharni vayronagarchilikdan, behuda qon to'kilishdan saqlab qoladi. O'zini oshkor qilmay Bobur Mirzoga navkarlari qatorida xizmat qilib yuraveradi. Ammo shikorga chiqishganida baxtsizlikka uchrab, jarga qulab ketadi va Bubna qattiq jarohatlanadi. Mana shu hodisa tufayli sir ochiladi. Bubnaning samimiyatidan, fidoyiligidan, sof sevgisi va sadoqatidan ta'sirlangan Bobur Mirzo Bubnaning eng so'nggi nafasigacha, u bilan bo'ladi, eng go'zal g'azallarini unga atab o'qiydi.

Muallif ushbu afsona orqali Bobur Mirzoning murakkab, ziddiyatli hayotini

²³⁵ Bu afsonaning hayotiy asoslarini Zabihulloh Mansuriyning “Eron va Bobur” asaridan topish mumkin. Manba: Xorijda boburshunoslik. – T.: MUMTOZ SO'Z, 2009. – B. 162.

²³⁶ O'zbek folklori ocherklari. – T.: Fan, 1989. – B. 29.

realistik aks ettirishda, ruhiyat olamini, ko'ngil kechinmalarini talqin etishda, ayol zotiga yuksak insoniy munosabatini juda kichik sahnada bo'lsa-da, Bubnaga ko'rsatgan ehtiromi misolida ochib beradi.

Asarda Bobur Mirzo tilidan aytilgan "Mard o'g'londek do'stlikda vafo qilgan ayol zoti oldida bir umr qarzdorman" degan so'zlari o'quvchiga "bisyor oqila va mudabbira" buvisi Eson Davlatbegimning "aksar qazoqliklarda va fatoratlarda" doim o'g'li oldida bo'lgan volidasi Qutlug' Nigorxonimning, o'zini fido qilib, ukasini yovning qo'ldan qutilib ketishiga sabab bo'lgan Xonzodabegimga ko'rsatgan hurmat-ehtiromi, saroyidan panoh topgan qanchadan qancha temuriy malikalarga e'zozi va muruvvatini eslatadi.

Aslida yuqorida tanishganimiz – afsona qahramoni afg'on qizi Bubnaning sadoqati, mehr-u vafosi Bobur Mirzoning afg'on ayoli Bibi Muborikani ham eslatadi. Ayrim tadqiqotlarda ta'kidlanishicha: "Afg'oniston va Pokistonning "Subayi sarhad" viloyatidagi pashtunlarning folklor asarlarida Bobur Mirzo nomi alohida ehtirom bilan tilga olinadi. Ayniqsa, Yusuf zayn qabilasi orasida "Bobur va Bibi Muborika" nomli afsona qadimdan hikoya qilib kelinadi. Mazkur asarda naql qilinishicha, yoz kunlarining birida Bobur podshoh darvesh libosida Yusuf zayn qabilasi orasida to'satdan paydo bo'ladi. U tog' yonbag'ridan oqib chiqayotgan buloqdan ko'zachada suv olayotgan Bibi Muborikaga nogahon ro'para keladi. "Darvesh" bilan go'zal qiz orasida otashin va pok muhabbat paydo bo'ladi.

Oddiy, bag'rikeng xalqning qalbi hamisha ezgulikka, samimiyatga oshno. Bu qalbda doimo eng toza, beta'ma, sof tuyg'ular yashaydi. Bu tuyg'ular hech qanday ijtimoiy vaziyatlarni, siyosiy bitimlarni, diplomatik topqirliklarni tan olmaydi, ayniqsa, sevgi-muhabbat, nikoh masalasida. Zarofatli, nekbin xalq nazarida Bobur Mirzo va Bibi Muborika shunchalar bir-biriga moski, ularning ittifoqida hech qanday manfaatlar bo'lishi bo'lishi mumkin emas, bu nikoh ikki go'zal, bir-biriga juda munosib yoshlarning ilohiy uchrashuvlarida tug'ilgan sof sevgi, otashin muhabbat asosiga qurilgan, vassalom, qolgani bekor.

Oddiy xalq sevgan, mehr qo'ygan buyuklarning muhabbatini ham o'zining

dono nazari, sof qalbi bilan ana shunday talqin va tarannum etadi²³⁷. Zero, folklorshunos olimlar yozishicha, folklor “bilimning spetsifik sohasi, xalq donishmandligining namoyishidir”²³⁸.

Endi xalq afsonasining xayoliy-romantik bag‘ridan, haqiqiy hayotning real manzarasiga qaytsak. Bobur Mirzoning to‘rtinchi ayoli Bibi Muborika kobullik yusufzayi qabilasi sardori Shohmansurning qizi bo‘lib, Bobur Mirzo unga afg‘on yerlarini qo‘lga kiritgandan so‘ng sulh, o‘zaro tenglik, qarindoshlik rishtalarini bog‘lash uchun 1519-yilda uylanadi. Bibi Muborika garchi farzand ko‘rmasa-da, Bobur Mirzo saroyida alohida hurmatga loyiq bo‘ladi. Gulbadanbegim o‘zining “Humoyunnoma”sida uni “Afg‘oniy og‘acha”²³⁹ deb ko‘p o‘rinlarda mehr bilan tilga oladi. Amerikalik sharqshunos Harold Lambning “Bobur – yo‘lbars”²⁴⁰ asarida keltirilishicha, Dehli taxti bir muddat Humoyundan Sherxonga o‘tganda, saltanat kelajagidan xavotirga tushgan “Boburning afg‘on malikasi Bibi Muborika Agraga kelib, erining xokini bu yerdan dovon orqali Kobulga olib ketishga Sherxondan ruxsat so‘raydi” va bunga muvaffaq ham bo‘ladi. Chunki Sherxon bir paytlari Bobur Mirzoning xizmatida bo‘lib, ko‘pgina marhamatlar ko‘rganligi uchun Bibi Muborika unga bermalol murojaat qila oladi. Sherxon ham o‘z navbatida, bu o‘ktam, sadoqatli ayolning so‘rovini bajaradi. Shu tariqa Bibi Muborika Bobur Mirzo xokini onasi Qutlug‘ Nigorxonim dafn etilgan, Bobur Mirzoning sa’y-harakatlari bilan obod etilgan ko‘rkam temuriylar bog‘i – Bog‘i Navro‘ziyga olib keltiradi. Boburshunos olim Hasan Qudratullayev: “Temuriylar orasida Bobur ayol zotiga yuksak insoniy munosabati bilan alohida ajralib turadi. Xotinlari, farzandlariga munosabatini boshqa sultonlar qarashlari bilan qiyoslaganda ham uning ayollarga ehtiromi, ularning izzat-ikromini joyiga qo‘ygani, imkon qadar jamiyatdagi mavqeyiga o‘sha davr mezoni bilan odilona

²³⁷ Qarang: Otajonov N. Boburnoma – sharq elchisi. – T.: MUMTOZ SO‘Z, 2010. – B. 48-49. Asos manba: Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburiylar. Qomusiy, ilmiy-ommabop maqolalar to‘plami. 5 jildlik. I jild. (A – B). /Tuzuvchi-muallif Rustamxo‘jayev Sh. – T.: Zilol buloq, 2023. – B. 534.

²³⁸ Прангишвили А.С. Фольклор и психология /Проблемы фольклора. – М. Наука, 1975. – С. 44.

²³⁹ Gulbadan begim. Humoyunnoma. Fors tilidan tarjima, so‘zboshi, izohlar muallifi Botirali Yo‘ldoshev. – T.: Fan, O‘chun, 2022. – B. 15.

²⁴⁰ Lamb H. Bobur – yo‘lbars. – T.: O‘zbekiston, 2018. – B. 287.

baho berganini ko‘ramiz”²⁴¹, – deb yozadi. Guvohi bo‘lganimizdek, uzoq tarixning real zaminiga Bobur Mirzo kabi buyuk ajdodlarimiz ekan nihollar, asrlar davomida xalq donoligidan oziqlanib, parvarish topib, kun kelib To‘lan Nizom kabi ijodkorlarimiz tafakkurida meva berdi.

“Uch so‘z” dostoni yuqorida aytib o‘tilgandek, Bobur Mirzoning axloqiy-ma’naviy, insoniy va ijodiy dunyosini yaqindan o‘rganishimizda o‘ziga xos badiiy hujjat, yaratiqdir. Bugun “Boburnoma”mutolaasi umumjahon miqyosiga chiqqan. Mirzo Bobur har bir “Boburnoma” o‘quvchisining qalbida o‘z Vatani – ko‘hna Turkiston bilan qolmoqlik saodatni ana shunday kashf etdi.“O‘zbekiston va jahon olimlari sa’y-harakatlari, zahmatli ko‘p asrlik mehnatlari tufayli Zahiriddin Muhammad Bobur shaxsi butun barkamolligi bilan tarixiy va adabiy siymo sifatida baralla qad ko‘tardi. Fanda boburshunoslik va “Boburnoma”shunoslik yo‘nalishlari yaqqol sezilib qoldi”²⁴² – deydi adabiyotshunos Vahob Rahmon.

Shu o‘rinda nafaqat fanda, balki badiiy ijodda ham boburnomashunoslikning go‘zal sahifalari ochilganining guvohi bo‘lyapmizki, bunga istiqlol davri safarnomalari (mualliflar X.Sulton, Q.Kenja) yaqqol misol bo‘la oladi.

Biz ushbu faslda xuddi mana shu sohaga munosib hissa bo‘lgan asar – Sirojiddin Sayyidning “Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur” dostoni haqida fikr yuritimiz.

Sel emastur yer yuzin tutqan ko‘zimning yoshidur,

Ra’d emastur ko‘kka chirmashqan, ko‘ngil afg‘onidur, –

deya hasbi hol qilgan Mirzo Boburning ko‘ngil afg‘oni – “Yuz oh” Sirojiddin Sayyid qalamiga mansub dostonning sarlavhasiga ko‘tarilgan. “... mardlik va matonat, g‘urbat-u firoq, mehnat-u alamlarga to‘la umrning yuz lahza, yuz holatini qo‘limdan kelgancha ifodalab berishga harakat qildim”²⁴³, – deb yozadi muallif doston muqaddimasida.

²⁴¹ Qudratullayev H. Bobur armoni. – T.: Sharq, 2009. – B. 301.

²⁴² Rahmon V. Bobur, Zahiriddin Muhammad. Boburnoma. So‘zboshi. – T.: O‘qituvchi, 2008. – B. 25.

²⁴³ Sayyid S. Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur. Muqaddima. – T.: O‘zbekiston, 2010.

3.2. Lirik she'riyatda shoh va shoir paradigmasi, lirik fojeliq va ruhoniq manzaralar tajassumi

Adabiyot nazariyasida, jumladan, shunday tasnif bor, unga ko'ra she'riyat ikkiga – lirik va liro-epik she'riyatga ajratiladi. Liro-epik she'rlarda voqeabandlik, ya'ni muayyan voqeani lirik yo'sinda aytib berish, bayon etish yetakchilik qiladi. Bunda epos bilan lirika kichik bir badiiyat maydonida birlashadi, sintezlashadi. Lirik she'riyat esa boshqacha, u o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, unda voqea emas, lirik kechinma, lirik kayfiyat hukmron mavqeda bo'ladi.

Lirik she'r muayyan tarixiy shaxsga bag'ishlab yozilar ekan, muallifning xos uslubi, she'r yaratilgan davr mafkurasi tasvir va ifodaga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Bunday she'rlarda tarixiy shaxs hayoti va ijodining muayyan qirralari muxtasar tarzda, lirik yo'sinda suratlantiriladi. Zero lirik she'riyat tabiatiga ko'ra tarixiy siymo hayoti va faoliyati haqida batafsil yozish imkoni bo'lmaydi.

Biz quyida xalqimiz hayotida milliy uyg'onish davrini boshlab bergan jadic bobolarimizning Bobur Mirzo haqidagi fikr-mulohazalariga haqida alohida to'xtalamiz. Jadidlarimiz mustabid sho'ro tuzumi tomonidan mahv etilgandan keyin yangi – sho'ro adabiyoti davri boshlandi. Endi bu davrga kelib Bobur Mirzoning tarixda sanoqli imperiyalardan biriga asos solgani, uning buyuk davlat arbobi, shoh va mohir lashkarboshilik faoliyati haqida mutlaqo yozib bo'lmasdi. Ammo buyuk Qodiriyning "O'tkan kunlar" romani bundan mustasno. Mashhur kitoblar ziyosi bilan o'z qahramonlarining siyratini o'quvchiga ravshanroq ko'rsatishga harakat qilgan Abdulla Qodiriy "O'tkan kunlar"ning "Majburiyat" faslida Otabekni "Boburnoma" mutolaasi ustida tasvirlaydi²⁴⁴. Romanning "Qipchoqqa qirg'in" bobida Yusufbek hojining o'g'li Otabekka yurtning mansabparast, manfaatparast rahbarlaridan og'rinib, "Temur Ko'ragon kabi dohiylarning, Mirzo Bobur kabi fotihlarning, Forobiy, Ulug'bek va Ali Sino kabi olimlarning unib-o'sgan va nash'u namo qilg'anlari bir o'lkani halokat chuquriga qarab sudrag'uchi, albatta, Tangrining qahrig'a sazovordir, o'g'lim!"²⁴⁵ – deydi.

²⁴⁴ Qarang: Qodiriy A. Tanlangan asarlar. – T.: Sharq, 2014. – B. 31.

²⁴⁵ O'sha manba.– B. 235.

Bu gaplar asrning yigirmanchi yillarida yozilgan hamda romanning 1926-yildagi ilk nashrida mavjud bo'lib, bu paytda sho'ro davlati o'zining qattol siyosatini to'la-to'kis o'rnatib ulgurmagan, shu bois Qodiriyning buyuk dardi ifodasi bo'lgan: shonli ajdodlarimizdan faxrlanish, ularga munosib bo'lmaganimizdan o'kinish, alam-iztirob tuyg'usiga yo'g'rilgan otashin so'zlari qarshilikka uchramay roman sahifalaridan o'rin olgan edi.

Buyuk adib sho'rolar tuzumi tomonidan yarim-yorti oqlangan paytda, ya'ni 1958-yilda chop etilgan roman matnidagi ushbu gaplar olib tashlangan edi²⁴⁶. Chunki "Temur Ko'ragon kabi dohiylar, Mirzo Bobur kabi fotihlar"ning yodga solinishi xalqning milliy g'ururini yuksaltirib, tarixiy ongini uyg'otib yuborar ediki, bu mustamlakachi tuzumga mutlaqo yoqmas, mustabid mafkura "fotih" Boburni hazm qila olmasdi, buni eslatganning ham boshiga bulutlar yog'ilar, ta'qib ostiga olinar edi. Shu tufayli ham Zahiriddin Muhammad Boburga munosabat hushyor va sinfiy xarakterda edi.

Faylasuf va adabiyotshunos, akademik Vohid Zohidovning "Boburnoma"ning 1960-yilda amalga oshirilgan nashriga yozgan "Boburning faoliyati va adabiy-ilmiy merosi" nomli yirik so'zboshisida shunday fikrlar bo'lib, ular Bobur Mirzoga nisbatan davrning siyosiy-mafkuraviy bahosini o'zida ifoda etganiga shohid bo'lamiz: "Biz Boburning siyosiy, adabiy faoliyatini butunlay qora bo'yoqqa bo'yab yuborib, undagi ijobiy xususiyatlarni ko'rmaslikni qoralaymiz, shuningdek, biz faqat ijobiy tomonlarini ko'rsatib, undagi chuqur qarama-qarshilikni tarixiy cheklanganlikni ko'rmaslikni ham qoralaymiz"²⁴⁷.

Mana shu tariqa davr siyosati va mafkurasi Bobur Mirzo shaxsiga nisbatan shunday paradigma (yunoncha "*paradigma*" – *misol, namuna, andaza*²⁴⁸) qabul qildi: Bobur Mirzoning podshoh, lashkarboshi, fotih, davlat arbobi sifatidagi faoliyati faqat qoralanishga mahkum, u haqda yozilmaydi, targ'ib qilinmaydi. Ammo uni ijodkor, shoir va adib sifatida madh etish, o'rganish, tasvirlash mumkin. Ushbu paradigma, andaza fikr sho'ro davrida yozilgan Bobur Mirzo

²⁴⁶ Qarang: Qodiriy A. O'tkan kunlar, – T.: O'zSSR. Davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1958. – B. 290.

²⁴⁷ Bobur Zahiriddin Muhammad. Boburnoma. – T.: O'zbekiston SSR, Fan. 1960. –B. 6.

²⁴⁸ Советский энциклопедический словарь. – М.: Советская энциклопедия, 1990. – С. 978.

haqidagi boshqa janrdagi asarlarda bo‘lgani kabi she’rlarda ham yetakchilik qiladi. Misol: O‘zbekiston xalq shoiri Uyg‘un (Rahmatulla Otaqo‘ziyev)ning qo‘shni Afg‘onistonga qilgan sayohati va Kobul shahridagi Bobur Mirzo qabrini ziyorat etishi asnosida yaratgan she’ri nomlanmagan, yozilish sanasi 1962–1964-yil deb ko‘rsatilgan. She’rda shunday satrlar bor:

Shoh Boburning emas, shoir Boburning
Yashagan joyini ko‘rgali keldim.
Shoir Bobur sevgan hamsoya xalqning
Hol-ahvolini so‘rgali keldim.

Ilk satrdayoq she’rdagi antiteza, zidlash e’tiboringizni tortadi: shoh Bobur – shoir Bobur. Ko‘rishga, ziyorat qilishga, yo‘qlashga shoh Bobur emas, shoir Bobur munosib, shoir Boburgina haqli. Shoir – lirik qahramon faqatgina shoir Boburni “ko‘rgali kelgan”. Uchinchi misradagi “shoir Bobur sevgan hamsoya xalqning ...” ma’nosiga kelsak, bu o‘rinda ham shoir fikri bahsli. Bobur sevgan, mehr qo‘ygan xalq emas, yurt deyilsa, haqiqatga yaqinroq bo‘lishini “Boburnoma” ham tasdiqlaydi. Lekin shoir o‘rtadagi bu nozik ayirmaga e’tibor bermaydi. O‘sha davr siyosatining baravj nuqtasi – xalqlar do‘stligi g‘oyasi tarixiy haqiqatdan ustun kelgan. Shoir ham ustunlik tarafida.

She’r uchta to‘rtlik banddan tashkil topgan bo‘lib, ikkinchi band boshida she’rning ilk misrasi – “Shoh Boburning emas, shoir Boburning ...” to‘liq takrorlanadi. So‘ng yana alohida ta’kid bo‘lgan “Shoir Navoiy, shoir Bobur” tilga olinadi. Uchinchi band ham ushbu g‘oyaning boshqa qirrasini ochishga xizmat qiladi:

Janglar, ur-yiqitlar, qirg‘inlar emas,
“Tojmahal”lar uni eslatur menga.
Toj-taxti emas, san’ati, she’ri
Mangu qoldi – bu hol ayondur menga²⁴⁹.

Agar e’tibor bilan qarasak, inkor to‘liqsiz fe’li “emas” she’rni qoq ikkiga ajratgandek, shu bilan birga Bobur Mirzoni ham shoh va shoirga keskin ajratib

²⁴⁹ Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi. – T.: Sharq, 2014. – B. 216.

turgandek tuyuladi. Xuddi ana shu tuyum-sezim she’rda lirik tuyg‘udan ko‘ra g‘oyaviy-siyosiy aqida ustunligini tasdiqlaydi. Uyg‘unning mazkur she’ri yozilgan vaqtdan yigirma yil o‘tib, Bobur Mirzo tavalludining 500 yilligi butun ma’rifatli dunyoda, xususan, bizda ham nishonlanayotgan bir paytda shoir Abdulla Oripov o‘zining “Bobur” nomli she’rini e’lon qildi. Afsuski, bu she’rda ham Bobur Mirzoga nisbatan sho‘rolar mafkurasi joriy etgan paradigma – “shoh emas, shoir” o‘z kuchida qolgan deyishimiz mumkin.

O‘tmish mavzusiga bag‘ishlangan asar va tarixiy shaxs siymosini muvaffaqiyatli yaratishdagi omillar haqida fikr yuritib adabiyotshunos olim Is’hoq Jabborov: “...yolg‘iz tarixiy ma’lumotlar, voqea-hodisalardan boxabarlikning o‘zi yetishmas ekan, kamlik qilarkan. Buning uchun tarix tuyg‘usidan tashqari moziyga faylasuf nigohi bilan nazar tashlovchi mutafakkir ham bo‘lish kerak ekan... Abdulla Oripov shaxsiyatida tarixchi nigohi, faylasuf shuuri va yuksak shoirona badiiy sehri mujassamlashgan...”²⁵⁰ – deydi.

Is’hoq Jabborov haq, albatta. Ammo ushbu tahlil jarayonida qattol mustamlaka tuzum va mafkura tazyiqi har qanday iste’dodni ham o‘z yo‘rig‘iga yurishga majbur etganini, shunday holatlarda fikrlar qorishiq, ba’zi o‘rinlarda tarixiy haqiqatlar talqinida o‘z maromidan chekinganini kuzatish mumkin.

She’r yetti to‘rtlik banddan tashkil topgan bo‘lib, uning badiiy strukturasi biz (dastlab “men”) va Siz (ya’ni Bobur) antiteza yetakchi poetik usulga aylangan (Bu antiteza mohiyatida ham shoh va shoirlik ayirmasi yotadi). She’r shunday boshlanadi:

Men-ku oddiy odam,
Shundoq bo‘lsa ham
Shukr, bas, deguchi g‘animlarim bor.
Shart emas ularga, ta’rif chinakam,
Biri jununsifat, birovi hushyor.

²⁵⁰ Jabborov I. Abdulla Oripov she’riyatida shaxs konsepsiyasi va lirik qahramon masalasi: Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – T.: 2008. – B. 14.

Bu satrlar orqali she'rxon Abdulla Oripovning hasbi holi, ahvol-ruhiyasidan ogoh bo'ladi, ikkinchi bandeda ham shunday davom etadi. Ya'ni "g'animlar"ning tor fe'llari-yu, g'addor tabiatlari she'riy yo'sinda moddiylashtiriladi. Uchinchi bandga kelib, ikki zid tomon – "Biz" va "Siz" yaqinlashadi:

Biz shunday o'tamiz

Ya'ni kun ko'rib...

Maydagina kuchsiz, maydagina zo'r.

Hayotning mana shu burjidan turib

Men Sizni o'yladim Hazrati Bobur.

Garchi she'rda shoh emas, shoir paradigmasiga rioya qilingan bo'lsa-da, Abdulla Oripov o'z badiiy mahoratini va iste'dod qudratini namoyish eta olgan, ya'ni buyuk hayotiy faoliyat (imperiyaga asos solishdek muzaffariyat) va o'lmas obidalar yaratib ketgan ulug' Boburni shoir zimdan o'z zamondoshlariga (gap o'tgan asrning 80-yillari haqida) zid qo'ymoqda hamda ular Hazrati Boburga nisbatan qanchalik mayda, kuchsiz ekanligini qat'iy badiiy hukm bilan ta'kidlamoqda. Bunday "maydagina kuchsiz, maydagina zo'r" qalbaki, yolg'onlar bag'rida "nash'u namo" topgan sho'ro zamonasining o'ziga xos kinoyaviy, poetik-falsafiy tavsifi deyish mumkin. Bandning boshidagi "Biz shunday o'tamiz, ya'ni kun ko'rib..." misrasi so'ngidagi uch nuqta "kun ko'rib" zimmasidagi nadomat zalvarini, kinoya kuchining nechog'lik og'irligidan darak beradi, zero, "kun ko'rib", "kun o'tishiga mahtallik" bilan "yashamoqlik" o'rtasidagi ma'no ayirmasini zarofatli she'rxon oson farqlay oladi va ichdan kemirib, yemirib boruvchi hasad-nafs balosi alohida insonlarga emas, balki butun boshli jamiyat, tuzumlar, mafkuralar tabiatiga ham xos ekanligini anglatadi.

She'rning keyingi 4-5-bandi to'lig'icha Hazrati Boburni madh etadi. Bunda buyuk bobomizga qaratilgan "Siz" olmoshi yetakchilik qiladi:

Siz zobit dastini cho'zgan dunyoga

Siz shoir, mangu bir alanga yoqqan.

Nainki bandalar, *siz*ning siymoga

Ne-ne saltanatlar kek bilan boqqan.

Bu bandda yuqorida aytilgan shoh emas, shoir paradigmasi buzilgan. Mustabid tuzum tazyiqiga qaramay, shoir yo‘lini topib, Bobur Mirzoning shohligiga, jahongir sifatidagi yovqurligiga ishora qilmoqda. Banddagi “Siz zobit, dastini cho‘zgan dunyoga ” (bu misraning ta’sir kuchi “O‘tkan kunlar”dagi “fotih bilan teng”) va “Nainki bandalar, Sizning siymoga, Ne-ne saltanatlar kek bilan boqqan” shoir Bobur emas, aynan shoh Bobur haqidagi muallifning dil izhori, haqli e’tirofidir. Keyingi beshinchi bandda shu fikr davom etadi, so‘ng bevosita shoir Bobur tavsifiga o‘tiladi:

Bahodirlik ichra yor sizga Humoy
Siz ulug‘ zotlarning izin bosgan er,
Nazmiy sajdagohda Sizga hoynahoy
Imomlikka o‘tgay faqat Alisher!

So‘z-u obrazlarga e’tibor bering:“ Bahodirlik ichra yor sizga Humoy, Siz ulug‘ zotlarning izin bosgan er”. Garchi she’rda Sohibqiron nomi tilga olinmasada, Bobur Mirzo izin bosgan ulug‘ zotlarning biri Amir Temur ekanligini she’riy tafakkuri, didi, fahmi bo‘lgan inson assotsiativ mushohadasi bilan anglab yetadi. Keyingi misrada esa shoir she’riyatni sajdagoh deb atab, uni masjidga mengzaydi. Bu sajdagohda faqat Navoiygina Bobur Mirzodan oldin turmoqlikka haqli.

Abdulla Oripov tayin etgan bu maqomda Bobur Mirzo Alisher Navoiydan keyingi milliy mumtoz adabiyotimizning ikkinchi cho‘qqisi ekanligiga badiiy ishora qilingan. She’rning oltinchi bandidan boshlab fikr yana shoh emas, shoir paradigmasiga qaytadi:

Ha, yolg‘iz she’r qoldi, boshqasi abas,
Yetti iqlim aro doston naqlingiz,
Ne baxt, parchin bo‘lib toj degan qafas
Bizga yetib keldi olmos aqlingiz.

Bandda intermatnlik hodisasi yuzaga chiqadi. “...parchin bo‘lib toj degan qafas” misrasiga Abdulla Oripov o‘ziga ustoz sanagan Maqsud Shayxzodaning “Mirzo Ulug‘bek” tragediyasi qahramoni Piri Zindoniy tomonidan aytilgan:

Tushunmayman, tushunmayman, shavkatli mirzo,

Taxt qanaqa ma'rifatga poydevor bo'lgay!

Vaholanki, toj boshdagi fikrga qafas²⁵¹

so'zlari badiiy ulgi vazifasini bajargan. Tragediyada bu fikr hukmdorning adolati, diyonati, ma'rifati borasida zamona sultoni Mirzo Ulug'bekka qaratilgan bo'lib, she'rda Boburga nisbatan qo'llanganda u yana paradigmaning o'zaniga o'tib qolganini ko'ramiz. Shunda biz shoh Bobur va shoir Bobur zidligi va birligi muayyan nuqtalarda chuqur hayotiy va tarixiy asosga ega ekanligini e'tirof etishimiz zarur bo'ladi. Shu o'rinda Piri Zindoniyning toj-u taxt va ma'rifat borasida boshlagan bahsi yana bir iste'dodli ijodkor, badiiy boburshunoslikning yorqin vakili Xayriddin Sultonga ham ilhom berganini kuzatishimiz mumkin.

Xayriddin Sultonning "Saodat sohili" qissasida Bobur Mirzoning mamlakatni parokanda holatga olib kelgan temuriy hukmdorlarni nazarda tutib: "Olmaning sarxilini qurt yermish. Yurt buzg'unchi, badfe'l, boyqush shohlarga qoldi... Alarning aqli boshlaridagi tojdan hargiz tashqariga chiqmagay, yo'qsa birining etini biri yeb, yurtini g'animga berarmidi?" degan fikri Piri Zindoniyning "Taxt qanaqa ma'rifatga poydevor bo'lgay? Vaholanki, toj boshdagi fikrga qafas" degan so'zlariga hamohang, aniqrog'i, muqobil ma'no chiqaradi: Ular, ya'ni temuriy hukmdorlar qafasdagi fikr – cheklangan, mahdud dunyoqarash doirasida qolganlar. Ular uchun mamlakat, ulus taqdiri bir pul. Shuning uchun ham temuriylar Movarounnahr va Xurosonda butunlay mag'lubiyatga uchrab, boshqa sulolalarga o'rin bo'shatdilar.

Sirtidan qaraganda "...toj boshdagi fikrga qafas" (Piri Zindoniyni) "...aqli boshlaridagi tojidan hargiz tashqariga chiqmagay" (Bobur Mirzo) – muqobil fikrlar, ammo so'zning mohiyati, kontekstda ravshanlangandek, bu fikrlarning har biri o'z sohiblari, ular tushgan muhit, vaziyat, ruhoniylar holat bag'rida konkretlashadi va shu asnodda qahramon konsepsiyasini o'quvchiga yetkazishdek badiiy vazifa ham bajariladi.

Bobur Mirzo dilbar, samimiy, rostgo'y shaxs sifatida toj-u taxt minnatidan, hukmdorlik dag'dag'asidan bezib, chekkan ozorlarini ko'ngil ko'zgusi bo'lgan –

²⁵¹ Shayxzoda M. Asarlar 6 tomlik. – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 3-tom, 1972. – B. 165.

she'riyatda, umr solnomasi – “Boburnoma”da hasbi hol etadi. Uning ruhoniyyatidagi bu ziddiyatli holatlarning teran psixologik tadqiqi va talqinini Xayriddin Sultonning “Saodat sohili” qissasida ham kuzatamiz. Lekin yana bir haqiqat borki, (haqiqat ham pogʻonalardan iborat ekanligini unutmashimiz lozim) Bobur Mirzo siymosi faqat yaxlit tarzda: shoh va shoirning uzviy birligidagina oliy mukamallik kasb etadi. She'ning soʻnggi yettinchi bandi bevosita Hazrati Boburga murojaatdan iborat:

Ayting, ne topdingiz, Siz kezib dunyo

Hanuz boqisharlar shoʻrishga toʻlib.

Shoirsiz, yaxshisi qolingiz Mirzo,

Mushfiq yurtigingizda bir shoir boʻlib²⁵².

Guvohi boʻlganimizdek, xotimada shoir yana shoh emas, shoir paradigmasiga qaytadi: “Shoirsiz, yaxshisi qolingiz Mirzo, mushfiq yurtigingizda bir shoir boʻlib” qalami qoʻlida, ammo erki, ixtiyori birovning qoʻlida boʻlgan, qaram mamlakatning shoiri buyuk hukmdor va ulugʻ shoiriga nisbatan bundan ortigʻini ayta olish huquqiga ega emas edi. Ilk misradan savol “Ayting, ne topdingiz Siz kezib dunyo”ga kelsak, u shoirning emas, balki mafkura zabonidan uchgan savol boʻlib, u nooʻrin va mantiqqa ega emasligi yaqqol koʻrinadi. Uch asr hukm surgan butun bir imperiyaga asos solgan jahon tarixidagi buyuk xizmat, buyuk sharaf emasmi? Qachonki bu sharaf umumjahon eʼtirofida boʻlsa: “Hindiston va uning 8 ming yillik tarixi bamisoli toʻvus boʻlsa, oʻsha koʻp ming yillik tarixdagi Boburiylar sulolasining 332 yillik hukmronlik davri ana shu toʻvusning gultojidir”²⁵³ (Voldemar Hansen). Bundan ortiq “topish” boʻlmasa kerak.

“Hozirgi oʻzbek she'riyati koʻngilga quloqdan tashqari yoʻllar bilan taʼsir qilish bosqichiga kirdi. Shoirlar oʻqirman ruhiyatiga uning qulogʻi orqali emas, yuragi orqali kirib borishga urinmoqdalar”²⁵⁴, – deydi adabiyotshunos olim Qozoqboy Yoʻldoshev. Oʻqirman ruhiyatiga yurak orqali kirib boruvchi she'r

²⁵² Oripov A. Tanlangan asarlar. 4 jildlik. 2-jild. – T.: Adabiyot va sanʼat nashriyoti, 2001. – B. 37.

²⁵³ Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi. – T.: Sharq, 2014. – B. 127.

²⁵⁴ Yoʻldoshev Q. Soʻz yolqini. – T.: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. – B. 99.

fazilatini esa olim: "... eshituvchilarga orom beradigan unsurlar bo'lishi shart qilib qo'yadigan qolipdagi shakliy talablar... misralar so'ngidagi qofiyaning musiqiylikni ta'minlashdan ko'ra, ruhiyatni moddiylashtirishga urinish xususiyat yetakchi"²⁵⁵, – deya izohlaydi.

Xurshid Davronning Bobur Mirzoga bag'ishlangan "Otlar yelar shiddatdan terlab..." deb boshlanuvchi she'ri lirik qahramonning moddiylashtirilgan ruhiyati, insoniy iztiroblari, his-tuyg'ularining ramzlariga ko'chgan ifodasi orqali ona yurt bag'ridan uzilib ketayotgan Bobur Mirzoning insoniy fojiasini lirik fojeli darajasiga olib chiqib talqin eta olgani bilan e'tirofqa loyiq.

Bobur nomidagi xalqaro ilmiy ekspeditsiyaning birinchi safari (1992-yilning 19-maydan 15-iyuliga qadar davom etgan) ishtirokchisi Xayriddin Sultonning "Boburiynoma"sida xorijdagi Bobur qadamjolari bo'ylab kezingan musofirchilikning mashaqqatlarini ona yurt, yaqinlar sog'inchida iztirob chekkan muallifning shunday xotiralari keltirilgan: "Odamning o'z-o'zidan dili xufton bo'laversa, ko'ksining bir chetida noma'lum bir og'riq jizillab tursa, bilginki, bu ona Vatan sog'inchi bilan hasratda umrguzaronlik qilayotir.

Mana shunday ma'yus lahzalarda Bobur Mirzoning dard-u dilini, so'ngsiz iztiroblarini yanada yaqqol anglash mumkin. "Zahiriddin, qayga borursan?.." Xurshidning (Xurshid Davronning biz tahliliga tortayotgan "Bobur" she'ri nazarda tutilyapti – Y.K.) shu satri necha kundirki xayolimdan ketmaydi. "Zahiriddin, qayga borursan?.." Davomi... yanglishmasam, mana bunday edi: "Hamma yerdan ko'rinib turar, Samarqandning minoralari". Yo'q, davomi emas, she'rning oxirgi misralari xolos"²⁵⁶.

Nuktadon, hassos adib Xayriddin Sulton she'rning aynan shu satrlarini bejiz eslamaydi. Chunki she'rdagi lirik fojeli darajasiga qalqib chiqishida, she'rxon tarafidan his etilishida aynan shu satr, satr mohiyatidagi ramziylikning o'rni beqiyos. She'rdagi lirik fojeli darajani yuzaga keltirgan, lirik qahramon Bobur Mirzoga

²⁵⁵ O'sha joyda.

²⁵⁶ Sulton Xayriddin. Boburiynoma: Ma'rifiy roman. – T.: Sharq, 1997. – B. 156.

tegishli hijron, yurtdan ayro tushish, taqdir hukmi oldidagi nochorlik, ilojsizlik kabi hissiyotlar hayotiy, ijtimoiy asosga ega.

Shubhasiz, Xurshid Davron “Bobur” she’rida yuqoridagi qaltis ijtimoiy vaziyat iskanjasidan qutulishni, najotni Vatandan bosh olib ketishda deb bilgan Bobur Mirzoning dramatik holatining ifodasida uning o‘z so‘zlariga, uning intilish, ehtiyojlari, amalga oshmagan orzulari, armonga aylangan ulug‘ istaklari natijasida tug‘ilgan ruhiy iztiroblarga, ichki kechinmalariga suyanadi: “...viloyat yo‘q, viloyat umidvorlig‘i yo‘q, navkar aksar tarqadi... Oxir mundoq sargardonliqdin va bu nav’ bexonumonliqdin jong‘a yettim. Dedimki, mundoq dushvorliq bila tirilguncha bosh olib yetsam yaxshi. Bu nav’ xorliq va zorliq bila el bilguncha oyog‘im yetguncha ketsam yaxshi”²⁵⁷. (1502-1503-yillar voqealari bayoni)

Ruhshunoslikka oid adabiyotlarda shaxsning hissiyoti va emotsional jarayon haqida gap ketganda: “Ko‘p hollarda emotsional kechinmalarimiz mazmuniga bizning intilishlarimiz ham kiradi. Intilishlar esa hamisha ehtiyojni ifodalaydi. Lekin hissiyotlar ehtiyojlar sababli paydo bo‘lishi tufayli, intilishlar bilan hissiyotlar bir-biriga qo‘shilib ketib bitta tuyg‘u, kechinma holida namoyon bo‘ladi. Bunday hollarda hissiyotlar, odatda, intilishlarni tug‘diradi yoki mavjud intilishlarini kuchaytiradi... Hissiyotlarning faollik darajasi odamlardagi kuchlanish holatida yoki ulardagi hamma kuchlar g‘ayratga kirgan holatda namoyon bo‘ladi”²⁵⁸, – deyiladi. Shaxsning mazkur ruhiy-tabiiy holatini poetiklashtirgan, uni badiiyat ko‘zgisida akslantirgan Xurshid Davron sakkiz band she’rda bir romanga jo bo‘lishi mumkin bo‘lgan, yurtdan butunlay bosh olib chiqib ketayotgan Bobur Mirzo fojiasini, uning kechinmalarini, ehtiroslarini ramzlar bag‘rida ochadi:

Otlar yelar shiddatdan terlab,
Yangrar xatar to‘la taqalar.
Hurkib ko‘kka sapchir patirlab,
Tun uyquasi – qora qarg‘alar²⁵⁹.

²⁵⁷ Bobur Zahiriddin Muhammad. Boburnoma. – T.: O‘zbekiston, 2002. – B. 79.

²⁵⁸ Ivanov P., Zufarova I. Umumiy psixologiya. – T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2013. – B. 277.

²⁵⁹ Davron X. Samarqand xayoli. – T.: Kamalak, 1991. – B. 258.

Birinchi o‘qishdayoq o‘quvchining ko‘z o‘ngida jonli manzara gavdalanadi. She’rxon ong-u shuuriga matnda bo‘y ko‘rsatib turgan xronotop – asarda badiiy idrok etilayotgan zamon va makon haqidagi tasavvur paydo bo‘ladi: tun va yo‘l tasviri. Shuni unutmaslik kerakki, bir qarashda manzaradek ko‘ringan (aslida, manzara ekanligi ham bor gap), ammo shoir tomonidan marjondek tizilgan ramzlar shodasida insoniy taqdir namoyon. Unda Bobur Mirzo – lirik qahramon hayotining o‘ziga xos fragmentlari ko‘zga tashlanadi. Tinimsiz yelayotgan, imkon boricha tun bag‘rini yorib chiqishga harakat qilayotgan ot qorong‘ilik, zulmatni ortda qoldirayotgandek tasavvur uyg‘otadi, ammo ramzda esa tun (zamon ko‘rsatkichi) Bobur Mirzo tushib qolgan ijtimoiy vaziyat, shu vaziyat tug‘dirgan umidsizlik, imkonsizlik, tushkunlikka ishora. Maqsad aslida shu tundan uzoqlashish, yelib borayotgan ot Bobur Mirzo fitratidagi “Qudrat, hayotiy kuch, oliyjanoblik... ehtiroslar, intilishlar... ramzi”²⁶⁰.

“Otlar yelar shiddatdan terlab”, terga botish bu – lirik qahramonning o‘z-o‘zini taftish qilishi, o‘y-kechinmalari, ehtiroslar, kelajak, mas’uliyatli tashvishlar, ziddiyatli xayollar bag‘ridagi tasviri. Taqalardan taralayotgan tovush – bong, ogohlik da’vati. Ona zamin bag‘riga urilayotgan taqalar zarbidan faryod ko‘tarib, Bobur Mirzodek o‘g‘lidan ayrilayotganidan bong uradi go‘yo. Ayni paytda taqalarning xatarga to‘laligi Bobur Mirzoning yelkasiga tushadigan musofirchilik, ayriliq, mavhum kelajak mas’uliyatiga ishora hamdir.

Yorug‘likka, yuksak maqsadlar sari intilganlar yo‘lida g‘ov, turli to‘siqlarning uchrashi tabiiy. Shoir ularni qora qarg‘alar deb ataydi. Tun so‘zi mohiyatidagi qorong‘ilik “qarg‘a”ning epiteti qora so‘zi bilan birlashib tasvirdagi salbiy bo‘yoqdorlikni oshirgan. Ayni paytda ularning hurkakligi nur oldida zulmatning chekinishiga ishora.

Otlar yelar, tillarang xazon

Suvoriylar uzra sochilar.

Elas-elas yangraydi azon

Tog‘lar uzra osmon ochilar.

²⁶⁰ Mingboyeva D. Timsollar tilsimi. – T.: Yangi asr avlodi, 2007. – B. 88.

“Xazon yaprog‘idek bordim” – Bobur Mirzo o‘z yozug‘ining poetik tasvirini shunday ko‘radi. Xurshid Davron bu iqroni ramzga aylantirar ekan, unga tillarang epitetini qo‘shadi. Tillarang ramziy detalning tashqi ko‘rinishiga biroz yorug‘lik, nur bag‘ishlagandek (Kobul va Hindistonda Bobur Mirzo erishajak zafariyatlarga ishora), ammo mohiyat baribir eskicha – xazon ayriliq, hijron belgisi. U tillarang sochqilarga aylanib, “Suvoriylar uzra sochilar” tasvirida matn mohiyatini anglab yetishda ochqich vazifasini o‘taydi. Bandning uchinchi misrasi “Elas-elas yangraydi azon”. Agar she‘r shoirning mafkuraviy zug‘umlar ham ancha sobit 80-yillar ijodi mahsuli ekanligi hisobga olsak, uning kichik lirik she‘rda bir umr Haq rizosiga erishishga harakat qilgan Bobur Mirzoning ma‘naviy-ruhiy qiyofasini nozik ko‘rsatib o‘ta olganini e‘tirof etish zarur. Azon bandalariga Ollohning ulug‘ligini, yakka-yu yagonaligini, najot faqat unda, unga bo‘lgan ishonch va e‘tiqodda ekanligini eslatuvchi nido. Xurshid Davron qo‘llagan azon ramzi – Bobur Mirzoning umrlik hikmati, e‘tiqodi va e‘tirofi:

“Hech nima Tengrining xostidin o‘zga bo‘lmas”²⁶¹ga mos va xos kelgan. Bu o‘rinda “elas-elas” juft so‘zi polifunksional vazifada: u azonning eshitlesh darajasini ko‘rsatish bilan birga uning (eshitilar-eshitilmas, juda past) ancha olis uzoqlarda aytilayotganini ham bildiriyapti. Demak, Bobur Mirzo uchun najot endi yurtdan olisda, Vatandan uzoqlarda. Ikkinchi badda satrlar silsilasida she‘rning birinchi badda o‘quvchi ongiga o‘rmashib qolgan qorong‘ilik chekinadi. Ayniqsa, “elas-elas yangraydi azon” tasviridan keyin “Tog‘lar uzra osmon ochilar” manzarasi (tong tog‘lar boshidan oqara boshlaydi) o‘quvchining qalbiga ham, she‘r bag‘riga ham yorug‘lik, iliqlik olib kiradi. Aynan shu misradagi ramzlar qatida boshqa ma‘no ham mustaqil holda mavjud. Tog‘ ramzi matonat, sabot, yuksalish, qat‘iyatlilik ma‘nosida Bobur Mirzoga nisbat berilgan holda bu “tog‘(lar) uzra osmon ochil”ishida Bobur Mirzoning tanlanganlardan ekanligiga (Alloh

²⁶¹ Qarang: Ochilov E. Bobur hikmatlari. Manba: Zahiriddin Muhammad Bobur: risola. – T.: O‘zbekiston, 2012. – B. 121.

podshohligini O‘zi xohlagan kishiga beradi. Alloh (karami) keng va bilimdondir”²⁶²) podshohlik qismatiga ishora bor.

Otlar yelar, yelar ko‘pirib,
Uyg‘otgancha mudroq yo‘llarni.
Go‘yo to‘g‘on bandin o‘pirib
Toshqin quvib kelar ularni.

Ikkinchi band sokinlashgan ohang, uchinchi bandda “Otlar yelar, yelar ko‘pirib” tasvirigaingan shitob, tezlik, jadallik ma‘nolari bilan keskinlik kasb etib, ayriliq, hijron onlari muqarrar ekanligini eslatadi. Ayni paytda bu tasvir, ramz she‘rda aks etgan makon, zamon chegarasidan chiqib, Boburshohning bir umrlik mamlakatdorlik tamoyilining: “Jahongire tavaqquf bar nayobad, Jahon onro buvad ko‘beh shitobad, Hama chizi zi ro‘y kadxudom – Sukun miyobad illo podshohiy”²⁶³ (ma‘nosi: Jahongirlik to‘xtab turmaydi, kim yaxshi tirishsa, jahon o‘shaniki bo‘ladi, hayotda har bir narsaning to‘xtashi mumkin, ammo podshohlik to‘xtamaydi) mazmun-mohiyatini o‘zida ochiqlab berganini e‘tirof etmoq zarur.

Ko‘pincha adabiyotshunoslikka oid tadqiqotlarda bunday muxtasar talqinni tomchida quyoshning aks etishiga o‘xshatishadi. Shu ma‘noda “yelayotgan ot” ramzi orqali buyuk tarixiy shaxs, lirik qahramon – Bobur Mirzoning umr mazmunini ko‘lamli badiiy idrok eta olgani, tafakkur va talqinda ta‘sirchan obraz yarata olgani shoirning yetuk poetik mahoratidan darak beradi.

Faoliyatsizlik, harakatsizlik Bobur Mirzo – lirik qahramon tabiatiga mutlaqo yot. Xurshid Davron “saltanat dag‘dag‘asi”, “mulkgirlik domyasi” qonida, ehtiroslarida gupirib turgan Bobur Mirzo kabilar dunyoga dunyoni uyg‘otmoq uchun kelganlarini “yelayotgan ot” poyi zarbida “uyg‘onayotgan yo‘llar” tafsilida chiroyli, ishonchli badiiy ifoda eta olgan. “Ne xush bo‘lg‘ayki, bir kun uyqulik baxtimni uyg‘otsam”, – deydi Bobur Mirzo o‘zining bir g‘azalida. “Hissiyotning turli-tumanligi, so‘z san‘atining cheksiz imkoniyati hamda badiiy asarning tinimsiz

²⁶² Qur‘oni karim: ma‘nolarining tarjima va tafsiri / Tarjima va tafsir muallifi: A.Mansur; tahrir hay‘ati: Usmonxon Alimov Rahmatulloh qori Obidov, M.Ibrohimov va boshq.; Mas‘ul muharri: M.Ahmadjonov. – T.: Toshkent islom universiteti, 2009. – B. 40.

²⁶³ Bobur Zahiriddin Muhammad. Boburnoma. – T.: Sharq, 2002. – B. 243.

tovlanishi lirik fojellik rang-barangligini tayin etadi”²⁶⁴, – deydi adabiyotshunos olim Suvon Meli.

Dastlabki bandlarda lirik qahramon shaxsiyatiga xos yoniq ehtiros, shijoat, kuchni tinimsiz yelayotgan ot ramzida kashf qilgan bo‘lsak, to‘rtinchi bandda she’rga shunga teng yana bir kuch – toshqin ramzi kirib keladi. Toshqin ham ramz. U lirik qahramon – Bobur Mirzo ruhiyatidagi ziddiyatlar, qarama-qarshiliklar buhronining moddiylashgan tasviri, hissiyot belgisi. Aslida bu toshqin Bobur Mirzo botinida, o‘zligida. U lirik qahramonning jism-u jonini o‘rtayotgan ziddiyatli o‘ylar, og‘riqqa ishora. Bu ramz ortidagi kuch har gal toshqin misol harakatga kelganda o‘z sohibini azobli savollar, armon-iztiroblar girdobida chirparak qiladi go‘yo. Adabiyotshunos olim Uzoq Jo‘raqulov: “...juftlik hodisalar o‘zaro zid holatda dialogiklik kasb etgani holda, yakka holatida ham ichki dialogik struktura va mazmunga ega. Jamiyatda (yoki badiiy asar dunyosida) o‘zining muqarrar antipodiga ega odam neytral holatda ham o‘zining botiniy antipodi bilan yashaydi. Bu hodisa badiiy asarda ichki dialog (mikrodialog) tarzida kuzatiladi”²⁶⁵, – deydi.

Mana shu ma’noda lirik qahramonning botiniy antipodi bilan muloqoti ritorik so‘roq o‘laroq uning emotsiyasini bor bo‘yi bilan ko‘rsatishga, uni qiynayotgan hissiyotlar, kechinmalarning ifodasini so‘roq shaklida tasdiqlashga xizmat qiladi. She’rning keyingi bandlarida Xurshid Davron uni mikrodialog tarzida tasvir etadi:

Mirzo Bobur, qayga borursan,
Bobong taxtin, yurtningni tashlab?!
Qora taqdir seni qul kabi
Qayonlarga ketmoqda boshlab?!
Mirzo Bobur, bu qanday savdo,
Qora hijrat sari yuz tutmoq?
Yuragingni etar-ku ado –

²⁶⁴ Meli S. So‘z-u so‘z. “Adabiyot falsafasi”ga chizgilar. – T.: Sharq, 2020– B. 41.

²⁶⁵ Jo‘raqulov U. Nazariy poetika masalalari. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2015. – B. 76.

Tirik turib Vatandan ketmoq?!
Mirzo Bobur, ortga bir qara,
Ortga bir boq, toki sen omon –
Axir, keyin tushlaringda ham
Bu tuproqni ko‘rmog‘ing gumon!

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, so‘roqda iqror, e’tirofda tasdiq mavjud. She’rda har uchala bandning boshi “Mirzo Bobur” ritorik murojaati bilan boshlanadi. Satrma-satr lirik qahramon qalbida ulkanlashib borayotgan musofirchilik g‘ussasi, hijron, ayriliq g‘amingning poetik tasviridagi dinamika lirik fojellikni yuzaga keltiradi. Ammo bu fojellik tragik pyesadagi kabi voqea-hodisa, qahramonlarning xatti-harakatlari orqali emas, balki shoir tanlagan so‘zning ma’no-mohiyatidan o‘quvchi qalbiga yuqadigan, uning ham ko‘zidan, ham ko‘nglidan joy oladigan badiiylik hosilasi – she’rning ruhida namoyon bo‘ladi. She’rda aks etgan lirik qahramon drammatizmi:

Mavrusiy toj-u taxtdan voz kechmoq, qora taqdirga qul bo‘lmoq, qora hijratga yuz tutmoq, tiriklay Vatandan judo bo‘lmoq, hatto tushlarida ham Vatanga qayta olmaslik – Bobur Mirzo chekidagi ulkan fojellik. Fojellikning fojeiyligi shundaki, Bobur Mirzo yuqoridagi vaziyatdan qochib, barchasiga qo‘l siltagan holda o‘ziga qulay yo‘lni tanlay olmaydi, tanlay olmaslikni uning o‘zi:

Dema Boburga: “Netarsan, bosh olib ketmak ne?”

Tengrining xosti mundoq esa men netgaymen?²⁶⁶ –

deya izohlaydi. Mehr qo‘yib umr bo‘yi intilgan bobomeros Samarqand, kindik qoni tomgan Andijonni qo‘ldan chiqarib, Toshkent atrofining kent-qishloqlarini sarosar kezib yurganida Vatanida bo‘la turib, o‘zini vatansiz his qilgan Bobur Mirzo: “Ko‘nglum bu g‘ariblikda shod o‘lmadi hech”, – deya ruboiy bitgan edi.

Xurshid Davron butunlay Movarounnahrni tark etib ketayotgan Bobur Mirzoning o‘z orzulari, imkoniyatlari, ulkan rejalariga Vatan topishi mumkinligini, ammo o‘zi bir umr bevatan bo‘lib qolayotgan holatini teran poetik nigoh bilan kuzatadi:

²⁶⁶ Bobur Zahiriddin Muhammad. Kulliyot. 1-jild. Devon. – T.: Zilol buloq, 2021. – B. 187.

Ot pishqirar, to‘xtar chavandoz
Uzangiga tirar oyog‘in
Va bo‘g‘ziga to‘plar beovoz
Vujudiga to‘lgan ingrog‘in.

“Badiiy asarda g‘amni tug‘diruvchi voqea-hodisalar yoki g‘amgin holatlar tasvirlanadi. G‘amning o‘zi emas. G‘am voqelik emas, voqelikning hosilasi”²⁶⁷.

Ayriliq, hijron, vatangadolik ostonasida turgan Bobur Mirzoning g‘amzada portretini, ruhiy holati, hayotining eng muhim, tahlikali, qaltis vaziyatlarni butun murakkabligi, tarangligi bilan his etgan Xurshid Davron talqinda chinakam tragik muhit va shu muhit mahsuli fojeiy qahramon holatining nozik, ta’sirchan ifodasini yarata oldi. “... bo‘g‘ziga to‘plar beovoz Vujudiga to‘lgan ingrog‘in”. Bobur Mirzoga nisbat berilgan ingroq ingrash, u chekayotgan hadsiz azobning eng yuqori darajasi. Vatan ostonasida so‘nggi bor turib, uning qirg‘oqlariga oxirgi marta nigohini tashlayotgan Bobur Mirzo yuragida o‘sha damda, ehtimol, yo‘lbars o‘kirigi yangragandir. Ammo bu o‘kirik qahramon vujudida, uning mardona tiynatida dardga og‘riqli azobga do‘nadi, qurib qolgan bo‘g‘zida to‘planib, ingroqqa aylanadi.

O‘z ichki “men”i bilan ayovsiz jang qilayotgan qahramonning psixologik, fiziologik holatining ishonchli badiiy idrok etilishi she’r ruhiyatidagi tragik pafosning yetakchiligini belgilagan. Lirik qahramonning yetmish ikki tomirida qonni emas, tengsiz alamlar, iztiroblar oqimini aylantirayotgan yurak, hijron dardining isitmasida qaqroq lablar, ovozsiz faryod, aslida butun dunyo ogoh bo‘lgan – haqiqat. Bu shoirning qalam kuchini ko‘rsatadigan, insoniy kechinmalarning ta’sirchan ifodalari.

Adabiyotshunoslik ilmida: “Motamsaro mazmunli she’r, albatta, lirik fojelikka misoldir, deyish xato. Agar she’r o‘quvchini og‘ir, motamsaro ko‘yga solsa-yu yengillik, huzur baxsh etmasa, bu turmushdagi dardning natural ifodasi

²⁶⁷ Xoliyorov M. Badiiy portret // O‘zbek tili va adabiyoti. № 3. 1991. – T.: O‘zbekiston SSJ FA, Fan. – B. 13.

bo‘lib, lirik fojeliikka aloqasi yo‘q. Hayotiy dard-alam yuksak poetik ifodalangan taqdirdagina ushbu fenomen yaraladi”²⁶⁸, – deyiladi.

Xurshid Davron o‘zining “Bobur” she’rida ana shu fenomenni muvaffaqiyatli kashf etgan.

Alam bilan yuragi urar
Shivirlaydi qaqroq lablari
“Hamma yerdan ko‘rinib turar,
Samarqandning minoralari”
She’r shu band bilan yakunlanadi.

Yuqorida aytganimizdek, Bobur Mirzo qarorini o‘zgartira olmaydi, ortga yo‘l yo‘q. Hayotiy haqiqat va undan o‘sib chiqib she’rda akslangan badiiy haqiqatga ko‘ra ham buning iloji yo‘q. Jahongirlik – qismat, ayriliq, hijron – yozug‘. Uni o‘zgartirish qahramonning qo‘lida emas. Shunda – imkonsizlikda iloj, umidsizlikda ilinj kashf etiladi. Lirik qahramon tilidan aytilgan “Hamma yerdan ko‘rinib turar Samarqandning minoralari” – bu misralar yuqorida keltirilgan mikrodialogda aks etgan el-u yurtdan ayro tushish, bevatanlik tasviridagi fojeliikka biroz yumshatsa-da, butunlay yo‘qqa chiqara olmaydi. Faqat kuchsiz, g‘ira-shira taskin qalbingizga kirib kelgandek bo‘ladi. Bu holatda biz Xurshid Davron tomonidan Bobur Mirzo hayotidagi real eng dramatik, fojeiy vaziyatlar lirika qonuniyatlariga bo‘ysundirilgan holda lirik fojeliikka aylantirilganini, shunday holatda “Bobur” she’rida lirik fojeliikka bo‘y ko‘rsatganiga guvoh bo‘lamiz.

Inson hissiyotlarining tinimsiz tovlanishi, ularning asarlar bag‘ridagi talqini haqida adabiyotshunos Ibrohim G‘afurov: “...harakat va hayot yaratuvchi bir kuchga – tragizm hissiyotiga e’tiboringizni qaratmoqchiman. Shoirning shodligi doim mung bilan, munga esa doim shodumonlik bilan qo‘shilib ketadi... g‘ussa va g‘ussaviylik hamda shodlik va shodumonlik har qachon bir-birlarini yetaklab yuradilar, bir-birlarini tarbiyalaydilar, shodlik g‘ussalarning murabbiysidir va g‘ussalar baxtiyorliklarga murabbiydir. Qanchalar g‘alati eshitiladi bu so‘zlar:

²⁶⁸ Meli S. So‘z-u so‘z. “Adabiyot falsafasi”ga chizgilar. – T.: Sharq, 2020. – B. 48.

lekin qanchalar olim qonuniyati bor ularda? Qancha-qanchalab odamlar qalblarining tarixi bor ularda!”²⁶⁹ – deydi.

Xurshid Davronning “Bobur” she’ri Bobur Mirzo qalb tarixining badiiyat bag‘ridagi aksi. “Samarqandning minoralari” esa shoirning tengsiz badiiy kashfiyoti. U shoir tafakkurida sintezlashgan yaxlit Vatan timsoli, ayni paytda aytish mumkinki, u kontekstda o‘quvchining didi, badiiy zavqiga qarab o‘zining bir ko‘p ma’nolarini namoyon eta oladigan rangin timsol.

Bu ramzda Bobur Mirzoning “Temurbekning va Ulug‘bek mirzoning imorati va bog‘oti Samarqand mahallotida ko‘ptur”²⁷⁰ ma’lumotining havasmandligi, salobati, “Samarqand xayoli boshqa tushubtur”²⁷¹ lutfining latofati va nazokati, “Latofat gulshanida gul kabi sen sabz-u xurram qol”²⁷² tilagining samimiyati, harorati bor. Samarqand minoralarining porloq yodini zulfiqor qilich kabi bir umr yuragiga qadab yashagan Bobur Mirzo (“Minoralar emas bu falakka qasam, Qasoskor bobolar ketmishdir sanchib”²⁷³) qadami yetgan joyga umumjahon e’tirofiga sazovor bo‘lgan temuriy madaniyatini va shu madaniyatning o‘chog‘i bo‘lgan “baldayi mahfuza” – Samarqandning chiroyini, fayz-u tarovatini, shukuhini olib kirdi. Taqdirning, qismatning buyuk missiyasini Vatandan yiroqda o‘tagan Bobur Mirzo ota-bobolarining eng yaxshi an’analariga vorisilik nuqtayi nazaridan ham Vatanniki, kindik qoni tomgan yurtning dilbar o‘g‘loni bo‘lib qoldi. Bobur Mirzo dahosi, Bobur Mirzo fenomeni ahamiyati jihatidan Samarqand minoralari bir safda turadi. Zero, “Minoralar mustahkamlik, bardoshlilik g‘oyasini ifodalaydi. Uning asosiy ma’nosi esa dunyoning ramziy manzarasida ma’naviy, samoviy, ilohiylikka yaqin holat yuqoriligi bilan bog‘lanadi... minora yer bilan osmon o‘rtasidagi aloqa vazifasini bajaradi, deyishadi”²⁷⁴.

Bobur Mirzoning ma’naviy-ruhiy olamiga tegishli samoviy, ilohiylikka yaqin holatni har kim aql-u idroki, fahm-farosati, aynan shu sohaga tegishli bilimi,

²⁶⁹ G‘afurov I. Asarlar. Adabiyot dunyosi: sakkiz jildlik. To‘rtinchi jild. O‘ttiz yil izhori. – T.: Yangi asr avlodi, 2022. – B. 476.

²⁷⁰ Bobur Zahiriddin Muhammad. Boburnoma. – T.: Sharq, 2002. – B. 59.

²⁷¹ O‘sha manba. – B. 365.

²⁷² O‘sha joyda.

²⁷³ Oripov Abdulla. www.ziyouz.com kutubxonasi

²⁷⁴ Mingboyeva D. Timsollar tilsimi. – T.: Yangi asr avlodi, 2007. – B. 135.

ilmiga tayanib o‘zi kashf etar, ammo Bobur Mirzo va u kabi buyuk tarixiy shaxslarimiz o‘tmish bilan bugunni bog‘lab turuvchi oltin ko‘prik ekanliklari aynan haqiqatdir. Samarqandning muazzam va muzayyan minoralari kabi ular hamma vaqt, ham yerdan ko‘rinib turadilar.

Boburshunoslikka yondosh, mustaqillik davri imkoniyatlari o‘laroq keng o‘zan bo‘ylab harakat qilayotgan boburnomashunoslik iste’dodli yozuvchi va shoirlarimizning yangicha izlanishlari va poetik kashfiyotlarining mahsuli o‘laroq o‘ziga xos kasb etgan badiiy ijod namunalari bilan boyib bormoqda. Aytish mumkinki, bunday yaratishlar, xususan, biz fikr yuritmoqchi bo‘lganimiz Sirojiddin Sayyidning “Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur...” asari bugungi kun o‘quvchisi bilan “Boburnoma” o‘rtasida badiiy ko‘prik. Chunki u Bobur Mirzoning jozibali, dilbar olamiga, beqiyos yaratilgan “Boburnoma” fenomeniga yaqin kirib borishga o‘zida ehtiyoj sezadigan kitobxon uchun yo‘l ko‘rsatuvchi mohir rahbardek go‘yo.

Sirojiddin Sayyid yozadi: “...mardlik va matonat, g‘urbat-u firoq, mehnat-u alamlarga to‘la umrning yuz lahza, yuz holatini qo‘limdan kelgancha ifodalab berishga harakat qildim. Gohi Bobur hazratlari tilidan, gohi o‘zimdanda, gohi she‘r, gohi g‘azal tarzida, gohi ruboiy, gohi muxammas shaklida ko‘nglimdagilarni, niyat va maqsadimni insho etishga urinib ko‘rdim. Shu jihatdan tagsarlavhada “doston” deb yozilgan bo‘lsa-da, bu bitiklarni doston yo‘lidagi bir jahd yo‘urinish deyilsa, to‘g‘riroq bo‘lar”²⁷⁵.

“Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur...” tarkibidagi har biri alohida o‘z sujeti, kompozitsiyasi, sarlavhasiga ega she‘r, g‘azal, ruboiy, muxammaslar mohiyatida Bobur Mirzo, uning ruhiy kechinmalari, ko‘ngil manzaralari suratlantirilganligi uchun ham muallif uni doston deb taqdim etgan. Ammo bu bizga asar tarkibidagi she‘r, g‘azal, ruboiylarning har birini mustaqil yaratishlar sifatida alohida olib tahlil etishimizga xalaqit bermaydi.

²⁷⁵ Sayyid S. Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur. Muqaddima. – T.: O‘zbekiston, 2010. – B. 6. (Bundan so‘ng ushbu nashrdan olingan ko‘chirmalarning sahifasini ko‘rsatuvchi raqamlar qavs ichida beriladi).

Sirojiddin Sayyid “Boburnoma” sarhadlarini kezib, kezinib “har soʻzning rostini bitilgan va har ishning bayoni voqeini” tahrir etilgan holatlarni shoirona qalb, koʻngil koʻzlari bilan qayta badiiy idrok etdi. Yuz holat, yuz lahza ham Bobur Mirzoning eʼtirofi yoki eʼtirozi, muhabbati yoki nafrati, hayrati yoki havasi. U tuygan ruhiy ogʻriqlar va chekkan alam-iztiroblar ifodasi.

“Eng yaxshi sanʼat asarlarini vaqti-vaqti bilan takror sinchiklab koʻrib turmoq zarur, ularda koʻz ilgʻamas teranlik yashiringan boʻladi”²⁷⁶, – deydi buyuk Gyote. “Boburnoma”dagi koʻz bilan ilgʻab boʻlmaydigan, ammo yurak, qalb bilan his etiladigan teranlikni kashf etgan Sirojiddin Sayyid maʼlumot, kuzatuv darajasidagi matnlarni qayta badiiy idrok etadi. Ularning har biridan Mirzo Bobur ruhoniyyatiga, uning insoniy mohiyatiga yoʻl qidiradi.

“Qalam va qilich” deb nomlangan toʻrtlikning yaratilishida shoirga “Boburnoma”da Husayn Boyqaro haqidagi maʼlumot badiiy ulgi vazifasini oʻtagan “Shujoʻ va mardona kishi edi. Borlar oʻzi qilich tegurubtur, balki har maʼrakada borlar qilich tegurubtur. Temurbek naslidan hech kim maʼlum emaskim, Sulton Husayn mirzocha qilich chopmish boʻlgʻay. Tabʼi nazmi bor edi. Devon ham tartib qilib edi. Taxallusi “Husayniy” edi...” Sirojiddin Sayyid Bobur Mirzoning temuriy hukmdorlar ulugʻi – Husayn Boyqaroning ham qilichda, ham qalamdagi iqtidorini eʼtirof etib bitgan bitiklaridan muallifning oʻzining siymosiga yoʻl qidiradi.

Men qalamni ohimga payvasta qildim,

Gʻurbat meni, men gʻurbatni xasta qildim.

Ne gʻamlarki, falak menga ravo koʻrdi –

Qilichim va qamchininga dasta qildim. (70-b.)

Ijodkor topilmasida hijronzada shoir (“qalamni ohimga payvasta qildim”), jahongashta fotih (“gʻurbat meni, men gʻurbatni xasta qildim”), Ollohning taqdiriga “labbay” deb javob bergan, matonatli, kuchli shaxs (“Ne gʻamlarki, falak menga ravo koʻrdi – Qilichim va qamchininga dasta qildim”) Bobur Mirzo siymosini koʻramiz. Misralar qatida Temurbek naslining munosib vorisi Bobur

²⁷⁶ Gyote Y.V. –T.: Yangi asr avlodi, 2011. – B. 47.

Mirzoning shujo' va mardona suratinigina emas, balki "yuz oh"larga makon shoir qalbi va yoniq yuragini ham his qilamiz.

"Boburnoma"da Mirzo Boburning Hindiston va Qarshida uchraydigan bag'riqora deb nomlanuvchi qushni solishtirib yozgan kuzatuvi Sirojiddin Sayyid e'tiborini tortgan: "Yana Hindiston bag'riqorasidur, ul bag'riqoradan kichikroq va inichkaraktur. Bag'rining qorasi ham kamdur. Uni (tovushi) ham andin inichkaraktur".

Jahonda hech kishi men singari ovvora ermasdir,
Biror ko'ngil mening ko'nglim kabi sadpora ermasdir.
Ayo, ey bag'riqora qush, agar bag'ring qarodir, lek
Mening bag'rimdagi dog'lar misoli qora ermasdir. (110-b.)

"... ma'no so'z so'zga urishtirilganda voqe bo'ladi. Zero, so'zning so'zga urilishi – bamisoli bong, uning jarangi tasavvurimizda qandaydir tushunchalar, narsalar, manzaralar, qiyoslarni – bir so'z bilan aytganda, assotsiatsiyalarni, assotsiatsiyalar zanjirini uyg'otadi"²⁷⁷.

Sirojiddin Sayyidning "Bag'riqora qush" deb nomlanuvchi bag'ishlovida ovvora, sadpora, bag'riqora, qora sifatlari o'zaro qofiyalanib she'rning poetik fazilatini namoyish etyapti, ayni paytda har biri ko'ngilga nisbat berib qo'llanganligi uchun, ya'ni yuqoridagi ta'rifda aytilgan so'zning so'zga urilishi natijasida obrazlar assotsiatsiyasini yuzaga chiqaryapti. Metaforik idrok etish orqali o'quvchi Mirzo Boburning bewatanlik, yurt sog'inchi iztiroblarini Sirojiddin Sayyid bag'riqora qush timsolida mahorat bilan kashf etganiga guvoh bo'ladi.

"Boburnoma"da 1525-yil voqealari bayonida Mirzo Bobur shunday yozadi: "Oxshom andin ko'chib, Ali Masjid tushildi. Bu yurtning torlig'idan doyim men bir pushta ustiga tushar edikim, men tushgan pushta borig'a mushrif edi. Kecha cherik elining o'tidan ajab yaxshi charog'on bo'lur edi..."²⁷⁸

Bu parchada tepalikda turib, pastda navkarlari yoqqan gulxanning shu'lasida charog'on bo'lib ketgan kechadan zavqlanayotgan Mirzo Boburning tinimsiz ruhiy

²⁷⁷ Quronov D. va b. Adabiyotshunoslik lug'ati. – T.: Akademnashr. 2010. – B. 40.

²⁷⁸ Bobur Zahiriddin Muhammad. Boburnoma. – T.: Yangi asr avlodi, 2014. – B. 437.

evrilishlar girdobida birda cho‘kib, birda qalqib borayotgan mardona ko‘nglini ko‘ramiz. Sirojiddin Sayyid ham aynan shu bag‘ishlovini “Ko‘ngil” deb nomlagan:

Desam yor-u diyorumdan xiromon bo‘lgan, ey ko‘nglim,
Sog‘inch-u dard-u yodlardin farovon bo‘lgan, ey ko‘nglim.
Qorong‘u, so‘ngi yo‘q tunlar, uzoq hijronli ellarda,
Cherigim yoqsa gulxanlar – charog‘on bo‘lgan, ey ko‘nglim. (112-b.)

Yulduzsiz, oysiz qorong‘i kecha, yorsiz, diyorsiz hijronzada Mirzo Bobur ko‘ngli. Yuqoridagi satrlarda mohiyatgaingan shunday yashirin qiyos bor. She’rdanurga yo‘g‘rilgan iztirob va boburona optimistik ruh bor, boburona nekbinlik bor. Sirojiddin Sayyid sinchi ijodkor sifatida real voqelikni badiiy voqelikka aylantirish jarayonida Mirzo Boburning mardona xarakterini ko‘rsata olgan. Har qanday jangu jadallar, saltanat dag‘dag‘alari ortidagi qon to‘kishlar, muntazam ot ustida, ilkida qilich-qalqon-u egnida temir sovut bilan ham o‘zining yoniq yuragini, shoir ko‘nglini saqlab qololgan nazokatli Mirzo Bobur qalbida favqulodda bir hayotsevarlik bor. Shoirning qalbidagi tiriklik shukronasi shu qadar baravjki, qayta-qayta taqdir zarbalaridan yerparchin bo‘lib ketgan Mirzo Bobur yana matonat bilan qad rostlashga o‘zida kuch-qudrat topadi.

Fasllar tarovati Mirzo Bobur nazmida ayricha latofat va muzayyanlik kasb etadi. “Bahor ayyomidur dag‘i yigitlikning avonidur” yoki “Yoz fasli, yor vasli, do‘stlar suhbati” deb boshlanuvchi g‘azallarning matla’sidayoq ko‘ngilni orziqtirib yuboradigan surur, zavq bor. Sirojiddin Sayyidning diqqatini tortgan kuz fasli manzaralari “Boburnoma”da quyidagicha tasvirlanadi: “... tonglasi Bog‘i Vafog‘a keldim... Sahlari tamom se bargazor, anor daraxtlari sap-sarig‘ xushrang xazon bo‘libtur. Dushanba kuni xazon sayrig‘a Istalifg‘a borildi... Namoz digar bo‘la Behzodiyg‘a keldik. Xazonlar asru xo‘b bo‘lub edi... Xoja Shihobg‘a tushib uyquladik. Xili yaxshi xazon edi...”

“Xazon sipohi” (A.Navoiy) – kuz hukmidagi tabiat Mirzo Bobur qalamida shunchalar mohirona aniqlik bilan chizilganki, beixtiyor oltin tusga kirgan Bog‘i Vafo qo‘ynida xoki poyida yotgan “sap-sarig‘ xushrang xazon”larning sirli shiviriga quloq tutib, xayollar og‘ushida bir-bir odimlab ketayotgan Mirzo Bobur

ko‘z o‘ngimizda gavgaldanadi. Shu onda Javoharlar Neruning “U san‘atni, adabiyotni sevardi, hayotdan huzur qilishni yaxshi ko‘rardi”²⁷⁹, degan so‘zlari yodimizga tushadi. Darvoqe, Sirojiddin Sayyidning “Boburnoma”dan keltirgan ko‘chirmasida yana shunday tasvirlar bor ki, bu Neruning Mirzo Boburga bergan ta‘rifining ayni haqiqatligini isbotlaydi: “...Istarg‘achning oyog‘idagi podshohiy bog‘ini sayr qilildi. Bir olma daraxti yaxshi xazon bo‘lib edi, har qaysi shoxida besh-olti barg siyoq bila qolib edi, andoqkim, agar naqqoshlar takalluf bilan tortsalar, ancha torta olmag‘ay edilar...” Hassos shoir Usmon Nosir ta‘biri bilan aytganda “ko‘ziga oyni berkitgan (oy – go‘zallik timsoli) Mirzo Bobur o‘z umri g‘unchasini xazon yaprog‘iga almashtirgan olma daraxtining ko‘rk-u tarovatiga qarab, musavvir tabiatning san‘atiga qoyil qolar ekan, bu zarif holatni qog‘ozga tushira oladigan rassomning mahoratiga shubha bilan qaraydi.

Ruhshunoslar o‘ziga ishongan va umid bilan yashaydigan insonlar sariq rangga intiladilar²⁸⁰, deydi. Beixtiyor Bog‘i Vafoni kezib yurgan Mirzo Boburning “daraxtlari sap-sarig‘ xushrang xazon bo‘libtur” degan e‘tirofi yodimizga keladi va shoir ruhiyatining yana bir qirrasini kashf etgandek bo‘lamiz.

Adabiyotshunos Ibrohim Haqqul: “Bobur o‘z memuarida zohiriy safar, sarguzasht va kurashlarini bayon etgan. She‘rlarida esa u ko‘ngil va ruh sayohatiga daxldor ma‘no hamda tuyg‘ularni tasvirlab beradi”²⁸¹, deydi. Endi nosir Mirzo Bobur huzuridan shoir Mirzo Bobur ko‘ngil mulkiga qaytamiz:

Xazon yafrog‘i yanglig‘ gul yuzing hajrida sarg‘ardim,
Ko‘rib rahm aylag‘il, ey lolarux, bu chehrayi zardim.

Butun she‘riyati sog‘inch va iztirobning sharhidan iborat bo‘lgan Mirzo Bobur lirikasida “yor”, “diyor”, “ko‘ngil” timsollari motiv obrazlar sanaladi. Bu timsollar shoirning deyarli barcha g‘azal va ruboiylarida tez-tez takrorlanadigan shoirning ruhiy olami, ijodi mohiyatini namoyon qiluvchi obrazlardir.

²⁷⁹ Neru J. Dunyo tarixiga bir nazar. Xorijda boburshunoslik. – T.: Mumtoz so‘z, 2009. – B. 64.

²⁸⁰ Timsollar tilsimi. (Ramz, belgi va timsollar tasviri) Tuzuvchi: Dilrabo Mingboyeva. – T.: Yangi asr avlodi, 2007. – B. 117.

²⁸¹ Haqqul I. Taqdir va tafakkur. – T.: Sharq, 2007. – B. 314.

“Gul”, “chaman”, “latofat gulshani”, “xazon yafrog‘i” metologik obrazlar sifatida yurt hajrida o‘rtanayotgan Mirzo Bobur tasavvurida tiklangan Vatan, undan ayro yashayotgan shoir qiyofasini anglatadi. O‘zga yurtlarda “Vatan topa olmagan, taxt topganda ham baxt topa olmagan” (B.Qosimov) Mirzo Boburning bir oqibatli farzand sifatida o‘z diyoriga shunchalar mehr-u muhabbati buyuk ediki, uni doim latofat gulshani bo‘lib qolishini, gul, chaman yanglig‘ ko‘rk ochishini istardi: “Latofat gulshanida sen gul kibi sen sabz-u xurram qol”. Shoir o‘zini beshafqat umr kuzining qahrli shamollari uzoqlarga uchirib olib ketgan xoksor xazon yaprog‘iga qiyoslaydi. “Men archa dahr bog‘idin xazon yafrog‘idek bordim”.

Sirojiddin Sayyid ham o‘zining “Xazon fasli” bag‘ishlovida Mirzo Bobur yuragidagi Vatan hasratini teranroq ochishni “xazon” timsoliga yuklaydi. Bag‘ishlovga Mirzo Boburning yuqorida keltirganimiz xazon sayli bilan bog‘liq xotiralari, kuzatuvi asos bo‘lgan. Sirojiddin Sayyid fikrchanligi oddiy hayotiy hodisaga shu‘la sochdi, unga cho‘g‘ tashladi, gulxanga aylantirdi. Muallif o‘sha cho‘g‘ni aslida shoir Mirzo Boburning otash ko‘nglidan oldi.

Bog‘ xazon-u tog‘ xazon-u jumlayi olam xazon
Tildagi nolam xazon-u, dildagi lolam xazon.
Kelgilu ey gul, mening fasli xazonrezimni ko‘r,
Bo‘lmagan olamda mendek hech biror odam xazon.
Siz to‘kilmog‘ darsini mendan oling, ey bog‘lar,
Kim xazonim oldida ming bog‘ xazoni kam xazon. (81-b.)

Mirzo Bobur she‘riyatidagi an’anaviy obrazlarga suyangan holda Sirojiddin Sayyid gul timsolida Vatan, xazon timsolida shoirning o‘zini ko‘radi. Mirzo Bobur lirikasida armonlari qat-qat shoir ko‘ngli gulning g‘unchasiga o‘xshatiladi: “Mening ko‘nglimki gulning g‘unchasidek tah-batah qondur, Agar yuz ming bahor o‘lsa, ochilmog‘i ne imkondur”. Sirojiddin Sayyid esa shoir ko‘nglini kuzakka boy berilgan lola obrazida ko‘radi. Bu muallifning muvaffaqiyatli topilmasi, chunki lola bag‘ridagi qora dog‘ shoir ko‘ngil holatini yaqqolroq ifoda etadi.

“Ey gul”, – deya Mirzo Bobur tilidan Vatanga xitob qiladi muallif, – “Sensiz xazon bo‘ldim. Sensizligimning oqibatini ko‘r: men bir uyum odam xazonga aylanib qoldim”. Oldingi misralardagi “bog‘ xazon”, “tog‘ xazon”, “olam xazon” ifodalarini “odam xazon” ham ohang, ham mazmun jihatdan to‘ldirib lirik qahramon drammatizmini yanada kuchliroq namoyon etishga xizmat qilyapti.

Istarg‘achning podshohiy bog‘ida kuzak shamollariga bo‘y bermay olma shoxlarida turib qolgan xazon yaproqlari Mirzo Boburni qanchalar hayratlantirgan edi. Sirojiddin Sayyid xuddi shu holatni tabiatning “to‘kilmoq darsi” deyotgandek, inson o‘rganishi, saboq olishi kerak bo‘lgan dars (O.Genrining “So‘nggi yaproq” misol bo‘la oladi). To‘kilmoq darsini ko‘p va xo‘b o‘rgangan va o‘tagan Mirzo Bobur o‘zini umr manzil marohillarida yuksalish nuqtalarini ham to‘g‘ri belgilay oldi. Bu sarbaland nuqtalardan biri, shubhasiz, “Boburnoma”dir.

“Sirojiddin Sayyid “Boburnoma”dan iqtibos tanlar ekan, juda ehtiyotkorlik bilan yo‘l tutadi. Bu parchalar tub mohiyati jihatidan Boburning hayoti, dunyoqarashi, asarda ko‘zda tutilgan har bir g‘oyasini aytilmay qolgan fikrlardek taassurot uyg‘otadiki, o‘quvchi gohida bu misralarni Bobur aytgandek qabul qiladi”²⁸², – deydi adabiyotshunos Isroil Sulaymonov.

Darhaqiqat, Sirojiddin Sayyid mohir psixolog kabi Bobur Mirzo qalbiga yo‘lni “Boburnoma”ning ruhiyat manzillarida topadi: “Doim xotirg‘a yetar edikim, Hindustonning bir ulug‘ aybi budurkim, oqar suvi yo‘qtur... Hindustonning yana uch ishidin mutazarrir erduk: biri issig‘idin, yana bir gardidin, yana bir tund yelidin...” Bu havola shoirga “Hajr sahrosida” she‘rining yaratilishi uchun ilhom beradi. Kobulda Vatani tomonlaridan kelayotgan nasimdan, ona yurt bo‘yidan bahramanddek Bobur Mirzoga tabiati, eli, tili, dini, urf-odatları butunlay o‘zgacha Hindiston haqiqiy musofirchilik darvozasini ochdi. Bobur Mirzo tom ma‘noda g‘urbatning zil-zambil yukini Hindistonda sezdi. Zerobu yuk o‘zining tashvishlari bilan yurgan oddiy musofirniki emas, balki shoh, fotih, shoirko‘ngil Bobur Mirzo chekidagi yuk. Sirojiddin Sayyid esa o‘z she‘rida yelkasiga tushayotgan

²⁸² Sulaymonov I. Sirojiddin Sayyidning “Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur...” dostoni haqida. Bobur abadiyati [Matn]: “Zahiriddin Muhammad Bobur asarlarining jahon madaniyati tarixida tutgan o‘rni” mavzusidagi xalqaro anjuman materiallari. – T.: Bayoz, 2018. – B. 341.

og'irlikdan ko'ra qalbiga, yuragiga tushayotgan, sabr-bardosh qidirayotgan Bobur Mirzoning miskin, ayni paytda samimiyatga to'la obrazini yaratadi.

Gohi o'ksungay dilim yot elidin,
Issig'iyu changi-yu tund yelidin.
Goh firoq haddin ziyod aylar xuruj,
Olg'ay odamning bag'ir yo belidin.
Jong'a yetdim, goh zamon avzoyi-yu
Gohi o'z mirzolarimning fe'lidin
Men – hajr sahrosida bitgan daraxt
To'ydim oxir ko'zyoshimning selidin.

G'azalning dastlabki ikki bayti poetik axborot: "hajr sahrosi"ning manzarasi va uning domidagi lirik qahramon hasbi holi. Shoir uni "goh... goh" ayiruv bog'lovchisi yordamida bayon etar ekan, ma'lum bir estetik ta'sirni ko'zlagani aniq. Ushbu bog'lovchi o'z vazifasiga ko'ra: "Gohi o'ksungay dilim yot elidin", "Goh firoq haddin ziyod aylar xuruj", "Jong'a yetdim... Gohi mirzolarimning fe'lidin" tasvirida holat ketma-ketligini, davomiyligini ta'min etish bilan "hajr sahrosi" fuqarosiga aylanib qolgan Bobur Mirzo iztiroblarining cheksizligini, ayni paytda g'azal sarlavhasidayoq aks etgan dramatik ruhning asardagi yetakchi o'rini tayin etadi.

Keyingi ikki baytda shoir determinizm talabidan kelib chiqib lirik qahramon tushgan vaziyatni sabab va oqibat fonida poetik tadqiq etadi. Ana shu asnoda Sirojiddin Sayyidning so'z imkoniyatidan kelib chiqib, unga badiiy yuk ortish me'yorini nechog'lik mahorat bilan egallanganligini kuzatish mumkin.

Tarix hukmiga ko'ra o'z umrini yashab bo'lib, tanazzulga yuz tutgan temuriylar saltanati inqirozining muqarrarligini, uni to'xtatib qolishning hech qanday iloji yo'qligini "zamona avzoi" leksik birligida ifodalagan shoir, Bobur Mirzoning "hajr sahrosi"ga yuzlanishida ikkinchi sabab qilib lirik qahramonning tilidan aytilgan "o'z mirzolarimning fe'li"ni ko'rsatadi. Muallif tarafidan ustalik bilan qo'llangan bu tafsilda jar labida turib ham, umumiy ijtimoiy-siyosiy xavfga

qarshi birlashib kurashishning o‘rniga, o‘zaro qirg‘inbarot uyushtirib yotgan temuriyzoda hukmdorlarning achinarli holati ko‘zga tashlanadi.

Ana shunday loqayd, befarq, kaltabin “o‘z mirzolari... fe’li”dan kuygan Bobur Mirzo o‘zining “Xazon yafrog‘i yanglig‘...” g‘azalida: “Bahar rangi, bihamdillah ulusdin o‘zni qutqordim” iqrorigacha borganini yaxshi bilamiz.

Bobur Mirzoning “hajr sahrosi”ni ixtiyor etish sabablarining poetik tadqiqi uchinchi baytda yuzaga chiqsa, so‘nggi to‘rtinchi baytda lirik qahramonning “Men – hajr sahrosida butgan daraxt, To‘ydim oxir ko‘z yoshimning selidin” iqrorida sababiyatlar bog‘lanishiga ko‘ra yuzaga chiqqan natijani ko‘rish mumkin. Determinizm hodisasiga binoan “Men – hajr sahrosida butgan daraxt” – oqibat. Aytish mumkinki, Sirojiddin Sayyid sakkiz misrali mo‘jaz she’rda daraxt timsoli orqali Bobur Mirzoning monumental ramziy obrazini yarata oldi.

“Hajr sahrosi” – tahlilga tortilgan she’r sarlavhasi musofirchilik, g‘urbatda g‘ariblik ma’nolarini o‘zida tuyg‘un ifodalagan. “Hajr sahrosi” asli yot ellardagi o‘ksishlar, firoq xurujlari, ona yurt sog‘inchi, vatansizlik iztiroblaridan huvullab, qaqrab yotgan Bobur Mirzoning ko‘ksi, undagi shikasta qalb. Ammo Bobur Mirzoning mardona xarakteri, hayotsevarligi, shijoati Sirojiddin Sayyid tarafidan o‘z o‘rnida nuktadonlik bilan she’rga olib kirilgan daraxt obrazda o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi va she’riga optimistik ruh bag‘ishlaydi. Lirik qahramon bewatanlikda, sog‘inchda to‘kilgan ko‘z yoshlari seliga qo‘shilib o‘tavermaydi. U “hajr sahrosi”da, ya’ni ko‘ksida, qalbida daraxt, ya’ni sabr, bardosh, iroda undiradi (“Chechaklar ungusi ko‘z yoshlarimdan” (Cho‘lpon).

Zero Bobur Mirzo o‘z ko‘ksida undirgan ana shunday sabr daraxti tufayli ham hamma narsaga jasorat va halollik ila erishdi. Buyuk mag‘lubiyatlari ustiga buyuk g‘alabalar imoratini qura oldi, yoshlikda ko‘rgan omadsizliklar o‘rniga, keyinchalik ulug‘ omadlar unga yor bo‘ldi”²⁸³.

III bob yuzasidan xulosalar

283 Qarang: La’l M. Bobur ta’rifida. Manba: Ochilov, E. Zahiriddin Muhammad Bobur. – T.: O‘zbekiston, 2012. – B. 128.

1. Oybek zamonaviy dostonchiligimizga ilk marotaba Bobur Mirzo obrazini olib kirar ekan, bosh qahramon hayotini o'z davri, o'z muhiti bilan uzviy, teran, realistik tasvirda, epik ko'lamda badiiyatga ko'chira oldi.
2. Barot Boyqobilovning "Kun va tun" dostoni sarlavhasi doston badiiy konsepsiyasiga semiotik ochqich vazifasini o'tagani holda asarda aks etgan tarixiy davr ham tarixiy bosh qahramon umr mohiyatini o'zida muxtasar va aniq ifoda eta olgan.
3. Sho'ro davrining mafkuraviy cheklovlariga qaramay dostonda Bobur Mirzoning dilbar insoniy qiyofasi, mislsiz sarkarda, bunyodkor va adolatli hukmdor sifatidagi fazilatlarini izchil talqin etilar ekan, asarda shoh Bobur emas, shoir Bobur qiyofasiga ko'proq e'tibor berilgani ko'zga tashlanadi.
4. Dostonda Bobur Mirzoning afg'on, hind diyollarida olib borgan adolatli, insonparvarlikka asoslangan mamlakatdorlik siyosatining obrazli talqini sho'ro davri mafkurasining "Bobur – bosqinchi imperator" degan ayblovining mutlaqo noto'g'ri ekanligini badiiy asoslay olgan.
5. "Kun va tun" dostonida sho'ro davri o'zbek adabiyotining deyarli barcha janrlarida Bobur Mirzo obrazini yaratishdagi ustuvor tendensiya, ya'ni shoh Bobur emas, shoir Bobur qiyofasiga ko'proq e'tibor berish zarurati ko'zga tashlanadi.
6. "Uch so'z" dostoni muallifi mavzuga oid tarixiy materiallarni o'z badiiy niyatiga ko'ra saralab, Bobur Mirzoning mag'lubiyat va zafarlarga, quvonch va qayg'ularga to'la hayotining eng muhim o'rinlarini aks ettirish orqali yaxlit poetik obraz yaratishga muvaffaq bo'ldi.
7. "Uch so'z" mustaqillik davri, ozod fikr, erkin ijod mevasi bo'lganligi uchun ham dostonning bu mavzudagi boshqa asarlardan farqi, unda Bobur Mirzodek fenomenal shaxs hayotining ma'naviy-ruhiy qirralari, ma'no olamining sirlari, bu olamda Xoja Ahror Valiy, Maxdumi A'zam Kosoniy, Xoja Mavlonoyi Qoziy kabi ruhoniylarining o'rni, mavqeyi real tarixiy voqealar asosida badiiy talqin etilgan.

IV BOB. KATTA VA O‘RTA NASRDA BOBUR SIYMOSINING EPIK TASVIRI

4.1. “Yulduzli tunlar” hamda “Boburnoma”: qiyos va talqin

“Xalqimiz o‘z tarixiy ildizlaridan kuch olsa, mustamlakachilik zanjirini uzib chiqishga qaratilgan harakatlar avj olishi mumkin edi.

Yoshim qirqlarga borganda mana shu haqiqatni dil-dildan sezib qoldim. Keyin o‘n yillar davomida tirishib, kurashib, axiyri Bobur Mirzo va uning avlodlari haqidagi romanlarni xalqqa yetkazib berdik”²⁸⁴, – deydi tarixnavis yozuvchi Pirimqul Qodirov. Yozuvchining 1928-yil tavallud topganini hisobga olsak, o‘zi ta’kidlaganidek, qirq yoshlarda bunday xayrli ishga qo‘l urgan bo‘lsa, demak, “Yulduzli tunlar” romani 1968-yildan boshlab yozilgan. “Yulduzli tunlar” romanining ilk nusxasi 1972-yili yozib tugatilib, Yozuvchilar uyushmasidagi muhokamada yuqori baholanadi.

Guvohi bo‘lganimizdek, yozuvchi xotiralarida roman o‘n yillik kurashlar natijasida kitobxonlar qo‘liga yetib borganligi va buning sabablariga ham ishora qilinyapti.

40-yillar adabiy jarayonida mavlono Oybek “Navoiy” romani (1942) orqali Alisher Navoiy dahosini o‘z xalqiga qanchalik yaqin tanishtirgan bo‘lsa, o‘zbek mumtoz adabiyotining ikkinchi cho‘qqisi, shoh va shoir Bobur Mirzo fenomenini bor bo‘yi bilan millatimizga yetkazishda Pirimqul Qodirov o‘zining “Yulduzli tunlar” asari bilan Oybekning o‘sha ma’naviy jasoratini yana bir bor takrorladi. Ayni paytda yozuvchiga otilgan malomat toshlari ham “Yulduzli tunlar” uchun Pirimqul Qodirov boshiga tushgan kulfat ham Oybeknikidan kam bo‘lmadi.

“Yulduzli tunlar” – yozuvchining tarixiy mavzudagi birinchi yirik romani. Ushbu romanga nisbatan yana birinchi so‘zini qo‘llashga haqlimiz. Zamonaviy o‘zbek nasrida birinchi marta shoh va shoir, jahongir, qomusiy olim, tadbirkor davlat arbobi, dilbar shaxs Zahiriddin Muhammad Boburning hayot yo‘li, biografiyasi, ijtimoiy-ma’rifiy faoliyati badiiy tadqiq etilgan, birinchi marta Bobur Mirzoning epik obrazi realistik planda yaratilgan. “Yaratuvchilik qudrati nuqtayi

²⁸⁴ Qodirov P. Ijodkor burchi / telejurnalist bilan muloqot. Manba: Qalb ko‘zlari. – T.: Ma’naviyat, 2001. – B. 157.

nazaridan qaraganda, tarix tabiatdan keyingi eng ulug‘ o‘rinlardan birida turadi. Tabiat o‘z o‘rmonlari, tog‘larini, vodiylarini, daryo-ko‘llarini qanday betakror yaratgan bo‘lsa, tarix ham turli qit‘alar, xalqlar, davlatlar taqdirini va ularga mansub bo‘lgan yirik shaxslarning tarjimai holini ham shunday betakror va yorqin qilib yaratib qo‘ygan. Asrlar kitobini o‘qiganingiz sari tarix tomonidan hayotiy dramalar, fojialar, sujetlarning alohida yozuvchining fantaziyasi bilan yaratib bo‘lmashligiga ishonch hosil qilasiz. Shu sababli men o‘z fantaziyamdan ko‘ra “tarix fantaziyasi”ga, ya’ni chindan sodir bo‘lgan voqealarga va yashab o‘tgan tarixiy shaxslar taqdiriga asoslandim”²⁸⁵, – deydi “Yulduzli tunlar” romani muallifi Pirimqul Qodirov.

Buyuk Qodiriy “Men ko‘rmagan, bilmagan narsam haqida hech narsa yozmayman”²⁸⁶ deganidek, Pirimqul Qodirov ham men tarix fantaziyasiga asoslandim, deya o‘z ijodiy prinsipini bayon qilyapti. Memuar — esdalik tipidagi asarlarda tasvirlanayotgan tarixiy voqealarning faol qatnashchisi mualliflarning o‘zlari bo‘ladi. Shuning uchun ham bunday asarlar tarixiy-memuar — esdalik doirasida qolmay, badiiylik xususiyatlarini ham kasb etadilar.

Bunday asarlardagi badiiylik tarixiylikka asoslanganligi uchun ham ularda realistik tasvir uslubi yetakchilik qiladi. Shu ma’noda “Boburnoma” – badiiy memuar-esdalik asar. “Yulduzli tunlar” – sof badiiy asar, tarixiy roman. “Zamonaviy asar yozganimda butun ko‘z oldimda turgan hayot menga qanchalik ko‘p narsa bergan bo‘lsa, tarixiy asar yozganimda “Boburnoma”, qisman “Humoyunnoma” ham menga shunchalik ko‘p narsa berdi”²⁸⁷, — deydi yozuvchi.

Yozuvchining o‘zi ta’kidlaganidek, “Boburnoma” va undan tashqari yana ko‘plab tarixiy manbalarni o‘rgandi, o‘zining badiiy niyati, g‘oyaviy-badiiy maqsadiga ko‘ra ularni saraladi, qayta badiiy jonlantirdi.

Adabiyotshunos olim A. Rasulov “Janr, sarlavha, konsepsiya (tasvir predmeti salmog‘i) asarning ilk semiotik markazida yarqirab ko‘zga tashlanadi. Ilk

²⁸⁵ Qodirov P. Muallifdan. Avlodlar dovoni. – T.: Adabiyot va san’at nashriyoti. 1989. – B. 5.

²⁸⁶ Qodiriy A. Tanlangan asarlar. – T.: Sharq, 2014. – B. 813.

²⁸⁷ Normatov U. Izlanish quvonchi va tashvishlari (Yozuvchi Pirimqul Qodirov bilan suhbat) Yetuklik. – T.: 1982. – B. 337.

semiotik markaz deganda aksariyat hollarda birinchi misra (satr, jumla) tushuniladi. Ilk jumla (satr, misra) birinchi taassurot asar haqidagi g'ayrishiuriy anglash manbai"²⁸⁸ deydi.

Shu o'rinda har ikki asarning ilk jumlasiga e'tibor qaratsak: "Boburnoma" axborot, ma'lumot tariqasidagi jumla bilan boshlangan: "Tengri taoloning inoyati bilan va hazrati on Sarvari koinotning shifoati bilan va chahoryori bosafolarning himmati birlan seshanba kuni, ramazon oyining beshida, tarix sakkiz yuz to'qson to'qqizda Farg'ona viloyatida o'n ikki yoshta podshoh bo'ldim"²⁸⁹.

Asar tarixiy, memuar xarakterda bo'lganligi uchun ilk jumlayoq garchi unda muallifning taqdir inoyatidan shukronaligi ifodalanib turgan bo'lsa-da, axborot-ma'lumot tariqasida berilyapti. "Yulduzli tunlar" romani – badiiy asar. Asarning ilk jumlasiyoq o'zining badiiy ta'sirchanligi, romanda tasvirlanayotgan makon va zamon ruhini kitobxonga birdan yuqtira olishi bilan e'tiborli. Haqiqatdan, ilk jumlaning o'ziyoq, olimimiz ta'kidaganidek, romanda tasvirlangan olamning yaxlit bir manzarasini namoyon qilgandek: "Milodiy 1494-yilning yozi. Saraton issig'ida Farg'ona vodiysining osmoniga chiqqan quyuyq bulutlar kun bo'yi havoni dim qilib turdi-yu, kechki payt birdan jala quyib berdi. Qizil tuproqli tepaliklar orasidan o'tib kelayotgan Quvasoy qon qo'shib oqizilgandek qip-qizil bo'lib ketdi"²⁹⁰.

Bunday zalvarli boshlanma kitobxonga birinchi milliy, tarixiy romanimiz "O'tkan kunlar"ning ibtidosini eslatadi: "1264inchi hijriya, dalv oyining 17chisi, qishki kunlarning biri quyosh botqon, tevarakdan shom azoni eshitiladir..."²⁹¹

Adabiyotshunos olim Bahodir Karim kitobxon diqqatini roman boshidagi azon ovozi, so'ngidagi, Kumushning o'limidan so'ng o'qilgan azonsiz namoz-janoza, Otabekning o'limidan keyin Yusufbek hojining xatmi Qur'on qilib yurtga osh bergani, O'zbek oyimning qora kiyib ta'ziya ochgani haqidagi tasvirlarga qaratib shunday deydi: "...hayot — bu nihoyatda qisqa: azon va namoz oralig'idir.

²⁸⁸ Rasulov A. Badiylik – bezavol yangilik. – T.: Sharq, 2007. – B. 53.

²⁸⁹ Bobur Zahiriddin Muhammad. Boburnoma. – T.: Sharq, 2002. – B. 34. (Bundan so'ng ushbu nashrdan olingan ko'chirmalarning sahifasini ko'rsatuvchi raqamlar qavs ichida berib boriladi).

²⁹⁰ Qodirov P. Yulduzli tunlar. Bobur. – T.: Sharq, 2010. – B. 20. (bundan so'ng har ikki nashrdan olingan ko'chirmalarning sahifasi qavs ichida ko'rsatiladi).

²⁹¹ Qodiriy A. Tanlangan asarlar. – T.: Sharq, 2014. – B. 7.

Oraliq masofa cheksizlikka nisbatan bir soniya, bir soniyaga nisbatan cheksizdir. Bu oraliqda inson umri, Otabek, Zaynab, Yusufbek hoji, O‘zbek oyim va boshqa qahramonlar umrining mohiyati mujassam”²⁹². Darhaqiqat, romanning ilk jumlası, quyoshsiz, nursız, shom qorong‘iligi cho‘kkan qish kunining tasviri, ohangi nafaqat roman qahramonlarining fojeiy umri mohiyatidan kitobxonga darak beradi, ayni paytda bu tasvirda qorong‘ulikda qolayotgan Vatan taqdiriga ham ishora bordek.

Yuqorida guvoh bo‘lganimizdek, “Yulduzli tunlar”da yoz bo‘lishiga qaramay Farg‘ona osmoniga chiqqan quyuyq bulutlar tasviri, kutilmagandagi sharros jala qondek qip-qizil bo‘lib oqayotgan sersuv Quvasoy roman bosh qahramoni Mirzo Bobur umri mazmun-mohiyatidan xabar bergandek, ayni paytda bu tasvirda osmonini qora bulut qoplagan temuriylar saltanatining qiyofasi ham namoyon.

Romanning keyingi nashrlarda “Yulduzli tunlar” sarlavhasi oldiga “Bobur” ham deb yoziladigan bo‘ldi. Asar tarixiy-biografik bo‘lganligi uchun bu ham qaysidir ma’noda to‘g‘ridir. Ammo kitobxon qalbiga roman “Yulduzli tunlar” sarlavhasi bilan yo‘l topgan. “San’atkor asarni qancha yetiltirib, ruhida pishitib yursa, kutilgan sarlavha birdan paydo bo‘ladi. “Sarob”, “Sinchalak”, “Qutlug‘ qon”, “Ufq”, “Girdob”, “Diyonat”, “Qilko‘prik”, “Ruhlar isyoni”, “Yulduzli tunlar” singari nomlarda asarning jon-jonidan o‘tib kelgan ruh-ohorlilik, ijodiy izlanish azobi aniq seziladi”²⁹³. Haqiqatdan ham, sarlavhaning pishiqligi, ohorlilik shunda ko‘rinadiki, yulduz (yorug‘lik) tun (qorong‘ilik) so‘zlarini ustalik bilan bir-biriga payvandlashdan hosil bo‘lgan latif bir kontrastlik, tasviriylik Bobur Mirzo umrining mazmuni, mohiyatini o‘zida ifodalagandek tuyuladi, bu ham yozuvchining badiiy mahoratidan darak beradi.

Qolaversa, bu nom asarning xotima qismidagi tasvir — Bobur Mirzoning so‘nggi nafasida uning ko‘nglidan kechgan o‘y-xayollarga ham mos.

²⁹² Karim B. Qodiriy nasri – nafosat qasri. – T.: O‘qituvchi, 2014. – B. 22.

²⁹³ Rasulov A. Badiiylik – bezavol yangilik. – T.: Sharq, 2007. – B. 51.

Roman kech kuzda Agraning qop-qora osmonida porlagan yulduzlar va o‘z umrining so‘nggi soatlarini yashayotgan Mirzo Boburning ruhiy holati tasviri bilan yakunlanadi.

“– Badanimda...qon uyushib qolayotganday...— dedi Tohirga.

Tohir uning yelkalarini, qo‘llarini, keyin oyoqlarini sekin-sekin uqalay boshladi. Bobur bundan sal yengil tortganday bo‘ldi-yu, ko‘zini ochib yana osmonga qaradi.

Yulduzlar endi joy-joyida to‘xtab, sokin nur socha boshladi. Ana Oltin Qoziq. Uning g‘arb tomonidagi Yetti og‘ayni yulduzlari ufqqa og‘ib tushib ketyapti. Sharqdan esa bir to‘p bo‘lib Hulkar yulduzlar ko‘tarilib kelyapti.

– Bizning Quvada ham Hulkar xuddi mana shunaqa bo‘lib chiqar edi, — dedi Tohir.

Bobur ham bolaligi o‘tgan Andijon osmonini esladi. Mana shu Yetti Og‘ayni yulduzlar o‘sha yerda ham Oltin Qoziqni aylanib o‘tib, g‘arbga botib ketardiv... O‘sha yerda ham Yetti Og‘ayni ufqqa bosh qo‘ygan sari Hulkar yulduzlari osmonning baland joylariga chiqib borardi... Osmon dunyoning hamma joyida bir ekani, umrining boshlanishida Andijonda ko‘rgan yulduzlari umrining oxirida Agrada ham chaq nab turgani unga so‘nggi bir tasallidek tuyuldi...

Tun yarmidan oshganda Tohirning o‘kirib yig‘lagani qorong‘i bog‘ni zir titratdi”. (557-b.)

Mahoratli yozuvchi yaratgan mukammal badiiy tasvir kitobxon tafakkurida yuksak darajadagi assotsiativlik paydo qiladi. Osmon to‘la yulduzlarga so‘nggi nigohini tikib jon bergan Boburga nisbatan yozuvchi o‘ldi yoki vafot etdi, degan so‘zni ishlatmaydi. (Mirzo Boburning vafotini biz Tohirning o‘kirib yig‘lagan holatdagi tasvirdan bilamiz). Chunki Mirzo Bobur kabi bashariyatning shonli farzandlari hech qachon o‘lmaydi. O‘zi yashagan feodal qorong‘u o‘tmishni ma’rifati va ma’naviyati bilan yoritgan Mirzo Bobur vafotidan so‘ng ham o‘zining insoniy, ham ijodiy dahosi bilan eng yorug‘ yo‘lchi yulduz kabi bashariyatga doimo eng to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatib turaveradi.

Agraning yulduzli osmoni tasviri yozuvchi tomonidan shunchalik mahorat bilan chizilganki, har bir kitobxon o‘z didi, dunyoqarashi, saviyasiga qarab undan ma’no va mazmun topsa bo‘ladi. Adabiyotshunos Umarali Normatov Bobur Mirzo obrazi muvaffaqiyati haqida gapira turib: “Yulduzli tunlar”dagi yozuvchining eng katta yutug‘i, shubhasiz, Bobur obrazi. Bobur obraziga realistik adabiyotning cho‘qqisida turib xilma-xil tomondan yondashadi, uni shoir, shoh va oddiy inson sifatidagi ham kuchli, ham ojiz tomonlarini, hayoti va shaxsiyatidagi barcha fazilat va qusurlarini bor bo‘yicha ko‘rsatadi. Yozuvchining realistik mahorati, xususan, kuchli, murakkab shaxs – Bobur bilan uni qurshagan muhit, sharoit orasidagi munosabatni ochishda ko‘rinadi”,²⁹⁴ – deydi.

Qahramon bilan uni qurshagan muhit, sharoit orasida munosabat deganda voqea va xarakterlararo hayot mantig‘i nazarda tutiladi. Voqea va xarakter mutanosibligi mantiq kuchini belgilaydi ham badiiy asarning poetik jihatdan pishiqligini ko‘rsatadi. “Realistik planda yozilgan tarixiy asarlarda... voqea va xarakterlar mantig‘i barobar tasvirlanadi ... sujet ko‘pincha shu tarzda rivojlanadi. A.Tolstoyning “Pyotr Birinchi”, Oybekning “Navoiy”, M.Avezovning “Abay”, O.Yoqubovning “Ulug‘bek xazinasi” romanlari shu xildagi asarlardir. Yozuvchi bunday sujet yaratganda, chopayotgan ot jilovining ikki tomonini barobar tutib borayotgan chavandozni eslatadi. Jilovning bir tomonini sal bo‘shashtirish bilan katta yo‘ldan chiqib ketish mumkin. Bunday asarlarda tarixiy xarakter va tarixiy voqealar bir-birlariga mos ifodalanadi”,²⁹⁵ – deydi adabiyotshunos olim Matyoqub Qo‘shjonov.

Olim ta’kidlagan jilovni teng ushlash, katta yo‘ldan chiqib ketmaslik mas’uliyati har bir tarixnavis yozuvchini hushyor qalam tebratishga undashi, tabiiy. Ham shoh, ham shoir fitratini o‘zida jo etgan Bobur Mirzoning murakkab, ziddiyatli obrazini yaratar ekan Pirimqul Qodirov hayotiy voqealar tasvirida, xarakterlar inkishofida faqat o‘z badiiy taxayyuliga suyanib qolmaydi, faqat uning izmida bo‘lib hayot mantig‘ini unutib qo‘ymaydi.

²⁹⁴ Normatov U. Yetuklik. – T.: Adabiyot va san’at nashriyoti. 1982. – B. 220.

²⁹⁵ Qo‘shjonov M. Tanlangan asarlar: Adabiy-tanqidiy maqolalar, esselar, xotiralar. – T.: Sharq. 2018. – B. 370.

Romanda Umarshayx Mirzoning o‘lim xabari yetib kelishidan bir qancha vaqt oldin Bobur Mirzo – valiahd shahzoda hayotining bir necha soatlik tasviridan olingan taassurot o‘quvchida umumjahon e’tirofiga sazovor bo‘lgan kuchli shaxs, irodali, matonatli hukmdor, ayni paytda nozikta’b shoir, ko‘ngil kishisi Bobur Mirzoning yaxlit bolalik dunyosi haqida tasavvur uyg‘otadi. Hayot mantig‘idan kelib chiqqan holda Pirmqul Qodirov “Yulduzli tunlar” o‘quvchisiga o‘z qahramonining hukmdor, sarkardalik, shoir, ijodkorlik faoliyati ildizlarini uning jo‘shqin bolaligidayoq ko‘rsatishini ma’qul deb topadi.

Bobur Mirzo – valiahd shahzoda. Umarshayx Mirzo aytganidek: “Yosh bo‘lsa ham sarkardalikka tayyorlanmog‘i zarur”. (22-b.)

Yozuvchi Andijondagi Chorbog‘da harbiy mashg‘ulotlar paytida Bobur Mirzoni yosh bo‘lishiga qaramay shijoatli, chapdast, hech qanday xavfni pisand qilmay qaltis mashqlarni o‘zida bemalol sinab ko‘radigan yovqur qiyofada ko‘rsatadi. Ayni paytda mana bu: “Eshiklari nafis o‘ymakorlik bilan bezangan, ichidagi oltin-kumush buyumlar ko‘zni qamashtiradigan ko‘shkda hozir Boburni faqat bitta xona o‘ziga tortar edi. Mudarrisning kutib o‘tirganiga qaramay, Bobur yaxshi ko‘rgan kitoblari qo‘yilgan shu xonaga burildi. Baxmal va charm muqovalar ichida sahifalarga bitilgan satrlarda ulug‘ shoirlarning otash nafasleri sezilib turganday bo‘ladi. Bobur Firdavsiydan, Sa’diydan minglab baytlar yod biladi. Hozir u kitoblari orasidan “Xamsa”ni olar ekan, uzoq Hirotda yashayotgan Alisher Navoiyni xayol ko‘zi bilan ko‘rib turganday bo‘ldi” (31-b.) – tasvirida beg‘ubor yuragiga she’riyat, adabiyot ishqini tushgan, kechmish zamonlarning aql-idroki mujassam kitoblarga maftun ma’rifatli yosh, shoirtabiat Bobur Mirzoni ko‘ramiz. Ayniqsa, Alisher Navoiy surati bilan xayolan suhbatlashayotgan bola Boburning Hazratdan she’riyat tilsimining kalitini so‘rashida yozuvchi Bobur Mirzo siyomosida milliy mumtoz adabiyotimizning Navoiydan keyin ikkinchi cho‘qqisi yetishayotganligiga ishora qiladi.

“Yulduzli tunlar”da yozuvchi Bobur Mirzo xarakter mantig‘iga voqealar mantig‘ining mos kelishida eng kichik detallarga e’tibor berganini kuzatishimiz mumkin. Dabdabali ko‘shk, ko‘zni qamashtiradigan oltin, kumush buyumlar emas,

Bobur Mirzoni kitob to‘la xona o‘ziga chorlaydi. Juda ko‘p kitoblar ichidan Bobur Mirzoning “Xamsa”ni tanlab olishi orqali uning Navoiy ijodiga mehrini ko‘rsatishi bilan birga Bobur Mirzoning ham kelajakda o‘zining yetuk asarlari bilan turkiy til ravnaqiga qo‘shajak hissasi nazarda tutilgan.

Shu o‘rinda Bobur Mirzoning Firdavsiydan, Sa‘diydan minglab baytlar yod bilishi ham aytiladi. Ma‘lumki, Bobur Mirzo “Boburnoma”da otasi Umarshayx Mirzo haqida: “Ravon savodi bor edi. “Xamsatayn” va masnaviy kitoblarini va tarixlarni o‘qub erdi. Aksar “Shohnoma” o‘qur edi”,²⁹⁶ – deb yozadi.

Pirimqul Qodirov “Shohnoma” jangnoma xarakteridagi asar bo‘lganligi uchun ham bu asarning shukuhi, mehri otadan o‘g‘ilga o‘tishi mumkinligini nazarda tutgan bo‘lsa, Bobur Mirzoning Sa‘diy ijodiga ehtiromi o‘zgacha ekanligini “Boburnoma” sahifalari orqali anglab yetgan. Shu asnoda “Yulduzli tunlar” muallifi Bobur Mirzo xakteri, ruhoniy dunyosi, shoh va shoirlik sifatlari suv ichgan chashmalarni uning bolalik olamida hayot mantig‘iga mos talqin etadi.

“Yozuvchi Bobur xarakterini yaratishda qahramonlarning xatti-harakati orqali davr ijtimoiy hayoti, shart-sharoitlariga alohida diqqatini qaratadi. Asar davomida Bobur ma‘naviyatini, yetuk inson sifatidagi faoliyatini ochib berishga alohida e‘tibor beradi... Bobur o‘z davrining qonun-qoidalarini butunlay o‘zgartirib yubora olmas edi. Zero, u davr muhiti bilan hisoblashishga majbur edi. Pirimqul Qodirov esa asarda juda og‘ir sharoitlarda ham Bobur insonlik qiyofasini saqlab qolishga harakat qilganligini “tarixiy faktlar asosida badiiylashtiradi”,²⁹⁷ – deydi adabiyotshunos Azmiddin Nosirov.

Endi taxtga chiqqan payt, atrofdagi tahlikali vaziyat, beklarning munofiqona xatti-harakatlaridan sarosimaga tushib qanday yo‘l tutishini bilmay gangib qolgan Bobur Mirzo nohaq ayblanib o‘limga buyurilgan Darvesh Govga o‘zi xohlab turib ham yordam berolmaydi. Ammo taqdir taqozosiga ko‘ra, chekiga tushgan toj-u taxtning minnati, siyosat qozonida qaynash, bek-u amaldorlar bilan muomala,

²⁹⁶ Bobur Zahiriddin Muhammad. Boburnoma. – T.: O‘zbekiston, 2002. – B. 132.

²⁹⁷ Nosirov A. Badiiylik va hayotiy haqiqat. (“Yulduzli tunlar” misolida). Monografiya. – Istanbul: KESIT, 2019. – B. 90.

o‘zaro urushlar, shu talotumlar ichida o‘tayotgan yillar mas‘uliyati Bobur Mirzoning o‘zini ulg‘aytirdi, “men”ligini shakllantirdi, xarakterini tobladi.

O‘z qahramonidagi bu o‘zgarishlar roman muallifining nigohida: “Bobur Mirzo otdan tushganda bo‘yi o‘sib, katta yigitlarga tenglashib qolgani bilindi. Qadam olishi ham xiyla salmoqli. Taxtga o‘tirganidan beri o‘tgan so‘nggi uch yil uni juda tez ulg‘aytirgan, ko‘z qarashlari ko‘pni ko‘rgan odamlarnikiday vazmin. Faqat xipcha qomati va hali uncha to‘lishmagan yelkalari endi o‘n besh yoshga kirganini eslatib turardi” (67-b.), – deya tasvirlanadi.

Qahramon tutumidagi, ruhiyatidagi ana shu evolutsiyani ko‘rsatishda “Yozuvchi Bobur hayotidagi tarixiy faktlarni istifoda etar ekan, tarixiy dalillar yetovida qolib ketmaydi. Ijodiy xayolotga erk berib, faktlarga badiiylik suvini ichiradi. Butun asar davomida qahramonlarning tabiati, kechinmalari, nafasleri harorati va ruhiyati jozibasi mahorat bilan tasvirlanadi”²⁹⁸.

1497-yili yetti oylik qamaldan so‘ng Bobur Mirzo Boysunqur Mirzodan Samarqand taxtini tortib oladi. Butun yoz va kuz bo‘yi davom etgan qamal shaharni butunlay xarob etgan, xalq ochlikdan, sovuqdan qirila boshlagan edi. Bu haqda “Boburnoma”da: “Samarqandnikim, yetti oy muhosara qilib tashviqlar bila oldur... Samarqandni olg‘onda Samarqand andog‘ xarob erdikim, madad va tuxm va taqovig‘a ehtiyoji bor edi. Chi joyi ulkim, kishi andin nima ola olg‘ay. Bu jihatlardan cherik eli ko‘p tanqislik torttilar. Biz ham elga nima yetkura olmaduk”,²⁹⁹ – deya yozadi.

“Boburnoma”dagi bu tarixiy fakt romanda yozuvchi tarafidan qayta badiiy idrok etilganda yana ham ta’sirchan, kitobxonning ko‘z o‘ngida qoladigan qamaldan keyingi “andog‘ xarob” manzaralar jonlanadi. Yetti oylik qamalda Bobur Mirzoga fотиha qilingan Sulton Ahmad Mirzoning qizi Oysha begim, Bobur Mirzoning xolasi Mehr Nigorxonimlar asira sifatida shahar ichkarisida ushlab turilgan edilar. Ulardan xabar olish uchun jo‘natilgan No‘yon Ko‘kaldoshning so‘zlarida qamal ofatining dahshati shunday tasvirlanadi:

²⁹⁸ Yo‘ldoshev Q. So‘z yolqini. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. – B. 293.

²⁹⁹ Bobur Zahiriddin Muhammad. Boburnoma. – T.: O‘zbekiston, 2002. – B. 62.

– Ozib ketibdilar, – deb davom etdi No‘yon – oshliqdan qiynalmishlar. “Qahatchilik bo‘lib, pulga oshliq topilmay qoldi” deyдилar. “Zog‘ora nonga ham zor” bo‘ldik” deb yig‘lab yubordilar. O‘tin-cho‘plari ham yo‘q ekan. “Sovuqda diydirab o‘ltiribmiz”, deyдилar.

– Boysunqur Mirzo shu qadar noinsoflik qilibdilar, a?!

– Mirzoning o‘zi ham oxirgi paytlarda qorni to‘yib taom yemagan bo‘lsa kerak, amirzodam. Yetti oy qamalda yotish osonmi? Ko‘chalarda ochdan o‘lgan odamlarning o‘liklari yotibdi. Faqir-u bechoralar ochdan o‘lmaslik uchun eshak go‘shini, it go‘shini yeyishgacha yetib bormishlar”. (99-b.)

Yuqorida keltirganimiz “Boburnoma”dagi tarixiy faktdan ham ko‘rinib turibdi-ku, Bobur Mirzo Samarqandning qamaldan keyingi g‘arib ahvolini hisobga olib, o‘sha zamonlarda odat tusiga kirgan g‘olib bek-u navkarlar tarafidan bosib olingan shaharni talash, o‘lja olish kabi talonchiliklarga yo‘l qo‘ymaydi. Tabiiyki, Bobur Mirzoning bu qarori bek-u navkarlarga yoqmaydi, ular o‘rtasida norozilik kelib chiqadi. Hatto xiyonatga yuz tutganlar, o‘zboshimchalik bilan Andijonga qaytib ketishlar sodir bo‘la boshlaydi.

Romanda yozuvchi Bobur Mirzoning hukmdorlik salohiyati, qat‘iyati, adolati ana shunday chig‘iriqlardan o‘tib shakllanganligini, o‘z nafsi, manfaati yo‘lida hech nimadan qaytmaydigan bek-u amaldorlar va ularga kaltabinlarcha ergashadigan mulohazasiz navkarlar orasida odamiylik, insofiylik chegarasida sobit turish Bobur Mirzoga nechog‘lik og‘ir tushganini badiiy taxayyul kuchiga suyangan holda ishonarli, jonli lavhalarda ochgan.

Romanda yaqinroq tanishish maqsadida eshik og‘a Qosimbek, beklari Ahmad Tanbal, Xoniqul va yana bir necha navkarlari bilan shahar rastalarini aylanib yurgan Bobur Mirzoga Navoiyning nazari tushib, “Majolis un-nafois”da ham e‘tirof etilgan samarqandlik keksa shoir Javhariy hamrohlik qiladi. Yo‘l-yo‘lakay eslangan Javhariyning Samarqandda bir muddat yashagan Navoiy haqidagi xotiralari Bobur Mirzo qalbining tubida saqlanib turgan she‘r va shoirlik orzularini jonlantirib yuborgandek bo‘ldi, go‘yo.

Yo‘l ko‘rsatib ketayotgan shoir ularni novvoylar mahallasiga boshlaydi. Tarixnavis yozuvchining mahorati shunda ko‘rinadiki, qamal azobini tortayotgan shaharning achinarli, nochor ijtimoiy holatini bor dahshati bilan ko‘rsatish uchun unga mos tabiat manzarasini ham chizadi: “Ko‘chalar allanechuk huvillagan. Bosilmagan qor otlarning tizzasiga chiqadi. Bobur tomlarga qaradi. Birortasi kuralmagan. Tom kurayotgan bironta odam ko‘rinmadi”. (101-b.)

“Temurbek ulug‘ podshoh poytaxt qilg‘on”, “Rub‘i maskun”ning latif shaharlaridan biri, “baldayi mahfuza” Samarqand va samarqandliklarning bu taxlit ahvoliga hatto qahri qattiq, zimiston qishning ham muz yuragi erib, behisob to‘kayotgan ko‘z yoshlari hamma yoqni shalabbo qilayotgandek tasavvur va taassurot uyg‘otadigan mana bu peyzaj: “Soya joylarda izg‘irin yuzni yalab o‘tsa ham, oftob tushib turgan paxsa devorlar va tom bo‘g‘otlari erigan qordan ho‘l bo‘lib borar edi” (101-b.) tasviri nuktadon yozuvchining badiiy voqelikning bu muhim komponentidan maksimal foydalana olganini ko‘rsatadi.

“Tasvirlanayotgan davr va undagi voqealar, tarixiy shaxslarga nisbatan yozuvchi ilmiy-estetik konsepsiyasining bo‘rtib turishi, davr ijtimoiy-siyosiy xarakteristikasini yaratish eng yaxshi tarixiy romanlarga xos xususiyatdir”,³⁰⁰ – deydi adabiyotshunos olim Akram Kattabekov.

Davr ijtimoiy-siyosiy xarakteristikasini yaratishda yozuvchi albatta, quruq, natural ma‘lumotlardan foydalanmaydi. Davrning eng muhim ijtimoiy-siyosiy voqealari uning tavsifini tayin etadi. Yozuvchi tarixan ro‘y bergan ijtimoiy-siyosiy voqealarni badiiy idrok etar ekan, tarixiy faktlarni poetik mushohada etar ekan adabiyotning ijtimoiy vazifasi bilan birga uning estetik funksiyasini ham unutmaydi. “Yulduzli tunlar” Pirimqul Qodirovning ana shunday mas‘uliyati, mehnati mahsuli.

XV asr temuriylar saltanatidagi tinimsiz o‘zaro kurashlar, sulolaning zimdan yemirilishiga sabab bo‘lgan ichki nizolar, toj-u taxt dag‘dag‘alari, qora xalqning, hunarmandning turmushini butunlay izdan chiqarib yuboradigan uzoq davom

³⁰⁰ Kattabekov A. Tarixiy roman xususida bahslar. Manba: O‘zbek adabiy tanqidi (antologiya). – T.: Turon-Iqbol, 2011. – B. 290.

etadigan qamallar – feodal boshboshdoqliklar hukm surgan davrning ijtimoiy-siyosiy xarakteristikasi. Biz uning yozuvchi mushohadasidan oʻtgan, “Yulduzli tunlar”ning markaziy qahramoni Bobur Mirzo taqdirida izchil aks etgan badiiy tasvirini asar bagʻrida kashf etib boraveramiz.

“Podshohlik – qon bilan sugʻorilaturgʻon bir ogʻochdir”³⁰¹, – deydi Ulfat “Abulfayzxon” (Fitrat) tragediyasida. Tinimsiz urushlar, qon toʻkishlar, talonchiliklar bek-u navkarlarning tiriklik sababi, yashash tarzi, boyish manbayi, kasb-koriga aylanib qolgani ham Bobur Mirzo yashagan, faoliyat olib borgan davrning ijtimoiy-siyosiy qiyofasini belgilaydi.

Bobur Mirzoning el-u yurtni birlashtirish, ulkan mustaqil davlat qurish, elning oʻzini ham, koʻnglini ham obod qilish, ulkan imoratlar qurish, bogʻ-rogʻlar yaratish kabi buyuk maqsadlari Ahmad Tanbal, Xoniquilibek kabi oʻz manfaati yoʻlida hech narsadan qaytmaydigan, ukani akaga qayrab, munofiqona rejalarini amalga oshiradigan ochkoʻz, xaris beklarning baloyi nafslari bilan toʻqnash kelganda “Yulduzli tunlar” oʻquvchisi Bobur Mirzo xarakteridagi insoniy va insofiy fazilatlarining sobitligini kashf etib boraveradi. Ammo bu sobitlik, adolatparvarlik Bobur Mirzoga oson tushmaganini yozuvchi asarda jonli, taʻsirchan lavhalarda aks ettiradi.

Bobur Mirzo va unga hamroh bek-u navkarlarini rastalar boʻylab olib yurgan Javhariy, ularni novvoylar tarafga yetaklaydi. Biror qimirlagan jon yoʻq, boʻm-boʻsh rasta, kuralmay qor bosib yotgan tomlarni koʻrib, bu kimsasizlikdan hayron boʻlayotgan Boburga Javhariy uch oydan beri un yoʻqligi sababli non yopilmasligini, qamalda ochlik tufayli koʻp nonvoylar oʻlib ketganini, sillasi qurigan odamlarning tom tugul koʻchaga chiqishga ham madorlari yoʻqligini aytadi.

Shuni alohida eʼtirof etish kerakki, salkam qirq yil davomida, uch yirik mamlakat hududi besh-olti davlatlar oʻrtasida, yuzga yaqin personajlar ishtirokida boʻlib oʻtadigan asar voqealari talqinini izchillik bilan boshqarish, ular oʻrtasidagi

³⁰¹ Fitrat A. Tanlangan asarlar. – T.: Maʼnaviyat, 2000. Jild I. – B. 183.

dialektik aloqani ta'minlash, xarakter va hayot mantig'ini muvozanatda ushlab yozuvchidan juda katta mahorat, tafakkur va taxayyul teranligini talab etgani aniq.

Faqat adabiyotshunos U.Qosimov aytganidek: "Ulkan so'z san'atkorlarining badiiy kashfiyotlarini qadrlash va ularning asarlarida ifodalangan chuqur hayotiy haqiqat va tarix saboqlarini to'la anglab yetish uchun, eng avvalo, ijodiy fikrlash lozim",³⁰².

Toj-u taxt minnatining tashvishli onlaridan bolalikning nurli xotiralariga bir zum qaytgan Bobur Mirzoning insoniy qiyofasini yozuvchi shunday tasvirlaydi: "Keksa shoir Boburga umid bilan qarab turibdi... Shu payt uning qora movut chakmonimi, xiyol egik yelkasimi, kalta qirqilgan soqolimi, nimasidir Boburga Navoiyning Behzod chizgan rasmini eslatdi. Bobur mavlononi noumid qilsa, Navoiyning umidini ham oqlolmaydiganday bo'ldi". (102-b.)

Romanning boshida Andijon chorbog'i, kutubxona, yozuvchi taxayyulida Navoiy bilan qilingan xayoliy suhbat ham tarixiy, ham asardagi badiiy vaqtga ko'ra uch yildan so'ng Bobur Mirzoning Samarqandni birinchi bor egallagandagi voqealarga ustalik bilan bog'lanib, o'quvchi tasavvurida hayotiy, izchil, ishonarli manzara kasb etadi.

O'smirlikning beg'ubor romantik dunyosida turib Hazrat Navoiydan she'riyat tilsimini kalitini so'ragan Bobur Mirzoga Alloh tojdorlik mas'uliyati – "besh kunlik dunyo"³⁰³ning sinov onlarini yuklaydi. Ayni paytda real dunyoning turfa kirdikorlari ichida turgan Bobur Mirzo "Garchi xalq ozodasiman, yor agar bandam desa"³⁰⁴ e'tiqodiga esh bo'libgina she'riyatning pokiza olamiga kirib borishi, Navoiydek avliyosifat zot yonida turmoqlik saodatiga erishmog'i mumkinligini anglab turardi. Ayniqsa, keksa, soch-soqoli qordek oppoq Javhariyning o'tinch to'la ko'zlari unga shu haqiqatni qayta-qayta uqtirayotgandek edi.

³⁰² Qosimov U. Adabiyotning hayotbaxsh kuchi. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2008. – B. 34.

³⁰³ Bobur Mirzo "besh kunlik dunyo", "besh kunlik gunohkor umr", "o'tar dunyo" kabi iboralarni "Boburnoma"da ibrat ma'nosida bir necha fojeiy taqdirlar misolida ishlatadi.

³⁰⁴ Alisher Navoiy satri. Qarang: Madayev, O. Navoiy suhbatlari. – T.: O'qituvchi, 2018. – B. 76.

Bobur Mirzo bu suhbatda yonida turgan Ahmad Tanbal, Xoniqulibeklarning: "...shuncha jang-u jadal bilan olgan shahrimizdan ozgina o'ljador bo'lishga nahotki haqqimiz yo'q? Axir g'oliblarning o'lja olishi ota-bobolarimizdan qolgan rusum-ku!... Boysunqurdan qolgan ochlarning qay biriga oshliq yetkazsinlar? Biz bularni boqishga keldikmi?" (102-b.) kabi e'tirozlarini yengib o'tib, "Qosimbekka buyruq ohangida gapirdi:

– Biz unni rastalarga emas, novvoylarga bermog'imiz kerak. Ishonchli bir kishi nazorat qilsin, novvoylar non yopib, bizning nomimizdan ochlarga tarqatsinlar. Besh-olti qop un bilan qo'shin zahirasiz qolmas, Jizzaxga yuborilgan karvon erta-indin oshliq olib qaytgusi!" (102-b.)

"Beklar bo'lmasa, podshohlarning ilkidan hech ish kelmaydur. Navkarning ko'pchiligi bizniki. Jangni biz qildik. Azobni biz tortdik (Ahmad Tanbal) Omon bo'lsam, podshoh topilur... Bularning urug'i ko'p. Hammasiga siz-u bizdek beklar kerak" (Xoniqulibek) (103-b.) kabi g'iybat gaplarga kuch berib, boshqalarni ham to'g'ri yo'ldan ozdiradigan, to'g'ridan to'g'ri xiyonat yo'lga kirib ketadigan beklar xohish-istagi-yu oddiy, qora xalq manfaatlari to'qnash kelganda haq va adolat yo'lini tutish Bobur Mirzoga juda qiyin bo'lgani romanda ta'sirchan badiiy tadqiq etilgan.

Asar boshida beklarning bunday noinsofiy qiyofalarini yozuvchi "Quyun" tasvirida g'oyatda mos va xos obrazli ifoda etadi. Bu so'z mohiyatidagi stixiya, yovvoyi kuch, talafot ma'nolari romandagi Ahmad Tanbal, Xoniqulibek, Yoqubbek kabi beklarninga'moliga ham, amaliga ham monand. Asar davomida Bobur Mirzo shu quyunning vajidan ko'zi va ko'ngliga qo'nayotgan chang, to'zon bilan kurashib o'tdi, ular ta'siriga berilmadi.

Badiiy boburshunosligimizning yorqin vakili Xayriddin Sulton Bobur Mirzo fitratidagi ana shunday nekbinlikni, oliyjanoblikni nazarda tutib shunday yozadi: "U (Bobur Mirzo – Y.K) yaxshilik va ezgulik, murosayi madora tiriklik dunyosining ma'naviy ustuni ekaniga chin dildan ishongan va shu e'tiqodini umr bo'yi targ'ib etib o'tgan oliyjanob shaxs edi. U hamisha, hamma joyda barcha shahzodalar va a'yonlaridan "davlatqa etib mehnat elin unutma" degan hayotiy

hikmatga og‘ishmay amal qilishni talab etardi”³⁰⁵.Romanda Bobur Mirzoning opasi Xonzodabegim fojiviy hayot yo‘lining yozuvchi talqinidagi tasvirida Bobur Mirzo ruhiyati, uning ichki dunyosi, armon-iztiroblari yanada teranroq ochiladi.

Bobur Mirzo “Boburnoma”da opasi haqida: “Bori qizlardin ulug‘ Xonzodabegim edi, mening bila bir tuqqan edi, mendin besh yosh ulug‘ edi. Men Samarqandni ikkinchi navbat olg‘onda, bovujudkim, Shayboniyxondek kishi birla Saripulda chiqib urushib, onchakim imkoni bor edi sa’y va ehtimoldin taqsir qilmaduk...

Ul fataratta Xonzodabegim Muhammad Shayboniyxong‘a tushub edi”, deya ma’lumot beradi. Bobur Mirzo hayotni sevardi. Ollah bandalari uchun yaratgan har bir ne’matdan cheksiz zavq tuyar: qishning qoridan (Kobul qori), bahor lolasidan (Gulbahor tog‘ etaklarida 34 xil lola), kuzning bargi xazonidan (Istarg‘achdagi xazon sayli), yoz faslidagi do‘stlar suhbatlari (Yoz fasli, yor vasli, do‘stlar suhbatlari) baland pushta ustida turib, qorong‘i kechada navkarlari yoqqan gulxanni tomosha qilishdan (Kecha cherik elining o‘tidin ajab yaxshi charog‘on bo‘lur edi...), go‘zallik kashf etishga harakat qilardi. Ammo ko‘ksining bir chetida hech tuzalmas armonlari, iztirobini ko‘paytirgan, umrini kamaytirgan, ko‘nglini tah-batah qon qilgan “yuz qaroliq”lari uni mudom ta’qib etgan. Shulardan biri opasi Xonzodabegimning achinarli taqdiri.

Romanda yozuvchi kamdan kam tojidorlarda o‘z jigarlariga bo‘ladigan mehr, samimiyat, o‘zaro hurmat, qadr, bir-birini tushunish, asrash kabi tuyg‘ularni Bobur Mirzoning o‘z opasi Xonzodabegimga bo‘lgan munosabatida kashf etadi, badiiy aks ettiradi.O‘n ikki yoshida toj-u taxtning mas’uliyatini olgan juda sabiy Bobur Mirzoni bek-u navkarlarning qutqusidan, yomon ta’sirlardan asrashga jon-u dildan o‘zini qalqon qilishgaa tayyor Xonzodabegim hukmdor jigarining ulkan orzularini dildan his qiladi, niyatlarini qo‘llab-quvvatlaydi, Bobur Mirzo botinidagi mislsiz ezgu kuchga ishonadi. Shu ishonchni Bobur Mirzoning o‘ziga ham singdirishga harakat qiladi.

³⁰⁵ So‘zumni o‘qub, anglag‘aysen o‘zimni... Adabiyotshunos Sitara Tojiddinova bilan suhbat //Sharq yulduzi, 2024. – № 6.

Yolg'iz qolishganda Xonzodabegimning ukasiga Boburjon deya murojaat qilishida Bobur Mirzo tuygan cheksiz mehr-muhabbat zavqi, shukuhini yozuvchi shunday samimiyat bilan aks ettiradiki, beixtiyor o'quvchi ham o'sha tuyg'ular ta'sirini his qiladi.

Opasining xohish-istagini hurmat qilib, uni Sulton Ahmad Tanbalning changalidan olib qolishi Xonzodabegimni Bobur Mirzoga nisbatan ishonchi, hurmatini ming chandon oshiradi. Vaqti kelganda, u erkakcha kiyinib qo'lida qilich, qalqon bilan Andijonda Bobur Mirzoga qarshi uyushtirilgan fitna tashkilotchilariga qarshi jasorat bilan kurashadi.

Xonzodabegim va me'mor Fazliddin munosabatlari roman sujetining o'ziga xos sevgi liniyasini tashkil etadi. Xonzodabegim va me'mor Fazliddin muhabbati asarda yarqillab ko'zga tashlanavermaydi, ammo unda asarga alohida bir joziba bag'ishlaydigan nur bor, xayr bor. Bu nur va xayrning mohiyati shundaki, me'mor va Xonzodabegim muhabbati manfaat va visol muddaosidan yiroq, pokiza hislarga yo'g'rilgan muhabbat edi. Me'mor Fazliddin o'zining sevgisi shoh qizi va uning oilasi sha'niga soya tashlab qo'yishidan istihola qilsa, Xonzodabegim nafaqat me'morning qadr-qimmatini anglagan holda, malikaga yetisholmay alamzada bo'lib yurgan Ahmad Tanballardan uni asrash uchun ham muhabbatlarini oshkor etmaydi. Buloq suvlariday bu toza muhabbat zamon notinchliklarida davr talotumlarida, muhit quyunida ko'karmay zavol topadi.

Me'mor Fazliddin – to'qima obraz. Xonzodabegim va me'mor o'rtasidagi muhabbat ham yozuvchining fantaziyasi mahsulidir. Pirimqul Qodirov asarga ruh bag'ishlash hamda romanning Xonzodabegim bilan bog'liq keyingi voqealari rivojida hayot mantig'ini ushlab turish uchun Xonzodabegim obrazi dinamikasini nafaqat ijtimoiy, balki muhabbat liniyasida ham izchil badiiy tadqiq etadi.

Natijada Xonzodabegim ijtimoiy vaziyatlarga to'g'ri baho beradigan, Bobur Mirzo davlat boshqaruvini, mamlakatdorlik tutumini qadrlaydigan, har qanday hissiyotlar, tuyg'ularni aql tarozisiga solib bosliqlik bilan qaror qabul qiladigan haqiqiy zodagonlarga xos kamol topgan malika sifatida o'quvchida taassurot uyg'otadi.

Ana shu taassurotdagi o‘quvchi esa eng qaltis paytda nafaqat jondek jigari, balki butun sulola taqdiri hal bo‘layotgan paytda Xonzodabegim kabi oqila, fidoyi, jonnisor xotin-qizlar bu vaziyatning loqayd tomoshabini bo‘lib turishlari mumkin emasligiga ishonadi. Bobur Mirzoning “Ul fataratda Xonzodabegim Muhammad Shayboniyxon‘a tushub edi”³⁰⁶, Gulbadanbegimning “...zarurat yuzasidan Xonzodabegimni mazkur xonga uzatib, o‘zlari tashlab chiqdilar”³⁰⁷, Muhammad Haydar Mirzoning “Shohibekxonga... opasi Xonzodabegimni berib sulh tuzdi-da ketdi”³⁰⁸, kabi tarixiy faktlarning badiiy talqini “Yulduzli tunlar”da quyidagicha yuzaga chiqqan:

– Begim, siz... Shayboniyxon taklifiga rizolik bergan emishsiz, shu rostmi?

– Rizo bo‘lmay ne ilojim bor?

– Mening mag‘lubiyatim sizni ilojsiz qoldirgani rost. Lekin iningiz hali tirik. Men asir tushmoqchi emasman. Bir o‘lim bo‘lsa, hammavaqt bor. Ajal yetmagan bo‘lsa, sizlarni olib chiqib keturmiz. Kunim bitgan bo‘lsa, ilkimda qilich bilan jon berurmen. Ana undan keyin rizolik bersangiz mayli. Unda hech kim: “O‘zi omon qolib, egachisini qurbon qildi”, deyoymas. Menga bunday malomatdan o‘lim afzal. Rizo bo‘lmang”. (200-b.)

Kuyib-yonib opasini qaroridan qaytarishga urinayotgan jigarining holatini kuzatib turgan Xonzodabegimning xayolidan kechgan o‘yni yozuvchi shunday ifodalaydi: “Xonzodabegimning ko‘ziga yosh quyulib keldi. U Boburning yov xalqasini yorib chiqib ketolmasligini bilardi... u Boburni mana shu mardligi va dovyurakligi uchun ham jondan ortiq ko‘rar, o‘zini yov qo‘liga tutqazib, ukasini naqd o‘limdan olib qolishni istardi.

– Boburjon, siz meni deb bevaqt o‘limni bo‘yningizga olmang. Men sizning ulug‘ istiqbolingizga ishonamen. Sizdek nodir iste’dodlar dunyoga kam kelishini boshqalar bilmasa ham men bilurmen. O‘zingizni ehtiyot qiling! Taqdiringizni tolei past egachingizning taqdiri bilan tenglashtirmang”. (201-b.)

³⁰⁶ Bobur Zahiriddin Muhammad. Boburnoma. – T.: O‘zbekiston, 2002. – B. 38.

³⁰⁷ Gulbadanbegim Zahiriddin Muhammad Bobur qizi. Humoyunnoma. – T.: O‘zbekiston, 2016. – B. 4.

³⁰⁸ Muhammad Haydar Mirzo. Tarixi Rashidiy. – T.: Sharq, 2010. – B. 251.

Bu “Yulduzli tunlar” romanining eng dramatik sahnalaridan biri, ayni choqda ayol matonatini, ayol jasoratini, fidoyiligini bor bo‘yi bilan namoyish etadigan sahna. Muhimi o‘quvchi yozuvchi talqinidagi Xonzodabegim xuddi ana shunday qahramonlikka qodir, fidoyi malika ekanligiga ishonadi.

Bobur “Boburnoma”da o‘zgarlar fe‘l-atvori, qilmishlari, yaxshi-yomon odatlari, turli holat va vaziyatlardagi tutumlarini ochiq yozar ekan, xuddi ana shu ochiqlik, shaffoflik tamoyili o‘ziga nisbatan ham qo‘llaydi. Bobur Mirzoning Karnon voqeasida naqd o‘lim dahshatiga ro‘baro‘ bo‘lgandagi holati yoki Kobuldagi kuchli zilzila payti o‘zi, Nurillo tanburchi, ukasi Jahongir tushgan vaziyat tafsiloti, Hulhul enaganing podshoh bilan sharob ichish orzusi borligini eshitib rozilik bergach, ichib mast bo‘lib qolgan enagadan qutulolmay ovora bo‘lishlari: shoh, fotih, shoir Bobur Mirzo, eng avvalo, oddiy inson ekanligini kitobxonga eslatadi.

“Boburnoma”da keltirilgan shunday voqealardan biri: “Panjshanba kuni, oynning o‘n uchida Yusuf Alining daf‘i va raf‘ig‘a azm-jazm qilib, otlanib, Dehi Ya‘qub suvining Kobul tarafidag‘i o‘langga tushuldi. Otlanur choq Boboxon axtachi yaramasroq ot tortti, achchig‘imdin bir musht yuziga urdum. Binsir barmog‘im tubidan sindi”³⁰⁹, – deydi Bobur Mirzo.

“Yulduzli tunlar” romanida yozuvchi ushbu tarixiy faktni Bobur Mirzodan olib Tohirga va uning navkari Mamatga nisbat beradi.

Yozuvchining badiiy mushohadasiga ko‘ra Tohir oddiy navkarlikdan bekklikka ko‘tarilgach bosar-tusarini bilmay qoladi, ichkilikka beriladi. Ana shunday shirakayf kunlarining birida zudlik bilan saroyga yetib borishi kerak bo‘ladi-yu, ayili bo‘shatib qo‘yilganini payqamay, otdan qattiq yiqiladi. Aybdor sifatida o‘ttiz yillik qadrdoni, navkari Mamatni ayamay do‘pposlaydi, shu asnoda o‘zining ham barmog‘i sinadi.

Yozuvchining badiiy fantaziyasiga ko‘ra qayta ishlangan, ancha badiiylilik suvi bilan to‘yintirilgan bu lavhaning ham asarda ma‘naviy-tarbiyaviy o‘rni

³⁰⁹ Bobur Zahiriddin Muhammad. Boburnoma. – T.: O‘zbekiston, 2002. – B. 176.

borligini inkor etmagan holda tarixiy fakt uning o'zining haqiqiy egasi bilan kechgani ma'qul edi deb o'ylaymiz.

Bizningcha, bu faktni yozuvchining qayta ishlashiga, uning qahramonini Tohirga o'zgartirishiga ikkita sabab bor.

1. Roman yozilgan 70-yillar mafkuraviy muhitida hali ham Bobur Mirzoga feodal hukmdor, shafqatsiz bosqinchi, odamlar boshidan minora tiklagan degan ayblovlar qo'yilib turgan bir paytda bu fakt bilan ham mafkurachilarning tegirmoniga suv quyishni istamagan.

2. Yozuvchi o'z qahramonini shu darajada avaylaganki, muallif nazarida qaltis tuyilgan bu fakt Bobur Mirzoning oliyjanob qiyofasiga hech shubhasiz soya bo'lib tushishi, o'quvchining undan ixlosini qaytarishi mumkin. Nazarimizda, yozuvchi Bobur Mirzoning ham hamma qatori oddiy odam ekanligini, uning ham jahli chiqishi, g'azablanishi, ensasi qotishi, baqirishi va shu kabi emotsiyalarga berilishi mumkinligini e'tibordan soqit qilgan.

Asarda tarixiy haqiqat buzilgan, o'z navbatida, badiiy haqiqatga ham putur yetgan, natijada Bobur Mirzoning o'ziga xos insoniy jozibasini, xarakter qirralarini, qahramon ruhiyatidagi turfa tovlanishlarni ochib berishi mumkin bo'lgan bitta fakt boy berilgan. Ushbu tarixiy faktning davomini o'qisak, amerikalik mutafakkir Uilyam Penning "G'azab ustida urgan har bir zarbamiz oxir-oqibat o'zimizga kelib tushadi"³¹⁰, – degan dono fikrini Bobur Mirzoning o'sha paytdagi holatiga ham to'g'ri ma'noda, ham ramziy ma'noda tatbiq etsak bo'ladi.

"Binsir barmog'im tubidin sindi. Ul fursatta xeyli og'rimadi. Kelib yurtqa tushganda xeyli riyozat torttim. Xam bitiy olmas edim, oxir chur butti"³¹¹.

To'g'ri ma'nosi shundaki, Bobur Mirzoning jahl ustida otboqarga tushirgan mushti zarbidan o'zining ham barmog'i sindi, shikast topdi, og'riqdan "riyozat tortti".

³¹⁰ Tafakkur gulshani (V.Voronsov kompozitsiyasi). – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1989.

³¹¹ Bobur Zahiriddin Muhammad. Boburnoma. – T.: O'zbekiston, 2002. – B. 176.

Ramziy ma'nosiki, Bobur Mirzo bir oydan oshiq vaqt hech nima yozolmay yuradi, ijod qilolmaydi, g'azab ustida urilgan zarbning egasiga qaytib kelishi shu bo'lsa kerak. Bu faktning yana bir e'tiborli jihati shundaki, u bizga qaysidir ma'noda Bobur Mirzoning ijodiy laboratoriyasidan darak beradi. Bir oy davomida hech nima yozolmay yurgan Bobur Mirzo shu vaqt ichida ijod qilolmayotganidan, shikastlangan qo'li azob berayotganidan shikoyat qilib qo'yadi. Demak, Bobur Mirzo hayotidagi shuncha notinchliklarga qaramay kunda nimadir qoralagan. Aslida, bu ham ibrat.

Ikki asarni qiyosiy o'rganish jarayonida "Boburnoma"dagi yirik voqealargina emas, balki yo'l-yo'lakay ko'rinib qolgan kichik bir detal, ma'lumot ayrim holatlar ham yozuvchining boy tasavvuridan oziqlanib, go'zal bir estetik joziba, ta'sirchan mohiyat kasb etuvchi tasvirlarga aylanganini ko'rishimiz mumkin.

"Boburnoma"ning 1494-yil voqealari bayonida muallif Samarqand podshohi Sulton Ahmad Mirzo va mo'g'ul ulusining xoni Sulton Mahmudxon o'zaro sulh tuzib, biri Sayhunning janubidan, biri shimolidan Umarshayx saltanatiga lashkar tortib kelganlarini aytadi. "Axxi qo'rg'oni baland jar yoqasida edi. Ushbu yili dushanba kuni, ramazon oyining to'rtinchisida Umarshayx Mirzo jordan kabutarlar va kabutarxonasi bilan uchib, halok bo'ldi. O'ttiz to'qqiz yoshda edi" — deb yozadi. (32-b.)

Bir necha satrdagi bu qisqagina ma'lumot Pirmqul Qodirovni qiziqtirib qo'yadi: "Odam jordan yiqilishi mumkin. Lekin kaptarxona, ya'ni bino nega yiqiladi? Buni aniqroq tasavvur qilish uchun men Namangan oblastining To'raqo'rg'on rayoniga borib, eski Axsikent turgan o'sha tepalikni ko'rdim. Hali ham bir necha terak bo'yi keladigan baland jar tagidan daryo oqib turibdi. Bu yerdan kaptarlar osmonga yaxshi uchgan bo'lsa kerak. Lekin podsho odam og'ir urush paytida kaptarxonada nima ish qilishi mumkin? U paytda hozirgi aloqa vositalari bo'lmagan. Otliq choparlardan xabar kelavermagach, Umarshayx Mirzo

qanotli choparini ishga solmoqchi bo‘lgan, kaptarni o‘zi uchirgisi kelgan. Jar tagini esa daryo yemirib qo‘ygan...”³¹².

“Men biror joy to‘g‘risida asar yozmoqchi bo‘lsam, o‘sha joyni avval necha marotaba ko‘rganim esamda, yana borib tekshirib, yaxshiroq o‘rganib kelaman”, – deb yozgan edi Abdulla Qodiriy. Yozuvchining zakovati, tafakkuri, xayoloti va Qodiriy ta‘kidlaganidek, o‘z mehnati, o‘quvchi oldidagi mas‘ulligi hatto real tarixda ham mavhum qolgan vaziyatga aniqlik kiritdi. Bir necha satrlik “Boburnoma” dagi qisqa ma‘lumot yozuvchining g‘oyasi, fikri, fantaziyasi bilan “Aksi. Ajalga davo yo‘q” sarlavhasi ostida kattagina bobga aylandi.

Andijon va Marg‘ilondan xabar kutayotgan Umarshayx Mirzo otliq choparlar kelavermagach, otlanib arkdan chiqadi. “Umarshayx Mirzo qal‘aning bir chetida, daryoning baland qirg‘og‘i ustida, jar labida turgan kabutarxonaga qarab yo‘l oldi. Otliq choparlar dom-daraksiz ketganliklari uchun Mirzo endi qanotlik “chopar”larini ishga solmoqchi edi... Biroq bu bahaybat o‘ngirlar oyoq ostidagi zaminni ichdan hilviratib qo‘yganini, kabutarxona ortidagi jarning tagini suv o‘yib ketganini, yer o‘pirilgudek bo‘lib turganini Mirzo ham, uning atrofidagi mulozimlar ham mutlaqo sezmas edilar” (45-b.).

Yozuvchi daryo, uning baland qirg‘og‘ida joylashgan kabutarxona, naycha qilingan qisqa xatni chiniy kabutarning qanoti tagiga joylab, uni uchirib yuborish uchun zinadan kabutarxona tomiga chiqayotgan Umarshayx Mirzo harakatlarini shunchalik aniqlik bilan tasvirleydiki, go‘yo kitobxon o‘sha holatni jonli guvohiga aylanadi. Ayniqsa zilzila, to‘fon, o‘pirilish kabi turli tabiiy ofatlarni oldindan jonivorlarning sezishi haqidagi ma‘lumotdan ustalik bilan foydalangan yozuvchi tasvirda yana ham hayotiylikka, ta‘sirchanlikka, eng muhimi, kitobxonning ishonchiga erishgan. “Tuproq‘i to‘kilib, qulashga bahona topolmay turgan jarning qa‘rida xatarli bir sharpa borligini hozir faqat kabutarlar sezayotgan bo‘lsa, ehtimol.

³¹² Normatov U. Izlanish quvonchi va tashvishlari (Yozuvchi Pirimqul Qodirov bilan suhbat). Yetuklik. – T.:1982. – B. 338.

Chiroyli to‘rlar, ozoda kataklar ichida o‘tirgan bu jonivorlar bugun kechasi negadir juda bezovtanib, patir-patir qilib chiqishdi. Hozir ham ular don-suvga qaramay, nuqul tashqariga intilishar, katak chiviqlarini asabiy cho‘qishar edi. Kabutarbonlar buning sababini tushunmay hayron edilar.

Faqat Umarshayx Mirzoning qo‘lidagi chiniy kabutar katakdagi xatardan qutulganday osoyishta bo‘lib qolgan edi. Hozir butun olam Umarshayx Mirzoga mana shu kabutarday ma’sum va osuda tuyuldi. U tom o‘rtasiga borib, kabutarning mayin qanotini yuziga bosdi. Uni uchirishdan oldin:

– Marg‘ilonga uch, qanotli choparim! — deb shivirladi.

Tagidan nurab turgan jar shu asnoda birdan o‘pirildi...

U yiqilib tushayotganda qo‘lidagi kabutarni qo‘yib yuborgan edi. Chiniy kabutar chang-to‘zon orasidan yulqinib chiqib, osmonga qarab otildi...” (46-b.).

Adabiyotshunoslik lug‘atida: “Ko‘p ma’nodlilik nafaqat ramziy, balki tom ma’noddagı realistik obrazlarga ham xos, faqat bunda ko‘p ma’nodlilikning yuzaga kelish mexanizmi o‘zgacha, u badiiy obrazning yaxshi ma’noddagı naturalligi bilan bog‘liqdir. San’atkor ifodalamoqchi bo‘lgan fikr badiiy obrazda tugal aytilmaydi (ya’ni kitobxon og‘ziga chaynab solib qo‘yilmaydi). Badiiy obrazning ayrim chizgilari punktir (uzuq-uzuq chiziqlar) bilan tortiladi. Ya’ni san’atkor badiiy obrazda ma’lum imkoniyatlar yaratadi-da, ularni ro‘yobga chiqarishni o‘quvchiga qoldiradi. Bu xil imkoniyatlar, ayniqsa, “obyektiv tasvir” yo‘sinidan borilgan, yozuvchi xolis kuzatuvchi mavqeyida turgan asarlarda kuchli namoyon bo‘ladi. Garchi asarda tasvirlangan narsa bitta bo‘lsa-da, o‘quvchilar (ijodiy tasavvur imkoniyati, xarakteri, dunyoqarashi va b.ga ko‘ra) turlicha bo‘lgani uchun konkret badiiy obrazlarning ongida turlicha akslanadi, turli xulosalarga olib keladi”,³¹³ — deyiladi. Darhaqiqat, yorqin, ta’sirchan tasvir o‘quvchi xayolotiga qanot bag‘ishlaydi: Oyog‘i ostidagi zaminni bo‘shab, nurab o‘pirilish darajasiga borib qolganini bilmayotgan temuriy hukmdor(lar), g‘aflatiylikda, o‘z hukmdorlaridan qolishmaydigan haybarakallachi mulozimlar, bir qushchalik ongi, sezimi yo‘q

³¹³ Quronov D. va boshq. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – T.: Akademnashr, 2010. – B. 47.

kabutarbonlar, jarga yiqilib chil-parchin bo‘lmaslik uchun yulqinib chiqib, chang-to‘zonlar ichidan musaffo osmon bag‘rida otilgan kabutar...

Tahlil obyektlarimizning maydonini kengaytirib, Umarshayx Mirzoning kabutarlar va kaptarxonasi bilan jarga uchib halok bo‘lishining badiiy talqini bilan bog‘liq yana bir badiiy asarni qiyosga tortsak. Bu avstriyalik nemis olimi va yozuvchisi Fris Vyurtle ham xuddi Pirimqul Qodirov kabi dushman yurt ostonasida turgan bir vaqtda podsho ko‘ngilxushlik uchun kaptarxonaga chiqmasligini, yuragi nimanidir sezgan hukmdor, xabarchi choparlar dushman qo‘liga tushib qolishi mumkin, — degan fikr bilan kaptarlardan foydalanmoqchi bo‘lganini badiiy mulohaza etadi. Ammo Fris Vyurtle talqinida Umarshayx Mirzo kaptarlardan harbiy maqsad yo‘lida emas, balki taxt vorisi bo‘lgan o‘g‘li Boburga o‘zining so‘nggi so‘zlarini yetkazish uchun foydalandi. Yozuvchining badiiy tasvirdagi o‘ziga xos muvaffaqiyatini ko‘rsatish uchun qissadan parcha keltiramiz: Axsidan Zahiriddin huzuriga kelgan “Biyno basir” — Qosimbek Umarshayx Mirzoning o‘limida sotqinlarning qo‘li borligini, buni shaxsan o‘zi tekshirib ko‘rganligini aytar ekan, qo‘ynidan oq kaptar chiqardi. Umarshayx Mirzoning Boburga, — taxt vorisiga atalgan so‘nggi vasiyatida shunday so‘zlar bor edi:

“... kimki vaqt sinovlariga dosh bera oladigan uy qurishni istasa, g‘ishtni to‘g‘ri tersin, qorishmani ezilgan xalq ko‘z yoshidan tayyorlamasin! Muqaddas kitobimizda yozilgan gapni yodda tut: Alloh yer va osmonni bizga ermak uchun yaratmagan. Sen esa, mening o‘g‘lim va merosxo‘rimsan, sen yoshsan, jasursan, hamisha aqlli, mulohazali bo‘l. Kim senga hamisha sadoqat bilan xizmat qilsa, xushomadgo‘ylik qilmasa, unday odamni yoningda saqla va maslahatiga quloq sol”³¹⁴.

“Andijon shahzodasi” bolalarbop, sarguzasht-qissa. Asarning umumiy ruhida sarguzasht-qissa tabiatiga xos xususiyatlar yetakchilik qilsa-da, vasiyatnoma bilan bog‘liq tasvir yozuvchining muvaffaqiyatli topilmasi. Zukko kitobxon vasiyatnomadan Amir Temurning nafasi baralla kelib turganini sezadi.

³¹⁴Vyurtle F. Andijon shahzodasi. (Bobur-yo‘lbars): sarguzasht-qissa / Fris Vyurtle: olmon tilidan Y.Egamova tarjimasi. – T.: O‘qituvchi, 2011. – B. 47.

Bejiz ham Bobur Temuriy shahzodalar ichida sohibqiron bobosi Amir Temurning eng munosib izdoshi sifatida baholanmaydi. F.Vyurtle talqinida ana shunga ishora bor.

Xulosa qilib aytganda, bitta tarixiy fakt har ikkala yozuvchiga ham o'zlari tanlagan janrning tabiatidan kelib chiqib, badiiy tasvirlash mahoratlarini yuzaga chiqarish imkonini bergan.

“Tarixiy badiiy asar yaratish uchun faqat g'ayrat-shijoatning o'zi, ona tarixga mehr-muhabbatning o'zi yetmaydi. Buning uchun o'tmish ko'zgidagi ming yillar changini artib, unutilib, yo'qolib, zarralarigina qolgan birinchi manbalarni topib, sabr-toqat bilan o'rganish kerak. Ana shu topilmalarning zamiridagi sirlar zulmatini badiiy zakovat nuri bilan yorita olish kerak”³¹⁵.

Darhaqiqat, manbalar bag'ridagi zarralarni ilg'ash, ular bag'riga yashiringan sirni topish, badiiy zakovat, aql, his-tuyg'u uyg'unligida kitobxon ishonch va hayajon bilan o'qiydigan tasvirlarni yarata olish, ular o'rtasida dialektik yaxlitlikni o'rnatish olish tarixnavis yozuvchidan juda katta iqtidor, mehnat talab qiladi.

Pirimqul Qodirov ham “Boburnoma” qatidagi zarralar sirini badiiy zakovati, idroki bilan kashf etdi. Mana shu zarralar, kichik topilmalarning zamiridagi axloqiy-ma'naviy, falsafiy-estetik qarashlarni o'quvchi qalbiga, ongiga haqqoniylik, samimiylik bilan singdirdi.

Bobur Mirzo umrining eng so'nggi kunlarini toj-u taxt tashvishlaridan xoli, bir go'shada Tohir oftobachisi bilan o'tkazmoqchi ekanligini aytadi.

Tohir oftobachi haqida ma'lumotni biz Gulbadanbegimning “Humoyunnoma”sidan o'qiydiz: “Mazkur bog'da tahoratxona bor edi. Uni ko'rib (Bobur) dedilar: “Saltanat va podshohlikdan ko'nglim olindi. Shu Zarafshon bog'ida xilvatga chekinsam. Xizmatkorlikka bitta Tohir oftobachining o'zi menga yetadi. Podshohni Humoyunga topshirsam”³¹⁶.

Bu bir og'iz gap. “Boburnoma”dek ulkan monumental asar ichida bir zarradek, go'yo. “Boburdek ulkan siymo butun saroy ahlidan ko'ra bitta

³¹⁵Mahmudov M. Shaffof nilufarning siri. Adabiyot va zamon. (Maqola, adabiy o'ylar, suhbatlar) To'plovchilar: U.Normatov va A.Sharopov. – T.:Adabiyot va san'at nashriyoti, 1981. – B. 228.

³¹⁶Gulbadanbegim Zahiriddin Muhammad Bobur qizi. Humoyunnoma. – T.: O'zbekiston, 2016. – B. 22.

oftobachini o‘ziga yaqinroq olgan bo‘lsa, demak, Tohir unga juda ko‘p yaxshiliklar qilgan, nihoyatda qadrdon bo‘lib qolgan...Birgina jumlada aytilgan mana shu fakt yordamida Tohirning butun tarjimai holini o‘zimga tasavvur qilib topdim”³¹⁷, deydi yozuvchi.

Yozuvchi mohir montajchidek, o‘z xayolot mahsulini tarixiy realliklarga ulaydi. “Quboning botqoqli qora suvi bor, ko‘prigidan boshqa o‘tib bo‘ladigan joyi yo‘q, ko‘p kishilik lashkar kelib, ko‘prikka tiqilib qoldi, ko‘plab ot va tuyalar bu qora suvga yiqilib nobud bo‘ldi. Bundan uch-to‘rt yil burunroq Chir (Chirchiq) suvidagi kechuvda katta shikast topgan edilar, bu voqea o‘sha halokatni eslatib, lashkar vahimaga tushdi”, – deyiladi “Boburnoma”da. (38-b.)

Romanda bu vaziyat quyidagicha tasvirlanadi: Chug‘uruqday behisob qo‘shin otlari, tuyalari, aravalari bilan birga yomg‘irli tongda qop-qora selga o‘xshab ko‘prikni limmo-lim to‘ldirib kela boshladi.

Ko‘prikning o‘rtasida boyagi yigitlar mixlarni sug‘urib, to‘sinlarni arralab ketgan joy bunchalik og‘ir yukka bardosh berishi amrimahol edi. Buning ustiga, xuddi o‘sha joyda bir cho‘bir otning ikki oldingi oyog‘i mixi ko‘chirilgan yog‘ochlarning yorig‘iga tushib ketdi. Ot o‘mrovi bilan yiqilib tushib, oyog‘ini sug‘urib ololmay tipirchilay boshladi. Egarda o‘tirgan navkar otning boshidan oshib, boshqa otlarning oyog‘i tagiga uchib tushdi. Hozir behisob tuyoqlar ostida qolib yanchilishini sezdi-yu, dod solib qichqirdi. Hamrohlari beixtiyor jilovlarini tortishdi. Ba’zi otlar qo‘rqib orqaga tisarilib ketdi.

Orqadagilar esa hech narsadan bexabar, yopirilib kelmoqda edilar. Bir lahzada ko‘prikning shu joyi haddan tashqari tiqilinch bo‘lib ketdi. Arra va bolta zarbalaridan nochorlashgan ko‘prik yog‘ochlari to‘satdan qarsillab sindi. Tiqin bo‘lib yotgan o‘nlab otlar, odamlar ko‘prik yog‘ochlariga qo‘shilib suvga qulab tushdi. Toshib turgan soyning suvi qulab tushganlarni lopillatib oqizib ketdi”. (79-b.)

³¹⁷ Normatov U. Izlanish quvonchi va tashvishlari (Yozuvchi Pirmqul Qodirov bilan suhbat). Yetuklik. – T.:1982. – B. 338.

Yozuvchining badiiy zakovatiga ko‘ra to‘sinlari arralangan, mixlari sug‘urib olinib, qanotlari sindirilgan ko‘prik tinimsiz toju taxt talashlaridan bezgan, urushlar natijasida talangan, o‘g‘il-qizlari, ayollari, sevgan qizlari zo‘rluk bilan qullikka, cho‘rilikka olib ketilgan oddiy xalq vakillarining yovga qarshi chorasi edi.

Yozuvchi tomonidan o‘ylangan ko‘prikni arralab qo‘yish chorasi qanchalar tabiiy chiqqan bo‘lsa, dushmanning ko‘prik ustidagi talafoti ham shunchalik ishonchli, haqqoniy tasvirlangan.

Kitobxon ham Vatan qismati, or-nomus tushunchasi o‘rtaga tushganda, shoir aytgandek: “Joni bir jondoshlar qolarmidi jim!” (G‘.G‘ulom) — degan to‘xtamga kelishi aniq. Romanda yozuvchi joni bir jondoshlar sifatida Tohir va uning do‘stlarini ko‘rsatadi. Ko‘rilgan choralarga qaramay Tohirning sevgilisi Robiya yov qo‘liga asira bo‘lib tushib, Samarqandga olib ketiladi. Robiyani qaytarish ilinjida Tohir Samarqandga yurishga tayyorlanayotgan Bobur qo‘shiniga navkarlikka yollanadi. Ana shu taxlit Tohirning umr yo‘llari Bobur bilan tutashadi. Shu taxlit Tohir “Yulduzli tunlar” saltanati bag‘rida Bobur bilan tengma-teng yashaydi va o‘z xo‘jasining eng so‘nggi nafasida ham uning oldida turish baxtiga muyassar bo‘ladi.

Romanda Bobur Mirzoning o‘ta tahlikali, murakkab sharoitdagi taqdiri, bola boshiga tushgan saltanatning og‘ir yukidan chekkan iztiroblari, hayotidagi fojialar, baxtu quvonchlari, yo‘qotganlari-yu topganlari atroflicha tahlil etilib, haqqoniy tasvirlangan. “Bobur taqdiridagi keskin burilishlar, uning ruhiy evolutsiyasidagi o‘zgarishlarni o‘rganish juda qiyin bo‘ldi”³¹⁸, — deydi P.Qodirov.

Bobur Mirzo – podshoh, mardona inson. U voqealar bayonida o‘z his-tuyg‘ularini ko‘p ham bildiravermaydi. Pirimqul Qodirovning mahorati, ruhshunos san’atkorligi shunda ko‘rinadiki, voqealar mohiyatiga qarab, maromiga qarab, o‘sha vaziyatga mos tasvir, ruhiy iqlim, muhit yarata oladi.

³¹⁸ Adabiyot va zamon. (Maqola, adabiy o‘ylar, suhbatlar) To‘plovchilar: U.Normatov va A.Sharopov. – T.: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1981. – B. 222.

12 yoshli bola Bobur. Andijon chorbog‘ida bexavotir o‘qib, qiziqarli harbiy mashqlar, she‘riyat havasi, nosirlik ishtiyoqi bilan hayotining eng osuda, latif damlarini yashayotgan edi. Yozuvchi Boburning bu onlarini gul deb ataydi. Otasining o‘limi xabari, O‘ratepa, Xo‘jand, Marg‘ilonni bosib olib, Andijon ostonasida turgan dushman tahlikasi Bobur Mirzo hayotiga quyundek yopirilib kirib, butun o‘y-xayollarini to‘zitib yubordi, uni gangitib qo‘ydi. Tor ko‘ngilli beklarning har biri o‘z manfaati yo‘lida vaziyatdan foydalanib qolishga tirishishar ekan, Bobur ularning qaysi do‘st, qaysi dushman ekanligini ajratolmay qoladi.

Bobur Mirzoning bu holatdagi iztiroblarini, ruhiyatidagi talotumlarni yozuvchi romanning “Gul va quyun” bobida tasvirlab bergan. Bozorda yolg‘on ovoza tarqatganlikda ayblanib, beklarning talabi bilan o‘limga mahkum etilgan Darvesh govning iltijolari Boburning yosh qalbini o‘rtab yuboradi. “Boburnoma”da muallif:“...Darvesh gov ismli kishi Andijon arboblari haqida behuda so‘z aytgani uchun qatl etildi. Bu siyosatdan butun el tinchib qoldi” (32-b.) degan qisqagina ma‘lumot bilan cheklanadi.

Romanda bu vaziyatni yozuvchi shunday tasvirlaydi:

- Yasoq!
- Yasoq!

Boburning ko‘z oldidan boyagi odamning soqoliga oqib tushgan ko‘z yoshlari ketmas, qulog‘i tagida uning alamli qichqirig‘i hamon jaranglab turardi. Shu odam murdaga aylanishi kerak. Nechun? Beklar u odamni gunohkor deb Boburni ishontirgani uchunmi?Balki bu beklar chindan ham Boburni aldayotgandir? Balki mana shunaqa beklar Axsida Umarshayx Mirzoni jardan itarib yuborib o‘ldirgandirlar? Balki bular erta-indin Boburning ham joniga qasd qilishar? Birdan Boburning beg‘am yurgan davri esiga tushdi. Kechagina u tengdosh o‘rtoqlari bilan ot choptirib o‘ynab yurmaganmidi?.. Bu qora bulutlar uning atrofiga qayoqdan yopirilib keldi? “Yasoq” – deb qichqirayotgan har darg‘azab bek Boburdan quyoshni to‘sib olgan bir qora bulutga o‘xshardi...” (71-b.).

Bobur Mirzoning jism-u jonini o'rtayotgan bu iztiroblar, uni shubha va gumonga solayotgan holatlarni qora bulutning yopirilib kelishiga, quyosh yuzining to'sishiga, oynning tutilishiga, qora bulutlar shamoliga o'xshatar ekan, bu tasviriylik orqali yozuvchi o'z qahramonining qalbida kechayotgan kuchli ruhiy bosimni kitobxonga yaqqol ko'rsata oladi. "Yulduzli tunlar" – yirik epik polotno. Unda salkam qirq yillik voqealar qamrab olingan, yuzga yaqin tarixiy, hayotiy, to'qima personajlar gavdalantirilgan. Asarda tasvirlangan geografik hudud ham bepoyon. O'rta Osiyo, Kobul, Hindiston tarixidagi muhim voqealar qalamga olingan. Shu o'rinda adabiyotshunos olim Qozoqboy Yo'ldoshevning Pirimqul Qodirovning tarixnavislik mahoratini e'tirof etgan so'zlarini keltirsak: "Yozuvchi g'oyat chigal zamondagi sanoqsiz tarixiy hodisalar o'rtasidagi mavjud sababiy bog'liqliklarni yaxshi his qiladi. Turli manbalardagi tarixiy dalillarning o'zaro aloqadorlik jihatlarini sezgirlik bilan ko'ra oladi"³¹⁹.

Darhaqiqat, ko'ra olish, his qilish, badiiy idrok etish, o'z qahramonlarining dunyosida yashay olish, ular bilan darddosh bo'la olish, tasvirda aql va tuyg'u uyg'unligiga erishish san'atkor yozuvchining eng zaruriy fazilatlari ekanligi "Yulduzli tunlar"da shoyon ko'rinib turibdi.

4.2. Xayriddin Sultonning "Saodat sohili" qissasida badiiy tragizm

Yozuvchi Xayriddin Sulton ijodida Bobur Mirzo obrazi alohida o'rin tutadi. Hali maktab o'quvchisi o'smir Xayriddin o'zining qanday va qay vaqtdan boshlab Bobur Mirzoning dilbar olamiga maftun bo'lib qolganligini shunday eslaydi: "O'n to'rt yoshlarimda ilk bor bu nuroniy siymoning tasviri chekilgan suvratni ko'rdim. O'lis qishloq maktabi, qahraton qishning dilgir kunlari, adabiyot xonasi devoriga osilgan muhtasham portret va undan muloyim tabassum ila boqib turgan, shohona sallasiga ukpar jig'a qadalgan ulug'sifat insonning bori-borlig'i murg'ak tasavvurimga shu qadar teran o'rnashdiki, dars paytida ham, tanaffus chog'lari ham uning mardona chehrasidan ko'z uzolmas edim"³²⁰.

³¹⁹ Yo'ldoshev Q. Yoniq so'z. – T.: Yangi asr avlodi, 2006. – B. 111.

³²⁰ Sulton X. Boburiynoma: Ma'rifiy roman. – T.: Sharq, 1997. – B. 5.

Qalbi oq qog‘ozdek toza, bola ko‘ngliga hali tiriklikning bir g‘ubori enmagan yosh Xayriddin “charxning jabr-u jafosini hadsiz darajada tortgan bu zoti buzurg”ning muloyim tabassumi ortiga yashiringan hazinlik, siniqlik, dardmandlik hislarini butun ruhoniyyati, fahm-u farosati bilan anglab yetdi. “Bu nurli qiyofat mujassam shijoat, mujassam iztirob bo‘lib tuyular, suvrat ostidagi “Tole yo‘qi jonimg‘a balolig‘ bo‘ldi, Har ishniki qildim xatolig‘ bo‘ldi, O‘z yerni qo‘yib Hind sori yuzlandim, Yo rab, netayin ne yuz qarolig‘ bo‘ldi”, – degan sodda, hazin misralar bir o‘qishdayoq yod bo‘lib ketgan, shu satrlarni ko‘cha-ko‘yda ham, dala-dashtda ham takrorlab yurar edim. Ularning ma‘nosi, shikasta ohangi dilimga qattiq ta’sir qilar, oz-o‘zidan yig‘lagim, uzoq bir joylarga bosh olib ketgim kelar edi.

Shu yo‘sin Bobur Mirzoning mardlik va muruvvatda, zakovat va matonatda tengsiz shaxsiyatiga maftun bo‘lib qoldim”³²¹, – deb eslaydi Xayriddin Sulton. Hali o‘smirligidayoq qalbiga jo bo‘lgan Bobur Mirzo shaxsiga nisbatan maftunlik, oshuftalik, ehtiyojmandlik kabi tuyg‘ular, aytish mumkinki, kun kelib yozuvchi Xayriddin Sultonni bu ulkan dahoning shaxsiyatini teranroq anglash, uni badiiy tadqiq etish, haqqoniy yoritish, kitobxon bilan baham ko‘rish uchun bir qator asarlar yaratishga undadi.

Xayriddin Sultonning “Yo‘lbarsning tug‘ilishi”, “Oy botgan pallada”, “Panoh”, “Tavba” kabi hikoyalari, “Boburning tushlari” badiiy badiyasi, “Saodat sohili” qissasi, “Boburiynoma” ma‘rifiy tarixiy-biografik romani Bobur Mirzo mavzusi yozuvchi ijodida muhim va muqim o‘rin tutishini ko‘rsatadi.

Ijodkorning “Saodat sohili” qissasi 1982-yilda ilk bor “Yoshlik” jurnalida nashr etiladi. Xayriddin Sultonning o‘zi guvohlik berishicha, bu asar dastavval hikoya shaklida dunyoga kelgan. Keyin vaziyat taqozosiga ko‘ra qissabop materialning mavjudligi, yozuvchining boy tafakkuri natijasi o‘laroq qissaga aylangan. Mazkur asarning yozilishiga turtki bo‘lgan tarixiy asosni yozuvchi shunday xotirlaydi: “Bir kuni O‘zbek sovet ensiklopediyasining 7-jildidagi “K” harfi bo‘limini nazardan kechirayotib, “Hofiz Ko‘ykiy – Ko‘hakiy” deb nomlangan

³²¹ O‘sha manba. – B. 5.

maqolaga ko‘zim tushib qoldi. Maqola kichkinagina quruq ilmiy tilda bitilgan edi, ammo u hazilakam hayajonga solmadi!

Axir, bundan besh asr muqaddam olis hamqishlog‘im – parkentlik alloma Hofiz Ko‘ykiy hazrati Boburni yo‘qlab Hindistonga borgan ekan!”³²²Xayriddin Sultonni hayajonga solgan bu voqea qahramoni Hofiz Ko‘ykiy (1490–1584) Hofiz Toshkandiy nomi bilan ham atalib, Parkentda tug‘ilib, Toshkentda voyaga yetgan, tarixchi, fiqh va tarjimon sifatida ilm olamiga tanilgan mutafakkir zot bo‘lgan. Iqtidor va salohiyatni ota-bobolaridan meros qilib olgan Hofiz Ko‘ykiy Ulug‘bekning shogirdi Ali Qushchining nabirasi bo‘lgan. Toshkent madrasalarida mudarrislik qilib, umri davomida bir qator Osiyo mamlakatlariga safar uyushtirgan, jumladan, Hindistonda Bobur Mirzo huzurida ham bir muddat bo‘lib qaytgan.

E‘tiborli jihati shundaki, Islom ensiklopediyasida Hofiz Ko‘ykiy haqidagi ma‘lumotda: “...u (Hofiz Ko‘ykiy – Y. K.) 1528-yilda Bobur huzuriga elchi bo‘lib borgan, 1569-yili esa Boburning nabirasi Akbar uni qabul qilib, bobosini ko‘rish sharafiga muyassar bo‘lgan tabarruk kishi sifatida ko‘p e‘zozlagan”, – deyiladi³²³.

“Boburnoma”da 1528-yil voqealarida Agradagi to‘y tafsilotlarini bayon qila turib Bobur Mirzo shunday yozadi: “Shanba kuni, oying oltisida to‘y bo‘ldi... Ulug‘ osh tortilg‘ondin keyin... Xoja Mir Sultong‘a va o‘g‘lonlarig‘a va Hofiz Toshkandiy va Mullo Farrux boshliq Xojaning mulozimlarig‘a va o‘zga elchilarg‘a ham oltundin, kumushdin tarkash bila in‘omlar bo‘ldi”³²⁴.

Mana shunday hayotiy faktlar asosida yaratilgan “Saodat sohili”ni mutolaa etar ekanmiz, qissadagi voqealar, tarixiy shaxslar, xronotop aniqligini kuzatamiz, ayni paytda o‘quvchining qalbiga, shuuriga ta‘sir qiladigan ijodkor badiiy taxayyulining quvvati, estetik ideal asarni ichdan nurlantirib turganligi shoyon haqiqat. “Ijodkor doim kuzatishda, tahlil-u talqin qilish jarayonida yashaydi... U biror voqea, shaxs yoki narsadan qattiq ta‘sirlansa, qalbida ma‘lum bir ijodiy niyat

³²² O‘sha manba. – B. 341.

³²³ Islom. Ensiklopediya. A – H. /Z. Husniddinov tahriri ostida. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2003. – 313 b.

³²⁴ Bobur Zahiriddin Muhammad. Kulliyot. 6-jild. Boburnoma (Voqe‘oti Boburiy). Hindiston davri voqealari. – T.: Zilol buloq, 2021. – B. 161.

tugʻiladi. Oqibatda, uning ongida maʼlum bir mavzu tugʻiladi va ana shu mavzu boʻyicha u material toʻplash, koʻplab hayotiy faktlarni sinchiklab oʻrganish, ularni saralash kabi murakkab jarayonni boshdan kechiradi. Ana shularning barchasida unga estetik qimmatga molik ehtiroslar, boshqacha aytganda, pafos, dard hamrohlik qiladi”³²⁵, – deb yozadi adabiyotshunos olim Bahodir Sarimsoqov.

Ijodkor niyatiga koʻra, “Saodat sohili” qissasida tragik pafos yetakchilik qiladi. Fasl boshida keltirganimizdek, balki bu yozuvchining hali bolalik chogʻlaridanoq adabiyot kabinetining devoriga osilgan portretiga qarab Bobur Mirzoning siniq koʻnglini inkishof eta bilganining, keyin ham ulgʻayib uning dardli, ayni paytda, nurli nigohini doimo his qilib turganining hosilasidir, ehtimol.

Oʻlim – tragik janrning komponentlaridan biri. Bu tipdagi asarlarda oʻzida eng ezgu insoniy fazilatlarni jo etgan, irodali, matonatli qahramonlar hayoti oʻlim bilan fojeiy yakun topadi. Isteʼdodli qalam sohibining mahorati shundaki, u ana shu oʻlim qatida ham hayotni tiriklikdek qayta yarata oladi, oʻquvchida nekbin bir kayfiyat uygʻota oladi. Qissada yozuvchi ana shu vazifani uddalay olgan.

Fransuz faylasuf yozuvchisi M. Monten oʻlim haqida gapira turib, “Oʻlim ham xuddi hayotga oʻxshamogʻi lozim”, – degan edi. Xayriddin Sulton oʻlimning mana shunday mohiyatidan badiiy vosita sifatida topqirlik bilan foydalanadi.

Qissa qahramoni Hofiz Koʻykiy Bobur Mirzo haqida bitayotgan tarixida uning Alisher Navoiy ijodi va shaxsiyatiga ayri-ayri ehtiromini eslar ekan: “Hayot ularning diydor koʻrishuvini xush koʻrmagan edi. Ular to tirik ekanlar, bir-birlari sari mislsiz ixlos va ishtiyoq bilan talpinadilar. Ikkisining ham qalbida bir-biriga aytilishi shart va muqarrar boʻlgan juda koʻp gaplar pinhon qoldi.

Va faqat oʻlim, shafqatsiz, odil oʻlimgina ularni dafʼatan yaqinlashtiradi – ular yagona bir zamin tuprogʻida, bir-birlaridan bor-yoʻgʻi yuz ellik chaqirim masofa narida, bir-birlaridan butkul bexabar mangu maskan va farogʻat topadilar, ularning boqiy va mardona ruhi yulduzlarga toʻla yagona osmon ostida beorom keza boshlaydi”³²⁶, – deb yozadi. Bu parcha beixtiyor oʻquvchini oʻyga soladi.

³²⁵ Sarimsoqov B. Badiylik asoslari va mezonlari. – T., 2004. – B. 99.

³²⁶ Sulton X. Saodat sohili. Boburiynoma. – T.: Sharq. – B. 323. (Bundan soʻng ushbu nashrdan olingan koʻchirmalarning sahifasi qavs ichida beriladi).

Shafqatsiz, odil o‘limning, hatto u o‘lim bo‘lsa ham ezgu nuqtalarini kashf etgandek bo‘ladi:

Yovqur, o‘ktam chavandoz uchqur tulpordaikki kecha-yu kunduzda bosib o‘tmog‘i tayin bo‘lgan masofada turib, tiriklik chog‘ida uchrasholmagan bir-biriga ehtiyojmand bu buyuk zotlarni endi o‘lim uchrashtiradi. Ularning o‘limlari xuddi hayotlaridek (Monten) ulug‘vor, ruhlari ham xuddi hayotliklari kabi tirik va bedor.

Adabiyotshunos Suvon Meli: “Tragizm murakkab va umumiy muammo bo‘lganidan muayyan asarga shu nuqtayi nazardan nigoh tashlaganda xayolda turli mulohazalar ayqash-uyqash bo‘lib ketishi tabiiy. Shu tufayli masalaga konkret yondashuv, ya’ni asarni tragizm jihatidan bo‘laklarga bo‘lish, so‘ng umumiy xulosa chiqarish, muammoni chuqurroq o‘rganishga imkon beradi, deb o‘ylaymiz. Bo‘laklarda yetilgan fikr-mulohazalar bir nuqtaga jamlangach, yaxlit asar tragizmi hosil bo‘ladi”³²⁷, – deb fikr bildiradi.

Asar tragizmini olim *1) qahramon tragizmi; 2) muallif tragizmi; 3) davr tragizmi* kabi turlarga tasnif qilib o‘rganishni taklif etadi. Olimning fikrlariga qo‘shilgan holda bu o‘rinda badiiy asarning muloqot jarayonini, ya’ni adresant va adresat munosabatini ham unutmashimiz lozim bo‘ladi. Bu holda yuqoridagi Suvon Meli tarafidan taqdim etilgan bo‘linishga to‘rtinchi bo‘lib *tragik idrok* ham qo‘shilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi deb o‘ylaymiz. “Saodat sohili” qissasida asar tragizmini biz ham ushbu yo‘nalishda tadqiq etishga harakat qilamiz. (6-ilova)

“Saodat sohili” qissasida Bobur Mirzo umrining so‘nggi yillari qalamga olinganligi uchun ham tragik mohiyat asar badiiyiligini, obraz haqqoniyligini ta’minlaydigan maqbul yo‘l ekanligini bilgan muallif adashmagan. “Saodat sohili” qissasida Bobur Mirzo obrazi muvaffaqiyatini ta’minlagan jihat bu tragik pafosdir. Qissada o‘zining badiiy salmog‘iga ko‘ra Bobur Mirzo obrazi bilan teng turadigan Hofiz Ko‘ykiy obrazi bor. Oy Quyoshdan nur olib, ravshan tortib tiniqlashgandek, Hofiz Ko‘ykiy Mirzo Bobur ko‘ngil olami, insoniy va ijodiy dahosiga mos tushadigan tafakkuri, fahmi bilan unga shu‘la tashlaydi, boshdan oyoq yoritadi.

³²⁷ Meli S. So‘z-u so‘z. “Adabiyot falsafasi”ga chizgilar. – T.: Sharq, 2020. – B. 53-56.

Shu o‘rinda adabiyotshunos Abdug‘afur Rasulovning “Xayriddin Sultonov “Saodat sohili” qissasida Bobur xarakterining eng nozik nuqtalarini mutafakkir, ijodkor Hofiz Ko‘ykiy obrazi orqali yoritib beradi. Boshqacha aytganda, yozuvchi xarakterni xarakter vositasida inkishof etish yo‘lidan boradi. Hofiz Ko‘ykiy – betakror siymo. Bobur unga alohida mehr bilan qaraydi. Lekin Xayriddin Sultonov Bobur qalbining eng nozik o‘rinlariga Ko‘ykiy nazari, tafakkuri orqali kirib boradi.

“Saodat sohili” qissasi Xayriddin Sultonovga Bobur mohiyatini anglash (anglatish)da bir bosqich bo‘ldi”³²⁸, – deb yozadi. Saltanat ko‘yidagi orzu-umidlari bilan o‘z yurtiga sig‘magan, taqdir shamolida “moli vofir, eli kofir” yurtlarga kelib qolib Afg‘on, Hind va Bangola o‘lkalarining mutlaq hukmdori bo‘lib taxt topgan, ammo bir umr Vatan sog‘inchi, yurt hasratining zil-zambil yukini ko‘tarib o‘tishga mahkum Bobur Mirzo qismati uning eng katta fojiasi edi. “Saodat sohili”da Xayriddin Sultonov anglagan va anglatishiga harakat qilgan tragik mohiyat ham aslida shu.

“Tragizm yig‘loqilik yoki qora tushkunlik emas... Hayot kulfatlariga mardonavor chidash, ulardan ustun chiqishga urinish tragizmni hosil qiladi...”³²⁹

Bobur Mirzoda ana shunday kurashchan ruh, bukilmas iroda, ulkan himmat bor edi. Ammo o‘zi o‘rtanib yozganidek: “Tuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur, Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur”... Vatan hasratida ko‘ngilda tug‘ilgan yuz ohlar bilan kurashish, ularni yengib yashash, ehtimol, Bobur Mirzoga Rano Sango qo‘shinlariga ro‘baro‘ kelishdan ming chandon qiyinroq bo‘lgandir. Asarda yuz ohlar bag‘rida yashayotgan Bobur Mirzoning iztiroblari xotira vositasida ochiladi:

Agrada Bobur Mirzo o‘zi barpo etgan jannatmakon Bog‘i Nurafshonda go‘zal, sehrli oqshom. Bu oqshomning sehr-u tarovati Bobur Mirzoga yana Vatanni eslatadi. Beixtiyor, Hofiz Ko‘ykiyga O‘shning latofatidan so‘z ochadi. Baroqko‘hda qurdirgan ayvonlik hujrasini yodga oladi: “...Qani edi, inon-ixtiyorim o‘zimda bo‘lsa-yu besh kunlik gunohkor umrning qolganini o‘sha hujrada o‘tkarsam!” –deya *tuyqusdan shivirladi*Bobur.

³²⁸ Rasulov A. Badiiylik – bezavol yangilik. – T.: Sharq, 2007. – B. 308.

³²⁹ Meli S. So‘z-u so‘z. “Adabiyot falsafasi”ga chizgilar. – T.: Sharq, 2020. – B. 52.

Hofiz Ko‘ykiy unga hayronlik bilan qaradi. Bobur go‘yo suhbatdoshini *unutgandek parishon o‘ltirar edi*.

–Ming taassufki, dard bor, darmon yo‘q. U *og‘ir tin oldi*. Saltanat shunday bir tilsim ekanki, mavlono, uni qo‘lda tutmoq uchun kishi avvalo qo‘lidagi *inon-ixtiyordan xalos bo‘lmog‘* ilozim ekan.

Hofiz Ko‘ykiy nima deyarini bilmay qoldi.

–Meni “sohibi saltanat”, “yetti iqlimning shami anvori”, “shahanshohi olam” deb ko‘klarga ko‘taradilar, – deya hasratli tovush bilan so‘zlardi Bobur. – Lekin biror kimsa bilmaydiki, men ham asli shu yog‘och *taxtga qaramman*, mana shu yaltiroq *tojga qulman*... Illo, har bir banda faqat Olohgagina qul emas. (325-b.)

Bu parchada o‘quvchi Bobur Mirzo tiyatidagi buyuk rostgo‘ylikni buyuk va mardona iqrorga aylanganligiga shohid bo‘ladi. Aynan ana shu samimiyat va mardonalik o‘quvchini qahramonning iztirobiga sherik qiladi, undan darddosh yasaydi, zero, “Tragizm fojiali voqea, vaziyat yoki holatni vaziyatning avj nuqtasida turib tasvirlash va shu hissiyotni kitobxon yoki tomoshabinga ayni shu kuch bilan yuqtirishdir”³³⁰. Tasvirlash va yuqtirish ijodkor zimmasidagi vazifa ekan, adabiyotshunos olim Bahodir Karim quyidagi fikrlari bilan uning yechimini ko‘rsatadi: “Har bir tushuncha fikrni tiyraklashtirgani kabi har bir til unsuri matnda muayyan vazifani bajaradi: matn mazmunini, tabiatini, ruhiyati va ohangini yuzaga keltiradi. Rassom qo‘llagan bo‘yoq, birorta chiziq yoki musiqachi kuyidagi qandaydir parda g‘oya ifodasiga qanday xizmat qilsa, ijodkor ishlatgan so‘z, so‘z birikmasi ham uning maqsadiga shunday xizmat qiladi. O‘sha aniq va o‘z o‘rnida qo‘llangan rangin poetik unsurlar yig‘indisidan asarning o‘ziga xos yaxlit matni yuzaga keladi: uning jozibasi, ruhi kitobxon ma’naviy olamidan o‘rin oladi”³³¹.

Yuqorida tahlilga tortilgan parchada aynan Bahodir Karim qayd etgan holatni kuzatishimiz mumkin. Yozuvchining asar tili borasidagi mahorati shunda ko‘rinadiki, matndagi har bir so‘z va so‘z birikmasi bir-biriga mohirona payvandlangan. Muxtasarligi, mo‘tabarligi, martabasiga ko‘ra o‘z o‘rnida

³³⁰ O‘sha joyda.

³³¹ Karim B. Ruhiyat alifbosi. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2016. – B. 58.

ishlatilgan bu soʻz va soʻz birikmalarini matndan ajratib olsak, ular shu turishda ham Bobur Mirzo ruhoniyyatiga va yozuvchining badiiy niyatiga ochqich vazifasini oʻtashiga guvoh boʻlamiz.

besh kunlik gunohkor umr	}	tragik portret
dard bor – darmon yoʻq		
inon-ixtiyordan xalos		
taxtga qaram, tojga qul		
Ollohgagina qul emas		

Qissadagi peyzaj tasviri, tabiat manzarasi, psixologik portret ham qahramon tragizmi ifodasiga, tragik tasvirga xizmat qilgan: *tuyqus shivirladi, parishon oʻltirardi, ogʻir tin oldi, hasratli tovush bilan soʻzlardi* kabi qahramonning oʻta dramatik holatini soʻzlar, Bobur Mirzoning ruhoniyyatida kechayotgan ziddiyatli ogʻriqlar, soʻngsiz iztiroblar, kurashlarning siyratdan suratga koʻchgan ifodasidir. ...Bobur botib borayotgan quyoshdan koʻz uzmay oʻtirar edi (326-b.); Ufq quyoshni oʻz bagʻriga dafn etdi. Bulutlarning koʻksi qonga toʻldi. Olisdagi togʻlar unsiz faryod chekdi (327-b.); Besar oy koʻkdan maʼyus termuladi (322-b.). Bobur Mirzo ruhiyatidan oʻtkazib berilgan bu peyzaj bir tarafdin oʻz polifunksionalligi bilan Xayriddin Sultonning insoniy ruhoniyyatini tabiat fonida mohirlik bilan suratlantira oladigan adib ekanligini koʻrsatsa, ikkinchi tomondan, oʻquvchi fojeylik bagʻridagi bunday ulugʻvor tasvirdan taʼsirlanadi.

Guvohi boʻlayotganimizdek, badiiy asarda tasvirlanayotgan fojia ham, uning talqiniga xizmat qilayotgan har bir unsur ham badiiy vazifa bajaradi. “Saodat sohili”da tush ham muhim poetik unsur sifatida qahramon tragizmini teranroq ochib berishga xizmat qiladi. Zamonaviy oʻzbek nasriga Abdulla Qodiriylar, Fitratlar taʼrifidan olib kirilgan tush motivi undan keyingi adabiy avlodning ijodiy izlanishlarida ham qahramon hayotini har tomonlama yoritish, obrazni psixologik teran talqin etish maqsadida qoʻllanilmoqda. “Tushda ruhimiz oʻzini oʻzi poklaydi.

Tush koʻrmaydigan odam haqiqiy hayotni ham koʻrmaydi”, – deydi qozoq shoiri Muxtor Shoxonov, – Tushlar ijod ahliga qilingan tortiq, olam bilan suhbatdir...”³³²

Haqiqiy hayotidan koʻchgan iztiroblar girdobida birda choʻkib, birda qalqib borayotgan Bobur Mirzo tushi tafsilotlarini Hofiz Koʻykiyga soʻzlaydi:

“–Mana, siz... Yoʻq, Ollohning har bandasi goh xud, goh behud tushlar koʻrur. Tushda kishiga koʻp biliksiz narsalar ayon boʻlgʻusidir. Shunday emasmi, mavlono? Ammo mening... Ne vaqtlarkim, men muttasil bir tush koʻrib mazmunini anglamoqdan ojizman. Tunlar bilan yakkash bir yoʻsin manzara namoyon boʻlur, oʻsha fursatda koʻrganim – toshqin soy hududsiz bir dengiz kabi ayqirib yotadi. Suv betini yupqa muz bosgan. Qoʻlimda aso, muz uzra shitob ila qaygadur yelib boraman. Har qadam qoʻyganimda oyogʻim ostida muz qirs-qirs ushalar, muz har qisirlaganda yuragim qalqib-qalqib ketar... Na dengizning poyoni bor, na yoʻlimning, vahm ichra qaro terga botib tentib yuraman. Sahar chogʻi hushim boshimdan uchib, ne vaqt hayron-u parishon oʻltiraman. Soʻng arkoni davlat, munajjimlardan taʼbir soʻrayman, “Olampanoh, muborak nazaringiz tushgan ul kanora, inshoolloh, saodat sohili boʻlur” deydilar...

–Saodat sohili! – Bobur yoniq bir xoʻrsinish bilan xitob qildi. – Qayda u? Qay baxtiyor kimsa unga yetibdir?..” (327-b.)

Asar badiiy konsepsiyasining butun yukini oʻzida jo qilgan bu parcha Bobur Mirzo shaxsiyati, uning individual qiyofasi, maʼnaviy-ruhiy intilishi va ehtiyojlari, fojeiy qismatini ham oʻzida ifoda etgan. Qoʻlda aso, muz uzra shitob ila yelib borayotgan Bobur Mirzoning bu tushi uning ona-Vataniga qilich, zoʻr-u zarb bilan emas, balki shohlik, saltanat dagʻdagʻalaridan xalos boʻlib qalandar libosida qaytmoqlik orzusiga ishoraligi, ammo oyoq ostidagi muzlarning omonatligi, dengiz va yoʻlning poyonsizligi bu ilinjning inkonsizligini, zero Vatandan oyogʻi uzilgan insonning qadami zamin uzra mustahkam turishi dushvorligini bildiradi.

Adabiyotshunos Jabbor Eshonqul aytganidek: “...badiiy tushlarning andazasi hayotdagi tushlardan olinadi. Qolaversa, badiiy tushlar ham hayotdagi

³³²Aytmatov Ch., Shoxonov, M. Choʻqqida qolgan ovchining oh-u zori (Asr adogʻida aytilgan istigʻfor). – T.: Sharq, 1998. – B. 57.

tushlarga uyg'un kommunikativ vazifa bajaradi va undan bashorat yoki biror-bir xabar anglanadi. Ana shu anglatish va anglash jarayoni semantik jihatdan bir-biriga uyg'un keladi. Ya'ni badiiy tushlar ta'biri ham hayotiy tushlar ta'biriga ko'p jihatdan mos. Bunda tush timsol sifatida qaralib, ta'bir etiladi"³³³.

Asarda Hofiz Ko'ykiy tushni sharhlaymaydi, balki komil musulmon adabiga ko'ra har qanday tushni do'st ko'nglida xayrga yo'yish lozimligini anglab, Bobur Mirzo qalbini uqqan holda:

“–Saodat sohili – Vatanda, olampanoh...” – deya javob beradi (327-b.).

Hofiz Ko'ykiyning javobidan so'ng Bobur Mirzoning ko'zlarida paydo bo'lgan o'kinch ko'lankasidan, oz fursat ichida bir-biriga qalban-ruhan bog'lanib qolgan bu ikki buyuk zotning qattol qismat oldidagi imkonsizliklaridan: “Ufq quyoshni o'z bag'riga dafn etdi. Bulutlarning ko'ksi qonga to'ldi. Olisdagi tog'lar unsiz faryod chekdi” (327-b.).

Bu imkonsizlikka aza tutgan tabiatning faryodiga Xayriddin Sulton faqat ikki kishinigina some' ko'rsatadi, bu zalvarli tasvir esa “...insonning minglab harakatlari, intilish-u istaklari, his-tuyg'ulari, aql-idroki, umuman insoniyatga xos bo'lgan minglab holatlarining eng iztiroblisi va poklanishga xizmat etadigani, tragik odam ulug'vorligini badiiy talqin etishga qaratilgan asar”,³³⁴ degan asosli fikrning haqligini yana bir karra isbotlaydi.

Suvon Meli muallif tragizmini aniqlashda adabiyotshunos M.Baxtinning kashfiyotlariga asoslanishni taklif etadi. U bu borada Baxtinning muallifni ikkiga: “muallif-ijodkor”, “muallif-inson”ga ajratganligini ma'qullar ekan, shunday yozadi: “So'z yuritilayotgan muallif tragizmi, avvalo, mustaqil hayot kechirayotgan “muallif-ijodkor”ga tegishli va buni asarning yaralish jarayoni, o'sha payt – lahza ruhidan allaqachon chiqib ketgan va hayotning boshqa hissiyotlari ichida yashayotgan (bu tabiiy, albatta) inson, aynan yozuvchiga ...eltib

³³³ Eshonqul, J. Tushning semantik talqini //O'zbek tili va adabiyoti. – T.: O'Z FA “Fan” nashriyoti. 2005. № 32-33.

³³⁴ Jo'raqulov U. Nazariy poetika masalalari. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2015. – B. 121.

bog‘lash unchalik to‘g‘ri emas... Muallif tragizmi qahramon, ayniqsa, bosh qahramon tragizmiga bog‘liq”³³⁵.

“Saodat sohili”da Hofiz Ko‘ykiy bilan suhbatlarning birida Bobur Mirzo Movarounnahrda bosh olib chiqib Kobul sari ketayotganda Obuburdon qishlog‘ida, chashma bo‘yidagi toshga Sa‘diyning baytini yozdirganini aytadi.

Muallif – Xayriddin Sultonni hayratga solgan jihat bu Haq So‘zning umrboqiyliigi. Sa‘diy qalamidan to‘kilib, Bobur Mirzoning qalbiga ko‘chgan, uni toshga o‘ydirib, avlodlarga bezavol yetkazishga harakat qilgani, uch asr o‘tib bu baytga rusning buyuk shoiri Pushkinning nazari tushib, ijodida unga murojaat qilgani Haq So‘zning cheksiz qudratini ko‘rsatadi.

Xayriddin Sultonni insonning umri mohiyati, tiriklik falsafasini anglash o‘laroq yaralgan bu so‘z turli asrlarda yashagan, mutlaqo har xil til, mazhab, millat vakillari bo‘lgan uch buyuk dahoning ko‘nglini, qalbini birdek maftun eta olgani hayajonga soladi:

Bu kun bu chashma labida biz zavq-u safoga to‘lib o‘tiribmiz.

Bizdan avval o‘tganlarning barchasi ketdi.

Bundan keyin kelguvchilarning ham barchasi ketajak.

Bizning ham azaliy qismatimiz shu (321-b.).

Bizning – umuman insoniyatning azaliy qismati ketish, o‘limdir.

Muallif tragizmi shu asnoda yuzaga qalqib chiqadi. Xo‘sh, azaliy qismatning bu hukmiga qanday dosh berish mumkin?! Javob ham mavjuddek: So‘z bilan. “Faqat qachondir, qaydadir o‘rtangan yurakning o‘rtangan tili bilan bir haq so‘z ayta olgan bo‘lsak, yolg‘iz shu so‘zgina zamonlar suroniga bo‘y bermay, asrlar osha, millatlar, til va mazhablar osha haqqa tashna, o‘rtangan bir yurakka yetib bormog‘i ehtimol...”

Muallif yana o‘rtanadi:

Qayda u o‘sha O‘lmas so‘z?”Darhaqiqat, o‘lmaslikni istagan o‘sha o‘lmas so‘zni topmog‘i va unda yashab qolmog‘i mumkin, xuddi Bobur Mirzoning “Boburnoma”si kabi, axir bejiz qissada Xayriddin Sulton Hofiz Ko‘ykiyga

³³⁵ Meli S. So‘z-u so‘z. “Adabiyot falsafasi”ga chizgilar. – T.: Sharq, 2020. – B. 55.

muallifning Andijon bilan bog‘liq xotiralarini o‘qitmaydi-da. Xayriddin Sulton nazdida o‘lmas so‘z xuddi Vatan kabi, unda abadiy yashab qolmog‘i mumkin ijodkor.

“Davr – zamon, voqealar, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy, mafkuraviy jarayonlarni ifodalaydigan vaqt oralig‘ini anglatadigan tushuncha. U ma’naviyat tarixida jamiyatning ma’naviy taraqqiyoti bosqichlarining turli davrlarini (masalan: mustamlakalik, mutelik, mustaqillik, hurfikrlilik va h.k.) bildiradi. Davr bir tomondan, vaqt bilan bog‘liq ijtimoiy-tarixiy zamonni anglatrsa, ikkinchi tomondan, insoniyat va shaxs faoliyati bilan bog‘liq ijtimoiy jarayonni ifodalaydi”³³⁶.

Qissa 80-yillarning boshi bilan yaratilgan. E’tibor qaratsak, asarda shu davrda nafaqat yurtimiz, balki umumbashariy miqyosdagi muammolarga ham munosabat bor.

Bosh qahramon Bobur Mirzoning: “Olmaning sarxilini qurt yermish. Yurt buzg‘unchi, badfe‘l, boyqush shohlarga qoldi u viloyatlar... Alarning aqli boshidagi tojidan hargiz tashqariga chiqmag‘ay, yo‘qsa, birining etini biri yeb, yurtini g‘animga berarmidi?” – degan Bobur Mirzoning bu so‘zlarida (325-b.) yaqin o‘tmishning – XIX asrning ikkinchi yarmi, XX asr tongidan tortib to mustaqillikka erishguncha bo‘lgan davrda yurtimiz boshida kechgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy jarayonlar ko‘z oldimizga keladi. *Sarxil olmadek* har jabhada markazga yem bo‘lgan yurt, *aqli boshidagi tojidan hargiz tashqariga chiqmagan rahbarlar* tufayli markazdan chaqirilgan kadrlarning “xolis” xizmati evaziga “boqimanda” nomini olish, mutelik, qaramlik, hatto bitta jurnalni tashkil etish uchun ham markazga mo‘ltirash – go‘yo Bobur Mirzo olis o‘tmishda turib kelajak taloto‘mlarini aniq bashorat qilgandek, davr fojialarining ildizini bexato ko‘rsatgandek asarda.

Kichik qissa o‘z bag‘riga davrning global tragizmi – urushning odamkushlik mohiyati tasvirini ham jo etgan. Xususan, Bobur Mirzoning Chandara chopqini haqidagi xotiralari: “Ul qattol bir jang edikim, to‘kilgan qon daryo bo‘lib, murdalar

³³⁶ Ma’naviyat asosiy tushunchalar lug‘ati. – T.: O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyati, 2021. – B. 131.

esa o‘shal daryoda xas-cho‘p bo‘lib oqqan edilar”, deya vijdon azobida iztirob chekishi, urushda dushmanga asir tushmaslik uchun o‘z safdoshlarining qilichiga ixtiyoriy boshini tutib berib halok bo‘lgan o‘n besh hind bahodiri, Balodarada isyon ko‘targan xalqqa yoppasiga qatliom uyushtirilishi, Bobur Mirzoning siylovi – isfahoniy qilichni ko‘tarib jangga kirgan, bor-yo‘g‘i 18 yoshdagi yuzboshi yigit Malik Xojaning juvonmarg ketishi – bularning barcha-barchasi so‘ngsiz urushlardan to‘ymagan, qon to‘kishni yashash tarzi, odat tusiga kirgizib olgan “Hazrati Inson”ning a‘moli va amali ekanligi afsus-nadomat ila qissada talqin etilgan. Insoniyatni o‘z domiga tortgan davrning bu global tragizmi bugun ham turli bahonalar bilan urush olovini alangalatib taftida isinayotgan, manfaat topayotganlarga nisbatan qat’iy ayblov.

Qissada Bobur Mirzo tilidan aytilgan haq gap nihoyasiz urushning sabab va oqibatini ko‘rsatib qo‘yibdi: “G‘alat so‘ylaysiz, amir Do‘ldoy. Mamlakatdorlikda har bir ishning o‘z mavridi bordir. Siz bu yurtda bugun bir boshni uzsangiz, erta sizga qarshi ikkisi bosh ko‘rsatadi...” (329-b.)

Qissaning aynan shu joyida ibrat sifatida bosh qahramon tarafidan eslanadigan Amir Temurning: “Muruvvat va mardi peshi xoliq va xaloyiq mahmud ast” (Insonparvarlik va mardlikni Olloh ham, xalq ham ulug‘laydi) hikmati qissada aks etgan davr tragizmi mohiyatiga xizmat qilishi bilan birgalikda tarixiy shaxs shoh va shoir Bobur Mirzoning ijtimoiy va insoniy qiyofasini ham ochib berolgan.

Fasl boshida badiiy tragizmning adabiyotshunos Suvon Meli tarafidan taklif etilgan tasnifiga *tragik idrokni* ham qo‘shish haqidagi fikrimizning o‘z nazariy asosi bor.

“Adabiyotshunoslik lug‘ati”da shunday deyiladi: “Badiiylik subyekt-obyekt-adresat butunligidagina namoyon bo‘lar ekan, pafos tushunchasi badiiylikning faqat bir qirrasigina sanalishi mumkin. Masalan, tragiklik faqat g‘oyaviy-hissiy munosabat yoki muallif emotsionalligi bo‘libgina qolmay, o‘z navbatida, qahramonni tipiklashtirishning o‘ziga xos ko‘rinishi hamdir. Shu bilan birga,

tragiklik kitobxonda tragizmiga xos katarsisni talab qiladi, kitobxonda tragik katarsis sodir bo‘lsagina, badiiylik ro‘yobga chiqqan deb hisoblash mumkin”³³⁷.

Arastu muallifligidagi katarsis tushunchasi qahramon his-tuyg‘ularini qalbda qayta kechirish, darddoshlik, qalbdoshlik, ruhan poklanishdir. Kitobxonda bu jarayon asar badiiy tragizmini to‘liq anglab yetgandagina sodir bo‘ladi. Buning uchun kitobxonning o‘ziga ham ma’lum bir intellektual tayyorgarlik, estetik did, saviya va albatta, yurak kerak bo‘ladi. Shu o‘rinda qissaga murojaat qilsak:

–Yaxshi kitob – kishi ruhining jon ozig‘i, – dedi Hofiz Ko‘ykiy...

–Har qanday kishining ham emas, – deya birdan e’tiroz bildirdi Bobur.

–Albatta, olampanoh. Lekin yaxshi kitobni o‘qigan kishiga ham yaxshilik sharofati yuqmog‘i shubhasizdir.

–O‘qiganga yuqmaydir, mavlono! – Bobur Mirzoning qaysar qoshlari mardona chimirildi. – Uqqanga yuqadir.

–Haq so‘z, olampanoh” (315-b.)

Asar mohiyatini, xususan, badiiy tragizm mohiyatini aql va yurak uyg‘unligida uqish mumkin. Jarayonda ularning bittasining bo‘lmasligi badiiy effektini yo‘qqa chiqaradi. Fikrimizga qissadan misol keltiramiz. Bobur Mirzoning tushi tafsilotida shunday o‘rinlar bor: “...Suv betini yupqa muz bosgan. Qo‘limda aso, muz uzra shitob ila qaygadir yelib yuguraman. Har qadam qo‘yganimda oyog‘im ostida muz qirs-qirs ushalar... Na dengizning poyoni bor, na yo‘limning...” (326-b.)

Zukko kitobxon muz ustida, yana yupqa muz ustida yurgan Bobur Mirzo qo‘lidagi aso – badiiy detalga, albatta, e’tibor bermog‘i lozim bo‘ladi. Buning uchun kitobxon asarning oldingi sahifalarini o‘qiganda olgan badiiy informatsiyalarni tizimli yodda saqlash, o‘rni kelganda, aql bilan mag‘zini chaqishi lozim.

Hofiz Ko‘ykiyning: “–Saodat sohili – Vatanda, olampanoh...” – degan javobidan so‘ng Bobur Mirzoning g‘amgin ko‘zlaridagi o‘kinch ko‘lankasining anduhini his qilishi uchun yoki bu muazzam anduhning, davosi yo‘q dardning

³³⁷ Quronov D. va boshq. Adabiyotshunoslik lug‘ati. –T.: Akademnashr, 2010. – B. 58.

Xayriddin Sultonning mohir qalamidan to‘kilgan tragik talqinining mohiyatiga yetmoqlik, uni o‘zligidan o‘tkazmoq uchun yurak, yoniq yurak kerak bo‘ladi: “Ufq quyoshni o‘z bag‘riga dafn etdi. Bulutlarning ko‘ksi qonga to‘ldi. Olisdagi tog‘lar faryod chekdi...” (327-b.)

Nemis yozuvchisi Herman Hesse: “...mutafakkir yoki adib ijodining mag‘zini chaqish – bu insonning o‘zligini namoyon etishdir, qalashib yotgan o‘lik ma’lumotlarga daxldor bo‘lishdan emas, balki jonli ong va ruhga hamnafas bo‘lishdan tug‘iladigan masrurlik tuyg‘usidir”³³⁸, – deydi. Demak, jonli ong va ruh birlashgan joyda “Saodat sohili” qissasidagi badiiy tragizmni idrok etish mumkin.

4.3. “Saodat sohili”da tragik qahramon – Bobur Mirzo ruhoniya­ting inkishofi

Bobur Mirzo kelajak avlod hali o‘ziga ko‘p bora murojaat qilishini, beqiyos ma’naviyat mulkiga ehtiyoj sezishini bashorat etib, unga borar yo‘lni, uni anglash, inkishof etish manzilini ham aniq ko‘rsatib qo‘yibdi:

Har vaqtgi ko‘rgasen mening so‘zumni,
So‘zumni o‘qub, anglag‘aysen o‘zumni³³⁹.

Chin insonlik mohiyatini rost so‘zda deb bilgan Bobur Mirzo ko‘z taassurotini ko‘ngilga, ko‘ngil tebranishini so‘zga muhrlay olgan tengsiz san’atkordir.

Bobur Mirzoning so‘zida uning o‘zligini, xos dunyosini o‘qishga, anglashga harakat qilgan Xayriddin Sulton shu anglamlarni o‘z navbatida kitobxonga yetkazishni maqsad qiladi. Bu jarayonda esa boburona so‘z latofatini avaylashga, ulardagi cho‘g‘ning haroratini o‘chirib qo‘ymaslikka, ifodada Bobur Mirzo qalb tebranishlarini mohirlik bilan ko‘rsatishga chog‘lanadi.

“Saodat sohili”da istifoda etilgan “besh kunlik gunohkor umr” iborasi yozuvchining shunchaki badiiy topilmasi emas, balki bu ibora Bobur Mirzoning hayotiy qarashlari, umr falsafasining talqinidir. Fikrimizning isboti tariqasida

³³⁸ Herman H. Jahon adabiyoti kutubxonasi. Sharafiddinov, Ozod: Olamning qalbi yoxud kitob mening taqdirimda. – T.: Ma’naviyat, 2012. – B. 219.

³³⁹ Bobur Zahiriddin Muhammad. Devon. – T.: Fan, 1994. – B. 102.

“Boburnoma”ga murojaat qilamiz. 1494-1495-yillar voqealari bayonida Sulton Mahmud Mirzoning amiri Xisravshoh haqida Bobur Mirzo nadomat bilan shunday yozadi: “...befahm va bevafo va haromnamak kishi edi. Besh kun o‘tar dunyo uchun bir o‘zi o‘sturg‘on valine‘matzodasini ko‘r qildi. Yana birini o‘lturdi. Tengri qoshida osiy va xalq oldida mardud bo‘libdur. Domani qiyomatgacha la‘nat va nafrin sazovori bo‘ldi. Bu o‘tar dunyo uchun mundoq yamon ishlar qildi”³⁴⁰.

Keltirilgan misol orqali toj-u taxt ilinjida nafsining quliga aylangan Xisravshohning manfur qiyofasini Bobur Mirzoning nazari, nigohidan o‘tkazib kuzatar ekanmiz, ayni paytda uning o‘zining insoniy siyrati, yashash mezonlari, hayotiy o‘lchamlari yaqqol ko‘zga tashlanadi.

“Saodat sohili”da Xayriddin Sulton nafs, kibr, munofiqlikni insoniy kamolotning zalolati, “Tengri qoshida osiy” qolishning sababi deb bilgan Bobur Mirzoning botiniy dunyosini o‘quvchiga yorqinroq ko‘rsatish uchun Alisher Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat” asaridan foydalanadi.

Adabiyotshunos Bahodir Karim “...ijodkorning badiiy niyati ijrosi uchun gohida mashhur kitoblarning vosita bo‘lishi jahon adabiyoti tarixida mavjud voqelikdir. Masalan, I. V. Gyote “Yosh Verterning iztiroblari” asarida o‘zining yaxlit bir badiiy-ijtimoiy g‘oyasini G. E. Lessingning “Emiliya Galotti” tragediyasi vositasida ifoda etadi”³⁴¹, – deb yozadi. Milliy nasrimizda ham Abdulla Qodiriy o‘z qahramonlarining botiniy dunyosini to‘laqonli, jozibali talqin etishda mashhur kitoblardan, jumladan, “Boburnoma”dan ham badiiy vosita o‘laroq foydalangani ma’lum.

Vatandan olib kelingan hadya sifatida Bobur Mirzoga topshirilgan “Nasoyim ul-muhabbat” kitobiga yuklangan badiiy ma’no polifunksional xarakterga ega, uni ilg‘ab olish, xulosa chiqarish kitobxonning badiiy zavqiga, estetik didiga bog‘liq. Ammo birinchi navbatda “Nasoyim ul-muhabbat” mutolaasiga berilgan Bobur Mirzo obrazida o‘quvchi ko‘z o‘ngida naqshbandiya tariqati qon-qoniga singib ketgan, shayxlar, avliyolar, valiylarni insoniyatning asl,

³⁴⁰ Bobur Zahiriddin Muhammad. Boburnoma. – T.: Yangi asr avlodi, 2015. – B. 51.

³⁴¹ Karim B. Qodiriy nasri – nafosat qasri. – T.: O‘zbekiston, 2014. – B. 34.

donishmand, sohibkamol rahbarlari, ruhoniy murabbiylari deb bilgan, Oллоh aziz va mukarram etgan bu bandalarining hayot yo‘lini, tamoyillarini ibrat sifatida qabul qilgan holda tinmay o‘z a‘moli va amalini taftish etib borgan, bir umr xalq va Haq rizosiga erishish uchun harakat qilgan – buni insoniy komillikning sharti deb bilgan Bobur Mirzoning orif va ma‘ruf siymosini ko‘ramiz.

“Komil xilqat bo‘lgan inson barcha narsada takomilni, yetuk muntazamlik va muzayyanlikni ko‘rmoqchi bo‘ladi. Uning oliy orzusi – olamni ham, o‘zini ham nuqsonlardan xalos etish”³⁴², – deb yozadi adabiyotshunos olim Najmiddin Komilov.

Nuqsonsiz odam, mukammal olam – bu oliy idealga yetishish dushvor, ammo undan inson ko‘ngil uzib, yuz o‘girib ketolmasligini ham anglab “Muttasil ravishda o‘z xatti-harakati, aytgan so‘zlarini tahlil qilgan, o‘zini mudom chig‘iriqdan o‘tkazib turgan Bobur arzimagan nojo‘ya xatti-harakati, kichik bir ayb-u xatosi uchun ham o‘zini kechirmagan... Qisqa umrida ulug‘ ishlarni qilib ulgurganiga qaramay, o‘z faoliyatidan sira qoniqmay umrining behuda, besamar o‘tgan yillari uchun o‘zini yozg‘irib...”³⁴³ iztirob chekkan.

Bobur Mirzoning ana shunday ruhoniy onlarini yozuvchi qissada ta’sirchan tasvirlaydi: “Bog‘ etagida, azim shamshod va dafna daraxtlari orasida qad ko‘targan muazzam toqi ravoqda Bobur yolg‘iz o‘tirar edi. Umrining so‘nggi yillarida u saroydagi xushchaqchaq suron bilan to‘la bazm-u tomoshalardan sovigan, jon olg‘uvchi hind raqqosalarining sitamkor ishvalari ham, bulbuligo‘yo shoirlarning shon-shuhrat ko‘yida o‘rtanib aytguvchi dilrabo baytlari ham endi ko‘ngliga zavq bag‘ishlamas edi. U ko‘p vaqtini ko‘zdan yiroq, xilvat shu toqi ravoqda tanho o‘tkazar... Bunday paytlarda Bog‘i Nurafshonga teran sukunat cho‘kar, olampanohning dardmand, miskin kayfiyatini sezgan saroy ahli, mulozimlar un chiqarmaslikka tirishar edilar” (324-b.)

Tasavvuf olamida “Ibodatlarda ichida qalb o‘ylarini isloh qilmoqlikdan ko‘ra manfaatliroq ibodat yo‘qdir”³⁴⁴, – deyiladi. Bog‘i Nurafshon tuning teran

³⁴² Komilov N. Xizr chashmasi. – T.: Ma’naviyat, 2005. – B. 38.

³⁴³ Ochilov E. Zahiriddin Muhammad Bobur. – T.: O‘zbekiston, 2012. – B. 72.

³⁴⁴ Homidiy H. Tasavvuf. Qaraniydan RumiYGacha. – T.: Yangi asr avlodi, 2021. – B. 72.

sukunati qa'rida qalb o'ylari islohiga tutingan Bobur Mirzoning Ruh g'amida chekayotgan iztiroblari o'quvchiga uning quyidagi ruboiysini eslatadi:

Ruhum yaratib eding latofat birla,
Qilding anga tanni hamroh ofat birla,
Ruhumni chu tan uyiga kelturding pok,
Mundin bori eltma kasofat birla³⁴⁵.

Munojot va iltijo ohangidagi bu ruboiy tiriklik – tan uyining tashvishlariga chalg'ib ruh kamolotidan chekinib qolgan, besh kunlik dunyoning foniyligi, Olohning abadiy va azaliyligi-yu imtihonining barhaqligini yod etib turgan Bobur Mirzoning qissadagi tragik portreti: miskin va dardmand qiyofasini ochiqلاغandek bo'ladi.

Qissa badiiy konsepsiyasi asosan Bobur Mirzo va Hofiz Ko'ykiyning odam va olam haqidagi falsafiy, ma'naviy, diniy va dunyoviy suhbatlari mag'zida ochiladi. Zukko kitobxon bu suhbatlarning barchasi oqshom payti kechayotganiga e'tibor qaratishi tabiiy. Hatto yozuvchi "oqshom"ga yuklangan badiiy ma'noning salmog'ini urg'ulash maqsadida bir safar Bobur Mirzo Hofiz Ko'ykiyni ertalab yo'qlayotgani xabarini eshitganida uning xayolidan o'tgan o'yni shunday keltiradi: "Bobur uni shu paytgacha hali biron marta ertalab yo'qlamagan – oqshomlarigina suhbatga chorlar edi" (330-b.).

Ruhoniy suhbatlar uchun oqshom, tun pallasidan ham halovatliroq onlar bo'lmasligini muallif to'g'ri ta'kidlaydi, qolaversa, "Tun – ma'naviy jang hamda taqvodorlar uchun duolar fursati"³⁴⁶.

Oqshom... Yor yuziga tun o'zining qora pardasini yoygan palla. Bu parda nafaqat yer yuzini qoplaydi, balki aql-u tafakkuri, iymon-e'tiqodi mos tushgan, ruhan tutash, qalban yaqin, biri-biriga ma'nau ehtiyojmand ikki insonni zaminiy, nafsoniy tashvishlar bag'ridan ajratib olib yuzma-yuz tillashish, dillashish fursatini yaratadi. Ayrim lahzalarda esa bir-birlarini unutib, o'z ko'ngillari bilan yolg'iz qolish imkonini beradi.

³⁴⁵ Bobur Zahiriddin Muhammad. Devon. – T.: Fan, 1994. – B. 93.

³⁴⁶ Mingboeva D. Timsollar tilsimi. – T.: Adabiyot, 2022. – B. 142.

Bobur Mirzo o‘zi aytganidek:

Sanga ko‘nglimdagin dedim, ey yor,

Emdi sendin javob umidim bor³⁴⁷.

Ko‘nglidagini deb, ko‘ngildan javob kutgan ikki buyuk suhbatdosh obrazini qissada yozuvchi o‘ziga xos sirli, ayni paytda muzayyan yaratadi. E’tirof etish kerakki, qissadagi ayni shu lahzalarning tasviridagi shoirlik, latiflik, mahzunlik suhbatdoshlar ko‘ngildan ko‘chib, kitobxonga ham yuqadi.

— ...olampanoh, bu kun oqshom g‘oyat latif...

— Ha-ha... – Bobur bosh irg‘adi. – Latif, latif.

Xiyla vaqt *so‘zsiz-sadosiz qoldilar*. Quyosh bog‘ ortida jimirlab oqayotgan Jamna suviga zar kokillarini yuvmoqda edi. Nihoyat, *Bobur intihosizdek tuyulgan jimlikni buzdi*:

— O‘shning oqshomlari ham ko‘p so‘lim, tarovatli bo‘lur, – dedi.

Hofiz Ko‘ykiy bosh irg‘adi.

— Bu olamda men kezmagan yurt kam qoldi – deb davom etdi Bobur o‘ychan ohangda. – Ne-ne go‘zal maskanlarni zabt etmadim. Lekin hech qayda O‘shdek latofatlig‘ bir viloyatni ko‘rmadim...

U xayolga cho‘mgancha *tag‘in jim qoldi*(325-b.)

Suhbat asnosida Bobur Mirzoning tez-tez jim qolishi, o‘rtaga cho‘kayotgan sukunat nimaga ishora? Bu qanday jimlik? Uni jimlik deb bo‘ladimi o‘zi?

Jimlik tili so‘zdan tiyilgan, qalbi isloh bilan band insonning ruhoniy holati. Aslida, bu tasvirda o‘zlikni anglashning olis manzil-marohillaridan o‘tib, umr mazmuni-yu tiriklik mohiyatining tubiga yetgan, olamning ruhoniyyat dunyosiga borlig‘i bilan singib ketgan, zohiran tun bag‘ridagi teran sukunatga some’, ammo qalbidagi iztirob bo‘ronlarini bosish, armon og‘riqlarini yengish uchun o‘z a‘mol va amallar bisotini beayov taftish qilayotgan Bobur Mirzoning miskin qiyofasi uning botiniy bedorligiga kontrast chizilgan.

Adabiyotshunos Ergash Ochil aytganidek, “Barcha buyuk zotlar o‘zlariga nisbatan xuddi shunday shafqatsiz bo‘lishgan. Zero, o‘z-o‘zi bilan kurashmoq

³⁴⁷ Bobur Zahiriddin Muhammad. Devon. – T.: Fan, 1994. – B. 116.

insoniy kamolot yo‘li...”³⁴⁸dir. Qissada O‘sh oqshomining latifligini eslash bilan uyg‘ongan xotira epkini Bobur Mirzoning yugurik xayolini o‘ttiz yillar ortga Vatanda qolgan Baroqko‘h tog‘lari tomon yetakladi.

— U yerda bir ustuvor tog‘ bor. Baroqko‘h derlar. Men O‘shni olganimda – tarix to‘qqiz yuz ikkida Tangri taolo inoyati bilan ushbu tog‘ning tumshug‘ida bir ayvonliq hujra soldim... Tamom shahar va mahallot oyoq ostida edi. Hanuz o‘sha hujra ko‘z o‘ngimdan ketmaydur. Ayniqsa shu kunlar... Qani edi, inon-ixtiyorim o‘zimda bo‘lsa-yu besh kunlik gunohkor umrning qolganini o‘sha hujrada o‘tkarsam!” deya tuyqusdan shivirladi Bobur (325-b.).

Qissada Bobur Mirzo ta‘kidlagan “ayniqsa shu kunlar” izohi boburshunos olim Hasan Qudratullayev fikrlarida oydinlashadi: “Vafotidan ikki yil oldin Bobur umr karvoni manzilga yetayotganini ma‘lum darajada anglaganga o‘xshaydi. U ayniqsa 1527-1528-yil voqealarida tez-tez farzandlariga vasiyatnoma nasihatlar qiladi, mulklarini zurriyotlari va yaqinlariga taqsimlab, o‘zining bosh vorisi sifatida Humoyunga ko‘p maktub va farmonnamo yozishmalar jo‘natadi”³⁴⁹.

Demak, Bobur Mirzo din va dunyo ishlaridan xabardor, o‘zi va o‘zgalar holidan ogoh, hushyor inson sifatida qazo-yu qadar hukmiga tayyor turgan. Aynan o‘sha paytdagi Bobur Mirzoning ruhoniy holati, qalb kechinmalarini Xayriddin Sulton “Saodat sohili”da ishonarli badiiy ifoda eta olgan.

Hofiz Ko‘ykiy bilan suhbatda Bobur Mirzoning komil musulmonga xos sifatlari ochiladi. Dunyo o‘tkinchi. Bobur Mirzo nazarida neki o‘tkinchi, u qimmatga ega emas. Bobur Mirzo lirikasidagi ayrim o‘zini o‘zi malomat va mazzamat etish ruhidagi asarlarning mohiyatidan xabardor o‘quvchi qissa muallifining Bobur Mirzo nutqida qo‘llagan gunohkor umr ta‘rifini ham ishtibohsiz qabul qiladi. Shu asnoda ruhoniy halovatga erishish uchun barcha nafsoniy qutqulardan yuz o‘girib, shohlik martabasi-yu mamlakatdorlik dabdabasini birgina hujraga almashishga tayyor Bobur Mirzo obrazida Xayriddin

³⁴⁸ Ochilov E. Zahiriddin Muhammad Bobur. – T.: O‘zbekiston, 2012. – B. 72.

³⁴⁹ Qudratullayev H. Boburning adabiy-estetik olami. – T.: Ma‘naviyat, 2018. – B. 225.

Sulton hindlar e'tirof etgan qalandar podshoh himmatini, komil inson ma'rifatini, g'urbatdagi g'arib iztiroblarini jamlay olgan.

Qolgan “besh kunlik gunohkor umrni” Vatanda Baroqko'hdagi hujrada o'tkazish ilinji hajr va davron ishlaridan bezib, umr shomi qarshisida mahtal turgan g'amzada qalb – Bobur Mirzoning ushalmas orzusi, imkonsiz tanlovi ediki, bekorga ham yozuvchi bu ilinjning izhoriga armon, o'kinch, iltijo va ishonchsizlik ohanglarini qorishtirmagan. Qissaning aynan shu o'rnida Ollohning bahr-u inoyatidan umidvor, xalq va Haq rizosi uchun bir umr harakatda yashagan bu dilovar insonning haqli e'tirofi yodingizga tushadi: “Keldim bu sori o'z ixtiyorim birla, Lekin borurimda ixtiyorim yo'qtur”. Darhaqiqat, taqdir hukmi va tarix tanlovi shunday. Bobur Mirzo esa uni mardonavor qabul qilgan. Bobur Mirzo shaxsining fojeligini ham, ulug'vorligini ham shu joyda ko'rinadi.

XX asrning mashhur mutafakkirlaridan biri Erix Fromm: “...axloqiy, falsafiy, siyosiy, psixologik yoki ijtimoiy muammolarni idrok etish fikrlovchi kishining psixik strukturasi ta'siri orqali shakllanadi. Muhabbat, adolat, tinchlik, o'z jonini fido qilish singari har bir shunday tushuncha, har bir doktrina individning xarakter tuzilishi tomonidan belgilanadigan emotsional asosni o'zida mujassamlashtiradi... Masalan: jasorat tashqi kuchlarga qarshi o'z individualligini qaror toptirish emas, balki bo'ysunishga tayyor turishini, iztiroblarga chidashni anglatadi”³⁵⁰, – deydi.

Shu fikrga suyangan holda aytish mumkinki, “Olamning qariyb yarmini qilich bilan, yarmini qalam bilan zabt etgan, bir og'iz kalomiga ming-minglab odamlarni muntazir itoatda tutgan, hamisha sha'n-u shavkat og'ushida muzaffar yashagan” (339-b.) Bobur Mirzo jasorati jang maydonlarida qarshi kuchlarga qahramonlarcha turib berishdama, balki ruhoni zarofat, yorqin, jozibador xarakter sohibi o'laroq o'rni kelganda bo'ysunishni ham bilishida, itoat yo'lini tuta olishida g'am-iztirob yukini matonat va sabr bilan ko'tarishida ham ko'rinadi.

³⁵⁰ Fromm E. Ozodlikdan qochish. – T.: Yangi asr avlodi, 2021. – B. 289.

“Saodat sohili”da Bobur Mirzo jasoratining ana shu keyingi – ikkinchi qirrasining talqini asar konsepsiyasining o‘zagini tashkil etadi. Qissa so‘ngida bemor to‘shagida yotgan Bobur Mirzoning Hofiz Ko‘ykiyga o‘qib bergan:

Yo qahr-u g‘azab birla meni tufroq qil,

Yo bahr-u inoyatingda mustag‘roq qil.

Yo rab, sengadur yuzim – qaro, xoh oq qil

Har nav sening rizong erur, andoq qil (338-b.) –

ruboiysi “...suronli umri so‘nggi manzil sari borayotgan ulkan muztarib qalbning kelgusi nasllar oldida berajak iztirobli hisobi, davron hukmi qarshisidagi ma’yus o‘tinchi, Olloh huzuridagi tazarrusi” (339-b.) esa-da, lekin unda ayni paytda boburona jasoratning ikkinchi qirradi: ilohiy qudratga cheksiz ishonch, hukmiga itoat, adolatiga bo‘ysunish, rizosi va inoyatiga talab kabi iymon tuyg‘ularining mardona ifodasi ham seziladi.

E’tirof etish kerakki, Xayriddin Sulton bosh qahramon ruhoniyligi, ma’rifati, tafakkuri oziqlangan ildizlarni ko‘rsatishda, insoniy mohiyatini ochishda, anglash va anglatishda Bobur Mirzoning o‘ziga, uning so‘ziga asar yakunida o‘rinli murojaat qilishi qissaning g‘oyaviy-badiiy ko‘rkamligini oshirgan. Muhimi, Bobur Mirzo tilidan aytilgan “besh kunlik gunohkor umr” iqrori bilan “Yo qahr-u g‘azab birla meni tufroq qil” tazarru ruhidagi ruboiysining mazmunan ichki aloqadorligi bosh qahramon obrazining hissiy tonalligini oshirish bilan birga asarning fojeiy ruhini ham quvvatlantirgan.

Bobur Mirzo tilidan aytilgan “dard bor, darmon yo‘q” iqrori ham bosh qahramon jismoniy-ruhiy holati haqida o‘quvchida tragik tasavvur uyg‘otadigan muxtasar, ammo assotsiativ fikrlashga undaydigan badiiy axborotdir. Boshiga yog‘ilgan qayg‘u-alamga, yelkasiga tushgan dard yukining zalvariga chidamay dod solib, faryod chekayotgan kishiga qarab Robiya Adaviya: “Sen qayg‘usizlikdan dod degin”³⁵¹, – deya asl haqiqatga ishora qilgan ekan.

Dard, g‘am, qayg‘u, hajr, ozor, mehnat, g‘urbat – bular Bobur Mirzo ko‘nglining doimiy hamrohlari Bobur Mirzo ko‘nglini ulg‘aytirgan, tozartirgan,

³⁵¹ Homidiy H. Tasavvuf. Qaraniydan Rumiya gacha. – T.: Yangi asr avlodi, 2021. – B. 62.

Haq va haqiqatga yaqin etgan bu tuyg‘ularning moddiylashgan tasvirni shoirning ruboiylarida goh habibga, goh yorga, goh do‘stga dil izhori, hasrat, gina ohanglarida yuzaga chiqqanini ko‘ramiz.

Mashhur bir g‘azalida “Ko‘nglumdin o‘zga mahrami asror topmadim”, – deya hasratlangan Bobur Mirzo go‘yoki ummon oldida tomog‘i qaqrab yurgan inson kabi. Yon-atrofida uning bir og‘iz so‘ziga, bir ishorasiga tayyor turgan son-sanoqsiz mulozimlari, beklari, ahli haram, farzandlari, yaqinlari. Ammo ularning barchasi Bobur Mirzoning ko‘z oldida, ko‘ngliga esa yo‘l topa olmaganlar, ko‘zdan ko‘ngilga o‘ta olmaganlar. Shuning uchun ham “Ko‘nglim kibi ko‘ngilni giriftor topmadim” deya nadomat chekadi shoir.

Mavlono Oybek o‘zining “Bobur” dostonida Bobur Mirzo ko‘nglini rost ta’riflagan:

Yuzi munavvar, o‘tkir aql, dil,
Bobur hisga boy, azimdir ko‘ngil.

E’tirof etish kerakki, bu aslida Bobur Mirzo fenomenini belgilaydigan ta’rif. O‘tkir aql, nozik dil, zarif tuyg‘ular, iztirob va armonlar makon etgan bu ko‘ngil darchalarini ochmoq, uni anglamoq, tushunmoq, bu azim ko‘ngil ko‘tarib yurgan zalvarli yukka yelka tutmoq uncha-muncha odamning qo‘lidan kelmagan ekan bunda ularni ayblab bo‘lmasligini ham tan olishimiz zarur.

Bobur Mirzo bir sodiq do‘st, dildosh habib ilinjidagi ko‘ngil xohishlarini o‘z ruboiysida shunday izhor qiladi:

Jismimda isitma tobidin otashdur,
Jonimg‘a balo-u g‘ussa bebarkashdur.
Ko‘p dard ila g‘amdin manga noxushluq edi,
Sen so‘rg‘ali, ey habib, ko‘nglim xushdur³⁵².

Jismi darddan, isitma otashidan, ko‘ngli yolg‘izlik g‘amidan bezovta bo‘layotgan shoir habibning so‘rovidan quvonchga to‘ladi, qalbi orom topadi. Balo-yu g‘ussa, dard, g‘am, noxushluq kabi ko‘ngil sifatlariga yuklangan zalvarli

³⁵² Bobur Zahiriddin Muhammad. Kulliyot. 1-jild. Devon. – T.: Zilol buloq, 2021. – B. 295.

ma'no Bobur Mirzoning habibsiz, do'stsiz qolgan ruhiy holatining badiiy ifodasiga xizmat qilgan.

“Boburnoma” – Bobur Mirzoning umr kitobi, she'rlari esa shoir ruhoniya­ting oynasi. Bobur Mirzoning ruhoni­y ko'z­gusida aks etgan ko'ngil istaklarini anglab yetgan Xayriddin Sulton “Saodat sohili”da Hofiz Ko'ykiy obraziga Bobur Mirzo ko'ngliga yo'l topish, juda oz fursatda “mahrami asror” maqomiga erishishdek katta badiiy missiya yuklaydi.

Asardagi voqealar rivojida Hofiz Ko'ykiy deyarli ishtirok etmaydi. Ammo voqeliklar markazida turgan Bobur Mirzoning ma'naviy-ruhoni­y hayoti, umrining so'nggi yillarini yashayotgan shavkatli hukmdorning ko'ngil iztiroblari, Vatan sog'inchida o'rtanishlari, Haq va haqiqat talabidagi istaklari, Bobur Mirzo obrazining ratsional va emotsional jihatlari inkishofida Hofiz Ko'ykiy obrazi muhim o'rin tutadi. O'rni kelganda e'tirof etish kerakki, “Saodat sohili”da yozuvchi epik tasvir bilan his-tuyg'ular tasviri nisbatini har qancha muvozanatda ush­lashga harakat qilmasin, bizning nazarimizda, kechinma va fikrlar oqimi – qahramonlarning qalb olami manzaralari qissa badiiy ma­konini ko'proq ish­g'ol qilgan.

O'quvchi qissa muallifi tomonidan Bobur Mirzoning hasbi holi “dard bor, darmon yo'q”qa yuklatilgan tragik mohiyatning real manzaralariga “Boburnoma”da duch kelsa, boburona nuqtadonlik bilan topib aytilgan bu afsus­nado­mat qatidagi tagma'noga Hofiz Ko'ykiyning aql-u tafakkuri, emotsional-hissiy dunyosi orqali yetadi.

Jismonan baquvvat, irodali, mujassami jasorat, mujassami shijoat Bobur Mirzo ham issiq jon sifatida umri davomida ayrim kasalliklar, janglarda olgan jarohatlari asoratida bezovta, o'zi aytganidek, behuzur bo'lgan. Ammo 1528-yildan boshlab Bobur Mirzo sog'lig'idagi salbiy o'zgarishlar endi uni jiddiy ta'qib qila boshlaganiga guvoh bo'lamiz: “Yakshanba kuni muharram o'n oltisida isittim, titradim, navbat-navbat bo'ldi. Yigirma besh-yigirma olti kunga tortti. Doruyi kor

ichtim. Oxir basit yarashti, uyqusizlig‘ va tashnalig‘din bisyor tashvish torttim”³⁵³, – deb yozadi u “Boburnoma”da. Bir necha sahifadan so‘ng: “Ogina kuni oyning yigirma uchida harorate badanimda zohir bo‘ldi. Andoqkim, jum‘a namozini masjidta tashvish bila o‘tadim”³⁵⁴ degan ma‘lumotni o‘qiymiz.

Bobur Mirzoning suronli hayotining erta so‘nishiga uning o‘zi ko‘p bora ta‘kidlagan Hindistonning noqulay ob-u havosi, ranj-u mashaqqatlarga to‘la hayoti ham sabab, albatta. Bundan tashqari Gulbadan begim “Humoyunnoma”da yana shunday eslaydi: “Tabib va hakimlar jam bo‘lishib dedilarki, bizning toleyimiz kamligi shundaki, doriyi kor ish bermayapti. Umid qilamizki, hazrat Haq subhano g‘ayb xizonasidan ajalga shifo ato qilgay. Shu vaqtda onhazrat tomir urushini ko‘rib tabiblar arz yetkazdilarki, Sulton Ibrohimning onasi bergan zahar alomatidir”³⁵⁵.

Bugungi kunda boburshunoslik va boburnomashunoslik keng tarmoqda rivojlanmoqda. Fikrimizning isboti o‘laroq Bobur Mirzo ixlosmandlari tomonidan katta qiziqish bilan kutib olingan “Boburning kasallik tarixi” nomli monografiyani eslab o‘tmoqchimiz. Tadqiqotning e‘tiborli jihati shundaki, Bobur Mirzo yashagan davr tabiblarining va hozirgi zamonaviy tibbiyot tashxisiga qiyosiy asoslangan holda Bobur Mirzoning kasallik tarixi izchil, chuqur o‘rganilgan.

Monografiyada ta‘kidlanishicha, Bobur Mirzoning o‘limiga asosiy sabab: uning 27 yoshida Kobulda yuqtirib olgan tropik bezgak kasalligining og‘ir asorati bo‘lgan. Keyingi yigirma yil davomida bu xastalik Bobur Mirzoning jism-u joniga o‘rnashib olib, uni vaqti-vaqti bilan goh og‘ir, goh yengil holatlarda bezovta qilib turgan.

Monografiya muallifi oliy toifali kardiolog, tibbiyot fanlari doktori Mirmahmud Mirsaydullayev: “Bu kasallik immun holatlarni pasaytirib, o‘pkaning kichik o‘choqli shikastlariga... o‘pka yetishmovchiligiga, jigar, yurak

³⁵³ Bobur Zahiriddin Muhammad. Boburnoma. – T.: Yangi asr avlodi, 2015. – B. 574.

³⁵⁴ O‘sha manba. – B. 601.

³⁵⁵ Gulbadan begim. Humoyunnoma. – T.: Fan, Ochun, 2022. – B. 29.

yetishmovchiligiga, keyinchalik kamqonlik va holsizlikka olib keladi. Ruhiyatning pasayishi, tushkunlik holatini kuchaytiradi”³⁵⁶, – deb yozadi.

Bobur Mirzoning jism-u jonida, ruhoniyatida kechayotgan bu jarayonning badiiy talqini “Saodat sohili”da Xayriddin Sultonning poetik idrokidan, tafakkuridan oziqlangan holda ta’sirchan, jonli ifoda etilgan:

“Bobur botib borayotgan quyoshdan ko’z uzmay o’tirarkan, bir payt allanarsa yodiga tushgan kabi eshitilar-eshitilmas shivirladi:

–Moli vofir, eli kofir, yo’l yovuq...

Hofiz Ko’ykiy birdan sergak tortib, Boburga yalt etib boqdi.

–Sharq sori gar yiroqdur, ul yovuq, – deya bosh chayqadi Bobur va jimib qoldi.

Hofiz Ko’ykiy lol qolgan edi: karvonsaroy, Baxshiturk, bu sirli bayt... (326-b.)

Xayriddin Sulton – o’z qahramonining ruhoniyatini puxta tahlil qiladigan yozuvchi. Uning badiiy talqinidagi Bobur Mirzo obrazining to’laqonli chiqishining siri, muvaffaqiyati ham shunda. Fikrimizni keyingi mulohazalarim ham oydinlashtiradi, deb o’ylaymiz. “Boburnoma”ning 1528-yil voqealarida Bangola bilan diplomatik aloqalar o’rnatish, ayni paytda qo’shinning moddiy ta’minoti bilan bog’liq masalalar muhokama etiladigan tasvir bor. O’sha jarayonda Bobur Mirzo tomonidan badiha tarzida aytilgan “*Moli vofir, eli kofir, yo’l yovuq, Sharq sori gar yiroqtur, ul yovuq*” bayti qissa muallifining e’tiborini tortadi. Xayriddin Sulton nazarida lashkar ta’minotidagi iqtisodiy masala yechimida Bobur Mirzo tiliga kelgan bu badiha uning ong-u shuurini doimo band qilib turadigan ruhiy sezimlarni, qalb og’riqlarini ijtimoiy muammolar fonida ifodalashga turtki bergan.

Bobur Mirzo savqi tabiiysida hamma vaqt qiyos hissi ustuvor. Shu ustuvorlik bayt mohiyatiga hamingan:

Yiroqni yovuq etadigan ham }
Yovuqni yiroq etadigan ham } **KO’NGIL**

³⁵⁶ Mirsaydullayev M. Boburning kasallik tarixi. – T.: MUMTOZ SO’Z, 2013. – B. 139.

Demak, ko‘ngil qaysi tarafga moyil bo‘lsa, qaysi tarafga intilsa, ehtiyojmand bo‘lsa, yo‘lning yiroqligi hech, muhimi: ko‘ngilga yetmoqlik yo‘li topilsa bo‘ldi. Zero shoirning mana bu so‘zlarida Bobur Mirzo ko‘nglining surati namoyondek:

Sen – falaksan, kezgani mohlar kerak,
Oy kabi to‘lmak uchun rohlar kerak,
Garchi yo‘lsan – yetgani ohlar kerak,
Gohi erk, goh uchgani chohlar kerak,
Gohi erk, gohi chohdakim bunyod ko‘ngil!
Dod ko‘ngil! Ming dod, ko‘ngil! Faryod ko‘ngil³⁵⁷.

Ko‘ngil oy misol, o‘n beshi qorong‘i, o‘n beshi yog‘du bilan... Ba‘zan Bobur Mirzo kabi ko‘ngil odamlari uni to‘ldirmoq, falaklarda tutib qolmoq bo‘ladilar. Buning uchun ming ohlar ichida ming rohlar oralab yo‘l qidiradilar, bu tutqich bermas qasoskorni dam erk yuksakligidan, dam choh tubanligida istab ovorayi sarson bo‘ladilar. Ba‘zan u insonga qo‘l uzatsa, yetgudek yovuq ko‘rinadi, ba‘zan unga yetmoq yo‘li go‘yo cheksizlik qadar. “Moli vofir, eli kofir” bayti “Bobur Mirzo ichki olamining nolakor tasviri edi. Nolakor qalb tasviri... Faqat bu bevosita to‘g‘ridan to‘g‘ri tasvir bo‘lmas, bilvosita, ya‘ni majnun qalandar Baxshiturk orqali uning kechinmasi va halokati orqali berilgan tasvirki, uning ortidan hazrati Boburning mahzun qiyofasi kitobxon tasavvurida aniq jonlanadi”³⁵⁸, – deydi adabiyotshunos olim Abduhamid Xolmurodov.

Hofiz Ko‘ykiy ilk bor Agra bozorining etak tomonida joylashgan pastqam karvonsaroy darvozasi oldini o‘ziga makon tutgan, juldur kiyimli, tanasi, yuzida jarohat izlari bor, soch-soqoli patila-patila Baxshiturk devona og‘zidan eshitib, bu ajabtovur baytdan hayratga tushgan edi. Baxshiturk nomi bilan odamlar orasida yurgan bu devona asli Hofiz Ko‘ykiyga hamroh bo‘lib ota diydoriga, Bobur Mirzo suhbatiga ishtiyoqmand bo‘lib yo‘lga chiqqan, ammo niyatiga yetolmagan Binoqulning otasi Boboqul bo‘ladi.

³⁵⁷ Azim U. Ko‘ngil: she‘riyat. – T.: Yangi asr avlodi, 2019. – B. 100.

³⁵⁸ Xolmurodov A. O‘zbek qissachiligi: taraqqiyot muammolari (XX asr so‘nggi choragi). Filologiya fanlari doktori dissertatsiyasi. – T., 2008. – B. 198.

Beixtiyor kitobxon ham qissada Hofiz Ko‘ykiy ko‘nglidan o‘tgan fikrga qo‘shilgisi keladi: Ollahning siylovimi, Boboqul devona bo‘lib qolib bolasining o‘limidan xabar topmaydi, necha yillik ayriliqdan so‘ng ota diydoriga, bir chimdim mehriqga zor bo‘lib safarga chiqqan Binoqul yo‘lda halok bo‘lib, otasining behush, ongsiz holatiga guvoh bo‘lmaydi.

Boboqul Bobur Mirzo qo‘shiniga navkar bo‘lib Movarounnahrning Farkatida qo‘shiladi. Sadoqat bilan xizmat qiladi. Bobur Mirzo uni “jasorati mumtoz askarimiz edi” deb eslaydi. Bobur Mirzoning roziligini olib, Vatanga qaytish taraddudida yurgan Boboqul Ibrohim Lo‘diy bilan bo‘lgan janglarning birida boshidan qattiq yaralanib es-hushidan ajraladi. Qilingan muolajalarning ta’siri bo‘lmaydi. Saroyda Boboqulga ko‘rsatilgan e’tiborga qaramay, u devonasifat bo‘lib ko‘chalarda yurishni ixtiyor qiladi.

Og‘zidan ko‘pik sachratib:

“–Baribir oxiri voy bo‘lur, ha! Bilib qo‘y, ha, oxiri voy! Umring o‘tib ketar, tong-la mahsharda yuzing qaro, ha! Mana, bu oy jumadul avval, so‘g‘in jumadul oxir, so‘g‘in rajab, so‘g‘in sha‘bon, undan so‘g‘in ramazon...” (308-b.), – deya hisob-kitoblarni aniq keltirib umrning o‘tkinchiligi, o‘tar dunyoning bevafoligi, o‘limning haqligini baqira-baqira odamlarga uqtirayotgan Baxshiturk o‘quvchiga dunyodagi barcha sog‘lardan ham sog‘roq ko‘rinsa, ajab emas.

Xayriddin Sulton Boboqul – Baxshiturkning ruhiy holatini, g‘ayrishuuriy xatti-harakatlarini ham Hofiz Ko‘ykiy nazaridan o‘tkazib, uning aql-tafakkur tarozisiga qo‘yib, o‘quvchiga taqdim qilar ekan, bu qahramonining ham taqdir-qismati Hofiz Ko‘ykiydek orif, donishmand inson qarashida o‘zining munosib bahosini olishiga ishonadi: “Hofiz Ko‘ykiy devonaning poyintar-soyintar so‘zlari zamiridagi shafqatsiz haqiqatdan benihoya hayratga tushgan edi... Devona emas, – deb o‘yladi u. – Haqqa yetgan, xolos...” (308-b.)

Demak, Boboqul – Baxshiturkni Haqqa yetgan zot sifatida qissaning tragik qahramonlari silsilasidan ayro qabul qilishimiz maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Xayriddin Sulton jazavaga tushayotgan Baxshiturkni karvonsaroy ostonasida tasvirlash bilan o‘quvchini o‘ylashga, mushohadaga chorlaydi. Odamlarni o‘tar

dunyoning sinovlaridan ogoh etayotgan Baxshiturk obrazining mohiyati yozuvchi tomonidan aynan karvonsaroyga yuklangan tagma'noda teranroq ochiladi: Inson umri g'oyat qisqa, u safarga chiqqanday bu hayotga keladi, dunyo deb atalmish karvonsaroyga bir bora qo'nib o'tadi va yana ketadi. Karvonsaroy (dunyo) – odamlarning tez kelib tez ketadigan joyi, unga behad ko'ngil qo'yishning keragi yo'q", – demoqchi bo'ladi yozuvchi.

O'zi va o'zligini tamom unutgan, Vatanga qaytish istagi, unga borar yo'llarni yodidan chiqargan, ammo qalandar podshohning chog'ir ichganda bag'ri qon bo'lib aytadigan baytini miyasining qaysidir puchmog'ida daxlsiz saqlay olgan, uni karvonsaroy ostonasida aytib o'tirib, odamlarni buyuk bir xatodan ogoh etish mas'uliyatini g'ayrishuuriy, burch qadar bajarib yurgan Baxshiturk qissa o'quvchisi bahosida ham mumtozlik maqomidadir.

Qissada "dard bor, darmon yo'q" izohini peyzaj tasvirida ham kuzatishimiz mumkin. "Bobur botib borayotgan quyoshdan ko'z uzmay o'tirarkan..." (326-b.)

Botib borayotgan quyosh va undan ko'z uzmay turgan Bobur Mirzo. Tabiat va inson holatining so'zdagi parallel tasviri. Shonli hayot suronlarini, yaxshiyomon xotiralarni, ushalgan-ushalmagan orzularni, darmonsiz dard – Vatanga yetmoqlik ilinjini ham botayotgan quyoshga hamroh kuzatib qolayotgan Bobur Mirzoning shu qiyofasida ham fojelik, ham ulug'vorlik mujassam. Aslida, fojelikning o'zi ulug'vorlikdir.

Boris Pasternakning "Doktor Jivago" romanida Jivagoning shunday so'zlari bor: "...yurakka qon quyilishning shakllari ko'payib ketdi... O'ylashimcha, uning sabablari ma'naviy omillarga borib bog'lanadi... Agar har kuni odam o'z tuyg'ulariga qarshi boraversa, bu hol uning sog'lig'iga salbiy ta'sir etmasdan iloji yo'q",³⁵⁹.

"–Saltanat shunday bir tilsim ekanki, mavlono, uni qo'lda tutmoqlik uchun kishi, avvalo, qo'lidagi inon-ixtiyoridan xalos bo'lmog'i lozim ekan..." (325-b.) – deydi Bobur Mirzo suhbatda Hofiz Ko'ykiyga.

³⁵⁹ Pasternak B. Doktor Jivago. – T.: Sharq, 2018. – B. 610.

Inon-ixtiyori o‘zida bo‘lmagan inson ko‘ngil buyurganini qilolmaydi. Ko‘ngilsiz yashash, qalbdan begonalashish oqibatini Bobur Mirzo: “Hijron g‘amidin zaif jonim so‘ldi, G‘urbat olami birla ichim qon bo‘ldi”, – deya ta’riflaydi.

“Saodat sohili” yozilgan 80-yillar sho‘ro davri muhitida Bobur Mirzoning islomiy, xususan, tasavvufiy qarashlari, ma’naviy holi haqida ochiq fikr yuritishning iloji yo‘q edi. Ammo aynan shu jihatning chetlab o‘tilishi oqibatida Bobur Mirzoning jo‘shqin faoliyati, mardona, bag‘ri keng xarakteri, jozibador, yorqin shaxs sifatidagi individual olamining ma’naviy-ruhiy tayanch omillari ochilmay, obraz nursiz, talqin sayoz va rangsiz bo‘lib qolar edi.

80-yillar Yozuvchilar uyushmasi majlislaridagi siyosiy dag‘dag‘alar, Xayriddin Sultonning o‘zi keyinchalik istehzo bilan eslaydigan “куда смотрит...” deb boshlanadigan mash‘um po‘pisalarni dog‘da qoldirib, muallif zukko o‘quvchiga Bobur Mirzoning ma’naviy-ruhoniyligini hayotiga doir ba’zi bir haqiqatlarni yetkazishning badiiy imkoniyatlarini topa olgan.

XIX asrda yaratilgan Hasanxoja Nisoriyning “Muzakkiri ahhob” (Do‘stlar yodnomasi) tazkirasida shunday ma’lumot berilgan: “Podshohning Naqshbandiya (tariqati) oliy xonadoniga irodatsiz nisbati bor edi. Yuqori shon-shavkatli bobosi va saltanat nishonli otasining hazrati Xoja (Ubaydulloh) Ahrorga irodatsiz bo‘lgan. Bobur podshoh ham bu ulug‘lar xonadoniga nisbatan izzat-ikromni soatma-soat oshirar va biror daqiqa bu ishni kanda qilmas va g‘aflatda qolmas edi”³⁶⁰, – deydi.

Mustaqillik bergan imkoniyat tufayligina milliy tariximiz, tarixiy shaxslarimiz haqidagi bunday shoyon haqiqatlarga yetdik. Xayriddin Sulton Bobur Mirzoning ruhoniyligini hayotiga doir bu xos haqiqatni 80-yillar mafkuraviy muhitida kitobxonga yetkazish uchun qissaga Xoja Bahovuddin hayoti zikr etilgan rivoyatni o‘qib, undan ta’sirlanib turgan Bobur Mirzoning ruhiy holati tasvirini olib kiradi. Bizga bu tasvir “O‘tkan kunlar” romanida o‘zi o‘qiyotgan “Daloyil” kitobi orqali qalbini ochgan orif inson Yusufbek hoji obrazini eslatadi.

³⁶⁰ Nisoriy H. Muzakkiri ahhob. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1993. – B. 51–53.

Agar “O‘tkan kunlar” o‘quvchisi Muhammad ibn Sulaymon Jazuliy muallifligidagi “Daloyil ul-hayrot” kitobining qadr-qiymatini yaxshi bilsa, Yusufbek hoji shaxsini, ma’naviy-ruhiy dunyosini yanada yuksakroqda ko‘radi.

Qissaning badiiy konsepsiyasi, asar pafosi, obraz mantig‘ini ochishda o‘ziga xos badiiy funksiya bajargan mazkur rivoyatning ayni Bobur Mirzo mutolaasi fonida asarga olib kirilgani uning Hofiz Ko‘ykiyga qarata: “Meni “sohibi saltanat”, “yetti iqlimning shamsi anvori”, “shahanshoi olam” deb ko‘klarga ko‘taradilar... men asli shu yog‘och taxtga qaram, yaltiroq tojga qulman... Illo, har bir banda faqat Ollohgagina qul emas” (326-b.), – degan so‘zlari shunchaki safsata, bosh qahramonning yo‘liga aytilgan diydiyosi emasligini anglatadi. Zero rivoyat bag‘rida Bobur Mirzo hasratlari, iztiroblarining tub ildizlari ochiladi.

Adabiyotshunos L.I.Timofeyev: “...kechinma o‘z-o‘zidan tug‘ilmaydi. Uning ortida shu kechinmaning paydo bo‘lishiga, xarakterning ayni paytdagi holatiga sababchi bo‘lgan hayotiy shart-sharoitlar, uni yuzaga keltiruvchi hayotiy vaziyatlar turadi”³⁶¹, – deydi.

“Taxtga qaram, tojga qul”, “Illo, har banda Ollohgagina qul emas” kabi hasratli kechinmalar ortidagi hayotiy sharoit-u vaziyatlarni shubhasiz “Boburnoma” bag‘rida uchratamiz. “Saodat sohili”da Xayriddin Sulton Bobur Mirzo dilidagi his-tuyg‘ular, ong-u shuurida kechayotgan o‘y-fikrlar oqimini bu qadar izchil, qamrovli analitik tasvirini yaratishda, bizningcha, Bobur Mirzoning nomalariga, xususan, o‘g‘li – taxt vorisi Humoyunga bitgan maktubidan foydalangan. Maktub podshoh otaning ertangi toj-taxt egasi bo‘lgan o‘g‘liga shunchaki pand-nasihati mazmunidagi bitigigina emas, balki hukmdorlik martabasini, mas’uliyatini, minnati va oriyatini 12 yoshdan yelkasiga olib, shu olov-otash ichida necha bor qayta-qayta kuyib, kul bo‘lib, yana va yana qaqnus misol qad rostlab, shon-u shavkat topgan tojdorning jahongirlik qismati, podsholik masnadi haqidagi falsafiy qarashlari, hukm va xulosalari hisoblanadi. U o‘g‘liga jahongirlik qismat ekanligini, Tangri taoloning tanlovi, fazl-u karami bilan qo‘lga kiritilgan g‘alaba, omad va zafarlar yuz yilda ham topilmasligini, omad kelganda

³⁶¹ Тимофеев Л. И. Основы теории литературы. – М.: Просвещение. 1971. – С. 278.

uni qo‘ldan boy berib qo‘ymaslik kerakligini uqtirar ekan, dasturiy fikrlarni ilgari suradi:

“Beparvolik va sustkashlik bilan podshohlik muvofiq kelmaydi”, “Kim yaxshi tirishsa, jahon o‘shaniki bo‘ladi, jahongirlik to‘xtab turmaydi,.. podsholik to‘xtamaydi”, “Jahonga bog‘langan bo‘lsang, boshingga kelgan har narsaga rozi bo‘l”, “Podsholik bilan yolg‘izlik muvofiq kelmas”, “Hech bir band podshohlik bandicha bo‘lmas”.

Mana shu mulohazalarimizning o‘zida bosh qahramon o‘y-kechinmalarining yozuvchi tarafidan talqinga ko‘chgan badiiy ifodasi: “taxtga qaram, tojga qul” iborasining genezisi ham ko‘zga yaqqol tashlanadi. Guvohi bo‘lganimizdek, “...qahramon ichki dunyosining chuqur tadqiqi, ana shu xarakterni yuzaga keltirgan sharoitning ham chuqur tadqiqiga olib keladi”³⁶².

“–Birov alardin savol qildikim, darvishlik sizga mavrusdir (meros) yoki muktasab (kasb)? Alar dedilar, tangri hukmi bila bu saodatga musharraf bo‘lduk, – deya ko‘ngliga behad marg‘ub bo‘lgan parchani hafti qiroatini inja tovlanishlari bilan ta’kidladi Bobur. –Derlarki, alarg‘a hargiz qul va dodar bo‘lmas ermish. Alardin bu ma’noda so‘rabturlar. Alar debturlarki, qachon bu bandalig‘ xojalig‘ bila rost kelur?!” (314-b.) Rivoyatdan ko‘rinadiki, darveshlik saodatdir. Bu saodatga esa Olloh hukmi bilan erishiladi. Xuddi shunday Qur’oni karimning Baqara surasi 247-oyatida: “Alloh (xalq) podshohligini O‘zi xohlagan kishiga beradi. Alloh (karami) keng va bilimdondir”³⁶³, – deyiladi.

Demak, darveshlik ham, shohlik ham Ollohning xohish-irodasiga ko‘ra bandalariga taqdir etiladi. Karnon voqeasi (1502) tafsilotlaridan bunday tanlov Bobur Mirzoga ham taqdir qilganini yaxshi bilamiz. Shuning uchun Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonida Iskandar dono gado bilan bahsda bu oliy haqiqat haqida:

Ki, bu dayr aro topsang ogohliq,
Sanga faqr berdi, manga shohliq

³⁶² Umurov H. Badiiy psixologizm va hozirgi o‘zbek romanchiligi. – T.: Fan, 1983. – B. 38.

³⁶³ Qur’oni karim: ma’nolarning tarjima va tafsiri. / Tarjima va tafsir muallifi: A.Mansur/ Toshkent islom universiteti, 2009. – B. 40.

Agarchi meni ayladi arjumand

Sanga berdi himmatni mendin baland³⁶⁴, –

deydi.

Tasavvufshunos olim Najmiddin Komilov tariqat ahli fikrini ifodalab shoh va darvesh mavqeyi haqida: "...shoh-u darvesh jamiyatning ikki qarama-qarshi qutbi, ikki xil mohiyat, ikki xil ijtimoiy mavqe, bir-birini tamoman rad etuvchi ikki xil intilish, aqida-dunyoqarash... Solih darveshlar nafsni jilovlaganlari uchun birovga bog‘liq emaslar, amal-mansabga intilmaydilar... dunyoviy qaydlardan ozod... qalbida birgina Iloh... Ammo shoh-chi? Tasavvuf ahli nazdida u – qul, dunyo quli!.. uning fikr-u yodi dunyo egallash bilan band"³⁶⁵, – deydi.

Darveshning himmati bobidagi Iskandar e’tirofi-yu Bobur Mirzoning taxtga qaram, tojga qullik iztirobi shu o‘rinda bir-biriga rost keladi. G‘aybdan kelgan ovoz ko‘nglimga orom bermayapti, Haq ixtiyoringa qo‘ymayapti, deya yozug‘ini tan olgan Iskandar bilan "Dema Boburga, istarsen, bosh olib ketmak ne? Tengrimning xosti mundoq esa, men netgaymen" degan Bobur Mirzoning Haqning tanlovi, taqdiri oldida bosh egib turishi ham qanchalar o‘xshash.

Buyuk Tolstoyning buyuk e’tirofi yodimizga tushadi: "Podshoning qalbi – Xudoning ixtiyorida"³⁶⁶. O‘zi aytgandek, besafo, kamlatofat, issig‘i shamoli jonga ofat Hindistondan Bobur Mirzo nega Xoja Kalondek shart yuz o‘girib ketolmadi?

Chunki Bobur Mirzo Hindiston fathini o‘ziga Ollohning tengsiz inoyati, mukofoti, rag‘bati deb bilgan. Bobur Mirzoning mardona tabiatida esa Ollohga nisbatan ham, uning bandalariga nisbatan yaxshilikni unutishdek munofiqlik bo‘lmagan. Bobur Mirzo bir umr Yaratgan uning yelkasiga yuklagan martabaning mas’uliyati bilan yashagan. Bobur Mirzo o‘zining mamlakatdorlik siyosatida ikki qutb: shohlik va darveshlikni birlashtirishga harakat qilganini ko‘ramiz. Uning butun dunyo tan olgan buyuk insoniy, ijtimoiy fazilatlari shu amal natijasidir.

³⁶⁴ Navoiy A. Saddi Iskandariy. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. – B. 75.

³⁶⁵ Komilov N. Xizr chashmasi. – T.: Ma’naviyat, 2005. – B. 100.

³⁶⁶ Lev Tolstoyning tafakkur javharlari. /1-kitob. To‘plab, nashrga tayyorlovchi: Ilhom G‘aniyev/ – T.: Ijod-Press, 2019. – B. 18.

Mana shu ikki qutbni kelishtirolmagan paytlar – qissaning bir o‘rnida bu holat shunday talqin qilinadi: “Bobur parishon qo‘l siltadi:

–Eh, saltanat... Ne bo‘lsa – Oллоhdan! Shu saltanat minnati umr bo‘yi oyog‘imga kishan bo‘ldi, muroding‘a – g‘ov. Lekin... – u kuchlanib, o‘rnidan qo‘zg‘alib qo‘ydi. –Lekin endi bir zo‘r bilan jahl qilirmen-u bu kishanni tilka-tilka eturmen! – kabi ruhiy og‘riq azobi tilga ko‘chadi. Bobur Mirzo shaxsining fojeligini va ulug‘vorligini ham, uning badiiy ifodadagi talqini ham shu joyda ko‘zga tashlanadi.

IV bob yuzasidan xulosalar

1. Pirimqul Qodirov ham “Boburnoma” qatidagi zarralar sirini badiiy zakovati, idroki bilan kashf etdi. Mana shu zarralar, kichik topilmalarning zamiridagi axloqiy-ma’naviy, falsafiy-estetik qarashlarni o‘quvchi qalbiga, ongiga haqqoniylik, samimiylik bilan singdirdi.
2. Pirimqul Qodirovning mahorati, ruhshunos san’atkorligi shunda ko‘rinadiki, “Yulduzli tunlar” romanida voqealar mohiyatiga qarab, maromiga qarab, o‘sha vaziyatga mos tasvir, ruhiy iqlim, muhit yarata oladi.
3. “Yulduzli tunlar” – yirik epik polotno. Unda salkam qirq yillik voqealar qamrab olingan, yuzga yaqin tarixiy, hayotiy, to‘qima personajlar gavdalantirilgan.
4. “Saodat sohili” qissasida tragik pafos yetakchilik qiladi. Qissada Bobur Mirzo umrining so‘nggi yillari qalamga olinganligi uchun ham tragik mohiyat asar badiiyligini, obraz haqqoniyligini ta’minlaydigan maqbul yo‘l ekanligini bilgan muallif adashmagan.
5. Bobur Mirzoning so‘zida uning o‘zligini, xos dunyosini o‘qishga, anglashga harakat qilgan Xayriddin Sulton shu angamlarni o‘z navbatida kitobxonga yetkazishni maqsad qiladi. Bu jarayonda esa boburona so‘z latofatini avaylashga, ulardagi cho‘g‘ning haroratini o‘chirib qo‘ymaslikka, ifodada Bobur Mirzo qalb tebranishlarini mohirlik bilan ko‘rsatishga chog‘lanadi.

6. “Saodat sohili”da Xayriddin Sulton nafs, kibr, munofiqlikni insoniy kamolotning zalolati, “Tengri qoshida osiy” qolishning sababi deb bilgan Bobur Mirzoning botiniy dunyosini o‘quvchiga yorqinroq ko‘rsatish uchun Alisher Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat” kitobidan foydalanadi.
7. Qissa badiiy konsepsiyasi asosan Bobur Mirzo va Hofiz Ko‘ykiyning odam va olam haqidagi falsafiy, ma’naviy, diniy va dunyoviy suhbatlari mag‘zida ochiladi. Xayriddin Sulton “Saodat sohili”da Hofiz Ko‘ykiy obraziga Bobur Mirzo ko‘ngliga yo‘l topish, juda oz fursatda “mahrami asror” maqomiga erishishdek katta badiiy missiya yuklaydi.
8. Ruhoniy halovatga erishish uchun barcha nafsoniy qutqulardan yuz o‘girib, shohlik martabasi-yu mamlakatdorlik dabdabasini birgina hujraga almashishga tayyor Bobur Mirzo obrazida Xayriddin Sulton hindlar e’tirof etgan qalandar podshoh himmatini, komil inson ma’rifatini, g‘urbatdagi g‘arib iztiroblarini jamlay olgan.
9. Bobur Mirzo jasorati jang maydonlarida qarshi kuchlarga qahramonlarcha turib berishdama, balki ruhoniy zarofat, yorqin, jozibador xarakter sohibi o‘laroq o‘rni kelganda bo‘ysunishni ham bilishida, itoat yo‘lini tuta olishida g‘am-iztirob yukini matonat va sabr bilan ko‘tarishida ham ko‘rinadi. “Saodat sohili”da Bobur Mirzo jasoratining ana shu keyingi – ikkinchi qirrasining talqini asar konsepsiyasining o‘zagini tashkil etadi.

UMUMIY XULOSA

1. Badiiy adabiyotda Bobur Mirzo kabi tarixiy shaxslar obrazini yaratishga bo'lgan ma'naviy-ruhoniy ehtiyojning zarurati shunda ko'rinadiki, ularning serqirra, ibratomuz faoliyati millatimiz tarixining burilish nuqtalarini o'zida ko'zgudek aks ettiradi, davr manzarasining jonli, real nuqtalarini ko'rsatib beradi, bugungi kun o'quvchisi uchun hayot darsligi vazifasini o'taydi.

2. Tarixiy-adabiy manbalarda Bobur Mirzo obrazining o'rganilishi ikki: 1) Bobur Mirzo bilan hayotda uchrashgan, hamsuhbat bo'lgan u bilan zamondosh ijodkorlar asarlarida Bobur Mirzo siymosi; 2) "Boburnoma" va boshqa tarixiy manbalar asosida yaratilgan sarlarda Bobur Mirzo siymosi, tasnifi bo'yicha olib borilishi tadqiqning izchilligini, uzluksizligini ta'minlaydi. Adabiy-tarixiy manbalarda Bobur Mirzoning muhorabalari, mohir lashkarboshi, adolatli hukmdor, fotih, yangi imperiya asoschisi sifatidagi bunyodkor va yaratuvchilik qiyofasi talqin etilgan.

3. O'tgan asr boshlarida qomusiy faoliyat olib borgan jadidlarimiz boburshunoslikka ham e'tibor qaratdilar. Jadid ijodkorlari yaratilgan Bobur Mirzoning bunyodkorlik, yaratuvchilik qiyofasi (Avloniy "Afg'on sayohati") ochib berildi, "...adabiyot ham san'at dunyosida teran bir qarash egasi" ekanligi asoslandi, o'zbek xalqi o'tmishi, millat kechmishi, buguni va ertasi "Boburnoma" hamda uning muallifi taqdiri va tarixi bilan chambarchas bog'liqligi obrazli ifoda etildi.

4. Muhammad Solihning "Shayboniynoma" dostoni o'zbek adabiyotida ilk bor Bobur Mirzoning badiiy siymosi yaratilgan. Muallifning temuriy hukmdorlardan noroziligi doston sujeti rivojida tendensioz xarakterning yetakchiligini ko'rsatib tursa-da, "Muhammad Solih Boburga haddan ortiq muxolifona munosabatda bo'ladi" (N.Mallayev) degan xulosaga asarning hamma o'rinlarida qo'shib bo'lmaydi. Ayniqsa, Saripul muhorabasining ba'zi o'rinlarida, Samarqand qamalida muallif talqinida 19 yoshli zukko, ma'rifatli, xalq qo'llovidagi Bobur Mirzoning rahbar qiyofasi ochiladi.

5. Avtobiografik, iqroriy xotira, esdalik, memuar asarlarga xos bo'lgan

xususiyatlarni o‘zida jam etgan “Boburnoma”da muallif obrazi botiniy qatlamda o‘quvchi ong-u shuurida xayoliy qiyofada, ichki, yashirin ovoz sifatida inkishof etilsa, Bobur Mirzoning asar voqealariga munosabati, qarashi, bahosi shoyon, ochiq holatdagi “men” formasi orqali bayon etilganda, bu ulkan hayot panoramasida betinim kezib yurgan, faol uzv-mualliflar obrazi zohirda namoyon bo‘ladi, reallashadi.

6. “Boburnoma”ning yaratuvchisi sifatida Bobur Mirzo – muallif, ham bosh qahramon, ayni paytda roviy. Uch uzvning bir nuqtaga yig‘ilishi asar uchun muallif obrazini tayin etadi. “Boburnoma”dek ulkan monumental asarning kompozitsion va konseptual yaxlitligini ta’min etib turgan bosh qahramon – Bobur Mirzo tasvir etilayotgan voqealarning bilvosita yoki bevosita ishtirokchisi, shu bilan birga roviysi sifatida ularni so‘zidan, tilidan, dilidan o‘tkazib ifodalaydi. Bu esa asar strukturasi tiniqligini, muayyan izchilligini, estetik ta’sirchanligini belgilaydi.

7. Shaxsning tarixdagi o‘rni, hukmdorlarning millat rivojidadagi mavqelariga mafkuraviy yondashuv oqibatida sho‘ro davri badiiy boburshunosligida “shoh emas, shoir” paradigmasi qabul qilindi: Bobur Mirzoning podshoh, lashkarboshi, fotih sifatidagi faoliyati tamomila inkor etiladi, ijodkor, shoir va adib sifatida o‘rganish, tasvirlash mumkin bo‘ladi. Ushbu paradigm sho‘ro davri badiiy boburshunosligining umumiy qiyofasini belgilagan holda 70-yillarning oxiri, 80-yillarning boshigacha ham sobit amal qildi.

8. Sho‘ro davri adabiyoti mahsuli bo‘lgan Uyg‘unning “Shoh Boburning emas, shoir Boburning” she’rining ilk satridayoq: shoh Bobur ↔ shoir Bobur yoki Abdulla Oripovning “Bobur” she’ri badiiy strukturasi biz (dastlab men) va siz (ya’ni Bobur) antiteza yetakchi poetik usulga aylangan. Uning mohiyatida esa paradigma ta’siridagi shoh va shoirlik ayirmasi yotadi. Ammo shunga qaramay, Abdulla Oripov o‘z badiiy mahorati va iste’dod kuchi bilan Bobur Mirzoning qudratli imperiya asoschisi, qilichda Amir Temurga, qalamda Alisher Navoiyga eng munosib izdosh ekanligini poetik yo‘sinda ayta olgan.

9. Oybekning “Bobur” poemasi nafaqat zamonaviy dostonchiligimizda,

balki yangi o'zbek adabiyotida Bobur Mirzo obrazi yaratilgan ilk badiiy asar. Oybek daho ijodkor sifatida asarda shoh Boburdan, shoir Boburni ajratib bo'lmasligini zimdan badiiy hukm tariqasida uqtiradi. Dostonda muallif xotira prinsipiga maksimal poetik yuk ortadi: u orqali shoh, lashkarboshi, fotih Bobur umr yo'lini shoir Bobur nigohida tiklaydi. Shu orqali shoh va shoir Bobur Mirzo mukammaligi talqin to'kisligini ta'minlovchi jihat ekanligini tag ma'noda poetik asoslaydi.

10. Pirimqul Qodirovning "Yulduzli tunlar" romani – birinchi marta Bobur Mirzoning ziddiyatli obrazi epik ko'lamda tasvir etilgan keng qamrovli yirik tarixiy-biografik roman. Talqinda "tarix fantaziyasiga suyandim", deya o'zining ijodiy-estetik prinsipini bayon etgan yozuvchi Bobur Mirzo obrazini yaratishda tarixiy faktlar qurshovida qolib ketmaydi. Romanda shoh, shoir, fotih, lashkarboshi, ota, jigar, o'g'il, oddiy inson – Bobur Mirzo siymosi tarixiy haqiqatga mos, ayni paytda poetik pishiq yaratilgan. Davrning ijtimoiy-siyosiy manzarasi, bosh qahramon va uni qurshagan muhit fonida Bobur Mirzoning ruhiy evolutsiyasi, insoniy jozibasi izchil badiiy tadqiq etilgan.

11. Xayriddin Sultonning "Saodat sohili" qissasida Bobur Mirzo umrining so'nggi yillari qalamga olinganligi uchun ham tragik pafos asar badiiyligini, obraz haqqoniyligini ta'minlashga to'liq xizmat qilgan. Qissa badiiy konsepsiyasi asosan Bobur Mirzo va Hofiz Ko'ykiyning odam va olam haqidagi falsafiy, ma'naviy, diniy va dunyoviy suhbatlari mag'zida ochiladi. Bobur Mirzo shaxsining fojeligini va ayni paytda ulug'vorligi ham aksariyat shu suhbatlar fonida ochiladi.

12. Mustaqillik bergan imkoniyat tufayli milliy qadriyatlarni ulug'lash, boy ma'naviy merosni teranroq o'rganish, yangicha baholash, jahon adabiyoti ilg'or tajribalari, an'analarini ijodiy o'zlashtirish uchun qulay ijtimoiy-adabiy sharoit yuzaga keldi. To'lan Nizomning "Uch so'z" dostoni xuddi ana shunday imkoniyat mahsuli bo'lgani uchun ham dostonning bu mavzudagi boshqa asarlardan farqi, unda Bobur Mirzodek fenomenal shaxs hayotining ma'naviy-ruhiy qirralari, ma'no olamining sirlari, bu olamda Xoja Ahror Valiy, Maxdumi A'zam Kosoniy, Xoja Mavlonoyi Qoziy kabi ruhoniylarning o'rni, mavqeyi real tarixiy

voqealar asosida badiiy talqin etilgan.

13. Mustaqillik davri badiiy boburshunosligi mahsuli Sirojiddin Sayyidning “Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur...” asarida “Boburnoma” sarhadlaridan ko‘chgan badiiy ulgi ijodkorning o‘ziga xos fikriy kashfiyotlariga aylanib, she’r, g‘azal, ruboiy, muxammas shaklida shoir badiiy niyatiga ko‘ra qayta poetik idrok etilgan. “Boburnoma”dan olinib turkum she’rlarga asos bo‘lgan havolalar Bobur Mirzo va u yashagan davr muammolarinigina emas, balki bugungi kun o‘quvchisini ham o‘ylantiradigan ma’naviy-axloqiy masalalarni o‘zida aks ettirar ekan, ularni Sirojiddin Sayyid qalamidagi badiiy ifodasi qalblarga teranroq kirib boradi.

14. Insonda o‘z hayotini moziy bilan taqqoslash imkoniyati bor (A.Oripov). Shu imkoniyatlarning a‘losi – badiiy asar bag‘rida tarix to‘liqroq, kengroq, eng muhimi ta’sirchanroq ochiladi. Shu ma’noda Bobur Mirzoni o‘rganish, uni umumjahon e’tirofiga sazovor bo‘lgan shonli hayot yo‘li, noyob shaxsiyati, qomusiy iqtidorini badiiy asarlar bag‘ridagi sayqallangan qiyofasini poetik tadqiq etish, uni davrlar adabiy-badiiy yaratilardagi o‘ziga xos talqinini ijodkor pozitsiyasi, badiiy mahorat va uslub doirasida o‘rganish, bugungi kun o‘quvchisining ma’naviy-ruhiy kamolotidagi o‘rnini tayin etish boburshunosligimizning dolzarb vazifasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoyev Sh. Azm-u shijoatli yoshlarimiz bilan birgalikda Yangi O'zbekistonni albatta bunyod etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Yoshlar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi / Yangi O'zbekiston, 2021-yil 1-iyul.
2. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O'zbekiston NMIU, 2016.
3. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq. – T., 2016.
4. Mirziyoyev Sh. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. – T.: O'zbekiston, 2019.
5. Mirziyoyev Sh. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil yakunlari va 2017-yil istiqbollari bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi // Xalq so'zi. 2017. 16-yanvar, – №11.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida"gi PF-4797-sonli Farmoni.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada yaxshilash va takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-2909-sonli Qarori.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-avgustdagi "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida"gi PF-5789-sonli Farmoni.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Buyuk shoir va olim, mashhur davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining **540 yilligini** keng nishonlash to‘g‘risida. <https://lex.uz/docs/-6371358>
10. Ta‘lim to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, 23.09.2020-yildagi O‘RQ – 637-son.

III. Maxsus adabiyotlar

11. Абдуллаев В. Бобур ва унинг замондошлари ижодини ўрганиш масалалари. – Самарқанд: СамДУ, 1983.
12. Адабиёт ва замон. (Мақола, адабий ўйлар, сухбатлар) Тўпловчилар: У.Норматов ва А.Шаропов. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. – 400 б.
13. Adizova I. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – Т.: Fan, 2009. – 247 б.
14. Аҳмедов Б. Тарихдан сабоқлар. – Т.: Ўқитувчи, 1994. – 256 б.
15. Али М. Гумбаздаги нур. – Т.: Ёш гвардия, 1985. – 80 б.
16. Али М. Юракка Ватан суратини чизиб. (Бошсўз). Низом, Т. Танланган асарлар. – Т.: Шарқ, 2018. – 680 б.
17. Алимбеков А. Юлдузнинг беш қирраси. – Т.: Ўқитувчи, 2020. – 400 б.
18. Арасту. Поэтика. Ахлоқи Кабир. Риторика. – Т.: Янги аср авлоди, 2004. – 196 б.
19. Arminiyy V. Vuxoro yoxud Movarounnahr tarixi. –Т.: Info Capital Books, 2024. – 464 б.
20. Авлоний А. Танланган асарлар. 2 жилдлик, 2-жилд. – Т.: Маънавият. 2006. – 304 б.
21. Айтматов Ч., Шохонов, М. Чўққида қолган овчининг оху зори (Аср адоғида айтилган истиффор). – Т.: Шарқ, 1998. – 432 б.
22. Азим У. Кўнгил: шеърят. – Т.: Янги аср авлоди, 2019. – 320 б.
23. Азим У. Сўнгсўзлар. – Т.: Илм-зиё-заковат, 2020. – 342 б.
24. Белинский В.Г. Поэзиянинг хил ва турларга бўлиниши // Ойбек Мусо Тошмуҳаммад ўғли. МАТ. 19 томлик. Т. 17. Рус адабиёти ва СССР халқлари адабиётидан таржималар. – Т.: Фан, 1981. – 308 б.

25. Бобур Заҳириддин Муҳаммад. Бобурнома. – Т.: Ўзбекистон ССР, Фан. 1960. – 514 б.
26. Bobur Zahiriddin Muhammad. Boburiylar. Qomusiy, ilmiy-ommabop maqolalar to‘plami. 5 jildlik. I jild. (A – B). /Tuzuvchi-muallif Rustamxo‘jayev Sh. – Т.: Zilol buloq, 2023. – 848 б.
27. Bobur Zahiriddin Muhammad. Boburnoma. – Т.: О‘qituvchi, 2008. – 288 б.
28. Бобур Заҳириддин Муҳаммад. Бобурнома. – Т.: Шарқ, 2002. – 336 бет (+ 32 зарварақ).
29. Бобур Заҳириддин Муҳаммад. Бобурнома. – Т.: Юлдузча, 1989. – 368 б.
30. Бобур Заҳириддин Муҳаммад. Девон. – Т.: Фан, 1994. – 144 б.
31. Бобур Заҳириддин Муҳаммад. Куллиёт. 1-жилд. Девон. – Т.: Зилол булоқ, 2021. – 600 б.
32. Бобур Заҳириддин Муҳаммад. Куллиёт. 3-жилд. Аруз рисоласи. – Т.: Зилол булоқ, 2022. – 592 б.
33. Бобур Заҳириддин Муҳаммад. Куллиёт. 4-жилд. Бобурнома. Фарғона даври воқеалари. – Т.: Зилол булоқ, 2021. – 324 б.
34. Бобур Заҳириддин Муҳаммад. Куллиёт. 5-жилд. Бобурнома. Кобул даври воқеалари. – Т.: Зилол булоқ, 2021. – 400 б.
35. Бобур Заҳириддин Муҳаммад. Куллиёт. 6-жилд. Бобурнома. (Воқеъоти Бобурий). Ҳиндистон даври воқеалари. – Т.: Зилол булоқ, 2021. – 436 б.
36. Болтабоев Ҳ. “Бобурнома”нинг берилмаган саҳифалари. – Т.: Адолат, 2004.
37. Бойқобилов Б. “Кун ва тун” достони. Манба: Ўзбекнома. – Т.: Шарқ, 1999.– 848 б.
38. Cho‘lpon A. Vayronalar orasidan <https://ziyouz.uz/matbuot/jadid-matbuoti/abdulhamid-cholpon-vayronalar-orasidan-1924/>
39. Чўлпон. Адабиёт надур? (Адабий-танқидий мақолалар). – Т.: Чўлпон номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 1994. – 240 б.
40. Дадабоев Ҳ. Сарипул жангининг “Бобурнома” ҳамда “Шайбонийнома”да тасвирланиши/ Асрлар узра порлаган сиймо.

“Заҳириддин Муҳаммад Бобур ижодий меросининг башарият маънавий-маърифий тараққиётидаги ўрни” мавзусидаги халқаро илмий-амалий конференция материаллари. – Т.: 2022.

39. Даврон Н. Шоир Муҳаммад Солиҳ ва унинг “Шайбонийнома”си ҳақида // Муҳаммад Солиҳ. Шайбонийнома. ЎзФА нашриёти. – Т.: 1964. – 320 б.

40. Даврон Х. Самарқанд ҳаёли. – Т.: Камалак, 1991. – 320 б.

41. Достоевский Ф. Ҳаётӣ ҳикматлар ва танбеҳлар. – Т.: Янги аср авлоди, 2021.

42. Эрскин У. Бобур Ҳиндистонда. – Т.: Чўлпон, 1995. – 1160 б.

43. Эрскин У. Бобуршоҳ ҳукмронлиги даврида Ҳиндистон тарихи // Хорижда бобуршунослик: (Тадқиқот, талқин ва мақолалар. / Нашрга тайёрловчи Ҳ.Болтабоев. – Т.: Мумтоз сўз, 2009. – 112 б.

44. Эшонқул Ж. Тушнинг семантик талқини // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т.: ЎзФА “Фан” нашриёти. 2005. № 32-33.

45. Философия луғати. – Т.: Ўзбекистон, 1976. – 640 б.

46. Фитрат А. Адабиёт қоидалари. Танланган асарлар. ИВ жилд. – Т.: Маънавият, 2006. – 336 б.

47. Фитрат А. Танланган асарлар. Жилд I. – Т.: Маънавият, 2000. – 256 б.

48. Фитрат А. Танланган асарлар. Жилд II. Илмий асарлар. – Т.: Маънавият, 2000. – 208 б.

49. Фриц В. Андижон шаҳзодаси (Бобур – йўлбарс): саргузашт-қисса / Ф.Вюртле: олмон тилидан Я.Эгамова таржимаси. –Т.: Ўқитувчи, 2011. –168 б.

50. Фромм Е. Озодликдан қочиш. – Т.: Янги аср авлоди, 2021. – 325 б.

51. Ғафуров И. Асарлар. Адабиёт дунёси: саккиз жилдлик. Бешинчи жилд. Ҳаё – халоскор. – Т.: Янги аср авлоди, 2022. – 448 б.

52. Ғафуров И. Асарлар. Адабиёт дунёси: саккиз жилдлик. Тўртинчи жилд. Ўттиз йил изҳори. – Т.: Янги аср авлоди, 2022. – 528 б.

53. Ғафуров И. Асарлар. Адабиёт дунёси: Саккиз жилдлик. Еттинчи жилд. – Т.: Янги аср авлоди, 2022.

54. Гафуров И. Мангу латофат. – Т.: Шарқ, 2008. – 464 б.
55. Ғайбуллоҳ ас-Салом, Н.Отажон. Жаҳонгашта “Бобурнома”. – Т.: А.Қодирий, 1996.
56. Ғозиев С. XVI асрда Мовароуннаҳрда ижтимоий-маънавий ҳаёт. – Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2014. – 82 б.
57. Гулбадан бегим. Ҳумоюннома. Форс тилидан таржима, сўзбоши, изоҳлар муаллифи Ботирали Йўлдошев. – Т.: Фан, Очун, 2022. – 128 б.
58. Гулбаданбегим, Заҳириддин Муҳаммад Бобур кизи. Ҳумоюннома. – Т.: Ўзбекистон, 2016. – 120 б.
59. Ҳаққул И. Мерос ва моҳият. – Т.: Маънавият, 2008. – 208 б.
60. Ҳаққул И. Тақдир ва тафаккур. – Т.: Шарқ, 2007. – 336 б.
61. Ҳасанов С. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. – Т.: Ўзбекистон, 2011. – 88 б.
62. Ҳасанов С. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. – Т.: Шарқ, 2002.
63. Ҳазратқулова Е. Бобур – адабиётшунос. – Андижон: Андижон нашриёт-матбаа МЧЖ. – 231 б.
64. Ҳессе Ҳ. Жаҳон адабиёти кутубхонаси. Шарафиддинов, Озод: Оламнинг қалби ёхуд китоб менинг тақдиримда. – Т.: Маънавият, 2012. – 264 б.
65. Ҳофиз Таниш ал-Бухорий. Абдулланом. /Таржимон: Содиқ Мирзаев. – Т.: Шарқ, 1999. – 416 б.
66. Ҳомидий Ҳ. Тасаввуф. Қаранийдан Румийгача. – Т.: Янги аср авлоди, 2021. – 400 б.
67. Иброҳимов А. XVI аср ўзбек адабиётининг асосий хусусиятлари. – Т.: Ўзбекистон ССР, Фан, 1976. – 206 б.
68. Ислом. Энциклопедия. А – Ҳ. /3. Ҳусниддинов таҳрири остида. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2003. – 313 б.
69. Иванов П., Зуфарова И. Умумий психология. – Т.: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти, 2013. – 478 б.

70. Иванов П. Умумий психология. – Т.: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти, 2023. – 480 б.
71. Жўрақулов У. Назарий поэтика масалалари. – Т.: Гафур Ғулом номидаги НМИУ, 2015. – 356 б.
72. Жуманазаров У. Ўзбек фольклори ва тарихий воқелик. – Т.: Фан, 191. – 230 б.
73. Карим Б. Қодирий насри – нафосат қасри. – Т.: Ўзбекистон, 2014. – 232 б.
74. Карим Б. Рухият алифбоси. – Т.: Гафур Ғулом номидаги НМИУ, 2016. – 364 б.
75. Каримов Н. Миртемир. – Т.: MERIYUS, 2012. – 284 б.
76. Каттабеков, А. Тарихий роман хусусида баҳслар. Манба: Ўзбек адабий танқиди (антология). – Т.: Турон-Иқбол, 2011. – 542 б.
77. Кенжа Қ. Андижондан Бағдодгача (Буюклар изидан) Сафарнома – 4. – Т.: Шарқ, 2007. – 256 б.
78. Кенжабек М. Тарихий даврлар кўзгуси. Сўз боши. З.М.Бобур. Куллиёт. 4-жилд. “Бобурнома”. Фарғона даври. – Т.: Зилол булок, 2021. – Б. 3–8.
79. Комилов Н. Хизр чашмаси. – Т.: Маънавият, 2005. – 320 б.
80. Кошифий Ҳ. Футувватномаи султоний. Ахлоқи муҳсиний. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2011. – 376 б.
81. Лаъл М. Бобур таърифида. Манба: Очилов, Эргаш. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. – Т.: Ўзбекистон, 2012. – 136 б.
82. Ламб Ҳ. Бобур – йўлбарс. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – 296 б.
83. Лемб Г. Бобур ҳақида америкалик шарқшуноснинг айтганлари / Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурийлар. Қомусий, илмий ва илмий-оммабоп мақолалар тўплами. 5 жилдлик. 1-жилд. – М., 1960. – Б. 8. Тузувчи-муаллиф Ш. Рустамхўжаев ва б.
84. Лемб Г. Ҳиндистонда Буюк Мўғуллар сулоласини асослаган Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг фаолияти тўғрисида. Қаранг: Ҳасанов, Ҳамидулла.

- Заҳириддин Муҳаммад Бобур: (Ҳаёти ва географик мероси). – Т.: Ўзбекистон, 1966.
85. Лев Толстойнинг тафаккур жавҳарлари. /1-китоб. Тўплаб, нашрга тайёрловчи: Илҳом Ғаниев/ – Т.: Ижод-Пресс, 2019. – 72 б.
86. Маънавият асосий тушунчалар луғати. – Т.: Ўзбекистон файласуфлар миллий жамияти, 2021. – 816 б.
87. Мадаев О. Навоий суҳбатлари. – Т.: Ўқитувчи, 2018. – 248 б.
88. Маҳмудов М. Шаффоф нилуфарнинг сири. Адабиёт ва замон (Мақола, адабий ўйлар, суҳбатлар). Тўпловчилар: У.Норматов ва А.Шаропов. –Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. – 400 б.
89. Маҳмудов М. Талант ва ижод фалсафаси. –Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1976. – 284 б.
90. Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. – Т.: Кафолат, 2021. – 540 б.
91. Машрабов З. Сўз боши / Рашбрук, В. Ўн олгинчи аср бунёдкори. – Т.: Шарқ. 2011. – Б. 3–12.
92. Мели С. Сўзу сўз. “Адабиёт фалсафаси”га чизгилар. – Т.: Шарқ, 2020. – 528 б.
93. Миллатни уйғотган адиб. (Тўплам). –Т.: Университет, 2005. – 184 б.
94. Мингбоева Д. Тимсоллар тилсими. – Т.: Адабиёт, 2022. – 280 б.
95. Мирсайдуллаев М. Бобурнинг касаллик тарихи. – Т.:MUMTOZ SO‘Z, 2013. – 144 б.
96. Мирзо Муҳаммад Ҳайдар Аёзий. Тарихи Рашидий. – Т.: 1999. – 709 б.
97. Мовардий, А. Дунё ва дин одоби. – Т.: Ҳилол – Нашр, 2020. – 332 б.
98. Муҳаммад Ҳайдар Мирзо. Тарихи Рашидий. Таржимонлар: Ваҳоб Раҳмонов, Янглиш Эгамова. – Т.: Шарқ, 2010. – 720 б.
99. Муҳаммадёр ибн Араб Қатаған. Мусаххир ал-билод. Форс тилидан таржима, изоҳ ва кўрсаткичлар муаллифлар: Исмоил Бекжонов, Дилором Сангирова. – Т.: Янги аср авлоди, 2009. – 130 б.
100. Муродов Ғ. “Юлдузли тунлар” романида бадиий кодлар // БухДУ илмий ахборотлари. 1-сон. – Бухоро, 2000.

101. Навоий А. Маҳбуб ул-қулуб. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983. – 152 б.
102. Навоий А. Тўла асарлар тўплами. 10 жилдлик. 9-жилд. – Т.: Гафур Гулом номидаги НМИУ, 2011.
103. Назаров Б. Она Ватан саодати. Беш жилдли. Ж. 5. Адабий танқид. – Т.: АДИБ, 2013. – 424 б.
104. Назарова Х. Бобур ва ўзбек адабий тили. – Т.: Ўзбекистон КПКМ.
105. Нисорий Х. Музакири аҳбоб (Дўстлар ёдномаси): Тазкира. (Таржима ҳамда сўз боши ва изоҳлар муаллифи Исмоил Бекжон). – Т.: Абдулла Қодирий номидаги Халқ мероси нашриёти, 1993. – 344 б.
106. Низом Т. Танланган асарлар. – Т.: Шарқ, 2018. – 680 б.
107. Норматов У. Изланиш қувончи ва ташвишлари (Ёзувчи Пиримқул Қодиров билан суҳбат). Етуклик. – Т.: 1982. – 338 б.
108. Носиров А. Бадиийлик ва ҳаётий ҳақиқат. (“Юлдузли тунлар” мисолида). Монография. – Истанбул: KESIT, 2019.
109. Носиров Ў. Ижодкор шахс, бадиий услуб, автор образи. – Т.: Фан. – 198 б.
110. Ўзбек фольклори очерклари. – Т.: Фан, 1989. – 317 б.
111. Ўзбек насри тарихидан. – Т.: Фан, 1982. – 195 б.
112. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Ж. 5. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2008. – 592 б.
113. Очилов Э. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. – Т.: Ўзбекистон, 2012. – 136 б.
114. Орипов А. Танланган асарлар. 4 жилдлик. 2-жилд. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 2001.
115. Ойбек Тошмуҳаммад ўғли. МАТ. 19 томлик 18-том. –Тошкент: Фан, 1981. – 328 б.
116. Ойбек Тошмуҳаммад ўғли. МАТ. 19 томлик 3-том. –Тошкент: Фан, 1976. – 264 б.
117. Пастернак Б. Доктор Живаго. – Т.: Шарқ, 2018. – 688 б.

118. Қахҳор А. Асарлар: 5 жилдлик. Ж. 5. Ҳақ сўзнинг кучи. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. – 272 б.
119. Қаюмов Л. Бобур // Шарқ юлдузи, 1983. – № 3-4.
120. Қўшжонов М. Танланган асарлар: Адабий-танқидий мақолалар, эсселар, хотиралар. – Т.: Шарқ, 2018. – 712
121. Қодирий А. Танланган асарлар. – Т.: Шарқ, 2014. – 880 б.
122. Қодиров П. Авлодлар довони. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти. 1989. – 544 б.
123. Қодиров П. Ижодкор бурчи / тележурналист билан мулоқот. Манба: Қалб кўзлари. – Т.: Маънавият, 2001. – 158 б.
124. Қодиров П. Юлдузли тунлар. Бобур. – Т.: Шарқ, 2010. – 448 б.
125. Қосимов Б. Уйғонган миллат маърифати. – Т.: Маънавият, 2011. – 318 б.
126. Қосимов У. Адабиётнинг ҳаётбахш кучи. – Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2008. – 208 б.
127. Қудратуллаев Ҳ. Бобур армони. – Т.: Шарқ, 2009. – 384 б.
128. Қудратуллаев Ҳ. Бобурнинг адабий-эстетик олами. – Т.: Маънавият, 2018. – 272 б.
129. Қуръони карим: маъноларининг таржима ва тафсири / Таржима ва тафсир муаллифи: А.Мансур; таҳрир ҳайъати: Усмонхон Алимов, Раҳматуллоҳ қори Обидов, М.Иброҳимов ва бошқ.; Масъул муҳарри: М.Аҳмаджонов. – Т.: Тошкент Ислон университети, 2009. – 624 б.
130. Қуронов Д. ва бошқалар. Адабиётшунослик луғати. – Т.: Академнашр, 2010. – 368 б.
131. Раҳимжонов Н. Лирикада эпик тасвир қирралари // Адабий турлар ва жанрлар. Уч жилдлик. 1-жилд. – Т.: Фан, 1991.
132. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1978. – 408 б.
133. Раҳмон В. Муҳаммад Солиҳ // Заҳириддин Муҳаммад Бобур энциклопедияси. – Т.: Шарқ, 2014.

134. Раҳмонов В. Бобур қилмаган васият муаммоси. “Заҳириддин Муҳаммад Бобур меросининг Шарқ давлатчилиги ва маданияти ривожда тутган ўрни” мавзусидаги улуслараро илмий-назарий конференция материаллари. – Т.: 2023-йил 25-26-сентябр.
135. Раҳмонов В. Заҳириддин Муҳаммад исми ҳақида. 6-сон. – Т.: Тил ва адабиёт таълими, 2000.
136. Рашбурк В. Ўн олтинчи аср бунёдкори. – Т.: Шарқ, 2011. – 208 б.
137. Расулов А. Бадиийлик – безавол янгилик. –Тошкент: Шарқ. 2007. – 336 б.
138. Саидносирова З. Ойбегим менинг. Хотиралар. – Т.: Шарқ, 1994. – 256 б.
139. Самарқандий А. Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн. – Т.: Ўзбекистон, 2008. – 832 б.
140. Саримсоқов Б. Бадиийлик асослари ва мезонлари. –Т.: 2004. – 127 б.
141. Сайид С. Юз оҳ, Заҳириддин Муҳаммад Бобур. –Тошкент: Ўзбекистон, 2011. – 164 б.
142. Шарафиддинов О. Ижодни англаш бахти. –Т.: Шарқ, 2004. – 640 б.
143. Шарафиддинов О. Ниятим зўр, қасбим – яхшилик. // Тўлан Низомнинг “Ватан сурати” китобига сўнгсўз. – Т.: Гафур Гулом номидаги НМИУ, 2019.
144. Шарма Л. П. Бобурийлар салтанати; ингл. тилидан тарж. – Т.: Маънавият, 1998. – 166 б.
145. Шайхзода М. Асарлар 6 томлик. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 3-том, 1972.
146. Шермухаммедов П. Тарихнинг руҳий муаммоси // Адабиёт ва замон. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. – 400 б.
147. Шиммел А. Бобуршоҳ ва бобурийлар сулоласининг истеъдоди ҳақида // Хорижда бобуршунослик. – Т.: Мумтоз сўз, 2009. – 222 б.
148. Шодиев Э. Муҳаммад Солиҳ // Муҳаммад Солиҳ. Шайбонийнома. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989. – 336 б.
149. Зулфия. Сайланма. – Т.: Академнашр, 2015. – 432 б.

150. Сўзумни ўқуб, англағайсен ўзимни... Ёзувчи Хайриддин Султон ва адабиётшунос Ситора Тождидинова билан суҳбат //Шарқ юлдузи, 2024. – № 6.
151. Солиҳ М. Шайбонийнома (Достон). – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989. – 336 б.
152. Сулаймонов И. Сирожиддин Саййиднинг “Юз ох, Захириддин Муҳаммад Бобур...” достони ҳақида. Бобур абадияти [Матн]: “Захириддин Муҳаммад Бобур асарларининг жаҳон маданияти тарихида тутган ўрни” мавзусидаги халқаро анжуман материаллари. – Т.: Баёз, 2018.
153. Султон И. Адабиёт назарияси. – Т.: Ўқитувчи, 2005. – 392 б.
154. Султон Х. Ҳақиқат жамоли. – Т.: MASHNUR-PRESS, 2019. – 142 б.
155. Султон Х. Саодат соҳили. Бобурийнома. – Т.: Шарқ, 1997. – 416 б.
156. Тафаккур гулшани (В.Воронцов композицияси). – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989. – 464 б.
157. Тимсоллар тилсими. (Рамз, белги ва тимсоллар тасвири) Тузувчи: Дилрабо Мингбоева. – Т.: Янги аср авлоди, 2007. – 179 б.
158. Тўхлиев Б. Захириддин Муҳаммад Бобур ҳаёти ва ижоди: альбом. – Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2012. – 52 б.
159. Умуров Ҳ. Бадиий психологизм ва ҳозирги ўзбек романчилиги. – Т.: Фан, 1983. – 146 б.
160. Вамбери Ҳ. Бухоро ёхуд Мовароуннаҳр тарихи. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1990. – 91 б.
161. Холиёров М. Бадиий портрет // Ўзбек тили ва адабиёти. № 3. 1991. – Т.: Ўзбекистон ССЖ ФА, Фан.
162. Холманова З. “Бобурнома” – тил қомуси. – Т.: Академнашр, 2021. – 336 б.
163. Хондамир Ғ. Ҳабиб ус-сияр фи ахбори афроди башар (Башар аҳли сийратидан хабар берувчи дўст). Форс тилидан таржима, муқаддима муаллифлари: И.Бекжонов, Ж.Ҳазратқулов. – Т.: Ўзбекистон, 2013. – 1272 б.

164. Хорижда бобуршунослик: /тадқиқот, талқин ва мақолалар/ Нашрга тайёрловчи Ҳ. Болтабоев. – Т.: Мумтоз сўз, 2009. – 220 б.
165. Янглиш Эгамова. Камола Раҳмонова. Эл билан мулоқотнинг мумтоз намунаси. Манба: Бобур абадияти: Заҳириддин Муҳаммад Бобур асарларининг жаҳон маданияти тарихида тутган ўрни мавзусидаги халқаро конференция материаллари. 27-28-октябрь, 2017. – Т.: БАЁЗ, 2018. – 384 б.
166. Йўлдошев Б. Бобурий маликалар. – Т.: OSRIP, 2022. – 208 б.
167. Йўлдошев Қ. Сўз ёлқини. – Т.: Фафур Гулом номидаги НМИУ, 2018. – 504 б.
168. Йўлдошев Қ. Ёниқ сўз. – Т.: Янги аср авлоди, 2006. – 548 б.
169. Заҳириддин Муҳаммад Бобур энциклопедияси. – Т.: Шарқ, 2014. – 744 б.
170. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Ж. П. Э – М. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006. – 672 б.

IV. Xorijiy adabiyotlar

171. Aabhas Maldahiyar. Babur: The Chessboard King (vol 1) 2024. Vintage Books.
172. Alex Rut Herford. Empire of the moghul brothers at war. London. Headline review. 2010.
173. Amar Chitra Katha. Babur: The first mughal emperor of India illustrated comic books . India. paperback – 1 January 1977.
174. Annemarie Schimmel. The Empire of the Great Mughals. Reaktion Books. 2006.
175. Audrey Truschke. Culture of Encounters: Sanskrit at the Mughal Court. Columbia university Press. 2016.
176. Beveridge Annette Susannah (ed.). The Babur-nama in English (Memoirs of Babur). – London, 1922. – 880 p.
177. Farzana Moon. Babur, The first Moghul. 2011. Hamilton Books . 2011. P: 260.

178. Gazi Zahiriddin Muhammad Babur. Vekayi. I-II cild. – Ankara, 1944–1946.
179. Ira Mukhoty. Daughters of the Sun: Empresses, Queens and Begums of the Mughal Empire. Audible Studios. 2018.
180. Jadunath Sarkar. The Fall of the Mughal Empire. Ams Press. 1972.
181. Munis Faruqi. The Princes of the Mughal Empire, 1504–1719. 2015.
182. Nandini Chatterjee. Negotiating Mughal Law. A Family of Landlords across Three Indian Empires 978-1108736961. 2022.
183. Royina Grewal. Babur: Conqueror of Hindustan. Rupa Publications. 2015.
184. Stil A.S. King-Errant. New York F.A.Stokes company publishers, 1912. – 187 p.
185. The History of Humayun by Gulbadanbegim. Translation by A.S.Beveridge. – London, 1902. – 144 p.
186. William Dalrymple. The Last Mughal Vintage. 2008. 344 p.
187. Бахтин М.М. Автор и герой: к философским основам гуманитарных наук. – СПб.: Азбука, 2000. – 332 с.
188. Белинский В.Г. Пол. собр. соч. Т. 5, – М., 1955.
189. Кузнецова Е. Образ автора, герой-рассказчик и повествователь в романах Гайто Газданова // <https://rep.herzen.spb.ru/publication/5267>
190. Прангишвили А.С. Фольклор и психология /Проблемы фольклора. – М. Наука, 1975. – 230 с.
191. Советский энциклопедический словарь. – М.: Сов. энциклопедия, 1989.
192. Советский энциклопедический словарь. – М.: Советская энциклопедия, 1990. – 1630 с.
193. Тимофеев Л. И. Основы теории литературы. – М.: Просвещение, 1971. – 461 с.
194. Бартольд В.В. Сочинения. Том II, часть 2. Работы по отдельным проблемам истории Средней Азии. – М.: Наука, 1964. – 661 с.

V. Dissertatsiya va avtoreferatlar

195. Абдуллаева М.Д. “Бобурнома” ва “Шажараи турк”нинг қиёсий-типологик таҳлили. Филол. фанлари номзоди... дисс. автореф. – Самарқанд, 2004. – 148 б.
196. Бобожонова Ш.Ш. Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг ижтимоий-ахлоқий қарашлари. Фалсафа фанлари номзоди...дисс. //ЎзФА И.М.Мўминов номидаги фалсафа ва ҳуқуқ институти. – Т., 2002. – 165 б. (Библиогр. – Б. 172).
197. Ҳазратқулова Э. Адабий-тарихий асарларда бадиий ижод масалалари (“Бобурнома” ва “Тарихи Рашидий” асосида). Фил. фан. бўйича фал. док. (PhD) дисс. – Т., 2022. –52 б.
198. Ҳошимова Д.М. “Бобурнома” асарининг танқидий матнини яратиш муаммолари ҳамда “Бобурнома” танқидий матнининг япон нашрлари мисолида. Филол. фан. номзоди...дисс. // ЎзР. Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги. Мирзо Улуғбек номидаги ЎзМУ. – Т., 2006. – 146 б
199. Ҳусанбоев О.О Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг сиёсий ва ҳуқуқий қарашлари. Юридик фан. номзоди... дисс. // ЎзР Адлия вазирлиги, Тошкент давлат юридик институти. – Т., 2006. – 132 б.
200. Иброҳимов А.П. “Бобурнома”даги ҳиндча сўзлар тадқиқи. Филол. фан. номзоди дисс... автореф // Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги. Тошкент давлат шарқшунослик институти. – Т., 2001. – 54 б.
201. Жабборов И. Абдулла Орипов шеърлятида шахс концепсияси ва лирик қаҳрамон масаласи: Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. – Т., 2008. –56 б.
202. Жамолов С.“Бобирнома”нинг бадиий хусусиятлари. Филол. фанлари номзоди дисс... автореф. – Т., 1961. – 36 б.
203. Жиянова Н.Э. “Бобурнома”даги нумеративларнинг маъно хусусиятлари: филол. фанлари номзоди дис... автореф. – Т., 2000. 58 б.

204. Камолов И. Тарихий-бадий манбаларда Бобур образи талқинига биографик ёндашув. Фил. фан. бўйича фал. док. (PhD) дисс. Қарши – 2022. – 152 б.
205. Каримов Р. “Бобурнома”даги шеърлар хорижий таржималарининг қиёсий таҳлили. Филол. фан. номзод...дисс. – Тошкент, 2003. – 128 б.
206. Қудратуллаев Ҳ. “Бобурнома”нинг адабий-тарихий ва услубий таҳлили: доктор. илм. дар.. дисс. – Тошкент, 1998. – 252 б.
207. Раҳматов Й. Тарихий дostonларда тарихий шахс образининг эпик талқини (“Ойчинор” ва “Шайбонийхон” дostonлари мисолида). 10.01.09. – Фольклоршунослик. Фил. фан. ном. дисс. Тошкент – 2009. – Б. 48.
208. Ражабова Д. Захириддин Муҳаммад Бобур маснавийлари бадиияти ва маърифий қиммати. Фил. фан. ном. дисс. Самарқанд: 2005. – 127 б.
209. Расулзода Н. Захриддин Муҳаммад Бобурнинг “Мубаййин” асари ва унинг текстологик тадқиқи. Филол. фан. номзоди... дисс. автореферати. // Ҳ. Сулаймонов номидаги қўлёзмалар институти. – Т., 1935.
210. Собиров М. “Бобурнома”нинг инглизча таржималарида муаллиф услуби ва бадииятини қайта тиклаш муаммолари (Лейден, Эркин, Бевериж ва Текстон таржималарининг қиёсий таҳлили асосида). Филология фанлари номзоди дисс...// ЎзФА, Алишер Навоий номидаги Тил ва адабиёт институти. – Т., 2002. – 124 б.
211. Сулоймонов И. “Бобурнома”да ғолиб ва мағлуб шахс руҳий ҳолатининг бадий тасвири. Филология фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун диссертацияси автореферати. – Самарқанд, 2020. – 69 б.
212. Холманова З.Т. “Бобурнома” лексикаси тадқиқи. Филология фанлари доктори... дис. автореферати: 10.02.01 // Алишер Навоий номидаги тил ва адабиёт институти. – Тошкент, 2009. – 62 б.
213. Холмуродов А. Ўзбек қиссачилиги: тараққиёт муаммолари (XX аср сўнгги чораги). Филология фанлари доктори диссертацияси. – Т., 2008. – 291 б.

214. Юлдашев Т.Қ. Навоий ва Бобурнинг ислом фарзларига бағишланган асарларидаги шаръий атамаларининг лисоний таҳлили. Филол. фанлари номзоди дисс... автореф. //ЎЗР. Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги. ТДШИ. – Т., 2003. – 48 б.
215. Азимджанова С.А. Государство Бабура в Кабуле и в Индии (социально-экономическая политика Бабура в первой трети XVI века). Автореферат дисс... д-ра инс. наук. – Т., 1969. – 60 с.
216. Атаджанов Н. Художественный перевод и научное комментирование: на материале переводов «Бабурнаме». Дисс. канд... филол. наук. –Т., 1978. –156 с.
217. Назарова Х. Синтаксический строй языка «Бабурнаме» Захириддина Мухаммеда Бабура: дисс. на соискание доктора фил. наук. –Т., 1979. –380 с. С табл. // Пед. институт им. Низами.
218. Пардаева З.Д. Художественная интерпретация исторических личностей в русской и русско-язычной литературе Узбекистана. Дисс. кандидата филологических наук. – Т., 1995. – 147 с.
219. Салимова Ф. Лексикографические и текстологические характеристики «Восточно-тюркского словаря» Павел де Куртейла и переводов «Бабурнаме». Автореферат дисс... канд. филол. наук. –Т., 1997. –26 стр.
220. Хасанов С. Трактат Бабура об арузе. Автореф. дисс. на сосик. канд. филол. наук. –Т.: Фан,1972. // СамГУ. Список раб.авт. 5 назв.
221. Ходжаева Л.У. Проблемы перевода: характер, стиль и интерпретация текста «Бабурнаме». Литературоведческий аспект. Автореф. дисс. канд. филол. наук. –Андижан, 1985. – 36 стр.
222. Шукуруллаева С. Воссоздание художественного своеобrazia «Бабурнаме» в его английских переводах [English] (Дж.Лейдена, У.Эрскина и А.Беверидж). Автореф. дисс. канд. филол. наук. –Т., 1989. –32 стр.

VI. Internet manzillari

223. <http://www.literature.uz>
224. <http://www.quronov.narod.ru>

225. <http://www.ziyonet.uz>
226. <http://www.ziyouz.com> kutubxonasi
227. <https://diss.natlib.uz>
228. <https://islom.uz>
229. <https://lex.uz>
230. <https://tarix.sinaps.uz/hodisa/xondamir/>
231. <https://unilibrary.uz/>
232. <https://www.adabiyot.uz>
233. <https://www.edu.uz>
234. <https://www.google.co.uz>
235. <https://www.scopus.com>

ILOVALAR

1-ilova

BOBUR MIRZO³⁶⁷. “BOBURNOMA”. 1519-YIL.	ABDULLA QODIRIY³⁶⁸. “O‘TKAN KUNLAR”. 1919-YIL.
<p>1. ...bu tarixda andoq iltizom qilinibturkim, har so‘zning rostini bitilgay va har ishning bayoni voqi‘ini tahrir etilgay. (“Boburnoma”)</p>	<p>5. Men biror joy to‘g‘risida asar yozmoqchi bo‘lsam, o‘sha joyni avval necha marataba ko‘rganim esam-da, yana borib tekshirib, yaxshiroq o‘rganib kelaman... men turmushda ko‘rmagan, bilmagan narsam haqida hech narsa yozmayman. (“Yozuvchi ijodi to‘g‘risida”)</p>
<p>2. Mundin burun yaxshi va yomon, jid va hazm harne xotirg‘a yetsa edi, mutoyaba tariqa bila gohi manzum bo‘lur edi... xotiri fotirg‘a xatur etti va hazin ko‘ngilga mundoq yettikim hayf bo‘lg‘ay ul tildinkim mundoq alfozni darj qilg‘ay... (“Boburnoma”)</p>	<p>6. Yaxshi bilish kerakkim, qalam o‘qlog‘i va matbuot ketmon bozori emas. Yo‘sinsiz ravishda xotirg‘a kelgan har bir so‘zdan jumlar to‘qimoq fazilat sanalmaydir. So‘z qolip, fikr uning ichiga quyilg‘an g‘isht bo‘lsin. (“Yozishg‘uvchilarimizg‘a”)</p>
<p>7. Takalluf qilay deysan, ul jihattin mug‘laq bo‘ladur. Bundin nari betakalluf va ravshan va pok alfoz bila biti; ham senga tashvish ozroq bo‘lur va ham o‘qig‘uvchig‘a. (“Boburnoma”)</p>	<p>3. So‘z so‘ylashda va ulardan jumla tuzishda uzoq andisha kerak, yozg‘uchining o‘zigina tushunib boshqalarning tushunmasligi katta ayb. Asli yozg‘uchilik, aytmakchi bo‘lgan fikrini hamma barobar onglata bilishda, orag‘a onglashilmovchilik solmaslikdadur. (“Yozishg‘uvchilarimizg‘a”)</p>
<p>4. Yana Sayfiy Buxoriy edi... Bir forsiy aruzi bor. Bisyor kamsuxandur. Kamsuxan bu ma‘ni bilakim, keraklik nimalarni bitimaydur. Pursuxan bu ma‘niy bilakim, ravshan va zohir kalimalarni nuqta va i‘robig‘acha bitibtur. (“Boburnoma”)</p>	<p>8. Mayda hikoyalar ustasi Chexov so‘z to‘g‘risig‘a kelganda haddan tashqari xasis, ortiqcha so‘zlar sarf qilish u yoqda tursin, kerakliklaridan ham mumkin qadar yulishga harakat qiladi. “Buqalamun” hikoyasidan biron so‘zni chiqarib tashlash yoki biron so‘zni qo‘shish mumkin bo‘lmaganligi, so‘zga naqadar diqqat qilg‘anlig‘ini ko‘rsatadi. (“O‘qish – o‘rganish”)</p>

³⁶⁷ Bobur, Zahiridin Muhammad. Boburnoma. – T.: Sharq, – B. 151, 185, 244, 139.

³⁶⁸ Qodiriy, A. Tanlangan asarlar. – T.: Sharq, 2014. – B. 813, 676, 677, 846.

Ul tabaqa tutumi (Movarounnahr)	Bobur Mirzo tutumi (Kobul)
...taxt va mulk va navkar va savdardin ayrilib, alarg'a iltijo etdim...	Ul tabaqadin har kimki mening sarvaqtimg'a tushti, ilgimdin kelgancha tuqqonliq va yaxshiligni bajo kelturdim.
...onam ham bordi, hech nav' rioyate va shafqate ko'rmaduk.	...Shohbegim keldilar. Pamg'onnikim, Kobulning a'lo yerlaridindur berdim. Yana har nav' farzandliq va xizmatkorliqta taqsire qilmadim.
Mening inim Mirzoxonning va onasi Sulton Nigorxonimning ayn va ma'mur viloyatlari bor edi...	... men va onam viloyat xud tursun, bir kent va bir necha qush egasi bo'la olmaduk. Mening onam Yunusxon qizi va men nabirasi emasmu edim?
... ul tabaqadin... Chin Temur Sulton va Esan Temur Sulton va To'xta Sulton va Bobo Sulton bu tarixda mening qoshimdadurlar.	Har kimki keldi, o'z tuqqonlarimdin yaxshiroq ko'rib, rioyat va shafqatlar qilibturmen.

O'zbek adabiyotida Bobur Mirzo obrazi talqini tadriji




Bobur Mirzo siymosi aks etgan mumtoz tarixiy-adabiy asarlar

Asar nomi	Asar muallifi
“Habib us-siyar fi axbori afrodi bashar”	G‘iyosiddin ibn Humomiddin Xondamir
“Tarixi Rashidiy”	Muhammad Haydar Mirzo Dug‘lat
“Shayboniynoma”	Muhammad Solih
“Humoyunnoma”	Gulbadanbegim
“Muzakkiri ahbob”	Hasanxoja Nisoriy
“Musaxxir al-bilod”	Muhammadyor ibn Arab Qatag‘an
“Abdullanoma” (“Sharafnomayi shohiy”)	Hofiz Tanish Buxoriy

Bobur Mirzo siymosi aks etgan asarlar (XX asr)

Asar nomi	Janri	Muallifi
“Bobur”	doston	Oybek
“Kun vat un”	doston	Barot Boyqobilov
“Uch so‘z”	doston	To‘lan Nizom
“Yulduzli tunlar”	roman	Pirimqul Qodirov
“Avlodlar dovoni”	roman	Pirimqul Qodirov
“Saodat sohili”	qissa	Xayriddin Sulton
“Tavajjuh”	doston	Asqar Mahkam
“Boburiynoma”	ma’rifiy roman	Xayriddin Sulton
“Boburning tug‘ilishi”, “Oy botgan pallada”	hikoya	Xayriddin Sulton
“Boburning tushlari”	esse	Xayriddin Sulton
“Hind sorig‘a”	safarnoma	Qamchibek Kenja

“Saodat sohili” qissasida tragik mohiyat



Muallif Bobur Mirzo e'tirofidagi maskanlar

Joy nomi	Bobur Mirzo e'tirofi
Dizak (Jizzax)	“semiz etlar va mayda etmaklar arzon, chuchuk qovunlar va yaxshi uzumlar farovon. Andaq usrattun mundoq arzonliq va andoq baliyattin mundoq amonliqqa kelduk. O'lum dag'dag'asi xotirdin raf' bo'lub, ochlik shiddati eldin daf bo'ldi. umrumizda muncha farog'at qilmaydur eduk”.
Yakka o'lang	“Yakka o'lang eli biz kelib tushganda – o'q xabar toptilar. Issiq uylar, semiz qo'ylar, otqa o't va va borsu benihoyat, o't yoqmoqqa o'tun va tezakka ne had va ne g'oyat, andoq sovuq va qordin qutulib, mundoq keng va issiq uylar topmoq, andoq mashaqqat va balodan xalos bo'lub, mundoq qalin non va semiz qo'ylar topmoq huzuredurkim, mundoq mashaqqatlarni ko'rganlar bilur, farog'atedurkim, mundoq balolar kechurganlar fahm qilur”.
Kobul	“Kobul viloyatini xolisa qildim, o'g'lonlaridan hech kim tama' qilmag'aysiz... Bizning ehtimomimiz ul sarilar bormoqqa behad va beg'oyattur. Hindiston ishlari ham bir nav' somon topib keladur. Tengri taolodin umid andoqdurkim, bu oraning ishi Tengri taolo inoyati bila bot saranjom topqay. Bu ish zabtidin so'ng betavaqquf, Tengri yetkursa mutavajjih bo'lg'umdur. U viloyatlarining latofatlarini kishi nechuk unutqay”.

“Boburnoma”da muallif obrazi tadqiqi

